



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/5

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 5, 2023
May

<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 29.05.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etiladi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Ergashev J. Yu. Sardobalarning xizmat ko'rsatish tizimidagi ahamiyati	7
	Hasanova N. N. Mustaqillik yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar	12
	Kazakova M. D. O'zbekistonda gender tengligining qonunchilik asoslari va uning takomillashtirilishi	15
	Курбонова М. Б. Дўппи миллийлик тимсоли сифатида	20
	Ochilov A. T. The history of archeological research in bukhara Oasis	25
	Шамсиева З. А. Бухоро воҳаси никоҳ тўйи тизимида совчилик удумлари: анъанавийлик ва замонавийлик	31
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Abdullaeva G. V., No'monova R. N. Lof she'rlar poetikasi va ularning badiiy-estetik funksiyasi	36
	Айтбаев Д. Т. Ўзбек тилида полисемик кўшма гаплар тадқиқи	43
	Bakiyeva X. S. Ot so'z turkumini o'rgatishda media vositalaridan foydalanish	46
	G'ulomova X. Til sathlarini o'rgatish orqali orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalarni shakllantirish	50
	Kuchkarova J. Maqollarni tipologik usullarda o'rganish va o'zbek, qozoq, rus tilidagi maqollarning tahlili	54
	Нурматова Ш. А. Хитой халқ оғзаки ижодида эрттак жанри хусусиятлари (XX ва XXI аср бошлари)	58
	Parmonova N A. A history of women's prose in english literature	63
Қобилова А. А. Ўзбек болалар шеърлятида юморнинг лингвопоэтик ва коммуникатив хусусиятлари	67	
Рўзиева М. Ё. Адабиётда рамз тушунчаси ва ранг символикаси	72	
Садыкова Р. Р. Совершенствование информационной культуры при изучении русского языка	76	
Umarova F. B. Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazi evolutsiya bosqichlari	80	
Xalilova M. T. Yozma diniy matnlarning o'ziga xos funktsional-semantik belgilari	84	
Xalimova F R. Poetik matnda konseptual metaforaning faollashuvi	89	
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI		
Abdirimova I. K. Loyiha faoliyatini ta'limda qo'llash usullari	93	

Abdullaev Q.F. Tarbiya jarayonining vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari	96
Abdullayev I. X. Maxsus trenajerlar va mashklardan foydalanish asosida yunon-rim kurashchilarning egiluvchanligini rivojlantirish texnologiyasi	100
Abduraxmanov SH. N. O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlikka tayarlashning o'ziga xos xususiyatlari	104
Axatkulov A. A. Dasturiy ta'lim vositalari talabalar ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini shakllantirish vositasi sifatida	107
Axmedov A.A. Xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida oilaviy qadriyatlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati	112
Axmedov M. Y. Халк таълими тизимида таълим сифати мониторингини амалиётга жорий этиш технологияси	118
Axmetova K. I. Организационно-педагогические условия реализации мониторинга и оценки эффективности процесса повышения квалификации	124
Bobomurodova N. J. Ekologiya darslarida interfaol mashqlar va topshiriqlardan samarali foydalanish shart-sharoitlari	130
Davidov B. B. 15-16 yoshli futbolchilarni maxsus chidamliligini rivojlantirish	135
Haydarov B. T. 4-7 yoshli bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy vositalar asosida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	139
Jo'rayeva N O'. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari	144
Jumaniyozova M. T. Oliy ta'lim jarayonida Flipped classroom texnikasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	148
Kimsanboev J. A. Malakali dzyudochilarning kombinasion va taktik harakatlarini individuallashtirish jarayonini boshqarish texnologiyasi	154
Kurbanova G. Дж., Курбанова А. Дж. Использование метода кейс-стади в развитии интеллектуальных способностей студентов на занятиях биохимии	158
Mamatova A. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish tizimi	164
Mamurova D. I., Shukurov U. J. O'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashda sharq olimlarining pedagogik qarashlari	167
Masharipova U. A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion madaniyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni	172
Mamanazarova N. K. Умумий ўрта таълим муассасалари маркетинг фаолияти самарадорлигини баҳолаш	178
Musayev A. Sh. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning dolzarbligi	186
O'ralov S. M. Ta'lim jarayoni subyektlari kompetentligining ta'lim sifatidagi ahamiyati	190
Pirniyozova III. O. Бошланғич синф она тили дарсларида мотивация	195
Quljanov N. J. Dasturiy ta'minot majmuasi orqali informatika fanini o'qitishga oid tadqiqotlar tahlili	199
Raxmatullayeva A. Q. Umumta'lim maktablarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish	203
Raxmonov O. M., Abdumannopov M. I. Virtual texnologiyalar yordamida bo'lajak informatika o'qituvchisining shaxsiy kompetentligini oshirish modeli	208
Yunusov O. F. Akademik xonandalik san'atining rivojlanishi va tarixiy taraqqiyoti	215
Рсалиев А. Т. Использование дидактических игр как средство развития эффективного обучения	219
Sanakulov H. R. STEAM o'quvchiga nima beradi?	224
Sidiqova D. Sh. Talabalarning kasbiy kompetentligi takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari	232
Toshtemirova S. A. Tarix fanlarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi asosida o'qitish samaradorligi	236
Tugalov F. Q. Fizikani tabiiy fanlararo aloqadorlikda o'qitishda talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	243

Tuzikenova J. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishning ahamiyati	247
Urazbaeva Dilnoza Ruzimbaevna O'quvchilarda chet tilini o'rgatishning ijtimoiy pedagogik- psixologik xususiyatlari	251
Умаров Б. Ж. Талабаларда маънавий-маърифий ишлар жараёнида миллий тафаккурини шакллантириш	255
Ҳасанова Н. И., Курбанова А. Д. Биология yo'nalishi talabalariga analitik kimyoni o'qitishda o'ziga xos yondoshish	259
Хо'jamqulova N. R. EGRA tadqiqotini tashkil etish va topshiriqlarini tayyorlash namunalari	264
Хабибова Г. Г. Мактабгача таълимни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари	269
Eshonkulova G. Yu. O'zbek auditoriyasining talabarlari uchun ingliz tili darsliklarida antroposentrik maqollarning o'rni va ahamiyati	273
Ismailova M. The role of communicative-active approach in developing strategic competence of students through problem-solving technology	278
Yakupova Z. A. Ingliz tilini o'qitishda post metod metodikasini ta'limda qo'llash	283
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Abdullayeva D. U. Ota-ona va farzand o'rtasidagi destruktiv munosabat bolalarda agressiv xulq shakllanishi omili sifatida	287
Abdurasulov R. A. Motivatsiyani o'rganishda motivatsion konsepsiyalarining ahamiyati	291
Avlayev O. U. Shaxs kamolotida intellektual faoliyatining individual-tipologik farqlari	295
Askarova N. A. Yaqin kishisini yo'qotgan bolalar va o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatishning o'ziga xosligi	300
Buriyeva K. E., Mirkosimova H. M. O'smirlarni mustaqil fikrlash jarayonining psixologik asosi	305
Hakimova F. X. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda moslasha olmaslik xususiyatlaridan tortinchoqlikning turli ko'rinishlari	308
Ismatova D. T. Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili	312
Jabborova M. A. Talabalar akademik o'zlashtirishining nazariy-metodologik talqini	317
Jalilov H. N. Oila va kasb muvozanatining professor-o'qituvchilar ish samaradorligiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	325
Madrimova F. B. Yoshlarda musiqiy qobiliyatlar namoyon etilishining psixologik imkoniyatlari	332
Ostanov Sh. Sh. Kreativlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	337
Пронин Р. О. Актуальность исследований зрительных иллюзий	341
Qarshiyeva D. S. Umumta'lim maktablari pedagoglarida kasbiy stress va refleksivlik orasidagi aloqadorlik	344
Ravshanova M. M. Talabalarda ekonometrika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati	350
Раджабова З. М. Шахсада касбий англашни шаклланиши	354
Sattarova Sh. Q. Talabalik yoshida pozitiv tafakkurni rivojlantirishning xususiyatlari	357
Turaqulov L. T. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi muammosining nazariy tahlili	364
Shamshetova Anjim Karamaddinovna Orolbuyi mintaqasi aholisining ijtimoiy-psixologik ahvoli	368
Rasulova F. F. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarga psixologik xizmatni tashkil etish	372
Maxmudova D. A. Odam savdosi jabrdiydalarida xavotirlanishni qaror qabul qilish xususiyatlariga ta'sirining psixologik xususiyatlari	377
Akramov M. R. Axloqiy ong va tabiatga munosabat o'rtasidagi o'zaro koppelatlar psixologiyasi	383
Turgunov A. A. Dermatoglyphics	389
Toshboltayeva N. I. Yoshlar bilish faolligini taraqqiyotida ta'limning o'ziga xosligi	393



Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

- Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori
Majidov Inom Urushevich, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti.
Olimov Qahramon Tanzilovich, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersman nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali
Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Musurmonova Oyniso, pedagogika fanlari doktori, professor
Safarova Rohat G'aybulloyevna, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor. O'zbekiston jaxon tillari universiteti

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

- Artamonova Yekaterina Iosifovna*, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti
Yemlyanova Irina Yevgenyevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti. Rossiya
Kuzmenko Galina Anatolevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti
Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi
Kulishov Vladimir Vasilevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina
Lazarenko Irina Rudolfovna, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya
Filippova Oksana Gennadevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti. Rossiya
Xristo Kyuchukov, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya
Kumskov Mixail Ivanovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti
Maksimenko Sergey Dmitriyevich, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi
Padalka Oleg Semenovich, pedagogika fanlari doktori, professor; M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina
Hazretali Tursun, tarix fanlari doktori, professor; Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori
Mamedova Irada, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i
Timur Xo'jao'g'li, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)
Nurettin Hatunoglu Doç. Dr. Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)
Mullodjanov Sayfullo Kuchakovich, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti
Gushko Sergey Vladimirovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

O'ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

- Inoyatov Sulaymon Inoyatovich*, tarix fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti
Rajabov Qahramon Kenjayevich, tarix fanlari doktori, professor; O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi
Rashidov Oybek Rasulovich, tarix fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI

- Madjidova Ra'no Urishevna*, filologiya fanlari doktori, professor; O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sharipova Laylo Frunzeyevna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti
Yusupova Hilola O'ktamovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doyrtori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

PEDAGOGIKA FANLARI

- Tolipov O'tkir Qarshiyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti
Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Tilavova Matlab Muxammadovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Sohibov Akram Rustamovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti
Umarov Baxshullo Jo'rayevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Hasanova Gulnoz Qosimovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti
Inoyatov Abdullo Shodiyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti

PSIXOLOGIYA FANLARI

- Umarov Baxriddin Mingbayevich*, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti
Bafayev Muxiddin Muxammadovich, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

IQTISODIYOT FANLARI

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori
Mamanazarov Abdulkakim Bozorovich, iqtisodiyot fanlari fan nomzodi, dotsent. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

FALSAFA FANLARI

- Namozov Bobir Bahriyevich*, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

SIYOSIY FANLAR

- Jumayev Rustam G'aniyevich*, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

BIOLOGIYA FANLARI

- Artikova Hafiza To'yumurodovna*, biologiya fanlari doktori, dotsent. Buxoro davlat universiteti

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

- Джураев Рисбой Хайдарович*, доктор педагогических наук, академик АНРУз
Шамсутдинов Рустамбек Темирович, профессор Андижанского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук
Мажидов Ином Урушев, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека
Олимов Кахрамон Танзилевич, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена
Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович, доктор технических наук, профессор
Мусурмонова Ойнисо, доктор педагогических наук, профессор
Сафарова Рохат Гайбуллоевна, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

- Артамонова Екатерина Иосифовна*, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук
Емельянова Ирина Евгеньевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия
Кузьменко Галина Анатольевна, доктор педагогических наук, профессор, Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья
Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии
Кулишов Владимир Васильевич, доктор педагогических наук, профессор, Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина
Лазаренко Ирина Рудольфовна, доктор педагогических наук, профессор, Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия
Филлипова Оксана Геннадьевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, Россия
Христо Кючук, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия
Кумсков Михаил Иванович, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
Максименко Сергей Дмитриевич, академик, доктор психологических наук, профессор. Академик Национальной академии педагогических наук Украины
Падалка Олег Семенович, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина
Хазретали Турсун, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави
Мамедова Ирада, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана
Тимур Хужаугли, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)
Nigetin Natipoglu, Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)
Муллоджанов Сайфулло Кучакович, доктор исторических наук, профессор, Национальный университет Таджикистана
Гушко Сергей Владимирович, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

- История**
Иноятлов Сулаймон Иноятвич, доктор исторических наук, профессор, Бухарский государственный университет
Раджабов Кахрамон Кенжаевич, доктор исторических наук, профессор, ведущий научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана
Ойбек Расулович Рашидов, доктор исторических наук, Бухарский государственный университет
- Филология**
Маджидова Рано Уришевна, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков
Шарипова Лайло Фрунзеевна, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет
Нигматова Лолахан Хамидовна, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет
Юсупова Хилола Уктамовна, кандидат филологических наук, доцент, Бухарский инженерно-технологический институт
Рузиева Мохичехра Якубовна, доктор философских наук, доцент, Бухарский государственный университет
- Педагогика**
Толипов Уткир Каршиевич, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный университет
Джураев Хусниддин Олтинбаевич, доктор педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Тилавова Матлаб Мухаммадовна, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, PhD по педагогическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет
Сохибов Акрам Рустамович, кандидат педагогических наук, доцент, Каршинский государственный университет
Умаров Бахшулло Джураевич, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Хасанова Гулноз Касимовна, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Иноятлов Абдулло Шодиевич, доктор философских наук (PhD) в области педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
- Психология**
Умаров Бахриддин Мингбаевич, доктор психологических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет
Бафеев Мухиддин Мухаммадович, PhD по психологическим наукам, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
- Экономика**
Куролов Кобулжон Кулманович, доктор экономических наук, профессор, Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова
Маманазаров Абдухаким Бозорович, кандидат экономических наук, доцент, Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
- Философия**
Намозов Бобир Багриевич, доктор философских наук, Бухарский государственный университет
- Политика**
Джумаев Рустам Ганиевич, доктор философии (PhD) по политическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет
- Биология**
Артикова Хафиза Тоймуродовна, доктор биологических наук, доцент, Бухарский государственный университет

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL**

- Djuraev Risboy Haydarovich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences
Majidov Inom Urushevich, Doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.
Olimov Kahramon Tanzilovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen
Tadjikhodjaev Zokirkhoja Abdusattorovich, Doctor of Technical Sciences, Professor
Musurmonova Oyniso, doctor of pedagogical sciences, professor
Safarova Rohat Gaybulloevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.
Ibragimov Kholboy Ibragimovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbekistan University of World Languages

MEMBERS OF EDITORIAL COUNCIL

- Artamonova Ekaterina Iosifovna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences
Emelyanova Irina Evgeneevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia
Kuzmenko Galina Anatolevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health
Safaraliev Bozor Safaralievich, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy
Kulishov Vladimir Vasilevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine
Lazarenko Irina Rudolfovna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia
Filippova Oksana Gennadevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia
Christo Kyuchukov, Doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Kumskov Mikhail Ivanovich, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Maksimenko Sergey Dmitriyevich, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine
Padalka Oleg Semenovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine
Hazretili Tursun, Doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Timur Khuzhaugli, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Nurettin Hatunoğlu Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, Doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Gushko Sergey Vladimirovich, Doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN**History**

- Inoyatov Sulaimon Inoyatovich**, Doctor of Historical Sciences, Professor. Bukhara State University
Rajabov Kakhramon Kenjayevich, Doctor of Historical Sciences, Professor, Leading Researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rashidov Oybek Rasulovich, Doctor of Historical Sciences. Bukhara State University

Philology

- Majidova Rano Urishevna**, Doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages
Sharipova Laylo Frunzeyevna, Professor, Doctor of Philology. Bukhara State University
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, Doctor of Philology. Bukhara State University
Yusupova Khillola Oktamovna, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute
Ruziyeva Mohichehra Yakubovna, Doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State University

Pedagogy

- Tolipov Utkir Karshiyevich**, Doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
Olimov Shirinboy Sharofovich, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University
Jurayev Khusniddin Oltinbayevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Tilavova Matlab Muhammadovna, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Dilova Nargiza Gaybullayevna, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Sohibov Akram Rustamovich, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University
Umarov Bakhshullo Djurayevich, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Khasanova Gulnoz Kasimovna, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State University
Inoyatov Abdullo Shodievich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

Psychology

- Umarov Bakhridin Mingbayevich**, Doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University
Bafayev Muhiddin Mukhamadovich, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Economy

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, Doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Mamanazarov Abdulkhakim Bozorovich, candidate of economic sciences, associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

Philosophy

- Namozov Bobir Baxriyevich**, Doctor of Philosophy. Bukhara State University

Politics

- Djumayev Rustam Ganiyevich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

Biology

- Artikova Khafiza Tuymurodovna**, Doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University



07.00.00 – TARIX FANLARI

SARDOBALARNING XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Ergashev Jahongir Yunus o‘g‘li
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) Buxoro

THE SIGNIFICANCE OF SARDOBAS IN THE SYSTEM OF RENDERING SERVICES

Ergashev Jahongir Yunus o‘g‘li
doctor of philosophy in historical sciences (PhD) Bukhara

ЗНАЧЕНИЕ САРДОБ В СИСТЕМЕ ОБСЛУЖИВАНИЯ

Эргашев Жахонгир Юнус угли
Доктор философии по историческим наукам (PhD) Бухара

Резюме: Maqolada Buxoro xonligi hududi bo‘ylab o‘tgan karvon yo‘llari bo‘yida joylashgan sardobalar, ularning qurilish arxitekturasi, sardobalarda xizmat ko‘rsatish tartibi, xavfsizlik masalalari bilan bog‘liq ma‘lumotlar tarixiy manbalar va adabiyotlardagi ma‘lumotlar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sardoba, peshtoq, chuchuk suv, quduq, yo‘l, yo‘lbo‘yi inshooti, karvon yo‘li, hovuz, gidrotexnik inshoot, kechuv, g‘ishtli zinapoya, tuynuk, “qir” qorishmasi.

Аннотация: статье освещаются данные связанные с сардоба, располагавшихся вдоль торговых путей проходивших через территорию Бухарского ханства, а также вопросы их строительной архитектуры, порядка обслуживания и безопасности на основании исторических источников и литературы.

Ключевые слова: сардоба (хранилище для воды), портал, пресная вода, колодец, дорога, сооружение вдоль дороги, караванный путь, водоем, гидротехническое сооружение, переход, кирпичная лестница, отверстие, смесь глины

Summary: The article discusses the data related to the sardoba, located along the trade routes passing through the territory of the Bukhara Khanate, as well as questions of their building architecture, order of maintenance and security based on historical sources and literature.

Keywords: sardoba (water storage), portal, fresh water, well, road, building along the road, caravan route, reservoir, hydraulic structure, passageway, brick staircase, hole, clay mixture.

Ko‘pgina Osiyo mamlakatlari qatori Respublikamizda ham chuchuk suvga bo‘lgan talab azaliy muammolardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyoning keskin kontinental qurg‘oqchil iqlim sharoiti uchun o‘ziga xos qurilish bo‘lgan gidrotexnik inshootlar-ko‘priklar, to‘g‘onlar, bandlar, osma quvurlar qatorida qor yomg‘ir suvlari to‘planadigan suv omborlari-sardobalardan ham keng foydalanilgan. Sardoba so‘zi forscha “sard”-muzdek va “ob” suv so‘zlarining birikmasidan yasalgan bo‘lib, sardobadan nomining o‘ziyoq bu inshoot suvni saqlash uchun xizmat qilishini ko‘rsatib turibdi. Ilmiy ma‘lumotlar Markaziy Osiyoda sardobalarning eng qadimgilari IX-X asrning boshlaridan paydo bo‘lganligini ko‘rsatmoqda[1:91]. O‘zbekiston hududidagi hozirgacha saqlanib kelayotgan sardobalar asosan XIV-XIX asrlar oralig‘ida qurilgan[2:12].

O‘zbekiston hududidagi so‘nggi o‘rta asrlarga oid davlatlardan Buxoro xonligi XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoning katta hududlarini o‘z ichiga olgan yirik davlat bo‘lib, sardobalar mamlakatdagi turli hududlarni o‘zaro bog‘lashda savdosotiq aloqalari muhim o‘rin tutgan. Iqtisodning muhim tarmog‘i bo‘lgan savdosotiq xonlikning turli hududlari orasidagi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni

ta'minlashda, o'zaro bog'liqlikka ega yagona iqtisodiy tizimni shakllantirishda, ichki va tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirishda asosiy o'rin tutgan tuzilma sifatida muhim ahamiyat kasb etardi. Savdo aloqalari xonlikning yirik shaharlari va savdo markazlarini o'zaro bog'lovchi karvon yo'llari orqali amalga oshirilib, bu tizim faoliyatida tegishli infratuzilmalar va yo'lbo'yi inshootlarining mavjudligi talab etilardi.

Xonlikning katta qismini cho'l va sahrolar tashkil etib, bu hududlar orqali o'tgan karvon yo'llar faoliyatini yo'lga qo'yish Markaziy hukumatning doimo diqqat-e'tiborida turgan. Shu o'rinda issiq iqlimli mintaqamizda ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qilgan bu gidrotexnik inshootlardan biri sardobalar, ularning arxitekturasi, vazifasi, savdodagi ahamiyati bilan bog'liq masalalarga alohida to'xtalib o'tamiz.

Buxoro xonligida shayboniylar sulolasi hukmdorlari tomonidan sardobalar qurilishi davrida ancha keng miqiyosda olib borilgan. Jizzaxdan Sirdaryo kechuvlariga, Buxorodan Qarshi orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi Kerki va Kelif kechuvlariga olib boruvchi yo'llarda qurilgan sardobalar bundan dalolat beradi. Ayniqsa, XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon II tomonidan ko'plab sardobalar qurilgan edi. Ular ichida Qorovulbozordagi sardoba, Bo'zachi sardobasi, Begichak sardoba, Yakka sardoba, Kaspidagi sardobalar, Qarshidan Amudaryodagi kechuvlarga olib boruvchi yo'llardagi sardobalar, xususan Turkmaniston hududidagi Sangir suvloq sardobasi, SHERobod yaqinidagi sardoba, Jizzax-Chinoz oralig'idagi cho'l hududidagi Yakkasardoba, Mirzarabot, Yog'ochli sardobasi va boshqa sardobalar bunga misoldir[3:19-20]. Tadqiqotchilar fikricha, Mirzacho'ldagi sardobalarlarning barpo etilishi ham Abdullaxon II ning quruvchilik faoliyati bilan bog'liqdir[4:75].

P.Ravshanov ma'lumotlarga qaraganda, Movaraunnahrda mavjud bo'lgan 44 ta sardobaning 29 tasi Qarshi cho'lida qurilgan[5:508]. Qashqadaryo vohasidagi sardobalar esa, XVI asr va undan keyingi davrga xosdir. Sardobalar arxitekturasi shakllanishi bir necha yuz yillarga cho'zilgan. Ularning qurilish jarayonida aholining kuzatuvchanligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan: dastlab, taqir joylarda to'plangan suv bir muncha vaqt yerga singmay qolgani, bunday joylarni vaqt o'tishi bilan aholi tomonidan chuqurlashtira borilgani, kengaytirgan va asta-sekin hovuz ko'rinishiga keltirilgani, hovuzdagi suv ifoslanmasligi uchun hovuz atrofi devor bilan o'ralgani, suvning yerga singib ketishini kamaytirish choralari ko'rilgani, suv bug'lanishini kamaytirish maqsadida bunday hovuzlarning usti yopilganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili ko'rsatadi. Xullas, bu sohadagi tajribalar necha-necha asrlar cho'llarda chuchuk suv saqlashning eng qulay usuli sifatida hozirgi ko'rinishdagi sardobalar vujudga kelgan. Qadimiy an'analar XX asr boshlariga qadar ham o'zgarmay qoldi.

Sardoba qurilishi uchun suv, tuproq va qum alohida toza joydan, ganch esa Qoravulbozor va Nurotadan olib kelingan. Qumga yantoq, qamish, yulg'un kuli qo'shilgan. Inshoot uchun ishlatiladigan g'isht ham issiq sovuqqa g'oyat chidamli bo'lishi lozim bo'lgan. Loy yaxshi pishitilib, unga tuya juni qo'shilgan. Xom g'isht 1-2 yil quyosh jazirasida toblangandan so'ng, ular yantoq olovda pishirilib, obi g'ishtlar tayyorlangan. G'ishtlarni bir-biriga yopishtiradigan qorishma loyga suvdan tashqari qo'y suti, tuya juni ham qo'shilgan.

Sardoba devorining qalinligi eng pastki qismida 1,5 metrni tashkil etsa, yuqoriga ko'tarilgan sari yupqalashib boradi. Eng yuqori qismida uning qalinligi bir g'isht ko'rinishiga keladi. Sardobaga bir tomondan-shimol tarafidan kiriladi, qolgan uch tarafida esa ark ko'rinishida tuynuklar bo'lgan. Kirish qismi arksimon bo'lib, undan g'ishtli zinapoyalar orqali sardoba ichkarisiga kirilgan. Sardobaning osti doira shaklida bo'lib, suv yerga sizib ketmasligi uchun 3 qavat qoramol, tuya terisi, 3 qavat kigiz, ustiga bir qavat ganch, yuqori qismiga pishiq g'isht yotqizilgan[6:56]. Sardobalarning Respublikamiz bo'ylab hududiy tarqalish holati tartibsiz ko'rinsa-da, aslida qat'iy

qonuniyatga bo'ysunganligini ko'rish mumkin. Sardobalar yirik suv manbalaridan yiroq maydonlarni ishg'ol qilgan bo'lsa, bu tizimni tutashtiruvchi egri chiziq yirik karvon yo'llari va uning gavjum joylari bo'ylab o'tadi.

Ichki diametri 15-17 metrli davra hovuz shakli, usti g'ishtin gumbaz bilan yopilgan bu inshoot ichidagi suv hatto jazirama kunlarda ham muzdek turgan. Abdullaxon II Qarshi va Amudaryo oralig'idagi cho'lda ko'plab sardobalar barpo ettirgan[7:59]. Karvonsaroy yonidagi Abdullaxon II tomonidan qurilgan sardoba hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, mahalliy aholi Gumbaz deb ta'rif etuvchi bu sardoba Qoravulbozor orqali o'tgan savdo karvonlari, harbiy otryadlar, yo'lovchilar va cho'ponlarni suv bilan ta'minlashga xizmat qilgan. M.YE. Massonning fikricha, bir-biridan bir kunlik yo'l masofasida (24-25 km) qurilgan bu sardobalarning joylashuvi Qarshi-Kerki va Qarshi-Kelif savdo yo'lining yo'nalishini ko'rsatib turadi.

Ana shunday sardobalarning biri yozma manbalarning guvohlik berishicha Eski Nishonda mavjud bo'lgan. Qarshida XVI-XIX asrlarda amalda bo'lgan me'moriy inshootlar ichida Abdullaxon II tomonidan qurilgan sardoba ham XX asr boshlariga qadar faoliyat ko'rsatgan. Shu paytgacha bu sardoba bizning kungacha yetib kelmagan degan qarash mavjud edi. Qarshi shahri Registonining janubida, Chorsuning ro'parasida joylashgan Qarshi sardobasi 2005-yilda aniqlangan. Hozirgi kunda esa ushbu sardoba qaytadan ta'mir etilgan bo'lib, shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Qarshi-Buxorokarvon yo'lidagi Kaqir sardobasi to'g'risida rus vrachi I.A. Yavorskiy 1878-yilda "Bundan 200 yil avval yashab o'tgan Zakariyo dasturxonchining mablag'i hisobiga qurilgan bu inshoot tufayli uning nomi avlodan-avlodga o'tib kelmoqda, xolbuki, dasturxonchi xizmat qilgan podshohning nomini avlodlar allaqachon unutib yuborishgan", -deb yozgan edi[8:37].

Sardobalar me'moriy tuzilishi jihatidan bir-biridan aytarli farq qilmaydi. Aylana shaklidagi hovuz va uning ustini yopib turuvchi gumbaz shaklida qurilgan bu sardobalar gumbazida bir nechta derazalar, ular pastida esa suv tushishi uchun mo'ljallangan maxsus teshiklar va tepasida aylana shaklidagi tuynuk bor. Bundan tashqari, sardoba hovuzidagi suvdan olish uchun mo'ljallab qoldirilgan maxsus kirish joyi mavjud. Sardoba suvini salqin holda saqlash uchun deraza va eshik doimiy havо aylanib turadigan qilib qurilgan.

Sardoba ichida yorug' tushishi va doimo haroratni bir xilda saqlash uchun kunchiqar (Sharq) va kun botar (G'arb) tomonlarga tuynuklar qo'yilgan. Sardobaning quyi eshigi shamol oqimiga teskari tomonga qaratib qurilgan. Hovuzga suv kirishi uchun tarnov yasalgan. Sardoba yonida karvonsaroy joylashgan, yo'lovchilar hordiq chiqarib, olis yo'lga suv g'amlab olganlar[6:53].

Sardobalarning barchasi asosan yomg'ir suvi va qor erishidan hosil bo'lgan suvlar bilan to'ldirilgan. Bunday suvlar maxsus ariqchalar orqali sardoba hovuziga kelib tushgan. Ba'zi sardobalarga suv daryo va boshqa suv manbalaridan maxsus kanalchalar orqali ham keltirilgan. Sardobadagi suvni buzilishdan saqlashda va sardobada havо almashib turishini ta'minlashda sardoba gumbazidagi derazalar va tepasidagi tuynugi katta rol o'ynaydi. Sardobalarning kirish joyi shimol yoki shimoliy-g'arb tarafda bo'lib, ulardan 6-8 metrgacha uzoqlikdan sardoba hovuzi tubiga olib tushuvchi zinapoyalar boshlangan. Zinapoyalar usti uzun yo'laksimon qilib berkitilgan.

Qaqir va Buzachi sardobasi Xo'ja Muborak qishlogi yaqinida joylashgan. Bu sardobalar orqali o'tgan yo'l bilan Begijak va Yakka sardobalarga borish mumkin. Begijak sardobasi Xo'ja Muborak qishlog'idan 6-7 kilometr janubi g'arbda bo'lib hovuzi butunlay ko'milib ketgan, beshta derazasi mavjud[9:27-28]. Yakka sardoba esa Xo'ja Murod baxshi ziyoratgohidan 3 km g'arbda joylashgan, uning ham beshta derazasi bo'lib, hovuzining kengligi 14 metrni tashkil etadi. Maymanoq qishlog'i hududidagi sardobadan qishloq ahli, qo'shni Muborak tumani aholisi, savdogarlaru-cho'ponlar foydalanishgan. Olis yo'lga ketuvchilar suv g'amlab olishgan. Bu sardoba oldida nov bo'lib, undan chorva mollar sug'orilgan. Sardobaning eshigi shimolga

qaragan holda, beshta derazaga ega. Sardoba o'tgan asrning 70-80 yillarida qo'shni Muborak tumanining Qarliq xo'jaligining omborxonasi vazifasini ham bajargan. Shu atrofdagi sardobalar ichida eng yomon holda saqlanib qolgan sardoba Maymanoq sardobasi bo'lib hisoblanadi.

Eski Kasbi qo'rg'oni yonidagi sardoba haqida, bu yerga tashrif buyurgan mutaxassislar Kasbi qo'rg'oni va Sulton Mirhaydar ziyoratgohiga ko'proq etibor qaratgani bois, bu joyda mavjud bo'lgan sardoba haqida yetali ma'lumot qoldirishmagan. Kasbi sardobasi-keng davra quduq kabi yasalgan, uning hajmi juda katta (ichining diametri qariyb 16 metr), usti pog'onali baland gumbaz bilan berkitilgan. Sardoba suvga chidamli "qir" qorishmasi bilan yirik pishiq g'ishtlardan ishlangan. Imorat rivoyatlarda aytilishicha, Abdullaxon zamonasida bunyod etilgan. Kasbi qishlog'idagi bu sardobaning odatdagidek peshtog'i yo'q, shimol tomondagi g'isht zinapoyalar suvga tomon olib boradi. U o'zining tuzilishi jihatidan boshqa sardobalardan deyarli farq qilmaydi. Sulton Mirhaydar ziyoratgohi yonida yana bir sardoba mavjudligi aniqlangan bo'lib, bu usti ochiq sardobaning kim tomonidan va qachon barpo etilganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Darhaqiqat, pog'onali yassi gumbazli va ravoqining yuqori tomoni boshdan-oyoq to'rt burchak yupqa pishiq g'ishtdan terilib, metinday mustahkam qilib qurilgan. Bu sardoba Kasbi sardobasidan sal chog'roq, suv to'planadigan joyi (rezervuari)ning tashqi diametri 16 metr. Sardobaning boshqa sardobalardan yana bir farqli tomoni derazalar soni uchta. Ushbu sardobadan yaqin vaqtlargacha ham foydalanilgan.

Qarshi-Kerki yo'nalishidagi eng birinchi sardoba eski Nishon yonida bo'lgan va u o'tgan asrning 30-yillariga kelib buzilib ketgan. Bu yo'nalishdagi ikkinchi sardoba hozirgi Tallimarjon suv ombori qurilgan joyda bo'lgan. Gumbazi yo'qligidan "usti ochiq sardoba" deb nomlangan [9:27-28]. Uchinchi sardoba Sangir Suvloq sardobasi bo'lib, Eski Tallimarjon qishlog'i yonida joylashgan. Old tarafi-g'arbiy qismi devor bilan o'ralgan va boshqa sardobalardan ancha katta bo'lib, 10 ta derazasi bor.

Qarshidan Kelifga o'tuvchi karvon yo'li bo'yida, Nishon tumanining sharqiy hududi yaqinida Yusuf sardobasi ham mavjud bo'lgan. Minglab yo'lovchilarni hojatini chiqargan sardobalar qo'riqlanmasada toza saqlangan va doimiy ravishda ta'mirlanib turilgan.

Yozma manbalarda Qarshi cho'lidagi sardobalarning deyarli barchasi Abdullaxon II davrida qurilgan degan fikr mavjud. Qarshi cho'lidagi sardobalar juda sifatli pishiq g'ishtdan mustahkam qilib qurilgan bo'lib, chamasi, g'ishtdan foydalanish maqsadida ularning ko'pi o'tgan asrning 30- yillarida buzilgan[10:51].

Sardobalar faqat qadimgi karvon yo'llarining yo'nalishlarini aniqlashtirishga yordam beribgina kolmasdan, balki xalqimiz me'morchiligi tarixini, bu sohadagi yutuqlarini, o'tmishdagi me'moriy uslublarni o'zida aks ettirgan muhim tarixiy manba hamdir. Cho'lu biyobonlarda chuchuk suv saqlashning eng samarali usullarini yaratgan ajdodlarimizdan qolgan bu muhim tarixiy yodgorliklar, afsuski, bugungi kunga kelib butunlay qarovsiz holga kelib qolgan.

Sardobalarning turli jihatlarini kuzatgan va o'z asarlarida qayd etgan mualliflar N.Xanikov, A.Berns, A.Vamberi, M.Galkin, D.Logofet, V.Bartold, M.Masson, A.Muhammadjonov, A.Anorboyev, U.Mavlonov, A.Hasanov va boshqalarning ma'lumotlari asosida ularni to'yinish manbalariga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin. Tabiiy to'yinuvchi sardobalar: qor-yomg'ir suvi o'z-o'zidan sardoba hovuzini to'ldiradi. Sun'iy to'yintiriluvchi sardobalar: quduq, koriz, daryo, ariq suvi bilan to'ldirilgan. Aralash tarzda to'yinuvchi sardobalar: qor-yomg'ir, ariq, paynov suvi hisobidan to'ldirilgan, bu turdagi to'ldiriluvchi sardobalar ko'proq daryo bo'ylarida, sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlarga yaqin joyda joylashgan.

Sardobalarning qurilish jarayonini ko'zdan kechirganda, ularning birinchi navbatdagi vazifasi suvni bug'lanib ketishdan himoya qilish bo'lsa, ikkinchisi sanitarlik, to'siq rolini o'tashdan iborat ekanligini bilib olishimiz mumkin. Darhaqiqat,

sardoba ichkarisiga mol, ot-ulov qo'yilmagan, ular uchun sardoba hovlisidan tashqarida yog'och yoki toshdan suv quyiladigan oxurlar (nov) yasalgan.

Janubiy Qozog'iston hududida ham (Sayram yaqinida) XVI asrning birinchi yarmida Mir Arab tomonidan sardoba barpo etilgani mintaqaning shimoliy dasht zonalari ham sardobalar mavjud hududlar qatoriga kiritishga imkon beradi. Toshkentdan Xo'jandga va Chotqol tog' dovoni orqali Farg'onaga ketuvchi yo'lda ham bu davrga mansub sardobalar (yoki usti gumbaz bilan yopilgan buloqlar) bo'lgan. Ular ichida Angren daryosi o'ng qirg'og'ida, Qoraxitoy qishlog'i shimolida qurilgan Qaynargumbazni va Toshkent-Xo'jand yo'lidagi boshqa bir qancha gumbazli sardobasimon inshootlar (Chuqurbekat, Jonbuloq, Mirzorabot)ni aytib o'tish mumkin[11:14-16]. Bu ma'lumotlar o'rta asrlarda mintaqaning tog'oldi va dasht hududlarida ham sardobalar bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyoning jazirama iqlim sharoiti va yirik shaharlarni suv bilan ta'minlash ehtiyoji shaharlarda ham sardobalar barpo etilishiga turtki berardi. Abdullaxon II tomonidan Qarshida, Subxonqulixon tomonidan Buxoroda barpo etilgan sardoba[12:304] va boshqa ma'lumotlar bundan dalolat beradi.

Shu tariqa, mintaqadagi qadimgi davrda shakllangan aloqa-savdo yo'llaridan foydalanish so'nggi o'rta asrlarda ham davom etdi. Mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli ularning ayrim tarmoqlaridan foydalanish ma'lum vaqt to'xtab qolgan holatlar ham kuzatilsa-da, mazkur yo'llar O'rta Osiyodagi o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutib keldi. XVI-XIX asrlarda karvon yo'llari tizimi faoliyatida birmuncha o'zgarishlar ruy berdi. Bu davrga xos xususiyatlar ichida, mintaqaning cho'l va dasht hududlari orqali o'tgan yo'nalishlarida ko'plab yo'lbo'yi inshootlari-rabotlar va karvonsaroilar, sardobalar, quduqlar, ko'priklar barpo etilganini aytib o'tish mumkin. Ikkinchi tomondan, o'zbek xonliklari o'rtasidagi siyosiy nizolar, urushlar mintaqa iqtisodiyotiga va o'zaro iqtisodiy munosabatlarga, karvon yo'llari faoliyatiga salbiy ta'sir etib turdi. Shunga qaramasdan, bu davrda mahalliy va mintaqaviy ahamiyatga ega yo'llar tarmoqlari kengayib, karvon yo'llarining yangi yo'nalishlari paydo bo'lib bordi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Анорбоев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. –Т., 1988.-С. 91
2. Мавланов У. М. Торговье и культурные связи Кашкадаринского оазиса в XVII-XIX вв.: Дис.... канд. ист.наук. -Т., 1994. -С. 155.
3. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн - сардоба. – Ташкент, 1935. – 43 с. Кудратов С. Сардобалар ўлкаси. – Тошкент: Фан, 2001. – 28 б. Насриддинов К.М., Сафонова Н.А., Смесова Е.А. Буюк ипак йўлидаги сардобалар // Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2004. – Б. 224-226.
4. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания Н.К. Норкулова, редактор перевода А.К. Арандс, предисловие, редактор введения и примечаний А.С. Сагдуллаев. – Ташкент: Академия, 2009. – 333 с. [Хорошхин А.П.]. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края А.П. Хорошхина. – СПб., 1876. – 520 с. [65-69, 257-259]. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн - сардоба. – Ташкент, 1935. – 43 с. [14;32]
5. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. (Энг қадимги даврлардан XIX аср II ярмига қадар). – Тошкент: Фан, 1995. – 783 б.
6. Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши – Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. Қарши, 2005. - 77 б.
7. Вамбери А. Очерки Средней Азии (дополнение к «Путешествию по Средней Азии») -М.: Изд-во А.М.Мамонтова, 1868. - 373с.
8. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 годах. В двух томах – СПб.: Типография д-ра М.А.Хана, 1883. Т. 2.–387с.
9. Мавлонов Ў. Аждодларимиз заковати. //Фан ва турмуш. 1993, № 7-8. –Б. 27-28.
10. Массон М.Е. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1953. – 144 с. с илл.
11. Муҳаммад Юсуф Мунши. Тарих-и Муқим-хони (Муқимханская история) / Перевод с таджикского, предисловие, примечание и указатели проф. А.А.Семенова. – Ташкент, 1957. – С. 304. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн - сардоба. – Ташкент, 1935. – 43 с.[22].

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'ZGARISHLAR

*Hasanova Nishona Normurotovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar; paxta yakkahokimligiga barham berilishi, vazirlar mahkamasi tomonidan qishloq xo'jaligi va yerga doir qabul qilingan qonunlar; prezidentimizning qishloq xo'jaligiga doir farmonlari, qarorlari va farmoyishlari doirasida amalga oshirilgan ishlar batafsil yoritilgan.

Tayanch atamalar: dehqonchilik, nilometr, irrigatsiya, taqvim kalendar, agrar soha, bozor iqtisodiyoti, eksport, import, go'za navlari, intensiv bog', kredit.

ИЗМЕНЕНИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

*Хасанова Нишона Нормуротовна,
докторант, Бухарский государственный университет*

Аннотация. В данной статье подробно изложены изменения в сельском хозяйстве за годы независимости Узбекистана, отмена хлопковой монополии, законы о сельском хозяйстве и земле, принятые Кабинетом министров, указы, постановления и распоряжения нашего президента по сельскому хозяйству.

Ключевые слова: садоводство, nilometr, ирригация, календарь, аграрная профессия, финансирование по рынку, экспорт, импорт, сорта хлопка, интенсивный сад, кредит.

AGRICULTURE CHANGES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE IN UZBEKISTAN

*Hasanova Nishona Normurotovna,
Doctoral student of Bukhara State University*

Annotation. Following article deals with the changes in agriculture during the years of independence in Uzbekistan. The abolition of the cotton monopoly, the laws adopted by the Cabinet of Ministers on agriculture and land, and the works carried out within the framework of the decrees, decisions and orders of our president on agriculture are given as well.

Key words: agriculture, nilometr, irrigation, calendar, agrarian sector, market economy, export, import, varieties of cotton, intensive garden, credit.

Kirish. Ko'hna zaminimizning boy o'tmish tarixi ming yillarga borib taqaladi. O'lkamizda shakllangan qadimiy ilmiy tarixiy ananalar shundan dalolat beradiki bundan uch ming yil avval muqaddas zaminimizda sun'iy sug'orishga asoslangan yuksak dehqonchilik madaniyati noyob irrigatsiya inshootlari bunyod etilgan. Beruniyning yozishicha qadimgi xorazmliklar qishloq xo'jalik ishlarini davriy rejalashtirish ehtiyojidan kelib chiqib, o'zlarining taqvim kalendar tizimiga ega bo'lganlar. Al Farg'oniy bobomiz arab dehqonlari uchun Nil daryosi sathini o'lchash uchun nilometr asbobini yaratganlar.

Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonning xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirildi. Ya'ni qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi hosilini birlamchi qayta ishlashga asosiy e'tibor qaratildi. Respublika sanoatining qolgan muhim tarmoqlari ham paxta majmuini rivojlantirishga muvofiq ravishda taraqqiy qildirildi.

Asosiy qism. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha ulkan salohiyatga ega.

Bozorlarimiz to'kin, xalqimiz rizqi mo'l-ko'l bo'lishidan tortib, eksportdan qo'shimcha daromad topishgacha bo'lgan juda ko'p masalalar shu yo'nalish rivojiga bog'liq. Lekin uzoq yillar agrar sohaga yetarlicha e'tibor berilmadi. Na bozor iqtisodiyoti, na yerga munosabat, na manfaatdorlik bor edi. Mablag', ilmiy inovatsiyalar jalb etilmadi. Oqibatda yerlar charchab, unumdorlik pasayib ketdi. Mahsulotni qayta ishlash, qo'shimcha qiymat olish bo'yicha tizim yaratilmadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda ulkan o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan qishloq xo'jaligida ham tub burilishlar davri boshlandi. Bozor iqtisodiyotining birinchi bosqichidayoq (1991-1994) iqtisodiy islohotlarga doir qonunlar qabul qilindi, uning huquqiy negizi yaratildi. 1995-yildan boshlab O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning ikkinchi bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish tuzilmalarini shakllantirishni yakunlashni, mamlakat xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirishni, milliy valyutani barqarorlashtirishni va iqtisodiyotni xomashyo yetishtirib berishdan tayyor mahsulot chiqarishga yo'naltirishni ko'zda tutilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning yuqorida aytilgan ikkinchi bosqichida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligi tarmoqlari o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishda aholi keng iste'mol mollariga ko'ra ularning ehtiyojini nazarda tutib o'zgarishlar qilish va boshqa hayotiy masalalar xalq xo'jaligida qator tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, mamlakat xalq xo'jaligining yetakchi sohasi-sanoatda importning o'rnini bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish: neft mahsulotlari, g'alla mustaqilligini ta'minlash, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirishga qaratilgan yo'nalishlarga iqtisodiy siyosatda ustuvorlik beradi [2].

So'nggi yillarda respublikada dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari ajratilgan maydonlardan samarali foydalanish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq aholisining bandligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 1998-yil 30-aprelda "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida" qabul qilingan qonun ularni rivojlantirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligiga barham berildi. Dehqonning o'z salohiyatini ko'rsatishi, qolaversa yerga egalik qilish uchun berilgan erkinlik o'z samarasini bera boshladi [3]. Tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, faoliyatini yanada kengaytirish va aholi tomorqalarini xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirish, shuningdek, mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini yanada ko'paytirildi. 2004-yil Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra vazirlik huzurida "G'o'za urug'chiligi respublika markazi" tashkil etildi. Fermerlik harakatini rivojlantirish natijasida mamlakatda keying yillarda 160 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari shakllanib, ular bugungi kunda 10 mingdan ortiq yo'nalishlarda samarali faoliyat yuritmoqda. Quyidagi raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak 12 mingdan ziyod fermer xo'jaligi rahbarlarini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etsa, 6 mingdan ortiq fermer xo'jaligiga xotin-qizlarimiz rahbarlik qilib kelmoqda. Mamlakatimizda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining barcha xarajatlari to'liq davlat byudjeti hisobidan qoplanmoqda. Bu qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil olishda muhim omil bo'lmoqda. Yerni xususiylashtirish zamon talabi bo'lgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazishning eng avvalgi va eng muhim bosqichidir. Qishloq xo'jaligida zamonaviy ishlab chiqarish, yuqori hosildorlik va yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirish bu sohada bozor munosabatlarini tiklamasdan amalga oshirish imkonsiz. Bozor munosabatlari esa, qachonki ishlab chiqaruvchi, ya'ni dehqon o'z mehnat faoliyatida erkin va u qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalarining eng muhimi bo'lgan yerning va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy mulkdori bo'lsagina rivojlanadi. Intensiv bog' maydonlarini kengaytirishga 65 million dollar davlat byudjetidan ajratildi. Xususan Toshkent viloyatida 500 gektar, Andijon, Buxoro va Samarqandda 300 gektardan, Qashqadaryo va Surxandaryoda 200 gektardan maydonda yangi usuldagi intensiv bog'lar yaratilishi rejalashtirilgan.

2017-yil 25-avgust prezidentimiz tashabbusi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi etib belgilandi. Yana bir muhim yo‘nalish asalarichilik sohasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etilib unga asal yetishtiradigan 14 mingdan ortiq tadbirkor a‘zo bo‘lib kirdi. Oxirgi 20 yilda e‘tibordan chetda qolgan yana bir tarmoq-baliqchilik sohasini tiklash uchun “O‘zbekbaliqsanoat uyushmasi” 2017-yil tashkil etildi [1]. Uning tizimiga 3600 ta baliqchilik xo‘jaligi kiritildi. Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, yerlardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish, shu jumladan meva-sabzavot va yem-xashak ekinlarini ko‘paytirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmini hamda agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Bundan tashqari prezidentimizning 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tashqiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoniga muvofiq 2021-yil 1-sentabrdan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sertifikatlangan qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari va ko‘chatlarini xarid qilish uchun ajratiladigan tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensasiya taqdim etildi. 2021-yil 1-martdan boshlab “Har bir oila-tadbirkor” dasturi doirasida bog‘dorchilik, uzumchilik va limonchilikni rivojlantirish uchun aholiga ajratilgan kreditlar muddati 3 yildan 7 yilgacha uzaytirildi. Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining tarkibidagi ilmiy muassasalarning yer maydonlarida tadbirkorlik sub‘yektlarini shartnoma asosida jalb qilgan holda sabzavot, poliz va kartoshka, dukkakli, moyli ekinlar, mevali va tok ko‘chatlari yetishtirish tashkil etildi [1].

Xulosa. Fermer va dehqonlarimiz qishloq xo‘jaligida asosiy kuch bo‘lib, nafaqat mazkur sohani balki butun mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning turmush darajasini oshirish, yurtimizni har jihatdan obod va farovon qilishda beqiyosh ishlarni amalga oshirayotganlarining guvohi bo‘lyapmiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan har bir sohadagi islohotlar zamirida aholinning huquqiy madaniyatini shakllantirish, jamiyat va jamoatchilik oldidagi nufuzini e‘zozlash va yurt tinchligi saodati, farovonligi yo‘lidagi mehnat va shijoatni himoyalash, qadrlash kabi qator manfaatlar mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.M. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent shahri, 2021 yil 24 fevral.
2. Sh.M. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent: ”O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
3. Tohir Daliyev. “Ezgu maqsadlar, ulkan rejalar agrar soha istiqbolini belgilaydi” O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi. N:2. 2018.
4. Babajanov. “Yer resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirish muammolari” Agroilm N:5. 2019.
5. Tursunov S. “Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi” Toshkent. 2013.
6. O‘zbekiston Respublikasi. Entsiklopediya. T. «O‘zbekiston». 1997.

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINING QONUNCHILIK ASOSLARI VA UNING TAKOMILLASHTIRILISHI

*Buxoro davlat universiteti,
Jahon tarixi kafedrası mustaqil izlanuvchisi Kazakova Marifat Dexkanovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, gender tengligi, ayollarning mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtiroki, yangilanayotgan O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning istiqbollari, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning ahamiyati, gender tenglikni ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish va yechimini kutayotgan muammolar tahlili bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, qonun, ayol, erkak, gender adolat, qadriyat, mentalitet. ijtimoiy himoya, ayollar huquqlari, zo'ravonlik, tazyiq, huquqiy himoya va boshqalar.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Казакова Маришат Дехкановна
Бухарский государственный университет Независимый исследователь
отдела всеобщей истории*

Аннотация. В данной статье возможности, созданные для женщин в нашей стране в годы независимости, гендерное равенство, участие женщин в политической, социально-экономической жизни страны, проводимые реформы по обеспечению гендерного равенства в новом Узбекистане и их перспективы, описываются принятые нормативно-правовые документы и их значение, анализ проблем, ожидающих решения, и совершенствование нормативно-правовой базы обеспечения гендерного равенства.

Ключевые слова: гендерное равенство, право, женщина, мужчина, гендерная справедливость, ценность, менталитет. социальная защита, права женщин, насилие, домогательства, юридическая защита и т. д.

LEGAL BASIS FOR GENDER EQUALITY AND ITS IMPROVEMENT IN UZBEKISTAN

*Kazakova Marifat Dexkanovna,
Bukhara State University
independent researcher Department of World History*

Abstract. In this article, the opportunities created for women in our country during the years of independence, gender equality, the participation of women in the political, socio-economic life of the country, the ongoing reforms to ensure gender equality in the new Uzbekistan and their prospects, describes the adopted legal documents and their importance, analysis of pending issues and improvement of the legal and regulatory framework for gender equality.

Key words: gender equality, law, woman, man, gender justice, value, mentality. social protection, women's rights, violence, harassment, legal protection, etc.

KIRISH. Yurtimizda xotin-qizlarning qo'llab-quvvatlanayotganligi va ayollar haququqlarini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashib borayotganligi barchamizni birday quvontiradi. Zero, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy

hayotidagi roli va faolligi oshib borayotganligi xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatilayotganligi, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlik – hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi bilan e'tiborga sazovordir.

MAVZUGA OID MANBALAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Alohida kichik tadqiqot sifatida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritib berish uchun qo'llanilgan adabiyotlarni quyidagi guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro hujjatlar va konvensiyalar;
2. O'zbekistonda chop etilgan adabiyotlar;
3. Davriy matbuot materiallari;
4. Xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan ishlar;
5. Internet ma'lumotlari.

Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Gender lotincha genus (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanda genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender atamasini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan. Keyinchalik 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller jamiyatda ijtimoiy jinsning o'z-o'zini anglash tushunchalari to'g'risidagi ma'ruzasi orqali gender atamasini ilm ahliga taqdim etdi hamda jinsni biologik va madaniy turlarga bo'lib o'rganishni taklif qildi. R.Stoller, biologik jinsni biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender), ya'ni genderni ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalari tadqiqot obyekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Shuningdek, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli ham "Jins, gender va jamiyat" nomli ilmiy ishida bu termini izohlab o'tgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash borasida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 1995-yil davlat rahbari tomonidan "Bizning onalarimiz, opa-singillarimiz, ayol va qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mehnat va turmush tarzini yengillashtirish davlatimizning, jamiyatimizning asosiy va ustuvor vazifalaridan iborat bo'lib qolishi kerak" mazmundagi fikrlari istiqbol uchun dasturulamal bo'ldi.

Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos oliyanob xususiyatlardan biridir. Shu ma'noda O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq. Azal-azaldan xotin-qizlarimizga ertangi kun davomchilari bo'lmish kelajak avlodlar ham jisman, ham ma'nan kamolga yetkazuvchi ulug' zot sifatida e'zozlanib kelingan. Shu bois ularga qancha ehtirom ko'rsatsak, shuncha oz. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yangicha tamoyillari asosida xotin-qizlar masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ularning o'qishi, ishlashi, salomatligini asrash, huquq va erkinliklari hamda oilasi uchun sharoitlar yaxshilanmoqda. Yurtboshimizning "Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart", fikrlari samarasi o'laroq so'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash,

kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash, tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Gender xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi nafaqat shaxsiy va oilaviy darajadagi, balki jamiyatdagi munosabatlarni belgilovchi hamda ular tomonidan belgilanuvchi ijtimoiy model bo'lib, xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy rollariga muvofiq bajarishlarini ham nazorat qiladi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi – gender tenglikni ta'minlash hamda jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilishini bartaraf etish maqsadida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tuzilgan kollegial maslahat organi hisoblanadi. Maslahat kengashining faoliyati qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida olib boriladi.

2019-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonunlari qabul qilindi. Bu bilan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ularni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, gender tenglikni ta'minlash, ayollarga nisbatan turli tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olish holatlari yanada mustahkamlandi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hokazo chora-tadbirlar olib borilishi yangi bosqichda boshlandi. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqilganini ham ta'kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi.

Qonunga ko'ra, gender siyosatini amalga oshirish uchun vaqtinchalik tarzda bir jinsdagi xizmatchilar uchun kvotalash organi joriy etilmoqda. Ya'ni har bir davlat korxonasi va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar vakilligining mutanosibligi ta'minlanguncha vaqtinchalik jins kvotalari belgilandi. Mutanosiblikka erishgach, kvotalar bekor qilinishi mumkin. Gender tenglik masalasida sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.

2021-yil 5-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020 sonli qarori bilan Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish borasida qator vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Respublika va hududiy xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, har bir mahallada esa "Ayollar maslahat kengashlari"ning faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi – Oila va xotin-

qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Alohida davlat idorasining tashkil etilishi va unga Hukumat rahbarining o'rinbosari raislik qilishi xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularni rozi qilish yo'lidagi ishlarni Yangi O'zbekiston taraqqiyotida zamonaviy yondashuvlar asosida samarali va manzilli amalga oshirish imkonini beradi.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi mavqeyini oshirishda saylov tizimi muhim ahamiyatga ega. 2019-yil 22-dekabr kuni mamlakat parlamenti va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tarkibida 32 foizni xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa oldingi yillarga nisbatan ancha ko'tarilish bo'lganligidan darak beradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: —Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Holbuki, — shunga e'tibor berishingizni so'rayman — bundan 5 yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik. Albatta, ayollarning vakillik organlaridagi bu ko'rsatkichlari avvalgi saylovlardagi raqamlardan ancha yuqori bo'lsa-da, hamon erkaklarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Chunki yuqori davlat vakillik organi butun tarmoqning faoliyatini tashkil etish mahoratini talab etgani bois, katta bilim va salohiyat bilan birga ko'p vaqt ham talab etiladi.

Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo'naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to'lovlarini to'liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta'kidlash zarur.

XULOSA. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2022-yil 1-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni va "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-son qarori imzolandi. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmog'ida. O'zbekistonda gender sohasidagi o'zgarishlarning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mamlakatda gender siyosatini har jihatdan amalga oshirishda davlat organlari va xotin-qizlar tashkilotlari birgalikda harakat qilib kelmoqda. Respublikamizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda rasmiyatchilikdan aniq sa'y-harakatlarga o'tilganligi, ya'ni xotin-qizlarning jamiyat hayotida, ta'limda shaxsiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilganligi, xotin-qizlar faoliyatlarini amalga oshirishida va jamiyat hayotini monitoring qilishning barcha bosqichlarida samarali ishtirok eta boshlaganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1995-yil 2-martda qabul qilingan farmon.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатнинг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи// Халқ сўзи, 2019 йил 22 июнь.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги —Хотин-

қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги ЎРҚ -561-сон Қонуни// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами 36-сон (900) 2019 йил 9 сентябрь. Биринчи бўлим, 653-модда, 1-бет;

4. Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисидаги ЎРҚ-562-сон Қонун// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами 36-сон (900) 2019 йил 9 сентябрь. Биринчи бўлим, 654-модда, 1-бет.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси биринчи йиғилишдаги нутқи // Халқ сўзи, 2020 йил 21 январ.

6. 2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис сенатининг қарори//Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 10 июндаги 4/19-1/12-3-сонли хати иловаси

7. Хотin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. <https://lex.uz/docs/5320582>

8. Mo'minov A.R. Tillaboyev M.A. Inson huquqlari. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro-huquqiy himoya qilish. T. : Adolat. 2013.- B.368. (Mominov A.R. Tillaboyev M.A. Human rights. International legal protection of women's rights and freedom. T. : Justice. 2013.- B.368.)

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/search/>;

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/5884084>

11. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 4-жилд, 2020.–Б. 406. (Mirziyoev Sh.M. From national revival to national rise. – Tashkent: Uzbekistan, Volume 4, 2020.–B. 406.)

12. Jamoldinova O. R., Baxronova D. K. GENDER: GENDER TENGLIGI TUSHUNCHASI VA SIYOSIY-IJTIMOYIY MUNOSABATLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 7. – С. 477-483. (Jamoldinova O. R., Bakhronova D. K. GENDER: THE CONCEPT OF GENDER EQUALITY AND POLITICAL-SOCIAL RELATIONS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. - 2022. - T. 2. – no. 7. - S. 477-483.)

13. Кон И.С. Гендерные различия и социальная стратификация. – Москва, 2009. – С. 763-776 (Kon I.S. Gender differences and social stratification. - Moscow, 2009. - S. 763-776)

14. Djasanova S. Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi. T.: "Tafakkur qanoti" 2014. –B.4. (Dzhasanova S. Women and their social activity in public life. T.: «Wing of Thought» 2014. -B.4.)

ДЎППИ МИЛЛИЙЛИК ТИМСОЛИ СИФАТИДА*Курбонова Манзила Боқиевна**Бухоро давлат университети Археология ва Бухоро тарихи кафедраси
доценти, т.ф.н.**Калонова Ирода Тургуновна**Этнография, этнология ва Антропология 2-босқич магистранти*

Аннотация: Мақолада ўзбек халқи моддий маданиятининг муҳим компоненти-бош кийим, хусусан, дўппининг ўзига хос жиҳатлари, илмий нуқтаи-назардан этнографик аспектда ўрганилади. Фарғона водийсининг Андижон, Наманган, Маргилон ва Чуст дўппилари хиллари Бойсун, Шаҳрисабз, Самарқанд, Тошкент, Бухоро нусхалари билан қиёсланади.

Калит сўзлар: каллапўш, дўппи, тубетай, кулоҳ, арақчин, тус дўппи, санама, чизма, “Андижон” нусха, “Наманган” нусха, “тожик” нусха, “сатин” нусха, “Гилям дўппи”, “Таъя”, “Тайха”, “Чумакли”, “Куш” дўппи, Чуст дўппи.

ТЮБЕТЕЙКА КАК НАЦИОНАЛЬНЫЙ СИМВОЛ*Курбонова Манзила Бакиевна**Бухарский государственный университет, доцент кафедры археологии и истории Бухары, кандидат исторических наук.**Калонова Ирода Тургуновна**Магистрант 2-го курса по специальности «Этнография, этнология и антропология»*

Аннотация: В статье исследуется важная составляющая материальной культуры узбекского народа - головной убор, в частности, особенности тубетейки, в этнографическом аспекте с научной точки зрения. Андижанский, Наманганский, Маргиланский и Чустский тубетейки Ферганской долины сопоставляются с образцами байсунскими, шахрисабзскими, самаркандскими, ташкентскими, бухарскими.

Ключевые слова: каллапош, доппи, тубетай, кулох, арақчин, тус доппи, санама, чертёж, «Андижанская» копия, «Наманганская» копия, «Таджикская» копия, «Атласная» копия, «Гилям доппи», «Таъя», «Тайха», «Чумакли», «Куш» доппи, Чуст доппи.

TUBETEY AS NATIONAL SYMBOL*Kurbonova Manzila Bakievna**Associate Professor of the Department of Archeology and History of Bukhara,
Ph.D., Bukhara State University**Kalonova Iroda Turgunovna**2nd course Master's student specialty «Ethnography, ethnology and anthropology»*

Annotation: In the article, an important component of the material culture of the Uzbek people - headdress, in particular, the specific aspects of the tubetei, is studied from a scientific point of view in an ethnographic aspect. The types of Andijan, Namangan, Margilon and Chust tubeteys of the Fergana Valley are compared with Boysun, Shahrisibz, Samarkand, Tashkent, Bukhara samples.

Key words: kallaposh, doppi, tubetai, kuloh, arakchin, tus doppi, sanama, drawing, «Andijan» copy, «Namangan» copy, «Tajik» copy, «Satin» copy, «Gilam doppi»,

«Taya», «Taiha», «Chumakli», «Kush» do.

Кириш. Ўзбек диёрида яратилган миллий кийим-кечаклар, айниқса бош кийимлар бетакрорлиги билан дунёга машхур. Либос, айниқса бош кийим ҳамма даврларда, ҳамма халқларда муҳим аҳамиятга эга бўлган. Бош кийимга қараб одамнинг ижтимоий мавқеи, миллати, қайси элат ва уруғга мансублиги, қайси табақадан экани, ёши, жинси, оилавий мақомигача билиш мумкин бўлган.

Тадқиқот методологияси. Дўппи кийиш дастлаб Эронда ва туркий халқлар ўртасида, Россияда XIII асрда расм бўлган [1]. Дўппи – Ўзбекистонда кенг тарқалган бош кийим. Мазкур бош кийимдан ташқари Марказий Осиёда қалпоқ, кулут, кийгич, касава, локи, лачак [2:187], рўмол, салла каби бош кийимлар ҳам кийилган [3:12].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Академик К.Шониёзов бош кийимларнинг “култа”, “култапўшак”, “лачак” сингари муҳим элементларни тарихий этнографик жихатдан ўрганган [4:262]. Ўрта Осиё халқлари бош кийимларини этнографик аспектда таҳлил этишда “Костюм народов Средней Азии” [5] тарихий- этнографик очерки муҳим манба саналади. Унда йирик этнограф олимлар О.А.Сухарева [6:3-13], Р.Г.Мукминова [7:74], М.А.Бикжанова [8:133-150], А.К.Писарчик [9:113-122], К.Л.Задыхина, М.В.Сазонова [10:151-168], Х.Исмоилов [11:228-238], Г.П.Васильеваларнинг [12:174-201] мақолалари келтирилган. Дўппини Ўрта Осиёдаги араблар, эронийлар ҳамда туркийлар турлича атамаларда ифодалайди. Масалан, Л.Будагов Ценкерга (Сенги-Лахи луғати) таянган ҳолда дўппи- туркча “тупе”, “тубе” (чўққи, теппалик) сўзларидан келиб чиқган, деб ёзади ва бошнинг тепасига киядиган бош кийим маъносида унинг икки хил атамасини- “тубетай” ва “туппи” ни келтиради [13:117].

Таҳлил ва натижалар. Бухоро воҳасида, шунингдек, Самарқандда дўппини ифодалаш учун тожикча атама “каллапўш” (“калла”- бош ва “пўш”- “пўшидан”- киймоқ, беркитмоқ феълининг ўзаги) сўздан фойдаланилган. Авваллари бу сўз умумий бош кийимни англатган бўлса, бугунга келиб фақат дўппига нисбатан қўлланилади. Самарқанднинг айрим худудларида, Ургутда дўппини турклардек “қалпоқ” деб аташади.

Ўғил бола ҳаётида дўппи билан боғлиқ илк хотиралар суннат тўйи маросими билан бошланади. Кейин эса уларнинг ҳаёти балоғатга етиб, уйланганида келин томонидан махсус тикилган куёвлик дўпписи, ота бўлгач, ўғил уйлаб, қиз чиқарганида кийиладиган кундалик дўппилар билан янада гўзалашади.

Икки ўрим сочининг устига нозик қўниб зулфлар ҳуснига ҳусн кўшган ироқи дўппилар қизларимизга зеб берса, қалампир гулли, бодом гулли, Тошкент дўппи, Чуст дўппи, Андижон дўппилар йигитларимизни асл беклардай безайди.

Асрлар давомида дўппининг турли хиллари вужудга келган. Матолардан бахмалга, сатинга, сидирға шойига ип, ипак ва зар билан дўппи гуллари тикилган. Мамлакатимизда Тошкент, Чуст, Бухоро, Самарқанд, Бойсун, Шахрисабз дўппилари машхур бўлиб, улар ўзига хосдир. Ироқи, Қизил гул, Пилтадўзи, Зардўппи, Тўлдирма деб номланадиган миллий дўппилар бор. Ҳар бир дўппи яратилиш услубига эга бўлиб, улар бир-биридан фарқ қилади. Ўзбекистонда оммавий бош кийими асосан уч хил шаклга эга бўлади. «Кулоҳ», «арақчин», «тусдўппи».

Кулоҳ - конуссимон бош кийим. У асосан дарвешлар қалпоғи. Унинг матоҳи тоқ учбурчак парчаларидан бичилиб ёнламасига тикилади. Кулоҳ (эркаклар бош кийими) хозир жуда кам учрайди.

Арақчин - шарсимон дўппи, уни асосан кексалар кияди. Тошкентда шарсимон дўппилар канда хаёл, босма, чакматур, ироқи чок усулларида тикилади.

Тус дўппи - кенг тарқалган ясси юзали дўппи. Кўпинча шевада “чус” дўппи деб юритилади. Тус дўппиларнинг биргина классик вариантнинг ўзида

саккизта ювелир чок услуги: занжира, тўғри чок чита, кунгура, еталатма, тарок, ова, пилдироқ қўлланилади. Чуст дўпписининг тепасига кизакдан квадрат шаклида бўртиб чиқиб, ярим шар кўринишида бўлади. Тошкент дўпписи сидирга бахмалдан (гулсиз) тикилган. Бухоро дўппилари сидирга ёки гулли бахмалдан жиякли қилиб тикилади, жияги турли хил ипаклардан рангдор нақшли йўрма усулида тикилган бўлади.

Ўзбекистоннинг энг машҳур дўпписи тўрт қиррали Чуст дўппиларидир. Дўппининг томонлари эгасини борлиқнинг тўрт асосий нуқтасидаги ёвуз кучлардан ҳимоя қилади. Қора ранг фазони ва қоронғуликни англатади, безакда одатда оқ ипаклардан фойдаланилган. Унинг тўрт томонидаги «қалампир» ҳаётни, оилавий фаровонликни англатади ва ёмон кўздан ҳимоя қилади. Дўппининг пастки қисмида келтирилган ўн олти арка шакли ҳаёт ва ўлимдавомийлигидир. Аркадаги кўзичоқ шохлари куч ва жасоратни англатади. Дўппидўз ҳунармандлар бу шаклларни бериш орқали дўппи эгасига бойлик ва ҳаётини куч-қувват таъминотининг гузлуксиз келишига ишонадилар [14].

Болаларнинг дўппиларининг номи кулча, қалпоқча, дуппича деб аталиб, матоларининг турли-туманлиги ва ранг-баранглиги билан, попуқ ва шарчаларининг катталиги, кашталари, зарлари ва туморларининг кўплиги билан фарқланади.

Чуст дўппилари. Қора матодаги тўрт дона қалампир шаклидаги нақш билан тикилган кенг тарқалган туридир. У пастки қатор жойлашган гумбазчалар билан ўралган. Дўппининг учта тури мавжуд – думалок, тўрт қиррали думалок дўппилар ва чўзинчоқ қалпоқча. Дўппиларни гуллар билан безаб тикишда икки услуб етакчилик қилган. Биринчиси “санама”-санаб тикиш, иккинчи услуб эса “чизма”- олдин чизиб олиб кейин тикиш.

Чуст дўппилари нақшининг кескинлиги билан яъни бодом донаси тўла, мўйловчаси калта ва кескин бурилган ва пастки четининг баландлиги билан ажралиб туради.

Азалдан, чуствлик оналар, кекса момолар қизларга ёшлигидан дўппи тикишни ўргатганлар, бўй етган қизлар ўз қаллиғига атаб дўппи тикишган. Қизлар куёв бола учун дўппини ўз муҳаббати рамзи сифатида меҳр билан тиккан. Куёв ҳам дўппини ҳар бошига кийганида аёлининг меҳнати, маъсума қиёфаси ва муҳаббатини ҳис қилиб, уни эслаб турган. Бу гўёки, икки ёш ўртасидаги меҳр ва ҳурматнинг ортиши, янги оиланинг мустаҳкам бўлишига асос бўлган.

Чуствлик дўппидўз ҳунарманд Раъно Ахмедова йигирма беш йилдирки Чуст дўпписининг “сатин” нусхасини тикиб келар экан, “ҳали ҳануз ўз ишимни сир-у асрорини ўрганиб тугатолмадим”- дейди камтарлик билан [14].

Чуст дўпписининг “Андижон”, “Наманган”, “тожик”, “сатин” нусхалари бўлиб, улар ичида тикилиши жиҳатидан энг мураккаби “сатин” нусхаси чокларнинг нозиклиги, тикилишдаги зичлиги, дўппи тикиладиган мато (лас) нинг қимматлиги, ипак ҳамда лескаларнинг ўта нозик хилларидан фойдаланилган ҳолда тикилиши билан ажралиб туради.

Чуст дўппиларининг нархлари ҳам турлича. Энг арзон дўппи эллик, етмиш минг сўм атрофида баҳоланиб, уни асосан деҳқонлар куёвдан ҳимояланиш мақсадида иш вақтида кийишади. Одатда бундай дўппини эндигина ўрганаётган ёш қизлар тикади, уларнинг чоки текис бўлмаганлиги ва ҳали қўли дўппи тикишга ром бўлмаганлиги сабаб арзон нархда баҳоланади.

Дўппининг “Андижон” ва “Наманган” нусхалари ўртасидаги фарқ гулларининг катта кичиклигида. “Андижон” нусхасининг аркасимон гуллари йирик шаклда тикилгани боис, бундай дўппини асосан гавдали эркаклар учун сотиб олинади. “Наманган” нусха дўппи гуллари нисбатан кичик, нақшлар зич тикилганлигидан асосан гавдаси унчалик катта бўлмаган эркакларга мос тушади. Юқоридаги дўппилар барча ёшдаги эркаклар учун мўлжалланган, нархлари ҳам “Андижон” нусхаси юз мингдан уч юзминг минг сўмгача, “Наманган” нусха

Чуст дўпписи эса юз эллик минг сўмдан тўрт юз минг сўмгача баҳоланади.

“Тожиқ” нухаси ихлосмандлари нисбатан ёши катта кекса отахонлар саналиб, мазкур нухада тикилган дўппи уларга виқор ва салобат бахш этиб туради. Дўппининг гуллари, нақш ва безалари ҳам зич ва нафосат билан тикилади. “Тожиқ”, “Сатин” нухалари Чуст дўппиларининг энг қиммат, энг чиройлиси саналади. “Тожиқ” нухаси нархи – уч юзминг сўмданбеш юзминг сўм атрофида баҳоланади. Чуст дўпписининг “Сатин” нухаси нафақат мамлакатимизда, чет давлатларда ҳам юқори нархларда баҳоланиб, махсус буюртма асосида, ўзига тўқ, бой аҳоли қатламидан бўлган эркаклар учун тикилган. Бир миллиондан – икки миллион беш юзминг сўмгача нархларда бу дўппи баҳоланади. “Сатин” нухаси тикиш қийинлиги, кўп вақт талаб қилинганлиги, дўппи тикилиши учун ишлатиладиган: ипак, леска, лас- матонинг энг сифатлилари ишлатилинганлиги, бу нухани энг мохир дўппидўзларгина тика олиши ва уларнинг сони кам бўлганлиги учун ҳам қиммат ҳисобланади. Масалан, “битта “Сатин” нухадаги дўппини фақатгина гулини матога туширгунгача (маҳаллийчасига “хом” дейилади) дўзанда эрталабдан кечгача фақат шу иш билан машғул бўлса ўн- ўн икки кун вақт сарфлар экан. Бу вақт “Андижон” нухадаги дўппидан тўртта-бештасини хом шаклида тикишга етади- дейди дўппидўз Раънохон Ахмедова [15].

Фарғона водийси дўппиларининг бошқа турлари “Сандали”, “Чимбой”, “Суркачекма” эса ўзининг нақшлари соддалиги билан ажралиб туради. Самарқанд дўппилари эса “Пилтадўзлик” услубида бажарилган бўлса, бошқа тури ургутча “Қалпоқ” деб аталган. Уларнинг барчаси бирдек ҳар бир инсонга кўрк бахш этади.

Шу билан бир қаторда бош қийимларнинг Бухоронинг зардўзи-зар ип билан тикилган дўппилари, Шаҳрисабзча “Гидам дўппи”, Китоб ва Шарҳисабз дўппилари эса “Санама” ва “Чизма”, “Таъя”, “Тайха”, “Чумакли”, “Куш” – Хоразмнинг эркаклар ва аёллар дўппилари ҳам мавжуд.

Қадимдан ҳунар ўрганиш муқаддас ҳисобланган. Ҳунармандлар маҳаллаларга бўлиниб яшаганлар. Масалан, Наманган вилоятининг Чуст шаҳрида ҳозирги кунда ҳам “Бофанда”-(ўзб. тўқувчи) “Дўзанда”-(ўзб. тикувчи) деб номланган маҳаллалар мавжудлигибу ерда истиқомат қилувчи аҳолининг ажодлари ҳунармандчиликнинг юқорида номлари келтирилган турлари билан шуғулланишган. Ҳар бир касб-корлик маҳалласида қўни-қўшнилар ўртасида рақобат бўлган. Сабаби кимнинг махсулоти сифатли бўлса, мижозлар ўшанинг ишлаб чиқарган махсулотини сотиб олганлар. Ҳар бир устанинг бозорда ўз растаси бўлган. “Бозор беги” барча расталардаги товарларни кузатиб, уларга нарх белгилаб чиққандан кейин савдо-сотик бошланган [16:19-20].

Бошқа мусулмон давлатларида бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам аёллар чеварчилик, каштачилик билан уйда ўтириб шуғулланишган. Бу касаначилик деб юритилади. Касаначиликнинг ижтимоий структурасида уста, халфа, шогирд каби ижтимоий тоифалар мавжуд бўлган. Ҳарбир ҳунарманднинг ўз раҳнамози, яъни пири ва мазкур ҳунарнинг ички таритиб қоидаларини ўзида жам қилган низоми-“Рисола”си бўлган. Унда авлоддан-авлодга ўтувчи одатлари ва удумларига риоя этилган. Масалан, иш бошлашдан олдин уста ўз пирини ёдга олиб ундан мадад сўраш, шогирдга фотиха бериш каби одатларга амал қилинган [17].

“Тус дўппи”, яъни Чуст дўппиларининг биргина классик вариантыдир.

Дўппиларнинг нақшлари ҳам ўзига ҳос маънони ифодалайди. Дўппидўз чушлик Дўппидўз ҳар бир нақшни тикканда кўнглидан ўтган ниятлари бош қийимга жо бўлиши сингари тасаввурлар халқ орасида кенг тарқалган. Бундан ташқари, дўппи тайёр бўлиб эгаси қўлига етиб борганда тилга кириб, унга яхши тилак ва ниятлар билдиришига ишонишган. Дўппидўз ҳунармандларнинг эзгу ниятлари дўппини бошга кийганда инсон вужудига сингиб боради деб тафаккур

килишган. момоларимиз дўппи тикиш жараёнида, унинг нақшларига термулиб, турна қатор терилган безаклар рамзий маънолардан сўзлашини айтишади.

Қўқон, Марғилон, Андижонда тайёрланган дўппилар тўртбурчаклиги айрим-айрим, бир-бири билан боғланмаган тўрт белгидан иборат бўлади. Буни биз қора юзага оқ ипак билан босма чокда тикилган тўртта қалампир (гаримдори) нухасида кўришимиз мумкин.

Фарғона водийсида дўппининг бир неча турлари мавжуд. Ироқи нухса дўппиларда гуллар, қушлар, ҳайвонлар тасвирланган. Марғилон дўппиларининг Чуст дўппиларидан фарқи қалампир тасвирларининг биров нозикроқ ва узунроқ қилиб ишланишидадир. Чуст ва Марғилон дўппилари юртимиздагина эмас, чет элларда ҳам юксак санъат асари сифатида қадрланади [18:320-322].

Хулоса. Анъанавий бош кийим-дўппи мазмун-моҳиятада миллатнинг ўлмас руҳига муҳаббат, гўзаллик ва нафосат, ҳаёт абадийлигининг рамзи - аёл зотиға эҳтиром, сабр-бардош ва меҳнатсеварлик, ҳалоллик, меҳр-оқибат, мурувват, андиша, ор-номус, шарму-ҳаё, иб-иффат, бағрикенглик, оила, эл-юрт тушунчаларининг муқаддаслиги, ота-она, маҳалла-қуйға ҳурмат-эйтиборда бўлишлик сингарийўлмас қадриятлар жамланган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-286720-1.html?page=8>КАШТАДЎЗЛИК САНЪАТИ - Миллий ўзликни англаш
2. Широкова З.А., Традиционные женские головные уборы таджиков. // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. -М.: "Наука", 1989.
3. Содиқова Н., Гайбуллаева Ю., Ўзбек миллий бош кийимлари XIX-XX асрлар. -Т.: "Шарк" – Б.12.
4. Қурбонова М.Б. Саллабандон маросимининг тарихий-этнологик таҳлили хусусида. // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. -Т.: "Адабиёт учкуни". 2017.
5. Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
6. Сухарева О.А. Вопросы изучения костюма народов Средней Азии. // -М.: Наука, 1979.
7. Мукминова Р.Г. Костюм народов Средней Азии по письменным источникам XVII в. // Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
8. Бикжанова М.А. Одежда узбеков Ташкента XIX - начала XX в. // Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
9. Писарчик А.К. Материалы к истории одежды таджиков Нурата. Старинные женские платья и головные уборы. // Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
10. Задыхина К.Л., М.В. Сазонова. Мужская одежда узбеков Хорезма конца XIX - начала XX в. // Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
11. Исмаилов Х. Традиционная одежда арабов Кашкадарьинской обл. Узбекской ССР. // Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
12. Васильева Г.П. Головные и накосные украшения туркменок XIX - первой половины XX в. // Костюм народов Средней Азии. -М.: "Наука", 1979.
13. Бугадов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. -СПб., 1869-1871. -С-117.
14. Ўзбек дўппилари тарихи. Уларнинг шакли ва безаклари... fencing.uz/uz/page/1308http://dkm.gov.uz/ru/cto-eto-znacid-sekretu-uzbekskoj-tubetejki
15. Дала маълумотлари. Наманган вилояти. Чуст шаҳри. 2023 йил. март.
16. Ғулломов К., "Амалий санъат"., Т., "ИҚТИСОД-МОЛИЯ". 2007-й. –Б. 19-20.
17. Ўлмасов А., Мусаев Н., Остонов О., Хунармандчилик ҳақида- У ким, бу нима- QOMUSINFO. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/hunarmandchilik-uz/>
18. Садикова Ш.Х. Ўзбекистон дўппилари / Ш. Х. Садикова. — Текст : непосредственный. // Молодой ученый. — 2020. — № 30 (320). — С. 320-322. — URL: <https://moluch.ru/archive/320/72665/>

THE HISTORY OF ARCHEOLOGICAL RESEARCH IN BUKHARA OASIS

*Ochilov Alisher Tulis ugli,
PhD, Bukhara (Uzbekistan)*

ANNOTATION. The article provides a comparative analysis of archeological studies conducted in the Bukhara oasis based on written sources, research findings, and scientific evidence in the academic literature and periodicals. As a result of the study of the history of archeological research in the Bukhara oasis, it is proposed to divide their history into three major periods. The first covers the period from the end of the 19th century till 1920. Studies of this period were mainly conducted by the members of the Turkestan circle of amateur archeologists. The second period, from 1930s to 1990s, was a time of great discoveries in Bukhara archeology. The third period of archeological research in the Bukhara oasis covers the time from 1991 to the present day. During this period, along with local archeologists, foreign archaeologists also began to participate in the research work. The 2500th anniversary of the city of Bukhara was archaeologically based at that time and the fame of Bukhara was spread all over the world. The article analyzes archaeological research conducted during these three periods.

Keywords: Bukhara oasis, archeological studies, Hermitage, Kampir wall, Varakhsha, ancient period.

BUXORO VOHASIDA ARXEOLGIK TADQIQOTLAR TARIXI

*Ochilov Alisher Tulis o'g'li,
PhD, Buxoro (O'zbekiston)*

ANNOTATSIIYA. Maqolada Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yozma manbalar, tadqiqot natijalari, akademik adabiyotlar va davriy nashrlardagi ilmiy dalillar asosida qiyosiy tahlil qilingan. Buxoro vohasidagi arxeologik tadqiqotlar tarixini o'rganish natijasida ularning tarixini uchta yirik davrga bo'lish taklif etiladi. Birinchisi 19-asr oxiridan 1920-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrdagi tadqiqotlar asosan Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari tomonidan olib borilgan. Ikkinchi davr, ya'ni 1930-1990 yillar Buxoro arxeologiyasida ulkan kashfiyotlar davri bo'ldi. Buxoro vohasidagi arxeologik tadqiqotlarning uchinchi davri 1991 yildan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda tadqiqot ishlarida mahalliy arxeologlar bilan bir qatorda xorijiy arxeologlar ham ishtirok eta boshladilar. Buxoro shahrining 2500 yilligi o'sha davrda arxeologik asosda bo'lib, Buxoro dovru'gi butun dunyoga tarqaldi. Maqolada ushbu uch davrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, arxeologik tadqiqotlar, Ermitaj, Kampir devori, Varaxsha, antik davr.

ИСТОРИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ

*Очилов Алишер Тулис угли,
PhD, Бухара (Узбекистан)*

АННОТАЦИЯ. В статье проводится сравнительный анализ археологических исследований, проведенных в Бухарском оазисе на основе письменных источников, результатов исследований и научных свидетельств в научной литературе и периодических изданиях. В результате изучения истории археологических исследований в Бухарском оазисе предлагается разделить их историю на три основных периода. Первая охватывает период с конца 19 века до 1920 года. Исследованиями этого периода в основном занимались члены Туркестанского кружка археологов-любителей. Второй период, с 1930-х по 1990-е годы, был временем великих открытий в бухарской археологии. Третий период археологических исследований в Бухарском оазисе охватывает время с 1991 года по настоящее время. В этот период наряду с местными археологами в исследовательской работе стали участвовать и иностранные археологи. В то время археологически обоснованным было 2500-летие города Бухары, и слава о Бухаре разнеслась по всему миру. В статье анализируются археологические исследования, проводившиеся в эти три периода.

Ключевые слова: Бухарский оазис, археологические исследования, Эрмитаж, Кампирская стена, Варахша, античный период.

INTRODUCTION. Bukhara oasis is one of the largest agricultural centers in Central Asia, and has served as a trade, economic and cultural bridge connecting the cultures of the East and the West from ancient times. The Bukhara oasis on the one hand provided the world with many discoveries and innovations, and on the other hand, enjoyed the cultural and economic impact of the highly developed cultures of Ancient East. At the same time, through centuries of history, a highly developed agriculture, advanced crafts, and commerce have flourished, which have played a special role in the history of the oasis.

Every inch of Bukhara, every historic and cultural monument, symbolizes the great power and creative potential of the local population, the way of progress, science, enlightenment, spirituality, culture, philosophy and religion.

For centuries, Bukhara's reputation has spread throughout the East, not only in the fields of science, education, culture and commerce, but also as a major administrative center of Central Asia as the city was the center (capital) of the ancient rulers of the Eastern Zarafshan region.

Although Bukhara's past is rich and interesting in historical events, many of its pages are not fully preserved till our day.

Specifically, the information on the long history of the oasis, the history of the ancient times, and the emergence of the city may not be found in the written sources, and the available data does not correspond to historical facts. Therefore, archaeological research is very important in the accurate and clear coverage of Bukhara's history.

LITERATURE REVIEW. The first archeological researches in the Bukhara oasis were led by members of Turkestan circle of amateur archeologists, who operated in the late 19th and early 20th centuries (1895-1917). The first archeological excavations in the Bukhara oasis began in the late nineteenth century, or more precisely, in 1896 when the military topographer N.F. Sitnyakovsky came to Bukhara to perform a series of topographic surveys of archeological sites in the area. The study was mainly conducted in the western and eastern parts of the region. Sitnyakovsky's research made him the first archaeological researcher in the Bukhara oasis [1, C.89-94].

N.F. Sitnyakovsky managed to collect the information on the location and general state of preservation on the ruins of Kampir, Shahri Vayron, Abu Muslim, Ganchkhana, Hazora, two settlements near Jumabazar, ruins of Ziyovuddin fortress and Paikent, Uzulishkent, Kumushkent, Zandana, Romitan that were located on the left and right banks of the Zarafshan River.

Among these contributions the works on the archeological site of Paikent are of the most importance. During the works at Paikent N.F. Sitnyakovsky initially found 6 silver coins. He reported on his research to members of the Turkestan circle of amateur archeologists on December 11, 1896, and published his report the same year [2, C.130].

Archeological excavations in the Bukhara oasis continued in the early 20th century. In particular, the American expedition led by geologist Raphael Pumpelly of the Carnegie Institute in 1903 explored the ruins of Paikent [3, C.4]. Based on his initial research at Paikent he stated his hypotheses about the remains of the city walls and the original function of ceramic pipes that were found during the works [4, P.8-10.].

Almost at the same time L.A. Zimin also conducted research on archeological monuments of the Bukhara oasis [5, C.15]. He began his research from the works at Paikent. L.A. Zimin initially analyzed the information on Paikent in the Chinese sources, works by Arab travelers, as well as local written sources along with 19th century publications by N. Khanikov, V.V. Barthold. After thoroughly familiarizing himself with the available written sources, Zimin concluded that the first archaeological excavations should be undertaken. He noted that the area was well preserved when he first arrived at Paikent, and he began his initial research by conducting topographic measurements and eye sketching. L. Zimin first studied the ruins of the wall in the southern and south-eastern parts of the city, and found a number ceramics, glass and iron items along with silver coins [6, C.87]. Based on the analysis of coins, L.A. Zimin suggested that the ruins of Paikent existed before the Arab invasion, developed during rule of the Samanids (9th-10th centuries) and abandoned during the Karakhanids (12th century) [7, B.129-134]. Further archeological research at the site of Paikent proved this

theory right. L.A. Zimin's research in Paikent was continued in 1914, and twice (in spring and summer), archeological research was conducted [3, C.4].

Critical movements in the Russian empire in 1917, the February bourgeois democratic revolution, and then the October Revolution and other political processes required the archeological research in the region to stop until the 1930.

RESEARCH METHODOLOGY. The first serious archaeological excavations in the Bukhara oasis after the establishment of the Soviet rule were carried out by the Uzkomstaris and the Hermitage Museum in 1934 lead by A.Yu. Yakubovskiy. Yakubovskiy organized a special archaeological expedition in the region and studied the remains of the defensive constructions in the north-eastern part of the oasis. He published the report on these works in 1940. The expedition was planning to study a caravan route from Bukhara to Samarkand. During the activity the edges of the north-eastern part of the Bukhara oasis were archeologically examined. The monuments along the oasis defensive wall system known Kampirdevol, such as Kyzyltepa, Shahshahidon, Abumuslim, Burikhona, Ganchkhana, Hazora and Dengak were studied. Their plan and layout of the buildings were identified and put on paper.

The report of the Yakubovsky's expedition also highlighted the important historical problems associated with Kampirdevol. In particular, it touched upon the relationship between the settled population of the oasis and the nomadic peoples of the desert and steppe regions. These archaeological sites, studied by Yakubovsky, were examined superficially without conducting archeological excavations. One of the successes of the expedition was the identification of the Deggaron Mosque near the archaeological site of Hazora that was concluded to be not younger than the famous Samanid mausoleum in Bukhara [8, C.61].

V.A. Shishkin also conducted research in the region at the same time as A. Yakubovsky. V.A. Shishkin began his first research in Bukhara in 1934 with the archaeological study of the Kampirdevol. To do that he tried to travel around and survey the whole Bukhara oasis. He also studied the remains of the defensive wall in the southern and eastern parts of the oasis. Along the way, monuments such as Aksoch, Khoja Ajuvandi and Kuyitepa were also examined. In the course of the research, archaeological sites that were located close to the remains of the wall, such as Kuyimozor cemetery, Vardonze, Zandana, Varakhsha were identified [10, - 50 c]. These studies provided a great deal of information about the history of the Bukhara oasis. However, all of them were conducted outside of Bukhara city, which awaited to be archeologically examined [5, C.16].

The first archaeological survey in the city of Bukhara was conducted in 1934 by V.A. Shishkin in the area of the Maghoki Attori mosque and provided some information about the history of the city [11, C.29-60].

V.A. Shishkin began to study the Varakhsha archeological site in the western part of Bukhara oasis starting from 1937. Initially, he paid attention to the shape of excavated structures and their elevation. Shishkin understood that these excavations were promising, and considered the area to be part of the complex. During excavations of one of the rooms in Varakhsha it was discovered that the walls of the room were covered with decorative pieces and decorations of various shapes. It was acknowledged as belonging to the style of the Sasanian era [10, C.9-27].

During that period, in 1939-1940 archeological researches were carried out in the city of Paikent as well. Archeological study of Paikent was conducted by A.Yu. Yakubovsky [9, C.113-164], V.N. Kesaev and V.A. Shishkin [5, C.16-17] and the topographic map of the site was created a topographic map of the city of Poykent. This map shows that the city consists of three parts: Ark fortress - 1 ha, Shahristan (inner city) section - 13 ha, Shahristan II - 7 ha [12, B.8].

However, by the 1940's due to the Second World War, the archaeological research in the oasis was temporarily suspended. In the postwar period, archaeological investigations in the Bukhara oasis moved to the Varakhsha massif. Archeological researches of V.A. Shishkin started in 1947 in Varakhsha [13, C.62-70] and lasted for 6 years [14, C.10]. Research in Varakhsha was different from other monuments of its time in Central Asia. Because this monument was considered to be a magnificent building in history.

Other famous scholars, such as archaeologist Lazar Albaum, Natalia Diakonova, architect V. A. Nilson and art historian Meshkeris also participated in the archaeological works by V. A. Shishkin at Varakhsha [5, C.17].

Since all of the above studies were concerned with medieval sites, it was widely believed that Bukhara is a medieval city. However, archaeological research by Ya.G.Gulomov, starting from 1950, proved this point to be wrong [15, Б.33-34].

While surveying the shorelines of the ancient water arteries he found a number of stone tools scattered around. Ya.G. Gulomov discovered the ancestors' huts, built on lakeside and river banks during the field search, collected fragments of Neolithic ceramics and stone tools, scattered in the sands around the huts. From this the scientist concludes: «The north-western areas of the Bukhara oasis are the most promising archeological reserves, with monuments of the period of archeological primitive community» [16, С.149-161]. The expedition team, led by Yahya Gulyamov, is investigating more than 60 Neolithic and Bronze Age locations in the lower reaches of Zarafshan. Among them are the opening of monuments of Mohankul, Zamonbobo, Kichik Tuzkon, Big Tuzkon, Deep Lake, Parsang Lake and Luklikul, as well as archeological finds from monuments.

After Yahya Gulyamov, the studies of the ancient history of the oasis were continued by U.Islamov and A.Askarov [17, Стр.266].

In 1950s many areas of Bukhara oasis were archaeologically studied by the expedition lead by S.N. Yurenev. They provided some accurate information on the history of the city [18, Стр.30].

In the 1960s archaeologist A.Mukhammedjonov began to study the irrigation system of the Bukhara oasis. He tried to draw conclusions by studying hundreds of written sources, archeological and ethnographic materials for the study of irrigation of the Bukhara oasis. A.Muhammedjonov demonstrated the development of irrigation systems in the period from the appearance of irrigation systems of the Bukhara oasis to the beginning of the 20th century [19].

The expeditions of A. Mukhamedjanov, J.K. Mirzaakhmedov and Sh.T.Adilov began in Bukhara, and as a result studied the ancient and medieval culture of the Bukhara oasis. J.K. Mirzaakhmedov wrote a complete and comprehensive PhD thesis on the late medieval ceramics of Bukhara [20]. In his later work he was able to distinguish very specific ceramic items from this oasis. As a result, the typology of the ceramics of the Bukhara oasis and its timeline now serve as a reference point for medieval ceramics of other parts of Central Asia.

In the 1980s archaeologist Sh.T. Adilov conducted a thorough archeological study of ancient and early medieval urban culture of the Bukhara oasis [21, С.65-75].

G.L. Semenov played a great role in the archeological study of the Bukhara oasis [22]. In 1981, the Russian State Hermitage museum, the Institute of Archaeology of the Uzbekistan Academy of Sciences, and the Institute of Oriental Art in Moscow began excavations at Paikent and other various archeological sites of the Bukhara oasis. Furthermore, annual reports on archaeological research conducted in Paikent were published in the form of a separate book.

During the years of Independence, the directions of the archaeology of the Bukhara Oasis was updated and improved in terms of topics and scientific problems. A review and evaluation of some of the scientific views and approaches previously held in scientific communication was also initiated. In the Mesolithic and Neolithic periods, it was important to reveal such issues as the reasons for the development of different territories, the influence of natural geographical conditions on human activity and lifestyle, the socio-economic level of clan communities.

These issues were interpreted in separate monographs, articles and dissertations. In this regard, it is necessary to mention the researches of N.O. Kholmatov, M.M. Khojanazarov, B.K. Sayfullaev, D.M. Jo'rakulova, M.I.Niyazova and Kh.B.Khoshimov[23].

As a result of the attention paid to archaeological research during the period of Independence, foreign archaeologists also showed interest in the primitive period of the region and started their research. In particular, the representatives of the Uzbek-Polish joint archaeological expedition conducted comprehensive research on the archaeological monuments related to the Kaltaminor culture [24, P.118-125], and the researches on the ancientization of the periodical date of the Kaltaminor culture, the research conducted by the representatives of the joint Uzbek-French archaeological expeditions on the Neolithic settlements of the Bukhara oasis, and the archaeological monuments of Ayokogitma can be emphasized [25, - 252 p].

It should be noted that at the beginning of the XXI century, as a result of the «Archaeological

Topography of the Bukhara Oasis» project and extensive research carried out in other areas by the Italian-Uzbekistan expedition staff (B. Djenito, K.S. Antonini, O. Kerasuolo, D.K. Mirzaahmedov), the first no settlements of the Iron Age were found, and on the contrary, many ancient and early medieval monuments were identified[26]. These data indicate that the Lower Zarafshan pond was less exploited than the oases of the middle course of this river in the early Iron Age. This situation is reflected in the published maps of the geography and development dynamics of the monuments of the Bukhara oasis, taking into account the new researches of the French-Uzbekistan expedition and the information obtained in previous years [27, – С. 384-402.].

ANALYSIS RESULTS. During the years of independence, the archeology of Uzbekistan and the archaeological study of Bukhara as it's integral part has grown significantly. Archaeologists have scientifically justified the 2500th anniversary of the city of Bukhara. In addition to local archaeologists, archaeological expeditions are being carried out in collaboration with archeologists from other developed countries. Under the framework of such cooperation, archaeologists from Italy, France, USA and Russia conduct joint excavations in various archeological monuments of the Bukhara oasis.

CONCLUSION/RECOMMENDATIONS. In conclusion, despite the fact that the archaeological survey of Bukhara oasis has started only 120 years ago, it has been providing us with a great deal of information about the history of the region. Research has shown the continuity in the historical and cultural developments in the region from the Stone Age to the Middle Ages. The progress in Bukhara suggests that they had high cultural backgrounds that had arisen as a result of their interactions with neighboring populations. As a result of the research, some aspects of the history of the Bukhara oasis were described in more detail. However, we can't say that all the problems and issues in the archeology of the oasis are resolved.

REFERENCES

1. ПТКЛИА.год III.-Ташкент,1897-1898.-С.89-94.
2. Ситняковский Н.Ф.Заметки о Бухарской части долины Зерафшана, Известия Туркестанского отдела русского географического общества.. -Ташкент,1900. - Т.I. -Вып. 2. -С.130.
3. Городище Пайкенд. К проблеме изучения средневекового города Средней Азии. -Ташкент,1988.-С.4.
4. Explorations in Turkestan. Expedition of 1903, under the Direction of R. Pumpell,- Washington,1905.-P.8-10.
5. Шишкин В.А. Варахша.-М.,1963.-С.15.
6. Зимин Л.А. Развалины Старого Пайкента//Протокол заседания и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии год восемнадцатый (11 декабр 1912г.—11 декабр 1913 г.). Протокол № 4. 30 апрель 1913 г. -Ташкент,1913а.-С.87.
7. Очиллов А.Т. Пойкандда олиб борилган археологик тадқиқодлар тарихидан // Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан хозиргача).-Бухоро,2019. -Б.129-134.
8. Нильсен В.А. Мечеть Деггаран в селенни Хазара (Архитектурно-археологический очерк) // Труды Института истории и археологии АН УзССР.. -Ташкент,1955. –Вып.7. - С.61.
9. Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчет о работах Зерафшанской археологической экспедиции Эрмитажа. ИИМК в 1939 г. // ТОВЭ. Т.II. – Л., 1940. - С. 51-71.
10. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент, 1940. – 50 с.
11. Шишкин. В.А. Раскопки в мечети Магаки-аттари в Бухаре // Труды Института истории и археологии АН УзССР. -Ташкент, 1955. -Вып.7.-С.29-60
12. Фан ва турмуш. 1992. -№3-4. -Б.8
13. Шишкин В. А. Археологические работы 1947 г. на городище Варахша // «И АН УзССР». -Ташкент, 1948. -№ 5. - С.62-70.
14. Шишкин В.А. Некоторые итоги археологических работ на городище Варахша (1947-1953 гг.) // Труды Института истории и археологии АН УзССР. -Ташкент, 1956. - Вып.7. - С.10
15. Мухаммаджонов А. Яхё Фуломовни хотирлаб. - Тошкент,2008. - Б.33-34.

16. Гулямов Я.Г. Археологические работы к северу от Бухарского Оазиса // Труды Института истории и археологии АН УзССР. –Ташкент,1956. - Вып.8. - С.149-161.
17. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана.-Ташкент,1966. – 266 с.
18. Ставиский Б. Я. Сергей Николаевич Юренев. - Бухара,1996. – 30 с.
19. Мухаммаджонов А.Р. Куйи Зарафшон водийсининг суғориш тарихи. -Тошкент,1972. - 376 б.
20. Мирзаахмедов Дж.К. Глазурованная керамика Бухары второй половины XVII – начала XX вв. как исторический источник. Авт. дисс. канд. ист. наук. -Самарканд,1987.
21. Адылов Ш.Т. О коропластике Бухарского Согда // ИМКУ.-Ташкент,1983. – Вып.18. - С.65-75.
22. Семенов Г.Л. Согдийский город V-XI вв. Формирование плана (по материалам Пайкенда вв Бухарском оазисе и Ак-Бешима в Семиречье). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук. –СПб.,2002.
23. Холматов Н.Ў. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти. – Тошкент: Фан, 2008. – 181 б.; Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины р. Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Самарканд, 2003. -62 с.; Холматов Н.У., Жўрақулова Д.М. Зарафшон воҳаси илк жамоалари маданиятининг узвийлик хусусиятлари // Зарафшон воҳаси ва унинг тарихдаги ўрни. – Самарканд, 2001. – Б. 17-20; Ниязова М. И. Қадимги ва ўрта аср заргарлик буюмлари Бухоро маданияти тарихи манбаи сифатида (археологик материаллар бўйича). Тарих фанлари номзоди ... диссертацияси. – Самарканд, 2007. – 158 б.; Сайфуллаев Б.К., Хужаназаров М.М., Джурақулова Д.М. Новые данные по палеолиту Кызылкумов // история и археология Турана. – № 3. – Самарканд, 2017. – С. 31-37; Хошимов Х.Б. Оёқогитма макони – илк неолит даври тош индустрияси. Тарих фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2019. – 22 б.
24. Brunet F., Khudzhanaarov M., Hoshimov H.B. Nouvel les doonnes sur la chronologie de la culture de Kel'teminar (VII-IV millenaires) en Ouzbekistan // The history of material culture of Uzbekistan.-Samarkand, 2012. – № 38. – P.118-125.
25. Szumchak K., Khudzhanaarov M. Exploring the neolitik of thr Kyzyl-kums Ajakagytna “the site” end other collection. – Warshava university, 2006. – 252 p.
26. Genito B et al.Preliminary notes on the ‘Archaeological Topography in the Bukhara Oasis’ project // Italo-Uzbek Scientific Cooperation in Archaeology and Islamic Studies. - Rome , 2003 – Pp 73-74; Silvi Antonini C. Loscavo. Il castello eil complesso fortificato meridionale // Gli scavi di Uch Kulakh (oasi di Bukhara). – Rome, 2009. – Pp. 43-180; Cerasuolo O Indagine topografica nel territorio di Varakhsha// Gli scavi di Uch Kulakh (oasi di Bukhara). – Rome, 2009. – Pp. 189-210.
27. Ранте Р., Фуаш Э., Мирзаахмедов Д.К. Динамика развития поселений Западного Согда в связи с изменением русла Зарафшана и формах торговли: фортификация «северо-восточного Великого шелкового пути» // История и археология Турана.– Самарканд, 2017. -№ 3. – С. 384-402.

**БУХОРО ВОҲАСИ НИКОҲ ТҶИИ ТИЗИМИДА СОВЧИЛИК
УДУМЛАРИ: АНЪАНАВИЙЛИК ВА ЗАМОНАВИЙЛИК**

*Шамсиева Зилола Аскарровна,
Термиз давлат университети таянч докторанти*

Аннотация: Ушбу мақолада Бухоро воҳаси никоҳ тўйининг асосий удуми-совчилик, у билан боғлиқ анъанавий ва замонавий урф-одатлар тарихий-этнографик нуқтаи назардан таҳлил қилинган. Бундан ташқари, ушбу удумга тегишли расм-русумлар республикамиз бошқа ҳудудларида учрайдиган урф-одатлар билан қиёсланади. Хусусан, совчилик удумининг замонавийлашув жараёни ва унинг ижобий ва салбий жиҳатлари очиқ берилган.

Калит сўзлар: Никоҳ, бешиккертти, глобаллашув, совчилик, “хитба”, розилик, рад жавоби.

**СВАТОВСТВО В СВАДЕБНОЙ СИСТЕМЕ БУХАРСКОГО ОАЗИСА:
ТРАДИЦИОННОСТЬ И СОВРЕМЕННОСТЬ**

*Шамсиева Зилола Аскарровна,
докторант Термезского государственного университета*

Аннотация: В данной статье с историко-этнографической точки зрения анализируется главное событие свадьбы Бухарского оазиса - свадебный обряд, связанные с ним традиционные и современные обычаи. Кроме того, росписи, связанные с этой традицией, сопоставляются с традициями, встречающимися в других регионах нашей республики, в частности раскрывается процесс модернизации удума совчика, его положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: Брак, колыбельный сговор, глобализация, сватовства, «хитба», согласие, отказ.

**MATCHMAKING IN THE BUKHARA OASIS WEDDING SYSTEM:
TRADITIONALITY AND MODERNITY**

*Shamsieva Zilola Askarovna,
PhD student of Termiz State University*

Annotation: In this article, from the historical and ethnographic point of view, the main event of the wedding of the Bukhara oasis is analyzed - "sovchilik" (matchmaking), traditional and modern customs associated with it. In addition, the customs associated with this tradition are also compared with the traditions found in other regions of our republic, in particular, the process of modernization of the "sovchilik", its positive and negative sides, is revealed.

Key words: Marriage, lullaby collusion, globalization, matchmaking, hitba, consent, refusal.

КИРИШ. Ўзбекистоннинг тарихий-этнографик минтақаларидан бири Бухоро воҳаси никоҳ тўйи маросимлари ўзининг ранг баранглиги ва этнолокал удум ва анъаналарга бойлиги билан бошқа этноҳудудлардан ажралиб туради. Мазкур хусусият, воҳа никоҳ тўйи маросимларини тарихий-этнографик материаллар асосида тадқиқ этиш жараёнида кўзга ташланади.

Бухоро воҳаси аҳолисининг анъанавий никоҳ тўйи маросимлари баъзи жиҳатлари, хусусан, XX асрда Зарафшон воҳасида ўтказилган тўй маросимлари О.А.Сухарева [1;172-176], Н.А.Кисляков [2;98], Т.Г.Емеляненко [3;27-28], Н.П.Лобачеванинг [4;15-25] бир қатор илмий мақоаларида ёритилган. Бироқ бугунги кунгача Бухоро воҳаси никоҳ тўйлари маросимлари муҳим компоненти-совчилик ва унинг билан боғлиқ урф-одатлар этнографик нуқтаи назардан етарлича ўрганилмаган.

АСОСИЙ ҚИСМ. Бухоро воҳасида ҳам никоҳ тўйи маросимлари дебوحаси келинни танлаш ва унинг уйига совчиликка бориш билан бошланган. Йигит улғаяётган хонадонда уни уйлантириш фақат ота-онанинггина эмас, яқин қариндош, дўст-у биродарларнинг ҳам ташвиши ҳисобланади. Шунга кўра, улар йигитга муносиб қизни кўз остига олганлар ва йигитнинг онасига дарак берганлар.

Қиз танлашнинг бир неча хил анъанавий кўринишлари мавжуд. Шулардан бири бу-янги туғилган чақалоқларнинг бешикда бўлган давридаёқ уларнинг ота-оналари томонидан келажақдаги никоҳ тўғрисида келишиб олишидир. Бу одат дунёнинг бошқа

халқлари, жумладан, Сибир татарларида[5;112-119], Олтойликларда[6;222], бошқирлар ва чувашларда [7;175], шунингдек, Волгабўйи ва Кавказ халқларида [8;143] ҳам мавжуд.

Хисор водийси тожикларида эса совчилик удумининг тур хил номланиши ўрганилган. Хусусан, Файзобод, Ягноб, Ёвон, Варзоб тожиклари орасида “доманчок”, “доманддарон”(ўзб.“этак йиртди”), Элоқ, Гумбулоқ тожикларида “танбахшиш”, Форишда “риштабанд”, Зарафшонда “номзад”, Ромит ва Варзоб қишлоқларида “кундапартойи” деб аталган.[9;6]

Бухоро воҳаси ўзбекларида бу удум “бешиккертти”[10;48], “бешиккуда”, “этак йиртди”, “этак чатди”, тожиктилли аҳоли эса, “таҳворабахш”, “бахшанда” каби атамалар билан номланган.[11] Ахборотчиларнинг таъкидлашларича, бу удумни амалга ошириш учун бўлғуси куёв хонадони вакили томонидан янги туғилган қиз чақалокнинг бошига рўмол ўралиб, қулоғига тилла халқа тақилган. Бундан ташқари, қиз чақалокнинг уйи остонасини ёши кекса онахонлар супуриб, мақсадларини билдиришган.[12] Воҳанинг Ғиждувон тумани Ғовшун қишлоғида XX асрнинг 60-70-йилларида кузатилган бу одатга кўра, қиз бола туғилганида уни келин қилишни ният қилган оила мазкур хонадонга ташриф буюриб, чақалокқа кийгизилган кўйлакнинг этагини йиртиб “этак йиртди”(тож.домандаррон) ёки “этак чатди”(тож. доманчок) расм-русумни бажаришган.[13] Маълумки, бешиккертти удуми ҳақидаги маълумотлар халқ достонларида ҳам сақланиб қолган. Жумладан, халқ достони-“Алпомиш”да ҳам Барчин туғилганидаёқ “бешиккертти” удумига рия қилинганлиги қуйидагича келтирилади: «Ана шунда Шохимардон пири Ҳақимбекка Барчинойни аташтириб, бешиккертти қилиб: «Бу иккови эр-хотин бўлсин, Ҳақимбек билан ҳеч ким баробар бўлмасин, омин Оллоҳу Акбар», -деб фотиҳани бетига тортиди». [14;140] Демак, “бешиккертти” ўзбек халқининг қадимий, анъанавий удумларидан биридир. Бироқ бугунги кунда воҳада ёшларимизнинг “бешиккертти” ёки “таворабахш” удумига амал қилиб, турмуш қуриши деярли учрамайди.

Бухоро воҳасида никоҳ тўйи дебчаси совчилик удумидан бошланади. Совчилик эса бухороликларда ҳам Хоразм воҳаси ўзбеклари сингари “қиз қидирди” удумига рия қилишдан бошланади[15;31], яъни бўлғуси келин номзоди танланади.[16] Одатда, никоҳдан аввал совчилик ва “қўл сўраш” деб аталган масала ислом динимизда ҳам ёритиб берилган. Шаръий манбаларда совчилик “хитба”[17;222] деб юритилади. Аммо, “хитба” шаръий маънодаги совчилик бўлиб, у айнан аёл кишилар томонидан амалга оширилиши шарт эмас. Балки, бу – уйланмоқчи бўлаётган кишининг ўзи томонидан ҳам бажарилиши ёхуд у ўртага қўйган вакил томонидан амалга оширилиши мумкин. Чунки, фикҳий маънодаги совчилик бу – уйланиш ёки келин қилиш истагида бўлган қиз ёки аёл ёхуд унинг валийсига бўлажак эрнинг шахсан ўзи ёхуд унинг вакили томонидан оила қуриш ҳақидаги мазкур истак ва рағбат очиқ айтилиши тушунилади, холос.[18;222]

Воҳада “қиз танлаш” ёки “қиз кўриш”(тож.“духтар бини”)да фаоллик кўрсатадиган аёллар ўзбекларда эса “ўртақаш”, тожикларда “миёнарав” деб аталган.[19] Этнограф А.Л.Троицкаянинг ёзишича, танланаётган қизнинг иффати, ҳаёси, меҳрибонлиги, меҳнатсеварлиги, катталарни ҳурмат қилиши инobatга олинади.[20;225] Зеро, барча халқлар маданиятида танланган қиз муносиб мақомга, саломатлик ва гўзалликка, такводорлик ва камтарлик каби фазилатларга эга бўлиши, муносиб оила ва уруғдан бўлиши лозим.[21]

Воҳанинг Бухоро шаҳри, Шофиркон, Вобкент, Ғиждувон туманларида бугунги кунда келинни танлашда унинг хулқи, ёши, ташқи кўриниши, яқин қариндош-уруғларига эътибор муҳим бўлиб, бу жараёнлар «қиз кўриш», «уй кўриш» (тож. “хона бини”) одатлари орқали амалга оширилади. Бунинг учун танланган қизнинг манзилни аниқлаштиргач, куёвнинг онаси ёки ёши катта хола, амма ёки бошқа аёл қариндоши бориб, қизнинг уйи атрофи тозалигини кўради, бу оила ҳақидаги маълумотларни унинг кўни-қўшнилари, маҳалла фаолларидан бориб сўрайдилар.[22]

Анъанага кўра, Бухоро воҳаси баъзи қишлоқларида ҳам танланган қиз хонадонига аёллар бориб “оғиз уриш”(тож.“даҳан задан”)ган. “Оғиз уриш”-бу қизнинг “боши бўшми” ёки “боши боғлиқми” (тож.“жавобаш додаги”, “банд кардаги”) деб суриштиришдир, яъни бошқага унаштирилмаганми деганидир. Шундан сўнггина расмий ҳолда илк марта совчиликка борилган.

Танланган қиз ҳақидаги маълумотлар ижобий бўлса, совчилик сари илк қадамлар қўйилиши табиий. Совчиликка оиланинг эркак ёки аёллари бориши ҳар хил. Айрим оилаларда эркаклар бориши афзал кўрилса, бошқа оилаларда кўпроқ аёллар бориши

кузатилади.Эркаклар совчиликка борганларида фақат ота-онанинг суҳбатига,яъни муомаласига эътибор берадилар. Гўёки фарзанд яхши ота-она тарбиясидан қочиб узоққа бормайди, деб хулоса чиқарадилар. Совчи аёллар эса табиатан синчков бўладилар. Шунинг учун қизнинг ота-онасининг муомаласидан ташқари хонадон озодалигига кўпроқ эътибор берадилар ва келин танлашда адашмайдилар. Бугунги кунда воҳанинг кўпгина манзилларида куёв ота-онасининг совчиликка бирга бориши урфга кириб боряпти.[23;10] Бу ҳолатни совчилик удумидаги замонавийлашувнинг намоён бўлиши деб қабул қилиш лозим. Воҳада одатда совчиликка аёллар борадилар. Чунки эркак кишиларнинг нотаниш хонадонга дабдурустдан боришлари бироз ғалати ва эриш туюлиши, баъзи ноқулайликларга сабаб бўлиши мумкин.[24] Бухоро шаҳрида тожик тилли аҳоли орасида совчиликнинг дастлабки босқичларида,асосан, аёллар фаоллиги кўзга ташланади.

Воҳанинг Шофиркон, Қоракўл, Вобкент, Жондор, Ғиждувон тумани қишлоқларидаги ўзбек оилаларида эса совчиликнинг дастлабки босқичларида бугунги кунгача, эркаклар бош бўлганлар.[25] Ушбу одат Қашқадарё воҳасида ҳам кузатилган. [26;36] Совчиликка борадиганлар, Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида ҳар хил аталган. Масалан, Самарқанд тожиклари “завчи”[9;19],Қашқадарё воҳаси Шаҳрисабз, Китоб, Қарши туманларида “совчи”, Чирокчи,Қамаши,Дехқонобод,Косон туманларида “жовчи”, Касби,Тошкўрғон қишлоқларида “жугчи”[26;36], Бухоро воҳаси ўзбекларида “совчи”,[27] тожикларида эса “хўскор” деб аталади.[28] “Хўскор”-“хостгор” сўзининг бузилган варианты бўлиб, “хост”-“исталган” “-гор”(ўзб.-кор) эса тожик тилидаги шахс оти ясовчи қўшимча бўлиб, “киши” деган маънони англатади.[29;278] Демак, совчиликка бўлажак куёв онаси ўзи истаган, хоҳлаган, танлаган ўзига яқин ва маъқул деб топган киши билан боради,деганидир.

Қашқадарё воҳасида совчиликка,асосан, хафтанинг хосиятли душанба, чоршанба, жума кунлари кечқурун, окшом тушгандан сўнг одатда икки, баъзан уч-тўрт эркак киши бўлиб борилса[26;36], Бухорода совчиликка бориш учун энг хосиятли кунлар чоршанба ва шанба танланган.[30]

Бухоро воҳасида ҳудудларида совчиликнинг ўзига хос кўринишлари кўзга ташланади.Совчиликка биринчи марта борганда йигитнинг онаси, аммаси ёки холаларидан бири ёки бошқа аёл билан мўлжалланган қиз хонадонига ташриф буюриб, «меҳмонга келдик» баҳонаси билан қизни кўрадилар. Айни пайтда уй-жой, ҳовлининг тозалиги, саранжом-саришталиги, дастурхон безалиши, уй эгаларининг меҳмондўстлигига разм соладилар. Қизнинг онаси билан суҳбатлашиб, халқимизнинг «онасини кўру, қизини ол» нақлига амал қиладилар. Ахборотчиларнинг фикрига қараганда, йигитнинг онаси ўз ўғлини макташи урфга кирмаган. Ўзбекона одобга мувофиқ, совчилар ҳам, қиз хонадони вакиллари ҳам бир-бирларининг хурматларини жойига қўйиб мулоқотга киришадилар.[31]

Совчиликка қуруқ қўлда борилмаган. Шунинг учун биринчи марта ширинлик олиб борилган.[32] Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш керакки, воҳа марказида аёллар ҳам, эркаклар ҳам совчиликка қандолатсиз бормаганлар. Чунки қандолатнинг оппоқ ранги бахт-саодат рамзи ҳисобланган.[33;88] Бирок,бу илк ташриф узоққа чўзилмаган,яъни тахминан 10-20 дақиқа давом этган. Қизнинг онаси ёки совчиларни кутиб олишда иштирок этган бошқа аёл (келиннинг холаси, аммаси) меҳмонларнинг келганликларидан хурсанд эканликларини, бу масалада бир фикрга келиш учун, авваламбор оиланинг эркаклари (қизнинг отаси, тоғаси, амакиси, бобоси ёки ака-укалари) билан маслаҳат қилишлари даркорлигини, бу эса бироз вақт олишини одоб ва андиша билан тушунтиришади. Биринчи марта ташрифдаёқ ижобий жавоб,яъни қизнинг жавобини бериш совчилик этикети қоидаларига мувофиқ келмайди, шунинг учун совчилар камида икки ёки уч марта келишлари керак.[34]

Биринчи ташрифда қизнинг онаси совчилар олиб келган ширинликларини қайтариб беришга ҳаракат қилади. Совчилар эса бу “шунчаки арзимас бир ширинлик” (тож. Як дахан ширини, киройи шумо намекунад) эканлигини айтдилар ва уни қизнинг хонадонига қолдирадилар.[35] Борди-ю,қиз ва йигитнинг бир-бирига қўнғил қўйганидан икки томон хабардор бўлишса, қиз томон ширинликни биринчи галдаёқ сақлаб қолади.Умуман, совчилар қиз хонадонига розилик олгунга қадар ширинлик олиб келаверишади.[36]

Ахборотчиларнинг маълумотларига кўра, куёв номзодга қўйиладиган асосий талаблар ҳалоллик, мардлик, тўғрисузлик, илмлилик, ўз касбига эга бўлиш ҳисобланади. Қиз томонга совчиликка келган оила вакиллари маъқул бўлиб тушса, ўша оила ҳақида маълумотлар йиғишни бошлайдилар, қўни-қўшни, қариндош-

уруғларидан сўраб суриштирадилар. Суриштирув жараёнида қиз оиласининг эркак ва аёллари бирдай иштирок этади.[37] Қиз томоннинг рад жавоби-бу асосий белгиси-совчилар томонидан келтирилган ширинликларнинг қайтарилишидир. Шунингдек, айрим совчилар чиқиб кетаётганда оёқ кийимлари учи эшикка қаратиб қўйилса, рад жавобининг белгиси ҳисобланар экан.[38] Демак, қизнинг жавобини олиш учун совчилар тез-тез, қайта-қайта келишган. Бундан ташқари бугунги кунда одатда қизнинг жуда ёшлиги, ўқишини битирмаганлиги сабаб қилиб кўрсатилса ҳам рад этилганлиги деб тушунилган.[39] Совчиларга розилик жавоби аломати ҳам ўзига хос бўлган. Бунда қизнинг онаси совчиларни дастурхон ёзиб қутиб олади ва улар биринчи сафардагига нисбатан сал узоқроқ ўтиришади. Ташриф сўнгида қизнинг онаси совчилар келтирган дастурхондаги ширинликларни сақлаб, ўрнида бошқа ширинлик қўйиб қайтаради. Айнан мана шу белги қиз томоннинг розилик белгиси ҳисобланади. [40] Розилик жавоби олинган кундан бошлаб йигит “бўлажак куёв”, тожикларда “доммотшаванда”, қиз эса “келиншаванда” деб аталади. Йигит ва қиз томон ота-оналари ёки қариндошлари эса бир-бирларига “қуда” деб мурожаат қилишади[41].

Қизнинг жавоби, яъни розилиги билдиргач, совчилар ҳузурида қиз ва йигит бир-бирларига унаштирилганлиги эълон қилинади ва дастурхон ёйиб, “нон синдириш” маросими (тож. “нон шиканон”) ўтказилади. Шу маросимда бўлажак келин уйида ўтказиладиган “фотиҳа тўйи” куни белгиланади.[42]

Бугунги кунда воҳада совчилик билан боғлиқ урф-одатлар, удумларда рўй бераётган ўзгаришлар, яъни замонавийлашув жараёнлари яққол кўзга ташланади. Булар қуйидагилар:

- халқ орасида “бешиккертги”, “гаҳворабахш” удумининг унутилиб бораётганлиги, айрим ёшларнинг бу удум ҳақида ҳаттоки тасаввурга эга эмаслиги;

- бўлажак куёв ота-онасининг совчиликка бемалол, тортинмай қиз хонадонига бир ўзлари боришининг урфга айланиши ва натижада куёв яқин қариндошларининг (амма, хола, амаки, тоға) ушбу жараёнларда роли пасайганлиги;

- илк совчиликка бораётганда агар бўлажак келин ва куёв олдиндан бир-бирлари билан танишиб, учрашиб юрган бўлсалар, совчилар томонидан дабдабали дастурхон тайёрлаб борилиши, дастурхон таркибида одатдаги нон, фатир, қандолат маҳсулотларидан ташқари мева-чева, турли ичимликлар, торт ва келинга сарполарнинг катта-катта замонавий саватларда этилиши;

Ушбу юқорида келтирилган мисоллар глобализация жараёнинининг ижтимои ҳаётимизга бевосита таъсири десак, адашмаган бўламиз. Зеро, замонавий совчилик анъанавий совчиликдан, асосан, дабдабазлик, кимўзарга совға саломлар тайёрлаб, ўзининг иқтисодий шароитини кўз-кўз қилиш каби салбий хусусиятлари билан ҳам фарқланади.

ХУЛОСА. Хулоса қилиб айтганда, Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларида никоҳ тўйи тизимидаги совчилик удуми ўзига хос хусусиятларга эга. Ушбу удум Қашқадарё, Хоразм воҳаси ўзбеклари, Ҳисор воҳаси тожиклари никоҳ тўйи совчилик удумлари билан қиёсланди, улар орасидаги ўзига хослик, ўхшашлик ва фарқлар ўрганилди. Бухоро воҳаси никоҳ тўйи маросим ва расм-русумларининг ўтказилиш тартиби ва у билан боғлиқ жараёнларнинг анъанавий ва замонавий кўринишларини аниқлаш, унинг ижтимоий аҳамиятини тарихий этнографик нуқтаи-назардан янада изчил тадқиқ этиш тарихчи-этнографлар зиммасидаги улкан вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

[1] Сухарева О.А. Свадебные обряды таджиков город Самарканда и некоторых других районов Средней Азии. // Советская этнография.-М.:, 1940.

[2] Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Ленинград., Наук. 1969.

[3] Емельяненко Т.Г. Современная свадьба в Каракуле: традиции и инновации. Этническое традиции в культуре. Санкт-Петербург. 2019.

[4] Лобачева Н.П. О формировании нового свадебного обряда у народов Узбекистана // СЭ. 1967. № 2.

[5] Коломиец О.П. О некоторых формах брака у Сибирских татар. // Культурология традиционных сообществ: Конкурсные работы молодых ученых.-Омск, 2002.

[6] Дьяконова В.П. Алтайцы (материалы по этнографии теленгитов Горного Алтая).- Горно-Алтайск, 2001.

[7] Козлова К.И. Этнография народов Поволжья. -М., 1964.

[8] Валеев Ф.Т. Сибирские татары. Культура и быт.-Казань, 1993.

- [9]Мардонова А. Традиционная свадьба таджиков Гиссарской долины. (Этнографические материалы).-Душанбе."Амри илм".-2002.
- [10] Бешиққертти-қиз болани чақалоқлигидан унаштириб қўйиш одати./ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати.-Т.-"Университет".,1994.-Б.48.
- [11]Дала ёзувлари. Шофиркон, Вобкент, Ғиждувон, Қорақўл туманлари.2020-йил.
- [12]Дала маълумоти.Бухоро шаҳри,Тағбандбофон маҳалласи.2022-йил.
- [13]Дала ёзувлари. Ғиждувон тумани, Ғовшун қишлоғи.2021-йил.
- [14] Jo'rayev M, Eshonqulov J.. Folklorshunoslikka kirish.-Т.: «Barkamol fayz media», 2017.-В.140.
- [15]Матқаримова Н. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дис.-Нукус.2020.
- [16] Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Хўжа Нуробод маҳалласи.-2019-йил.
- [17] Islom ensiklopediyasi .Zuhriddin Husniddinov tahriri ostida. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
- [19] Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Гавқушон маҳалласи.2010-йил.
- [20]Троицкая А. Л. Некоторые старинные обычаи, обряды и поверья таджиков долины Верхнего Зеравшана //СЭС.Т.3: Занятия и быт народов Средней Азии. Л.:Наука,1971.
- [21]Козлова О. А Сватовство и характерные особенности Российского предсвадебья XVII в. в аспекте женской истории. / Социология семьи/ <https://cyberleninka.ru/article/n/svatovstvo-i-harakternye-osobennosti-rossiyskogo-predsvadebya-xvii-v-v-aspekte-zhenskoj-istorii>
- [22]Дала маълумоти. Ғиждувон туман, Сарвари қишлоғи.2019-йил.
- [23] Мардонова Г.Нур тўла уй.-Тошкент-1992.
- [24]Дала маълумоти.Бухоро шаҳри, Тағбандбофон маҳалласи.2021-йил.
- [25] Дала маълумоти .Шофиркон тумани, Додбоғни қишлоғи.2022-йил.
- [26]Тошева Г. Қашқадарё воҳаси никоҳ тўйи маросимлари.-"Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси" нашриёти.-Т.2002.
- [27]Дала маълумоти. Бухоро,Ромитан, Ғиждувон, Шофиркон туманлари.2019-йил.
- [28] Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Афшормаҳалла маҳалласи.2020-йил.
- [29]Калонтаров Я. Фарҳанги нави тоҷикий-русий. — Душанбе, 2008. –С.278 / Хост - желание, хотение. Хостгор - сват, сваха.
- [30]Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Бухоро тумани, Ромитан тумани, Ғиждувон тумани.-2020-йил.
- [31]Дала маълумоти. Бухоро шаҳри,Тағбандбофон маҳалласи. 2022-йил.
- [32]Дала маълумоти. Бухоро тумани, Хонаобод қишлоғи.2022-йил.
- [33]Қурбонова М.Б. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларининг анъанавий таомлари(ХІХ аср охири-ХХ аср боши). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Т.-1994.
- [34] Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Арабон маҳалласи.2022-йил.
- [35]Дала маълумоти Бухоро шаҳри, Турки Жанди маҳалласи.2022-йил.
- [36] Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Афшормаҳалла маҳалласи.2018-йил.
- [37] Дала маълумоти. Бухоро шаҳри, Чорхарос кўчаси.2019-йил.
- [38]Дала маълумоти. Ғиждувон тумани, Ғовшун қишлоғи.2020-йил.
- [39]Дала маълумоти. Бухоро туман, Хонаобод қишлоғи.2019-йил.
- [40] Дала маълумоти. Бухоро туман, Жушун қишлоғи.2019-йил.
- [41] Дала маълумоти.Бухоро шаҳар, Кўчабоғ кўчаси,2019-йил.
- [42] Дала маълумоти. Бухоро шаҳар, Тағбандбофон маҳалласи.2022-йил.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

LOF SHE'RLAR POETIKASI VA ULARNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI

*Abdullaeva Gulnoza Voxidjonovna,
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi*

*No'monova Ro'zaxon No'monovna,
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklorning yozma adabiyotga ta'siri, xususan bolalar she'riyatida lof janrining yuzaga kelishi G'afur G'ulom, Tursunboy Adashboev, Hamza Imonberdiev, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajablarning ijodi misolida tadqiq qilingan. Lof she'rlardagi an'ana va o'ziga xosliklar, badiiy-estetik funktsiyasi ijodkorning fenomeni, poetik mahorati asosida yoritilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: folklor, lof, an'ana va novatorlik, yumor, satira, shakl va mazmun, dialog, sujet.

ПОЭТИКА ЛОФСКИХ СТИХОТВОРЕНИЙ И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННО- ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

*Абдуллаева Гулноза Вохиджоновна,
Ферганский государственный университет, преподаватель*

*Номононова Розахон Номононовна,
Ферганский государственный университет, преподаватель*

Аннотация: В данной статье на примере творчества Гафура Гулома, Турсунбая Адашбоева, Хамзы Имонбердиева, Абдурахмона Акбара и Дилшада Раджаба исследуется влияние фольклора на письменную литературу, особенно появление жанра лóf в детской поэзии. Выделены традиции и особенности хвалебных стихов, художественно-эстетическая функция, основанная на феномене творца, поэтическом мастерстве. Для освещения темы исследования использовались сравнительный и описательный методы.

Ключевые слова: фольклор, восхваление, традиция и новаторство, юмор, сатира, форма и содержание, диалог, сюжет.

POETICS OF LOF POEMS AND THEIR ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION

*Abdullaeva Gulnoza Vokhidjonovna,
Fergana State University, teacher*

*Numononova Rozhakhon Numononovna,
Fergana State University, teacher*

Abstract: In this article, the influence of folklore on written literature, especially the emergence of lof genre in children's poetry, is studied on the example of the work of Gafur Ghulom, Tursunboy Adashboev, Hamza Imonberdiev, Abdurahmon Akbar and Dilshad Rajab. Traditions and peculiarities of praise poems, artistic-aesthetic function are highlighted based on the phenomenon of the creator, poetic skills. Comparative and descriptive methods were used to illuminate the research topic.

Key words: folklore, praise, tradition and innovation, humor, satire, form and content, dialogue, plot.

Kirish. Yangi davr bolalar she'riyatida shakliy-mazmuniy yangilanishlar aks etishi bilan birga xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqlik jihatlarini ko'ramiz, Bunday she'rlarda lirik qahramon bolaning o'zi, uning ichki olami, dunyoqarashi va bolalarcha o'y-fikrlari aks etgan. Folklorning yozma adabiyotga ta'siri natijasida yuzaga kelgan bu yangilanish bolalar she'riyatiga o'ziga xoslik bag'ishladi. Lof o'zbek xalq nasrining mustaqil janrlaridan

biri bo'lib, o'zining tuzilishi hajv va yumorga asoslanishi bilan ajralib turadi. lof janriga xos badiiy - tasviriy usul bu voqelkini mubolag'lash asosida bayon etishir. Lofda so'zga chechanlik, zukkolik, hozirjavoblik zohir bo'ladi. Uni aytish mubolag'ali epizodga mos javob qaytarish lofchidan o'tkir zehn, sinchikovlik, tajriba, so'zga chechanlik, uddabironlik, hozirjavoblikni talab qiladi va musobaqa shaklida o'tadi.

Adabiyotlar tahlili. M.Sulaymonov ham lofbozning so'zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol o'ynashini aytib o'tgan. Bu janrda tabiat va jamiyat hodisalari bo'rttirib ko'rsatiladi va bu orqali kulgu hosil qilinadi. Loflar sujeti dialog asosiga qurilgan bo'lib, hajv va yengil yumorga moyilligi, voqea va hodisalar o'ta mubolag'ali tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Mubolag'a va kulgiga asoslanishi bilan latifa va askiya janriga yaqin turadi lof asosan qiziqchi hamda askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. O.Safarov lofning janriy tabiati:epizodik drama ekanini aytib, "Uning tabiatida epiklik va dramatiklik o'zaro uyg'unlashib ketganligi tufayli lof epizodik og'zaki drama ekanligi ko'zga tashlanadi",-deb ta'kidlab o'tadi.[1-319] Darhaqiqat, lofchilarning savol-javobi, o'zaro musobaqa tarzda boradigan holati, bu so'zamollikni kuzatib boruvchi, miriqib kuluvchi tomoshabini borligi, xalq qiziqchiligi tarkibida rivojlanganligi sabab og'zaki drama sifatida baholaydi.

"-Yangi yilni oyda kutmoqchiman!-debdi lofchi maqtanib.

-Oyga borsangiz,-debdi dehqon lofchi bo'sh kelmay,-men ekib kelgan qovun-tarvuzlarni mazza qilib yeng-u, o'zimga ham ikkitasini ola keling".[2-320] Ushbu lof sodda loflar sirasiga kirib, ikki lofchining diologik nutqiga asoslangan. O.Safarov loflarni tuzilishiga ko'ra sodda va murakkabga ajratadi. Syujeti qisqa,lofchilar ikki kishini tashkil etsa sodda, aksincha bo'lsa murakkab loflar sanaladi. Yuqoridagi lof sodda loflar sirasiga kiradi. Xalq og'zaki ijodida lofning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi:

- a) an'anaviylik (nasriy ifodasi);
- b) ikki kishi tomonidan aytilishi;
- s)savol-javob tarzda bo'lishi;
- d)diologik nutqqa asoslanganligi;
- y)asosan qiziqchi va askiyabozlar orasida ijro etilishi;
- f)raqiblar o'zaro so'zamollik bobida bir-biri bilan bahslashishi.

Dastlab, G'afur G'ulom lof janrining lirik ko'rinishini bolalar she'riyatiga ularning tafakkuriga xos bo'lgan tasvirlar bilan olib kirdi. "Chaqchaqlashaylik" she'rida maqtanchoqroq, xovliqmaroq bolalar obrazida ularning dunyosiga xos bo'lgan aldoqchi-lofchi xarakterini yoritib berdi. Ahmad, Meli, Jo'ravoy, Oyisha va Zokirlarning yozgi ta'tildan qaytib o'z qilgan ishlari asosida suhbat(chaq-chaq)lashadilar.Ular voqeliklarini bo'rttirib, mubolag'ali tarzda qiziqishlar bilan bir-birlariga gapirib beradilar, go'yoki o'zgi ta'tilni kim zo'r o'tkazgani to'g'risida musobaqalashadilar. Ahmed, Meli, Jo'ravoylar juda baland bo'lgan Tyan'-Shan tog'iga chiqqani, tushayotib, o'nta bo'rini go'rini qazigani, tayog bilan ayiqni savalaganini aytib, xovliqib maqtansa, Oyisha o'z qo'ltig'ida jo'ja ochirgani, ularga A va V vitaminlarini don o'rnida berib, tezda tovuq va xo'rozlarga aylantirganini maqtaydi, Zokir esa boqqan baliqlari akvariumga sig'may devorlarni buzib, yig'lab daryo izlab ketishganini vahima bilan, ulardan-da o'zishga harakat qilib gapirganini yumoristik kulgi asosida mubolag'ali tasvirda lof tarzda ifoda etadi. Suhbat (loflar) to'xtovsiz davom etadi.

Muhokama va natija. Ko'ramizki, ushbu lof she'r murakkab loflar sirasiga kirib, ikki kishidan ortiq suhbatdoshlardan va bir necha loflardan iborat. Bu tasvir uslubi folkloriga xos bo'lgan lof janrining an'analari sanaladi. Tursunboy Adashboev ushbu an'anani davom ettirib, novatorona shakl va mazmunda va lof she'rlar yaratadi. Shoirning "Arslonbob afsonasi"[3-145] to'plamidan o'rin olgan "lof emas" she'ri 1981-yilda yaratilgan va 1982-yilda "Jo'nataman quyoshni" to'plamidan o'rin olgan. Ushbu she'rda lirik qahramon havoning issig'idan, mehnat kuchining kamligidan ishi yurishmagani sabab, chumolini taqalab qamish o'rdirgan, chigirtkalarining chirillashi g'ashiga tekkanidan to'rttasini ot qilib, qog'ozdan qanot qilib, aravaga qo'shib, ishi yurishib, qamishlarni Oq saroy va Ko'k saroyga tashib to'ldirgani, rosa mehnat qilgani lofning bolalar tafakkuriga xos ko'rinishi sanaladi.

Chumolini taqalab,/ Asta anhor yoqalab.

Qamish o'rdim shir etib,/ Chigirtkalar chir etib,

Tegavergach g'ashimga / Imlab qo'ydim Xoshimga.

To'rttasini ot qilib,/ Qog'ozdan qanot qilib

Aravaga qo'shildi.

Yosh bolalarning chegara bilmas hayolot olami, hamma ishni hayolda bajarib, qoyillatishi aks etadi. She'rdagi lirik qahramon tomonidan to'qilgan mubolag'a, uydirma yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Shu to'plamdagi "Latifboyning loflari"(1985y) she'rida Latifjonning hayolot olamidagi uydirma-loflari yosh kitobxonda yengil yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu she'r "Oqbura to'lqinlari"[3-46] to'plamiga ham kiritilgan. She'ring dastlabki misralarida Latifjon azaldan lofchi bog'cha yoshidagi bola obrazida gavdalangan. Uni aldoqchi-lofchiligidan hamma lof deb chaqiradi. Ayni shu yoshdagi bolalar xarakter-psixologiyasida voqelikni bo'rttirib ifodalash ko'zga tashlanadi.

Bog'chasida Nuri, O'ktam / Latifjonni lof deydi.

So'zlariga ishonmay hech/ Lofga ola qop deydi.

Keyingi misralaridan Latifboy loflarini boshlaydi. U ignaga ip o'tkazuvchi asbob o'ylab topib, Uzro buvini xursand qilishni, odamlarga ko'tarishga qulay bo'lgan tutqi-sopli yangi tarvuz navi yaratishni, gurunchlarning kurmak va toshini teruvchi magnit yaratishi haqidagi kashfiyotlarini o'rtoqlariga so'zlaydi. Shu bilan birga adirlarni ko'rgach boshqa bolalardek lol qolmasligini, adirlarni tog'ning bolasimas, balki tuyaning o'rkachi deb bilishini maqtanib gapiradi. She'ring xulosa qismida Latifboyning lofchiligi O'ktam o'rtog'i tomonidan yana bir bor yodga solinadi. Ushbu loflar kimnidir aldash, o'zini ko'rsatish maqsadida emas, balki odamlarga yordam berish maqsadidagi o'y-fikr va xohishlaridir. Ushbu loflara bolalarcha samimiylilik, ezgulik mujassam, shu orqali bolalarga "har qanday ish qilsang ham uning zamirida ezgulik bo'lsin" degan tushunchani singdiradi.

O'ktam aytar: bunday gaplar/ Ko'pdir uning qopida.

Ancha-muncha asos bordir,/ Latifjonning lofida.

Ushbu lof she'rdagi Latifjon kashfiyotchi lofchi sifatida gavdalanadi. Shoirning lof she'rlaridagi asosiy lirik qahramoni Latifboy tomonidan tabiat va jamiyat voqea - hodisalarini bo'rttirib, kulgili tarzda obrazli ifodalash asosiga quriladi. "Orzularim qo'sh qanotim" saylanmasi va "Latifboyning loflari" she'riy to'plamlarida syujeti kengaytirilib, loflar rivojlantirilib beriladi. Shoir boshqa ijodkorlardan farqli ravishda o'ziga xos bo'lgan so'zamol, uddabiron, lofchi Latifboy obrazini yaratdi. Shoir A.Oripov ta'kidlaganidek, "She'rmi she'r qiladigan narsa obrazlilikdir". Ushbu fikr bolalar she'riyati uchun ham muhim, Tursunboy Adashboev ham ushbu turkum she'rini bolalar tafakkuri va psixologiyasiga mos ravishda tasvirlaydi. "Saylanma"da "Uchqur tulpor" turkumi ostida har bir lof o'ziga xos "Ovning gashti", "Barchasi yodimda", "Poyga zavqi", "Beshta sanoch", "Shirmon kulcha", "Yugan solib, egar urib" tarzda nomlangan. Shoir "Uchqur tulpor" deb bejiz nomlamagan, boisi yosh kitobxon g'aroyb sarguzasht uydirmalar hayolotida kezib yuradilar. "Yugan solib, egar urib" nomli lof she'rida ajoyib mubolag'alardan foydalangan, bunda bolaga xos tasvirlash usuli mavjud.

Quloq soling Latifboyning / Yana bitta ertagiga,

Yugan solib, egar urib, / Chigirtkaning erkagiga.

Qamishlardan nayza yasab, / Otquloqdan qalqon qilib,

Yoy kamalak yelkasida, / Yonboshida guldor sadoq,

Uzangini niqtab borar, / Latifboyning fe'li chatoq. [4.-19]

Latifjonning uydirmalari g'ayritabiiy sarguzashtlarga boy. Ikkinchi misrada "Yana bitta ertagiga" jumlasidan Latifboy azaldan lofchi ekanligi anglashiladi. Bo'rttirib, mubolag'ali tasvirlash yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Shoir Latifboyning loflarini "ertak" deb boshlashi (Quloq soling Latifboyning/Yana bitta ertagiga) ham bejiz emas. Etrak ham uydirmaga asoslanadi, lof ham xuddi shunday, ammo lofda mubolag'a kuchli bo'lib, lofchidan so'zga chechanlikni talab qiladi. Ushbu lof she'rdagi tabiat yoki jamiyat hodisalarini ko'z ko'rib quloq eshitmagan bo'rttirishlar asosida kulgili tarzda ifoda etadi. Chigirtka qanday kichkina, lekin Latifboy loflarida uni kattaligiga ishora qilib, egar solib uni minib olgani va qamishdan nayza yasab, otquloqdan qalqon olgani - bular albatta hayotda yuz bermaydigan, mubolag'ali tarzda tasvirlangan hodisa. Shoir Latifboyning janga otlanganday tasvirlaydi. U "tulki ovi jangiga otlangan. Bolakaylar she'rni o'qish bilan birga hayvonot va nobotot olami bilan yaqindan tanishadi, nomlarini yodda saqlab qoladi. Latifboy mayda darrandalarni nazarga ilmay, Xayri xolaning tovug'ini eb ketgan va begimotday semirgan tulkini ushlab uchun jangga chiqqan. She'ring sintez qismida tulkingning bir tovuqni yeb semirib, katta bo'lib ketganidan to'rt pahlavon terisini shilayotgani tasvirlangan. Bu mubolag'ali tasvirni shoir shunday ishonarli tarzda ifoda etganki, bu jarayon beixtiyor bolani ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

O'sha tulki mo'ynasidan, /Tikib berdik o'nta po'stin.

Tulkini terisi kattaligidan o'nta po'ystin, quyrug'idan esa qirqta telpak chiqqan. Shoir butunning qismini(tulkinging mo'ynasi va quyrug'ini) shunday bo'rttiradiki, tulkinging qanday kattalikda ekanligi tasavvurda ham hayratlantiradi.

Ikki quloq quyrug'idan, /Tayyorladik qirqta telpak.

Bu misralardan mubolag'ani, o'ta kattalashtirilgan xolatini ko'ramiz. Adabiyotshunoslikda mubolag'aning bu turi g'uluvv deb yuritiladi. Odatda lofbozlikda ikki yoki undan ortiq kishi ishtirok etar edi. Lekin To'rsunboy Adabshboev loflari muallif yoki bola tilidan ertak sifatida bayon etilgan va syujetga ham ega. O.Safarov lofning kompozitsion asosini dialog tashkil etishini aytib o'tgan. Tursunboy Adashboev loflarida esa dialog mavjud emas. Demak, ushbu xolat ham novatorlik belgisi sanaladi. Shoir she'rni boshlanishida Latifboyning ertagi ekanligiga ishora qilib, uni o'z nutqi (Muallif nutqi) orqali ifoda etgan, bu o'ziga xos bir ko'rinish va yana bir jihati shundaki ertak janrida lofni ifoda etmoqda. Buni "lof ertak" deb atashimiz mumkin. Bu ertakda Latifboyning jasurligini lof orqali ifoda etgan va folklorga oid bo'lgan lof va ertakning qorishgan- sinkretik usulini novatorona tarzda namoyon qilgan. Lofchilik kichkintoylar tabiatiga xos. Chunki ular o'z o'rtoqlari bilan gaplashganda albatta mubolag'ali gaplardan foydalanadi. Ular qilgan ishlarini, ko'rgan - kechirganlarini bo'rttirib, suhbatdoshini lol qoldirib aytadi va bundan o'zi ham rohatlanadi. T.Adashboevning lirik qahramoni Latifboy ham shunday. U ishtirok etgan voqealarni lof bilan bayon etadi. Shoir buni "Latifboyning loflari" deb nomlab, bir turkum she'rlarini kitobga kiritadi. "Beshta sanoch" she'rida ham o'ta mubolag'ali holga duch kelamiz.

Yoshligidan o'ta abjir, / Chaqqon edi.

Bo'rdoqiga beshta chivin, / Boqqan edi.

Yuqoridagi misralarda chaqqon edi- boqqan edi so'zlari alohida misralarda bo'lib o'zaro qofiyadosh va "edi" so'zi radif bo'lib, qofiyaning alohida misrada berilishi bolalar tabiatiga xos soddalikni, qulaylikni va o'ynoqilikni ta'minlaydi. She'rning qolgan misralarida ham bu holat kuzatiladi, juft misralardagi so'zlar bitta yoki ikkitani tashkil etadi va har bir juft misra to'q qofiyali bo'lib bolalarni o'qishi va tez yodda saqlashi uchun ahamiyatlidir. Masalan: asboblarni-qassoblarni/ jo'rasidan- qo'rasidan/ qora terga- uni yerga kabi. She'rning bu qismida Latifboyning salbiy fe'l - atvori bilan birga ijobiy xarakteri abjirligi, chaqqonligi obrazli tarzda namoyon etilgan. Maqtanchoq Latifboy bo'rdoqiga beshta chivin boqqan. Bu tasvir mubolag'ali yo'sinda bo'lib, o'ta kichik chivinlarni boqib semirtiradi. Bo'rdoqiga boqilgan chivinlar Latifboyning loflarida shunchalik katta bo'lib ketganki, ularni so'yish uchun guzardan 4 ta qassob chaqiradi. Qassoblar bolta, pichoq kabi asboblarini charxlab keladilar. Qarangki bu tasvirda bolalarga xos tafakkur, ifoda usuli, soddalik aks etib turadi. Chivinlarni xuddi bo'rdoqiga boqilgan hayvonday tasvirlaydi va ularni so'yish jarayoni ham katta hayvonlarga xos tarzda ifodalangan.

Terisidan beshta sanoch / Tikdi shu choq.

Men ularni cho'ponlarga, / Sovg'a qildim.

Yog'larini berayotsak, / Sovungarga.

Go'shtlarini olib qochdi / Bir to'p qarg'a.

Har bir bandeda lof ishtirok etgan: terisidan sanoch tikilgani, yog'larini sovungarga berganlari, go'shti esa qarg'alarga nasib bo'lganini mubolag'ali ifoda etgan. Ko'zga ham zo'rg'a ilinadigan chivinlardan shuncha narsalarni bor qilib ko'rsatishni o'zi bir lof. Bunday ifoda usuli adabiyotshunoslikda groteskli tasvir deb yuritiladi. Grotesk (ital. grotta-er ostidagi uy)-badiiy adabiyot va san'atdagi obrazlilikning fantastika, kulgi va mubolag'aga bir turi, uslub, badiiy usul. Groteskda reallik va xayolot, go'zallik va xunuklik, fojeaviylik va komiklik kabi bir-biriga zid jihatlar g'alati, ajabto'vur bir tarzda birikib ketadi.[5-84] Ushbu lof she'rida reallik va xayolot, kulgi va mubolag'a sintezlashgan holda, fantastikaga moyil tarzda ifoda etadi. Mifga xos jihatlar ham mavjud. Mubolag'aga asoslangan bu usuldan foydalanish bolaning tafakkur olamidagi o'zgachaliliklarni, ularga xos obrazli tasvir vositalarini ifoda etadi. "Latifboyning loflari"ga kirgan lof she'rlar hikoya qilish usulida bo'lib, syujetga ham ega. Voqealar rivoji she'riy usulda xronikali syujet asosida ifoda etilgan. Ushbu lof she'r xalq og'zaki ijodidagi "Qirq yolg'on" va "Uch yolg'on"da qirq yolg'on" ertaklari singari syujet qurilishiga ega. Ushbu ertaklardagi yolg'onlar bir-biriga ulanib, davom etadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Bu ertaklarga xos bo'lgan xususiyatlar shoir loflarida xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviylikni namoyon bo'lganini bildiradi. R.Barakaev ham ushbu she'rlardagi xalq og'zakiga xos xususiyatlarni "Qirq yolg'on" va "Uch yolg'on"da qirq yolg'on", "Burgam"

tipidagi ertaklarga qiyoslaydi.[6-47-48] Shoirning poetik mahoratining o'ziga xosligi yengil yumoristik kulgini yuzaga keltiruvchi uydirma, mubolag'a, majozilikdan bolalar tafakkuriga xos tarzda foydalanganidadir. G'afur G'ulomning lofchilari bir necha bo'lsa, Tursunboy Adashboevda birgina Latifboyning o'zi bo'lib, g'ayritabiiy uydirma harakatlari va bo'rttirmalari bilan kitobxonni hayratga soladi. Shoir loflarni birgina qahramon orqali ifoda etib, an'anaviylikdan chekingan holda novatoronalikni olib kirgan. Predmetlarni, hayvonot-nabotot olamini kattalashtirib, bo'rttirib ko'rsatish asosida lofni yuzaga keltiradi. Mubolag'aning g'uluv badiiy san'ati va groteskli tasvir usulidan mohirona foydalanadi. Latifboyning har bir lofiga alohida nom beradi va notabiiy voqealarni aks ettiradi. Tursunboy Adashboevning lof she'rlarda quyidagi o'ziga xosliklar kuzatiladi:

- a) she'riy tarzda, hikoya usulida bayon qilingan;
- b) Muallif yoki lirik qahramon bola(Latifboy) obrazi orqali bayon qilingan;
- c) monologik nutqqa asoslangan;
- d) raqiblar bahslashuvi mavjud emas;
- e) mubolag'a, g'uluv, groteskli tasvir usulidan keng foydalangan.
- f) har bir lof alohida nomlar bilan ajratilgan, lekin lirik qahramon-lofchi birgina Latifboy bo'lib, so'zamol, uydirmaga boy, jasur yigit sifatida beriladi.

g) murakkab syujet qurilishiga ega bo'lib sarguzasht tipida yaratilgan.

Lof she'rlar Hamza Imonberdiev laboratoriyasidan ham o'rin olgan. Shoir "Lofchilar-alochilar" she'rini yaratib, lof janrini bir qadar rivojlantirdi va shu nom bilan she'riy to'plamini ham nashr ettirdi. Lofchilik mahorati Ali, Vali obrazlarida namoyon bo'lgan. Shoir bolalarning o'zini lirik qahramon sifatida tanlagan.

Ali, Vali lofchilar,/ Xushchaqchaq aldoqchilar.

Rosa lofni urishar,/ Ko'pikdan uy qurishar,

Maz-za qilib kulishar. [7-11-12]

Shoir Ali, Vali obrazlarini bolalarga mos holda yaratgan. Birinchi misrada Ali va Vali azaldan lofchiligi anglashiladi. Lekin bu lofchilar salbiy xarakterga ega emas, balki bolalarcha samimiy, xushchaqchaq aldoqchilardir. O'zlari aytgan lofga mazza qilib kuladigan, beg'ubor, so'zamol, aqlli bolajonlardir. Ushbu lof she'rda Ali va Valining harakati kontrast asosiga qurilgan, ular bir-biridan o'zishga harakat qilib, lof to'qiydi, ya'ni o'rtalarida do'stona musobaqa tarzda syujet qurilishida ifoda etiladi. Har bir lof alohida bandlarda beriladi. Juft misralari o'zaro qofiyalangan, so'zlari bolalarga mos sodda va aniq. Shoir she'rning tezis qismida quvnoq lofchi qahramonlarini tanishtirib o'tadi. Bu qahramonlarga ajoyib ohangdosh ism tanlaydi, bu yumorni yuzaga keltirish bilan birga, bolaning xotirasida yaxshi saqlanadi, talaffuzga ham qulay. O.Safarov "Loflarda aksariyat hollarda qahramonlarning ismi o'zaro qofiyalangan bo'ladi. Ali, Vali, Soli singari. Tovushlarning bunday uyg'unligi yumoristik kulguni yuzaga keltiradi",-deb aytib o'tgan. H.Imonberdievning loflarida ushbu ifodaning mavjudligi xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviylik belgisini anglatadi. Ko'pikdan uy qurishar misrasining mazmunida beg'ubor, yengil uydirma ekanligi ham anglashiladi. Ikkinchi banddan lofchilarning loflari boshlanadi.

Ali debdi:-Vali, kel, / Rasmimga bir baho ber.

Qushcha chizdim ajoyib, / Ajoyibu g'aroyib.

Ana u don yeyapti, / Menga rahmat deyapti.

Vali boqsa varaqqa, / Shakl yo'q hech qanaqa.

Aldapsan-ku qani don? / -Qush yeb qo'ydi-da nodon.

Yo'qotdingmi hushingni, / -Ko'rmayapman qushingni?!

To'ygach, qushcha chirq etdi. / "Rahmat" deb uchdi-ketdi!

Ali o'ziga xos rasm chizadi va Valiga ko'rsatib maqtanadi. Uning rasmi shunday jonliki, chizilgan donlarni qushcha kelib yeb ketadi, hatto unga rahmat ham aytadi. Vali rasmini ko'rmog'chi bo'lib qarasa, varoq bo'm-bush, u ham sodda emas, donni va qushni ko'rmagach: -aldapsanku qani don, ko'rmayapman qushingni,- deya hayron bo'lib so'raydi. So'zamol lofchi Ali sir boy bermay loflari bilan javob qaytaradi va lofchilikni davom ettiradi. Keyingi lofida Ajoyib iti borligini, vazifa qilib berilgan misollarni bemalol ishlashini, hatto, "xo'jayin bemalol o'ynab oling, she'r yodlashmi, masalami, tortinmay bemalol menga aytavering",-deb Aliga yordam berishini aytadi. Vali qitmirlik qilib, ruchkni qanday ushlaydi,- deb savol bersa, xozirjavob Ali topqirlik va so'zamollik bilan "tishi bilan tishlaydi"-deb javob qaytaradi. Vali uning uydirmalaridan hayratga tushmay, xotirjam "bo'lishi mumkin"-deya javob qaytarib, o'zining loflarini boshlaydi. Vali ham vaziyatdan chiqib keta oladi, u ham

lofchilikda Alidan qolishmaydi. O'rtalarida so'z o'yiniga xoslangan holda uydirma-loflar musobaqasi va savol-javob tarzda ifoda etadi. Ushbu she'rda har bandda berilgan lofdan so'ng, she'rning boshlanish qismidagi bandi naqorat tarzda beriladi. Bu ta'sirdorlikni oshiradi va bola xotirasida uzoq saqlanadi. Aldoqchilik, bo'rttirib gapirish(lof tarzda), bu gaplaridan maqtanish holati har bir bolajonda bor. Lof orqali bolalar xarakterining bir qirrasini yumoristik kulgi asosida ochib bergan. Shoir tomonidan roli o'ynalayotgan lirik qahramonlar to'qigan loflar hayolot mahsulidir.[7-561] Ushbu loflarda biror predmet, joy yoki hodisa kattalashtirilib, bo'rttirilib ko'rsatilmaydi. Balki, so'zamolligi, zukko va topqirligi lofni yuzaga keltiradi. R.Barakaev "Jonajonim she'riyat" monografiyasida ushbu lof she'rga to'xtalib: "Shunisi qiziqki, "Lofchilar-aldoqchilar"ni o'qib, Ali bilan Valining yolg'onlaridan xafa bo'lmaysiz, chunki ular yolg'on aytib bironni aldamaydilar, balki xayollariga kelgan loflarni bir-birlariga aytish bilan go'yoki kim zo'rroq lof aytishga bahslashadilar. Ularning loflari beg'ubor, bu loflarning yolg'onligini ularning o'zlari ham bilib turadilar,faqat mana shu kim o'zarga aytilgan loflardan bolakaylar o'zlaricha zavq topadilar"[8-88],-deb izohlaydi. Nafaqat o'zlari, balki kitobxonga ham zavq beradi, yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu she'r dastlab 1981-yilda "Quvnoqlar quvonchi"[9-24] to'plamidan o'rin olgan, 1991-yilda "Lofchilar-aldoqchilar" nomli to'plamdan o'rin oldi, so'ng G'aroyibkent hangomalari (1994) to'plamida "Lofchilar" nomli she'rda Ali va Valining loflari yana davom etadi. Unda qahramonlar qo'lbola tayyora yasab Mirrix yulduziga, hatto Quyoshga ham bir zunda chiqib tushganlarini obrazli tasvirda, yumoristik kulgiga moyil tarzda yaratadi. "Lofchilar" she'ridagi dastlabki besh misra "Lofchilar aldoqchilar" she'rining dastlabki bandi, ya'ni besh misrasining aynan takrori, ikkinchi banddan esa yangi loflarini bayon etadilar.

Ali kiprigin qoqmay, / Yon-veriga boqmay.

Ulaydi gapni-gapga: / -Shu desang o'tgan hafta

Qo'lbola tayyorada / Mirrixga qarab uchdim.

Mehmondo'st sayyorada / Bir hafta yashab tushdim. [9-55]

She'rning kirish qismi, ya'ni yosh kitobxonga qahramonlarni tanishtirishi muallif nutqi orqali beriladi, loflar esa lirik qahramon sifatida olingan bolakaylarning o'z nutqi orqali beriladi. Ko'rinadiki, she'rda muallif va muallif tomonidan roli o'ynalayotgan lirik qahramonlar nutqidan foydalangan. Muallif nutqi hamda Ali va Valilarning dialogik nutqidan tashkil topgan. Yuqoridagi bandda Alining loflari berilgan. U bilimdon, kashfiyotchi, sayohatchi qahramon sifatida gavdalanadi. Bilimiga tayanib, kashfiyotchilik mahoratidan foydalanib qo'lbola tayyora yasaydi. Unda Mirrixga sayohat qilib, bir hafta mehmon ham bo'ladi. Kiprigin qoqmay, yon-veriga boqmay, ulaydi gapni-gapga iboralari obrazlilikni oshirgan va go'yo Ali lofchining xislatlari sifatida sanab o'tilgan. Ushbu tasvir uslubi Tursunboy Adashboevning "Latifboyning loflari" she'rida ham mavjud. Latifboyning "hislatlari" bilan yosh kitobxonni tanishtirib boradi. Hamza Imonberdiev milliyligimizni ifoda etuvchi "mehmondo'st" so'zidan (Mehmondo'st sayyorada / Bir hafta yashab tushdim) foydalanib, tarbiyaviy-estetik ta'sirdorligini oshiradi. Uchinchi banda lofchilikda Alidan qolishmaydigan Valining loflari boshlanadi.

Vali ham lof to'qishda Alidan bo'sh kelmaydi, undan o'zishga harakat qiladi. Alining loflarini pisand qilmay, o'zining uydirmalarini undan-da bo'rttirib, oshirib so'zlaydi. Muallif nutqi orqali berilgan "bo'sh kelmaydi" iborasi lofchilik bahsigga tayyor, undan qolishmaydigan mazmunni anglatadi. Vali nutqida ham "bir qadamlik joy", "etasan sovumay choy", "kuyib kul bo'lmadingmi" kabi o'ziga xos iboralar berilgan. Ushbu iboralar xalq og'zaki ijodida ko'p uchraydi. Vali ham so'zamol, topqir, uddabiron aldoqchi obrazida namoyon bo'ladi. Bu aldoqchi-lofchilar loflari bilan birovga ziyon yetkazmaydi, hech kimni aldamaydi, balki samimiy, ularning odatiga aylangan, psixologiyasidan kelib chiqqan holda yuzaga kelgan bolalarcha xarakter namunasidir. Shoir she'r so'ngida birinchi bandni takrorlaydi. Folklor va G'afur G'ulom loflarida lofchi qahramonlar birdan ortiq, ushbu an'anani H.Imonberdiev ham davom ettirib lof she'rlaridagi lirik qahramonlarni ikkita -Ali va Vali obrazlarida namoyon qildi.

Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajablar ijodida alohida lof janri mavjud bo'lmasa-da, lofga xos unsurlar: mubolag'a badiiy san'ati va so'zamol, hozirjavob, uddabiron bolalar obrazlari berilgan she'rlar mavjud. Abdurahmon Akbarning "Kasalmand" she'ri bunga misol bo'ladi.

Goh oyog'im og'risa, / Goh og'rir boshim.

Goh qulog'im og'risa, / Yo'qdir bardoshim.

Vahobjon obrazida aldoqchi-lofchi bolajonlar qiyofasi berilgan. Tezis qismida uning nutqi orqali yolg'onlari- goh oyog'i, goh boshi, goh qulog'ining og'rishi-kasalligi bo'rttirilgan. Ikkinchi bandda bu holatdan jahli chiqqan bola obrazi orqali tanbehona savollar berilsa, uchinchi band-sintez qismida shu savollariga Vahobjonning topqirlik va uddabironlik asosida berilgan javoblari ifoda etiladi.

Vahobjonning so'zamolligi kasallikdan "iztirob" chekib, og'rimagan joyi tirnoq va sochini ko'rsatishi yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. She'r diologik nutq asosiga qurilgan. Bu she'rdagi mubolag'a, hozirjavoblik, uddabironlik asosida vaziyatdan chiqib ketish, yumoristik kulgining mavjudligi lofga xos unsurlardir. Shoirning "Ukam tush ko'rgan emish" she'rida tushida akulalarni yenggan bola obrazi, "Xayolparast" she'rida esa to'rtburchak tog'larni cho'kich bilan o'yib oshib o'tmoqchi bo'lgan, qaynoq yomg'irlarda qolgan, yomg'ir suvidan ko'l dengizga aylanganini ko'rgan va shu suvlardan xovuchlab ichgan bola obrazi beriladi. Ushbu mubolag'ali tasvir bolaning xayolida ro'y beradi.

Dilshod Rajabning "G'aroyib sayr" nomli she'rida ham lofga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. She'rdagi hayvonot bog'ida yuz bergan g'ayritabiiy mubolag'ali tasvirlar maqtanchoq bola tilidan beriladi. Lirik qahramon shoir tomonidan roli o'ynalayotgan hayolparast, maqtanchoq bola. Bolalarga xos bo'lgan xarakter, psixologik xolat mubolag'ali, yumoristik tarzda aks etgan. Tezis qismi - dastlabki to'rt misrasida voqelik joyi va she'r mazmunining qanday borishiga ishora beriladi.

Hayvonot bog'in asta, / Qadam tashlab kezaman.

O'zimni shu nafasda, / Naq pahlavon sezaman.

Qo'limni belga tirab, / Tikilaman qo'rqmasdan.

Yuvosh mushukday turar, / Qarshimda zo'r yo'lbarslar.

"Hayt" desam ayiqpolvon / Cho'chib qaytar ortiga.

Meni ko'rib karkidon / Toshday qotib qoldi-ya.

Xulosa va takliflar. Antitezis qismida mubolag'ali taasvirlar ifoda etiladi, so'nggi to'rt misrada xayolparast, so'zamol qahramon bolajonning bunday vaxshiy hayvonlar makonida qanday qilib bemalol yurishi ochiqilanadi. She'r yakuniga yetguncha yosh kitobxon xayrat va qiziqish bilan o'qiydi. Kutilmagan xulosa yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu she'rdagi mubolag'ali bo'rttirish, so'zamol bolajon qahramonliklari, yumoristik mavjudligi lofga xos unsurlardir. Bolalar adabiyotida lof janrining badiiy-tarbiyaviy ahamiyati adabiyotga qiziquvchanligini oshiradi, so'zga chechanlik va topqirlikni yuksaltiradi, tabiat hodisalarini, hayot bilan hayolni farqlaydi va undagi yuz beradigan voqea – xodisalarni anglab etadi, ularni bir – biri bilan solishtiradi, shu bilan birga dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayadi, bolakaylarda yengil kulgini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdullaeva G. V. The Issue Of Lyric Heroism In Children's Poetry.. Epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). - Peer Reviewed journal Volume: 7 1 Issue: 5 | May 2021|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2021: 8.047 || ISI Value: 1.188. ISSN (Online): 2455-3662. B.561

2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi.-Toshkent.: "Musiq" nashriyoti. 2010.B-319.

3. Адашбоев Т. Арслонбоб афсонаси.-Тошкент.: Ёш гвардия. 1988.Б-145.

4. Адашбоев Т. Оқбура тўлкинлари.-Тошкент.: Ёш гвардия.1985.Б-46

5. Adashboyev T. Latifboyning loflari. Toshkent.:Sharq.2007.-Б-19

6. Баракаев Р.Жонажоним шеърят.Тошкент. Шарқ.1987.Б-88.

7. Куронов Д. Адабиётшунослик луғат.-Тошкент.: Академнашр.2013.Б-84.

8. Қаранг: Баракаев Р, Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар.-Тошкент.: "Академнашр" 2014.Б-47-48

9. Имонбердиев Ҳ. Лофчилар - алдоқчилар. -Тошкент.:Чўлпон. 1991.Б.11-12

10. Имонбердиев Ҳ.Ғаройибкент хангомалари. Тошкент.: Чўлпон.1994.Б-55

11. Имонбердиев Ҳ.Кувноқлар кувончи. Тошкент. Ёш гвардия.1981.246

ЎЗБЕК ТИЛИДА ПОЛИСЕМИК ҚЎШМА ГАПЛАР ТАДҚИҚИ

*Айтбаев Дилшодхўжа Темирбаевич,
Филология фанлари номзоди, доцент. Тошкент давлат педагогика университети
Тошкент, Ўзбекистон*

**ИЗУЧЕНИЕ ПОЛИСЕМИЧЕСКИХ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ****B**

*Айтбаев Дилшодхўжа Темирбаевич,
Кандидат филологических наук, доцент. Ташкентский государственный
педагогический университет Ташкент, Узбекистан*

**STUDY OF POLYSEMIC COMPOUND SENTENCES IN THE UZBEKI
LANGUAGE**

*Aytbaev Dilshodhuja Temirbaevich,
Candidate of philological sciences, associate professor, Tashkent State Pedagogical
University Tashkent, Uzbekistan*

Аннотация. Мазкур мақолада ўзбек тилишунослигида қўшма гаплар шакли ва мазмуни ўртасида асимметрияни вужудга келтирувчи омиллардан бири полисемия эканлиги ва полисемия қўшма гаплар модели семантикасига хос бўлиб, унинг ҳар бир семаси дискурс таркибида реал жумлалар семантикаси орқали воқеланиши ҳақида илмий қарашлар ўрин олган.

Аннотация

В данной статье приведены научные мнения о том, что полисемия является одним из факторов, создающих асимметрию между формой и содержанием сложносочиненных предложений в узбекском языкознании, и что полисемия свойственна семантике сложносочиненных предложений, и каждый ее символ реализуется в структура дискурса через семантику реальных предложений.

Abstract

In this article, there are scientific opinions that polysemy is one of the factors that creates asymmetry between the form and content of compound sentences in Uzbek linguistics, and that polysemy is characteristic of the semantics of compound sentences, and each of its symbols is realized in the structure of discourse through the semantics of real sentences.

Калит сузлар: полисемия, синтактик полисемия, грамматик сатҳ, полисемия парадигмаси, номема, семема, пропозиция, синтактик конструкциялар, синтактик сатҳ, синтаксема, эргаши гапли қўшма гап конструкцияси, полисемик структура, синтактик омонимия, синтактик полисемия, гаплар модели, қўшма гаплар модели, полисемик қўшма гаплар.

Ключевые слова, полисемия, синтаксическая полисемия, грамматический уровень, парадигма полисемии, номема, семема, пропозиция, синтаксические конструкции, синтаксический уровень, синтаксема, конструкция сложносочиненного предложения, многозначная структура, синтаксическая омонимия, синтаксическая полисемия, модель предложения, модель сложносочиненного предложения, многозначные предложения.

Key words: polysemy, syntactic polysemy, grammatical level, polysemy paradigm, nomeme, sememe, proposition, syntactic constructions, syntactic level, syntaxeme, compound sentence construction, polysemous structure, syntactic homonymy, syntactic polysemy, sentence model, compound sentence model, polysemous clauses .

Лингвистикада омонимия, синонимия, антонимия, полисемия сингари ҳодисалар дастлаб лексик сатҳда ўрганилгани туфайли улар узоқ вақт шу сатҳ бирликлари учунгина хос хусусият сифатида қараб келинди. Шу билан бирга полисемия ҳам худди омонимия каби, фақат лексик сатҳагина эмас, балки тилнинг барча сатҳларига дахлдор бўлган универсал ҳодиса ҳисобланади.

Тил сатҳлари ўртасида изоморфик қонуниятни очилгандан сўнг, турли сатҳ бирликлари ўртасидаги ўхшашликни белгилаш ва ана шу ўхшашлик асосида мураккаброқ бирликларнинг унча мураккаб бўлмаган бирликларга қиёсан моҳиятини аниқлаш аънанаси пайдо бўлди. Натижада омонимия, синонимия каби ҳодисалар морфемик ва синтактик сатҳ учун ҳам хос эканлиги аниқланди.

Ўзбек тилишунослигида омонимия, полисемия ва полифункционаллик ҳодисалари синтактик сатҳ доирасида 90-йилларгача ўрганилмаган. Бу ҳодисаларни синтактик бирликлар мисолида биринчи бор А.Бердиалиев тадқиқ этди [1, 100]. У эргаши гапли қўшма гапларни парадигматик аспектда ўрганар экан, табиий равишда қўшма

гаплар парадигмасини ҳосил қилувчи қўшма гаплар омонимияси, полисемияси, полифункционаллиги каби ҳодисаларга дуч келди.

Мазкур муаммолар ўзбек тилшунослигида синтактик сатҳ доирасида ўрганилмаганлиги сабабли, муаллиф мазкур масалаларнинг моҳиятини ёритишга, уларнинг бир-бирига ўхшаш ва фарқли жиҳатларини ёритишга ҳаракат қилди.

А.Бердиалиев рус тилшунослари Г.А.Золотова ва Д.А.Салькованинг синтактик полисемия моҳиятини белгилаш методологиясига [2,137; 6] суянган ҳолда, эргашган қўшма гаплар полисемиясини аниқлайди. Шунинг учун у: “Бир синтактик конструкциянинг турлича синтагматик планларда ҳар хил семантик-сигнификатив маъноли қўшма гаплар ҳосил қилишини қўшма гаплар синтактик полисемияси” деб қарайди [1, 49].

Муаллиф, худди профессор Ш.Раҳматуллаев лексик полисемия билан лексик омонимияни фарқлашда лексема семемасининг семалар тузилишга асосланиши лозимлигин кўрсатганидек, эргаш гапли қўшма гаплар полисе-миясини тайинлашда синтактик бирлашмаларнинг семантик структурасига таянади. Шунинг учун синтактик полисемияга синтаксема, синтаксема каби ҳодисаларни ўз ичига олувчи махсус система сифатида қарайди. Унинг фикрича, синтаксема элементар синтактик-семантик бирлик бўлиб, полисе-мия парадигмасида унинг аъзоларидан бири сифатида иш кўради. Синтак-семада объектив борлиқнинг маълум бир фақти ифодаланadi (предмет ва унинг белгиси, ҳаракат ва унинг белги-хусусияти ва бошқ.), улар ўзаро синтактик алоқаси грамматик жиҳатдан ифодаланган бошқа қасмларга бўлинмайди [1, 49].

Олимнинг юқорида баён қилган фикрларидан кўриниб турибдики, синтаксема атамаси остида иккита ҳодисани тушунади. Биринчидан, синтактик бирликлар мазмуний тузилишдаги энг кичик бошқа майда бирликларга бўлинмайдиган бирлик, синтаксеманинг узвий бир қисми. Бунда синтаксема-ма синтактик бирлик орқали ифодаланган синтактик мазмун. У гўёки лексема семемаси. Синтаксема бундай вақтда икки ва ундан ортиқ семалар муносабатидан ташкил топган бутунлик ҳисобланади. Демак, синтаксема полисемик тузилишга, яъни семемалардан ташкил топгади.

Иккинчи томондан, синтаксема “форма ва мазмун планларига эга бўлган конфигурацион бутунлик” дейилиши билан у фақат мазмуний тузилиш бирлиги эмас, балки мазмун ва шакл бирлигидан ташкил топган элементар синтактик бутунлик сифатида тушунилади. Лексик сатҳда лексемани шакл ва мазмун бирлигидан ташкил топган бутунлик сифатида эътироф этилиб, унинг шаклий томони учун номема, мазмун томони учун семема атамалари қўлланилади [4, 272] ва лексема бутунлик сифатида номема ва семемалар муносабатидан ташкил топиши баён қилинади.

Агар лексик бирликларнинг ана шундай ички тузилиши хусусияти синтактик бирликларга нисбатан олиб ўтилса, у вақтда синтактик бирлик ҳам ташки ва ички структуралар муносабатидан ташкил топади. Синтактик бирликлар объектив борлиқдаги нимани ифодалашига кўра максимал ва минимал бирликларга бўлинади.

Объектив борлиқдаги муайян вазиятни, воқеликни, яъни пропозицияни ифодалаган синтактик конструкциялар максимал вазият, воқелик, яъни пропозиция узвларини ифодалаган ва гап шаклидаги синтактик конструкцияларнинг бир бўлаги бўлиб келган бирлик минимал бирликлар саналади.

А.Бердиалиев синтаксема тушунчаси остида икки хил ҳодисани аралаш-тириб юборганидан, гоҳ уни мазмуний структура узви, гоҳ шаклий структура узви сифатида талқин қилади. Хусусан, у бу ҳақида қуйидагиларни ёзади: “Элементар синтактик бирлик – синтаксемалар синтактик системанинг содда ва қўшма гаплар сатҳига хос синтаксемалардан фарқ қилади. Содда гаплар сатҳига хос синтаксемалар гап бўлаги характерида бўлади. Уларнинг синтагматик муносабатидан ё гапнинг грамматик асоси ҳосил бўлади, ё гапнинг грамматик асоси грамматик ва семантик жиҳатдан кенгайди. Уларнинг функцияси гап қурилишининг ана шундай ҳолатларидан бирига кўра аниқланади. Қўшма гап, хусусан, эргаш гапли қўшма гаплар сатҳининг синтаксемалари предикатив бирлик характеристикасига эга бўлган микро-конструкциялардир. Уларнинг қўшма гап умумий ядросига бўлган муносаба-тида синтагматик талабнинг таъсири кучли бўлади...” [1, 50].

Кўриниб турибдики, бу ўринда муаллиф синтаксемани шаклий-семантик-функционал бутунлик сифатида талқин қилади.

Ҳозирда синтаксема тушунчаси синтаксема тушунчасига зидланади. Муаллиф синтаксема тушунчаси синтаксема тушунчасидан фарқ қилишини, синтаксема бирдан ортиқ семантик-сигнификатив планларга эга бўлган синтактик конструкция ва уларнинг моделлари эканини баён қилади. Унинг фикрича, синтаксема атиги бир семантик-сигнификатив планга эга бўлган конструкциядир” [1, 51].

Айни пайтда синтаксема ёки унинг конкрет семаси деб синтактик конструкция ҳосил қилувчи моделларнинг категориал маъноларидан ажралиб чиқувчи энг кичик, бўлинмас “компонент”, “элемент” саналиши айтилади. Синтаксема ва унинг конкрет семаси дейилиши билан сема синтаксеманинг бир қисми маъноси англашиладики, бу билан муаллиф синтаксемема, синтаксема, сема атамаларининг аниқ мақомини хиралаштиргандек кўринади.

Илмий адабиётларда худди фонологик сатҳ бирлиги фонема, морфемик сатҳ бирлиги морфема, лексик сатҳ бирлиги лексема деб номлангани каби, синтактик сатҳ бирлиги синтаксема деб қараладиган ҳолатлар учрайди [4, 240]. Бундай вақтда синтаксема синтактик сатҳнинг энг кичик бирлиги маъносида тушунилади.

Тилшунос А.Бердиалиев “Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларининг конструкциялари полисемияга жуда бой”лигини, “унинг системасидаги кўпгина синтаксемемалар ва уларнинг моделлари кўп маъноли” эканини таъкидлайди.

Ўзбек тилшунослигида синтактик полисемия муаммоси Г.З.Розиқова томонидан монографик планда тадқиқ этилди [5]. Олиманинг диққати қўшма гаплар полисемияси баҳсида кўпроқ боғланган қўшма гаплар полисемиясига қаратилади.

Г.З.Розиқова тўғри таъкидлаганидек, синтактик полисемия ва синтактик омонимия ўзаро ўхшаш, шунингдек, фарқли белгиларга ҳам эга бўлган икки ҳодисадир. Уларнинг тилда мавжуд бўлиши ва амал қилиши шакл ва мазмун номутаносиблигини келтириб чиқаради.

Унинг фикрича, синтактик полисемия – бу маънолари ўзаро боғлиқ ва бири иккинчисини тақозо этувчи, бир инвариант маъно доирасида туташувчи ўзига хос лисоний ҳодисадир. Шаклан ўхшаш синтаксемалар бирор бир маъно доирасида ўзаро туташмаса, улар ҳар хил инвариант маъноларга эга бўлса, омонимия ҳодисасининг юзага чиқиши учун шарт-шароит яратилади [5, 21].

Шундай қилиб, қўшма гаплар шакли ва мазмуни ўртасида асимметрияни вужудга келтирувчи омиллардан бири полисемия саналади. Полисемия қўшма гаплар модели семантикасига хос бўлиб, унинг ҳар бир семаси дискурс таркибида реал жумлалар семантикаси орқали воқеланади.

Полисемия фақат лексик сатҳ учун хос бўлмасдан, тилнинг бошқа маъноли сатҳ бирликлари учун ҳам ҳосидир.

Қўшма гаплар полисемияси қўшма гапларнинг барча турларида учрайди ва бундай гапларда шакл ва мазмун асимметрияси мавжуд бўлади. Бир шакл остида икки ва ундан ортик семалар ифодаланади.

Полисемик қўшма гаплар ҳар бир семага хосланган грамматик шаклларни кўшиш орқали трансформация қилинганда, полисемикликдан моносемик тузилишга ўтади ва натижада қўшма гаплар шакл ва мазмун тузилиши ўртасида симметрик муносабат вужудга келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Aytbayev D.T. Relationship of Discourse and Text. India . International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD). Volume 6 Issue 1, November-December 2021 pp.1393-1396.
2. Айтбаев Д.Т. Асимметрия формы и содержания на разных уровнях узбекского языка. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. Нукус. № 1. 2021 йил, -79 б.
3. Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Тошкент: Фан, 1989. –100 б
4. Золотова Г.А. Очерк функционального синтактика русского языка. –М.: Наука, 1973, – с.137.
5. Мухин А.М. Синтаксический анализ предложения. –М.: АН СССР, 1983. –240 с.
6. Новиков Л. А. Семантика русского языка. –М.: Высшая школа, 1982. –272 с.
7. Розиқова Г.З. Ўзбек тилида синтактик полисемия. НДА, Тошкент, 1999.
8. Салькова Д.А. Некоторые вопросы омонимии и многозначности синтаксических конструкций// АКД. – М., 1967.

OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA MEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH*Bakiyeva Xilola Sapayevna,**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti. Toshkent davlat pedagogika universiteti***ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕДИА-ИНСТРУМЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ СЛОВАРНОМУ ЗАПАСУ***Бакиева Хилола Сапаевна,**Доктор философии (PhD) в области педагогических наук, Родной язык и методика его преподавания в начальных классах доцент кафедры. Ташкентский государственный педагогический университет***THE USE OF MEDIA TOOLS IN TEACHING VOCABULARY***Bakieva Khilola Sapaevna,**Doctor of Philosophy (PhD) in the field of pedagogical sciences, Mother tongue and the methodology of its teaching in primary grades assistant professor of the department. Tashkent State Pedagogical University*

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Ot so'z turkumi" o'rganiladigan darslarda mavzuga doir til birliklarini tanlashga, tahlil qilishga, o'quvchilarining ijodiy izlanishlarini talab etadigan vaziyatlar yaratishga, tahlil jarayonida grammatik hodisaning xususiyatlari aniqlashga, misollar tahlilida yozma nutqda so'zning qo'llanish o'rniga alohida ahamiyat qaratilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, qobiliyat, grammatika, media vosita, ot, egalik, kelishik qo'shimchalari, tovush, morfemika, orfoepiyada

Аннотация. В данной статье на занятиях «Имена существительные» необходимо выделить и проанализировать языковые единицы, относящиеся к теме, создать ситуации, требующие творческого поиска учащихся, определить характеристики грамматических явлений в процессе анализа, анализировать употребление слов в письменной речи при разборе примеров, особое внимание уделяется вместо этого.

Ключевые слова: языкознание, умение, грамматика, носитель, имя существительное, владение, спряжение, звук, морфемика, орфография

Abstract. In this article, it is necessary to single out and analyze the language units related to the topic in the Nouns lessons, create situations that require the creative search of students, determine the characteristics of grammatical phenomena in the process of analysis, and analyze the language units related to the topic. the use of words in written discourse is given special attention in the analysis of examples.

Key words: linguistics, skill, grammar, carrier, noun, possession, conjugation, sound, morphemic, spelling.

Zamonaviy ta'limda tilni o'rgatish, tushunish va tan olish uchun o'zlariga tanish bo'lgan tushunchalardan foydalanilgan. Tilning shakli va ma'nosi konseptual tuzilish orqali tashqi dunyo bilan tishda onglilikka va tarbiyalanuvchining faol ishtirokiga e'tibor qaratilmoqda. Kognitiv ta'lim yo'nalishiga asos solgan pedagog olim D. Ozbel ta'lim jarayonida yetakchi usul kashfiyot ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ta'lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida biror narsani yaratish bilan shug'ullansin, u berilgan topshiriqni bajaruchi ijrochi bo'lib qolmasligi lozim degan g'oyani ilgari suradi. Ona tilini o'qitishda o'quvchilarning matnda ifoda etilgan voqeani tushunish va qayta tushuntirib bera olishlaridan tashqari, unga o'z nuqtai nazari asosida munosabat bildira olishlari, ijodiy yondashgan holda matnni qayta yaratishlari nazarda tutiladi.

Tilshunoslikning barcha bo'limlari orsidagi bog'liqlik ularni o'rgatishda shu bog'liqlikka asoslanish tamoyiliga qat'iy amal qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi grammatikasiz aloqani ta'minlay olmagandek, grammatika ham so'zlarsiz kishilar orasidagi aloqani ta'minlay olmaydi. O'quvchilarning aloqa vositasi bo'lgan til imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda tilshunoslikning har bir sathiga doir ma'lumotlar muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning aqliy qobiliyati va grammatik umumlashdirish malakasi qanchalik

rivojlangan bo'lsa, so'z va gaplarning konkret ma'nosidan qat'i nazar so'z shakllariga va ularni o'zaro bog'lovchi vositalariga qarab ular orasidagi o'xshashlik va farqli tomonlarni tez anglaydigan va to'g'ri tahlil qiladigan bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy-ma'naviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda media vositasida mediarasmlar, mediashakllar, mediamatnlar ustida ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish ona tili ta'limining maqsadi va vazifasini amalga oshirish imkonini beradi.

4-sinfda "Ot so'z turkumi" o'rganiladigan darslarda mavzuga doir til birliklarini tanlashga alohida e'tibor qaratiladi. Til birliklari tahlilida o'quvchilarining ijodiy izlanishlarini talab etadigan vaziyatlar yaratiladi. Tahlil jarayonida grammatik hodisaning xususiyatlari aniqlanadi, o'zlari o'rganilayotgan hodisaning ta'rifni chiqaradilar, bir-birlarining bergan ta'riflariga munosabat bildiradilar. Misollar tahlilida yozma nutqda so'zning qo'llanish o'rniga alohida ahamiyat qaratiladi.

Ma'lumki, bilish faoliyati insonni voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan boshlanadi. Inson moddiy olamda yashar ekan, u o'z atrofidagi narsa-hodisalar, o'simliklar va hayvonlarni kuzatadi, ularga o'z munosabatini bildiradi. Hayvon va qushlarga xos ijobiy va salbiy xususiyatlar, ularning hayot kechirish tarzi, insonlarga foydasi va zarari til yordamida ifoda etiladi. Bu holatlar obrazli bo'lgani uchun inson hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi va uning ongida muhrlanib qoladi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar predmet tushunchasini ko'z bilan ko'rish va qo'l bilan ushlash mumkin bo'lgan narsalar deb biladi. O'quvchilarning borliqdagi hamma narsa predmet ekanini anglashlari uchun media vositasida tabiat tasviridan foydalanish, tasvirda ko'rgan narsalarining nomini aytirish va daftarlariga yozdirish, ya'ni predmetlar to'plamini hosil qildirish orqali predmet tushunchasi juda keng tushuncha ekanini, predmetlar xilma-xil bo'lishini bilib olishlariga erishish lozim. Bunda media vositlaridan foydalangan holda narsalarni ko'rsatish va ularning nomlarini so'rash o'quvchilarda predmet tushunchasini ongli anglashlariga erishishda qulaylik tug'diradi.

Media vositalari ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilarning ko'rib o'rganishga bo'lgan qiziqishlarining kuchliligi sabab diqqatini ta'lim jarayoniga to'liq jalb qilishni va faollashuvini, o'rganilayotgan ma'lumotni ongli o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Tabiatdagi o'zgarishlarni multimedia orqali namoyish qilish ham jonli, ham fasllar almashinuvi bilan bog'liq hodisa va narsa nomlarining kelib chiqish sabablarini bilish imkonini beradi.

O'quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:



1. Har bir faslga oid hodisa va narsalar nomini ayting.
 2. Har bir faslga oid so'zlar nega farq qilyapti?
 3. Fasllar nega o'rin almashadi?
 4. Birinchi qaysi faslga oid so'zlarni yozasiz? Nima uchun?
 5. Qaysi faslga oid so'zlar ko'p ekan? Nima uchun aynan shu faslga doir so'zlar ko'p?
1. Qish fasli:
 2. Bahor fasli:
 3. Yoz fasli:
 4. Kuz fasli:
 5. O'zingiz yoqtirgan fasl haqida hikoya yozing.

Ot turkumiga doir ma'lumotlarni tilshunoslikning fonetika, morfemika, orfografiya va orfoepiya bo'lumlari bilan bog'liqlikda o'rganish metodik shartlari biri sanaladi. Chunki har bir so'zning ma'no tomoni, fonetik tarkibi, talaffuzi, imlosi mavjud. Otlar tahlilida uning tovush tarkibiga, u bilan bog'liq bo'lgan ma'no o'zgarishlari, talaffuzi, imlosi ustida ishlash o'quvchilarda tilga sezgirlikni tarbiyalaydi. O'quvchilar yozgan matn tahlilida ayni tomonlariga e'tibor qaratiladi.

Masalan, multimedia vositasida x va h harflari tushirilgan otlar, soʻzlar tagida “yigʻlab turgan harflar” va oʻylab turgan bola namoyish qilinadi:

.irmon, dara.t, char.palak, .urmacha, .at, sho., .ovli, Shu.rat, .osiyat, .unar, mi., .avo, ta.t, ta.ta, an.or, .aykal, .ayvon.

Oʻquvchilar multimediani koʻrib boʻlgach, ularga quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Multimediyada qanday holat yuz berganini toping.

2. Bola nimani oʻylab qoldi?

3. Siz bolaga qanday yordam berishingiz mumkin?

Oʻquvchilar bolaga h va x harflarini qoʻyishda yordam beradi. Harfi notoʻgʻri qoʻyilgan soʻzlar oʻz joyiga qaytib ketadi, toʻgʻri qoʻyishsa, h va x harfli soʻzlar ikki guruhga ajralib joylashadi.

Topshiriq. Nima uchun soʻzlar ikki guruhga ajralib qoldi?

H va x harfli soʻzlarni daftaringizga ikki ustun shaklida guruhlab yozing.

Insonlarga atab qoʻyilgan nomlarni oʻrgatishda quyidagi media vositasida namoyish qilinadi:

toʻlqin – (rasm: suvning toʻlin-toʻlqin boʻlib oqishi) – Toʻlqin (bola rasmi)

uchqun (yonib turgan taxtadan uchqun otilib turgani) – Uchqun (bola rasmi)

rayhon (rayhon oʻsimligi) – Rayhon (qiz qasmi)

gul (gul ochilib turgani) – Gul (qiz rasmi)

arslon (arslon rasmi) – Arslon (bola rasmi)

lochin (qush rasmi) – Lochin (bola rasmi)

temir (temir boʻlagi rasmi) – Temir (bola rasmi)

sayyora (yer sayyorasi rasmi) – Sayyora (qiz rasmi)

yer (quruqlik rasm) – Yer (yer shari rasmi)

Savol va topshiriqlar: Soʻzlarni va rasmlarni kuzating. Bir xil soʻzlar nima uchun ikki xil (kichik va bosh) harf bilan yozilgan?

Atab qoʻyilgan soʻzlarni qanday kelib chiqar ekan?

Oʻzingizning ismingizning nimadan kelib chiqqanini oʻylab koʻrganmisiz? Ismingiz qanday maʼnoni bildiradi?

Joy nomlari va ularning kelib chiqishi, maʼnosi va imlosi ustida ham shu tarzda tahlil va izlanishlar uyushtiriladi.

Otlarning egalik va kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishi mavzulari gap yoki soʻz birikmasi asosida oʻrgatiladi. Shundan anglashiladiki, bu mavzular tilshunoslikning sintaksis (boshlangʻich sinfda morfologiya va sintaksis atamaları qoʻllanmaydi), orfoepiya, orfografiya boʻlimlari bilan bogʻliq holda oʻrgatiladi. Otlar egalik va kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanganda tovush oʻzgarish hodisalari yuz beradi. Otning morfemik tarkibidagi oʻzgarish orfoepiyada namoyon boʻladi. Aytilishi uning tarkibiy qismidagi grammatik birliklar bilan mos kelmay qoladi. Masalan: bilak+i= bilagi, taroq+i=tarogʻi, qishloq+i=qishlogʻi, singil+im=singlim. Bunday soʻzlarning asosini topa olmagan oʻquvchi qoʻshimchalarini ham toʻgʻri aniqlay olmaydi. Shuningdek, bunday soʻzlarning yozilishiga aloqador boʻlgan orfografik qoidaning ham mazmuniga tushunmaydi.

Multimedia vositasida bilak, taroq, qishloq, qiz bolaning rasmi chiqadi. Predmetlar yoniga –i, –im qoʻshimchalari talaffuz qilib chiqariladi.



+ -i= bilagi

Qolgan predmetlar shu tartibda tushuntiriladi

Yuqoridagi mavzularni oʻrganish jarayonida diktant, bayon, insho kabi yozma ishlar tashkil etiladi. Yozma nazoratlar ham multimedia vositasida tashkil etiladi.

(Multimediyada tasvirlanadi: Yaponiyada soatiga 360 km tezlikda poyezd ketyapti. Vagonda hamma kitob oʻqiyapti. Qarasam, bitta men kitob oʻqimayotgan ekanman. Uyalganimdan men ham diplomatimni ochib kitob oʻqishga tushdim.)

Said Ahmad rasmi va audiodan quyidagi gap aytiladi: Kitobga nisbatan hurmat-eʼtiborda hech kim yaponlarning oldiga tusha olmasa kerak.

Topshiriq. Multimediyada koʻrgan holatlaringizdan nimalarni angladingiz?

Yozuvchi Said Ahmad nima uchun bu voqeani yozib qoldirgan?

Nima uchun odamlar kitob oʻqiydi?

“Kitobning inson hayotidagi oʻrni” mavzusida insho yozing.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. 2006. 6-bet. 192-b.
2. Matchonov S. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Zebo prints. 2022. -642 b.
3. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
4. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(6).
5. Masharipova, U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(2), 33-35.
6. Nusratova, K. C. (2021). RELEVANCE OF THE TOPIC OF WAR IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE WRITER SAFAR BARNOEV). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 740-745.
7. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(6).
8. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students

TIL SATHLARINI O'RGATISH ORQALI ORFOEPIK, ORFOGRAFIK, PUNKTUATSION VA USLUBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH*G'ulomova Xolida,**O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti***ФОРМИРОВАНИЕ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ, ОРФОГРАФИЧЕСКИХ, ПУНКТУАЦИОННЫХ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПО ЯЗЫКОВЫМ УРОВНЯМ ОБУЧЕНИЯ***Гулямова Холида,**старший преподаватель кафедры Узбекского языкознания, Чирчикского государственного педагогического университета***FORMATION OF ORTHOGRAPHIC, ORTHOGRAPHIC, PUNCTUATIONAL AND STYLISTIC SKILLS BY TEACHING LANGUAGE LEVELS***Gulyamova Kholida,**Senior teacher of the Department of Uzbek Linguistics, Chirchik State Pedagogical University*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabda tilni o'rgatishda til sathlarini o'rgatish orqali o'quvchilarda orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalarni shakllantirish haqida so'z yuritiladi. Аннотация

Kalit so'zlar: fonetika, fonologiya, grafika, orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalar, tovush va harf, til birliklari, tilning ijtimoiy mohiyati.

В данной статье обсуждается о формировании у учащихся орфоэпических, орфографических, пунктуационных и методических навыков в обучении языку в школе посредством преподавания уровней языка

Ключевые слова: фонетика, фонология, графика, орфоэпика, орфографические, пунктуационные и стилистические навыки, звук и письмо, языковые единицы, социальная сущность языка.

Abstract. This article discusses the formation of students' spelling, spelling, punctuation and methodological skills in teaching language at school through teaching language levels.

Keywords: phonetics, phonology, graphics, pronunciation, spelling, punctuation and stylistic skills, sound and writing, language units, social essence of language.

Ma'lumki, ta'lim sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zbek tilini o'qitish fanining bosh vazifasi ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning ona tilining lug'at boyligidan, tilning grammatik qurilishidan to'g'ri foydalana bilish, og'zaki va yozma nutq savodxonligini shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi.

O'zbek tili o'qitish fani o'quvchilarni til materiallarini kuzatish ishlaridan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzda nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga tayyorlaydi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar, til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Fonetik va grafik ko'nikmalarini shakllantirishda ham shu qonuniyatga asoslanadi.

Fonetika va fonologiya, grafikani o'zaro bog'liqlikda o'rgatish metodik jihatdan quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishda ilmiy ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo ko'nikmalarini o'zlashtirishda ahamiyati katta.

Fonetik va fonologik bilimi bo'lmagan o'quvchilarda imlo ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Fonetika va fonologiya o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini savodli shakllantirishda muhim o'rin tutadi, chunki so'zning tovush tarkibini to'g'ri shakllantirishga uning tovush tomoni o'z ta'sirini o'tkazadi. So'zning tovush tomonidan to'g'ri nusxa ko'chirish tovushlarning og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinishiga bog'liq. Ma'lumki, nutq, til qonuniyatlariga e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni talab etadi.

Til juda murakkab hodisa, uning qonuniyatlarini, o'xshashlik va farqlarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. O'quvchi ta'lim jarayonida gaplashish, o'qish, eshitish, yozish orqali til materiallarini yig'adi, uning qonuniyatlarini tahlil orqali o'zlashtiradi. Natijada o'quvchida tilga sezgirlik shakllanadi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchi bilan qanday ishlash kerakligini ko'rsatadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining og'zaki bog'lanishli nutqini aniqlovchi ish turlaridan foydalanishi, o'quvchiga bilgan tez aytishlarini, she'r, hikoya, maqol, hikmatli so'zlarni aytirishi va ularning aytilishini, aytilishi bilan yozilishida farq qiluvchi holatlarni so'rashi orqali unda tilni organishga motivatsiyani yuzaga keltirishi lozim.

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetika va fonologiyadan olgan bilimlarining amaliy ahamiyatini: fonetik bilimga asoslangan holda so'zni to'g'ri talaffuz qilish, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni farqlash, orfoepik me'oyorga rioya qilish orqali so'zning talaffuzi bilan yozilishi orasidagi oxshashlik hamda farqni anglash, morfologik va so'z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda bir qator imloviy malakalarni (jarangsiz va jarangli undoshlarning imlosini) egallash mumkinligini anglab yetadilar. Fonetik bilim asoslangan holda gapni ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi to'xtamlarga rioya qilish gap mazmunini to'g'ri tushunish ko'nikmasini, so'zning tovush tomonini bilish uning ma'nosi orasidagi bog'lanishni tushunib olishga va nutqda so'zlarni ongli qo'llashga yordam berishini bilib oladilar. So'zning tovush tomonini tasavvur qilish ularni to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yozish uchun zarur.

According to E. Showalter, the phase of feminine is represented by authors such as the Bronte sisters, Elizabeth Gaskell, Elizabeth Barrett Browning, Harriett Martineau, George Eliot, Florence Nightingale, Charlotte Young, Dinah Mulock Craik, Margaret Oliphant and Elizabeth Lynn Linton. These female authors attempted to merge with the male tradition, resulting in the conflict of “subjugation and resistance” that can be observed in many of their works. Although female authors filled the novel market at the time and made up the majority of readers, they still felt “paralyzed by metaphor” because they were confined to the confines of Victorian bourgeois morality. In the second period, women emerged as a middle class, suddenly attacking traditional standards and values, demanding recognition of their independence and rights. In this period, women’s struggle for their rights takes many forms: they address the poor, slaves, working class and women of light virtue, and thus freely pour out their sense of injustice. This period is known by names such as Mary Braddon, Rhoda Broughton, Florence Marryat, Sarah Grand, Elizabeth Robbins and others. The third period can be characterized as a period of liberation from dependence on the opposition as a means of self-determination. Authors such as Dorothy Richardson, Catherine Mansfield, Virginia Woolf, as required by the polarization of the world, develop gender differences and turn to female aesthetics. However, E. Showalter criticizes them for their androgenic nature.

In general, E. Showalter’s work is considered one of the most important in terms of considering the process of formation and evolution of women’s prose in Britain, despite the fact that it received a number of critical comments later.

As for the theoretical simplicity of the author, twenty years later, in “Twenty Years on: A Literature of Their Own Revisited” the author does not defend her previous work, but rather in the field of feminist criticism announces that she allows intellectual disputes.

The genesis and evolution of American women’s prose is traced in Kathryn van Spankeren’s “A Brief History of American Literature”, in which one chapter (“Women Writers and Reformers”) is devoted to the work of American women. The first American woman to have her work published was Anna Bradstreet. His collection of poems was published in England in 1650. As Kathryn van Spankeren points out, colonial writers such as Anna Bradstreet, Anne Hutchinson, and Sarah Campbell Knight had a significant impact on society and literature despite the harsh living conditions and dangers of the time. In addition, the researcher believes that the best poetry of the colonial era was written by a slave named Phyllis Wheatley, and the author calls her an important African American writer.

Feminist philologists later discovered a number of other writers, including Susanna Rawson, Hanu Foster, Judith Sargent Murray, and Mercy Otis Warren. The correspondence between Mercy Otis Warren and Abigail Adams played an important role in the lives of American women. Abigail Adams demanded the inclusion of provisions guaranteeing the independence of women’s rights in the Constitution.

However, women’s literature in the United States began to develop in the 19th century, and, of course, this process is related to the socio-historical processes characteristic of the country at that time. The ideas of feminism and social movements awakened not only Europe and Great Britain, but also the United States. As Kathryn van Spankeren points out: “In the 19th century, American women experienced many manifestations of inequality. They had no rights, vocational schools and most universities were closed to them. They could not speak openly or even attend meetings; they could not own property. Nevertheless, various women’s societies appeared. Through letters, personal friendships, official meetings, newspapers, and books, women accelerated social change”.

At that time, the concepts of “women’s rights” and “women’s liberation” were used in the sense that we understand the word “feminism” today [8]. Early feminists, who included both women and men, advocated for women’s equal rights in social institutions, the family and home, and education. One of the first works dedicated to the protection of women’s rights was the English writer, philosopher and feminist Mary Wollstonecraft’s “A Vindication of the Rights of Women”, published in 1792. The author states in her essay that the reason why women seem to be at a lower stage of development than men is their lack of education. She believes that men and women are intelligent beings and proposes to build a society based on intelligence. In the 1830s, social movements began to emerge in the United States based on his ideas, one of which was known as abolitionist. Representatives of this movement

demanded fundamental changes in the social system, for example, the abolition of slavery. As mentioned above, there were many women's groups during this period, and their activities served as the basis for the emergence of new literary traditions. According to Kathryn van Spankeren, sentimental novels by women writers were very popular [7].

They appealed to the students' emotions and often dramatized pressing social issues, especially those related to the family, women's role and responsibility. At the forefront of the abolitionist movement was Lydia Child, who in her "History of the Position of Women in Different Ages and Among Different Nations" (1855) argued for equal rights for women and pointed to their historical achievements. The works of Lydia Child had a great influence on another writer of the publicist - Margaret Fuller. Fuller's "Nineteenth-century woman" is considered one of the first studies of the role of women in a society that is generally very American. Kathryn van Spankeren says that the writer often uses the democratic principles and theses of transcendental scholars. It analyzes the many cases and harmful consequences of sexual discrimination and suggests specific measures to be taken against it. Many of his ideas are surprisingly modern. She emphasizes the importance of the "self-independence" that women are deprived of, because "they are taught to recognize their rights externally, not to discover them within themselves".

Other famous fighters for equality and the abolition of slavery were the sisters Sarah and Angelina Grimke, who were the first women to address public lectures to an all-male audience. The Grimke sisters saw a parallel between racism and discrimination against women in their works. "Although roughly two centuries have passed since the Victorian era, it is clear that women writers still struggle for recognition and acknowledgement, especially in the literary genres where men appear more dominant than women" [9].

CONCLUSION. As can be seen from the above, women's literature appears in Great Britain and the United States at about the same time, which is associated with the ideas of feminism, which first spread in the West, and then in the United States. However, for modern women, the ideas of feminism cease to be interesting and relevant, because they have already achieved freedom. Of course, we must pay tribute to this movement, which contributed to the independence of women and the self-identification of women in society, this led to the recognition of their equal social status with men. It is evident that women writers still battle for recognition and credit in the twentieth century even though the Victorian era was nearly 200 years ago, especially in literary disciplines where men are more prevalent, greater than women.

The most independent and free literary works by self-assured women authors emerged in the twentieth century, ultimately redefining and reshaping women's literature.

REFERENCES:

1. Ремаева, Ю.Г. Постфеминистская проза Британии на рубеже XX-XXI вв [Текст]: дис. ... канд. филол. наук: 10.01.03/ Ремаева Юлия Георгиевна. – Нижний Новгород, 2007. – 215 с.
2. Рабжаева, М.В. Женская проза. [Электронный ресурс] / М.В. Рабжаева. – Режим доступа: <http://www.owl.ru/gender/073.htm>. - (Дата обращения: 12. 07.12) 117
3. Словарь гендерных терминов [Текст]: (378 словарных статей) / отв. ред. А. А. Денисова. – М.: Информация – XXI век, 2002. – 253 с.
4. Коробейникова, А.А. Женская литература как явление отечественной культуры [Электронный ресурс] / А.А. Коробейникова // Вестник ОГУ. – 2011. - № 8
5. Жеребкина, И.А. Феминистская литературная критика: академическая справочная статья [Электронный ресурс]/ Жеребкина И.А. – Режим доступа: <http://www.owl.ru/library/004t.htm>. - (Дата обращения: 13.07.12)
6. Showalter, E. A Literature of Their Own [Text]: British Women Novelists from Bronte to Lessing / Elaine Showalter// - Princeton University Press. – 1999.
7. Nasiba, P. (2022). Manner of Narration in the Prose of Virginia Woolf. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 97-99.
8. Parmonova, N. (2022). The Definition of "Female Style" in Literature. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 6, 72-74.
9. Fayzullaeva, Umida and Parmonova, Nasiba (2021) «THE EVOLUTION OF FEMALE WRITERS IN THE 20TH CENTURY: FROM THE LATE 19TH CENTURY TOWARDS 21ST CENTURY.» Mental Enlightenment ScientificMethodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 02 , Article 7. DOI: <https://www.doi.org/10.51348/tziuj2021S27> Available at: <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2021/iss02/7>

ЎЗБЕК БОЛАЛАР ШЕЪРИЯТИДА ЮМОРНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ВА КОММУНИКАТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Қобилова Азиза Аҳроровна,
Бухоро давлат университети мустақил изланувчиси.*

Аннотация. Бугунги кунда адабиётшуносликда юмор, ҳажв алоҳида диққат қаратилаётган адабий ҳодисалардан биридир. Болалар адабиётини ҳам ҳазил ва кулгу-табассумсиз тасаввур этиб бўлмайди. Чунки болалар психологияси ҳазил-мутойибани яхши кўради. Бундан ташқари юмор – бу боланинг эътиборини ҳар қандай матнга қаратишига ёрдам берувчи, мустақил ўқишдаги қийинчиликларни енгишига кўмаклашувчи ўзига хос воситадир. Буни дунёнинг машҳур ҳажвнавиис шоиру адиблари ижоди бўйича олиб борилаётган изланишлар ҳам исботлаб беради. Мақолада болалар шоири Анвар Обиджон шеъриятида юморнинг ўрни масаласи таҳлил этилган.

Калит сўзлар: болалар адабиёти, юмор, шеърият, кулгу уйғотувчи деталлар, латифа, болалар руҳияти, бола тили.

ЯЗЫКОВЫЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЮМОРА В УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

*Кобилова Азиза Ахроровна,
Независимый исследователь Бухарского государственного университета.*

Аннотация. Юмор и сатира - одно из важнейших литературных явлений современной литературной критики. Детскую литературу невозможно представить без юмора и смеха. Потому что детская психология любит юмор. Кроме того, юмор - уникальный инструмент, который помогает сосредоточить внимание ребенка на любом тексте и помогает преодолеть трудности в самостоятельном чтении. Об этом свидетельствуют продолжающиеся исследования произведений всемирно известных комиков, поэтов и писателей. В статье анализируется роль юмора в поэзии детского поэта Анвара Абиджана.

Ключевые слова: детская литература, юмор, стихи, веселые подробности, анекдоты, детская психика, детский язык.

LINGUOPOETIC AND COMMUNICATIVE FEATURES OF HUMOR IN UZBEK CHILDREN'S POETRY

*Qobilova Aziza Ahrorovna,
independent researcher at Bukhara State University.*

Annotation. Humor and satire are one of the most important literary events in literary criticism today. It is impossible to imagine children's literature without humor and laughter. Because child psychology loves humor. In addition, humor is a unique tool that helps to focus the child's attention on any text and helps to overcome difficulties in independent reading. This is evidenced by the ongoing research on the works of world-famous comedians, poets and writers. The article analyzes the role of humor in the poetry of children's poet Anwar Abidjan.

Keywords: children's literature, humor, poetry, hilarious details, anecdotes, children's psyche, children's language.

КИРИШ. Болалар адабиётининг бошқа анъана ва тамойиллар каби юмор ҳам ўқувчида психологик энгилликни шакллантирувчи, шунингдек, ахлоқий тарбия бериб, ёмон иллатлардан огоҳлантирувчи восита бўлиб хизмат қилади. Ижтимоий ҳаётда юмор – коммуникантлараро муносабатларни ўрнатиш ва сақлашга ёрдам беради. Юморнинг бу хусусияти бевосита болалар адабиёти учун ҳам ҳосдир.

МАҚСАД ВА ВАЗИФА. Ушбу мақолада қўйилган масала Анвар Обиджон ижодида юморнинг лингвопоэтик ва коммуникатив хусусиятларини очиб бериш ҳамда аниқлашдан иборат.

НАТИЖА ВА ЮТУҚЛАР. Ўзбек болалар адабиёти ва шеърияти ўз тарихий тадрижида умумадабиёт тараққиёт тамойилларига ҳамоҳанг ривожланиши билан бирга жаҳон ва рус болалар адабиёти анъаналарини ўзига хос давом эттириб келаётгани билан

этирофга лойиқ. Жумладан, юмористик шеърлар болалар адабиётига ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, мумтоз адабиётнинг масал ва ҳажвий асарлари таъсирида сингиб кетган бўлса, жаҳон ва рус болалар шеърлятидаги айрим тамойиллар билан ўзаро ўхшаш ҳамда фаркли тафовутларига кўра тараққий этиб келмоқда. Албатта, маданиятлараро ранг-баранглик болалар асарларининг тил хусусиятларидаги ўзгачаликни ҳам тақозо этади. Айниқса, юмористик шеърларда ўзбек халқининг ўзига хос ҳажв, киноя, қочирик, пародия ҳамда сўз ўйинларидаги маъно товланишлари, кулгу уйғотувчи деталлар миллий менталитетга хос бўлса, жаҳон болалар адабиётининг юмористик асарлари ўзгача деталларга эга. Ҳатто уларнинг ифода усуллари, тил хусусиятларида болаларнинг воқеликка муносабати нуқтайи назаридан ажаралиб туради. Шоирнинг ижодий услубидан ташқари турли халқларнинг кулгу уйғотувчи деталлари ҳам бири-бирига ўхшамаслиги табиий. Бинобарин, ҳар бир халқ болаларининг тушунча ва руҳиятига ҳамоҳанг улар учун мўлжалланган юмористик шеърлардаги деталлар ҳам шу маънода турличадир. Айтайлик, Англия болалар шеърлятидаги юмор кулгу уйғотувчи деталлари билан кескин фаркланади. Бунда шоирнинг ижодий услубидан ташқари сўз ва тушунчаларнинг, ифода усуллариининг ўзига хослигини кўриш мумкин. Бу инглиз болалар шеърлятида фольклор таъсирида давом этиб келаётган алоҳида жанрлар “шиворот-навъорот”- тескари ҳолат, барчаси тескарига ифода этиладиган воқеалар орқали кулги уйғотиши англашилади. Масалан, ширинликлар дарахтларда ўсади, полиз экинлари эса денгиз остида, захарли ўтлар сигирларни ейди, мушук сичқондан кўркади, худди шундай чўчкалар билан ўрдакларнинг ўрни алмашилиб кулги мотивини ҳосил қилади.

Яна шуниси диққатга сазоворки, ҳар бир халқнинг латифа объектлари, жойлари бор. Масалан Англиядаги Готэм кишлоғида яшайдиганлар ҳақида тўқилган талай латифалар мавжудлиги айтилади. Н.Н. Болотнова шундай латифалар ҳақида тўхталиб, улар гоҳида ёзни узоқроқ чўзилишини хоҳлаб, сайроки кушларнинг атрофини қалин девор билан ўраб қўйиши, гоҳида узун таёқ билан сув ҳавзаларидан ойни овлаши, гоҳида эса тоғора билан денгиз саёҳатига жўнаши кабиларни санаб ўтади [1].

Дарҳақиқат, ўзбек адабиётида ҳам афанди ва латифаларга бой объектлар, жой номлари (Ширинқишлоқ, Шакарқишлоқ, Донишқишлоқ), образлар (Насриддин афанди, Матмуса) мавжуд. Шу билан бирга ўзбек болалар шеърлятидаги юмор ҳам алоҳида шоирлар ижодида ўзига хос намоён бўлиши таъкидга лойиқ. Юмор тўғрисидаги назарий фикрларни жаҳон ва ўзбек адабиётшунослигидаги этирофига этибор қаратилса, ҳодиса моҳияти янада теранроқ англаниши мумкин.

Инглиз тилининг “Merriam-Webster” изоҳли луғатида юморга шундай таъриф берилган экан: «humour (humor) – the amusing quality or element in something – кулгили ҳолат, белги ёки ниманидир асосий қисми»[2].

Рус адабиётида юмор кўпроқ тилшунослик аспекти нуқтаи назаридан ўрганилганини кузатиш мумкин [15]. Шунингдек, М.А.Кулинич таъкидича, юморнинг ижтимоий муносабатларни ўрнатишдаги аҳамияти жуда катта, у инсонларни руҳий чарқокдан кутқазиб, ўзаро алоқаларни мустаҳкамлашга ёрдам берадиган қурол сифатида ижтимоийлашув воситаси бўла олади [5]. Яна айрим тадқиқотчилар фикрича, юмор ташкил этувчи сўз ва тушунчалар вақт ўтиши билан уни қўллаган муаллиф, ўқувчилар (субъектлар) қатори ўзгариб туриши мумкин экан. Шунингдек, В.И.Дальнинг изоҳли луғатида юморнинг қуйидаги хусусиятларига урғу берилган: қувноклик, ўткирлик, ҳазил билан йўғирилган донишмандлик, ахлоқий, тарбиявий ва қадриятларга оид ноҳуш ҳолатларни беғараз ҳажв қила олиш каби.

Ўзбек адабиётшунослигида ҳам юморнинг ранг-баранг талқинлари мавжуд. Жумладан, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”даги қуйидаги таърифда унинг энг муҳим хусусиятлари қамраб олинган: юмор (лот.) — кулги билан хайрихоҳликни ўзида мужассам этган комиклик тури. Бадиий адабиётга мансуб юмористик асарда ёзувчи ижтимоий ҳаётдаги, шахсий турмушдаги, хусусан, айрим кишилардаги баъзи камчилик нуқсонлардан қулиб, уни танқид қилади. Бунда ёзувчи танқид қилинаётган объектнинг йўқотилишига тарафдор эмас, унга ачинади, ундаги мавжуд камчиликнинг тузалишини истайди. Енгил танқид, ҳазил руҳи билан у сатирадан фарқ қилади.

Кўринадики, юморнинг асосий хусусиятлари бировнинг камчилиги, заифлиги ёхуд ёмон хулқ атворида нисбатан беғараз ҳажв, қувнок кулги орқали муносабат билдириш; шунингдек адабий тушунча сифатида бадиий асар ёки шеърларда воқеликка нисбатан шундай кайфиятдаги ифоданинг мавжудлиги сифатида тушуниш мумкин. Бундан

ташқари, болалар адабиёти ва шоирларининг ҳам ўзларига хос бўлган сўз ўйинлари, пародия, киноя, лофлардан фойдаланиш, кулгили мотив ва образлар яратиш, ҳаётий воқеликка тесқари ифода ва усулларни қўллашдаги услубий ранг-баранглик мавжуд.

Болалар шеърлятида юморнинг ўрни ранг-баранг вазифаларни ўташи мумкин. Аммо болани кувноқлик орқали ҳаётга, атроф-оламга муносабатини шакллантириш, бирор бир камчиликни кулги воситасида бадий акс эттириш юморнинг бош хусусиятидир. Чунки болалар айнан кулишга, ҳазил-мутойбага ўч бўладилар. Болалик шўхликлари шуни тақозо этади. “Шум бола”даги Қоравойнинг қилган ноҳўя ишлари бошдан оёқ одатий тарбияга зид. Уйдан тухум билан ёғни ўғирлаганидан тортиб, мўйсафид чолларни алдаганигача, қушларни ўлдирганидан то Сарибойни чув туширганигача барчаси ахлоқсизлик дейиш мумкин. Аммо Ғ.Ғулом асарни шу даражада юмор билан тўйинтирганки, унда жамиятнинг болаликка муносабати, катталар оламидаги алдов-қалдамлар ва етимлар фожиаси каби оғриқлар ана шу кулги тарозисида енгилроқ туюлади. Ниҳоят, ана шу кулги уйғотадиган воқелик одатий ҳаётга тесқари бўлгани учун болалар кизикиши, асарни қарийб бир асрдан буён қўлдан тушмай мутолаа килинаётганига сабаб бўлган дейиш мумкин.

Худди шундай, болалар шоирларининг кўпгина шеърляридаги юмор энг аввало кичкинтойлар ҳамда болалар ва ўсмирлар китобхонлиги эҳтиёжи юзасидан муҳимлик касб этади. Айниқса, болалар шоирлари А.Обиджон, Т.Адашбоев, Д.Ражаб, К.Турдиева, А.Акбар кабиларнинг сермаҳсул ижодида юморнинг ранг-баранг намуналари учрайди. Шу сабабли А.Обиджон ижоди ҳақида фикр юритган адабиётшунос олима З.Иброҳимова болаларнинг “кулгига ўч халқ” эканлигини асло унутмайди, дея таъкидлайди [4]. Чиндан ҳам А.Обиджон шеърлярида юморнинг барча ёшга мўлжалланган намунаси топилади. Боғча борадиган жажжи болақайлардан тортиб, кичик мактаб ёшидаги болаларгача, ўсмирлару катталарга хос ва мос бўлган юмористик шеърлар ҳил-ҳил пишган овқатдек тап-тайёр. Масалан, шоирнинг “Сигир кўшиғи”да айнан кичкинтой болалар образи кулги остига олинади ва айнан уларнинг инжиқликлари ўзларига ойнадек намоён бўлади:

Қанд деб йиғлар бузоғим,
Тинчимайди қулоғим,
Мў-ў-ў.
Кўнмаяпти у сира,
Берсам ҳатто кунжара,
Мў-ў-ў.
Билмайдики эса паст,
Кунжараям ёмонмас,
Мў-ў-ў.
Нима у “қанд” дегани,
Арзийдими, егани,
Мў-ў-ў.

Шеърдаги бузоқнинг қанд сўраши реал ҳаётга тесқари ҳолат бўлгани учун барчага кулгили. Кичкинтойлар эса буни “чин” деб тушунади, албатта. Сигирнинг “мў-ў-ў”раши ҳамда боласини эси паст деб сўкиши, сўнгра қандни нима эканлигини билмаслиги кулгилидир. Шоирнинг “Чаласавод” шеъри эса эндигина ёзишни ўзлаштириб олган бошланғич синф ўқувчиларини диққатини тортади:

Эшак қамиш-
Ручкада,
Мактуб ёзди
Чўчкага:
“Салам, ашна,
Сағмисан,
Ёки пишқан
Яғмисан?” [6]

Болалар мактубдаги ҳар бир сўзда бир имло хатоси борлигини илғаб, чаласавод эшакнинг устидан мазза қилиб кулишади. Ва тенгдошлари орасида ўзи ҳам саводсиз эшакка ўхшаб қолмаслиги учун ҳаракат қилади. Зеро, шоирнинг мақсади ҳам шу. Ҳайвонлар образидан фойдаланиб, кичкинтойлар орасида учраб турадиган айрим камчиликларни беозор кулги орқали тарбиялашдир. Худди шундай “Қурумсоқ” шеърлярида

“қаламим одош бўлади” деб ёзмасликни баҳона қилган Мирсалим, “Огоҳлантириш” шеърдаги тушида ҳолва кўрса, бер деб ғалва кўтарадиган укасини огоҳлантирган Равшан, “Ачиниш” шеърдаги Мирҳошимнинг акасини калишини кийиб кетгани учун, лойга ботишидан ачинган ака кечинмаси кабилар баайни кичкинтойлар руҳиятига мос кулгили ҳолатлардир.

Бундан ташқари, А.Обиджоннинг “Ғалати мактублар” туркумидаги шеърлари болалар ва ўсмирлар китобхонлигига мос юмористик шеърлар ҳисобланади. Шоирнинг бу туркумдаги шеърларини юқорида зикр этилган манбаларда таъкидланганидек, семантик-стилистик, лингвопоэтик жиҳатдан таҳлил қилиш мумкин. А.Обиджон архаик сўзлар, бугунги ёшлар деярли ўз нуткида қўлламайдиган тушунча ва иборалардан фойдаланиш орқали юмористик кулги яратади. “Калишнинг ботинкага”, “Чайнамайшимингнинг хўрозқандга”, “Қўранинг кумғонга”, Сополкосанинг чинникосага” “ёзилган хат”ларидаги киноя, кесатик, истехзо ва мажоз, тамсил сингари бадий унсурлар кулгининг турли хилларини намоён қила олган. Рост, ҳали болалар бундай шеърлардаги мажозий маънолар, кесатиқ ва пичингларни тушунмаслиги мумкин. Масалан, кумғоннинг қўрада қуйиб-пишиб чой қайнатиши-ю, одамлар эса “бурни осмонда” Чойнақвойни эъзозлаб ликопчага ўтқизиши, “дунё ўзи тескари”лиги жамиятдаги лаганбардорлар, “Ўроқда йўқ, машоқда йўқ, хирмонда ҳозир”ларга ишора қилинаётганини англамасалар ҳам, айнан ана ўша предмет ва буюмларнинг мактуби, ёки асори-атиқага айланиб бораётган номи кулги уйғота олади. Шоир бундай шеърларда ҳатто болалар тилидан унумли фойдаланган. Масалан, “Чайнамайшиминг, одош, таталаб, Чориг бобонг, Шиппак опанг, Хиром аканг, чўтир Қирза тоғанг, Маҳсибиби ойинг, Амиркони холанг” каби. Бу сингари болалар тилидан кенг фойдаланиш нафақат шеърни кичкинтойларга яқинлаштиради, балки, айнан бола шу появзал турларини ўзининг яқин қариндошлари сифатида тасаввур қилиб, мириқиб кулади. Ва албатта буларнинг барчаси нореал, ҳаёт ҳақиқатига тескари бўлганидан кулгилidir. Айни пайтда бу тил ҳодисаси болаларда лингвокреативлик тафаккурини шакллантиришга ҳам хизмат қилади. А.Обиджоннинг юмористик шеърларидаги поэтик ифода шакллари ҳам ўзига хос. Уларнинг тузилишиёқ юмор. Бир мисра биргина сўздан иборат, ёки тўрт мисра-тўртта сўз – шеър. Масалан, “Итнинг таклифи”да ўқиймиз:

Юринг боғда,
Салқинлаймиз,
Биргалашиб,
Акиллаймиз.
Ёки, “Ҳакканинг ваъдаси”:
Текин беринг,
Кавшайман,
Ўғрилиқни
Ташлайман.

ХУЛОСА. Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, болалар шеърлятида юморнинг ўрни жуда кенг ва муҳим вазифаларга эга. Бола ақлини таниганидан эшитиш ва ёд олишга кизиқиш уйғотадиган, кулгини яхши кўрадиган, ажойиботларга бой тасаввурлардан иборат шеърлар албатта уларни ўзига жалб қилади. Кулги остига олинаётган ҳодиса ва воқеалардан узок бўлишга, акс ҳолда ўзи ҳам шундай кулги бўлишдан эҳтиётланиши, қолаверса, шу каби шеърлар таъсирида атрофда содир бўлаётган салбий ҳолатларни фарқлай олишга эришиши мумкин. Бинобарин, юмористик шеърлар дастлаб болаларни қувноқ кулгига етакласа ҳам аслида уларнинг беғараз танқидчисидир. Шу билан бирга улар болалардаги чексиз-поёнсиз фикр ва туйғуларининг сўз орқали жилоланиши, айни пайтда болалар руҳиятининг теран ифодачиси ҳамдир. А.Обиджоннинг маҳорати шундаки, боғча ва кичик мактаб ёшидаги қаҳрамонлари ҳақида сўзлаб ўтирмай, уларни айнан ўз тиллари, ҳаракатлари ва тасаввурлари орқали намоён қилади. Шоир шеърларининг коммуникативлиги - яъни сўз ва тушунчаларни ифодалаш усули айнан болаларбоплиги ҳам шу маънода эътирофга лойик.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Болотнова Н.Н. Филологический анализ текста: учебное пособие – Москва: «Флинта», 2007.-520 с.
2. Вержинская И.В. Понятие «юмор» в лингвокультурологическом аспекте // Наука и современность. - 2012. - № 19. -С. 105-108.



3. Жамилова, Башорат Саттаровна. «Трактовка и формы выражения экологического воспитания в произведениях для детей.» Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума (2019): 70.
4. Иброҳимова З. Қувноқликка яширинган изтироблар. Т., 2005. –Б.6
5. Кулинич М.А. Структура и семантика лингвистических средств выражения комического / М.А. Кулинич // Иностр. яз. в шк. – 2009. – №4. – С. 69-73.
6. Обиджон А. Масхарабоз бола. Тошкент, 1986
7. Низомиддиновна, Ҳамроева Нафиса. «ИЛТИФОТНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.» Сўз санъати халқаро журнали 5.3 (2020).
8. Ҳамроева Н. Н. Compliment как одна из форм фатического общения КОМПЛЕМЕНТ AS ONE OF FATIC COMMUNICATION FORMS //МІЖНАРОДНИЙ НАУКОВИЙ ЖУРНАЛ «ІНТЕРНАУКА. – 2020. – С. 107.
9. Ҳамроева Н. Н., Хотамова И. У., Матниёзова Ш. Б. ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОМПЛИМЕНТА КАК ЭТИКЕТНОГО РЕЧЕВОГО ЖАНРА // Academy. – 2020. – №. 12 (63).
10. Sattorovna J. B. et al. Basics of Uzbek Children’s Reading //TEST Engineering & Management. – 2019. – Т. 81. – С. 4207-4214.
11. Jamilova B. Description of the spirit of teenagers in uzbek children’s prose //Middle European Scientific Bulletin. – 2020. – Т. 1. – №. 7. – С. 20-27.
12. Nizomiddinova K. N. Compliment as one of the forms of Phatic Communication // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10. – №. 1.
13. Nizomova, Shodiyevna Shohista. «Symbolic interpretations of water and fire in modern poetry.» Middle European Scientific Bulletin 11.1 (2021).
14. Norova, Nasiba Bakhtiyorovna. «CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).» Scientific reports of Bukhara State University 4.5 (2020): 214-221.
15. Explanatory English dictionary Merriam Webster [Электронный ресурс]: Режим доступа: <http://slovar-vocab.com/english/merriam-webster-dictionary.html>.

АДАБИЁТДА РАМЗ ТУШУНЧАСИ ВА РАНГ СИМВОЛИКАСИ

*Рўзиева Моҳичехра Ёқубовна,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)
Осиё Халқаро университети Тарих ва филология кафедраси доценти*

ЗНАЧЕНИЕ СИМВОЛ И ЦВЕТ СИМВОЛИЗМ В ЛИТЕРАТУРЕ

*Рузиева Моҳичехра Ёқубовна,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)
доцент кафедры истории и филологии Международного университета Азии*

SYMBOL CONCEPT AND COLOR SYMBOLISM IN LITERATURE

*Mokhichekhra Yokubovna Ruzieva,
Doctor of Philosophy in Philology (PhD),
Associate Professor of the Department of History and Philology
at the International University of Asia*

Таянч сўзлар: адабиёт, фольклор, руҳият, рамзийлик, образ, тимсол, тасвирий ифода, мифология, ранглар, оқ, қизил, қора

Ключевые слова: литература, фольклор, психология, символизм, символ, символический образ, цвет, цветоведение, поэтические символы, символический смысл, символика, магические взгляды, цвет, белый, чёрный, красный,

Key words: folklore, symbol, poetics, colour symbolism, poetic symbols, animism, totemizm, symbolic meaning, colour, white, black, red,

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек адабиётидаги рамз ва рамзий образлилик, тимсол ва рамзий образнинг фарқи, ранг ва унинг рамзий маънолари, уларнинг келиб чиқиши асослари ҳақида сўз боради.

Аннотация. В данной статье говорится о символах и символических образах в узбекской литературе, о разнице между символом и символическим образом, цвете и его символических значениях, а также об основах их происхождения.

ANNOTATION. In this state, we are talking about symbols and symbolic images in Uzbek literature, different types of symbols and symbolic images, colors and symbolic meanings, as well as origins and origins.

Ранглар инсон ҳаётида катта аҳамиятга эга. Шунинг учун асрлар давомида олимлар томонидан ранглар ҳақида кўп илмий тадқиқот ишлари олиб борилган ва изланишлар давом этмоқда. Дунёнинг бир қанча мамлакатларида махсус ранг институтлари ва илмий лабораториялар ишлаб келмоқда. Япониянинг Токио шаҳридаги, Франциядаги ранг институтлари дунёга машҳур. У ерда рангларнинг тилдаги рамзий маънолари, инсон саломатлигига таъсири, даволовчи хусусиятлари, таълим-тарбиядаги, инсониятнинг фалсафий тафаккур жараёнидаги, маънавиятидаги муҳим ўрни ўрганилади. Рангнинг физика, тасвирий санъатда, адабиётдаги роли тадқиқ этилади.

Фольклор ва адабиётда рангларнинг рамзий маъно-моҳиятини очиб бериш, тасниф этиш, структурал ва семантик қатламларини ўрганиш жуда мураккаб. Чунки ранглар у ёки бу халқнинг ижтимоий-маданий ҳаёти, урф-одати, маросими, қадимий қарашлари билан чамбарчарс боғлиқ ва ҳамшира бир қолипга сиймайди. Маълумки, фольклор ва адабиёт биринчи галда сўз санъати ҳисобланади ва уларнинг асосий объекти инсон қалби, тафаккурида кечувчи жараёнларни бадиий тасвирлаш орқали инсоният камолотига хизмат қилишдир. Ушбу жараёнда ранглар ҳам тасвирлаш воситаси сифатида намоён бўлади. Шу сабабли ҳам дунё адабиётшунослигида, фольклоршунослигида рангларга эътибор кучли. Фольклор ва адабиётда ранглар биринчи галда рамзий мазмун ташийдилар. Бу ҳолат фольклорда қўлланилувчи ранглар символикасини тадқиқ этишдан аввал адабиётшунослик ва фольклоршуносликда рамз ёки символ нима деб қўйилган саволга аниқлик киритиш талаб этилади.

Ушбу ўринда дастлаб мурожаат этилувчи манба адабиётшунослик атамаларининг изохли луғатлари бўлиши табиий. Чунки бу тур луғатларда атамаларга имкон қадар қисқа ва аниқ таъриф беришга ҳаракат қилинади. Ўзбек адабиётшунослигида амалга оширилган луғатларда, асосан, адабиёт манбалари мисолида умумий характерда

берилган таърифлар мавжуд. Жумладан, Н.Хотамов ва Б.Саримсоқовлар символга “рамз, символ – образли тафаккур махсули. Рамз ўхшатиш ва истиоранинг ўта барқарорликка, ҳамма томонидан бир хил тушунилишга эришиш оқибатида вужудга келади. Рамз нарсаларнинг етакчи хусусиятлар, асосий функциялар орқали шунга ўхшаш нарса ёки предметларни тасаввур қилиш, яъни нарса ёки воқеалар ўртасидаги шартли ўхшашликнинг барқарор тушунчаларга айланиши оқибатида пайдо бўлади. Масалан, куёш ёруғлик рамзи. Ёруғлик эса озодлик, бахтиёрлик ҳаёт рамзи ва ҳ.к.” , деб таъриф беришган. Д. Куронов томонидан чоп этилган “Адабиётшунослик луғати”да символнинг қуйидаги таърифини ўқиймиз: “Бадий адабиётда мохиятан аллегорияга яқин бўлган кўчимнинг бир тури сифатида символ (рамз) ҳам қўлланади. Символнинг аллегориядан фарқи шундаки, у муайян контекст доирасида ҳам ўз маъносида ва ҳам кўчма маънода қўлланади. Масалан, Чўлпон шеърисидаги «юлдуз», «булут», «бахор», «қиш» образлари бунинг ёркин мисоли бўла олади”.

Айни пайтда рус адабиётшунослиги тартиб берилган турли характердаги А.Квятковский, С.С.Аверинцев, Л.Гинзбург, Н.Венгров ва Л.Тимофеевлар томонидан ёзилган луғат мақолаларида символ атамасига ҳар бир муаллиф ўзига хос ёндашиб таъриф берган ва улар айнан тақдорланмаслиги билан ажралиб туради. Аммо символнинг асосий белги ва хусусиятларини кўрсатишда фикрлар ўзаро кесишади, маълум ўринларда фарқланади.

Ўзбек шеъриси мисолида А.Шароповнинг символ атамасига берган таъриф ҳам эътиборга лойиқ. Олим: “Поэтик символ ташқи кўриниши белги бўлиб, ундаги аниқлик кўргазмалик, айни вақтда бадий шартлилик воситасида бунга нисбатан кенгрок абстракт маъно ифода этади”. “Поэтик символда предмет билан маъно ўртасидаги ички, мантикий алоқанинг, ўхшашликнинг бўлиши шарт”. “Реал жонли мавжудотларнинг образлари кўп ўринларда мавҳум, абстракт сифатларнинг символлари сифатида қўлланилади. Бундай символлар анъанавий характерга эга бўлиб, ундаги абстракция ва предмет ўртасида табиий боғлиқнинг қолдиғи” (рудимент) мавжуд бўлади”- , деб кўрсатган. Лекин юқорида қайд этилган барча таърифлар адабиёт материаллари асосида айтилган бўлиб, уларни тўлалигича фольклорга қўллаб бўлмайди.

Рус фольклоршунослар В.И.Еремина, Н.П.Колпоковаларнинг тадқиқотларида келтирилган таърифлар бевосита рус халқ кўшиқлари мисолида айтилганлиги билан характерли. Жумладан, В.И.Еремина: “...рамз остида маълум поэтик тизимда муносабатларнинг доимий доирасини кўрсатувчи ва тасаввур бўйича жиддий фарқланувчи фикр тушунилади,-” деб ёзади. Н.П.Колпокова эса: “ У ёки бу рамзий маъноларни алоҳида тушунчаларга боғлашга уриниш бефойда. Турли дарахтлар ва гуллар кўшиқларда бадий образ сифатида келиши ва ҳар бир кўшиқ матнидан келиб чиққан ҳолда ҳамгин ёки қувноқ маъно бериши мумкин,- ” деб ёзган. Айни фикрлар бир-бирини тўлдириши фольклор материаллари мисолида айтилганлиги билан характерлидир.

Ўзбек фольклоршунослигида рамз масаласига назарий нуқтаий назардан ёндашилган тадқиқотлар қаторида Ш.Турдимов ва Ж.Эшонқуловларнинг ишларини келтириб ўтиш мумкин.

Ж.Эшонқулов “Фольклор: образ ва талқин” ва “Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини” китобларида ўз объекти қамровида фольклордаги рамзий, тимсолий тафаккур асослари ва унинг бадий кўриниш талқинлари юзасидан фикр-мулоҳазаларни баён этган. Аввало олим мифларнинг тили рамз тили эканлигини, ибтидоий одам тасаввурида дунё рамзлар орқали қабул қилиниб, баҳоланиб, муносабат билдирилганлигини асотир ва эртак материалларига таяниб қайд этади ва “Ибтидоий инсон тилини тўла маънода рамзлар тили дейиш мумкин” – деган хулосага келади.

Дарҳақиқат, халқнинг символик тафаккур тарзини тадқиқ этилар экан, рамз ва тимсол атамаларини ёнма-ён қўлланилади. Тимсолсиз санъат, адабиёт, умуман ижод бўлган эмас. Халқ оғзаки ижоди бугун фақат мифологик ёки тарихий асос сифатида ўрганиладиган ижод эмас, балки тимсоллар санъати сифатида ўрганиладиган, таҳлил этилиши лозим бўлган санъатдир. Олимнинг ушбу фикрлари ранг символларига ҳам тегишлидир. Биз фольклордаги ранг символлари ибтидоси, семантик доирасини ўрганар эканмиз, аждодларимизнинг олам, одам ҳақидаги фикр-мулоҳазалари, ўй-кечинмаларини англаб етамиз. Тимсолий, рамзий мушоҳаданинг табиатини яқиндан биламиз.

Шу нуқтайи назардан олимнинг тимсолий мушоҳада табиати хусусидаги ушбу фикрлари аҳамиятлидир: “Тимсол – ташқи дунёнинг ички дунёмизда, “қалбимиз ва онгимиздаги аксидир”.

Демак, ички дунёмизда ташқи дунёнинг ўзига хос қабул қилувчи хусусият бор. У ташқи дунёни рамзлар, тимсоллар орқали, яъни ўзича идрок этиб қабул қилишга мослашган. Инсон туғилгандаёқ дунёни шундай рухий имконият билан келган. Илк одамлар табиат ва коинот сирларини тимсоллар орқали қабул қилганлари бежиз эмас.

Ибтидоий одам сел, бўрон, олов, тўфонни кўрганда улар қаршисида ўзининг ожизлигини ҳис қилган ва ваҳимага тушган. Қуёш танасини яйратганда қувонган. Натижада зулмат – ваҳм, ёруғлик қувонч тимсоли бўлиб қолган. Мана шу ваҳм ва қувонч инсон ички дунёсининг ташқи дунёга нисбатан тимсоли эди. Бундан ташқари зулматни душман, ёруғликни дўст деб билган инсон ана шу икки тимсолга эзгулик ва ёвузлик маъносини ҳам юклаган. Чунки ибтидоий одам учун абстракт тушунчалар йўқ эди. В.М. Мелитинский айтганидек, у дунёни тасаввурлар орқали англади, улар воситасида муносабат қилар эди. Демак, тимсол ва тасаввур эгизаклар эди. Шу сабабли ҳар бир тимсол асосида инсон тасаввурлари ва кечинмалари ётадики, уларнинг қай тарзда, қачон пайдо бўлганини билиш тимсолларни аниқ, илмий тўғри шарҳлаш имконини беради.

Фольклордаги барча рамзий ва тимсолий образлар қаторида ранг тимсол ва рамзлари ҳам инсоннинг ташқи дунёни “қайта ишлаб” қабул қилишга мослашган ички оламнинг ифодаси бўлиб хизмат қилади. Моҳиятда эса: “Халқ ижодида Ёвузлик ва Эзгулик ўртасидаги кураш ҳам тимсоллар тили билан баён қилинганки, уни шарҳлаш аждодларимизнинг яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги қарашлари билан танишиш имконини беради.” Санъат, фольклор асарлари моҳиятидан келиб чиқилган бу фикрлар ранг рамзлари мазмуни, уларнинг у ёки бу асарда ифодалаб келаётган поэтик маъноларини аниқлашда, таҳил этишда муҳим ўринга эга.

Фольклоршунос Ш.Турдимов ўзбек халқ лирик қўшиқларида поэтик рамзларни ўрганар экан аввало рамз тушунчаси ва поэтик рамзларнинг табиати, фольклор ва адабиётдаги рамзий образларнинг умумий ва хусусий жиҳатлари, поэтик рамзнинг муайян фольклор жанрида намоён бўлишига оид хоссаларига тўхталади. Олимнинг ушбу назарий қарашлари ранг рамзлар табиати ва уларнинг маълум бир фольклор жанридаги ўрнини белгилашда қўл келади: “Одатда, рамз атамаси нафақат адабиёт ва санъатда, турмушу фаннинг барча жабҳаларида кенг қўлланилади. Бу соҳаларнинг барчасидаги «рамз» тушунчасини бир-бирига боғлаб турувчи етакчи хосса – уларнинг ҳар қайсисида рамз сифатида келаётган, англаётган нарсанинг (у нимаки бўлмасин) ўзида бир қанча тушунчаларни жамлаб, турғун ассоциация (имукук) уйғотишидир” – деб ёзар экан муаллиф рамзларнинг турмушда, фанда, адабиёт ва санъатда ўзига хос равишда намоён бўлишини, турмушдаги рамзлар коммуникатив вазифа бажариши, фандаги рамзлар маълум тушунчаларни билдиришга, адабиёт ва санъатдаги рамзлар кечинма, ҳолат ва воқеликни бадий эстетик англаштишга хизмат қилишини кўрсатади. Фольклор ва адабиётда қўлланилувчи рамзларга тўхталар экан: “Бадий асарда (фольклор ва адабиётда) рамз деб бирор сўз (образ ёки деталь) ва сўзлар бирикмасининг ўзи ифодалаб келаётган луғавий маънодан ташқари, шартли равишда турғун бадий ассоциация уйғотишини ва бу имукукнинг назарда тутилаётган поэтик маънонинг юзага чиқишида хизмат қилишини тушунамиз. Поэтик рамз кўпчилик бадий тасвир воситалари қатори фольклор ва адабиётда фикрни, туйғу ва кечинмаларни қисқа, образли қилиб ифодалашда қўлланилувчи омил, бадий тафаккур маҳсулидир” – деб таъриф беради. Энг асосийси, фольклордаги рамзларнинг анъанавий характерга эга эканлиги ва бу анъана асрлар давомида шаклланиб, кўпчилик ўринларда тарихан халқнинг узок ўтмишига, турли мифологик ишонч эътиқодларга бориб боғланишини қайд этади. Анъанавийлик, оммавийлик, туб турғун маънога эгаллик фольклордаги рамзлар учун етакчи хусусият ҳисобланишини, аксинча, адабиётдаги рамзлар ижодкор таланти ва иқтидори билан боғлиқ хусусий ҳолда намоён бўлишини кўрсатади. Поэтик рамзнинг қўшиқлардаги мавҳум тушунчаларни, англашиш қийин бўлган нозик туйғуларни, турли руҳий ҳолатларни бир ёки бир неча сўз орқали ифодалаш имконияти яратиши, қўшиқнинг оҳангдорлигини таъминлаб, бадий-эстетик қимматини оширишга хизмат қилишини таъкидлайди.

Ранг рамзлар асрлар давомида шаклланиб, тарихан халқнинг қадимий миф, турли

этикодий дунёқарашларига бориб боғланади. Барча турдаги рангларнинг туб илдири халқнинг у ёки бу мифологик тасаввур, этикодий қарашларга боғлиқдир.

Ранг рамзлар барқарор шакл ва туб мазмунга эга. Рамз сифатида келувчи барча рангларнинг барқарор шаклга эгалигини фольклорнинг барча жанрлари мисолида кўрсатиш мумкин. Ранг рамзларнинг ҳам поэтик маъноси образ ичида яширин келади. Муайян матнда бу яширин поэтик маъно халқнинг ушбу образ ҳақидаги тасаввур, тушунчалари асосида англашилади. Ранг рамзларнинг поэтик ва луғавий маъноси ўртасида билвосита боғланиш мавжуд. Образ билан боғлиқ тасаввурлар унутилса, рамзий маъно англамай қолади.

Ранг рамзнинг туб маъноси муайян матнда рамзий “қўшимча”лар воситасида ўз маъно кўламини у ёки бу даражада кенгайтиради. Баъзи ҳолатларда ўзак маънога бевосита боғлиқ янги поэтик маънолар ҳосил бўлади. Бу ҳолат халқ лирикасига тегишли намуналарда яққол кузатилади. Шу йўл билан поэтик рамзнинг чексиз бадий имкониятлари намоён бўлади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi –Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Тернэр В. Символ и ритуал. – М.: Наука, 1983. – 277 с.
3. Эшонқул Ж. Фолклор: образ ва талқин. - Қарши: “Насаф” нашриёти, 1999. – Б.170.
4. Қуронон Д. Мамажонон З. ва бошқалар...Адабиётшунослик луғати. Академнашр.1997,400 б.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Садыкова Равиля Равильевна, университет «Янги аср», доцент кафедры «Общеобразовательные дисциплины», Филология (Русский язык).

RUS TILINI O'RGANISHDA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Sadikova Ravilya Ravilevna, "Yangi asr" universiteti, «Umumta'lim fanlari», filologiya (rus tili) kafedrasida dotsenti.

IMPROVING INFORMATION CULTURE IN THE STUDY OF THE RUSSIAN LANGUAGE

Sadykova Ravilya Ravilevna, Yangi Asr University, Associate Professor of the Department of General Educational Disciplines, Philology (Russian language).

Аннотация: данная статья раскрывает особенности информационной культуры на уроках русского языка, а также способствует развитию таких параметров как память, смысловое чтение, монологическая речь, владение средствами ИКТ.

Ключевые слова: коммуникация, билингвизм, грамотность, мышление, внимание, логика, методика, метод, память, запоминание, компьютерные технологии.

Annotatsiya: ushbu maqola rus tili darslarida axborot madaniyatining xususiyatlarini ochib beradi, shuningdek xotira, semantik o'qish, monologik nutq, AKT vositalarini o'zlashtirish kabi parametrlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so'zlari: aloqa, ikki tillilik, savodxonlik, fikrlash, e'tibor, mantiq, metodologiya, usul, xotira, xotira, kompyuter texnologiyalari.

Abstract: this article reveals the features of information culture in Russian language lessons, and also contributes to the development of such parameters as memory, semantic reading, monologue speech, possession of ICT tools.

Keywords: communication, bilingualism, literacy, thinking, attention, logic, methodology, method, memory, memorization, computer technology.

В настоящее время Узбекистан делает огромные шаги в области развития информационных коммуникационных технологий в обучении подрастающего поколения.

В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» одними из основных направлений развития системы народного образования определены совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса, а также внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сферу народного образования[1].

Настало время наладить содержание информационной культуры преподавания русского языка в школе и вузе. Рассмотрим необходимые условия качества повышения образования и самоконтроля:

- освоение работы с компьютером для выполнения успешных результатов в образовательном процессе;
- работа с электронными учебно-методическими материалами.;
- создание мультимедийных учебных комплексов;
- электронные книги, пособия, словари;
- схемы, таблицы, презентации;
- использование ссылок при демонстрации художественных и мультипликационных фильмов.

В современном мире, находящемся в состоянии активного развития цифровых технологий и информационных ресурсов, формирование информационной культуры является необходимым условием успешным результатом учебного процесса. Электронные средства такие как онлайн-библиотеки, аудио- и видео-ресурсы, интерактивные курсы позволяют студентам-билингвам получать доступ к широкому спектру учебных материалов и использовать их в своей учебной деятельности при

изучении русского языка. Это позволяет заинтересовать и усовершенствовать методику языкового обучения. Начинать уделять внимание этому вопросу необходимо еще с начальных классов общеобразовательных школ. Конечно, это касается, в частности, обучению русскому языку. В практике обучения начинающих школьников школ с русским языком обучения учителю приходится работать с учениками, для которых язык обучения не является родным. Это, прежде всего дети-билингвы. У многих из этой части школьников страдает русское произношение, что затрудняет их дальнейшее обучение чтению и письму. Речь детей - билингвов изобилует недочетами, связанными с особенностями родного языка. Задача учителя заключается в том, чтобы помочь детям билингвам овладеть русским произношением, одновременно выполняя всю школьную программу наравне со всем классным коллективом.[2]

Одной из основных задач, стоящих перед учителем, является всестороннее развитие, при котором ученик не испытывает информационных перегрузок, ведущих физическому, умственному и психическому перенапряжению. В наш век инновационных технологий учитель должен помочь ученикам преодолеть возникающий барьер между возрастающим объемом информации, которую должен обработать ученик, и его психофизиологическими возможностями. Учащиеся билингвы в процессе овладения русской грамотой встречаются с различными трудностями (звуковые трудности, слоговые трудности, трудности в постановке правильного ударения, произношения). Для того, чтобы научить учащихся правильно говорить, читать и писать по-русски, учитель должен хорошо знать сходства и расхождения в фонетических и грамматических системах русского и узбекского языков, а также владеть основными методами обучения русской грамоте. Использование обучающих программных средств может быть эффективным инструментом в процессах дистанционного обучения, способствующим развитию информационной культуры студентов. Начинать уделять внимание этому вопросу необходимо еще с начальных классов общеобразовательных школ. Конечно, это касается, в частности, обучению русскому языку. В практике обучения начинающих школьников школ с русским языком обучения учителю приходится работать с детьми, для которых язык обучения не является родным. Это, прежде всего дети-билингвы. У многих из этой части школьников страдает русское произношение, что затрудняет их дальнейшее обучение чтению и письму. Речь детей- билингвов изобилует недочетами, связанными с особенностями родного языка. Задача учителя заключается в том, чтобы помочь детям билингвам овладеть русским произношением, одновременно выполняя всю школьную программу наравне со всем классным коллективом. В этом и поможет применение информационных технологий на уроках русского языка.

Использование мультимедиа, задействование компьютера, проектора и аудиосистем – это самый очевидный способ сделать занятие современным. Перечисленные системы многократно расширяют спектр возможных форматов преподнесения материала на уроке. Несколько вариантов того, как использовать мультимедиа на уроках чтения:

1. Сопровождение слов учителя иллюстрациями;
2. Выведение важных фраз на экран для записи без необходимости диктовать их и повторять по несколько раз;
3. Демонстрация отрывков из фильмов, в том числе экранизаций изучаемых литературных произведений;
4. Проведение тестирований, опросов с использованием изображений и аудио- или видеофрагментов;
5. Демонстрация презентаций учащимися, защита собственных проектов.

А также электронные платформы и ресурсы предоставляют широкий спектр возможностей для качественного обучения:

- позволяют студентам общаться с преподавателями и другими студентами, получать доступ к учебным материалам, проходить тестирование и выполнение заданий, а также участвовать в обсуждениях;
- получение доступа к лекциям, учебным пособиям, видеоматериалам и другим ресурсам в любое время и из любого места, позволяет им изучать материалы в удобном темпе и на своем собственном графике;
- возможность общения и сотрудничества студентов через чаты, форумы, электронную почту и другие средства коммуникации, что позволяет им обмениваться мнениями, задавать вопросы, получать обратную связь и учиться друг у друга;

- возможность проверки знаний и контроля прогресса студентов, прохождение тестирования, выполнение заданий и проектов, что помогает им улучшить свои знания и навыки в определенной области;
- проведение вебинаров и онлайн-конференций, позволяющее преподавателям общаться с группами студентов и давать уроки в режиме реального времени, что может быть полезно для обсуждения сложных тем и улучшения понимания материала;
- возможность хранения и обмена информацией между преподавателями и студентами. Это может быть полезно для управления курсом, организации заданий и контроля прогресса студентов;
- предоставление широкого спектра возможностей для дистанционного обучения, которые могут быть использованы для повышения качества цифровой культуры обучающихся;
- использование различные формы обратной связи между студентами и преподавателями. Это может быть осуществлено с помощью форумов, чатов, электронной почты и других средств коммуникации. Обратная связь играет важную роль в образовательном процессе, так как помогает студентам понимать, где они допускают ошибки, а также обеспечивает мотивацию для дальнейшего изучения материала. [3, с.90]

Для достижения этой цели необходимо принимать во внимание специфику каждой дисциплины, а также уровень подготовки студентов. Например, для обучения математике могут использоваться программы с интерактивными задачами и тестами, которые позволят студентам отслеживать свой прогресс и получать обратную связь. [4]

Для изучения иностранных языков могут использоваться программы с аудио и видео материалами, которые помогут студентам развивать навыки понимания и произношения языка.

Кроме того, для эффективного использования обучающих программных средств необходимо учитывать особенности процесса дистанционного обучения, такие как отсутствие возможности непосредственного контакта с преподавателем и соучастниками обучения. Для устранения этих проблем могут использоваться дополнительные инструменты коммуникации, такие как видеоконференции, чаты и форумы.

Также важно учитывать мотивацию студентов и их готовность к самостоятельному изучению материала. Для повышения мотивации студентов их можно вовлечь в интерактивные задания и проекты, которые будут требовать от них самостоятельного исследования и применения полученных знаний. [5]

Итак, главными составляющими информационной грамотности преподавателя русского языка достаточно трудно овладеть без специального обучения, а также комплексной методической поддержки преподавателей вуза, в целях совершенствования их профессиональных компетенций.

Онлайн-образование востребовано в обществе, активно развивается во всех сферах и является необходимым умением для профессионального мастерства. Преподаватель должен иметь представление о таких понятиях как компьютерные технологии, информационные ресурсы, электронные учебники, работа с презентацией, платформа, онлайн-обучение, электронный журнал.

Современному педагогу, независимо от направления, необходимо уметь работать с компьютерной техникой и ориентироваться в информационных программах, уметь работать в zoom-формате, в чате; соединяться с участниками конференции, электронной информацией- это значит, самостоятельно обслуживать техническую сторону дистанционного учебного процесса.

J. Lakoff va M. Jonson metaforik hosila ma'noning paydo bo'lishida ikki kognitiv maydon, ya'ni manba maydoni hamda maqsad maydoni ishtirok etishini ko'rsatishadi (Lakoff, Johnson 2003: 195). Ularning fikricha, konseptual metaforalar ortida freym va ssenariy o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchi yotadi. Manba maydoni insonning tajribasi orqali borliqni idrok etishidagi aniq bilimlar yig'indisidir. Maqsad maydoni esa nisbatan kam oydinlashgan, aniqlashgan muqarrar bilimdir. Metafora orqali ma'no ko'chishi sodir bo'lganda inson tilning lug'at tarkibidagi mavjud birliklardan va egallagan bilimidan foydalanadi. Ushbu holat manba maydoni vazifasini o'taydi. Maqsad maydoni esa inson tafakkurida tayyor til birliklari orqali hosil qilinadigan yangi hosila ma'nodir. Ushbu nazariyadan kelib chiqadiki, yuqorida tahlil qilingan "it" leksemasining manba maydoni hayvon konsepti, maqsad maydon esa inson konsepti hisoblanadi.

Metaforik va metonimik ko'chimlar, ramziylashtirish jarayonlari leksik tabiatga ega va asosan konseptlarni konkretlashtirish tamoyiliga asoslanadi, obyektlarning ayrim xususiyatlarini tasvirlaydi:

Keksalik boshlanib, tanni bemorlik
Zabtiga oldi-yu, xoru zor qildi.
Bir zamon yurardim, davlatlik, norlik,
Ko'zimga dunyoni endi tor qildi.
Shogirdlar o'stirdim joylab jonimga,
Mahramdek sanadim xonadonimga.
Oqibat o'shalar hatto yonimga,
Kelib o'tirishdan go'yo or qildi.

(A. Oripov, "Imon" she'ridan)

Ushbu she'riy parchada "tanni zabtiga oldi", "dunyoni tor qildi", "joylab jonimga" metaforalari, "xonadonim", "davlatlik", "norlik" metonimlari, "mahram" ramzi orqali sog'ligidan, davlatidan, yaqinlari mehridan judo bo'lgan obrazni tasvirlashga, "Tashlandiq

inson” konseptini konkretlashtirishga ko‘maklashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баранов А.Н. О типах сочетаемости метафорических моделей // Вопросы языкознания. 2003. №2. – С. 73-79.
2. Сафаров Ш. Когнитивно-интерактивные функции метафоры // Мир духовной культуры человечества: язык, литература, искусство. – Самарканд, 2006. – С. 82-85.
3. Хасанова Л. Хазойин ул-маоний” куллиётида ит образларнинг тасвирланиши тамойиллари // Scientific Progress, 2021. – 1098-1112 б.
4. Юлдашев А.Г. The role of cognitive mechanisms in the words with transferred meanings // Иностранные языки в Узбекистане. – Т, 2019. №3. – Б. 49-54.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980/2003.–276p.
6. Sherzodovich, A. S., & Jamshedovich, B. F. THE MAIN FEATURES OF THE TRANSLATION OF LITERARY TEXT. Sciencepublish. org, 16.
7. Халимова, Ф. Р. (2019). Прагматические свойства лингвофонетических средств в поэтическом тексте и их сравнительный анализ при переводе. Вестник Челябинского государственного университета, (1 (423)), 138-144.
8. Халимова, Ф. Р. (2021). КОГНИТИВ ПОЭТИКА. Academic research in educational sciences, 2(12), 133-142.
9. RUSTAMOVNA, H. F. (2020). Training Simultaneous Interpreters. JournalNX, 6(06), 623-627.
10. Rustamovna, H. F. (2020). KEY CONCEPTS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 232.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

LOYIHA FAOLIYATINI TA'LIMDA QO'LLASH USULLARI

Abdirimova Intizor Kamilovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada loyihalash metodi va uning ta'lim tizimiga joriy etish tamoyillari haqida so'z boradi. Loyiha metodining ta'lim jarayonida qo'llashning tashkiliy bosqichlari va usullari misollar yordamida ko'rsatilgan. Loyiha metodining ta'lim sifatini oshirishda yuqori natija berishi ilmiy xulosalangan.

Kalit so'zlar: loyiha, klaster yondashuv, ta'lim tizimi, o'quvchi, innovasion texnologiya, innovasion yondashuv, pedagogik texnologiya, loyihalash faoliyati, pedagogik psixologiya, pedagogik ta'lim.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ

Абдиримова Интизор Камиловна

*Чирчикский государственный педагогический университет,
старший преподаватель*

Аннотация. В данной статье рассказывается о методе проектирования и принципах его реализации в образовательной системе.

На примерах показаны организационные этапы и методы применения метода проектов в образовательном процессе. Сделан научный вывод, что метод проектов дает высокие результаты в повышении качества образования.

Ключевые слова: проект, кластерный подход, образовательная система, читатель, инновационная технология, инновационный подход, педагогическая технология, проектная деятельность, педагогическая психология, педагогическое образование.

METHODS FOR USING PROJECT ACTIVITIES IN EDUCATION

Abdirimova Intizor Kamilovna

Chirchik State Pedagogical University, senior teacher

Annotation. This article describes the design method and the principles of its implementation in the educational system. The examples show the organizational stages and methods of applying the project method in the educational process. The scientific conclusion is made that the method of projects gives good results in improving the quality of education.

Keywords: project, cluster approach, educational system, reader, innovative technology, innovative approach, pedagogical technology, project activity, pedagogical psychology, pedagogical education.

Kirish. Yurtimizda keyingi yillarda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko'zdan kechirishni taqazo etmoqda. Istiqloq yillarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida qator samarali ishlar amalga oshirildi. Lekin afsuski, ta'lim muassasalari bir – biridan uzilgan holda, yagona maqsadga erishish usullarini aniq belgilay olmaganliklari, ular o'rtasidagi integratsiya, mantiqiy davomiylik ko'p ham inobatga olinmaganligi natijasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va kadrlar tayyorlash sohasidagi talablar to'liq bajarilmadi. Shu bois bugungi kunda ta'lim tizimida ham yangilik yaratish, bir yoqadan bosh chiqargan holda faoliyat olib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda butun dunyo bo'ylab har bir sohada globallashtirish jarayonlari o'z aksini ko'rsatmoqda. Ta'lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi va ushbu sohada ta'limni yangicha innovasion g'oyalari asosida rivojlantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida tizimli muammolarni hal qilish, yangicha metod, shakl, yondashuv va texnologik jarayonlar vositasida amalga oshgan holda sohada sifat ko'rsatkichini o'sish jarayonini ta'minlaydi[1].

Adabiyotlar tahlili. Rus olimlari Ingrid Bem va Yens Shnayder loyihalash faoliyati

o'quvchilarni ma'lum bir ta'lim olish davrida (o'quv yili yoki yarim yillik) bilim olish va kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning usuli deb hisoblaydilar [2].

Ye.S.Polat loyiha metodi yordamida ishni tashkil qilishning ma'ruza, seminar mashg'uloti, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, loyihani himoyalash, kurs ishi loyihalari kabi shakllarini alohida ajratib ko'rsatadi. O'qitish tizimini faollashtirish maqsadida pedagogika amaliyotida jamoaviy loyiha metodidan foydalanish mumkin. Ushbu masalalar Ch.Mayers va T.V.Jonsning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan "Innovation yondashuv", "Innovation faoliyat", "Innovation pedagogika" tarzidagi tushunchalar ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat [3, 4]. O'quv jarayonida an'anaviy ta'lim mexanizmidan voz kechib, loyihalash faoliyatini tatbiq etish samarador ustunlikka egadir. Loyihalash faoliyati ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantirishga qaratilgan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zaro hamkorlikda o'qish, o'rganish imkonini berib, o'quvchini shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradigan faoliyatdir. Loyihalash faoliyatida turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutuvchi loyihalar asosiy o'rin tutadi.

Ta'limga loyihalash metodining kirib kelishi XIX asrga borib taqaladi, aynan shu davrda AQSH da bu usuldan qishloq ho'jaligi ishchilarini o'qitishda keng foydalanilgan. J.Dyui esa XX asr boshlarida loyihalash metodini bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqib ularni yunaltirishga asoslangan pragmatik pedagogika ta'limotiga tatbiq qilgan. 1918 yilda Kolumbiya universiteti qoshidagi pedagogika kolleji o'qituvchisi Vilyam Kilpatrik loyihalash metodining mohiyatiga bag'ishlab "Loyihalash metodi" nomli maqolani chop qildirdi. Muallifning keyingi maqolalarida ushbu atama kuyidagicha talqin qilinadi: "Loyiha" atamasi faoliyatning har bir imkoniyatini, tajriba jarayonining bog'liqligini anglatishi zarur. Bunda maqsad ichki omil sifatida:

faoliyatning maqsadini anglatadi, tajribaga ega bo'lish jarayonini boshqaradi;

shaxsning o'z faoliyatini va ichki qobiliyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi [5].

Ijtimoiy muhim loyihalarni amalga oshirishda maktab o'quvchilarining qatnashishi ularning mukammal bilim va yuqori malaka egallashi, mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish imkonini beradi. Bugungi kunda butun dunyoda loyihaviy ta'limga qizikish tobora ortib bormokda. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aynan loyihaviy ta'lim o'quv, tashkiliy-boshqaruv, bunyodkorlik, izlanuvchanlik xususiyatlariga ega bo'lgan o'quvchi shaxsini shakllantirish muammosiga yangicha yondashish imkonini beradi.

O'quvchilarning jamoaviy loyiha faoliyatining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

bir o'quvchining butun guruh oldidagi mas'uliyati masalaning ijobiy yechimiga omil bo'ladi;

jamoaviy loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun har bir o'quvchining bilimidan kelib chiqqan holda uning oldiga vazifalar qo'yish orqali uning qobiliyatini namoyon qilishga erishish mumkin;

o'quv topshirig'ining murakkabligidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni dars va darsdan tashqari hamkorlikdagi faoliyati tashkil etiladi;

jamoa bo'lib ishlashda nafaqat tinglash va eslab qolish, balki kengroq iqtidor va qobiliyat talab qilinadi. Bunda o'zaro "o'rganish va o'rgatish" usuli orqali hamkorlarning fikrlarini eshitish va tanqidiy qarashlarni bildirish ko'nikmasi shakllanadi.

Ta'lim beruvchi bu jarayonda ishtirokchiga, faoliyatni yunaltiruvchiga aylanadi. V.V.Guzeyev ilmiy ishlarida loyihaviy ta'limni integratsiyalashgan texnologiya sifatida qaraydi va shu o'rinda ta'lim jarayonida loyiha metodini qo'llash, unda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Loyiha ustida ishlashning bosqichlariga to'xtalamiz.

Tayyorgarlik bosqichida loyiha mavzusi va maqsadlarini aniqlashga qaratilib, o'quvchilar faoliyati maqsadni aniklaydilar. O'qituvchi bilan mavzuni muhokama qilib, zarur ma'lumotlarni bilib oladilar. O'qituvchi faoliyati esa loyihaga yondashuvning mohiyatini tushuntiradi va o'quvchilarni maqsadni to'g'ri qo'yishga undaydi.

Rejalashtirish bosqichidagi ishlarning mazmuni ma'lumotning manbalarini yig'ish va tahlil qilishning yakuniy xulosalarni taqdim qilish usullarini aniqlash. Jarayonni baholash mezonlarini belgilash va jamoa a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlashdan iborat.

O'quvchilar faoliyati ish rejasini ishlab chiqib, topshiriqlarni belgilab oladilar. O'qituvchi esa ma'lum bir g'oyalarni taklif qiladi va turli fikrlar bildiradi.

Izlanish bosqichidagi ishlarning mazmuni ma'lumot yig'ish, oraliq vazifalarni bajarish. Suhbat, so'rovnomalar, kuzatish va tajribadan iborat. O'quvchilar faoliyati oraliq topshiriqlarni bajarish orqali tadqiqot ishlarini bajarishadi. O'qituvchi esa o'quvchilarning faoliyatini kuzatadi, ish jarayonida ularga maslahat beradi, ularning faoliyatiga bilvosita rahbarlik qiladi.

Xulosa va yakunlash bosqichidagi ishlarning mazmuni tayyorlagan ma'lumotlarini tahlil qilishib, o'z xulosalarini yasashadi. O'qituvchi o'quvchilarni kuzatadi va maslahat beradi.

Hisobot yoki taqdimot bosqichidagi ishlarning mazmuni yakuniy hisobot taqdim qilishadi. Yakuniy hisobotning shakllari: og'zaki hisobot, ya'ni ma'lumotlarni taqdim qilish orqali og'zaki va yozma hisobot berishadi. O'quvchilar bajargan ishlarini muhokama etib, yakuniy xulosani taqdim qilishadi. O'qituvchi o'quvchilarni yakuniy hisobotlarini eshitadi, masalani mazmun-mohiyatini kengroq ochib beradigan va har bir ishtiroqchining faoliyatini belgilaydigan savollar beradi.

Natijalarni baholashda o'quvchilar o'zini va jamoani baholash jarayonida qatnashadi. O'qituvchi o'quvchilarning hozirjavoblari, ma'lumotlardan o'rinli foydalana olish qobiliyati, foydalanilmagan imkoniyatlari, hisobotning sifatiga baho beradi.

Aniq topshiriqni bajarishga qaratilgan loyihani amalga oshirishda qo'llaniladigan usul va vositalar quyidagi jadvalda keltiriladi.

Yangi ma'lumotni o'rganish bosqichi	Loyiha ustida ishlashning bosqichlari	Mashg'ulotni tashkil etishning shakllari
Motivasiya, maqsadni aniqlash	1. Maqsadni belgilash	Hikoya, suhbat, ma'ruza va x.k.
Rejalashtirish	2. Takliflarni muhokama qilish	Suhbat
Harakat yo'nalishini belgilab olish	3. O'z-o'zini o'qitish 4. Faoliyat yo'nalishlarini belgilash	Mustaqil ish
Harakat (faoliyat turi)	5. Izlanish	Mustaqil ish, amaliyot, ekskursiya, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi
Refleksiya	6. Umumlashtirish va yakunlash	Seminar, qo'shimcha maslahat
Baholash	7. Muvaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil qilish	Suhbat, qo'shimcha maslahat
Korreksiya (xatolar ustida ishlash)	8. Korreksiya (xatolar ustida ishlash)	

Yuqorida keltirilgan loyihaviy ta'limning tashkiliy tuzilmalari loyiha ustida ishlashning quyidagi asosiy bosqichlarini alohida ajratib ko'rsatishimizga asos bo'la oladi:

1. Loyiha faoliyatining nazariyasini to'liq anglash
2. Loyiha tuzish
3. Tadqiqot faoliyati
4. Natijalarni taqdim qilish
5. Refleksiya.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda umumiy xulosaga keladigan bo'lsak, loyiha metodi mustaqil faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda amaliy va nazariy bilimlar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Loyiha metodi loyiha ishtirokchilarining o'zaro aloqadorligini belgilab, o'quvchi shaxsining eng muhim qirralarini rivojlantirishga imkon yaratadi, muammoning yechimiga erishish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, turli sohalarga oid bilimlarni umumlashtirish va tahlil qilish imkonini yaratib, shu orqali yakuniy holis va aniq xulosa yasashga yordam beradi. Yana bir tamoni loyihalash faoliyati o'quvchining o'z ustida ishlashi, ma'lumot yig'ishi, masalaning yechimini mustaqil tarzda izlashi va bilimlarini amalda qo'llay olish xususiyatlarining shakllanishi bilan ahamiyatli bo'lib, pedagogik samaradorlikning yaqqol ifodasi desak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: O'zbekiston, 2016.
2. Щербо И. Второе пришествие метода проектов // Директор школы. 2003. № 3. -С. 25-32.
3. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiyalar, 2000. -B. 32.
3. Maxkamova M.A. Innovation texnologiyalar boshqaruvi. Monografiya. -T.: Aloqa, 2011. -B. 56.
4. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.

TARBIYA JARAYONINING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Abdullaev Q.F.

Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya: ushbu maqolada ibtidoiy jamiyat davrida tarbiya kurtaklarining paydo bo'lish jarayoni, tarbiya jarayonining vujudga kelishi va taraqqiyotiga oida yondashuvlar mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek arxeologlar tomonidan topilgan dastlabki primitiv mehnat va ov qurollari, uy-ro'zg'or jihozlari, bolalar o'yinchoqlari, qoyatoshlardagi yozuvlar, ildizlari asrlar qa'riga singib ketadigan folklor (xalq o'yinlari, urf-odatlar, maqollar, matallar, epos va h.k.z) materiallari hamda ilk tarbiya jarayonining vujudga kelishi va shakllanishi to'g'risida ilmiy asoslangan fikrlar yoritilgan.

Tayanch iboralar: davr, taraqqiyot, faoliyat, tarbiya, jamoa, muhit, konsepsiya, yozuv, maktab, o'qituvchi.

ЭТАПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация: в данной статье анализируется содержание подходов к возникновению и развитию процесса воспитания в период первобытного общества. Также научно обоснованы представления о возникновении и становлении процесса воспитания на основе обнаруженных археологами первобытных орудий труда и охоты, предметы быта, детские игрушки, надписи на скалах, фольклор (народные игры, предания, пословицы, поговорки, былины и др.), корни которых уходят в глубь веков.

Ключевые слова: период, развитие, деятельность, воспитание, общность, среда, понятие, письмо, школа, учитель.

EMERGENCE AND DEVELOPMENT STAGES OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Abdullaev Q.F.

Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Pedagogy.

Annotation: in this article, the process of emergence of education buds in the period of primitive society, approaches to the emergence and development of the education process are analyzed. Archaeologists also discovered the first primitive work and hunting tools, household appliances, children's toys, inscriptions on rocks, folklore (folk games, traditions, proverbs, proverbs, epics, etc.) whose roots go back centuries. scientifically based ideas about the emergence and formation of the primary education process are highlighted.

Key words: period, development, activity, upbringing, community, environment, concept, writing, school, teacher

Kirish. Ibtidoiy jamoadagi tarbiya jarayoni, uning dastlabki kurtaklari haqida fikr yuritish hamda o'sha jarayonlarni mushohada asosida tafakkur va tassavur etish birmuncha qiyin vazifa sanaladi. Shunga qaramasdan, kishilik sivilizatsiyasi beshigi hamda bu beshikda yo'rgaklangan tarbiya jarayonining paydo bo'lish bosqichlarini moddiy va ma'naviy madaniyat, til, folklor yodgorliklarini sinchiklab, chuqur, ilmiy asosda o'rganish asnosida tiklash imkoniyati tug'iladi.

Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida qolib ketgan, hozirgi kunga qadar ibtidoiy jamoa elementlari saqlanib qolingan, Avstraliya, Afrika, Polineziya, Shimoliy hamda janubiy Amerikadagi qabilalar jamoasining turmush tarzini o'rgangan, tadqiq qilgan olimlar ishlarida ham dastlabki tarbiya jarayoni taraqqiyoti haqida birmuncha qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Ibtidoiy davr tarbiya jarayoni elementlarini tiklashda zamonaviy taraqqiyot ne'matlari mahsulidan bebahra, ibtidoiy qabilalar xususiyatlarini saqlab qolgan kamyob jamoa sifatidagi tuzilmalar hayoti haqidagi etnografik, esxatologik manbalar ham yordam berishi, shubhasiz. Shuningdek arxeologlar tomonidan topilgan dastlabki primitiv mehnat va ov qurollari, uy-ro'zg'or jihozlari, bolalar o'yinchoqlari, qoyatoshlardagi yozuvlar, ildizlari asrlar qa'riga singib ketadigan folklor (xalq o'yinlari, urf-odatlar, maqollar, matallar, epos va

h.k.z) materiallari ham ilk tarbiya jarayonining vujudga kelishi va shakllanishi to'g'risida ilmiy asoslangan fikrlarga kelish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon ilmu fanida tarbiyaning paydo bo'lishi va vujudga kelishi to'g'risida bir qancha qarashlar, nuqtai nazarlar mavjud bo'lib, ular orasida ikkitasi evolyusion-biologik (Sh.Leturno, J. Simpson, A. Espinas) hamda psixologik qarashlar negizidagi konsepsiya (P.Monro)lar yetakchi o'rinni egallaydi.

Evolusion-biologik qarash tarafdorlari ibtidoiy odamlarning tarbiya jarayonini, hayvonlarga xos instinkt asosida o'z nasliga qayg'urish holatiga mengzashadi. P.Monro esa tarbiyaning vujudga kelish jarayonini bolalarning kattalarga nisbatan beixtiyor, ongsiz instinktlar orqali taqlid qilishlari holati orqali tushuntiradi. Bu ikki nazariyani birlashtirish asosida, ibtidoiy tarbiya bolalarning o'sha vaqtda mavjud bo'lgan tartibga munosabati hamda izchil ravishda moslashishi jarayonida vujudga kelgan deya e'tirof etish mumkin. Shu munosabat bilan P.Monro "ibtidoiy inson dunyosi hozirgi voqe'likkagina tayanadi. Uning o'tmish va kelajakni anglash haqidagi tasavvurlari deyarli mavjud emas. Uning tarbiyasi yashab turgan muhitiga moslashish xolos" deya fikr yuritadi.

Hozirgi anatomik-fiziologik shaklga xos odamning paydo bo'lishi davrigacha bizni bir necha ming yillar ajratib turadi. Tarbiyaning alohida faoliyat turi sifatida vujudga kelishi ham aynan shu davrlar (35-40 ming yil avval) ga to'g'ri keladi.

Asosiy qism. Tarbiya integrativ, sinkretiv shaklda vujudga kelib, ibtidoiy odamning jismoniy, aqliy hamda axloqiy-hissiy jihatdan ulg'ayishiga turtki bo'ldi. Tarbiya mazmuni va usullari ongning rivojlanishi va ijtimoiy tajribaning boyishi natijasida murakkablashib bordi. Biror xil alohida funktsiyani bajarmagan holda tarbiya hayotiy tajribani keyingi avlodga etkazish jarayoniga xizmat qildi. Bunday ko'rinishda tarbiya dastlabki to'plangan tajribalar hamda ovchilik malakalarini ongli ravishda bir-biriga va avlodiga o'tkazish asosida insonning hayvonot dunyosidan ajralib chiqish davrida 2-3 mln yil avval paydo bo'ldi.

Ajdodlarimiz uchun iste'mol qilinadigan o'simliklar, joy-manzillar rel'efi, hayvonlarning xatti-harakatlarini yaxshi bilish, kuchli hamda chidamli bo'lish hayotiy zarurat hisoblanib, bunday tajribani yetkazishda kommunikatsiya, ya'ni aloqa vositasi sifatida til hamda nutqning vujudga kelishi muhim ahamiyat kasb etdi. Asta-sekin tarbiya, inson tomonidan egallangan tajribalarni kishidan-kishiga, avloddan-avlodga yetkazish jarayoni sifatida alohida faoliyat turi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirib, har kunlik yashash uchun kurash harakatiga yo'naltirildi.

Ibtidoiy odamlar hayot kechirishining bosh sharti mehnat qurolarini yasash va ulardan foydalanish hisoblanardi. Mehnat quollarining takomillashib borishi va mehnat munosabatlarining rivojlanishi natijasida katta avlod to'plagan tajribasini yoshlarga o'rgatdi va shu orqali ularning yetakchisiga aylandi. Bunday ta'lim ibtidoiy jamoada tarbiyaning shakllanish jarayoniga asos bo'ldi.



Insoniyat tarixi paydo bo'lishining dastlabki bosqichida tarbiya asosini jamoaviy tarbiya tashkil etgan. Ibtidoiy jamoada bolalarning jinsi va yoshi ta'limni tabaqalashtirishda yagona ko'rsatkich sifatida baholanib, tarbiyaning asosiy vazifasi jamoa a'zolarini kundalik faoliyat jarayoniga tayyorlashdan iborat bo'lib qoldi.

Eramizdan avvalgi VIII-IX asrlar jahonning bir qator hududlari, jumladan, Kichik, old va Markaz Osiyoda ibtidoiy jamoa negizida ijtimoiy-mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanishi bilan xarakterlanadi. Bunday o'zgarishlar tarbiya mazmun-mohiyatining tubdan yangilanishiga sabab bo'ldi. Jamoaning asosiy ijtimoiy o'zagi sifatida oila institutining shakllana borishi natijasida tarbiya tenglik asosiga qurilgan, umumjamoat tomonidan boshqariladigan jarayondan asta-sekin xususiy, oiladagi asosiy faoliyat turiga aylantirildi. Bolalar tarbiyasida misol sifatida ota-onalarning shaxsiy namunasi asosiy o'rinni egalladi. Ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishi va taraqqiy etishi natijasida, asta-sekin turli toifadagi jamiyat a'zolari: hukmdorlar, rahnamolar, zodagonlar, koinlar, harbiylar, davlat xizmatchilari va asosiy qatlam, ishchi, dehqonlar oilasidagi tarbiya jarayonida tafovutlar ko'zga tashlana boshlandi.

Hukmron doiralar oilalarida bolalik davri uzaytirilib, shunga yarasha o'sib kelayotgan yosh avlodga nisbatan tarbiyaviy ta'sir darajalari kuchaytirildi. Bolalar taqlid asosida ota-onalari so'zlaridan ajdodlari tomonidan to'plangan tajriba va ma'lumotlarni qabul qilib,

keyingi faoliyatlari jarayonida qo'llay boshladilar. Ushbu to'plangan tajribalarni etkazish vaqtida ma'lum didaktik usullardan ham foydalanilganligini ta'kidlash lozim. Bu usullar juda oddiy bo'lib, hayotiy faoliyat, yashash tarzi shart-sharoitlari ta'sirida ishlab chiqilgan edi. Bolalarga biron bir ishni qanday bajarish, tayoq bilan muomala qilish, o'ldirilgan hayvonlar terisini shilish, iste'molbop o'simliklarni izlab topish va yig'ish kabi faoliyat turlari o'rgatilib, kattalarning kichiklarga nisbatan ruhiy-psixologik ta'sirining asosiy usuli mexanik takrorlash tartibida amalga oshiriladi.

Vaqt o'tishi bilan inson tabiatga moslashish holatidan ko'ra atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish holatiga yaqinlasha boshladi. Hayotiy faoliyatning murakkablashib borishi bilan ijtimoiy tajribani keyingi avlodga etkazish usul va vazifalari ham o'zgarib bordi. Tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi shakllari, ko'rinishlari paydo bo'lib, bu jarayonga rahbarlik maxsus tayinlangan kishilar orqali amalga oshirildi. Ibtidoiy jamoada bolalik va tarbiya davri qisqa davom etib, 9-11 yoshlarni o'z ichiga olgan. Eng kichik yoshdagi bolalar ayollar qo'lida tarbiyalanib, ularga mehnat faoliyatining dastlabki ko'nikmalari shakllantirilar edi.

Bolalar ko'p vaqtlarini kattalar hayotiga taqlid qiluvchi o'yin faoliyati bilan o'tkazib, o'z navbatida kattalar jamoada qabul qilingan tartibning saqlanishi va ular tomonidan buzilmasligini nazorat qilganlar. Ulg'aygan sari bolalar ko'proq vaqtlarini kattalar bilan o'tkazib, ov qilish, baliq ovlash ko'nikmalarini shakllantira boshlaganlar. Ayollar esa o'smir qizlarni uy-ro'zg'or ishlarini bajarishga o'rgatganlar.

Ibtidoiy tuzum davri intihosida jamoa bo'lib tarbiyalash an'anasi asosida bolalar va o'smirlar uchun o'ziga xos "yoshlar uylari" tashkil etilganki, mazmun va mohiyat jihatidan bu uylar maktablarning dastlabki ko'rinishi shaklida faoliyat ko'rsatgan. Bu uylardagi tarbiyaning asosiy shakli jamoaviy o'yinlar va mashg'ulotlar edi. Asta-sekin yoshlar uyi tarbiyalanuvchilarining faoliyat xarakteri, o'quvchilar hamda murabbiylarning tarkibi ham o'zgarib bordi. Mulkiy tabaqalanish rivoji bilan kambag'allar va o'ziga to'q jamoa a'zolari uchun alohida yoshlar uyi tashkil etila boshlandi. Bunday uylar Amerikadagi mayya va asteklar, shuningdek, Yangi Zelandiyadagi mayori qabilalarida faoliyat ko'rsatganligi to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar bor.

Qadimgi dunyoning hududlari va chegaralari juda ham ulkan bo'lib, 5 ming yil (er.av. 5 ming yillik. er. 5-asr) oralig'idagi davrda Yevropa, Afrika, Osiyo va Amerika qit'olari xalqlarining turmush tarzi, madaniyati, san'ati, davlatchilik an'alarini qamrab oladi.

Qadimgi sivilizatsiyalar insoniyat uchun ta'lim va tarbiya jarayonini dastlabki qimmatli meros sifatida qoldirib ketdi. Bunday tajriba qadimgi Sharq sivilizatsiyalari (Mesopatamiya, Misr, Hindiston, Xitoy) bilan bir qatorda O'rta Er dengizi antik dunyosi, qadimgi yunon-rim madaniyati negizida ham to'plandi.

Qabila ittifoqlari o'rnida paydo bo'lgan qadimgi davlatlarda tarbiya, asosan, oilada berilardi. Quldorlik tuzumiga o'tish davrida oila tarbiyasining an'analari qisman saqlangan holda, tarbiyaning boshqa usul va shakllari paydo bo'la boshladi. Qadimgi sharq davlatlaridagi ta'lim- tarbiya jarayoni hamda tizimi haqida dastlabki ma'lumotlar Bobil shohi Xammurapi qonunlari, yahudiylar shohi Sulaymonning hikmatlari, hindlarning Bxagavadgitalari kabi yozma yodgorliklarda uchraydi.

Xulosa. Jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatning alohida qismi sifatida maktab eramizdan avvalgi 5 ming yillikda Qadimgi Sharqda paydo bo'ldi.

Davlat jamoat tashkilotlarining mustahkamlanib borishi bilan bir vaqtda davlat xizmatchilari, koinlar, harbiylarni maxsus tayyorlash uchun yangi ijtimoiy institut – maktab shakllana boshladi.

Qadimgi Sharq davlatlarida maktab va tarbiya: turli-tuman iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, etnik, jug'rofiy va boshqa faktorlar ta'sirida rivojlandi. Insonlar tomonidan to'plangan madaniy tajribani keyingi avlodga etkazish shakl va usullari ham o'zgarib borib, o'sib kelayotgan avlodga ta'lim berish maqsadida maxsus ta'lim tuzilmalari tashkil etildi.

Taxminan eramizdan avvalgi 3-ming yillikka kelib, axborot va ma'lumotlarni etkazishning asosiy shakli sifatida foydalanilgan nutq va piktogrammalar o'z o'rnini ierogliflar hamda mixxat yozuvi kabi yangi "axborot tashuvchilari"ga bo'shatib berib, tarixning yozuv paydo bo'lguncha davri intihoda bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Абдуллаев К. Ф. Мыслители востока о педагогической профессии //Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические



условия развития. – 2020. – С. 117-120.

Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Ж. К проблеме взаимодействия общества и природы // Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века. – 2019. – С. 255-256.

Джуринский А. Н. и др. История педагогики и образования. – 2019.

Джуринский А. История педагогики и образования в 2 ч. Часть 1. С древнейших времен до XIX века 3-е изд., испр. и доп. Учебник для вузов. – Litres, 2022.

Летурно, Шарль. Литературное развитие различных племен и народов / Шарль Летурно ; пер. с фр. В. В. Святловского. — Санкт-Петербург : Издание Ф. Павленкова : Типография Товарищества «Общественная польза», 1895. — 372, [6] с.

Монро, Пол История педагогики / Проф. П. Монро; Пер. с англ. М.В. Райх; Под ред. прив.-доц. Н.Д. Виноградова. Ч. 1-2. - Москва : Мир, 1911. - 2 т.; 19.

MAXSUS TRENAJERLAR VA MASHKLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA YUNON-RIM KURASHCHILARNING EGILUVCHANLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdullayev Ilhom Xushnudovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Taekvondo va sport faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur makolada maxsus trenajerlar va mashklardan foydalanish asosida yunon-rim kurashchilari egiluvchanligini rivojlantirish texnologiyasi samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Egiluvchanlik, kurashchilar, sportchilar, tayorgarlik, jismoniy, tadqiqot, musobaqa, takomillashtirish, kurashish, samarali, rivojlantirish.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ГИБКОСТИ ГРЕКО-РИМСКИХ БОРЦОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СПЕЦИАЛЬНЫХ ТРЕНАЖЕРОВ И УПРАЖНЕНИЙ

Абдуллаев Ильхом Хушнудович

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Старший преподаватель кафедры тхэквондо и спортивной деятельности*

Аннотация. В данной статье обосновывается эффективность технологии развития гибкости борцов греко-римского стиля, основанной на использовании специальных тренажеров и упражнений.

Ключевые слова: Гибкость, борцы, спортсмены, тренировка, физическая, исследование, соревнование, совершенствование, борьба, результативность, развитие.

TECHNOLOGY OF FLEXIBILITY DEVELOPMENT OF GRECO-ROMAN WRESTLERS USING SPECIAL SIMULATORS AND EXERCISES

Abdullaev Ilkhom Khushnudovich

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Senior Lecturer of the Department of Taekwondo and Sports Activities*

Annotation. This article substantiates the effectiveness of Greco-Roman wrestlers' flexibility development technology based on the use of special simulators and exercises.

Key words: Flexibility, wrestlers, athletes, training, physical, research, competition, improvement, struggle, performance, development.

Dolzarblygi. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va manaviy salohiyatga yega bo'lib dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga xech qaysi soxada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi batxli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar yetamiz. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish xamda takomillashtirishga e'tibor kuchaydi. Respublikamiz Prezidenti ma'rifat va ma'naviyatni rivojlantirish bilan bir qatorda yosh avlodning jismoniy tarbiyasiga, sport ishlarini yanada yuksaltirishga katta g'amxo'rlik qilib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha qaror va farmonlarni imzoladi. Jumladan, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risidagi Qarorlari imzolandi. O'zbekistonning davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishi, sog'lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo'nalishga aylandi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida ye'tibor qaratilmoqda. Muhimi kishilar so'zda yemas, amalda o'z salomatliklarini qadrlashilari xamda umumilliy qadriyat sifatida avaylab – asrashlari zarur.

Jismoniy tarbiya va sport – xalqning umumiy madaniyatining ajralmas qismi, mamlakatning xar bir fuqarosining jismoniy xamda ma'naviy kamolotini ta'minlash asosidir.

Yaqin yillarda kurash sohasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bulardan;

Tadqiqotning maqsadi. Maxsus sport uskunasi orqali yunon-rim kurashchilarni egiluvchanligini aniqlash va olingan ko'rsatkichlarga tayanib samarali mashg'ulot tizimini ishlab chiqish.

Yetarli darajada har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka erishish ko'p jihatdan trenirovka vositalari va uslublarining oqilona tanlash, ko'p yillik mashg'ulotlar jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlikning optimal nisbatlariga bog'liq. Demak, maxsus tayyorgarlik umumiy tayyorgarlikning mustahkam poydevoriga tayanadi va jismoniy tayyorgarlik ijobiy natija samarasini yuzaga keltiradi.

Muayyan sportchini tayyorlashdagi trenerning katta tajribasi shu sportchiga xos bo'lgan xususiyatlarni, uning jismoniy tayyorgarligining zaif va kuchli tomonlarini har jihatdan o'rganishga, tayyorgarlikning eng samarali uslublari hamda vositalarini, trenirovka yuklamasini rejalashtirish variantini aniqlashga yordam beradi. Bu o'z navbatida, mashg'ulot jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish hamda shu asosida sport natijalari darajasini ushlab turishga imkon beradi.

Sport natijalarining o'sishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri - bu trenirovka jarayonini tashkil qilish shakllarini takomillashtirishdir. Ma'lumki bugungi kunda yuqori malakali sportchilarga bo'lgan talablarda sportchi bir kunda ikki, ba'zida esa uch marta trenirovka o'tkazishi kerak. Sportchilar mashg'ulot o'tash joyidan uzoq yashaydigan sharoitlarda bunday trenirovkalarni belgilangan tartibda o'tkazish katta qiyinchiliklar tug'diradi, gohida esa umuman imkoni bo'lmaydi.

Tabiiyki, maxsus tashkil qilingan o'quv trenirovka mashg'ulotlari samaradorligi juda yuqori bo'ladi. Yuqori malakali sportchilar uchun o'quv trenirovka mashg'ulotlarining o'zgartirilishi ham shu bilan tushuntiriladi.

Biroq, maxsus sport turlari bo'yicha o'quv trenirovka mashg'ulotlari va musobaqalar o'tkazishga mo'ljallangan, yetarlicha jihozlanmagan maxsus sport inshooti, o'yingoh sahni, musobaqalar joyi, shuningdek tarbiyaviy ishlar va tartib-intizom yaxshi yo'lga qo'yilmaganda ko'tilgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Nufuzli musobaqalar oldidan bo'ladigan mashg'ulotlar, musobaqa bo'lib o'tadigan joyda yoki musobaqa qoidalari shartiga juda yaqinlashtirilgan sharoitda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Trenirovka mashg'ulot vazifalari hajmi va yo'nalishi rejalashtirishda maxsus trenirovka vazifalari miqdorini oshirib, umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik yuklamalarini esa musobaqa oldi bosqichida kamaytirishi lozim.

Bugungi kunga kelib, ko'p yillik kuzatuvlarga asoslangan mushaklarning elastik xususiyatlari bilan bog'liq holda, asosiy bo'g'imlarning moslashuvchanligi va yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida ilmiy ma'lumotlar kam yetarli darajada o'rganilmagan va deyarli mavjud yemas. Sport kurashida moslashuvchanlikning ro'li ilgari bir qator mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, (Kerimov N.A., Nedorezov A.I., Ruziyev M.A., Ruziyev A.A., Tastanov N.A., Abdiev A.N., R.M.Matkarimov va O.V.Goncharova) biroq, qoida tariqasida, ushbu tadqiqotlar asosan 16-18 yoshli kurashchilarida o'tkazildi. Bu masala o'rganilmagan.

Shu munosabat bilan, asosiy bo'g'imlarning harakatchanligi va sport kurashlari texnikasining samaradorligi va yegiluvchanlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, ushbu munosabatlarni hisobga olgan holda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish yuqori yutuqli sport nazariyasi va amaliyoti uchun ham dolzarbdir.

Tadqiqotning ishchi gipotezasi, O'zbekiston Respublikasi bolalarining jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, 16-18 yoshli yunon-rim kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi vositalari va usullari asosiy ish bo'g'imlarining harakatchanligini dastlabki rivojlanishiga va faol egiluvchanligini o'rgatishga asoslangan bo'lishi kerak degan taxmindan iborat.

Qo'shma harakatchanlikning faol hajmining kengayishi texnik va taktik mahoratning moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligini oshirishga yordam berishi kerak, bu esa milliy an'analarni hisobga olgan holda kurash vaziyatlarining qiyin sharoitida mushak-skelet tizimidan samarali foydalanishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv jismoniy imkoniyatlar zaxiralarini amalga oshirishga, dinamik diapazonni kengaytirishga va umuman sport faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kerak.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Respublika olimpiya zaxiralari kolleji sportchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlari va musobaqa faoliyati hamda Kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan

sport maktabi sportchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlari va musobaqa faoliyati.

Tadqiqot mavzusi-egiluvchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan 16-18 yoshli kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki.

1. Raqobat faoliyati sharoitida kurashchilarning himoya va qarshi hujum harakatlarining samaradorligini oshirish uchun asosiy bo'g'imlarning harakatchanligining ro'li isbotlangan.

2. 16-18 yoshdagi yunon-rim kurashchilarining motorli tayyorgarligining sezgir davrlari aniqlandi, bu ularning sport faoliyati talablarini hisobga olgan holda egiluvchanligini rivojlantirishga imkon beradi.

3. 16-18 yoshli kurashchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik orqali maqsadli motorli rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u maxsus vosita faoliyatiga mos keladigan biomexanik mezonlarni hisobga olgan holda, bo'g'imlarda harakatchanlikni oldindan ishlab chiqishga asoslangan, mushaklar va ligamentli qo'shma apparatlarining elastik xususiyatlarini takomillashtirish.

Nazariy ahamiyati. Sport pedagogikasi Respublika bolalarining rivojlanishining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kurash ko'nikmalarini takomillashtirish to'g'risidagi yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilib, moslashuvchanlikka yo'naltirilgan 16-18 yoshli kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bo'limida bolalarining kurashi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi vositalari va usullari nazariy jihatdan asoslanadi, sport turlari bo'yicha o'qitish bo'limlari nazariy asos bilan to'ldiriladi. Milliy an'analar asosida malakali kurashchilarini maxsus tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yunon-rim kurashida maxsus trenajyorlar va mashqlardan foydalanish hamda sportchilarning egiluvchanligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulotlari jarayonini tashkil qilishda samarali natijalar berishi tadqiqotimizdagi natijalarni inobatga olib o'z isbotini topgan;

ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy materiallar, texnik-taktik harakatlarni tahlil etish uslubiyati, instrumental uslub, maxsus mashqlardan foydalanish usullari va dasturlari, shuningdek, sport kurashida egiluvchanlikni rivojlantirish va texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy tavsiyalardan yunon-rim kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasini o'quv-mashq va sportchilarni saralash jarayoni uchun yangi o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda foydalanishga mo'ljallangan.

Amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan foydalanish mumkin: sport maktablari, sport maktablari sharoitida yosh yunon-rim kurashchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida; sport kurashi bo'yicha murabbiylar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida; jismoniy tarbiya institutlari, akademiyalari va universitetlari talabalari bilan o'quv jarayonida, sport kurashiga ixtisoslashgan.

Taklif etilayotgan dastur va mashg'ulotlar uslubidan foydalanish yosh yunon-rim kurashchilarning sport mahoratini oshirish uchun vosita shart-sharoitlarini yaratishga, mushaklararo muvofiqlashtirishni yaxshilashga, optimal vosita rejimini yaratishga, jismoniy rivojlanishni tezlashtirishga va salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlardan olingan natijalarning ishonchliligi nazariy va uslubiy baza, ilmiy tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi vatanimiz va chet el olimlari, shuningdek, amaliyotchi murabbiylarning fikrlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi va o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanganligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Himoyaga qo'yiladigan asosiy qoidalar:

1. Qo'shma harakatchanlikning sport kurashidagi texnik va taktik mahorat xususiyatlariga ta'siri.

2. Respublikadagi 16-18 yoshli kurashchilarining jismoniy rivojlanishi (o'sish ko'rsatkichlari og'irligi) va jismoniy fazilatlarini (kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik) tuzilishi.

3. Qo'shma harakatchanlikni rivojlantirish va mushak-skelet tizimining ballistik cho'zilishidan foydalanishga qaratilgan yosh kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining yeksperimental dasturi.

Xulosa qilib aytganda sportchilarning egiluvchanlik sifatini rivojlantirish borasidagi yetarlicha ma'lumotga ega bo'lib, ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarni ajrata oldik. Bunda

mashg'ulotlar uchun taklif etilgan dastur va mashqlarni qo'llash orqali erishildi.

№	Nazorat mashqlari	TG			HG			t _{cr}	P
		\bar{X}_1	□	V%	\bar{X}_2	□	V%		
1	Raqib ko'lini ushlab bo'yinga o'rab egilib tashlash (10 marta)	9,68	1,15	11,88	10,87	1,31	12,05	-2,264	P<0,05
2	Raqib ko'li va boshini yuqoridan ushlab to'ntarish bilan tashlash (10 marta)	11,89	1,39	11,69	13,46	1,62	12,04	-2,439	P<0,05
3	Raqib ikki ko'lini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash (10 marta)	8,48	0,91	10,73	9,55	1,11	11,62	-2,472	P<0,05
4	Parterda raqibni belini ushlab to'ntarish (10 marta)	12,76	1,47	11,52	11,67	1,41	12,08	1,775	P>0,05

Pedagogik tajriba boshida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining «Elastik ZI» sport uskunalarida olingan maxsus jismoniy tayyorgarligi sifati ko'rsatkichlari (n=24)

№	Nazorat mashqlari	TG			HG			t _{cr}	P
		\bar{X}_1	□	V%	\bar{X}_2	□	V%		
1	Raqib ko'lini ushlab bo'yinga o'rab egilib tashlash (10 marta)	11,34	1,27	11,20	9,68	1,15	11,88	3,213	P<0,01
2	Raqib ko'li va boshini yuqoridan ushlab to'ntarish bilan tashlash (10 marta)	14,05	1,69	12,03	11,89	1,39	11,69	3,274	P<0,01
3	Raqib ikki ko'lini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash (10 marta)	9,99	1,18	11,81	8,48	0,91	10,73	3,361	P<0,01
4	Parterda raqibni belini ushlab to'ntarish (10 marta)	13,32	1,48	11,11	12,76	1,47	11,52	0,890	P>0,05

Pedagogik tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining «Elastik ZI» sport uskunalarida olingan maxsus jismoniy tayyorgarligi sifati ko'rsatkichlari (n=24)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гончарова О.В. Маткаримов Р.М., Болалар жисмоний сифатларини тарбиялаш/ Ўқув қўлланма. «Илмий техника ахборот-пресс» нашриёти. –Тошкент: 2018. - Б. 28-35
2. Тастанов Н.А. Кураш турлари назарияси ва услубияти/ Дарслик. «Sano-standart» Тошкент: – 2017. -Б. 193-205;
3. Бакиев З.А. Эркин кураш назарияси ва услубияти. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Лидер Пресс» нашриёти, 2011. 47 б
4. Бакиев З.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности. Дис. канд. пед. наук. 2009. 45 ст.
5. Керимов Ф.А. Спорт сохасидаги илмий тадқиқотлар. - Т.: ЎзДЖТИ, 2004. -264 с.
6. Абдиев А.Н. Динамика состояний борцов 16-17 лет на послесоревновательном этапе в процессе многоциклового подготовки: Автореф. дис.канд. пед. наук. – Т., 1994. -24с.
7. Адилов С.Қ. Эркин курашчиларнинг спорт педагогик маҳоратини ошириш/ Ўқув қўлланма. «Илмий техника ахборот-пресс» нашриёти. –Тошкент: 2018.- Б. 12-23

O'QUVCHI-YOSHLARNI VATANPARVARLIKKA TAYARLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abduraxmanov SHERZOD Nazarbayevich

Buxoro Davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli boshlig'i katta o'qituvchi.

ANNOTATSIYA. Biz bu maqolamizda tadqiqot ishimizning tajriba-sinov natijalariga ko'ra talaba-yoshlarni vatanparvarlikka tayarlashda uziga xos xususiyatlari taqtil qildik. Vatanparvarlikni hissiy idrok yetish mohiyatini ochib berish va madaniy globallashtirish sharoitida vatanparvarlikning o'ziga xos xususiyatlari tug'risida ma'lumotlar olishingiz mumkin.

Tayanch iboralar: vatanparvar, qadriyat, meros, milliy kadriyatlar, farzand, kelajak avlod, yoshlar, vatanni qo'riqlash, namuna, tarbiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini takomillashtirish natijasida xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosini yoshlar ko'z o'ngida gavdalantirish, uning hayotbaxsh jihatlaridan foydalangan holda ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, uslubiy ta'minotini kengaytirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash,...»[1] kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

Zamonaviy ilm-fan sohasida adabiyotlarda, vatanparvarlik va millatchilik o'rtasidagi munosabatlar masalalari tez-tez turli, ko'pincha qarama-qarshi kelgan hisoblanadi, shu munosabat bilan, vatanparvarlikning etnik va fuqarolik millatchiligi bilan o'zaro bog'liqligini tushunish. Tahlil ko'rsatdi; savollar: vatanparvarlik va millatchilik munosabatlari; bir asrdan ko'proq vaqt davomida mutafakkir va tadqiqotchilarni xavotirga solmoqda. Ba'zi mualliflar ushbu hodisalarni aniqlaydilar, boshqalari ularga qarshi. Ko'p jihatdan, bu qaysi nazariy yondashuv muallifga bog'liq - primordializm, instrumentalizm yoki konstruktivizm. Ayni paytda etnik va fuqarolik millatchiligiga urg'u berish an'anaviy bo'lib qoldi. Etnik millatparvarlik qadriyatlarga e'tibor qaratib, ma'lum bir etnik jamoani mahkamlaydi, aksincha, fuqarolik millatchiligi butun jamiyatni (millatni) birlashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Natijada, fuqarolik millatchiligi o'z mazmuni jihatidan milliy vatanparvarligiga o'xshaydi va polikultural etniknikidan ko'ra maqbuldir. Shu bilan birga, o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar davomida talaba yoshlar ongida an'anaviy ma'noda salbiy qarash bilan ishlatiladigan millatchilik qarashlari davom etayotganligi aniqlandi.

Qadriyatlarni shakllantirish jarayoni, shu jumladan vatanparvarlik, poliyetnik muhitning qiyin sharoitida sodir bo'ladi. Bu, ayniqsa, turli xil o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yosh avlodga tegishli. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar vatanparvarlikning talabalar qadriyat tizimidagi o'rnini aniqlash va uning namoyon bo'lishini tushunish va dinamikasini hamda shakllanishining asosiy yo'llarini ochib berish imkoniyatini yaratdi.

O'tkazgan sotsiologik tadqiqotlarimiz va olingan natijalarni taklif qilingan qiymat yo'nalishlari orasida vatanparvarlik ustun mavqeni egallamaydi. Talabalar uchun sog'liq bilan birga oila ham ustuvor ahamiyatga ega. Oraliq pozitsiyada yerkinlik, bilim va xotirjamlik mavjud. Shuningdek, so'ralgan talabalar iqtisodiy mustaqillikning muhimligini past baholashlari bilan ajralib turadi. Umuman olganda, javoblarning taqsimlanishiga jinsi, millati va yosh farqi ta'sir qilmasligi qayd yetildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlikni an'anaviy tushunish tendensiyasi davom yetmoqda. Talaba ongida respondentlar tug'ilgan mamlakat bilan bog'liq bo'lgan «katta» Vatan obrazi ustun turadi. Bu jihatdan talabalar o'zlarini fuqarolar sifatida fuqarolik identifikatsiyasi bilan ajralib turishi ajablanarli yemas. Vatanparvar talabalar soni vatanparvar bo'lmaganlar ulushidan sezilarli darajada oshadi. Natijada, aksariyat hollarda talaba yoshlar mamlakatni tark etishni istamasliklarini bildiradilar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra talabalar vatanparvar shaxsning xulq-atvor komponentini ajratib turishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, vatanparvar insonning etnik madaniy komponenti talabaning ongida aks yetishi ta'kidlandi.

Zamonaviy vatanparvarlikning asosiy funksiyalari haqida gapirganda, respondentlar

faoliyat funksiyasini alohida ta'kidlashadi, hozirgi bosqichidagi yeng dolzarb vazifalaridan biri - konsolidatsiya qiluvchi narsa - so'ralgan talabalar tomonidan deyarli aytilmagan.

Talabalar vatanparvarlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida ijtimoiy omilni qayd etdilar. Shu bilan birga, talaba yoshlarning muhim qismi ekstremal holatlar kabi tashqi omillarning ta'sir darajasini inkor yetib, vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishining tabiiy xususiyatini ta'kidladilar. Vatanparvarlikni shakllantirishda urf-odatlar va urf-odatlarining o'rni respondentlarning ongida yomon ifodalangan.

Umuman olganda, olingan ma'lumotlar talabalar orasida vatanparvarlik namoyon bo'lishining ijobiy dinamikasini ko'rsatadi[2].

So'ralgan talabalarning aksariyati umummilliy vatanparvarlik g'oyasini shakllantirishga ijobiy munosabatda bo'lishdi. Ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik, talabalarining fikriga ko'ra, davlatga beriladi. Kerakli sharoitlarning yaratilishi va iqtisodiy muammolarning hal yetilishi milliy vatanparvarlikni shakllantirish bo'yicha ishlarni sezilarli darajada tezlashtiradi. Yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi sohasida aniq davlat siyosatini olib borish zarurligi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Biroq, talabalarning fikriga ko'ra, shaxsning vatanparvarlik ruhida rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan asosiy ijtimoiy institut bu oila.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talaba yoshlar Respublikada vatanparvarlik tarbiyasi muammosidan xabardor.

Bundan tashqari, respublika talaba yoshlarining fikriga ko'ra, bu muammo azaldan mavjud bo'lib, ommaviy axborot vositalari uni to'liq yoritmayapti.

Shunday qilib, ko'p millatli mintaqada vatanparvarlikni shakllantirishning asosiy usuli bu vatanparvarlik ta'limi sohasidagi maqsadga muvofiq, moslashtirilgan va tizimli ish bo'lib, bu jarayonda shaxs va jamiyatni vatanparvar qilish uchun mas'ul bo'lgan barcha davlat muassasalari jalb qilinadi.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarni yakunlar yekanmiz, tadqiqot gipotezasi tasdiqlanganligini ta'kidlaymiz. Respublikasida vatanparvarlik rivojlanishining o'ziga xos xususiyati quyidagi qarama-qarshilikdir: talabalar tomonidan vatanparvarlikning namoyon bo'lish dinamikasi odatda ijobiy bo'lishiga qaramay, vatanparvarlik muhim ahamiyatga yega yemas. barcha ijtimoiy institutlarning o'xshash ishlarida.

Tadqiqot natijalari asosida ba'zi amaliy tavsiyalar taklif qilindi.

Demak, tadqiqotlar vatanparvarlikni talaba yoshlarning qadriyat ko'rsatmasi deb hisoblashga va uning ko'p millatli mintaqada shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon berdi.

XXI-asr boshlarida vatanparvarlikni falsafiy o'rganishning dolzarbligi milliy o'ziga xoslik va vatanparvarlik haqidagi g'oyalarni uning qadriyat asosiga aylantirgan madaniy globallashuv jarayonlarining noaniqligi bilan bog'liq. Globallashuv sharoitida ko'p yo'nalishli jarayonlar kuzatilmogda - vatanparvarlikni yeskirgan va yeskirgan qadriyat sifatida kosmopolitizm bilan almashtirish zarurligiga bo'lgan ishonchning tarqalishidan, vatanparvarlikni mutlaqlashtirish va uni ksenofobiya, milliy murosasizlik va begona narsalarga nafrat bilan aniqlash. Ushbu murakkab va noaniq jarayonlar ijtimoiy-falsafiy tushunishni talab qiladi.

Globallashuv jarayonining oqibatlaridan biri bu madaniy xilma-xillik uchun xavf tug'diradigan madaniyatni standartlashtirish, g'arbiylashtirishdir. Vatanparvarlikning yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarigina ommaviy madaniyatning kengayishiga qarshi tura oladilar, yangi sharoitda o'zlarining milliy va madaniy xususiyatlarini saqlab qoladilar. Ammo muammo shundaki, globallashuv sharoitida vatanparvarlik tushunchasining mazmuni o'zgaradi, u ko'p qirrali va noaniq bo'lib qoladi va uning amalda shakllanishi ko'p jihatdan falsafiy tushunchaga bog'liqdir.

Globallashuv sharoitida vatanparvarlikni mutanosib ravishda falsafiy tahlil qilish zarurati, shuningdek, bir tomondan, so'zlarning faol ishlatilishiga kirishgan va hamma uchun intuitiv ravishda tushunarli bo'lgan, ikkinchi tomondan, haddan tashqari mafkuralashgan va siyosiyashtirilgan, ko'p yo'nalishli siyosiy kuchlar tomonidan shior sifatida ishlatilgan atamaning o'zi noaniqligi va noaniqligi bilan bog'liq. «Vatanparvarlik» tushunchasini talqin qilishning ko'p qirraliligi, uni o'xshash, ma'no jihatidan o'xshashlari bilan almashtirish ushbu toifani konsepsiyalash jarayoni tugallanmaganligidan dalolat beradi. Faqat siyosiyashtirishdan, vatanparvarlikni hissiy idrok yetishdan uzoqlashibgina konsepsiyaning mohiyatini ochib berish va madaniy globallashuv sharoitida vatanparvarlikning o'ziga xos

xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Bundan tashqari, har birida; taraqqiyotning tarixiy bosqichlaridan boshlab davlatchilik o'zgargan nafaqat: vatanparvarlik obyekti; vatanparvarlikning mazmunining o'zi ham o'zgargan; va unga munosabat. XXI asrning boshlarida, avvalgidek, dunyoda yetakchi o'rinlarni yuqori darajadagi davlatlar yegallab turibdi; rivojlanish; vatanparvarlik. Dunyo miqyosidagi o'yinchilar boshqa xalqlarga kosmopolit identifikatorni taklif qilib, katta mablag sarflamoqda; vatanparvarlikni shakllantirishda; o'z aholisidan; Muhimligini anglab! vatanparvarlik; odamlarni yagona millatga birlashtiradigan va fuqarolarini vatanparvarlik tarbiyasi, mamlakat siyosiy rahbariyati vatanparvarlikni an'anaviy yo'nalishda ko'rib chiqmoqda. Madaniy globallashuv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik tarkibidagi o'zgarish tendensiyalari; amalda aksini topmadi; muhim! davlat dasturlari. Biroq, yangi sharoitlarda vatanparvarlikni shakllantirish bo'yicha an'anaviy yondashuvlar samarasiz. Vatanparvarlik nafaqat fuqarolar orasida «tarbiyalangan» bo'lishi, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kuchidan foydalangan holda ishlab chiqilishi kerak.

Globallashuv sharoitida sodir bo'layotgan Vatan qiyofasini vatanparvarlik obyekti sifatida o'zgartirish ham batafsil o'rganishni talab qiladi. Vatan yendi shunchaki berilgan narsa sifatida qabul qilinmaydi, uning qiyofasi doimo o'zini yeslatib turuvchi, ijobiy his-tuyg'ular va jonli vizual tasvirlar bilan bog'liq brend sifatida joylasha boshlaydi. Globallashuv sharoitida vatanparvarlik milliy yakkalanish va o'zini o'zi ta'minlashga qaratilgan yemas, u zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda millatning madaniy yutuqlarini dunyoga namoyish yetishga qaratilgan. Shu tarzda tushunilgan vatanparvarlikgina kosmopolitlashtirish va g'arbiylashtirishning qarshi muvozanati va milliy hamjamiyatni muvaffaqiyatli rivojlanish shartiga aylanishi mumkin. Madaniy globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarkibidagi ko'rsatilgan o'zgarishlar chuqur falsafiy tushunishni talab qiladi. Nazariy dolzarblikdan tashqari, vatanparvarlik haqidagi nutqni siyosiydan ijtimoiy-falsafiy yo'nalishga tarjima qilish jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni kamaytirishga va millatlarni birlashtirishga yordam beradi[3].

Vatanparvarlik muammosini falsafiy tahlil qilish azaliy tadqiqot an'alariga yega bo'lib, uning boshlanishi antik davrdan - vatanparvarlik fuqarolik jamiyati a'zolarining yeng muhim axloqiy majburiyati deb hisoblangan davrdan boshlanadi

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2. Samarov R., Qodirov U., Fazliyev F. Vatanparvarlik tarbiyasining ayrim jihatlari. – Toshkent, 2006.

3. Волковицкий Г.А. Мотивация военно-профессионального самосовершенствования. – М., 1994. – 73 с.

**DASTURIY TA'LIM VOSITALARI TALABALAR ILMIY-TADQIQOT
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA**

*Anvar Almasovich Axatkulov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilari va o'quv jarayonini modellashtirishda ishtirok etuvchi talabalarda tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: informatika, modellashtirish, tadqiqot kompetensiyasi.

**SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS AS A MEANS FOR FORMING THE
RESEARCH COMPETENCE OF STUDENTS**

*Anvar Almasovich Akhatkulov,
Lecturer, Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan*

Abstract. This article discusses the process of forming research competencies in future computer science teachers and students participating in the modeling of the educational process.

Key words: informatics, modeling, research competence.

**ПРОГРАММНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА КАК СРЕДСТВО
ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ**

*Анвар Алмасович Ахаткулов,
Преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет,
Джизак, Узбекистан*

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс формирования исследовательских компетенций у будущих учителей информатики и студентов, участвующих в моделировании образовательного процесса.

Ключевые слова: информатика, моделирование, исследовательская компетентность.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda ular tomonidan amaliy dasturiy vositalarning o'zlashtirilishi mobaynida vositalarni maqsadga muvofiq saralab tanlash va samarali tuzish lozim [9].

Umuman olganda, quyidagilar ko'magida ta'lim tizimining rivojlanishiga erishish mumkin:

- o'quv jarayonini mos pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda turli xil tuzilma tizimidan foydalanish;
- umumiy o'rta ta'limning turli bosqichiga xos yangi modellarni shakllantirish va o'quv rejalarini amalga oshirish;
- baholash tizimini o'zgartirish;
- sinf-dars tizimiga yangicha yondashish;
- umumiy va qo'shimcha ta'limning uyg'unligiga asoslanish;
- o'quv yuklamalarini belgilashda o'quvchi shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish;
- o'quv jarayonini ko'p variantli qilib tuzish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bazasiga mos ta'lim muhitini shakllantirish kabilar.

Shu tariqa axborot texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim usullari, tuzilishi va shakllariga muayyan darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarining kompyuter va o'quv dasturiy vositalar bilan ta'minlanishi ta'lim tizimi sifatining yaxshilanishini kafolatlaydi [8].

Istiqbolda o'qitish tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish sharoitida ta'lim tizimining keng qamrovli rivojlanishini hisobga olgan holda, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Turli xil o'quv tarmoqlari uchun multimedia texnologiyalari bazasida o'quv faoliyatining turli shakllari xususiyatlariga asoslanib, o'qitishning umumiy axborot texnologiyalari yaratiladi.

2. Shaxsiy metodikaning yangi komponentlarini ishlab chiqishda o'quv jarayoniga yangi

axborot texnologiyalari vositalaridan foydalaniladi. Bunda muayyan fan negizida aniq o'quv tarmog'i bo'yicha axborot-ta'lim muhitini yaratish o'quv jarayoni mazmuniga ta'sir ko'rsatishini va buning natijasida o'quv tizimi o'zgarishi mumkinligini hisobga olish lozim.

Buning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi o'qitish muhitini loyihalash imkonini beruvchi dasturiy vositali muhit bilan ta'minlanishi, zaruriyat tug'ilganda, uning mazmunini avtomatlashtirilgan o'quv va nazorat dasturlarini qo'llagan holda tezkor yangilay olishi zarur.

Informatikani o'qitishda dasturiy-metodik majmualardan foydalanib, o'qitish jarayonida funksional masalalar yechish talab etiladi. Bunday majmualar o'qituvchi va o'quvchilarni yangi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Chunki ular o'quv rejalari va metodik qo'llanmalarni uyg'unlashtirishga, o'quv jarayonini tashkillashtirishning ma'ruza, amaliy- laboratoriya, seminar, mustaqil ta'limlarini o'rgatishda qulay metod hamda vositalardan foydalanishga imkon yaratadi.

Jumladan, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishi tarkibiga quyidagilar kiradi:

Gipermedia va multimedia tizimlari, elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishning yo'naltiriladigan axborot-ta'lim muhitini ishlab chiqish kiradi. Bunday muhit ilgari mavjud bo'lgan dasturiy-pedagogik vositalarni integrallash imkonini berib, yangi axborot texnologiyalariga mos innovatsion usullardan foydalanish g'oyasini amalga oshiradi [7].

Foydalanuvchilarda o'zaro axborot almashishni sifatli amalga oshirishga ko'maklashuvchi umumo'quv ko'nikmalarini, xususan, internet tarmog'i orqali zarur ma'lumotlar bazasiga, turli kutubxonalarining fondlariga, yirik ilmiy hisoblash markazlari resurslariga murojaat qilishga qaratilgan o'quv kompetentliklarini takomillashtirish zarur.

Kompyuterli telekommunikatsiyalar va tobora rivojlanib borayotgan global axborot tarmoqlarining rivojlanib borishi o'rganuvchilarning kuchli bilim va innovatsion ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi.

Kompyuterli telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda ko'p umid tug'diradigan va istiqbolli yo'nalishlar tarkibiga masofadan o'qitish tizimini kiritish mumkin.

Ma'lumotlar omborida yagona telekommunikatsiya tarmoqlarini ishlab chiqish quyidagilarga ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etadi:

- foydalanuvchilar orasidagi doimiy aloqa, shuningdek, uzoq masofadan, muayyan mamlakat hududidagi yoki tashqarisidagi ta'lim muassasalari bilan aloqa o'rnatishning zarurligi;

- o'qituvchi, talaba va maktab o'quvchilariga mamlakatimizdagi va horijiy davlatlardagi axborot resurslariga kirish imkonini yaratish lozimligi;

- ta'limni axborotlashtirish jarayonini boshqarish samaradorligini kuchaytirish kerakligi kabilar.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida boshqarish muhitini takomillashtirishda bo'lajak informatika o'qituvchilarni tayyorlashning metodik tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integrativ, tizimli tavsifi yordamida dasturiy tizimga nisbatan sifatli yangi funksiyalarga ega bo'ladi. Ularga xos asosiy yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy-pedagogik yondashuv, bunda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik rivojlantirishda ta'limni axborotlashtirish ijtimoiy mazmun kasb etib, shaxsning kasbiy bilishga oid ehtiyojlarini qanoatlantirish, mehnat bozori sharoitida kasbiy talab va mahoratini oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi;

- tizimli yondashuv, bunda kompyuter texnologiyalari sohasida talabalarning kasbiy-metodik jarayonga to'liq jalb etish, pedagogik-dasturiy vositalarni yaratish va qo'llash, talabalarni kompyuterli texnologiyalarni loyihalashga o'rgatishga e'tibor qaratiladi;

- tashxisli yondashuv, zamonaviy pedagogika fani va amaliyotida nazariy bilimlarning evristik xususiyati kompyuter texnologiyalarini ilmiy tadqiqot va pedagogik jarayonlarga muvofiq modellashtirish qo'llash imkonini beradi. Bo'lajak o'qituvchilarda tashxisli nazorat faoliyatini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri ta'lim tendensiyasiga uyg'un tarzda o'qitishning samarali strategiyasini aniqlashning tashxisli nazorat funksiyasini amalga oshirish hisoblanadi. Tashxisli nazorat funksiyasi o'qitishning yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqishda qo'l keladi, bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish imkonini beradi;

- axborotli yondashuv, axborotlarni to'plash, qayta ishlash, maqsadli qidirish va qo'llash jarayonida amalga oshiriladi. Zero, o'quv jarayoni – bu o'quvchi shaxsining aqliy rivojlanishiga yo'naltirilgan o'quv ma'lumotlarini qabul qilish, saqlash, qayta ishlash,

uzatish va qo'llash bilan bog'liq jarayondir;

- tashkiliy-boshqarishga oid yondashuv, bu o'qituvchi faoliyatining pedagogik funksiyasi bilan aloqador bo'lib, o'quv jarayonining tashkiliy tuzilmasidan kelib chiqadi. Axborot texnologiyalari bazasida pedagogik tizim va pedagogik jarayonni boshqarish samarali natija beradi. Bu shaxsiy faoliyatda o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi tashkillashtirish va o'qitish natijalarini nazorat qilish imkonini beradi [5].

Bugungi kunga qadar o'quv jarayonida foydalanish uchun elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron jurnallar, elektron ensiklopediyalar, elektron kutubxonalar, virtual kutubxonalar, elektron kataloglar, elektron o'quv-uslubiy majmua va boshqa dasturiy ta'minotlar kabi ko'plab dasturiy ta'lim vositalari yaratilgan. Ta'lim tizimida dasturiy vositalar ikki turga bo'linadi:

- ta'limni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq dasturiy ta'minot;
- faqat o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan dasturiy vositalar.

O'quv dasturiy ta'minoti - magnit-optik tashuvchilar yoki kompyuter tarmoqlarida (lokal, mintaqaviy, global) joylashtirilgan va o'quv ma'lumotlarining elektron shaklini o'z ichiga olgan, yuqori ilmiy, uslubiy va texnik darajada tayyorlangan elektron shaklda taqdim etilgan ta'lim jarayonini, o'qitish va o'qitish metodikasi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish vazifasini bajaradigan o'quv, uslubiy va didaktik dasturiy ta'minotdir [1, 2, 3, 4].

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining tadqiqot malakasini shakllantirish murakkab jarayondir. Uni hal qilish uchun ta'lim jarayonining modelini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Pedagogik va ilmiy adabiyotlarda "Kelajak mutaxassis modeli" tushunchasiga turlicha qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ko'pgina mualliflar o'rganilayotgan ob'ektning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi fazilatlarini, u bo'lajak mutaxassisning modeli deb atalganda, ma'lum bir sohadagi mutaxassisning umumlashtirilgan qiyofasi sifatida tushunish zarurligini tan oladilar [6].

N.F.Talizina mutaxassisni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirishning umumiy uslubiy yondashuvini ishlab chiqdi. Modelda kutilayotgan natijani aks ettirish zarurligini va unga erishish yo'llarining o'ziga xos birligini ta'kidlab, muallif quyidagilarni ta'kidlaydi: "Ekspert modeli muammosi ham ta'lim dasturlari, ham o'quv dasturlari mazmunini belgilashda muhim ahamiyatga ega" [11]. .

Olim-o'qituvchi N.A. Muslimov ekspert modeli quyidagi uchta strukturaviy negizdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

- yangi ijtimoiy bosqichning xususiyatlari asosida vujudga kelgan faoliyat turlari;
- kasbiy talablar aniq ko'rsatilgan faoliyat;
- davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishining mohiyati va uning ma'naviy-axloqiy tartibiga muvofiq tashkil etilgan faoliyat turlari.

N.A.Muslimov ekspert modeli tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: ekspert modeli – ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlovchi, muayyan sifatlarni tavsiflovchi, mutaxassisning mustaqil bilim olishi va o'z-o'zini rivojlantirishini aks ettiruvchi modeldir [10].

Ilmiy izlanishlar asosida umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha talabalar tomonidan auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil ta'limda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar, ularni shakllantirish va o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish metodikasi, mantiqiy tuzilmasi, shuningdek, fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar, bo'lajak informatika o'qituvchilarini umumiy kasbiy va maxsus fanlar bo'yicha kasbiy faoliyatga ijodiy tayyorlash jarayoni aniqlanadi. Bu jarayonda ta'limning dasturiy vositalaridan foydalanish sharoitida mutaxassislarni tayyorlash struktura-modelini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Informatika fanini o'qitish quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- umumiy kasbiy va maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini dasturiy ta'minot o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish;
- amaliy mashg'ulotlarning texnologik jarayonlari ob'ektlarini dasturlash bo'yicha talabalarda mustaqil va ijodiy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quv materiallarining o'quv axborotini g'oyaviy, ilmiy, ko'rgazmali, tizimli, izchil taqdim etish;
- o'quvchilarning tadqiqotchilik fazilatlarini rivojlantiruvchi usullar, shakllar, vositalar va texnologiyalardan maqsadli, izchil foydalanish;
- pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy

foydalanish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonlari sifatini monitoring qilish va baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

Informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarining didaktik tavsifiga ko'ra ularni uslubiy-tashkiliy, texnologik-jarayonli va ijodiy-izlanish turlariga bo'lish yo'li bilan o'rganish kerak. Uslubiy va tashkiliy tadqiqotlar:

- bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlar;

- o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

mustaqil bilim olish va ijodiy izlanish natijasida fan va pedagogik faoliyatni o'qitish metodlari, vositalari va shakllari tizimida muntazam ravishda o'z-o'zini takomillashtirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar. ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Texnologik jarayonning kompetensiyalariga «tadqiqot va texnologik faoliyat» kiradi: dasturiy va texnologik, ijodiy vazifalarni hal etish emas, balki ularni tajriba orqali amalga oshirish, ya'ni dastur va ilovalarni tayyorlash texnologiyasi va ularni amalga oshirish. Bu yondashuvning muhim jihati shundaki, talaba real ishlab chiqarish sharoitida amalda ishlaydi.

Ijodiy tadqiqot kompetensiyalari - bo'lajak informatika o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish yo'llaridan biri - dasturiy ta'minotni loyihalash va modellashtirish asosida darslarni tashkil etish. Sinf xonalarida yoki kompyuter laboratoriyalarida dasturlarni loyihalash va modellashtirishni ma'lum darajada malakali dasturchi o'qituvchilar faoliyati bilan solishtirish mumkin. Chunki ishlab chiqarish sharoitida zamonaviy kompyuterlarda turli dasturlarni loyihalash va modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: ijodiy g'oyaning tug'ilishi, o'ylab topilgan dasturga mos talablar qo'yilishi, loyihani eskiz holatida tuzish va uni muhokama qilish, o'rnatish. rejalashtirilgan dastur bo'yicha dizayn detallarini tayyorlash va ularni yig'ish, konstruktiv qismlardan tayyorlash, dasturni tekshirish va kamchiliklarini tuzatishni o'z ichiga olgan texnologik jarayon.

“Informatika o'qitish metodikasi”ni aralash ta'lim konsepsiyasi asosida mustaqil o'rganuvchi informatika talabalari, shuningdek, o'quvchilarning sinfda olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, o'z ustida ishlashni osonlashtirish, o'z reytingini belgilash, 80-90%. istalgan vaqtda shaxsiy mobil telefonlar yoki cho'ntak kompyuterlaridan foydalanish natijalarga erishish imkonini beradi [15].

Dastur boshqa mobil ilovalardan o'qish qulayligi, ravshanligi, barcha kerakli ma'lumotlarning integratsiyalashuvi, har bir mavzu bo'yicha o'quv va nazorat testlarining alohida tayyorlanishi, barcha android qurilmalari uchun mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi.

REFERENCES:

1. Калекеева Тамара Туркменбаевна, Таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак информатика ўқитувчиларини тайёрлаш мазмунини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент, 2019.

2. Калекеева Т.Т. Таълим тизимига ахборот технологияларини қўллашнинг истиқболли йўналишлари // «Беккем шаңарақ жылы»на бағышланған «Жоқары билимни хэм интеллектуаллығы раўажланған әўладты тәрбиялаў – елди тураклы раўажландырыў және модернизациялаўдың әҳмийетли шәрти» атамасындағы илимий теориялық конференция материаллары. – Нөкис: НМПИ, 2012. – Б. 141-143.

3. Ilhamova, I. N., Rasuleva, N. Z., & Ruslanovna, Z. Content and technology of teacher training in pedagogy and psychology, PalArch, 17(6).

4. Inogamova, D., & Rustamova, N. (2020). Using of interactive teaching methods in the process of self-education of future teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(9), 447-454.

5. Melievna, M. D., Rustamovna, R. N., Alimdjanovna, A. N., & Rejepbaevna, R. S. (2019). Formation of Creative Competence of Future Teachers in The Process of Teaching Mathematicsbased on Special Tasks. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(2), 487-493.

6. Rustamova, N. R. (2022). Development of Socio-Cultural Competence. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.

7. Рустамова, Н. (2022). Медиатаъсир контекстида талабаларда медиаменталитетнинг шаклланиш босқичлари, Образование и инновационные



исследования международный научно-методический журнал, (1), 130-136.

8. Муслимов Н.А. Электрон дарслик яратиш методик тамойиллари ва технологиялари. / Infocom.uz, 2004. – 62-66 б.

9. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. / Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. – 120 бет.

10. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий - методик асослари.: Пед. фан. докт. ... дисс. автореф. - Т.: 2007. – 45 б.

11. Талызина Н.Ф. Психолого-педагогические основы автоматизации учебного процесса / Психолого-педагогические и психофизиологические проблемы компьютерного обучения // Сб.научн.тр. – М.: Изд-во АПН СССР, МГУ, 1995. – С. 15-26

XORIJIIY OLIMLARNING ILMIY TADQIQOTLARIDA OILAVIY QADRIYATLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Axmedov Aminjon Amrullayevich
Buxoro davlat universiteti stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarni, ushbu munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishning zarurati va dolzarbligi, yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarga bo'lgan hurmat hissini tarkib toptirish bo'yicha olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va fikr-mulohazalari tahlili hamda oilaviy qadriyatlarning jamiyat rivojida muhim mezon ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oila, qadriyat, oilaviy qadriyat, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, milliy qadriyat, ma'naviyatini shakllantirish, axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ma'naviy, tarbiyalar.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ

Ахмедов Аминжон Амруллаевич
Стажер-исследователь Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье проведен анализ научных исследований и мнений, проведенных учеными по поводу отношения студентов к семейным ценностям, необходимости и актуальности формирования и развития этих отношений, формирования чувства уважения к семейным ценностям. в сознании молодежи и анализе семейных ценностей в обществе говорится о том, что она является важным критерием в ее развитии.

Ключевые слова: семья, ценность, ценность семьи, воспитание, духовность, просвещение, мировоззрение, национальная ценность, формирование духовности, нравственное, интеллектуальное, физическое, эстетическое, духовное, воспитание.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FAMILY VALUES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY IN SCIENTIFIC RESEARCH OF FOREIGN SCIENTISTS

Akhmedov Aminjon Amrullayevich
Intern Researcher at Bukhara State University

Annotation: In this article, the analysis of scientific researches and opinions conducted by scientists on the relationship of students to family values, the necessity and relevance of the formation and development of these relationships, the formation of a sense of respect for family values in the minds of young people, and the analysis of family values in society it is said that it is an important criterion in its development.

Key words: family, value, family value, education, spirituality, enlightenment, ideology, national value, formation of spirituality, moral, intellectual, physical, aesthetic, spiritual, upbringing.

Oila bu - avlodlar davomiyligi, an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar millatning, xalqning axloqiy, ma'naviy, diniy merosini avlodlardan avlodga o'tishini ta'minlovchi yagona mexanizm hisoblanadi. Oilani qo'llab-quvvatlash doimiy davlat e'tiborida turadi. Oilaning asosiy qadriyatlari bu-barcha oila a'zolarining hamjihatligi, ishonchi va sevgisini mustahkamlovchi muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilishdir. Oila bir butun organizmga o'xshaydi, oilaning har bir a'zosi umumiy struktura ichida birdamlik bilan chuqur tomir ortadi. Bu birdamlik mustahkam bo'lishi uchun oilalar umumiy qadriyatlarga ega bo'lish juda ahamiyatlidir. Ana shu qadriyatlar asosida oilada an'analar shakllanadi, ular yangi bo'lishi, yosh oilada vujudga kelishi yoki avlodlardan-avlodga o'tishi mumkin.

Oila va oilaviy qadriyatlar doimo chambarchas bog'liq va bir-birisiz mavjud emas. Agar oila bo'lmasa, oilaviy qadriyatlar tabiiy ravishda o'z ma'nosini yo'qotadi. An'anaviy oilaviy qadriyatlar g'amxo'rlik va ishonchga, o'zaro hurmatga asoslanadi. Oilaning bosh sarboni ota bo'lsa, ona oilaning tinchligini mustahkamlovchi, unda voyaga yetayotgan farzandlarlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, mehr-muhabbat ulashuvchi muqaddas zot sanaladi. Azaldan

oila-muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sanaladi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, o'sha jamiyat buziladi, tichlik, hotirjamlik yo'qoladi, u oqibatda chuqur

Oilada erkak kishining mas'uliyati alohida qayd etilgan. Sharqda qadim- Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllangan. Bugungi kunda ham ana shu an'analarni davom ettirib, o'zbek oilalari oilaning sog'lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida, oila bag'rida farzandlarini el-yurtining munosib o'g'il-qizlari bo'lib unib o'sishlarida astaoydil jon kuydirmoqdalar.

Yer yuzidagi hech bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy qadriyatlari va milliy madaniyatini asrab-avaylamasdan yuksaklikka bo'y cho'za olmaydi. O'zbek xalqi o'z qadriyatlari va o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaga tayanadi. Oila murg'ak vujud qalbida eng pokiza tuyg'ularni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga kelgan farzand aynan oila bag'rida bir qator dastlabki hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Darhaqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an'alarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o'zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirgak bo'la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog'lom oila muhiti muhim o'rin kasb etadi.

“Qadriyat” atamasi inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat yoki qaysidir ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat ne'matlari hisoblanadi.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi sifatida madaniy-ma'rifiy hodisalar, urf-odatlar, an'analari zamirida inson qadr-qimmatini oshishiga xizmat qiladi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to'g'ri oqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro muloqot, jamoatchilik ichida o'zini tutish singari ma'naviy-ma'rifiy, yurish-turish bilan bog'liq qadriyatlar singdirib boriladi.

Bola o'zini anglash sari qadam qo'yganidan tevarak-atrofni, yaqinlarini, unga g'amxo'rlik qilayotgan ota-onalarini tanishni va ularning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zlashtirishni boshlaydi. O'zbek oilalariga xos bo'lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to'g'rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urf-odat va an'alarimiz, madaniyatimizdan bahramand bo'lgan o'g'il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko'mak berish, so'ngra o'z oilalari uchun qayg'urish hissi singib boradi.

Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning marhamat qilishlaricha: “Ota-ona farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi”. Demak, ota-onaning farzandiga beradigan eng yaxshi hadyasi qimmatbaho kiyimlaru, totli taomlar va sovg'alar emas, balki go'zal xulq, yaxshi tarbiya hamda odob bilan sayqal topgan muomalasidadir.

O'zbek oilalarida istiqomat qilayotgan keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan ehtirom zamirida piru badavlat onaxonlaru-otaxonlarimizni e'zozlash, ularning o'g'itlari, pand-nasihatlariga amal qilish, keksaygan chog'larida tayanch bo'la olish singari qadriyatlar mavjud. Dasturxon atrofidagi yig'inlarda keksa avlod vakillari xalqimizning nodir ijod namunalari maqol, matallar, rivoyatlaru hikmatlar orqali turli xil maishiy masalalar va muammolarga yechimlar ko'rsatiladi. Keksalarga ko'rsatilayotgan mehr-oqibat va muruvvat oiladagi uchinchi avlod vakillariga o'z ota-onalarining qarilik gashtini osoyishtalik va baxtiyorlikda o'tkazishlarini ta'minlaydi. Oilalar sog'lom ekan - jamiyat mustahkam bo'ladi, Mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to'kinlikning barqarorligi ta'minlanadi. Jamiyatimizning osoyishtaligi va barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shish esa har bir vatandoshimizning vazifasidir.

Jamiyatning tezkor o'zgarib borishi hamda modernizatsiyalash jarayonlari uning barqaror rivojlanishini ta'minlashning zamonaviy muammolari kichik jamiyat bo'g'ini bo'lgan oila va oilaviy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabatlarga bog'liq ekanligi o'z isbotini topgan ilmiy asos hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, oila azal-azaldan muqaddas qo'rg'on, jamiyatni harakatga keltiruvchi mustahkam kuch, har bir inson dunyoga kelib, ulg'ayib kamol topadigan Vatandir. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq oilaning jamiyatda tutgan o'rnini yanada oshirish, uni huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oilada tibbiy

madaniyatni shakllantirish, sog'lom oila vujudga kelishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy sharoitlarini yaratish, oila ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarni tizimli bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mamlakatimizda oila institutini himoyalaydigan mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan. Oila munosabatlarini mustahkamlash, ularning barqaror rivojlanishi uchun ko'plab qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar jamiyatimizning rivojlanishi va oilalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Oila bu eng ulug' qadriyat hisoblanadi.

Qadriyat bu voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha bo'lib, insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar Qadriyat hisoblanadi.

Aynan oilaviy qadriyatlar undagi ma'naviy muhit hamda ota va onalarning alohida tarbiyasi bilan baholanadi. Ayniqsa, farzandlarni oilaga tayyorlash borasida "Qush inida ko'rganini qiladi", deganlaridek, avvalo, ota-onalarning o'zlari ahil va totuv bo'lib yashashlari, farzandlarga ibrat ko'rsatmoqlari zarur. Zero, kattalarga hurmat-izzat ko'rsatish, ularning oldida odob saqlash, duosini olish ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelmoqda. Mana shu an'analar, qadriyatlarga amal qilib yashashimiz, yosh avlodni sharqona odob-axloqqa o'rgatmoqimiz lozim. Har bir inson uchun eng katta baxt oilaviy xotirjamlik va farovonlikdir. Oilasidan, farzandlaridan ko'ngli to'q insonning ishida unum va baraka bo'ladi. Zero, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir.

Shunday ekan, oilani shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida o'rganish va idrok etish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Yosh avlodda oila qadriyatini shakllantirish, unga bo'lgan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish shubhasiz, pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq, bugungi globollashuv sharoitida, innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonlarida falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa bir qator gumanitar fanlar yutuqlaridan foydalanmaydigan yakka pedagogik tadqiqotni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yuqoridagi fikrlarimizga asoslangan holda bizning tadqiqotimizda ishlatiladigan asosiy tushuncha «oilaviy qadriyatlar» hisoblanadi. Lekin, bu tushunchani o'rganib tahlil etishdan oldin uni tashkil etuvchi elementlar, ya'ni tushunchalar- «oila» va «qadriyat» tushunchalarini ochib beruvchi mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilishni ma'qul deb, topdik. Biz tadqiqotimiz davomida mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish jarayonida «qadriyat» tushunchasi bo'yicha olimlarimizning quyidagicha fikrlari va ta'riflarini tahlil qildik. Jumaladan,

S. I. Ojegovning lug'atida «qadriyat» «muhimlik, ahamiyat» deb beriladi. Uni bildiruvchi so'zlar etimologiyasida qayta tiklangan «qadriyat» tushunchasining genezisi uning uchta ma'noni o'zida mujassamlashtirganini ko'rsatadi:

- qadriyat munosabatlari obekti vazifasini bajaradigan narsalar va perdmelarning tashqi xususiyatlari;
- ushbu munosabatlarning subekti bo'lgan odamning psixologik fazilatlarini;
- odamlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning aloqalari, buning natijasida qadriyatlar umumiy ahamiyatga ega bo'ladi.

«Falsafiy ensiklopedik lug'at» da "qadriyat" so'zi «odamlarning his-tuyg'ulari hamma narsadan ustun bo'lishini va nimaga intilish, tafakkur qilish, e'tirof, hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligini belgilaydi « degan ma'noni anglatadi.

A.V. Petrovskiy va M.G.Yaroshevskiyning umumiy tahriri ostidagi «Psixologik lug'at» da «qadriyat» tushunchasi ta'rifi quyidagicha keltirilgan:

«Qadriyat-falsafa va sotsiologiyada obektlar, hodisalar va xususiyatlarga, shuningdek, ijtimoiy ideallarni o'zida mujassam etgan mavhum g'oyalarga murojaat qilish uchun ishlatiladigan tushuncha, buning natijasida tegishli mezon sifatida namoyon bo'ladi».

«Psixologik-pedagogik lug'at-ma'lumotnoma» da «qadriyat» tushunchasi quyidagicha ochib berilgan:

- 1) «obektning foydali, kerakli yoki qadrlanadigan sifati yoki xususiyati»;
- 2) « muayyan madaniyat yoki jamiyat doirasidagi xulq-atvor shakllariga oid mavhum va umumiy tamoyil, bu sotsializatsiya jarayoni orqali ushbu jamiyat a'zolari tomonidan juda muhim deb hisoblanadi».

Hozirgi vaqtda zamonaviy ijtimoiy va gumanitar fanlar «qadriyat» kategoriyasining kelib

chiqishi va faoliyati masalalariga katta e'tibor berib, ushbu hodisaga o'ziga xos yo'nalishni kiritib, mazkur hodisani eng yaxlit tarzda taqdim etishga imkon beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, qadriyatni shaxs va jamiyatning barcha xilma-xilligi, asosiy axloqiy yo'naltirilgan tushunchalar, madaniy namunalardan biri bilan o'zaro bog'liqligini aks yettiruvchi umumiy ilmiy kategoriya sifatida aniqlash mumkin.

«Qadriyat» tushunchasi ilmiy muomalaga I.Kant tomonidan axloq (erkinlik) va tabiat (zaruriyat) sohasiga qarama-qarshi qo'yilib kiritilgan. I.Kantning fikriga ko'ra, qadriyat-bu qat'iy talab, qonun, buyruq (imperativ), shaxsiy prinsipdan (maksimum) farqli o'laroq, shartsiz, barqaror majburiyatni ifodalaydi.

Mahalliy ilm-fanda qadriyat masalalariga L. P. Buyeva, V. V. Vodzinsky, O. G. Drobnitskiy, M. S. Kagan, A. A. Ruchka, V. P. Tugarinov va boshqalarning falsafiy asarlarda katta e'tibor beriladi

M. Scheler qadriyatlarining tabiati va mohiyati to'g'risida bilimlarni oshirishga sezilarli hissa qo'shdi, va uning aksiologiyasi hali ham qadriyatlar nazariyasining namunasi hisoblanadi.

Aksiologik muammolarning psixologik yo'nalishi Dj. Dyui, A. G. Maslou, K. Rodgers, Sh. Shvars asarlar bilan ifodalanadi. Mahalliy ilm-fanda psixologik yo'nalishni K. A. Abulxanova-Slavskaya, B. S. Bratus, L. S. Vigotskiy, A. V. Petrovskiy, D. N. Uznadze va boshqalar davom ettirdilar.

Pedagogikada qadriyatlar asarlarda ta'lim va tarbiyaning gumanistik paradigmasini ishlab chiqish bilan bog'liq holda Sh. A. Amonashvili, L. A. Belyayeva, M. N. Dudina, I. F. Isayev, N. G. Nagibulina, V. A. Slastenin, YE. N. Shiyonov va boshqalarning asarlarida ko'rib chiqiladi.

Sotsiologiyada qadriyat muammolari M. Veber, E. Dyurkgeym, F. Znanetskiy, T. Pareons, M. Rokich, U. Tomas va boshqalarning klassik asarlar tufayli o'z o'rnini egalladi. Qadriyatlar muammosi M. Veber tufayli sotsiologiyaning dolzarb mavzularidan biriga aylandi, u qadriyat tushunchasini ushbu bilim sohasidagi asosiy bilimlar toifasiga kiritdi. Qadriyat nazariyasini ishlab chiqishga T.Parson hissa qo'shdi, u qadriyatni «mavjud yo'nalish alternativalarini tanlash uchun ma'lum bir mezon yoki standart» deb tushundi. Parsonsning fikriga ko'ra, ijtimoiy tartib barcha odamlar tomonidan qonuniy va majburiy deb hisoblangan umumiy qadriyatlarining mavjudligiga bog'liq.

Ushbu olimlar qadriyat masalalariga birinchi bo'lib to'xtalib o'tdilar, sotsiologik fan tomonidan qadriyatlarini o'rganish zarurligini asosladilar va jamiyatni qadriyat-me'yoriy tizim sifatida tushunishga muhim hissa qo'shdilar.

«Qadriyat» tushunchasining semantik mazmunini aniqlash uchun biz M.Rokichning talqiniga murojaat qilamiz, unda u qadriyat deganda shaxsni har qanday maqsadning afzalliklariga, boshqa maqsadlarga nisbatan mavjudlikning ma'lum ma'nosiga ishonirish yoki shaxsni boshqa turlarga nisbatan muayyan xatti-harakatlarning afzalliklariga ishonirish tushuniladi.

M. Rokich, shuningdek, qadriyatlarini tavsiflovchi bir qator xususiyatlarni ta'kidlaydi:

- inson yutug'i hisoblangan qadriyatlarining umumiy soni nisbatan kichik;
- hamma odamlar bir xil qadriyatlarga ega, garchi har xil darajada namoyon bo'lsa-da;
- qadriyatlar tizimlarda tashkil yeilgan;
- qadriyatlarining kelib chiqishi madaniyatda, jamiyatda va uning institutlari va shaxsida kuzatilishi mumkin;
- qadriyatlarining ta'siri o'rganishga loyiq bo'lgan deyarli barcha ijtimoiy hodisalarda kuzatiladi.

A.B.Fedulova o'z dissertatsiya tadqiqotida taklif qilgan nuqtayi nazari bizning tadqiqotimizga yaqinroq bo'lib, quyidagilarni aniqlaydi:

«qadriyat» - kundalik tafakkur sohasida qo'llaniladigan, shaxs tomonidan tan olingan va boshdan kechirilgan narsalarni o'z ichiga oladigan, dolzarb ahamiyatga ega, ma'no va ideal sifatida aks ettiruvchi polisemantik tushunchadir; qadriyat ijtimoiy faoliyatning tafakkuri, xulq-atvori va maqsadlarini tavsiflaydi.

«Qadriyat» tushunchasini aniqlash bo'yicha mavjud yondashuvlarni tahlil qilish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, aksariyat olimlar ushbu atamaning mazmunini ijtimoiy tafakkurning barcha shakllariga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni, masalan, ahamiyatlilik, normativlik, foydalilik, zaruriyat, maqsadga muvofiqlikni ajratib ko'rsatish orqali tavsiflaganlar.

Binobarin, qadriyatning paydo bo'lishi, bir tomondan, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondira oladigan obyektlar, hodisalar va ularning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, qadriyat mavjud obyekt, hodisa, shaxs va jamiyatni baholash bilan bog'liq hukm vazifasini bajaradi.

Dialektik-materialistik yondashuvga asoslangan ilm-fanda qadriyatning uchta shakli mavjud:

1. Birinchidan, u ijtimoiy tafakkur tomonidan ishlab chiqilgan, ijtimoiy hayotning turli sohalarida zarur bo'lgan atributlar g'oyasini o'z ichiga olgan ideal sifatida harakat qilishi mumkin.

2. Ikkinchidan, qadriyat obyektiv shaklda, moddiy va ma'naviy madaniyat asarlari yoki ijtimoiy ideallarning o'ziga xos timsoli bo'lgan insoniy harakatlar shaklida ifodalanishi mumkin.

3. Uchinchidan, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar, individual hayot prizmasi orqali sinib, shaxsning psixologik tuzilishiga shaxsiy qadriyatlar shaklida kiradi, bu uning xatti-harakatlarini rag'batlantirish manbalaridan biri hisoblanadi.

Oila va uning faoliyati muammosi insoniyat jamiyatining rivojlanish tarixida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, falsafada yetakchi o'rinlardan birini yegallaydi.

Oila va nikohning mohiyati bo'yicha birinchi tadqiqotlar oilaning patriarxal nazariyasini (Aflotun) yaratgan va oilaviy hayot muammolarini o'rganishda liberal an'analarni yaratgan qadimgi faylasuflarning asarlarida aks etgan (Aristotel); T. Mor, T. Kampanella, U. Godvin va boshqalarning utopik nazariyalarida keltirilgan, ularda oila mukammal jamiyatda insonning ijtimoiy tartibi va tabiiy holatining asosi sifatida qaraladi. F: Bekon, T. Gobbs, I. Kant, J.-J. Pycco asarlarida oilaning mohiyati tabiiy huquq nazariyasi va gumanistik nazariya, axloq, erkinlik va zarurat toifalari nuqtayi nazaridan oilaviy ittifoqning asosi sifatida qaraladi.

Gegel oilaning qadriyat sifatidagi ma'naviy, ijtimoiy asoslariga, uning rivojlanishi va faoliyati jarayoniga alohida ahamiyat berdi, uning falsafiy asarlarida oila ijtimoiy va individual zarurat sifatida, Gegel falsafasi tizimida tarqqiyot g'oyasi bilan bog'liq axloqtimsoli sifatida belgilaydi. Mutafakkir oilani organik bir butun sifatida, nikoh esa diniy harakat sifatida ifodalagan. Uning «Falsafiy propedevtika» asarida biz oilani a'zolari sevgi, ishonch va tabiiy itoatkorlik bilan bog'langan tabiiy jamiyat sifatida ifodalovchi ta'rifni topamiz.

XIX asrning ikkinchi yarmida oilaning nazariy muammolari bir qator antropologlar va sotsiologlarning diqqat markazida bo'ldi. Oila evolutsion nazariyada tarixiy kategoriya sifatida I. Y. Baxoven, L. G. Morgan, M. M. Kovalevskiy [48;49] asarlarida; formatsiya nazariyasida jamiyat instituti («bo'g'ini»), ijtimoiy hodisa sifatida K. Marks va F. Engels asarlarida tasvirlangan.

L.Morganning tadqiqot ma'lumotlariga asoslanib, F.Engels 1884-yilda «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» asarini yozgan. F.Engels nazarda tutgan oila evolutsiyasining umumiy prinsipi quyidagi bayonotda ochib berilgan:

“...umumiy nikoh rishtalari bilan qoplab olinadigan doira dastlab juda keng bo'lib, tobora torayib boradi, oxir-oqibat, hozirgi paytda hukmronlik qilayotgan alohida juftlik qoladi”.

Shunday qilib, L.Morgan va M.M.Kovalevskiy oilani shakllantirishning oldingi bosqichlarini o'rganish bilan shug'ullanishdi, chunki ularsiz zamonaviy, individual oilani o'rganish va kelajakda ushbu ijtimoiy institut bilan nima bo'lishini taxmin qilish mumkin emasligini tushunishdi. Ushbu uchta olim zamonaviy oilani o'ziga xos tarzda namoyish etishdi; ammo ular jamiyatning bu bo'g'ini jamiyatning o'zi bilan birga rivojlanib borishini, o'zgarishini, unda odamlar o'rtasida yangi munosabatlar paydo bo'lishini, ya'ni o'rganish lozim bo'lgan yangi harakatlantiruvchi kuchlar paydo bo'lishini qat'iy bilardilar.

Oilaning universalligini umuminsoniy hodisa sifatida o'rganish O.Kont va G.Spenserning pozitivizm nazariyasida o'z aksini topdi. Oilaning pozitivistik nazariyasi (L.Kont, G.Spenser) tarixiy taraqqiyot konsepsiyasini himoya qilib, oilaning umuminsoniy hodisa sifatida universalligini isbotlaydi. Oila asosiy ijtimoiy element sifatida tan olinadi, uning asosida butun jamiyat quriladi, bu shaxslar uyushmasining bir shaklidir.

Zamonaviy oilani o'rganish uchun juda samarali uslubiy yondashuv pozitivizm pozitsiyasida mavjud bo'lib, oila mulk egasi va uni himoya qiluvchi bo'lib xizmat qiladi, ularsiz individual erkinlik bo'lmaydi. Oila har doim o'zini o'zi ta'minlash tamoyilini amalga oshirishga intilgan va bu sifat uni insonning ijtimoiy mavjudligini ta'minlashning asosiy institutiga aylantirgan, unda biologik va ijtimoiy-axloqiy birlikning umumiyligi amalga oshiriladi, o'zaro ta'sir jarayonida bu fazilatlar bir-biriga o'tadi.

XIX — XX asr boshlarida rus falsafiy tafakkuri vakillari N.Berdyayev [11], V.Rozanov, V.Solovyov asarlarida oilani o'rganishning aksiologik yo'nalishi ishlab chiqilgan bo'lib, unda oila qadriyati aksiologik tushuncha, altruizm va ma'naviy asoslar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan. Ushbu yo'nalish oilaning gumanistik nazariyasiga qaratilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati altruistik va diniy xarakter mezonlari bo'yicha oila qadriyatini ko'rib chiqishdir. Shu bilan birga, oilaning ma'naviy asoslarining daxlsizligini tan olish («umumiy muhabbat prinsipi» — V.Solovyov) oilani muhabbat tushunchasi bilan hech qanday aloqasi yo'q deb baholash bilan uyg'un kelishi xarakterlidir («muhabbat — bu dunyo muhitida o'layotgan cheksiz gul» — N.Berdyayev).

Oila hayoti jarayoni-bu iyerarxiyasi tarixiy va ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanadigan muayyan funksiyalar orqali amalga oshiriladigan shaxslarning o'z ehtiyojlarini amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

A.I. Antonov o'z tadqiqotlarida oilaga quyidagicha ta'rif beradi: «oilaviy - ota - onalik-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan va shu bilan aholining ko'payishi va avlodlarning uzluksizligini amalga oshiradigan, shuningdek bolalarni ijtimoiylashtiradigan va oila a'zolarining mavjudligini ta'minlaydigan samimiy oilaviy faoliyatga asoslangan odamlar jamoasi». Olim nuqtayi nazaridan oilaning asosiy xususiyati bolalarning mavjudligi. Oilaga bag'ishlangan psixologik ilmiy ishlarning nazariy tahlili oilani psixologik hodisa va uning ishlash mexanizmlari sifatida tushunishga imkon beradigan ikkita yo'nalishni aniqlashga imkon beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, aynan, oila ta'sirida madaniy qadriyatlar shaxsning yutug'i, uning tuzilishini shakllantiruvchi elementiga aylanib boradi. Har bir bola oiladagi ta'lim-tarbiya orqali katta madaniyat dunyosini ongli ravishda anglaydi. Eng yuqori qadriyat sifatida oila shaxsning shaxsiy hayotidan, uning vaqt va makondagi chegaralaridan tashqariga chiqishni anglatadi.

Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasida oilaviy munosabatlariga oid maxsus bob ajratilgan. Unda o'zbek oilasi va munosabatlariga doir barcha masalalar to'laligicha hamda asosli huquqiy himoyani o'zida mujassam etgan. Qomusimizda o'zbek oilasining shakllanishidan boshlab, tomonlarning teng huquqliligi, ularning tuzishidagi erkin roziliklari, ota – onalar tomonidan bolalarning taminoti va tarbiyasi, farzandlar tomonidan ota - onalarga bo'lgan g'amxo'rliklarini ko'rsatishimiz kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Farzandlarga oilaviy suhbat davrida o'z “huquq” va “g'urur” lar hususida manaviy suhbatlar olib borilsa nur ustiga alo nur bo'ladi deb o'ylaymiz. Oilaning jamiyatdagi o'rni juda muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, oilaviy qadriyatlarga munosabat hech bir asrda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Shuni nazarda tutgan holda biz o'z tadqiqot ishimiz markazida talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatda bo'lish muammosi ustida ilmiy izlanishlar olib borishni lozim deb hisobladik. Zero, har bir talabaning shaxs sifatida shakllanishida oilasining o'rni va undagi o'z qadriyatlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Xorij pedagog olimlarining oilaviy qadriyatlarga oid ilmiy izlanishlari va qarashlarida ham ushbu masala to'liq tahlil etilgan va o'z isbotini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.V. Petrovskiy va M.G.Yaroshevskiy. «Psixologik lug'at» 2020 y.
2. Xalq so'zi gazetasi Oilaviy qadriyatlar – bebaho meros 2022-yil 16-may
3. Smagina M.V. Sotsiokulturnaya transformatsiya semi v sovremennoy Rossii kak faktor neblagopoluchiya // Ekonomicheskoye i gumanitarnoye issledovaniya regionov. 2016. № 2. S. 110-114. 5.
4. Ensiklopedicheskiy sotsiologicheskoy slovar. Obsh.red. Osipova G.V. - M.: ISPI RAN, 1995. - 940 s.
5. Falsafa qomusiy lug'at. -Toshkent.: Sharq, 2004. –B.92

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ СИФАТИ МОНИТОРИНГИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Ахмедов Мурод Убайдуллаевич
Ориентал университети проректори, п.ф.ф.д. (PhD), доцент

Аннотация: мақолада халқ таълими тизимида юқори сифатли таълимни таъминлашда таълим сифати мониторинги амалиётга жорий этиш технологияси ёритилган.

Калит сўзлар: халқ таълими, таълим муассаса, таълим сифати, технология, режалаштириш, баҳолаш, таҳлил.

TECHNOLOGY OF PRACTICAL IMPLEMENTATION OF MONITORING THE QUALITY OF EDUCATION IN THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM

Akhmedov Murad Ubaydullayevich
Vice-Rector of Oriental University,
PhD, Associate Professor

Annotation: The article discusses the technology of built-in quality monitoring when presenting the uploaded image in the formation creation system.

Keywords: public education, effective training, quality of education, technology, training, evaluation, analysis.

ТЕХНОЛОГИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ РЕАЛИЗАЦИИ МОНИТОРИНГА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ахмедов Мурод Убайдуллаевич
Проректор университета Ориентал,
д.п.ф.н. (PhD), доцент

Аннотация: в статье рассматривается технология внедрения мониторинга качества образования при предоставлении качественного образования в системе народного образования.

Ключевые слова: народное образование, эффективное обучение, качество обучения, технологии, обучение, оценка, анализ.

Мамлакатимизда мустақилликнинг дастлабки йилларидан таълимтизимини тубдан ислох қилиш, ўқитиш сифати ва мазмунини янгипоғонага кўтариш, малакали кадрлар тайёрлашнинг замонавий механизмини яратиш, ўқув дастурлари ва адабиётларини янгилашга қаратилган ислохотлар босқичма-босқич, тизимли равишда амалга оширилмоқда. Кейинги йилларда мамлакатимиз таълим соҳасида амалга оширилган муҳим ўзгаришларнинг барчаси таълим сифатини таъминлашга қаратилганлигини қайд этиш мумкин.

Мамлакатимизда таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотлар, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-27-сон ҳамда 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сон Фармонлари асосида халқ таълими тизими муассасаларида таълим сифати мониторинги модели ишлаб чиқилди (1-расм). Мазкур моделда таълим муассасаси, таълим бошқаруви идоралари ва ваколатли давлат идоралари томонидан халқ таълими тизимида баҳолаш босқичлари, турлари ва жараёнларни бошқариш технологияси ёритиб берилган.

Таълим сифати мониторинги модели мақсад ва вазифалари ҳамда ташкил этилиш шаклига кўра ички ва ташқи мониторингга бўлинади. Ташқи мониторинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, Халқ таълими вазирлиги, ҳудудий халқ таълими бошқарув идоралари, туман(шаҳар) халқ таълими муассасалари фаолиятини методик таъминлаш ва ташкил этиш бўлимлари ва бошқа ваколатли ташкилотлар томонидан, ички мониторинг эса умумтаълим муассасасида

ташқил этилган мониторинг гуруҳи томонидан амалга оширилади. Таклиф этилган модель асосида баҳолашнинг асосий 5 та туридан фойдаланилади. Баҳолашнинг барча учун таниш бўлган биринчи тури — синфда ёки мактабда таълим сифатини баҳолаш ҳисобланади. Ўқитувчилар, мактаб маъмурияти, ўқувчиларнинг ўзлари, ота-оналар ва жамоатчилик вакиллари ўқувчиларнинг билимларини таълимий мақсадларидан келиб чиққан ҳолда умумтаълим муассасаларида таълим сифати мониторингини амалга ошириш циклограммаси асосида текширадилар.

Мазкур баҳолаш бевосита ўқувчининг синфда амалга оширилган ишлари билан боғлиқ, бунда ўқитувчи турли услублардан (масалан, оғзаки сўров ўтказиш, интервью, амалий машқ бажариш, тест ва ҳ.к.) фойдаланиб, ўқувчи томонидан бажарилган ишларга баҳо қўяди. Баҳолаш жараёни тизимли равишда ўқув чораги ва ўқув йили давомида амалга оширилади. Бундай баҳолашда ўқитувчилар, мактаб мониторинг гуруҳи ўқувчиларнинг ўзлаштириш сифати, ўқув ютуқларига асосий меъёр бўлган давлат таълим стандартларига таққослаган ҳолда индивидуал баҳо берадилар.



1-расм. Умумий ўрта таълим муассасаларида ўқитиш сифати мониторинги модели

Баҳолашнинг иккинчи тури ҳудудий халқ таълими бошқаруви идоралари томонидан амалга ошириладиган ҳудудий ўқитиш сифати мониторинги ҳисобланади. Бунда ўқувчилар томонидан давлат таълим стандартларида белгиланган билим, қўникма ва малакаларнинг ўзлаштирилиш динамикаси тизимли кузатилади, ўқувчилар билимидаги бўшлиқлар ва уларнинг келиб чиқиш сабаблари аниқланади, бошқа мактаблар билан қиёслаган ҳолда камчиликларни бартараф этиш чора-тадбирлари режалаштирилади.

Шунинг учун замонавий шахсга, рақобатбардош мутахассисга қўйилган талабларнинг ортиб бориши энг аввало таълим муассасалари ва ҳудудий халқ таълими бошқаруви идораларидаги алоҳида тузилмалар томонидан ўқитиш сифати мониторингини тизимли ва мақсадли амалга оширишни талаб этади [4]. Ҳудудий халқ таълими бошқаруви идораларининг «Инновацион мониторинг лабораториялари»да циклограмма асосида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ.

Таълим муассасаларида мониторинг – яхлит тизимнинг ҳолати ва динамикасини комплекс кузатиш, таҳлил қилиш, коррекциялаш ҳамда прогнозлаш жараёни ҳисобланади.

Баҳолашнинг кейинги учинчи тури — давлат аттестацияси ва таълим муассасаларининг аккредитацияси ҳисобланади. Улар давлат томонидан ёки унинг номидан ваколатли ташкилотлар томонидан ўтказилади. Муайян талабларга жавоб берадиган барча ўқувчилар уларда қатнашиш ҳуқуқига эга. Бундай баҳолаш муайян таълим босқичи ёки тури якунида амалга оширилади. Уларнинг асосий ва ижтимоий жиҳатдан муҳим вазифалари битирувчилар ва таълим муассасаларининг давлат ва жамият томонидан белгилаб берилган ижтимоий буюртмани бажариш ҳолатини

таҳлил қилиш имконини беради.

Умуммиллий баҳолаш — барча ёки муайян ўқувчилар гуруҳини танлаб олиш йўли билан мунтазам равишда уларнинг ўқув ютуқлари даражасини миллий стандартларга нисбатан мослигини баҳолашдан иборат. Бундай баҳолаш ўқув дастурларига таянган ҳолда амалга оширилиб, имтиҳонлардан фарқ қилади. Биринчидан, алоҳида олинган ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакалари даражаси эмас, балки тизимнинг фаолият кўрсатиш натижалари ўлчанади. Иккинчидан, миллий баҳолаш натижалари муайян ёшдаги ёки синфдаги ўқувчилар умумий ўзлаштириш даражасининг «рентген сурати» каби баҳолаш ҳисобланиб, миллий стандартларнинг узоқ муддатли мониторингини амалга оширишга хизмат қилади. Танлаш йўли билан ўтказилган умуммиллий баҳолаш ушбу тадбирни қисқа муддатларда иқтисодий жиҳатдан арзонроқ ўтказиш имкониятини беради. Унинг натижалари муайян ўқув фанлари бўйича ўқувчилар ўқув ютуқлари тўғрисида қимматли маълумотларни бериши мумкин.

Мамлакатимизнинг халқ таълими тизимида таълим сифати мониторинги моделини амалиётга жорий этиш бир нечта босқичда амалга оширилади. Жумладан, республика миқёсидаги ўқитиш сифати мониторинги жараёнини ташкил этиш ва уни сифатли, холис ўтказилиши Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг Таълим стандартларини такомиллаштириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш бўлими, Республика таълим маркази Ўқитиш сифати мониторинги бўлими, ҳудудий халқ таълими бошқарув органлари, Давлат таълим стандартлари мониторинги бўлимлари, мониторинг кичик гуруҳлари ва умумтаълим муассасалари мониторинг гуруҳи томонидан амалга оширилади.

Таълим сифати мониторингини амалга оширишдан кўзланган мақсад ўқувчилар томонидан давлат таълим стандартлари талабларининг бажарилиш динамикасини тизимли кузатиш, ўқитиш сифатига таъсир этган омилларни аниқлаш, таълим муассасалари, ҳудудий халқ таълими бошқаруви идоралари, методик хизмат ва малака ошириш тизимининг фаолиятини баҳолаб, ривожлантиришга оид чора-тадбирларни белгилаш, кейинги ҳолатни башоратлаш натижасида ўқитиш сифатини оширишдан иборат.

Мониторинг ўтказишнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

а) ўқувчиларнинг умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари талабларини бажариш даражаси ҳамда унга таъсир этган омилларни аниқлаш;

б) мониторинг натижаларига кўра ўқувчилар билимида аниқланган бўшлиқларни тўлдириш ҳамда таълим-тарбия жараёни сифатини оширишга қаратилган чора-тадбирларни белгилаш;

в) мониторинг натижалари, жамият, фан ва техника, технологиянинг ривожланиши билан боғлиқ зарур талаблар асосида давлат таълим стандартлари шарҳлари ва ўқув дастурларига ўзгартиришлар киритиш бўйича таклифлар тайёрлаш;

г) турли педагогик технологияларнинг қўлланилиши натижаларини ўзаро таққослаш.

Мониторинг мақсади ва вазифаларига кўра назорат ишлари қайси фанлар кесимида ва синфларда ўтказилиши аниқланади. Бунда, мониторинг жараёни билан даврий равишда барча ўқув фанларини қамраб олишни таъминлаш мақсадида бир ёки бир неча йилларга мўлжалланган режа-график тузилади [5].

Мониторинг ўтказиладиган фанлар бўйича ДТС талаблари, ўқув дастурлари ҳамда амалдаги дарсликлар мазмуни чуқур таҳлил қилинади. Ўқувчи билиши лозим бўлган билим элементлари, ўзлаштириши лозим бўлган малака ва кўникмаларнинг рўйхатлари тузилади.

Ташқи мониторинг ўтказиш учун назорат материалларини тайёрлаш ва уларни экспертизадан ўтказиш мақсадида тегишли бошқарув органлари қошида жамоатчи экспертлардан фанлар йўналишида ижодий гуруҳлар ташкил этилади.

Ҳар бир фандан ижодий гуруҳ томонидан билим, кўникма, малака ва компетенцияларни қамраб олган назорат топшириқлари (тестлар, масалалар, саволлар, диктантлар, иншоолар ва ҳ.к.) тайёрланади. Топшириқнинг мураккаблик даражаси ҳамда уларни баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилади.

Мониторинг жараёнида бир нечта назорат турларидан фойдаланиш мумкин. Жумладан, Ёпиқ тест (жавоби танланадиган) топшириқ – савол ва унга оид 4 та муқобил жавобни қамраб олган топшириқ, Очиқ тест (ижодий ёки жавоби ёзиладиган)

топширик – ўқувчига жавоб бериш имконини берадиган савол (тўғри жавобдаги сўзлар энг кўпи билан 4 тадан ошмаслиги лозим), Ёзма иш – ўқувчидан маълум бир мавзу, қонуният, тушунча, масала ва воқеалар юзасидан ўз фикрини баён этишни, маълум бир қонуниятга асосланган формулаларни мисол ва масалалар ечишда ёзма равишда қўллашни талаб этадиган назорат тури ва бошқалар.

Тайёрланган назорат топшириқлари ва сўровномаларнинг сифати, сарф этиладиган вақтни аниқлаш мақсадида апробация ўтказилади. Апробация натижаларига кўра назорат материаллари таҳлил қилинади ва назорат топшириқлари, уни ечишга ажратилган вақтга тегишли ўзгартиришлар, қўшимчалар киритилиб, тасдиқланади ҳамда мониторинг жараёнига тайёрланади.

Ўқувчилар томонидан топшириқларни бажаришларига сарфланадиган вақт назорат материалларининг сони ва мураккаблик даражасидан келиб чиққан ҳолда белгиланади. Назорат материаллари амалдаги ўқув дастурлари асосида мониторинг ўтказиш давригача ўзлаштирилган мавзулар асосида тайёрланган бўлиб, ўқувчиларнинг шу фандан олган билим, кўникма ва малакаларини аниқлашга хизмат қилиши керак.

Мониторинг билан қамраб олинадиган ҳудудлар, туман(шаҳар)лар ва таълим муассасаларини танлаш истиқбол режа ёки сайланма равишда репрезентатив рандомлаштирилган танлаш методи асосида амалга оширилади [3].

Мониторинг жараёнини ташкил этиш учун буйруқ асосида ишчи гуруҳлари тузилади, ҳар бир ишчи гуруҳга раҳбар белгиланади ҳамда гуруҳ фаолияти ишчи гуруҳ раҳбари томонидан ташкил этилади ва бошқарилади.

Ташқи назорат учун танланган синфларда назорат ишини махсус тайёрланган экспертлар амалга оширадilar. Улар назорат ишини ўтказишдан олдин махсус тайёргарлик гуруҳлари ёки семинарда тегишли кўрсатмалар олган бўлишлари лозим.

Экспертлар назорат ишини ўтказиш учун танланган умумтаълим муассасига бир соат олдин бориб, синф хоналари ҳолати, уларнинг жойлашуви билан танишадilar. Назорат иши бир неча синфлардан олинган тақдирда мактабнинг бир жойда жойлашган бир неча синфлари танланади.

Эксперт назорат ишини бажариш бўйича ўқувчиларга тушунча беради. Бунда эксперт назорат ишининг умумий саволлари ва уларга ажратилган умумий вақт, тест саволлари шакли ва уларни жавоб варақасига киритиш тартиби бўйича тушунтириш ишларини амалга оширади.

Эксперт ўқувчилар барча маълумотларни тушунганликларига ишонч ҳосил қилгандан сўнг улар назорат иши саволларига жавоб беришларини бошлашларига рухсат беради ва синф доскасига назорат иши вақтининг бошланиши ва тугалланишини ёзиб қўяди.

Ҳар бир фандан ўтказилаётган ёзма ишларни бажариш учун уларнинг мураккаблиги ва ўқувчилар ёшини ҳисобга олган ҳолда вақт берилади.

Шундан кейин ўқувчилар назорат ишини бажарадилар. Ушбу даврда ўқувчиларнинг бир-бирлари билан мулоқот қилишлари, саволлар китоби ёки жавоблар варағини алмаштиришлари, ёрдамчи воситалардан фойдаланишлари тақиқланади.

Ўқувчиларда назорат ишини ўтказиш жараёнида савол туғилиб қолган ҳолларда улар экспертга мурожаат қиладilar ва ундан жавоб оладilar.

Назорат ишини ўтказиш жараёнида фан ўқитувчиси ҳам иштирок этиши мумкин. Фан ўқитувчиси охириги партада кузатувчи сифатида ўтиради, лекин унинг мазкур жараёнга қатнашиши тақиқланади. Ўқувчилар билан бирга фан ўқитувчиси ҳам назорат ишининг бир нечта вариантларига жавоб бериши мумкин.

Назорат иши ўтказилгандан кейин ўқувчиларга 10 дақиқалик танаффус берилади. Кейин ўқувчилар, ўқитувчилар ва мактаб раҳбарлари олдиндан тайёрланган сўровнома (анкета)ларни тўлдирадilar. Сўровномаларни тўлдириш учун 10-15 дақиқа вақт берилади.

Ички назорат тасдиқланган режага кўра назорат ўтказиладиган синфдаги ўқувчилар тайёргарлик кўриб қилишлари учун бир кун олдин огоҳлантирилади.

Умумтаълим муассасида ташкил этилган мониторинг гуруҳи раҳбари томонидан энг камида 2 та вариантдан иборат назорат материаллари назорат ишлари бошланишидан 10 дақиқа олдин олиб қилинади ва мониторинг гуруҳи раҳбари ёки аъзолари томонидан назорат ишлари олинади.

Назорат иши бажарилгандан сўнг, ўқувчиларнинг ишлари эксперт томонидан йиғиб

олинад ва барча ўқувчилар гувоҳлигида алоҳида конвертга солинад ва муҳрланади. Сўнг конвертлар мониторинг гуруҳи раҳбарига топширади. Ички назорат ишлари натижалари умумтаълим муассасасида ташкил этилган мониторинг гуруҳи аъзолари томонидан текширилади. Ички назорат ишларини ўтказишда мактабнинг ички имкониятларидан келиб чиқиб химия, физика, биология информатика ва бошқа амалий фанлардан назоратнинг амалий турларидан фойдаланиш тавсия этилади.

Назорат ишлари ўтказилгандан сўнг улар махсус тайёрловдан ўтган ўқитувчилардан ташкил топган гуруҳ аъзолари томонидан текширилади. Мониторинг натижалари ҳолиселигини таъминлаш мақсадида махсус гуруҳга бетараф ўқитувчилар киритилади. Назорат иши ёпиқ тест топшириқларидан иборат бўлса, текшириш жараёни компьютер дастури ёрдамида амалга оширилади. Бошқа турдаги топшириқлар амалиётчи ўқитувчилар томонидан олдиндан тайёрланган баҳолаш мезонлари асосида текширилади. Назорат ишларининг натижаларига компьютер дастури ёрдамида ишлов берилади ва тегишли маълумотлар тайёрланади. Тайёрланган маълумотлар асосида таҳлилий маълумотнома тайёрланади, жорий натижалар аввалгилар билан таққосланади, муайян ўқув фанидан, муайян синфдаги, туман ва вилоят бўйича ўқиш сифатининг динамикаси ва ривожланиши аниқланади.

Ўқувчилар билимига, ўқитиш сифатига таъсир этувчи омилларни аниқлаш, самарали ва тўғри бошқарув ечимларини топиш мақсадида ўқувчилар, фан ўқитувчилари, мактаб раҳбарлари ва ота-оналардан сўровномалар олинади.

Ўқитиш сифатига таъсир этувчи омиллар шартли равишда 3 гуруҳ бўлинган ҳолда ўрганилади:

1-гуруҳ: Таълим муассасасида яратилган шарт-шароитлар билан боғлиқ омиллар;

2-гуруҳ: Таълим муассасаси педагог кадрларининг (раҳбарлари, ўқитувчилар, методбирлашма раҳбарлари ва бошқ.) касбий маҳорати ҳамда уларга кўрсатилаётган методик ёрдам сифатига боғлиқ омиллар;

3-гуруҳ: Ўқувчиларнинг қобилияти, иқтидори, қизиқишига ва оилада яратилган шароит, муҳитга боғлиқ омиллар [6].

Натижалар ва аниқланган барча омиллар таҳлил этилади, улардан муайян ҳудуд, туман(шаҳар) ёки мактабга тегишли бўлган асосийлари аниқланади, улар асосида ҳулосалар чиқарилади. Педагог ходимлар ва фан ўқитувчилари учун методик тавсия, қўлланма ва йўриқномалар, қарор ва буйруқлар ишлаб чиқилади. Ўқув жараёнининг моддий негизини мустаҳкамлаш, ўқитувчилар малакасини ошириш (мавзули педагогик кенгашлар, семинарлар, очиқ дарсларни ўтказиш, услубий ишларни такомиллаштириш ва бошқалар) чора-тадбирлари кўрилади.

Мониторинг бир кунлик назорат бўлмасдан, тизимли, узвий, узлуксиз амалга ошириладиган кузатувдан иборат бўлиши шарт.

Ўқитиш сифати учун ДТС ва ўқув дастурлари талаблари асосий кўрсаткич ҳисобланади. Мониторинг — фақат ДТС ва меъёрларнинг бажарилишини аниқловчи, назорат қилувчи механизм бўлиб қолмасдан, илм-фан тараққиёти, жамиятдаги эҳтиёж ва талаблари асосида ДТС, ўқув дастурлари ва режаларга тегишли ўзгартиришлар киритиш учун асос бўладиган таклифларни тайёрлашга хизмат қилиши лозим.

Таълим сифати мониторинги моделини ишлаб чиқишда ўқувчиларнинг оилавий шароитлари, ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражаси ва касб маҳорати, мактаб раҳбариятининг таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш соҳасидаги фаолияти, мактабларда фан методбирлашмаси ва методика кенгашлари фаолияти, моддий-техник база ва улардан самарали фойдаланиш ҳолати, таълим муассасаларининг моддий-техник базаси, ўқитувчиларга кўрсатилаётган методик ёрдам ва улар малакасини ошириш сифатига боғлиқ омиллар аниқланиб, таълим-тарбия жараёнини сифатли ташкил этиш параметрлари белгиланади. Бу эса ўқувчиларни интеллектуал, маънавий-ахлоқий жиҳатдан ривожлантиришга қўмаклашади.

Хулоса қилиб айтганда, таълим сифати кўрсаткичлари тизимидаги: таълим-тарбия жараёнининг натижавийлиги; соғлом ва хавфсиз таълим муҳити; оила, маҳалла, таълим муассасаси ҳамда кенг жамоатчилик ҳамкорлиги; таълимнинг инклюзивлиги; таълимда гендер сезгирлик принципларининг таъминланиши ўқув-тарбия жараёни самарадорлигини кафолатлайди ва халқ таълими тизими раҳбарлари томонидан ушбу жараёнга масъулият билан ёндошишни талаб этади.



Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-27-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сон Фармони.
3. Аҳлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования.: Автореф. дис. д-ра пед. наук. – Ташкент, 2002. – 44 с.
4. Бахмутский А. Е. Мониторинг школьного образования: проблемы и решения. - Санкт-Петербург : КАРО, 2007. – 164 с.
5. Бурдакова О.П. Мониторинг как механизм управления качеством образования школьников/ О.П. Бурдакова // Управление качеством образования. - 2007. - №3. - С.53-69.
6. Каримов Р.Қ. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандарти мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари. Пед. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2006. – 22 б.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ МОНИТОРИНГА И ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЦЕССА ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Ахметова Клара Ирисматовна,
преподаватель кафедры “Педагогика и психология”
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация: В данной статье акцентируется внимание на важности системы повышения квалификации педагогических кадров, раскрывается сущность мониторинга в целом, выделяются организационно-педагогические условия реализации мониторинга эффективности процесса повышения квалификации, которые могут гарантировать успешность данного процесса.

Ключевые слова: система повышения квалификации, мониторинг, процесс повышения квалификации, эффективность процесса повышения квалификации.

ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE IMPLEMENTATION OF MONITORING AND EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF THE PROCESS DEVELOPMENT

Annotation: This article focuses on the importance of the system of advanced training of teaching staff, reveals the essence of monitoring in general, the organizational and pedagogical conditions for the implementation of monitoring the effectiveness of the advanced training process are highlighted, which can guarantee the success of this process.

Keywords: advanced training system, monitoring, advanced training process, effectiveness of the advanced training process.

MALAKA OSHIRISH JARAYONI SAMARADORLIGINI MONITORING VA BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH TASHKILIK-PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimining muhimligiga e'tibor qaratilib, monitoringning mazmuni va mohiyati yoritilgan, malaka oshirish jarayonini muvaffaqiyatini kafolatlovchi ushbu jarayon samaradorligi monitoringini amalga oshirish shart-sharoitlari ajratib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish tizimi, monitoring, malaka oshirish jarayonini, malaka oshirish jarayonini samaradorligi.

Введение.

Преобразования, происходящие во всех сферах нашего общества, инновационные процессы в экономической и социальной жизни и самое главное - выбор в качестве основной в переустройстве общества задачи раскрепощения личности, создания для каждого условий для свободного проявления и развития своих способностей актуализируют новые требования в системе образования к подготовке и профессиональному развитию педагога общего и профессионального образовательного учреждения.

Сегодня современному обществу нужны образованные, нравственные, предприимчивые люди, профессионалы, которые могут самостоятельно принимать ответственные решения в ситуациях выбора, способные к сотрудничеству, отличающиеся мобильностью, динамизмом, обладающие развитым чувством ответственности за судьбу страны.

Поэтому наиболее принципиальное значение в настоящее время придается повышению образовательного и профессионального уровня преподавателей. Это обусловлено тем, что только самостоятельный и творческий профессионал, активный субъект на рынке образовательных услуг, обладающий индивидуальным стилем профессиональной деятельности, умеющий распоряжаться своим интеллектуальным потенциалом, постоянно развивающий свою педагогическую компетентность, способен реализации современных идей приоритетных направлений социально-экономического развития нашей страны.

Как утверждал Первый Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов: «...

мы должны думать о посткризисном периоде нашего развития, выработке глубоко продуманной долгосрочной Программы целевых проектов по модернизации и техническому обновлению базовых отраслей нашей экономики, внедрению современных инновационных технологий, призванных дать мощный толчок по выходу Узбекистана на новые рубежи, обеспечивающие конкурентоспособность нашей страны на мировом рынке».

Не маловажное место в реализации указанных задач отводится системе повышения квалификации педагогических кадров. Потому что именно в процессе повышения квалификации и самообразовании педагог овладевает теми необходимыми качествами и способностями, которые обеспечат активное участие педагога в преобразованиях, происходящих во всех сферах нашей страны и общества. Это ещё раз указывает на то, что система повышения квалификации педагогических кадров должна развиваться адекватно требованиям, как самой личности педагога, так и требованиям рынка труда. Отсюда и такое особенное внимание и интерес к работе системы повышения квалификации педагогических кадров. О том, насколько качественно работа системы повышения квалификации, насколько эффективно протекает процесс повышения квалификации, соответствие его государственным требованиям можно определить посредством мониторингового отслеживания.

Основная часть.

Система переподготовки и повышения квалификации кадров – это одна из основных систем профессионального образования, обеспечивающая обновление профессиональных знаний, умений и навыков, повышающая профессиональный уровень, который обеспечивает различные отрасли высококвалифицированными, профессиональными кадрами.

Повышение квалификации является:

- для общества в целом - механизм расширенного воспроизводства его культурного и профессионального потенциала, условием развития общественного производства, ускорения социально-экономического прогресса страны;
- для государства – ведущей сферой социальной политики по обеспечению благоприятных условий для общего и профессионального развития личности каждого человека.

Основной задачей этой системы заключается в постоянном обогащении специалистов профессиональными знаниями, умениями и навыками, поддержании их на конкурентоспособном уровне. Другой важнейшей задачей в переходный период является переподготовка и повышение квалификации ранее выпущенных специалистов с высшим и средним профессиональным образованием с целью включения их в активную деятельность в условиях рыночных отношений.

Государственные требования переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров применяются для организационного и научно-методического обеспечения образовательной деятельности учреждений в области переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров всех видов непрерывного образования и определяют:

- структуру системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров;
- основные виды и формы переподготовки и повышения квалификации;
- общие требования к содержанию и качеству переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров;
- объем учебной нагрузки для курсов повышения квалификации педагогических кадров;
- необходимый и достаточный уровень подготовленности педагогических кадров, а также общие квалификационные требования к ним;
- процедуры и механизмы контроля и оценки качества образования в образовательных учреждениях переподготовки и повышения квалификации.

В Указе Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева №УП-5789 «О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений» от 27 августа 2019 года отмечается низкая эффективность и ресурсоемкость действующего порядка повышения квалификации руководящих и педагогических кадров, который требует внедрения в данный процесс инновационных подходов, а также применения механизмов

непрерывного развития профессиональной компетенции кадров.

Для того, чтобы поднять на более новый уровень систему повышения квалификации руководящих и педагогических кадров, широко внедрить в практику современные формы повышения их профессиональных навыков, а также дифференцированной и альтернативной непрерывной системы повышения квалификации, которая принимает во внимание результаты научной и научно-педагогической деятельности в указе были определены такие основные задачи системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров, как:

- внедрение механизмов непрерывного обновления профессиональных знаний, навыков и мастерства руководящих и педагогических кадров, повышение их профессиональной подготовки на необходимом уровне в соответствии с современными требованиями для обеспечения качества высшего образования;

- обеспечение внедрения в практику и проведение мониторинга прямых и связанных с профессиональной деятельностью косвенных форм повышения квалификации на основе принципов вариативности и взаимодополняемости.

Основываясь на результаты исследований зарубежных и отечественных ученых, считаем, что, решению вышеизложенных задач и проблем в системе повышения квалификации будет способствовать непрерывный, научно обоснованный мониторинг эффективности процесса и результатов повышения квалификации.

Как уже отмечалось, мониторинг и оценка должны осуществляться не только с точки зрения усвоенных преподавателем новых поведенческих образцов, но и с точки зрения уровня образовательных достижений обучающихся. Мониторинг и оценка не могут использоваться только как средство контроля за деятельностью обучающихся и обучающихся. Скорее, мониторинг и оценка должны носить диагностический, объясняющий характер, помогать понять причины невысокой эффективности (или высокой затратности) учебно-воспитательного процесса в образовательном учреждении. Мониторинговые и оценочные мероприятия должны проводиться как в начале и в конце обучения, так и в его процессе, быть предельно информативными и технологичными, иметь своим следствием корректировку целей, содержания и технологии обучения.

Названные подходы служат ориентиром и теоретическим фундаментом разработки и реализации мониторинга и оценки эффективности процесса повышения квалификации.

Мониторинг является сложной системой, которая предназначена для отслеживания динамики эффективности образовательных услуг и состояния педагогических систем.

Под мониторингом следует понимать систему постоянного сбора данных о наиболее значимых характеристиках качества образования, их обработку, анализ и интерпретацию с целью обеспечения общества и системы образования достоверной, достаточно полной и дифференцированной по уровням использования информацией о соответствии процессов и результатов образования нормативным требованиям, а также о происходящих переменах и прогнозируемых тенденциях. Иначе говоря, мониторинг представляет собой стандартизированное наблюдение за образовательным процессом и его результатами, который способствует созданию истории состояния объекта во времени, количественному оцениванию изменений субъектов обучения и образовательной системы, а также определению и прогнозированию направлений их развития. Главная цель создания системы мониторинга заключается в повышении качества образования.

Информацию, которая накапливается в системе мониторинга, можно использовать для идентификации проблем в обучении, связанных с недостатками в методах преподавания, искажениями в пропорциях учебных планов и др. Она дает возможность оценивать последствия инноваций в системе образования, которые осуществляются в государстве, регионе, районе или внутри отдельного образовательного учреждения. Данные мониторинга мотивируют руководство образовательных учреждений и преподавателей к улучшению своей деятельности и способствуют повышению ответственности за результаты учебно-го процесса.

Для того чтобы процесс организации и проведения мониторинга в системе образования был успешным и эффективным необходимо создать для этого определенные организационно-педагогические условия.

Под организационными условиями понимается существенный компонент

комплекса объектов, явлений или процессов, от которых зависят другие, обуславливаемые феномены (объекты, явления или процессы), и влияющий на направленное и упорядоченное формирование среды, в которой протекает феномен. Педагогические условия - это компонент педагогической системы, который отражает совокупность внутренних (обеспечивающих развитие личностного аспекта субъектов образовательного процесса) и внешних (содействующих реализации процессуального аспекта системы) элементов, обеспечивающих её эффективное функционирование и дальнейшее развитие.

Нами были выделены следующие организационно-педагогические условия реализации мониторинга эффективности процесса повышения квалификации, которые на наш взгляд, могут гарантировать успешность данного процесса:

1. Научно-информационное обеспечение мониторинга. Это обеспечивают:

- тесты для предварительной диагностики общеобразовательных и профессиональных ЗУН слушателей;
- методическая информация, характеризующая общеобразовательные и профессиональные умения и навыки слушателей по предметам, а также методов и средств их диагностики и оценки в образовательном процессе;
- параметры личностного развития обучающихся в соответствии с моделью педагога, квалиметрические методы их измерения и оценки;
- личные карты саморазвития, самообучения преподавателей для их использования администрацией образовательного учреждения;
- методологические рекомендации мониторинга и оценки процесса повышения квалификации для преподавателей системы повышения квалификации;
- системы экспертных оценок соответствия ЗУН и личностных качеств слушателей государственным требованиям и рынка труда, профессиональной компетентности педагогов, соответствия образовательных процессов СОТ.

2. Организационно-техническое обеспечение мониторинга и оценки. Здесь необходимы такие действия, как:

- тиражирование бланков, анкет, листов наблюдения, личностных опросников, тестов, экспертных листов, сводных таблиц-результатов и других материалов, применяемых в мониторинге;
- разработка компьютерных программ обработки результатов мониторинга и оценки.

3. Организационно-технологическое обеспечение мониторинга и оценки. Это требует от субъекта, осуществляющего мониторинг выполнение следующих действий:

- разработка программы мониторинга и оценки в соответствии с образовательными целями повышения квалификации педагогических кадров;
- обучение технологии мониторинга преподавателей системы повышения квалификации в порядке повышения квалификации и развития профессиональной компетентности;
- постановка операционально-заданных целей повышения квалификации на уровне «образовательное учреждение – обучающийся», «обучающий - обучающийся», их утверждение в нормативных документах системы повышения квалификации;
- отслеживание и оценка результатов образовательного процесса в ходе мониторинга и оценки процесса повышения квалификации в соответствии с поставленными целями;
- оформление и предоставление получаемой информации о результатах образовательного процесса, а также процесса повышения квалификации в целом потребителям (администрации, педагогам);
- разработка программ и мероприятий по: коррекции выполняемых задач, прогнозированию развития и совершенствования системы повышения квалификации, оптимальному выбору образовательных целей и средств их реализации;
- подготовка и консультирование преподавателей по вопросам реализации мониторинга в период повышения квалификации.

4. Организационно- методическое обеспечение мониторинга и оценки. Данное условие требует реализацию ряд задач:

- разработка и внедрение методических рекомендаций (практических пособий, инструкций) по реализации мониторинга процесса повышения квалификации в

системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров;

- разработка и внедрение постоянно действующей системы сбора, анализа, обобщения, систематизации и обработки данных о результатах процесса повышения квалификации, оформления информации для администрации (потребителя) на основе компьютерных программ;

- разработка и внедрение методических рекомендаций по прогнозированию развития и совершенствования системы повышения квалификации, тенденций изменений процесса образования (повышения квалификации) за определенные периоды повышения квалификации, по конкретным курсам образовательного учреждения.

5. Организационно-аналитическое обеспечение мониторинга. Это включает в себя выполнение следующих действий:

- создание компьютерной базы данных, отражающих динамику изменений, происходящих в системе повышения квалификации в целом, процессах обучения в частности;

- анализ эффективности проводимых педагогических действий и полнота реализации конечных целей функционирования системы повышения квалификации;

- прогнозирование тенденций развития и совершенствования образовательного процесса в частности и системы повышения квалификации в целом;

- прогнозирование перспективных требований внешних заказчиков (государство, общество) к процессу повышения квалификации педагогических кадров в системе повышения квалификации;

проектирование и моделирование востребованного в будущем процесса повышения квалификации для развития и совершенствования системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров.

Заклучение.

Таким образом, мониторинг является необходимым компонентом эффективного управления. Объектами управления могут выступать условия, процесс, результаты данного процесса, деятельность и ее отдельные параметры. Например, качество методической работы педагогов или уровень учебных достижений слушателей могут быть объектами управления на уровне образовательного учреждения. Важно подчеркнуть, что объекты мониторинга должны совпадать с объектами управления.

Сбор и накопление первичной информации, ее обработка и обобщение в целях эффективного управления являются составными элементами мониторинга. Мониторинг идет дальше традиционной диагностики благодаря своей регулярности, строгой направленности на решение задач управления и высокой технологичности. Основанное на мониторинге управление перестает быть «слепым», более того, такое управление становится более уверенным, приобретает целостность и устойчивость к воздействию непредвиденных факторов.

Организация, содержание и осуществление мониторинга эффективности процесса повышения квалификации должны быть подчинены практической реализации требований, которые вытекают из таких принципов, как целенаправленность, непрерывность, целостность и разносторонность изучения, согласованности действий субъектов мониторинга, адресность и гласность добываемой с его помощью информации.

Реализация в процессе мониторинга определенных функций расширяет рамки и повышает эффективность мотивационно-стимулирующих, контролирующих и корректирующих управленческих влияний. В ходе проведения мониторинга должен быть обеспечен полный его цикл, так как пропуск (или искажение) любого из этапов этого процесса негативно отразится на качестве мониторинговой информации, а также на принятых управленческих решениях.

Используемая литература:

1. Абдулина О.А. Мониторинг качества профессиональной подготовки /Высшее образование в России. 1998. №3. –С. 48.

2. Алферова А.С. Мониторинг развития образования в мире //Ж. Педагогика. 2002. №7. -С.12-15.

3. Беспалько В.П. Мониторинг качества обучения – средство управления образованием //Мир образования. 1996. №2. -С. 38-45.



4. Голиш Л.В., Ахметова К.И. и др. Педагогический мониторинг: проектирование и реализация. /Экспресс-пособие -Т.: 2001. -С.31.
5. Горб В.Г. Теоретические основы мониторинга образовательной деятельности. //Ж. Педагогика. №5. 2003. -С.10-11.
6. Горшков М.К. и Ф.Э.Шереги. Как провести социологическое исследование. М; 1990. С. 108-110.
7. Пищулин Н.Н., Пищулина С.Н. Маркет-мониторинговая социопсиходиагностика в образовании. //Ж. Школьные технологии. №3. 2001. -С.186-203.
8. Поташник М.М., Моисеев А.М. Управление современной школой (в вопросах и ответах). /Пособие для руководителей образовательных учреждений и органов образования. -М.: Новая школа, 1997. -С.55-68.
9. Поташник М.М. Управление качеством образования. -М.: 2000. -С.194-195, 217.
10. Смоуфилд Д. Учебное пособие для специалистов ССПО по мониторингу и оценке. ЮНИКО Интернэшнл Корпорейшн Токио Япония. 2002.

EKOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL MASHQLAR VA TOPSHIRIQLARDAN SAMARALI FOYDALANISH SHART-SHAROITLARI

Bobomurodova Nargiza Jo'rayevna

BuxDU ekologiya va geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida, shaxsning ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish imkonini beradigan sifatlarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada ekologiya darslarida yoshlarning ekologik dunyoqarishi, tafakkuri va bilimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol usullar, mashqlar va topshiriqlardan samarali foydalanish imkoniyatlari mazmuni yoritilgan. Ushbu jarayonni tashkil etishga qaratilgan mashqlar va topshiriqlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiat, munosabat, dunyoqarash, bilim, tafakkur, dars, mashq, topshiriq, muhit, rivojlanish, natija.

УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ И ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ ЭКОЛОГИИ

Бобомуродова Наргиза Жураевна

Старший преподаватель кафедры экологии и географии БухГУ

Аннотация: В процессе воспитания важно развивать качества человека, позволяющие ему активно участвовать в решении экологических проблем. В данной статье описаны возможности эффективного использования интерактивных методов, упражнений и заданий, направленных на развитие экологического мировоззрения, мышления и знаний молодежи на уроках экологии. Приведены примеры упражнений и заданий, направленных на организацию этого процесса.

Ключевые слова: экология, природа, отношение, мировоззрение, знание, мышление, урок, упражнение, задача, среда, развитие, результат.

CONDITIONS FOR THE EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE EXERCISES AND TASKS IN ECOLOGY LESSONS

Bobomurodova Nargiza Zhuraevna

Senior Lecturer, Department of Ecology and Geography, BuxSU

Abstract: In the process of education, it is also important to develop the qualities of a person that allow him to actively participate in solving environmental problems.

This article describes the possibilities of effective use of interactive methods, exercises and tasks aimed at developing the environmental outlook, thinking and knowledge of young people in the lessons of ecology. Examples of exercises and tasks aimed at organizing this process are given.

Key words: ecology, nature, attitude, outlook, knowledge, thinking, exercise, task, environment, development, result.

KIRISH. Zamonaviy ekologik ta'limning asosiy vazifasi shunchaki ekologik bilimlarni o'zlashtirish emas, balki birinchi navbatda, atrof-muhit holatiga ta'sir etuvchi aniq ijobiy o'zgarishlarga erishishga qaratilgan ekologik muammolarni hal qilishga o'rgatishdir. Ta'lim jarayonida, shaxsning ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish imkonini beradigan sifatlarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning ekologik muammolardan xabardorligi hali ushbu muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishi hamda ularning yechimini topishga intilishini anglatmaydi.

Chunki ta'lim jarayonida egallangan nazariy bilimlarni tezkorlik bilan amaliy faoliyatga samarali qo'llash imkoniyati deyarli mavjud emas.

Keng ma'noda faoliyat deganda insonning jamiyat hayotida mustaqil faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan hamda ongli ravishda maqsadga erishishga yo'naltirilgan hatti-harakatlar tizimini tushunilishimiz mumkin.

Umuman olganda, faoliyat sub'ekt va olam o'rtasidagi bog'liqlik shakli hisoblanib, ikkita bir birini to'ldiruvchi jarayonni, ya'ni dunyoning faol o'zgarishi va sub'ektning shaxsiy rivojlanishini o'z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat yangi bilimlar, ma'nolar, obrazlar, balki yangi qobiliyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlar manbai bo'lib ham hisoblanadi.

Ta'limga faolshyatli yondashuvning mazmuni shundan iboratki, inson o'z hayoti davomida muayyan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'ladigan faoliyatni amalga

oshirishga qodir bo'lishi kerak.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashda birinchi navbatda maqsadlarni (kompetensiyalar, malakalar, ko'nikmalar) aniqlash, so'ngra ushbu kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni saralab olish zarur.

Avvalombor bu atrofimizni o'rab turgan olamdagi yuz beradigan hodisalar va predmetlar haqidagi bilimlar hisoblanib, ushbu bilimlarni amalda qo'llay olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bilimlarga faoliyatning o'zi – ya'ni muammolarni hal qilish metodlari va usullari haqidagi bilimlar ham qo'shiladi.

O'z navbatida bilimlar malakalarni hosil qilishga imkoniyat yaratasa, vositalar esa maqsadga erishishga xizmat qiladi. Shunday qilib, egallangan bilimlar, hosil qilingan malakalarsiz ta'limning yakuniy natijasini ifodalay olmaydi.

Ekologik ta'limda bilimlarni o'zlashtirishdan faoliyatni amalga oshirish paradigmasiga o'tish dolzarb psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning o'qituvchi va bir-birlari bilan faol munosabatiga (inglizcha interaction – o'zaro faoliyat) asoslangan o'qitishning interfaol usullaridan (mashqlar, o'yinlar, treninglar) foydalanishi bu muammoni hal etishning muhim vositasi bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, o'qituvchi (bilimning yagona manbai emas, balki o'quv jarayonining muvofiqlashtiruvchisi, maslahatchisi, menejeri) va talabaning (pedagogik ta'sirning passiv ob'ekti emas, balki o'zaro ta'sirning faol sub'ekti) roli o'zgaradi. O'quv materialining ma'nosi ham sezilarli darajada o'zgaradi: asosiy maqsad ma'lumotni o'zlashtirish emas, balki muayyan faoliyatni rivojlantirish zarur shartga aylanadi.

Interfaol ta'lim texnologiyalarini immitatsion va noimmitatsion turlarga ajratishimiz mumkin. Noimmitatsion texnologiyalar asosan, kognitiv faollikni oshirishga qaratilgan (muammolarni taqdim etish, diskussiya, aqliy hujum) bo'ladi.

Ekologik ta'lim uchun immitatsion texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Qaysikim bu texnologiyalar ekologik tizimlardagi ro'y beradigan hodisalar va real jarayonlarni modellashtirib, yuzaga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek immitatsion-o'yin shaklida anchagina murakkab hisoblangan ekologik tizimlar va uning tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirini o'rganishga ko'maklashadi.

Interfaol ta'lim usullarining muhim xususiyatlaridan biri ularning emotsional hissiy imkoniyatlarining mavjudligidadir. Talabalar ruhiyati ta'lim jarayonining emotsional-sensor komponentiga sezgir bo'ladi. Ular uchun ekotizimlar yoki ekologik muammolar haqidagi nazariy bilimlar yetarli emas, ular o'zini ekologik tizimga aralashib ketganini his qilishi, o'zining ichki «ekologik dunyosi»ni yaratishi muhimdir.

Tabiatni o'z qalbida his etish, ruhiyatiga singdirish ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha faoliyat uchun motivatsiya bo'ladigan qimmatli asosga aylanishi mumkin.

Ekologik ta'limda interfaol usullardan ayniqsa, aniq yechimga ega bo'lmagan muammolarni muhokama qilish, turli nuqtai nazarlar va muqobil variantlarni baholashni o'z ichiga olgan topshiriqlar, mashqlarni bajarishda tobora keng foydalanilmoqda [1, 3-5],

To'g'ridan-to'g'ri o'zaro muloqot qilish, hissiy va hissiy idrok etish sharoitida faoliyat ko'rsatgan holda, bolalar nafaqat muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki o'zaro tajribalarini baham ko'rishadi, o'qituvchidan emas, balki bir-birlaridan ko'p narsalarni o'rganadilar, shaxsiy munosabatlar va qadriyatlar tizimini rivojlantiradilar.

Asosiy qism. Quyida turli ekologik tizimlar va vaziyatlarni, ekologik muammolarni o'rganish va modellashtirish uchun interfaol mashqlar va o'yinlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar keltirdik.

1-mashq. Nuh kemasi (biologik xilma-xillik bilan tanishtirish).

Ishtirokchilar soni: 15–20 nafar.

Vaqt: 5-10 daqiqa.

Mashqni bajarish.

Boshlovchi har bir ishtirokchining qulog'iga (boshqalar eshitmasligi uchun) u yoki bu hayvonlarning (masalan, mushuk, it, sigir, qarg'a, qurbaqa, sichqon) nomini aytadi, shunda hayvonlarning nomini ikki marta takrorlaydi. Agar ishtirokchilar soni toq bo'lsa, nomlardan biri uch marta takrorlanishi mumkin.

Ishtirokchilar uchun vazifa: hech qanday so'z aytmadan, sherigingizni topish. Ishtirokchilar u yoki bu hayvon tomonidan chiqarilgan tovushlarni, tashqi ko'rinishi va harakatining xususiyatlariga taqlid qilishlari mumkin.

O'yin hamma o'z tengini topganda tugaydi.

2-Mashq Hayot zanjiri (ekotizimlardagi aloqalarni modellashtirish).

Vaqt: 10-15 daqiqa.

Ishtirokchilar soni: 20–25.

Materiallar va jihozlar: har bir ishtirokchi uchun 1-1,5 m uzunlikdagi arqon; ekotizimda

turli funktsiyalarni bajaradigan tirik organizmlarning nomlari (o'rta maktab o'quvchilari uchun) yoki rasmlari (maktabgacha va boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun) tushirilgan kartochkalar (4-5 produsentlar, turli darajadagi 2-3 konsumentlar, 3-4 redusent); kartochkalarni bo'yniga osib qo'yilishi uchun ip kartalarga biriktirilgan bo'lishi lozim.

Tayyorgarlik: har bir ishtirokchi uchun taxminan 0,5 m² bo'sh joy talab qilinadi.

Mashqni bajarish.

Ishtirokchilar har biri bitta kartochkani tanlaydi va ularni bo'yniga osadi. Ishtirokchilar yuzlari ichkariga qaragan holda aylanada turadi. Boshloqchi arqon uchini ushlab, aylanada turadi va har bir ishtirokchidan o'zini «nomini» aytishni so'raydi. Ishtirokchilarning vazifasi haqiqiy ekotizimlarda ekologik aloqalar (trofik, forik, fabrik va boshqalar) mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan «organizm» ga arqon uchini yuborib/ tashlash orqali ekotizimni qurishdir.

Har bir ishtirokchi o'z tanlovichini izohlashi lozim. Ekotizim qurilganda, o'qituvchi barcha ishtirokchilardan bir-biri bilan aloqani his qilish uchun yarim qadam orqaga chekinib, ipni mahkam tortishni so'raydi.

O'yinni ekotizimdagi o'zaro bog'lanishlardagi turli xil uzilishlarni modellashtirish bilan davom ettirish mumkin. Masalan, produsentlar, redusentlar yoki tirik organizmlarning o'ziga xos biron bir turi tabiatdan yo'qolgan. Bu organizmlar qo'lni pastga tushirib (lekin ipni bo'shatmasdan) ipning tarangligini bo'shatadi. Ipining zaiflashganini his qilgan hamkor ishtirokchilar ham qo'llarini pastga tushirishdi. Natijada, ip butunlay pastga tushadi, organizmlar o'rtasida hech qanday aloqa yo'q, ekotizim buziladi.

Mashq yakunida boshlovchi ishtirokchilardan arqon uchini yerga tushirmasdan «hayot ipini» ehtiyotkorlik bilan orqaga o'rashni so'raydi.

3-Mashq Leminglar(ekotizim barqarorligini modellashtirish)

Ishtirokchilar soni: 15–20.

Vaqt: 10-15 daqiqa.

Tayyorgarlik: har bir ishtirokchi uchun taxminan 0,5 m² bo'sh joy talab qilinadi. Mashqni yumshoq yerda yoki maxsus kurash matlarida bajarish tavsiya etiladi

Mashqni bajarish. Ishtirokchilar, shu jumladan boshlovchi, qo'shnilari bilan qo'llarini ushlab, ichkariga qaragan holda aylanada zich holatda turishadi. Boshlovchi lemminglar tundrada yashashini, ularni boyqushlar, boyqushlarni arktika tulkilari, tulkilarni odamlar ovlashini tushuntiradi. Ishtirokchilar orasidan 1 ta inson, 2-3 ta arktika tulkisi, 3-5 ta boyqush tanlanadi, qolgan ishtirokchilar lemminglar hisoblanishadi.

Boshlovchi turli organizmlar guruhining nomini (arktika tulkilari, boyqushlar yoki odamlar) aytadi. Nomi aytilgan ishtirokchilar «yo'qolib qolishadi», ya'ni qo'shnilarining qo'llarida osilgan holda oyoqlarini orqaga bukadilar. Qolgan ishtirokchilarning vazifasi «yo'qolgan» qo'shnilarini ushlab turish orqali ekotizimning yaxlitligini saqlab qolishdir.

Mashg'ulot 1-2 marta takrorlangandan so'ng boshlovchi birin ketin: odam, arktik tulkilar, boyqushlar deb nomlarni ayta boshlaydi. Bu holatda ekotizim o'z yaxlitligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi. «Lemminglar» buyrug'i bilan ishtirokchilarning ko'pchiligi oyoqlarni yerga tushirib «yiqilib tushishadi» (yiqilib xavfsiz bo'lishi kerak!), va ekotizim buziladi.

4-Mashq So'zlar va tasvirlar (nazariy tushunchalar, qonunlarning obrazli tasviri).

Ishtirokchilar soni: 25–30.

Vaqt: 15-20 daqiqa.

Materiallar va jihozlar: jadvallar (4-5 ishtirokchi uchun 1 ta); stullar (ishtirokchilar soniga ko'ra); doska / stend; A1 varaqlari (4-5 ishtirokchi uchun 1 ta); markerlar; 5 × 20 sm qog'ozning tor va uzun qirqimlari; qaychi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;

- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Bu metodni 2-sinfda o'quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo'llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko'rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarni ifodalaydigan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda o'quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so'z boyligi oshadi.

Namuna: **Unilar**

A – anor



E – clak



Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Xamroev A.P. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish istiqbolлари //Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха. – 2014. – Т. 22. – №. 1. – С. 53-58.
2. Kamroev A. STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 285-296.
3. Xamraev A. Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся //Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи. – 2018. – №. 2. – С. 23-26.
4. Ruzikulovich, H. A. «Quality And Efficiency In The Design Of Students' Creative Activity In Teaching Their Native Language.» The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.02 (2021): 321-331.
5. Abdumalikovna, Tosheva Dildora, and Joraeva Nargiza Oktamovna. «The Use of An Example of People's Oral Creation and Modeling Technologies in The Development of Creative Thinking of Students During Learning the Uzbek Language in Primary School.» Zien Journal of Social Sciences and Humanities 2 (2021): 69-72.

OLIV TA'LIM JARAYONIDA FLIPPED CLASSROOM TEXNIKASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,
pedagogika fanlari nomzodi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti
<https://orcid.org/0009-0000-8371-6298>

Annotsatsiya. Mazkur maqolada jahon ta'lim tizimida keng qo'llanayotgan Flipped classroom («teskari sinf») texnikasidan oliy ta'lim tizimi o'quv jarayonida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, bu jarayonda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, Flipped classroom («teskari sinf») texnikasini qo'llash uchun zarur bo'ladigan texnik va dasturiy ta'minotni tanlash, amaliyotda qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari, raqamli ta'lim, raqamli innovatsiyalar sharoitida ta'lim oluvchilar potensialini ro'yobga chiqarish uchun IT ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Flipped classroom («teskari sinf»), kreativlik, texnologiyalar, podkast, vodkast, ta'lim shakllarining integratsiyasi, aralash ta'lim, ta'lim jarayoni va ta'lim mazmuni, o'quv materialini tanlash shartlari, B.Blum taksonomiyasi.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНИКИ FLIPPED CLASSROOM («ПЕРЕВЕРНУТЫЙ КЛАСС») В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Жуманиязова Мухайё Таджиевна,
кандидат педагогических наук, доцент кафедры «Педагогика и психология»,
Узбекский государственный университет мировых языков.

Аннотация. В этой статье пойдет речь об особенностях использования методики Flipped classroom («Перевернутый класс»), которая широко используется в мировой системе образования, требованиях к учителю в этом процессе, выборе методик и программного обеспечения, которые будут необходимы для использования Flipped classroom («Перевернутый класс»). методика, преимущества и недостатки ее применения в контексте цифрового образования, цифровых инноваций говорится о методах, которые помогут развить ИТ-навыки для реализации потенциала учащихся.

Ключевые слова: перевернутый класс («обратный класс»), креативность, технология, подкаст, vodcast, интеграция образовательных форм, смешанное образование, образовательный процесс и образовательный контент, условия выбора учебного материала, таксономия Б.Блума.

DISTINCTIVE FEATURES OF THE USE OF THE FLIPPED CLASSROOM TECHNIQUE («INVERTED CLASSROOM») IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION

Jumaniyazova Mukhayo Tajievna,
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbekistan State World Languages University.

Annotation. This article will discuss the features of using the Flipped classroom methodology («Inverted Classroom»), which is widely used in the world education system, the requirements for the teacher in this process, the choice of techniques and software that will be necessary to use the Flipped classroom («Inverted Classroom»). methodology, advantages and disadvantages of its application in the context of digital education, digital innovations, it is said about methods that will help develop IT skills to realize the potential of students.

Keywords: Flipped classroom, creativity, technology, podkast, podkast, integration of educational forms, mixed education, educational process and educational content, conditions for choosing educational material, B.Bloom's taxonomy.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga

oshirib kelinmoqda. Bu boradi pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Raqamli dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun o'qituvchilar o'z bilim va malakalarini takomillashtirishlari, ta'lim jarayoniga yangi texnologiya va metodlarni qo'shishlari, talabalar esa bu metodlar orqali mustaqil fikrlash, o'z ustida ishlash, muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali foydalanishlari mumkin bo'ladi. Raqamli ilm-fanni targ'ib qilish, mobil texnologiyalardan ta'lim jarayonida keng foydalanish bizning ta'lim sohasidagi qudratli imkoniyatlarimizni ochish demakdir.

Bugun jahon ta'lim tizimida keng qo'llanayotgan Flipped classroom («teskari sinf») texnikasi ham ana shu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ajralib turadi va u oliy ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. Flipped classroom («teskari sinf») texnikasi ta'limni tashkil etishga zamonaviy yondashuv bo'lib, unga ko'ra talaba o'quv materialini o'zlashtirishining asosiy qismi auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishiga to'g'ri keladi. «Teskari sinf» deb nomlangan o'quv jarayonining bu modeli aralash ta'limning bir turidir.

“Flipped classroom”—bu o'quv materiali talabaga auditoriyadan tashqarida mustaqil o'qishi uchun beriladigan va uni amaliy mustahkamlash esa dars vaqtida amalga oshiriladigan o'quv modeli hisoblanadi. Bu jarayonda auditoriyadagi ta'lim murakkab nazariy qism va talabalar uy vazifasini bajarish jarayonida yuzaga keladigan savollarni tahlil qilishga bag'ishlanadi (darsning 25-30% dan ko'p bo'lmagan), shuningdek, auditoriyada talabalar o'qituvchi nazorati ostida amaliy vazifalarni hal qilishadi va tadqiqot vazifalarini bajaradilar.

Ta'limning bu modeliga o'tish darsda o'qituvchining ustunligidan talabaning ustunligiga o'tishni bildiradi. Xorijiy adabiyotlarda bu o'tish majoziy ma'noda o'qituvchi rolining “sahnadagi donishmand”dan “yon tomondagi qo'llanma”ga o'zgarishi sifatida tasvirlanadi.

Tarixi.

Flipped classroom (“Teskari sinf”) modelining asoschilari bo'lgan Jonathan Bergman va Aaron Sams 2007 yilda darslarni tez-tez o'tkazib yuboradigan sportchilarga o'z ma'ruzalarini taqdim etish, ularni o'zlashtirishini nazorat qilish maqsadida o'z ma'ruzalarini va talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimini elektron shaklda ishlab chiqish uchun dasturiy mahsulotlarni izlab topishadi. Mualliflardan biri Vergman: “2007 yil bahorida Aaron Sams menga PowerPoint dasturida slaydshouni, shu jumladan ovoz va har qanday matnli eslatmalarni yaratishga imkon beradigan dasturiy mahsulot haqida maqola ko'rsatdi. Keyin bularning barchasi onlayn tarqatish oson bo'lgan videofaylga aylantiriladi. Talabalar ularga kirishlari uchun biz ma'ruzalarimizni onlayn tarzda joylashtirishni boshladik. Rostini aytsam, dastlab biz ma'ruzalarimizni darslarni o'tkazib yuborgan talabalar uchun takroriy mashg'ulotlar o'tkazmaslik uchun yozib olishni boshladik, chunki biz takroriy mashg'ulotlar uchun haddan tashqari ko'p vaqt sarflardik. Ma'ruza yozuvlari bizni bu mashaqqatdan qutqarishi mumkin edi, ya'ni yozib olingan audio va video fayllarni onlayn tarqatish orqali biz ortiqcha vaqt sarflab takroriy mashg'ulot o'tishdan ozod bo'lardik” -deb yozib qoldiradi.

Ushbu yondashuv tarafdorlari va asoschilaridan yana birini S. Xan deb hisoblanishi mumkin. Uning “Xan akademiyasi” (“Khan academy”) platformasidagi turli fanlar bo'yicha yaratilgan qisqa video ma'ruzalardan iborat resurslaridan butun dunyo bo'ylab maktab o'quvchilari va talabalar foydalanib kelmoqda. Xanning bu akademiyasiga qisqa ma'ruzani masofadan turib ko'rish, ya'ni «teskari o'rganish» prinsipi asos bo'lgan.

Flipped classroom (“Teskari sinf”) ko'pincha masofaviy ta'lim bilan aralashiriladi. Bu modelning masofaviy ta'limdan farqi shuki, o'qituvchi va talabaning «yuzma-yuz» holda auditoriyadagi dars vaqti o'zgarishsiz qoladi, faqat uning mazmuni tubdan o'zgaradi. Ya'ni talabalar darsda o'qituvchining uzundan-uzoq ma'ruzasini zerikish bilan tinglab o'tirmasdan, darsda o'quv materialini asosiy qismi bilan oldindan tanishgan holda ishtirok etadilar. Zamonaviy o'qitish tamoyili bo'lgan modul-kredit tizimiga ko'ra o'quv materialini o'zlashtirishning muhim qismi talabaning sinfdan tashqari mustaqil ishiga to'g'ri keladi. Shu sababli auditoriyadagi mashg'ulotning asosiy qismini o'qituvchi doskaga qoidalarni yozishga emas, balki mavzu doirasida suhbat amaliyotiga va talabalar ehtiyojidan kelib chiqadigan qo'shimcha savollarni muhokama qilishga, eng qiyin savollarga javob berishga sarflaydi.

Odatda, o'qituvchi auditoriyada ma'ruzalar o'qiydi, shu sababga savollar va mashqlarga

juda oz vaqt qoladi. Aksariyat o'qituvchilar o'z vaqtlarini materialni tushuntirish va bilim berish bilan o'tkazadilar, mavzu doirasida amaliy masalani tahlil qilish, baholash va yaratishni o'rgatish uchun oz vaqt sarflanadi. Flipped classroom tamiyiliga ko'ra, dars uchun zarur bo'lgan barcha materiallar (qo'shiqlar, videolar, o'yinlar va hatto interaktiv onlayn darslik) bitta platformada qulay tarzda to'planadi, bu yerda bajarilgan vazifalar (masalan, bo'shliqlarni to'ldirish uchun grammatik mashqlar, tarjimalar, insholar) avtomatik ravishda tekshiriladi. Sinf va uy vazifalarining bunday strukturalangan birlashmasi o'quv jarayonini boy, xilma-xil va samarali qiladi. Chunki aralash ta'limning bu modelida uyda talabalar nazariyani o'rganadilar, sinfda esa amaliy ko'nikmalarni mashq qiladilar va o'qituvchiga savollar berishadi.

O'ziga xos xususiyatlari. Raqamli savodxonlik - bu jamiyatda samarali ishtirok etish uchun axborotga kirish, boshqarish, integratsiyalash, tahlil qilish va baholash, yangi bilimlarni yaratish, boshqalar bilan muloqot qilish uchun raqamli aloqa texnologiyasidan foydalanishga bo'lgan individual qiziqish, munosabat va qobiliyat shakli hisoblanadi. Flipped classroom texnikasidan ta'lim jarayonida foydalanish aynan raqamli savodxonlikni talab etadi.

Flipped classroom podkast (podcast) va translatsiya (oldindan vodkasting)dan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Podkast (Podcast) -bu o'qituvchi Internet orqali yuboradigan audio fayl (audio ma'ruza). Qabul qiluvchilar podkastlarni stasionar va mobil qurilmalariga yuklab olishlari yoki ma'ruzalarni onlayn tinglashlari mumkin.

Vodkast (Vodcast ot video-on-demand.- talab bo'yicha videofayldan iborat) podkast bilan bir xil, faqat videofayllar bilan ishlanadigan qism hisoblanadi.

Pre-vodkasting (Pre-Vodcasting) -bu o'qituvchi o'z ma'ruzasi bilan talabalar mavzuni darsdan oldin mavzu haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun ishlab chiqadigan o'quv materiallarining elektron jamlanmasi hisoblanadi.

Maxsus dasturiy ta'minot yordamida o'quv jarayonida podkastlardan foydalanish texnologiyasi mavjud:

SMS (tarkibni boshqarish tizimi) – o'quv materiallari tarkibini yaratish va boshqarish uchun ishlatiladi;

LMS (ta'limni boshqarish tizimi, masofaviy o'qitish tizimi) – o'quv materiallariga kirishni, ortga qaytish, gorizontal aloqalarni tashkil qilishni va hokazolarni ta'minlaydi.

Bu o'quv modeli tarkibida uy vazifasi ham darsning boshqa bosqichlari qatorida, vodkast texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi: ya'ni video ma'ruzani tomosha qilish, o'quv matnlarini o'qish, tushuntirish chizmalarini ko'rib chiqish, mavzuni dastlabki o'zlashtirish uchun testlardan o'tish uy ishining asosini tashkil etadi.

Nima uchun samarali hisoblanadi?

Flipped classroom («Teskari sinf») modeli talabaga mavzuni o'rganish uchun qancha vaqt kerak bo'lsa, shuncha vaqt sarflashga imkon beradi. Talaba istalgan vaqtda ma'ruza yozuvini to'xtatib qo'yishi yoki orqaga qaytarishi mumkin. O'qituvchi monologini esa auditoriyada orqaga qaytarish mumkin emas.

An'anaviy o'qitish modelida barcha talabalarning bir vaqtda bir xil tezlikda o'zlashtirishi talab etiladi, lekin buni amalga oshirish imkonsiz. Shu sababli o'qituvchi tez o'zlashtiradigan talabalar va sekin o'zlashtiruvchi talabalar o'rtasidagi oraliq holatga mo'ljallab darsni tashkil qiladi. «Flipped classroom» esa mavzuni to'liq tushungan talabaga keyingi mavzuga o'tib ketish imkoniyatini beradi.

Yana bir samarali tomoni shundaki, o'quv materialining nazariy qismi oldindan talabalarga tanish bo'lganligi sababli auditoriyadagi dars mashg'uloti jonli, bahs-munozaraga boy bo'ladi va u talabalarda motivatsiyani yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi.

Agar talaba uzoq vaqt kasal bo'lsa yoki auditoriyada bo'lolmasa ham, darslarni onlayn ko'rishi mumkin. Xuddi shu narsa o'qituvchilarga ham tegishli: o'qituvchilarning dars jadvali yanada moslashuvchan bo'lib boradi. Onlayn ma'ruzalarni boshqalar, hatto otanonalar ham kuzatib borish imkoniyatiga egaligi o'qituvchini yanada mas'uliyatli bo'lishga, darsga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishga, darsni qiziqarli va samarali tashkil etish uchun o'z ustida ko'proq ishlashga, izlanishga majbur qiladi.

Zoom, Skype va boshqa mobil platformalar Facebook, telegram, instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar ham ta'lim berish vositasiga aylanadi.

Bu model o'quv jarayoniga yondashuvni individuallashtirishga imkon beradi. Ya'ni, sinfda o'qituvchi endi uy vazifasini bajarishdan bosh tortadigan yoki o'zlashtirishda orqada

qolayogan talabalar bilan ishlash uchun ko'proq vaqtga ega bo'ladi.

Talabalarda asta-sekinlik bilan o'quv materiallari mazmunini mustaqil o'rganish va yuqori sifatli, muammoli savollar berish malakasi shakllanib boradi. Shuningdek, auditoriyada talaba muvaffaqiyatli ishlashi uchun ham o'quv materialining nazariy qismini uyda o'rganish ehtiyoji qo'shimcha motivatsiya yaratadi.

O'qitishning bu modelini amalga oshirishda Google Classroomdan foydalanish maqsadga muvofiq. O'qituvchilar undan turli ko'rinishda foydalanishlari mumkin: uy vazifasini onlayn yuborish, bajarilgan vazifalar haqida o'z fikr-mulohazalarini qoldirish, navbatdagi darslar haqida e'lon qilish, suhbatda onlayn muloqotni saqlash, o'quv topshiriqlarni to'g'ridan-to'g'ri yuborish.

Har bir talaba mustaqil ravishda video tomosha qiladi va matnlarni o'z tezligida tushunib olguncha ko'p marta eshitishi o'qish, yozish, tinglash, nutq amaliyoti va so'z boyligini oshirishga yordam beradi va talabalarda mustaqillikni rivojlantirishga imkon beradi.

Flipped classroom («*Teskari sinf*») modelining kamchiliklari.

O'qitishning bu modeli ham boshqa yondashuvlar singari kamchiliklardan holi ideal yondashuv emas.

Jumladan, talabalar uchun yuqori sifatli kontent yaratish o'qituvchidan juda katta energiya, vaqt va resurslarni talab qiladi. O'qituvchi onlayn/ offlayn rejimida ishlashi uchun yuqori darajadagi kompyuter savodxonligi va ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Mashg'ulot dasturi qiziqarli bo'lishi va talabalarni rag'batlantirishi uchun qo'yilgan vazifalar talabalarning qiziqishlari va turmush tarziga mos kelishi, matnlar emas, ko'proq videolar tayyorlanishi hamda bu videolar qiziqarli, qisqa bo'lishi lozim. Bunda barcha talabalarning yoshi, jinsi, dini, ijtimoiy mavqei, o'quv uslubi va maqsadlarini hisobga olish kerak.

Dastlab o'quv materiallari kontentini tayyorlash uzoq vaqt talab qilishi mumkin, shuningdek talabalar o'zlarini o'qituvchi nazorati va qo'llab-quvvatlashi ostida ekanligini his qilishlari kerak. Talabalar tomonidan bajarilgan vazifalar haqida fikr-mulohazalar o'z vaqtida bildirilishi lozim.

Bu usul "o'qituvchining kamroq gapirish vaqti" qoidasiga juda mos keladi. Agar talabalarga maksimal suhbat amaliyoti berilsa, darslarni diversifikatsiya qilishni va oxirida o'ziga dam olishni istagan o'qituvchi bu modelni sinab ko'rishi lozim.

Talabalarning zamonaviy avlodi axborot texnologiyalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlar qurshovida o'sdi. Ular dunyoni shularsiz tasavvur qila olmaydi. Gadgetlar va raqamli manbalar, axborot kommunikatsiyalari sohasida talabalarning yuqori malakaga egaligi kabi xususiyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini optimallashtirish va faollashtirish, talabalarning kognitiv uslublari; mehnat bozorining o'zgaruvchan tartibi, malakali mutaxassis va talabalarning umumiy ommaviy tayyorgarligini hisobga olish talab etiladi.

O'qituvchi yangi materialni qismlarga ajratishi, savollar tayyorlashi ya'ni, auditoriyada ilgari bajarilgan ish hajmini ikki qismga taqsimlashi lozim. Buni bajarishda texnik talablar muhim tarkibiy qism bo'lib xizmat qiladi: Internetga kirish, kompyuter uskunalari, dasturiy ta'minot va boshqalarni hisobga olgan holda, auditoriya vaqtini amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish va muayyan ko'nikmalarni rivojlantirishga bag'ishlash taklif etiladi.

O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

O'qituvchilar raqamli savodxonlik deb nomlangan pedagogik mahoratda umumlashtirilgan ommaviy axborot vositalari, axborot va AKT sohalarida ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Flipped classroom («*Teskari sinf*») modelini joriy etishni rejalashtirishdan oldin o'qituvchi darsning maqsadlarini aniqlab olishi kerak, darsning mazmuni va o'rni, vaqtning an'anaviy va onlayn yondashuvga nisbati, o'quv materiallari manbalari ro'yxati va baholash tizimini ishlab chiqish talab etiladi.

O'quv materialining barcha qismi auditoriyadan tashqarida mustaqil o'rganish uchun ishlatilishi mumkin emas, shuningdek har bir dars bu model asosida bo'lishi talab etilmaydi.

Agar biz B. Blum taksonomiyasiga murojaat qilsak, unda uyda ishlash uchun o'quv materialidan bilishning dastlabki ikkita bosqichi (bilish va tushunish bosqichi) dagi vazifalarni berish tavsiya etiladi. Bu bosqichdagi vazifalarni bajarish talabalarning individual ta'lim uslublarini aks ettiradi: ularning har biri yodlash va tushunish uchun har xil texnikadan foydalanadi va turlicha vaqt sarflaydi. B. Blum taksonomiyasi asosida o'quv topshiriqlarini yaratishda oid tavsiyaviy savollar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Bosqichlar	Savol turlari	Namunaviy topshiriqlar
Bilim	Nima? Qachon? Bu kim edi? Bu haqiqatmi...? Qanday tushuntirish mumkin? Keyin nima bo'ldi ...? Siz qo'ng'iroq qila olasizmi?...? Nima bo'lganini tasvirlab bering ...? Kim bilan gaplashdi ...? Buning sababini ayta olasizmi?...? Qiymatni toping ...? Bu haqiqat yoki yolg'on ...?	Nom bering ... Formulani yozing ... Ro'yxat ... Asosiy voqealar ro'yxatini tuzing. Voqealar jadvalini tuzing. Faktlar jadvalini tuzing. Hammasini tarmiblang hikoya / maqola / Ko'rsatadigan diagramma tuzing ..
Tushunish	Qanday o'xshashliklar bor? Qanday faktlar yoki fikrlar mavjud? Qanday taxminlar, faktlar tasdiqlaydi...? Buni qanday tushunish kerak? Asosiy fikr, g'oya nima? Nimani taqqoslash mumkin? Siz qisqacha tavsif yozishingiz mumkin? Sizningcha, bundan keyin nima bo'lishi mumkin ? Ular orasida qanday farqlar mavjud? Siz nimani nazarda tutayotganingizga misol keltira olasizmi? Siz ta'rif bera olasizmi?	Iborani tugating ... Siz nimani bilib oldingiz ... Nima uchun ... Ifodani o'zgartiring ... O'zaro bog'liqlikni tushuntiring ... O'z so'zlaringiz bilan ayting... Voqealar ketma-ketligini tasvirlash uchun oqim jadvalini tayyorlang. Rang berish kitobini yarating. O'zingiz yoqtirgan narsani chizing.
Qo'llash	Agar...bo'lsa nima bo'ladi? Bu qanday bog'liq? Qanday misollar keltira olasiz? Qanday qo'llash mumkin? Mumkin bo'lgan natijalar qanday ...? Siz qanday omillarni o'zgartirgan bo'lardingiz? O'zingizning tajribangiz uchun ishlatiladigan usulni qo'llashingiz mumkinmi? Berilgan ma'lumotlarga asoslanib, ko'rsatmalar to'plamini ishlab chiqing?	Qo'llash maqsadini tushuntiring... Uy vazifasini bir necha usul bilan hal qiling ... Ushbu hodisani tushuntirishga imkon beradigan nazariy faktlarni keltiring. Tavsiya etilgan gipotezani tekshiring ... Xulosalar ... O'quv sohasidagi g'oyalarni taqdim etadigan jumboq o'yinini yarating.
Tahlil	Tasniflash uchun qanday asoslarni taklif qilasiz? Qanday xulosa chiqarishim mumkin? Guruhlash mumkinmi? Qaysi qismlar yoki xususiyatlar...? Qanday voqealar sodir bo'lishi mumkin? Asosiy mavzu nima edi ...? Boshqa mumkin bo'lgan natijalar sifatida nimani ko'rasiz? Nima uchun o'zgarishlar yuz berdi? Qanday qilib ... o'xshash ...? Harakat uchun qanday motivlar bor ? O'yinning burilish nuqtasi nima edi? Muammo nima edi ...?	Tuzilishi nima ... Muvofiqlikni toping... Buning natijasi nima ... Taqqoslang ... Sabablarini tahlil qiling ... Ma'lumot to'plash uchun so'rovnomanini ishlab chiqish. Yangi mahsulotni sotish haqida reklama yozing. Muhim bosqichlarni ko'rsatish uchun jadval tuzing. Tanlangan ma'lumotni tasvirlash uchun grafik tuzing. Muammoni hal qilish rejasini tuzing. San'at asari, filmni shakli, tuzilishi jihatidan ko'rib chiqing.
Sintez	Buni qanday taqqoslash mumkin? Qaysi variant yaxshiroq? Ushbu qaror qanday foyda keltiradi? Siz bunga rozi bo'lasizmi...? Siz qanday xulosaga kelishingiz mumkin? Qanday qilib loyihalashtirasiz...? Agar siz birlashtirsangiz nima bo'ladi...? Mumkin bo'lgan echimni ko'rsating? Agar siz barcha manbalarga kirish imkoniga ega bo'lsangiz, uni qanday hal qilgan bo'lardingiz ...?	O'zingizning yechimingizni toping ... Algoritmi taklif qiling ... Muqobil variantni toping ... Mumkin bo'lgan o'zgarishlar qanday ... Tizimlashtirish ... O'rganing ... Sport inshootlarini joylashtirish uchun maydonchani loyihalashtiring. Yozuv, kitob yoki jurnal uchun muqovani ishlab chiqish
Baholash	Qiymat va ahamiyati nimada? Baholash uchun qanday mezonlardan foydalanasiz? Qanday dalillarni keltira olasiz? Siz qanday echimlarni taklif qilishingiz mumkin? Buning yaxshiroq echimi bormi? Qanchalik samarali ...? Muammoni hal qilish uslubingiz standartga mos keladimi?	Mantiqni baholang ... Afzalliklarni tavsiflang ... Baholash mezonlarini belgilang ... Mos keladimi ... Siz nima deb o'ylaysiz ... Xulosa qiling Ustuvorlik va reytinglarni ko'rsating. Alohida qiziqish uyg'otadigan masala bo'yicha munozara o'tkazing.

Fikrlash (bilish)ning yuqori bosqichlari (qo'llash, tahlil qilish, sintez, baholash)ga oid o'quv topshiriqlari esa o'qituvchi bilan bevosita dars jarayonidagi yuzma-yuz muloqot vaqtida bajarilishi tavsiya etiladi.

Audio ma'ruzalar, matnlarni o'qish, taqdimotlar, viktorinalar uchun testlar, shuningdek baholash mezonlarini yaratish o'qituvchidan ko'p vaqt va kuch talab etadi. Biroq, barcha materiallarni o'zingiz yaratishingiz shart yemas, turli mavzularda juda ko'p miqdordagi

video materiallar mavjud, o'quv materiallarini tanlash va ishlab chiqishda youtube, ted-talks dan olingan video ma'ruzalardan ham foydalanish mumkin. Bunda tanlangan video, haqiqiy matnlar, asosiy manbalar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, o'qituvchining o'z mualliflik ishlanmalarini ko'rish yoki o'qish vaqti 10-15 daqiqadan oshmasligi va tanlangan material darsning maqsadlariga javob berishi lozim.

Baholash bosqichida o'qituvchi talabalarni to'ldirilgan ma'lumotlar bilan tanishtirishi kerak, berilgan vazifalar va ularni baholash mezonlari aniq bo'lishi lozim. Bunda nazoratning turli shakllari: avtomatik tekshirish tizimi bilan integratsiyalashgan test, ochiq evristik vazifalar, guruh loyihalari, sxemalar, intellektual xaritalar, Google Forms yordamida yaratilgan anketalar va boshqalar foydalanish lozim.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda ushbu texnologiya nafaqat shaxsiy balki o'qituvchi va talabalar uchun ham kasbiy rivojlanish vositasidir. O'qituvchi ta'lim mazmunini tanlagach, darsning didaktik ta'minotni doimiy ravishda takomillashtirish ustida ishlaydi, darsni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish malakalarini rivojlantiradi.

Auditoriyadagi ta'lim jarayonini imkon darajasida amaliyotga yo'naltirilganligi, talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, ularda samarali muloqot ko'nikmalari orqali o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Nazariy mashg'ulotlar ham amaliyotga yo'naltirilganligini hisobga olsak, mashq qilish uchun vaqt yetarli bo'ladi nazariy bilimlarni amalda qo'llash, ya'ni jarroh uchun o'qilgan ilmiy ishlar soni emas, balki muvaffaqiyatli bajarilgan operatsiyalar soni muhim ekanligini tushunib olish mumkin bo'ladi. Darsni amaliyot viktorinalar, o'yinlar, mahorat darslari, loyihalar, munozaralar, simulyasiyalar, vazifalar va holatlarni tahlil qilish, tajribalar shaklida o'tkazilishi an'anaviy ta'lim tizimining kamchiliklaridan biri hisoblanadigan talabalarning nazariy bilimlarni amalda qo'llay olmasligi holatini kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa qilish mumkinki, ushbu texnologiya tajriba doirasida o'zini yaxshi isbotladi va umuman olganda, o'rta maktablarda qo'llanilganda ham ijobiy natijalar kutilmoqda

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-son qarori. <https://lex.uz/docs/4749364>

2. Варюхина, А. В. Практическое применение и эффективность использования технологии Flipped classroom в общеобразовательных школах // Молодой ученый. — 2021. — № 32 (374). — С. 75-77. — URL: <https://moluch.ru/archive/374/83548/> (дата обращения: 27.03.2023)

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя.— 2-е изд., М.: АРКТИ, 2003.— 192 с.

2. Biggs J., Tang C. Teaching for quality learning at university: What the student does. Open University Press, New York, 2011. 389 p.

3. Tucker B. The Flipped Classroom. Education Next, 2012, retrieved from: <http://educationnext.org/the-flipped-classroom/> (accessed September 17, 2018). 129

4. Lage M., Platt G. & Treglia M. Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment, The Journal of Economic Education, 31(1), 2000, 30 p.

5. Bergmann J., Overmyer J., & Wilie B. The Flipped Class: Myths vs. Reality – THE DAILY RIFF–Be Smarter. About Education. Thedailyriff.com, 2015, retrieved from: <http://www.thedailyriff.com/articles/the-flipped-class-conversation-689.php> (accessed September 23, 2018).

6. Зверева Е.В. Модель перевернутого урока (Flipped Classroom) как одна из техник обучения иностранному языку // Инновационность и мультикомпетентность в преподавании и изучении иностранных языков. М., 2015. С. 446–456.

7. Bergmann, J. Flip your classroom : reach every student in every class every day / J. Bergmann, A. Sams. – USA : ISTE and ASCD, 2012. – 124 p.

8. Mamarajabov M.E. «Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish» mavzusidagi 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. -YE.:2022.-309 bet.

9. Мурзагалиева А.Е., Утегенова Б.М. Сборник заданий и упражнений. Учебные цели согласно таксономии Блума – Астана: АОО «Назарбаев Интеллектуальные школы» Центр педагогического мастерства, 2015. – 54 с. <https://kst.nis.edu.kz/wp-content/uploads/2018/02/Uchebnye-tseli-soglasno-taksonomii-Bluma.-Sbornik-zadaniy-i-uprazhnenij.pdf>

MALAKALI DZYUDochILARNING KOMBINASIOn VA TAKTIK HARAKATLARINI INDIVIDUALLASHTIRISH JARAYONINI BOSHqARISH TEXNOLOGIYASI

*Kimsanboev Javoxir Abdulboqi o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Taekvondo va sport faoliyati fakulteti "Sport menejmenti" kafedrasi stajor o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada malakali dzyudochilarning kombinatsion va taktik harakatlarini individuallashtirish jarayonini boshqarish texnologiyasi haftalik tayyorgarlik darajasiga o'zgartirishlar kiritish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Dzyudo, xujum xarakatlari, texnik - taktik tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik.

ТЕХНОЛОГИЯ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ КОМБИНАЦИОННЫХ И ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ДЗЮДОИСТОВ

*Кимсанбоев Жавохир Абдулбоқи ўғли
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Преподаватель-стажер кафедры «Спортивный менеджмент» факультета
тхэквондо и спортивной деятельности,*

Аннотация. Совершенствование физического и технического мастерства дзюдоистов через технологию управления процессом индивидуализации комбинаторно-тактических действий квалифицированных дзюдоистов.

Ключевые слова: дзюдо, атакующие действия, технико-тактическая подготовленность, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка.

TECHNOLOGY FOR MANAGING THE PROCESS OF INDIVIDUALIZATION OF COMBINATION AND TACTICAL ACTIONS OF QUALIFIED JUDOISTS

*Kimsanboyev Javoxir Abdulboqi o'g'li
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Intern teacher of the Department of «Sports Management» of the Faculty of Taekwondo
and Sports Activities,*

Annotation. In the article, the technique of controlling the process of individualization of combined and tactical movements of skilled judoka reveals ways to make changes to the level of weekly training.

Key words: : judo, attacking actions, technical and tactical readiness, general physical preparation, special physical preparation.

Dolzarliligi. Boshqa sport turlari kabi dzyudo sport turidaham yildan yilga musobaqa mashqlarini oqilona bajarish usullari takomillashib borilmoqda. Shu bois dzyudo sport turi musobaqa faoliyatlarida sportchilarni kombinatsion qobiliyatlari va texnik-taktik tayyorgarliklari samaradorligini oshirish juda muhimi omil hisoblanadi.

Dzyudo sport turida kombinatsion qobiliyatlar bilan texnik-taktik harakatlarni bajarish muvofiqligi, tayyorgarlikni yuqori darajasi samaradorligini oshirish hamda aniqlash yuzasidan biz tomonimizdan ilk bora ixtiro etilib amaliyotga joriy qilingan "Maxsus mashqlar majmuasi" dzyudochilarni maxsus jismoniy tayyorgarligi va kombinatsion qobiliyatlari bilan texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishga mo'ljallangan asosiy mashg'ulot vositasi hisoblanadi.

Ishning maqsadi: Mashg'ulot jarayonida dzyudochilarning kombinatsion qobiliyatlari va texnik-taktik harakatlari samaradorligi "Maxsus mashqlar majmuasi" sport uskunasi yordamida amalga oshirishni rejalashtirishdan iborat.

Yetarli darajada har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka erishish ko'p jihatdan trenirovka vositalari va uslublarining oqilona tanlash, ko'p yillik mashg'ulotlar jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlikning optimal nisbatlariga bog'liq. Demak, maxsus tayyorgarlik umumiy tayyorgarlikning mustahkam poydevoriga tayanadi va jismoniy tayyorgarlik ijobiy natija samarasini yuzaga keltiradi.

Muayyan sportchini tayyorlashdagi trenerning katta tajribasi shu sportchiga xos bo'lgan xususiyatlarni, uning jismoniy tayyorgarligining zaif va kuchli tomonlarini har jihatdan o'rganishga, tayyorgarlikning eng samarali uslublari hamda vositalarini, trenirovka yuklamasini rejalashtirish variantini aniqlashga yordam beradi. Bu o'z navbatida, mashg'ulot jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish hamda shu asosida sport natijalari darajasini

ushlab turishga imkon beradi.

Sport natijalarining o'sishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri - bu trenirovka jarayonini tashkil qilish shakllarini takomillashtirishdir. Ma'lumki bugungi kunda yuqori malakali sportchilarga bo'lgan talablarda sportchi bir kunda ikki, ba'zida esa uch marta trenirovka o'tkazishi kerak. Sportchilar mashg'ulot o'tash joyidan uzoq yashaydigan sharoitlarda bunday trenirovkalarni belgilangan tartibda o'tkazish katta qiyinchiliklar tug'diradi, gohida esa umuman imkoni bo'lmaydi.

Tabiiyki, maxsus tashkil qilingan o'quv trenirovka mashg'ulotlari samaradorligi juda yuqori bo'ladi. Yuqori malakali sportchilar uchun o'quv trenirovka mashg'ulotlarining o'zgartirilishi ham shu bilan tushuntiriladi.

Biroq, maxsus sport turlari bo'yicha o'quv trenirovka mashg'ulotlari va musobaqalar o'tkazishga mo'ljallangan, yetarlicha jihozlanmagan maxsus sport inshooti, o'yingoh sahni, musobaqalar joyi, shuningdek tarbiyaviy ishlar va tartib-intizom yaxshi yo'lga qo'yilmaganda ko'tilgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Nufuzli musobaqalar oldidan bo'ladigan mashg'ulotlar, musobaqa bo'lib o'tadigan joyda yoki musobaqa qoidalari shartiga juda yaqinlashtirilgan sharoitda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Trenirovka mashg'ulot vazifalari hajmi va yo'nalishi rejalashtirishda maxsus trenirovka vazifalari miqdorini oshirib, umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik yuklamalarini esa musobaqa oldi bosqichida kamaytirishi lozim.

Bevosita musobaqa oldidan hammom va 1-2 kun dam olishni rejalashtirish kerak.

Dzyudo sport turida O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi va xalqaro turnirlarga tayyorgarlik ko'rish maqsadida malakali dzyudochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish uslubini ishlab chiqishni taqozo etdi.

Biz olib borayotgan tadqiqot ishi tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanib har bir guruhda shug'ullanish staji 8 yildan kam bo'lmagan

12 nafar dzyudochilardan iborat bo'lib, tajribada 24 nafar malakali dzyudochilar ishtirok etdi. Malakali dzyudochilarda yillik rejalashtirilgan mashg'ulot soati 1456-soat va haftalik rejalashtirilgan mashg'ulot soati 28-soatdan iborat. Biz amaliyotga tatbiq qilingan dastur yuqorida keltirilgan soatlardan chetga chiqmagan. Bu dastur yakshanbadan tashqari haftaning har kuniga mo'ljallangan. Mashg'ulotlar kuning birinchi yarmi va kuning ikkinchi yarmida bo'lib o'tadi (1-jadvalga qarang).

Dushanba kuni ertalabki mashg'ulotlar "ZAJA" sport uskunasi bajariladigan mashqlar bo'lib, yakka tartibda va juftlikda uch soat davom etadi. Bunga sabab tavsiya etilgan majmuada juftlikda bajariladigan mashqlar mavjud. Kunning ikkinchi yarmida mashg'ulotlar tatamedaga bo'lib o'tadi. Tatamedagi mashqlar ham ikkiga bo'linadi, ya'ni maxsus mashqlar va neyva holatidagi mashqlar. Bunga sabab biz mashg'ulotning faqatgina olib borilayotgan maxsus mashqlar majmuasiga tayanib qolmay, neyva holatida bajariladigan mashqlarni e'tibordan chetda qoldira olmasdik.

Oxirgi yillarda o'tkazilgan musobaqa faoliyatini tahlil qilganimizda dzyudochilar neyva holatida kurashni davom ettirishgan. Bu mashg'ulotga umumiy ikki soat ajratilgan. Shundan bir soat tatamedagi maxsus mashqlar, qolgan bir soati esa neyva holatidagi usullarni davom ettirishga mo'ljallangan.

Seshanba kuni ertalabki mashg'ulotlar ochiq havoda bo'lib o'tadi. Bunda dzyudochilar umumiy ikki soati davomida mashg'ulot olib borishadi. Shundan bir soati umumiy jismoniy tayyorgarlikka qolgan bir soat maxsus jismoniy tayyorgarlikka ajratiladi. Kunning ikkinchi yarmida mashg'ulotlar tatamedaga bo'lib o'tadi. Bu mashg'ulotga umumiy uch soat ajratilgan. Shundan bir yarim soat tatamedagi maxsus mashqlarga, qolgan bir yarim soat neyva holatidagi usullarni davom ettirishga sarflanadi.

Chorshanba kuni ertalabki mashg'ulotlarda "ZAJA" sport uskunasi bajariladigan mashqlar bo'lib, yakka tartibda va juftlikda ikki soat davomida bo'lib o'tadi. Shundan bir soati juftlik mashqlari qolgan bir soati yakka tartibda bajariladigan mashqlarga ajratiladi. Kunning ikkinchi yarmida dzyudochilar tiklanish tadbirlari vositalarini qo'llashga sarflashadi. Bu tiklanish jarayoni organizmni toliqish holatlaridan holi bo'lishga yordam beradi. Bunga uyqu, massaj, sauna, sovuq dush, issiq dush, issiq vanna, zagar (quyosh nurida toblanish) tabiat qo'yniga sayohat qilishlari kiradi.

Payshanba kuni ertalabki mashg'ulotlar ochiq havoda bo'lib o'tadi. Bunda dzyudochilar umumiy 2 soat davomida mashg'ulot olib borishadi. Shundan, bir soati umumiy jismoniy tayyorgarlikka, qolgan bir soati maxsus jismoniy tayyorgarlikka ajratiladi. Kunning ikkinchi yarmida mashg'ulotlar tatamedaga bo'lib o'tadi. Bu mashg'ulotga umumiy uch soat ajratilgan bo'lib, bir yarim soati tatamedagi maxsus mashqlarga, qolgan bir yarim soat esa neyva holatidagi usullarni davom ettirishga mo'ljallangan.

Juma kuni ertalabki mashg'ulotlarda "ZAJA" sport uskunasi bajariladigan mashqlar yakka tartibda va juftlikda 3 soat davomida bo'lib o'tadi. Shundan bir yarim soati juftlik

mashqlari uchun, qolgan bir yarim soat yakkalikda bajariladigan mashqlarga ajratiladi. Kunning ikkinchi yarmida dzyudochilar uchun tatamedada bellashuv bo'lib o'tadi. Bellashuvlar ham trenerlar ko'rsatmasi bilan turli usulda o'tkazish mumkin. Bunga 2 soat ajratiladi.

Shanba kunigi ertalabki mashg'ulotlar ochiq havoda bo'lib o'tadi. Bunda dzyudochilar umumiy 2 soat davomida mashg'ulot olib borishadi. Shundan bir soati umumiy jismoniy tayyorgarlikka, qolgan bir soati maxsus jismoniy tayyorgarlikka ajratiladi. Kunning ikkinchi yarmida dzyudochilar tiklanish tadbirlari vositalarini qo'llashga sarflashadi. Bunga 2 soat vaqt ajratiladi.

Yillik reja birinchi yillik, keyin oylik va haftalik rejalar asosida tuziladi. Biz mashg'ulotlarning kunlik me'yorini quyidagicha berib o'tdik (2-jadvalga qarang).

2-jadval
ombinatсион qobiliyat va texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan dastur

T/r	Hafta kunlari	1- mashg'ulot		Mashg'ulot vaqti (soat)	Umumiy soat	2- mashg'ulot	Mashg'ulot vaqti (soat)	Umumiy vaqti (soat)	Jami	Yuklama me'yori	
1.	Dushanba	ZAJA sport uskunada bajariladigan mashqlar	yakkalikda	1,5	3	Tatameda maxsus mashqlar	1	2	5-soat.	O'rta	
			juftlikda	1,5		Nevaza holatidagi mashqlar	1				
2.	Seshanba	Ochiq havoda UJT yoki MJT	UJT	1	2	Tatameda maxsus mashqlar	1,5	3	5-soat.	Yuqori	
			MJT	1		Nevaza holatidagi mashqlar	1,5				
3.	Chorshanba	ZAJA sport uskunada bajariladigan mashqlar	yakkalikda	1	2	Tiklanish tadbirlari	2 soat.		4-soat.	Past	
			juftlikda	1							
4.	Payshanba	Ochiq havoda	UJT	1	2	Tatameda maxsus mashqlar	1,5	3	5-soat.	O'rta	
			MJT	1		Nevaza holatidagi mashqlar	1,5				
5.	Juma	ZAJA sport uskunada bajariladigan mashqlar	yakkalikda	1,5	3	Bellashuv (randori)	2 soat.		5-soat.	Yuqori	
			juftlikda	1,5							
6.	Shanba	Ochiq havoda	UJT	1	2	Tiklanish tadbirlari	2 soat.		4-soat.	Past	
			MJT	1							
7.	Yakshanba	Dam olish kuni					Umumiy 28 soat				

Izoh: UJT-umumiy jismoniy tayyorgarlik, MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik, TTT-texnik-taktik tayyorgarlik.

2-jadval

Dzyudochilarning tayyorgarlik davridagi haftalik mashg'ulot rejası (tatamedada va ZAJA -sport uskunada bajariladigan maxsus mashqlar majmuasi) (n=12)

T/r	Maxsus mashqlar (gilamda)	Bajariladigan kunlar			Maxsus mashqlar (ZAJA-sport uskunada)	Bajariladigan kunlar		
		Dushanba	Seshanba	Payshanba		Dushanba	Chorshanba	Juma
Mashqni bajarish vaqti								
1	D.h. Uke kuragida yotibdi. To'g'ri ustida turgan xolatdan oldinga engashib, ushlab kolishni amalga oshiradi (bu yerda oyoqlar bilan qisilgan oyoqlarni bo'shatib olgandan so'ng ushlab qolishni utkazish varianti berilgan).	2	3	3	Nevaza holatida oldinga yurish	3	2	3
2	D.h. ikkala dzyudochi ham bir xil, ya'ni raqibning uzoqdagi oyog'ining to'piq qismidan bir qo'l bilan ushlagan holda nevazada. Buyruq berilishi bilan dzyudochilar raqibdan oldin yuqoriga chiqishga harakat qiladi.	2	3	3	Nevaza holatida orqaga yurish	3	2	3
3	D.h. Uke orqasi bilan yotibdi, to'g'ri qo'ndalangiga ushlab qolishni amalga oshirmoqda. Oyoqdan to'g'gan xolda ko'ndalangiga ushlab qolish variantini ko'rsatamiz. Buyruq berilishi bilan hujumchi texnik ballarni olishga harakat qiladi. Himoyalovchi bunga qarshilik ko'rsatadi.	2	3	3	Nevaza holatida yon tomonga yurish	3	2	3
4	D.h. Bo'g'ish usullari yordamida raqibning bo'yidan qisish orqali, raqiblardan biri uning xarakterlarini nazorat ostiga oladi. Buyruq berilishi bilan hujumchi texnik ballarni olishga harakat qiladi. Himoyalovchi bunga qarshilik ko'rsatadi.	2	3	3	Qo'llarga tayangan holda orqaga yurish	3	2	3
5	D.h. bo'g'ish ukemning orqa tomonidan, kurtaning ikkala oldingi qaytarmasidan ushlagan xolda amalga oshiriladi. Buyruq bo'lishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qiladi.	2	3	3	Qo'llarga tayangan holda yon tomonga yurish	3	2	3
6	D.h. dzyudochilarning ikkalasi oyog'i uchida o'tirib, yelkalarini ushlagan holda buyruqni kutishadi va buyruq berilishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qilishadi.	2	3	3	Raqibni teskari ushlab oldinga va orqaga yurish	3	2	3
7	D.h. dzyudochilar bir oyoqda o'ng qo'lini qo'ltig'i tagidan va chap qo'lini tashqaridan birlashtirib turadi. Buyruq bo'lishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qilishadi.	2	3	3	Yotgan xolda kurashda joyni o'zgartirish	3	2	3

3 D.h. Uke orqasi bilan yotibdi, to'g'ri qo'ndalangiga ushlab qolishni amalga oshirmoqda. Oyoqdan to'g'gan xolda ko'ndalangiga ushlab qolish variantini ko'rsatamiz. Buyruq berilishi bilan hujumchi texnik ballarni olishga harakat qiladi. Himoyalannuvchi bunga qarshilik ko'rsatadi.

2-jadval davomi

8	D.h. dzyudochilar bir oyoqda turib, ikkinchi oyoq'ini bilan bir-birining oyoqlarini ichkaridan chirmashtirib va bir qo'li bilan raqibini qo'lini ushlab, ikkinchi qo'lini beliga qo'yib buyruqni kutadi. Buyruq bo'lishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qiladi.	2	3	3	Oldinga tezik bilan yurish	3	2	3
9	D.h. dzyudochilar bir oyoqda turib, o'ng qo'lini bir-birini ulkasiga qo'yib buyruqni kutadi. Buyruq bo'lishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qilishadi.	2	3	3	Orqaga tezik bilan yurish	3	2	3
10	D.h. ikkala kurashchi ham bir xil, ya'ni raqibini kimanosidan ushlab bilan o'ng qo'l ustidan chap qo'l pastdan bel qismidan ushlanadi. Gavda qismini to'g'ri ushlab, tik turadi. Buyruq berilishi bilan dzyudochilar raqibidan oldin yutuq ballarni olishga harakat qilishadi.	2	3	3	Oyoqlarni raqibga ushlab qo'larga tayangan holda yurish	3	2	3
11	D.h. dzyudochilar bir oyoqda turib, ikkinchi oyoq'ini bilan bir-birining oyoqlarini ichkaridan chirmashtirib va bir qo'li bilan raqibini yengidan ushlab, ikkinchi qo'li bilan belbog'dan ushlab buyruqni kutadi. Buyruq bo'lishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qilishadi.	2	3	3	Qo'larga tayangan holda oldinga yurish	3	2	3
12	D.h. dzyudochilar bir oyoqda o'ng qo'lini qo'ltig'ini tagidan chap qo'lini tashqaridan ushlab turadi. Buyruq bo'lishi bilan yutuq ballarni olishga harakat qilishadi.	2	3	3	O'tirib turish 10 marta	3	2	3
13	D.h. Bilakni ukeming bo'g'ziga qo'yib, panjalami chirmashtirib va orqa to'nn yelka xamda bilak bilan bosib, to'g'ri ukemi bo'g'adi. Uke muk tushgan xolatda to'g'ri uning qo'ltiqdari ostidan ikki qo'li bilan uni kimono kaytarmalaridan ushlab oladi. Buyruq bo'lishi bilan hujumchi raqibini ko'tarishga harakat qiladi. Himoyalannuvchi o'zini ko'tarishga yo'l qo'ymasdan harakatlanadi.	2	3	3	Raqibni muvozanatdan chiqarish	3	2	3
14	12 nafar dzyudochini mashqni bajarishga sarflagan vaqti (daqiq)					26	26	39
15	Mashqni bajarishga sarflangan vaqt (daqiq)					52	78	78
16	Tanaffus (dastlabki holatni qabul qilish uchun ketgan vaqt) (daqiq)				ZS-sport uskunasi	8	12	12
Jami		60	90	90		90	60	90

Maxsus mashqlar soni tatamedda 13 tani tashkil qiladi. Mashg'ulotlar haftaning dushanba, seshanba, payshanba kunlarida bo'lib o'tadi. Dushanba kuni har bir sportchi bitta mashqqa ikki daqiqadan vaqt ajratadi. Kurashchiga 13 ta mashqni bajarishga sportchi 26 daqiqa, ikkinchi sportchi

26 daqiqa jami 52 daqiqa sarflanadi. 8 daqiqa sportchilar uchun DHni qabul qilishga sarflaydi. Shu o'rinda tabiiyki sportchilar tanaffus qilmay mashq bajaradimi degan savol tug'ilishi mumkin. Dzyudochilar trener tomonidan beriladigan ko'rsatmani olguncha bema'lol nafas roslashga ulgurishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sportchilarning musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishi yakuniy mashg'ulotlardagi trenirovka yuklamalarining to'g'ri rejalashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Rejalarni tuzishda shuni hisobga olish lozimki, eng og'ir bellashuvlar ko'pincha musobaqalarning oxirgi kuniga to'g'ri keladi. Trenirovka siklining davrlashtirilishiga qarab, o'quv trenirovka yig'inlaridagi mashg'ulotlarning yuklamasini mohiyati turlicha bo'lishi mumkin. Ushbu o'tkazilgan tadqiqotlar davomida malakali dzyudochilarining mashg'ulotlarida UJT, MJT (kombinatsion qobiliyat tayyorgarligi) va TTT samaradorligini oshirish va optimallashtirish asosida malakali dzyudochilarda texnik usullarni takomillashtirishga qaratilgan o'sish va rivojlanish dinamikasi nazorat qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004.

Ш.А. Арсланов Спорт педагогик маҳоратини ошириш (дзюдо) 2017 75-б.

Бакиев З.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности / дис. канд. пед. наук. / 2009.

Холмухамедов Р.Д. Технология подготовки единаборцев на этапах годичного цикла: Автореф. дис. д-ра пед. наук.- Тошкент-2009.- с 16-17.

Баязитов К.Ф. Оптимизация тренировочного процесса тяжелоатлетов высокой квалификации в годичном цикле / дис. канд. пед. наук. 2009.- ст 31-36.

Баязитов К.Ф. Повышение спортивно педагогического мастерства в тяжелой атлетике. Типография УзГИФК. Ташкент, 2011. – ст.86-96.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА КЕЙС-СТАДИ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ БИОХИМИИ

Курбанова Гулнар Джолдасовна,
Каракалпакский медицинский институт, г. Нукус, Республика Каракалпакстан

Курбанова Айпара Джолдасовна
Чирчикский государственный педагогический университет, г. Чирчик, Узбекистан

Абстракт. По мнению авторов статьи, большинство студентов бакалавриата в медицинских вузах обучались получению поверхностных знаний по биохимии исходя из уровня знаний, полученных ими до поступления в вуз. Отмечено, что эти студенты стараются запоминать полученные знания по биохимии, не углубляясь в анализ. Такие отрицательные результаты приводят к трудностям в освоении предмета биохимии.

Использование обучения кейс технологии на основе ситуационных задач и конкретных случаев (СЗ и КС) в преподавании биохимии может способствовать глубокому обучению за счет развития интеллектуальной способности студентов. Существует множество литературы по СЗ и КС, но нет четких указаний о том, как разрабатывать и проводить тематические исследования. В этой статье представлен обзор использования СЗ и КС в биохимии. Включена структура для реализации направленного СЗ и КС с помощью теоретических и практических занятий в курсе биохимии. Кроме того, эта статья может облегчить внедрение СЗ и КС в другие курсы. Следовательно, информация, представленная здесь, будет полезна для преподавателей биохимии медицинских вузов, интересующихся педагогикой активного обучения. Показана особенность проведения занятия с использованием кейс-технологии на занятиях биохимии медицинского института.

На основании проведенных мероприятий сделан вывод о том, что характеристика кейс-стадиона обеспечивает развитие интеллектуальных способностей студентов, ускорение получения знаний и расширение их мышления в области науки, расширение навыков в области науки.

Ключевые слова. биохимия, кейс технология, ситуационные задачи, конкретный случай, занятия, теоретический, практический

BIOKIMYO DARSLARIDA TALABALARNING INTELTEKTUAL QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KEYS STADY USULINDAN FOYDALANISH

Kurbonova Gulnar Djoldasovna,
Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Kurbanova Aypara Djoldasovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq sh. O'zbekiston

Аннотация. Мақола муаллимларнинг фикрича, тиббиёт олий о'қув yurtlari bakalavriat bosqichi talabalarining aksariyati universitetga kirishdan oldin olgan bilim darajasiga qarab biokimyo bo'yicha yuzaki bilim olishga o'rgatilgan. Qayd etilishicha, bu o'quvchilar biokimyo bo'yicha olgan bilimlarini tahlilga chuqurroq kirmay, yod olishga harakat qilishadi. Bunday salbiy natijalar biokimyo fanini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Biokimyo o'qitishda vaziyatli topshiriqlar va aniq holatlar (VT va AH) asosida amaliy ish texnologiyasidan foydalanish talabalarining intellektual qobiliyatini rivojlantirish orqali chuqur o'rganishga hissa qo'shishi mumkin. VT va AH bo'yicha ko'plab adabiyotlar mavjud, ammo amaliy tadqiqotlarni ishlab chiqish va o'tkazish bo'yicha aniq ko'rsatmalar yo'q. Ushbu maqolada biokimyoda VT va AH ning qo'llanilishi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Biokimyo kursida nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali yo'naltirilgan VT va AH ni amalga oshirish uchun tuzilma kiritilgan. Bundan tashqari, ushbu maqola VT va AH ni boshqa kurslarga kiritishga yordam berishi mumkin. Shu sababli, bu erda keltirilgan ma'lumotlar faol o'qitish pedagogikasi bilan qiziqqan tibbiy biokimyo professorlari uchun foydali bo'ladi. Tibbiyot institutining biokimyo darslarida keys texnologiyasidan foydalangan holda dars o'tkazishning o'ziga xosligi ko'rsatilgan.

Amalga oshirilgan tadbirlardan kelib chiqib xulosa qilindiki, korpusli stadionning o'ziga

xos xususiyatlari o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarni jadal o'zlashtirish va fan sohasida tafakkurini kengaytirish, fan sohasida ko'nikmalarini kengaytirishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: biokimyo, keys texnologiyasi, situatsion topshiriqlar, aniq holat, sinflar, nazariy, amaliy

THE CASE STUDY METHOD IN THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES OF STUDENTS IN BIOCHEMISTRY LESSONS

*Kurbanova Gulnar Dzholdasovna,
Karakalpak Medical Institute, Nukus, Republic of Karakalpakstan*

*Kurbanova Aipara Dzholdasovna
Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan*

Abstract. According to the authors of the article, the majority of undergraduate students in medical universities were trained to obtain superficial knowledge in biochemistry based on the level of knowledge they received before entering the university. It is noted that these students try to memorize their knowledge of biochemistry without delving into the analysis. Such negative results lead to difficulties in mastering the subject of biochemistry.

The use of case study technology based on situational tasks and specific cases (TS and CS) in the teaching of biochemistry can contribute to deep learning by developing the intellectual ability of students. There is a wealth of literature on SH and CS, but no clear guidance on how to develop and conduct case studies. This article provides an overview of the use of SZ and KS in biochemistry. Included is a framework for implementing targeted SZ and CS through theoretical and practical sessions in a biochemistry course. In addition, this article may facilitate the introduction of SZ and KS into other courses. Therefore, the information presented here will be useful for medical biochemistry professors interested in active learning pedagogy. The features of conducting a lesson using case technology in the biochemistry classes of a medical institute are shown.

Based on the activities carried out, it was concluded that the characteristics of the kestadium ensure the development of students' intellectual abilities, accelerate the acquisition of knowledge and expand their thinking in the field of science, and expand their skills in the field of science.

Keywords. biochemistry, case technology, situational tasks, specific case, classes, theoretical, practical

Актуальность. На сегодняшний день положение педагога в условиях модернизации медицинского образования в Республике Каракалпакстан коренным образом меняется. Преподаватель перестает быть вместе со студентом носителем «объективного знания», которое он пытается передать студенту. Его главной задачей становится мотивировать студентов по данному предмету на проявление инициативы и самостоятельности. Он должен организовать самостоятельную деятельность студентов, в которой каждый мог бы реализовать свои способности и интересы. Фактически он создает условия, «развивающую среду», в которой становится возможной выработка каждым студентом на уровне развития его интеллектуальных и прочих способностей определенных компетенций, в процессе реализации им своих интересов и желаний, приложенных усилий, взятия на себя ответственности и осуществления действий в направлении поставленных целей[1].

В организации такого рода деятельности одной из перспективных технологий обучения становится так называемая кейс-технология (case-study). Эта технология представляет собой синтез проблемного обучения, информационно-коммуникативных технологий, метода проектов[2].

Внедрение кейс-технологии показало высокую эффективность при работе со студентами, повысило их заинтересованность в изучении биохимии, повышению успеваемости по предмету, развитию аналитических способностей и, наконец, самое главное: осознание необходимости изучения такой науки как биохимия в плане неотъемлемой части познания человеческого мира, обоснованность биохимических процессов и их практическое значение в медицине. [3].

Кейс-технология – современная образовательная технология, в основе которой

лежит анализ какой-то проблемной ситуации. Она объединяет в себе одновременно и ролевые игры, и метод проектов, и ситуативный анализ[4].

Кейс-технология – это не повторение за студентом, не пересказ параграфа или статьи, не ответ на вопрос преподавателя, это анализ конкретной ситуации, который заставляет поднять пласт полученных знаний и применить их на практике. Пример одного из направлений ситуационных задач: У лиц, длительное время употребляющих этанол, развивается цирроз печени и появляются отеки[5,7].

1. Какова причина развития отеков?
2. Какие функции выполняют альбумины?
3. Что такое домены и какова их роль в формировании белков?
4. Какие методы используются для определения альбуминов?
5. Как меняется соотношение белковых фракций крови при разных заболеваниях?

Ответы. 1. При циррозе печени нарушается ее блокинизирующая функция, вследствие чего в крови снижается содержание альбуминов. Вода, которая в норме связывается с альбуминами, задерживается в тканях, что приводит к развитию отеков[7].

2. Альбумины: 1) регулируют онкотическое давление в крови и осмотическое давление в тканях

2) осуществляют транспортную функцию, перенося в крови свободные жирные кислоты, билирубин, Ca^{2+} , лекарственные вещества

3) связывают ионы металлов с переменной валентностью (Zn, Cu, Fe), препятствуя тем самым образованию активных форм O_2 .

3. Доменами называются структурно и функционально обособленные участки белковой молекулы. Многие белки имеют домены, для выполнения определенных функций (альбумины, фибронектин, ламинин и др.)

4. Широко используются колориметрический метод с биуретовым реактивом.

5. При остром воспалении γ -глобулины повышаются, а при иммунодефиците – снижаются. Альбумины понижаются при циррозе печени, гломерулонефритах, голодании. β - и α -глобулины увеличиваются при атеросклерозе, ишемической болезни сердца и других видах патологии[8,9].

Данная технология помогает повысить интерес студентов к изучаемому предмету, развивает у студентов такие качества, как социальная активность, коммуникабельность, умение слушать и грамотно излагать свои мысли[10].

Кейс-технологии – инструмент, позволяющий применить теоретические знания к решению практических задач. Данная технология способствует развитию у обучаемых самостоятельного мышления, умения выслушивать и учитывать альтернативную точку зрения, аргументировано высказать свою. С помощью этого метода ученики имеют возможность проявить и усовершенствовать аналитические и оценочные навыки, научиться работать в команде, находить наиболее рациональное решение поставленной проблемы[11,12].

Цель работы. Использование метода кейс-технологии в педагогической практике преподавателей по предмету биохимии в медицинском ВУЗе. Цели, реализуемые в кейс-технологии: - интеллектуальное развитие обучаемых по предмету биохимии; - осознание многозначности профессиональных проблем и жизненных ситуаций; - развитие коммуникативных навыков по биохимии; - приобретение опыта поиска и выработке альтернативных решений по биохимии. Данный метод способствует развитию умений: - анализа ситуации; - выбора оптимального пути решения; - оценивания альтернативного решения заданий. Задачи: Освоить методические основы кейс – технологии на занятиях по биохимии в медицинском ВУЗе. Отработать алгоритм применения кейс -технологии; Сформировать умения использовать полученные навыки для решения актуальных медицинских проблем по биохимии. Задачей этого метода является максимальное вовлечение каждого студента в самостоятельную работу по решению поставленной проблемы или задачи.

Материалы и методы. Кейс-технологии используются в преподавании естественных наук в медицинских вузах уже четверть века. Кейс-технологии включают в себя ситуационные задачи и конкретные ситуации. Биохимия является как фундаментальной, так и прикладной наукой в обучении в медицинском вузе, и использование в ее преподавании ситуационных задач и конкретных случаев позволяет более эффективно

усваивать учебный материал, что, в свою очередь, играет важную роль в освоении индивидуальных и профессиональных способностей студентов.

На занятиях по биохимии при изучении темы «биологическая функция аминокислот» в трех группах студентов применялись небольшие кейсы («мини-кейсы»). В начале занятия студентам было предложено письменно ответить на вопросы исходного контроля, что позволяло контролировать исходный уровень подготовки к занятию. Далее студентам предлагалось решение кейсов в небольших группах. Для этого были сформированы группы (3-4 студента в каждой) с учетом академической успеваемости студентов по дисциплине. На занятии студентам были предложены 4 «мини-кейса». В зависимости от сложности задания, на решение каждого «мини-кейса» отводилось 10-15 минут. По истечению выделенного для выполнения задания времени, студенты представляли варианты решения «мини-кейсов». После представления результатов преподаватель проводил анализ алгоритма решения «мини-кейса», характеризовал и объяснял недостатки ответов студентов. Заданием успешно справились только 40% студентов в группе. Следует отметить, что по данной программе студенты работали впервые, поэтому результат был низким.

В медицинском институте основным структурным элементом предметной подготовки при изучении биохимии являются лабораторные работы. Именно эксперимент дает наглядное представление об изучаемых процессах; учит студентов умению наблюдать, оценивать полученные результаты, делать выводы и обобщения [3]. Традиционная схема проведения лабораторных работ зачастую не позволяет в полной мере реализовать их дидактический потенциал, так как не до конца разрешена проблема повышения прочности знаний студентов, получаемых при их выполнении. По нашему мнению наиболее рациональным подходом к применению элементов кейс-стади в учебном процессе при освоении фундаментальных дисциплин студентами 1- и 2- курсов является создание кейсов - небольших по объему комплексных ситуационных заданий и конкретных случаев [2]. Предлагаемые кейсы должны отвечать им поставленную требования: соответствовать четко поставленной цели; иметь определенный уровень трудности; отражать типичные метаболические процессы; иллюстрировать наиболее актуальные вопросы биохимии; провоцировать дискуссию; развивать аналитичность мышления. Использование Кейсов способствует устранению принципиальных недостатков методики организации и проведения лабораторных работ.

Результаты и их обсуждение. Ситуационные задачи практической направленности широко используют в обучении студентов не только на клинических, но и на теоретических, медико-биологических кафедрах.

Пример ситуационной задачи по биохимии. У ребёнка, поступившего в детскую больницу с диагнозом пневмония, изучено содержание 2,3-ДФГ в эритроцитах. О чём говорит его повышение в эритроцитах?

Студенты предлагают свои варианты решения. Важно, чтобы аргументация позиции каждого студента обсуждалась всеми студентами группы, а преподаватель лишь подводил итог рассуждениям студентов.

Решение. Прежде всего, необходимо расшифровать аббревиатуру (2,3-ДФГ = 2,3-дифосфоглицерат), затем вспомнить какой биохимический процесс поставляет клетке 2,3-дифосфоглицерат (гликолиз) и биологическую роль этого вещества. Подумайте, в какой ситуации активность гликолиза возрастает? Тогда студент самостоятельно придёт к обоснованию, что 2,3-ДФГ является показателем гипоксии.

Пример ситуационной задачи по биохимии интегрированного типа. Голодающие получали раз в день кусок хлеба и воду. Один человек - М. сразу размачивал сухарь в воде и ел, а другой - Н. сначала долго жевал хлеб и только потом проглатывал. Чьи действия были правильными и почему?

В качестве примера можно привести ситуационное задание из мини-кейса для практического занятия по теме «Химия аминокислот и белков»:

Задача №1. Каплю раствора, содержащего смесь глицина, аланина, глутамата, лизина, аргинина и гистидина, нанесли на середину электрофоретической бумаги, смочили буфером рН 6,0 и приложили электрическое напряжение. Укажите, в каком направлении (к катоду, аноду или останутся на старте) будут двигаться отдельные аминокислоты.

Задача №2. Трипептид, выделенный из токсина змей, состоит из трех незаменимых

аминокислот серусодержащей, гетероциклической и гидроксилсодержащей. Напишите этот трипептид. Что такое незаменимые аминокислоты? Назовите источники незаменимых аминокислот.

Задача №3. По данным количественного аминокислотного анализа в сывороточном альбумине содержится 0,58% триптофана, молекулярная масса которого равна 204. Рассчитайте минимальную молекулярную массу альбумина.

Задача №4. Для правильного обращения с белковыми лекарственными препаратами к ним прикладывают инструкцию, в которой указывают условия их хранения и использования. Что должно быть написано в такой инструкции и почему?

Задача №5. Чем объяснить возможное снижение растворимости белков при отщеплении от них пептидов (как в случае с фибриногеном)?

Задача №6. Как объяснить, что белок молока казеин при кипячении сворачивается (выпадает в осадок), если молоко кислое?

Задача №7. Берёзовый деготь – одна из составных частей мази Вишневского, содержит в своем составе фенол. Фенол и его производные (крезол, резорцин) относят к известным антисептикам ароматического ряда, обладающим высоким антимикробным действием. Объясните механизм их антисептического действия.

Задача №8. Необходимое условие для функционирования белков - присоединение к нему другого вещества, которое называется «лиганд». Взаимодействие лиганда с белком высокоспецифичное. Некоторые структурные аналоги лигандов вызывают более сильные физиологические эффекты, чем природные лиганды. Чем можно объяснить этот факт?

1. Глицин и аланин останутся на старте; глутамат будет двигаться к положительно заряженному аноду (+), аргинин, лизин, гистидин будут двигаться к отрицательно заряженному катоду (-).

2. Метионин-триптофан-треонин.

3. Молекулярная масса альбумина около 35000.

4. Хранить в холодильнике при температуре не выше 10°C, растворять сухие препараты охлажденной до комнатной температуры кипяченой водой (чтобы избежать денатурации).

5. Возможно, отщепились аминокислоты с гидрофильными радикалами, поэтому растворимость белка снизилась.

6. Известно, что устойчивость белков в изоэлектрической точке (ИЭТ) к действию неблагоприятных факторов снижается. Изоэлектрическая точка казеина лежит в кислой среде, поэтому устойчивость белка к нагреванию снизилась, он денатурировал.

7. Они обладают высокой гидрофильностью, так как имеют ОН-группы, благодаря которым образуют водородные связи и изменяют конформацию белков вплоть до денатурации.

8. Можно предположить, что их длительный и более сильный эффект связан с тем, что модифицированные лиганды медленно разрушаются в организме, а значит действуют на белки больший период времени.

Выводы. Опыт применения кейсов на основе ситуационных задач и конкретных случаев свидетельствует о том, что формирование интеллектуальных способностей и дальнейшее профессионально-личностных качеств, обучаемых при изучении биохимии происходит более эффективно в процессе применения элементов кейс-технологий, способствующих саморазвитию и самообразованию будущего врача. Указанные интерактивные технологии обучения могут применяться в учебном процессе комплексно, как целостная совокупность дидактических, психологических и методических, развивающих процедур.

Таким образом, успешно внедряя кейс-метод в учебный процесс, при преподавании биохимии на втором курсе Общественно-медицинского факультета, мы пришли к выводу, что практическая значимость в педагогическом процессе кейс-метода значительно выше, чем у традиционных методов обучения. Наличие в структуре данного метода: примеров, взятых из реальной практики; наличие равноправия при обсуждении; игровая форма преподавания; возникновение споров и дискуссий – все это в совокупности развивает в студентах не только навыки общения, углубляет их знания и расширяет кругозор, но и формирует профессиональные навыки – умение выбрать и обосновать ту или иную диагностическую или терапевтическую стратегию.

Список литературы

1. Терешко Н.В., Фокина В.С. Case-study: история и эволюция // Электронный вестник Ростовского социально-экономического института, 2016. № 2. С. 188-193.
2. Серпионова Е.И. Опыт обучения психологии с применением технологии «кейс-стади» в старших классах // Известия Волгоградского государственного технического университета, 2010. № 5. С. 38-41.
3. Симс Н., Браунд У., Эдвардс Т., Башфорд Л., Ричес П. и др. Tutor guide. Life maintenance. USA: The University of New Mexico, 1995. 25 с.
4. Погорелова И.Г., Жукова Е.В., Калягин А.Н. Использование кейс-метода в высшем медицинском образовании // Сибирский медицинский журнал, 2010. № 2. С. 147-149.
5. Айтбаева А.Б., Курбанова Г.Дж., Даулетжанова Г.Ж. Информация и коммуникация в преподавании биохимии роль технологий// Academic Research in Educational Sciences, 2022, №1(3), Стр. 43-53.
6. Komilov Q.O'., Kurbanova A.Dj. Case Technology in Chemistry Lessons// Academic Research in Educational Sciences, 2020, №1 (1), Page 262-265.
7. Komilov Q.O'., Kurbanova A.Dj. Case-study method for teaching general and inorganic chemistry//Academic Research in Educational Sciences,2020, №2 (6), Page 436-443.
8. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Образование и наука в XXI веке, 2021, №3 (10), С. 684-690.
9. Рустамова Х.Н., Курбанова А.Дж., Комилов К.У., Эштурсунов Д.А. Роль информационно-коммуникационных технологии в преподавании общей и неорганической химии// Экономика и социум, 2021, №5(84) ч.2, С. 1047-1056.
10. Komilov Q.O'., Kurbanova A.Dj. Integration of chemistry and english in the teaching of chemistry// Academic research in educational sciences,2021,№2 (9), Page 40-43.
11. Komilov Q.O'., Kurbanova A.Dj. Kimyo mashg'ulotida keys-stadi metodi: salbiy va ijobiy samaralar/ France international scientific-online conference: "Scientific approach to the modern education system» 2022. part 1, 5th february.
12. Курбанова А.Дж. Использование мультимедийных презентаций на уроках химии для непрофильной химии// Academic Research in Educational Sciences Volume, 2022, №3(3), С. 62-68.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH TIZIMI*Mamatova Aziza Maxmatdjonovna**Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotasiya. Maqolada boshlang'ich sinfo'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish mazmuni, uning nazariy xususiyatlari va axloqiy fazilatlarni shakllantirish tizimlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim qilingan. Ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda Tarbiya o'quv fanining imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axloq, fazilat, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, shakllantirish, tizim, bilim, ko'nikma, illarlar, tabiiy ahloqiy layoqatlar, samaradorlik, innovasion yondashuvlar, ahloqiy qoidalar, hamkorlik

СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ ХАРАКТЕРИСТИК У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ*Маматова Азиза Махматджоновна**Независимый научный сотрудник Чирчикского государственного педагогического университета*

Аннотация. В статье представлены сведения о содержании формирования нравственных качеств учащихся начальной школы, его теоретических особенностях и системах формирования нравственных качеств. Упоминаются возможности педагогической науки в формировании нравственных качеств.

Ключевые слова: нравственность, добродетель, учащийся, начальное образование, формирование, система, знания, умения, пороки, природные нравственные способности, эффективность, инновационные подходы, этические правила, сотрудничество.

THE SYSTEM OF FORMING MORAL CHARACTERS IN PRIMARY CLASS STUDENTS*Mamatova Aziza Makhmatdjonovna**Independent researcher of Chirchik State Pedagogical University*

Abstract. The article presents information on the content of the formation of moral qualities in elementary school students, its theoretical features and systems of formation of moral qualities. The possibilities of educational science in the formation of moral qualities are mentioned.

Key words: morality, virtue, student, primary education, formation, system, knowledge, skills, vices, natural moral abilities, efficiency, innovative approaches, ethical rules, cooperation

Kirish. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" da 2022-2026 yillarda sifatli ta'lim ko'rsatkichlariga va ta'lim oluvchilarning hozirgi zamon talablari asosida tarbiyalanishiga erishish vazifalari qo'yilgan [1]. Mazkur vazifalarni ijrosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda ana shu masalaning tizimi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Adabiyotlar tahlili. O'quvchi-eshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va falsafiy jihatlari A.Begmatov, M.Qaxxarova, A.Magzumov, J.Yo'ldoshev, F.Rahmatova, R.Djurayev, B.Djurayeva, N.Jumayeva, Z.Izmailova, U.Mahkamov, M.Inomova, O.Musurmonova, B.Raximov, M.Haydarov, M.Davletshin, O.Hasanboyev, K.Hoshimov, M.Quronov, R.Mahmudovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Muhokama va natijalar. Bolalarga axloq va ma'naviyat asoslarini o'rgatish maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Lekin faqatgina maktabda, bolalarning axloqiy qoidalariga rioya qilishi doimiy nazorat qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchilar, kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lganda, darsda va tanaffusda o'rtoqlari bilan muloqot qilganda, ko'chada, jamoat joylarida bo'lganlarida o'zlarini qanday tutishlari, xulq-atvor qoidalari va me'rlari bilan tanishtiriladi. Yetti-sakkiz eshli bolalar bu qoida va me'rlarning mazmunini aniq tushunish va ularni har kuni bajarishga psixologik tayërlangan bo'ladilar.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning nazariy xususiyatlari. Axloqiy fazilatlar – bu shaxsning o'zi mansub bo'lgan xalq qadriyatlarini va umuminsoniy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlar, axloqiy ong va axloqiy ko'nikmani o'zlashtirish majmuidir [2]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish mazmuni quyidagilar bilan belgilanadi:

a) vatanparvarlik, o'zgalarni hurmat qilish, o'z manfaatlarini umummanfaatlariga uyg'unlashtirish, xalqparvarlik, insonparvarlik kabi axloqiy sifatlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaxshilik, ezigulik va ruhiy ko'tarinkilik g'oyalari asosida axloqiy ongni tarkib toptirish;

v) faollik, jamoaparvarlik va tashabbuskorlik g'oyalari asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida amaliy axloqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning bunday mazmunini belgilashda ularning oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olgan ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslaniladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda "Tarbiya" o'quv fanini o'qitish omilidan foydalanish muhim masalalardan biridir [3]. Buning uchun mazkur o'quv fanining quyidagi imkoniyatlariga tayanish kutilgan samarani beradi:

a) mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini ilmiy shakllantirish;

b) ushbu fan bo'yicha tashkil qilingan to'garaklar vositasida o'quvchilarni axloqiy fazilatlarga rioya qilishga o'rgatish;

v) mazkur o'quv fanining o'quv materiallari asosida o'quvchilarida axloqiylikni tarkib toptirish.

Mamlakatimizda yangi fan hisoblangan ushbu predmet vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish ishi nazariy jihatdan amalga oshiriladi [4]. Shu sababli bu borada ushbu o'quv fanining o'qituvchilari va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu masalalar bo'yicha aniq malakaga ega bo'lishi taqozo etiladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish tizimlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda aniq tizimlarga asoslanish muhimdir. Shu sababli bu masalada bizning yondashuvimizga ko'ra quyidagilar muhim o'rin tutadi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning amaliy tizimi;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion tizimi;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarning shakllanganlik darajasini baholash tizimi.

"Tarbiya" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy fazilatlarini amaliy jihatdan shakllantirish tizimi muhim o'rin tutadi. Buning uchun o'quvchilardagi mavjud tabiiy axloqiy layoqatlarni rivojlantirish, ularni axloq qoidalariga rioya qilishga o'rgatish va o'quvchilarni jamoaparvar shaxs sifatida voyaga yetkazish asoslariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi [5]. Bunday yondashuv o'ziga xos amaliy tizimni beradi va bunda asosiy e'tibor o'quvchi hamda o'qituvchi hamkorligiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur fan vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion tizimiga ham tayanish muhim ahamiyatga ega. Bunday innovatsion tizim tarkibini o'quvchilarni axloqiy tashabbuskorlikka o'rgatish, muhim yoki sharoit taqozosi bilan yo'l qo'ygan xatolarini tan olishga ko'niktirish, illatlardan xoli bo'lish va jamoaparvarlik odoblariga rioya qilishga o'rgatish tashkil qiladi [6]. Chunki jamiyatimizning hozirgi innovatsion rivojlanish sharoitida shaxsning jamiyat ehtiyojlariga mos voyaga yetishi aynan boshlang'ich ta'limdan boshlanishini eslatib o'tish joiz. Bu ish oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlangan ishning ilmiy davomi hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limning "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarning shakllanganlik darajasini o'rganib borish tizimi ham dolzarb omillardan biridir. Unga ko'ra, o'qituvchi individual tarzda har bir o'quvchining axloqiy fazilatlarini o'rganadi, uni tahlil qiladi va oldingan ma'lumotlar asosida o'quvchilarida axloqiy fazilatlarning shakllanganlik darajasini baholaydi. Bunday baholash tizimi sinflar kesimi va o'quvchilarning individual ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi [7]. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni kutilgan darajada shakllantirish

imkoniyatlariga ega bo'linadi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish tizimining samaradorligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirishning nazariy omillari va tizimlariga asosan amalga oshirilgan ishlarning sinf rahbarlari va "Tarbiya" fani o'qituvchilari tomonidan samaradorligi o'rganib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) o'quvchilarda asosiy axloqiy fazilatlarining shakllanganlik darajasini o'rganish;
- b) o'quvchilarning axloqiy fazilatlariga rioya qilish jarayonini o'rganish;
- v) o'quvchilarda axloqiy fazilatlar va illatlarning nisbatini aniqlash.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish tizimining samaradorligi bo'yicha aniq ma'lumotlarni beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida asosiy axloqiy fazilatlarini shakllantirish darajasini o'rganish bilan ularning har qanday muhit yoki sharoitda axloqiylikka rioya qilishi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'linib, mazkur masala baholanadi. Agar baholash natijalari o'quvchilarda axloqiy fazilatlarining shakllanganligi salbiy ko'rsatkichlarni bersa, eng avvalo "Tarbiya" o'quv fanini o'qitish jarayonini kuchaytirish amalga oshiriladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayoni kuchayadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy fazilatlariga rioya qilish jarayonini o'rganish ham bu boradagi samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashning muhim asoslaridan biridir [8]. Buning uchun o'quvchilarning mashg'ulotlar, tadbirlar va o'zaro munosabatlarda axloqiy fazilatlariga rioya qilish jarayoni kuzatiladi, olingan ma'lumotlar asosida tahlil amalga oshiriladi. Bordi-yu taxlillar natijasi o'quvchilarning axloqiy fazilatlariga rioya qilishi ko'rsatkichlari salbiy bo'lsa, "Tarbiya" o'quv fani o'qituvchisi va sinf rahbarlari o'quvchilarning axloqiy fazilatlariga rioya qilishi bo'yicha tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish tizimining samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda ulardagi axloqiy fazilatlar va illatlarning nisbatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki axloqiy fazilatlarini shakllangan o'quvchilar foizi ko'pchilikni tashkil etsa, boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifasi amalga oshirilgan bo'ladi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich salbiy foizni bersa "Tarbiya" o'quv fanini innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish va tarbiyaviy tadbirlarni kuchaytirish taqozo etiladi. Bunday yondashuv natijasida samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichi aniqlanadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirishning nazariy xususiyatlari, tizimlari va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun "Tarbiya" o'quv fanini asos sifatida olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mazkur o'quv fani axloqiy fazilatlar bo'yicha nazariy, metodik va amaliy masalalarni o'zida uyg'un mujassam etgan. Ayni paytda, mazkur fan o'qituvchilarining faolligiga tayanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Xulosa. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirishning tizimi muammosini maxsus tadqiq etish va bu borada nazariy-metodik shakllarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki bozor iqtisodiyoti va innovatsion jamiyat sharoitida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish ishi ilmiy va pedagogik jihatdan aynan boshlang'ich ta'lim jarayonida boshlanadi. O'quvchilar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zlashtirgan axloqiy fazilatlarini keyingi ta'lim turlarida ko'nikmaga aylantirish jarayonida bo'ladi. Shu sababli biz mazkur masalani keng ko'lamli tadqiq etishni boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qabul qilamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent, 2009
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fani o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2022
4. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021
5. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023
6. Jumanova F., Avazova S., Jabborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent, 2020
7. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017

O'QUVCHLARINI AMALIY SAN'AT VOSITASIDA AXLOQIY TARBIYALASHDA SHARQ OLIMLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

Mamurova Dilfuza Islomovna, dotsent
Shukurov Ulug'bek Jo'rayevich, magistr
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotasiya. Maqolada xalq amaliy san'atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu hususiyat ko'proq xar bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. O'sib kelayotgan avlodga amaliy san'at vositasida ta'lim-tarbiya berish jarayonni mukammalashtirish pedagogning yeng muhim yutuqlari asosida amalga oshirish milliy san'atimizning yutuqlaridir. O'rta Osiyo mutafakkir pedagoglarining asarlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Axloqiy tarbiya masalasida sharq mutafakkirlari ko'plab o'zlarining asarlarini yozganlar. Mutafakkirlardan Ismoil al Buxoriy hadislarida, Ahmad Al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Al Xorozmiy, Alisher Navoiy, Bobur mirzo, Ulug'bek kabilarning o'gitlari axloqiy tarbiyada muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, ijod, badiiy, ta'lim-tarbiya, pedagog, mutafakkir, tarbiya, axloqiy tarbiya, manba.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УЧЕНЫХ-ВОСТОКОВЕДОВ НА НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА

Мамурова Дильфуза Исламовна, доцент
Шукуров Улугбек Жораевич, мастер
Бухарский государственный педагогический институт

Абстрактный. В статье одной из важнейших характеристик народного творчества являются художественные традиции, которые использовались в творчестве народных мастеров на протяжении тысячелетий. Эта особенность во многом зависит от окружающей среды, природы и климатических условий каждого народа. Совершенствование процесса воспитания подрастающего поколения средствами прикладного искусства, основанного на важнейших достижениях педагога, является достижением нашего национального искусства. Важно использовать труды центральноазиатских мыслителей и педагогов. Восточными мыслителями написано много работ по нравственному воспитанию. Среди мыслителей в хадисах Исмаила аль-Бухари важное место занимают учения Ахмада аль-Фаргани, Абу Али ибн Сины, Абу Райхана Беруни, Абу Насыра Фараби, Аль-Хорозми, Алишера Наваи, Бабур Мирзы, Улугбека. источники нравственного воспитания.

Ключевые слова: практическое искусство, творчество, художественное образование, педагог, мыслитель, воспитание, нравственное воспитание, ресурс.

PEDAGOGICAL VIEWS OF ORIENTAL SCIENTISTS ON MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH APPLIED ART

Mamurova Dilfuza Islamovna, associate professor
Shukurov Ulugbek Jorayevich, master
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. In the article, one of the most important characteristics of folk art is the artistic traditions that have been used in the work of folk masters for thousands of years. This feature mostly depends on the environment, nature, and climatic conditions of each nation. Perfecting the process of providing education to the growing generation by means of applied art, based on the most important achievements of the pedagogue, is the achievement of our national art. It is important to use the works of Central Asian thinkers and pedagogues. Eastern thinkers have written many works on moral education. Among the thinkers, in the hadiths of Ismail al-Bukhari, the teachings of Ahmad Al-Farghani, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, Abu Nasir Farabi, Al-Khorozmi, Alisher Navai, Babur Mirza, and Ulug'bek are important sources of moral education.

Key words: practical art, creativity, artistic, education, pedagogue, thinker, education, moral education, resource.

Respublikamizning mustaqilligi tufayli tinch, farovon xalq hokimiyati bo'lgan demokratik jamiyat, davlat qurishga bel bog'ladik. Bunga osonlikcha yerishilgan yemas. Shu qisqa davr ichida minlab turli – tuman buzg'unchi g'oyalar ham davlatimizni notinch qilib qoydi. Ollohg'a shukurki, biz o'z yo'limizni topib oldik. Yendi ta'lim – tarbiyaviy ishlarini

yanada jonlantirish lozim. Jamiyatni axloqan komil insonlarni ribojlantirib berishligi azaldan ma'lum. Axloqiy – ijtimoiy ong shakllaridan biri deb hisoblanadi. Har bir insonning shu jamiyat oldidagi burchi, oiladagi yurish – turish, maqsadi va o'ziga oid vazifalari, tartib va qoidalari bo'ladi. Mana shu masalalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlikda axloq normalari yotadi. Axloq – bu poklik, insoniylik, boshqalar oldida o'zining hamma jihatdan sifatleri bilan yetuk yekanligi. Axloqning juda ko'plab omillar bor.

Bizga ma'lumki, u yoki bu xalq, millat to'g'risida ma'lum tasavvurga yega bo'lish uchun, uning madaniy merosi, san'ati, adabiyotidan xabardor bo'lish kifoyadir. Shu nuqtai – nazardan qaraganda, xalqning muayyan tarixiy bosqichlarini, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy turmush tarzi, hayotiy qarashlari, orzu umidlari, urf – odatlarini o'zida mujassam yetgan xalq amaliy san'ati asarlarini o'rganish yetarli yemas. Chunki, xalq amaliy san'ati umuminsoniy g'oyalarni tarannum yetishi bilan o'zida, milliy g'oya va mafkuraning yeng muhim tendensiyalarini ifoda yetadi.

Shunday yekan, Respublikamizda amal qilinayotgan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, amaliy san'at ta'lim – tarbiyaning yeng asosiy shakllantiruvchisi bo'lmish umumiy o'rta ta'limdan keyingi kasb – hunar ta'limida o'quvchilarni axloqiy tarbiyasini milliy merosimizning yeng noyob namunalari hisoblanmish amaliy san'ati bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda yuksak madaniyat va ma'naviyatni shakllantirishga dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirilishi birinchidan, ta'limni milliy negizini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan yosh avlodni milliy o'zlikni teranroq his yetishlariga olib keladi, uchinchidan yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini oshirishga olib keladi.

Zero, amaliy san'at inson his – tuyg'ularini, orzu–istaklarini, kechinmalarini o'ziga xos ranglarda, shakllarda tasviriy tilda ifoda yetadi va inson ruhiyatiga, hissiyotiga faol, yemotional ta'sir yetadi. Naqqoshlik darslari mazmunida olib boriladigan ta'limiy tarbiyaviy ishlar yesa o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularda go'zallikka bo'lgan his–tuyg'ularini rivojlantirish, shu tariqa amaliy san'atga doir yestetik dunyoqarashini shakllanishiga asosiy omil axloqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarni amaliy san'atning sehrli olamiga olib kirish, ularda amaliy san'atga ongli munosabatni shakllantirish, qobiliyatlarini o'stirish bunday murakkab pedagogik jarayonda o'qituvchilardan yuksak kasbiy va pedagogik mahoratini talab qiladi.

Amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyani oldiga qo'yilayotgan maqsad va vazifalarni muvaffaqiyati uni maktablarda qay darajada uyushtirilganlik va tashkil yetilganligiga bog'liqdir. Chunki, bu bosqichda amaliy san'at ta'limining poydevori bo'lib qo'yiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, o'qituvchining tasvirlash qobiliyati, o'qitish metodikasidan tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb yetadi. O'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni suratlarini, amaliy san'at buyumlarini savodli, qonun–qoidalarni o'zlashtirishlariga ye'tibor bermog'i lozim. O'qituvchi har bir darsning va darsda qo'llaniladigan faoliyatlarni ko'tarinki ruhda qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qilinishiga yerishishi zarur. Buning uchun u dastlabki vaqtdan o'quvchilarni psixologik, fiziologik hususiyatlarini va individual qiziqishi, qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi bilishi talab yetiladi. O'quvchilarni qiziqishi, diqqati va o'yinga moyillik kabi hususiyatlariga ko'ra faoliyat turlarini tez–tez almashtirib turish, darsda naqsh, ganch, o'ymakorlik, zardo'zlik kabi amaliy san'at turlaridan foydalanmog'i lozim.

Amaliy san'atning asosiy maqsadi insonlar yashaydigan muhitni va o'zini o'rab olgan buyumlarini chiroyli qilishdan iborat. San'atning bu turida go'zallik va qo'llanish (foydali)lik) birligi degan ibora bor. U buyumlarni faqat turmushda qo'llanilgandagina go'zal bo'lishi mumkinligini bildiradi. Hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy bo'lishi mumkin. Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb yetadi. O'zingiz tasavvur yetib ko'ring, biron bir usta nihoyatda ajoyib bir shakldagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezakdagi buyumni yaratgan. U har jihatdan kishilar ye'tiborini o'ziga tortdi. Lekin, undan amaliyotda foydalanib bo'lmasa, u narsani go'zalligiga ham bo'lmaydi, Amaliy san'atda shakl muhim ahamiyat kasb yetadi. Agarda buyum hajm jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa–yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Shuning uchun ham amaliy san'at buyumini yaratishda buyum shaklini, uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim.

Amaliy san'at buyumlarini tayyorlashda uni materialini to'g'ri tanlash katta ahamiyat kasb yetadi. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelishi kerak. Aytaylik, idish–tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq–ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olishi lozim. Amaliy san'atda ustalar yasaladigan buyumning vazifasiga qarab mavjud barcha materiallardan foydalanadilar. Ular tuproq, tosh, suyak, yog'och, gazmol, ganch, metall va boshqalar. Hozirgi vaqtlarda sintetik materiallar ham keng qo'llanilmoqda. Kishilarni axloqiy tarbiyalashda ular muhim ahamiyatga yega.

Xalq amaliy san'atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu hususiyat ko'proq

xar bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki, amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda u go'zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq tovus tasvirlarini, shimoliy o'lkalarning ustalari bug'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga yesa o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog'och va hayvon suyaklarini ko'proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdagi ustalar ko'proq sovuq, ranglarni, issiq, iqlimli O'zbekiston ustalari ko'proq iliq ranglarni qo'llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi.

O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar yekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar o'sha hozirgacha davom yetib kelmoqda. Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar – mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga yehtiyoy paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini ko'zatisish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'sishiga sabab bo'ldi. Bir xil yelementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqqoshlik san'atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ-amaliy san'atning taraqqiy yetishga ta'sir ko'rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, aylanalalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil yetadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning yelementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks yettira bordi. Masalan, rozetka–quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq–harakat, suv ramzi va hokazo. Naqqoshlik san'ati yendilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi yesa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar diqqatga sazovordir. Temir asrida ham dekorativ-amaliy san'at yetakchi o'rinni yegallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish alohida rivojlangan. O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar yehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining yeng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, buyrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otabobolarimiz ko'rgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, hxayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan axloqiy narsalardir. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka yerishadi. O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arklarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan.

O'sib kelayotgan avlodga amaliy san'at vositasida ta'lim-tarbiya berish jarayonni mukammallashtirish pedagogning yeng muhim yutuqlari asosida amalga oshirish milliy san'atimizning yutuqlaridir. O'rta Osiyo mutafakkir pedagoglarining asarlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Amaliy san'at turlari va hunarmandchilikka qarata "Yey inson agar dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla, hunarmandchilik sababidan izzat-hurmatga

yerishasan agar hunardan bebahra bo'lsang, quruq soyasiz daraxtga o'xshab qolasan" deb fikrini aytadi. Axloqiy tarbiya masalasida sharq mutafakkirlari ko'plab o'zlarining asarlarini yozganlar. Mutafakkirlardan Ismoil al Buxoriy hadislarida, Ahmad Al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Al Xorozmiy, Alisher Navoiy, Bobur mirzo, Ulug'bek kabilarning o'g'itlari axloqiy tarbiyada muhim manba hisoblanadi.

O'zbek xalq amaliy san'ati qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Mamlakatimizning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzeydir. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy san'atining yeng rivojlangan turlaridan: ganchkorlik, naqqoshlik, zargarlik, kashtachilik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kulolchilik, pichoqchilik, kigiz bosish, savatchilik, bo'yrachilik kabilarni o'rgatish, o'rganish texnologiyasi, ustalarning haqiqiy nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari bir vaqtlar kimlar tomonidan taqqirlanib davrlar o'tishi bilan asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan yedi.

San'atda biz mazkur tadqiqotimizni ana shu maqsad va vazifalardan ishlab chiqib olib borishga, zarur ilmiy xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qildik.

Al-Fargoniy o'z kashfiyotlarila geliosentrizmga o'tish uchun ilmiy zamin yaratdi; Ekvator va ekliptika tekisliklaridagi doimiy burchakni 23 daraja-yu 35 minut deb anik o'lchadi; sferalar radiusini birinchi marta belgilab berdi; Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq etdi; Yer yoyining qaysi uzunligi 1° ga to'g'ri kelishini o'lchab, bu mikdorni anikladi, uni 360 ga kupaytirib, 40800 km. ni hosil qilishini qayd etgan. Yer shari meridianining uzunligini aytib berdi; Nil daryosi idrometeorologik tabiatini aniqlaydigan asbob — «Miqyesi Nil»ni yasadi. Suv uchun tulanadigan solik shunga asoslandi, xalk, uni «adolat tarozisi» deb atadi; inson yashaydigan maydonni yetti iqlimga buldi; vaqt o'lchamini; osmonning, kelajak manzarasini ifodalaydigan usturlub nazariyasini yaratdi va h. k.

Abu Nasr Forobiy. (873—950). Abu Nasr Muxammad ibn Muxammad ibn Uslug' Forobiy Sirdaryo bo'yidagi Forob-O'tror degan joyda dunyoga kelgan. U Toshkent, Samarqand va Buxoro, shuningdek, Bag'dod shaharlarida o'z bilimini oshirgan. Forobiy umrining so'nggi yillarini Halab, Damashk shaharlarida o'tkazgan. U 160 ga yaqin asar yozgan.

Karyeraga tayyorlik: STEAM ta'limi orqali olingan ko'nikmalar bugungi mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladi. STEAM texnologiyalari bilan shug'ullanish orqali o'quvchilar muhandislik, informatika, dizayn, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda yuqori baholanadigan ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ular potentsial martaba yo'llarini chuqurroq tushunishadi va kelajakdagi imkoniyatlarga yaxshiroq tayyorlanishadi.

STEAM ta'limi o'quvchilarni zamonaviy mehnat bozori talablariga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. STEAM ta'limi orqali olingan ko'nikmalar turli sohalarning ehtiyojlariga mos keladi va keng ko'lamlari martaba imkoniyatlarini ochadi. STEAM ta'limi mansab tayyorgarligini qanday oshiradi:

Talab qilinadigan ko'nikmalar: STEAM ta'limi o'quvchilarni bugungi mehnat bozorida yuqori baholanadigan turli ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Ushbu ko'nikmalar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik, ijodkorlik, texnologik savodxonlik, ma'lumotlarni tahlil qilish, dasturlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Turli sohalardagi ish beruvchilar ushbu ko'nikmalarga ega nomzodlarni izlaydilar, chunki ular tez rivojlanayotgan ishchi kuchida muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Rivojlanayotgan sohalar: STEAM ta'limi o'quvchilarni texnologik taraqqiyotning boshida turgan rivojlanayotgan sohalarga tayyorlaydi. Texnologiya, ma'lumotlar fanlari va innovatsiyalar integratsiyasi bilan sun'iy intellekt, kibernetika, biotexnologiya, qayta tiklanadigan energiya, virtual haqiqat va barqaror dizayn kabi sohalarda martaba yo'llari kengayib bormoqda. STEAM ta'limi o'quvchilarga ushbu qiziqarli va kelajakka yo'naltirilgan kasblarni egallash uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarni beradi.

Fanlararo imkoniyatlar: STEAM ta'limi fanlararo yondashuvni rag'batlantiradi, bu o'quvchilarga turli sohalarning kesishishini o'rganishga imkon beradi. Bu ularning nuqtai nazarini kengaytiradi va bir nechta fanlarni qamrab oladigan martaba imkoniyatlarini ochadi. Misol uchun, STEAM ta'limi dizayn va muhandislik sohasida martabaga olib kelishi mumkin, bunda odamlar o'zlarining ijodiy va texnik ko'nikmalarini innovatsion mahsulotlar va echimlarni ishlab chiqish uchun birlashtiradi.

Haqiqiy dunyoda qo'llanilishi: STEAM ta'limi bilimlarni real dunyo stsenariylariga amaliy qo'llashga urg'u beradi. Talabalar real hayotdagi qiyinchiliklarni taqlid qiladigan amaliy loyihalar va tadbirlar bilan shug'ullanadilar. Ushbu ekspozitsiya o'quvchilarga STEAM sohalari bilan bog'liq bo'lgan potentsial martaba yo'llarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularni professional dunyo haqiqatlariga tayyorlaydi.

Tadbirkorlik tafakkuri: STEAM ta'limi tadbirkorlik tafakkurini rivojlantiradi, o'quvchilarni muammolarni aniqlashga, ijodiy fikrlashga va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga undaydi. Bu tafakkur o'quvchilarni nafaqat an'anaviy ishga, balki tadbirkorlik tashabbuslari va startap imkoniyatlariga ham tayyorlaydi. Talabalar bozor ehtiyojlari haqida tanqidiy fikrlashni, mahsulot yoki xizmatlarni loyihalashni va o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etish uchun texnologiyadan foydalanishni o'rganadilar.

Butun umr bo'yi ta'lim: STEAM ta'limi o'rganishga bo'lgan muhabbat va uzluksiz malaka oshirish uchun minnatdorchilik uyg'otadi. Talabalar o'zlari tanlagan sohalardagi eng so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lishga, yangi texnologiyalarga moslashishga va umrbod ta'lim olishga rag'batlantiriladi. Ushbu fikrlash bugungi mehnat bozorida juda muhim, bu erda mutaxassislar raqobatbardosh va moslashuvchan bo'lib qolish uchun o'z malakalarini doimiy ravishda oshirishlari kerak.

STEAM texnologiyalari bilan shug'ullanish va tegishli ko'nikmalarga ega bo'lish

orqali o'quvchilar keng doiradagi martaba imkoniyatlariga yaxshiroq tayyorlanadi. Ular bugungi va ertangi kunning dinamik va texnologiyaga asoslangan mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va tafakkurga ega bo'lishadi.

Umuman olganda, STEAM texnologiyalari o'quvchilarga bir nechta fanlardan olingan bilimlarni birlashtiradi, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik, hamkorlik va texnologik savodxonlikni rivojlantiruvchi yaxlit ta'lim tajribasini taqdim etadi. Ushbu ko'nikmalar ularning akademik muvaffaqiyati, shaxsiy o'sishi va kelajakdagi martaba uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar

13. Сафарова, Р. Г. Учащиеся как активные творческие субъекты образовательного процесса в условиях модульного обучения / Р. Г. Сафарова, Н. С. Сабирова // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития : материалы 14-й международной конференции, Санкт-Петербург, 03–05 июня 2016 года. – Санкт-Петербург: Ленинградский государственный университет им. А.С. Пушкина, 2016. – С. 219-222. – EDN XQTQHD.

14. Rokhat G Safarova Social and Pedagogical Ways to Form Students' Skills to Counteract Mass Culture. http://www.auris-verlag.co.uk/mediapool/99/990918/data/DOI_10.12851_EESJ201702.pdf#page=62

15. Шермаматова Л. Сафарова Р.Г., Иноятова М., Шокирова М. «Алифбе» дарлиги. 2017. Тошкент: Маънавият. 2017, 15-нашри. – 80 бет. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eN8GPmgAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=eN8GPmgAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC

16. Иноятова М. Сафарова Р.Г. Умумий ўрта таълим муассасалари учун Она тили фанидан ўқув дастури. РТМ – Тошкент, 2017 йил апрель. – 103 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eN8GPmgAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=eN8GPmgAAAAJ:Wp0gIr-vW9MC

17. Сафарова Р. Г. Социально-педагогические пути формирования у учащихся навыков противодействия массовой культуре // “The advanced science open access journal”- Германия, https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eN8GPmgAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=eN8GPmgAAAAJ:qUcmZB5y_30C

18. Юсупова Ф.И. Сафарова Р.Г. Ўқув модуллари ташлашда таяниладиган принциплар ва уларнинг тавсифи // “Xalq ta'limi” журналі – Тошкент, 2017 йил №1 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eN8GPmgAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=eN8GPmgAAAAJ:TFP_iSt0sucC

19. Нуржанова Р.У. Сафарова Р. Г. Ўқув модуллари ташлашда таяниладиган принциплар ва уларнинг тавсифи // “Xalq ta'limi” журналі – Тошкент, 2017 йил №5 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eN8GPmgAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=eN8GPmgAAAAJ:isC4tDSrTZIC

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Sidiqova Dilora Shavkatovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
<http://orcid.org/0000-0002-2066-204X>

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-metodik imkoniyatlari, o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bugungi kunda talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda olimlarning ilmiy ishlari va ularning qarashlari ifodalangan. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining izohlangan. Talabalarning mustaqil ta'lim va o'z ustida ko'proq ishlash natijasida kasbiy kompetentligini takomillashtirib boradi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy va shaxsiy sifatlar, fanlararo kompetensiyalar, tayanch kompetensiyalar, o'z-o'zini baholash, axborot-uslubiy ta'minoti, kasbiy tayyorgarlik.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Сидикова Дилора Шавкатовна
докторант Бухарский государственный университет

Аннотация: в данной статье описаны научно-методические возможности повышения профессиональной компетентности студентов, особенности учебного процесса. Сегодня научные труды ученых и их взгляды выражаются в повышении профессиональной компетентности студентов. Разъяснены понятия компетентности и компетенции. Студенты повышают свою профессиональную компетентность в результате самостоятельного обучения и больше работают над собой.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональные и личностные качества, междисциплинарные компетенции, базовые компетенции, самооценка, информационно-методическое обеспечение, профессиональная подготовка.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF IMPROVEMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Sidikova Dilora Shavkatovna
Doktoral student of Bukhara State University

Abstract: this article describes the scientific-methodical possibilities of improving the professional competence of students, the specific features of the teaching process. Today, the scientific works of scientists and their views are expressed in improving the professional competence of students. The concepts of competence and competence are explained. Students improve their professional competence as a result of independent education and more work on themselves.

Key words: competence, competence, professional competence, professional and personal qualities, interdisciplinary competences, basic competences, self-assessment, informational and methodological support, professional training.

Kirish. Kompetensiya atamasini ilk bor Amerika Qo'shma Shtatlari tilshunosi N.Xomskiy tomonidan 1965-yil Massachusetts texnologiya institutida shakllandi. 1996-yilda Bern shahrida Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha bo'lib o'tgan simpoziumda "kompetentsiya" tushunchasi "o'quv", "kompetentlik" tushunchasi "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgani ta'kidlandi. Xorijiy mamlakatlarda kompetentsiyaviy ta'lim tizimi bo'yicha Buyuk Britaniyada shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiya, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalar shakllantirilgan. Avstriyada shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyalar shakllantirilgan.

Niderlandiyada kelajakka intilish ko'nikmalarini rivojlantirishni mo'ljalladigan strategik kompetentsiyalari shakllanganligi o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan.

Xorijlik olimlardan A.Belkin va V.Nesterovlar kompetentsiyani ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zurruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalari, kompetentlikni, kompetentsiyani samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta'riflagan. V.Vvedenskiy tomonidan kompetentlik – bu qandaydir shaxsiy tavsif, kompetentsiya aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmuasi, deb ta'riflangan. A.Xutorskiy fanga oid kompetentsiyalarda “konkret ta'rifga va konkret o'quv predmeti doirasida shakllantirish imkoniyati va oltita tayanch kompetentsiyalari tahlil qilingan.

XXI asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyada Jak Delor “Ta'lim: yashirin xazina” nomli ma'ruzasida ta'lim tayanadigan to'rtta ustunga ta'rif beradi:

- bu bilishni o'rganing;
- qilishni o'rganing;
- birgalikda yashashni o'rganish;
- yashashni o'rganing. Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida, xususan, Rossiya federatsiyasida kompetentsiyaviy ta'lim talabalarida kompetentsiyalarni shakllantirishda fanlararo kompetentsiyalar, fanga oid kompetentsiyalarga bo'linadi: Qozog'iston Respublikasida shaxsiy natijalar, tizimli-faoliyatiga ko'ra natijalar va o'quv fanlari bo'yicha natijalar kompetentsiyalari o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan.

Metodlar. Mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy pedagogik tadqiqotlar ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'qitishning afzalligi, o'quvchilarda hosil bo'ladigan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda foydalanishni o'rgatishning samaradorligi aniqlangan. N.Turdiyev, Y.Asadov, S.Akbarovalarning “Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari” nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasida fanga oid va tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishda darslarga qo'yiladigan talablar, usul, metod hamda pedagogik texnologiyalardan namunalarni keltirilgan. S.Temurovning “Bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari” monografiyasida pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan kompetentsiyaning bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyatiga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini qisqacha yoritib o'tish mumkin. Ularga:

- 1) ijtimoiy kompetentlik;
- 2) maxsus kompetentlik;
- 3) shaxsiy kompetentlik;
- 4) texnologik kompetentlik;
- 5) ekstremal kompetentliklar kiradi.

N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi, bu ham talabning amaliyot jarayonida va oliy ta'limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi.

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

- O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:
- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;

- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:



Natijalar

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zini o'zi samarali baholash omillari:

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish).
2. Shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash).
3. O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo'lishi kerak, ulardan to'g'ri foydalanilganda darsga tayyorgarlik ko'rish vaqtini tejash, ishlarni va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tekshirish uchun vaqtini oqilona taqsimlash, talabalarning o'z fanlariga qiziqishini oshirish, yuqori natijalarga erishishga undashi kerak. Zamonaviy axborot xizmatlari o'qituvchiga darsni yanada

samarali qilishga, talabalar bilan birgalikda tadbirlar yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlovchi axborot-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy amaliy dasturiy vositalar orqali amalga oshirish mumkin. Mazkur axborot-didaktik materiallardan boshlang'ich ta'lim yo'nalishida foydalanish orqali talabalarining mustaqil ta'limini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi. Talabalar o'z-o'zini baholash orqali o'zining nuxsonini o'zi bilib oladi va shu nuxsonini o'zi bilgan holda buni tuzatishga harakat qiladi. So'ngra o'z ustida ko'proq ishlaydi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarining kasbiy tayyorgarligi orqali kompetentligini rivojlantirib boradi. Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, subyektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T: 2016. –147 b.

3. Muslimov N.A., Abdullaeva Q. Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari. / "Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. -Toshkent: TDPU, 2012. 26-28-b.

3. Ochilov Shokir Baxtiyorovich «Fizikani fanlararo o'qitishda o'quvchi ekologik kompetentsiyasini rivojlantirish texnologiyalari» Samarqand - 2021

4. Sidiqova, D. (2021). «МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ» В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 3(3).

5. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152-155.

**TARIX FANLARINI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
TEKNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISH SAMARADORLIGI**

*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti*

*Xujanova Lobar Raimkulovna
Guliston davlat universiteti doktoranti*

Annotasiya. Mazkur maqolada tanqidiy fikrlash texnologiyasining maqsadi, vazifalari, o'ziga xos xususiyatlari, uni amalga oshirish usullari va natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tarix fanlarini o'qitishda ushbu texnologiyadan foydalanish samaradorligi, uning uslubiy metodlari va texnologik bosqichlari taqdim qilingan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning o'ziga xos strategiyalari hamda tarix darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalari, muammoli vaziyat yaratishda, muammoli vaziyatni yechishda qo'llanadigan usullar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, intellektual salohiyat, natijalar, xususiyatlar, usul, uyg'otish, anglash, odatlanish, chaqiriq, strategiyalar, sugrotona usul, tafakkul, muammoli vaziyat yaratish, evristik usul

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК НА
ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

*Таштемирова Саодат Абдурашидовна
Доцент Чирчикского государственного педагогического университета*

*Хужанова Лобар Раимкуловна
Докторант Гулистанского государственного университета*

Аннотация. В данной статье представлена информация о цели, задачах, особенностях технологии критического мышления, методах ее реализации и результатах. Представлена эффективность использования данной технологии в обучении истории, ее методические приемы и технологические этапы. Также упоминаются конкретные стратегии развития критического мышления и проблемные образовательные технологии развития критического мышления на уроках истории, методы создания проблемной ситуации, решения проблемной ситуации.

Ключевые слова: критическое мышление, интеллектуальный потенциал, результаты, характеристики, метод, пробуждение, понимание, привыкание, вызов, стратегии, метод Сократа, мышление, создание проблемных ситуаций, эвристический метод.

**EFFECTIVENESS OF HISTORICAL SCIENCES TEACHING BASED ON
THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING TECHNOLOGY**

*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna
Docent of Chirchik State Pedagogical University*

*Khujanova Lobar Raimkulovna
Doctoral student of Gulistan State University*

Abstract. This article provides information on the purpose, tasks, characteristics of critical thinking technology, its implementation methods and results. The efficiency of using this technology in the teaching of history, its methodological methods and technological stages are presented. Also, specific strategies for developing critical thinking and problem-based educational technologies for developing critical thinking in history classes, methods for creating a problem situation, and solving a problem situation are mentioned.

Key words: critical thinking, intellectual potential, results, characteristics, method, awakening, understanding, habituation, challenge, strategies, Socratic method,

thinking, problem situation creation, heuristic method

Kirish. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi XX asrning 90-yillari o'rtalarida amerikalik o'qituvchilar K. Meredith, Ch. Temple tomonidan kiritilgan. Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotni o'z yondashuvi bilan tahlil qilish qobiliyati bo'lib, bunda o'quvchi o'z-o'zini boshqaradi, baholaydi, fikrlashini tuzatadi. Texnologiya o'quvchining axborotni idrok etish samaradorligini oshirish bilan birga o'rganilayotgan matn yoki jarayonga qiziqishini oshiradi. Har bir o'qituvchining vazifasi ta'lim oluvchining o'z-o'zini anglashi, shu jumladan intellektual qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishdir. Bu jahhada tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish ushbu muammolarni hal qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [1]. Turli sohalarida jumladan, iqtisodiyot, fan va madaniyatda mustaqil ravishda axborot bilan ishlashni biladigan, turli sohalaridagi bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda oshiradigan, yangi bilimlarni o'zlashtira oladigan yoshlar salmog'ini ko'payishi jamiyat taraqqiyotida juda muhimdir. Buning uchun pedagog-murabbiylar o'quvchilarda har qanday mulohazani ko'r-ko'rona qabul qiladigan emas, balki, zarur holatda tanqidiy yondasha oladigan o'z mustaqil fikriga ega yoshlarni tarbiyalashda ushbu tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Sababi ushbu texnologiya o'quvchi bilimini passiv o'zlashtirish jarayoniga emas, balki faol o'zlashtirish jarayoniga jalb qilish imkoniyatini ta'minlaydi hamda har bir o'quvchining olgan bilimlarini qachon va qanday maqsadlarda amalda qo'llashi mumkinligi bo'yicha tafakkurining shakllanishiga yordam beradi. Hozirda o'sib kelayotgan yosh avlodda ushbu xislatlarni shakllantirish davr talabi va extiyoji hisoblanadi. Chunki ta'lim oluvchining har qanday mulohazani ko'r-ko'rona to'g'ri deb qabul qilishi hozirgi mafkuraviy tahdidlar davrida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Mahmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan. Маҳаллий олимларимиздан Ф.О. Ходжиеванинг фикрича, танқидий фикрлаш – билимни ўзлаштириш ва мустақил фикрлашнинг юқори даражадаги тарқибий қисми бўлиб, шахснинг воқеа, ҳодиса, борлиқни объектив идрок этиш имкониятини кенгайтирувчи ақлий ҳодисадир [2].

Amerikalik psixolog D.Xalpern ushbu texnologiyani chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri bo'lib, tanqidiy fikrlashni qo'llashda quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi: rejalashtirishga tayyorgarlik; moslashuvchanlik; qatiyatlilik; xatolarni tuzatishga tayyorlik; murosali yechimlarni izlash [3].

Muhokama va natijalar. Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi vositalar o'quv jarayonidagi har bir bosqichning aniq maqsadlarini hisobga olgan holda tanlov amalga oshirilgandagina tizim sifatida yuzaga keladi va ular birlikda boshlang'ich sinf o'quvchilari tanqidiy fikrlashining har bir komponentiga ta'sir etadi [4]. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Tanqidiy tahlil qilish bilim-ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2. O'quvchini ta'lim jarayonida faollashtiradi va mustaqilligini oshiradi.
3. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni ta'minlaydi.

Tanqidiy fikrlash insonni intellektual faoliyatining turlaridan biri, ushbu texnologiyaning konseptual yondashuvlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- "tayyor" bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quv jarayonida tug'iladigan shaxsiy bilimlarni qo'llash;
- o'qitishning jamoaviy tamoyili, ya'ni, mashg'ulotlarning dialog rejimini, muammolarni hal qilish yo'llarini birgalikda izlashni, shuningdek o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi "sheriklik" munosabatlarini ta'minlaydi;
- o'quvchi tomonidan idrok etilayotgan obektning ijobiy va salbiy tomonlarini obektiv baholash imkoniyatlarini beradi va h.z.

O'quvchida tanqidiy fikrlash quyidagi natijalarni beradi:

- qiziqishini namoyish etish;
- tadqiqot usullaridan foydalanish;
- javoblarni muntazam ravishda izlash;

- dalillarning sabablari va oqibatlarini aniqlash;
- umumiy qabul qilingan haqiqatlarga shubha qilish;
- o'z nuqtai nazarini himoya qilish, mantiqiy dalillar bilan qobiliyatini rivojlantirish;

- raqibining dalillariga e'tibor berish va ularni mantiqiy anglash;

Tarix fanlarida tanqidiy fikrlash texnologiyasini yuqori sinf o'quvchilarida qo'llash yaxshi samara berishi mumkin. Sababi tanqidiy fikrlash imkoniyatidan foydalanish uchun o'quvchida bunga imkon beradigan bir qator xususiyatlarni rivojlantirish talab qilinadi. Bunday xususiyatlar kichik yoshdagi ta'lim oluvchilarda yetarlicha shakllanmaydi.

Xo'sh? Tarix fanlarini o'qitishda ushbu texnologiyadan foydalanish fan o'qituvchisi uchun qanday natijani berishi mumkin?, - degan savol tug'ilishi tabiiy.

Birinchidan, sinf jamoasida yoki auditoriyada ochiqlik va hamkorlik muhitini yaratadi.

Ikkinchidan, o'quv jarayonida tanqidiy fikrlash va o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xissa qo'shadi.

Uchinchidan o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z faoliyatini malakali tahlil qilishni biladigan amaliyotchilarga aylanishiga sabab bo'ladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, uslubiy metodlari va texnologik bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich. Uyg'otish, bu mavjud bilimlarni namoyish qilish, yangi ma'lumotlarni olishga qiziqishga uyg'otish va o'quvchining o'z o'quv maqsadlarini belgilashni nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqich. Ma'noni anglash, bunda yangi ma'lumot olish, o'quvchi tomonidan belgilangan o'quv maqsadlarini to'g'riligi va uning tarkibini tushunishiga e'tibor qaratiladi. Mavzuga oid yangi ma'lumotlar, jumladan, matn, fil'm, ma'ruzalar, paragraf materiallari bilan bevosita aloqa o'rnatiladi. Bunda o'quvchi vazifani yakka yoki juftlikda amalga oshiradi. Ushbu texnologiyada jamoaviy ishlashda individual izlash va fikr almashish kabi ikkita element bo'lishi lozim.

Uchinchisi bosqich. Odatlanish, ya'ni yangi bilimlarning tug'ulishi, bunda o'quvchi tomonidan yangi o'quv maqsadlari belgilanadi. O'qilgan ma'lumotlarni aks ettirish, tahlil qilish, ijodiy ishlov berish, izohlash amalga oshiriladi. Bu faoliyat yakka tartibda, juftlikda yoki guruhda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyaning yana bir ijobiy xususiyatlaridan biri o'quvchilarda mavzudan tashqari ko'nikmalarni shakllanishiga va rivojlanishiga imkon beradi.

"Tanqidiy fikrlash" tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash shakli bu - ijodiy yoki ichki his bilan intuiativ sezib fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash - axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni. Ushbu texnologiya bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqni egallashga, mazkur matn bo'yicha jamoai bilan birgalikda harakatda bo'lishiga qaratilgan pedagogik texnologiya. O'quv auditoriyasidagi ruhiyatni o'zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya'ni mashg'ulot o'qituvchi va o'quvchilarning ijodxonasiga aylanishini ta'minlay oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlari (1-jadval)

Chaqiriq (da'vat)	Anglash	Fikrlash
1. Yangi ma'lumotlarni ma'lum bo'lganlari bilan bog'lash.	1. Chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faollikni qo'llab-quvvatlash	1. O'quvchilar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak.
2. O'quvchilarni faollashtirish.	2. O'quvchilarda o'zini tushunishini kuzatishga doir intilishlarini qo'llash.	2. Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganida shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi
3. Taklif etilgan mavzuni ko'rib chiqishga qiziqish tug'diriladi va maqsad aniqlanadi.	3. Yangi o'quv materialini tushunilishiga erishish.	3. Jonli fikrlar almashinuviga erishiladi

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning o'ziga xos strategiyalari ham mavjud bo'lib, ular da'vat bosqichida qo'llaniladigan, anglash bosqichida qo'llaniladigan va fikrlash bosqichida qo'llanadigan strategiyalardir. Tarix darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bevosita muammoli ta'lim texnologiyalari orqali amalga

o'shiring samaradorlikni yanada o'shiradi. Tarix fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Inson tafakkuri muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoni qo'yish va uni yechishdek noyob qobiliyatga ega bo'lganligi sababli insoniyat tomonidan ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar amalga oshirilgan. Pedagogik tafakkurni o'quv jarayonida muammolarni yechishga yo'naltirish, ya'ni ta'lim jarayoniga muammoli o'qitishni joriy etish ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan asta-sekin mustaqil faoliyatga o'tish imkoniyatini beradi. Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib, qadimgi Yunoniston, Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'lim texnologisi amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog J. Dyui tomonidan 1894 yilda Chikagoda tajriba maktabida qo'llanilgan bo'lib, XX asrning 60-yillarida mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borilgan. J. Dyui 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan [5]. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning fiziologik balog'atiga qarab, o'z- o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J. Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida ta'lim oluvchilarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar. J. Dyui g'oyalari bo'yicha o'quvchi bilishda insoniyat yo'lini qaytaradi, bilimlarni o'zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, u o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi. J. Dyuning fikricha, o'qitish samaradorligi shartlari o'quv materialini muammolashtirish ta'lim oluvchi faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ushbu texnologiya 70-80 yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi [6]. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta'limning bosh maqsadi - o'quvchilarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyatni yaratishdan iborat. Tarix fanlarini o'qitishda o'qituvchilar dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarida o'quvchilarga yo'nalish berishi lozim.

Muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda asosiy bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llash bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi (talaba) chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyiligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Suqrotona suhbatlar deyilgan o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda, ularni tuzatish yo'liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjudki, bunda o'qituvchidan keng bilim va ijodiy fikrlash qobiliyati, yuqori muloqot madaniyati, pedagogik mahorat talab qilinadi [7].

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g'oya yotadi va muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

- muammoli vaziyat;
- muammoni yechish yo'llarini izlash;
- muammoning yechimi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va darslik bilimning asosiy manbasi bo'lsa, muammoli o'qitishning falsafasi va metodologiyasida o'qituvchi tinglovchilarning

izlanish-tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchisi va yordamchisi sifatida ko'radi. Bu rol an'anaviy o'qitishdagi roldan ancha murakkab bo'lib, u o'qituvchidan yuqoriroq mahorat talab qiladi.

Shuningdek, integrasion didaktik imkoniyatlarda ta'lim sifatini oshirish mumkin. O'quvchi tafakkurini, kreativligini shakllantirish uchun muammoli o'qitish, individual ishlash, motivasiyani kuchaytirish, mustaqil ta'limga yo'naltirish, o'z-o'zini rivojlantirish, nazorat qilish, baholash kabi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tarkibiy qismlarini o'zaro integrasiyalash orqali tashkil tashkil qilish orqali o'quvchi iqtidori rivojlanadi hamda sifatli ta'lim olish ta'minlanadi [8]. Muammoli o'qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o'qituvchi o'zi yechishi lozim bo'lgan ziddlikni ko'rishidan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

Muammoli vaziyat yaratish usullari: o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va o'quvchilar uni yechish yo'llarini izlab topishlari lozim bo'ladi; bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qilinadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi; o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi; o'quvchilar o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llanadigan usullar:

- muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- o'quvchilarning o'zlari savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli o'qitish – o'quvchining muammoli taqdim etilgan ta'lim mazmuni bilan faol o'zaro bog'lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchi ilmiy bilimning ob'yektiv ziddliklari va ularning yechimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga o'rganadi. Muammoli o'qitish ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an'anaviy o'qitishdagiga nisbatan jadalroq bo'ladi, lekin muammoli o'qitishning bu funksiyasi oshishi uchun o'quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish yetarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarning asosiy turlarini qamrab olishi kerak.

Muammoli o'qitishni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda o'qituvchi ilmiy va o'quv muammolar orasidagi umumiylikni va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi–har ikkalasida ham obektiv ziddliklar mavjudligi bo'lsa, ilmiy va o'quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo'yilgan masala hali yechilmagan, o'quv muammoda esa masala yechilgan, uni yechish yo'li va natijasi ma'lum. Faqat bu yo'llar va natijalarni o'quvchilar izlab topishi kerak.

Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi o'quvchilarni muammolarni ko'rish va yechishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Muammoli o'qitishning yaqqol ko'rinib turgan afzalliklariga qaramasdan maktab ta'limining hech qaysi bosqichi to'liq muammoli tuzilishi mumkin emas. Muammoli o'qitishni amalga oshirish uchun qism (ayrim bo'lim, mavzu, band) larni ajratib olish lozim. Bunda o'quv materialining mantiqiy-didaktik tahlili, muammolarni qo'yish imkoniyatlari, o'qitish maqsadlariga erishishda ularning samarasini aniqlash talab etiladi. Ko'p narsa u yoki bu sinfda ishlashning aniq sharoitlariga bog'liq. Bundan tashqari, maktab darsliklaridagi o'quv materiali kamdan kam hollarda muammoli o'qitishga moslashtirilgan. Lekin muammoli o'qitishni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quv matnlarini osongina qayta ishlashi mumkin. Muammoli vaziyatlarni modellashtirish uchun eng optimal o'quv materiali bu - darslikdagi fan va texnika tarixiga oid ma'lumotlar.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda evristik o'qitish usuli ham samarali bo'lib, uning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Insonning ijodiy faoliyat masalalari falsafa, psixologiya, metodologiya, kibernetika, axborot nazariyasi, pedagogika kabi ko'pgina fanlar tomonidan o'rganilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda inson ijodiy faoliyatini o'rganuvchi maxsus fan - "Evrastika"ni yaratish to'g'risidagi

fikrlar tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Evristika so'zi "Evrika" - "topdim" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u biror muammoni hal etilishi bilan bog'liq bo'lgan quvonch, biror yangi fikr tug'ilishini olqishlashdir.

Evristika (yunoncha "heurisko" – izlayapman, topyapman, kashf etyapman) inson ijodiy faoliyatini, shuningdek, yangi kashfiyotlarni yaratishda qo'llanadigan usullarni o'rganadigan fan sifatida psixologiya, kibernetika, strukturali lingvistika, axborot nazariyasi chegarasida rivojlanadi.

Evristikani yangi vaziyatda yangi harakatlarni qurish qonuniyatlarini o'rganadigan fan deb tushunish mumkin. Lekin ta'lim jarayonida o'xshatish-obrazli tafakkurni, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar asosan masalalar yechilishining mantiqiy usullariga e'tibor berishadi, ayrim hollarda me'yoriy hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tarbiyalash va o'qitish an'analari ta'sirida bo'ladilar.

Tinglovchining vazifasi nafaqat madaniy an'analarni o'rganish va talqin qilish, balki yangilarini yaratishdan iborat. Ma'lumki, tabiat insonni yaratgan va unga tasavvur qilish, o'ylab topish, bunyod qilish, yaratish qobiliyatlarini bergan. Demak, har bir inson evristik deb atalmish qobiliyatga ega. Shunday ekan, evristika, evristik uslublar va evristik o'qitish deganda nimalar tushuniladi? Evristik uslublar juda murakkab, ko'zda tutilmagan vaziyatlarda ham yechimni topish imkonini beradi. Evristika maqsadga erishishga ko'maklashadigan harakatlar uslubini belgilaydi.

Evristik o'qitish jarayonida o'quvchining faoliyati tizimli ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Miyaga kelgan barcha o'y-xayollar - bu fikrlar. O'quvchini, insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har on, har daqiqada odam miyasi qaydaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, keragida diqqatni jalb qilish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish, ya'ni ifodalash-fikrlash jarayoni. Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masalani, muammo yoki jumboqni hal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks holda u boshqa jarayonga-xayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Mustaqil fikrlash - shaxsning shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga va nostandart yechimlarga ega bo'ladi. Mustaqil fikr insonning narsa va hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlarini chegarasini kengaytiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqil fikrlash bir qarashda shaxsning individual xususiyati bo'lsa-da, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o'rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo'lganda rivojlanadi. Xayol-yangi obrazlar va taxminlarni shakllanish jarayoni bo'lsa, fantaziya –xayolning borliqdan, haqiqatdan biroz uzoqlashuvi jarayoni.

Shunday qilib, muammo yoki jumboq bizni fikrlashga majbur etadi. Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yoki muammomni yechish mobaynida tinglovchi uning shartlarini bir necha variantda tasavvur qilsagina yechimga kelar ekan. Chunki kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir sekin fikrlaydi. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o'tirgan ikki Tinglovchi bir xil yechimni belgilasada, o'sha yechimga kelishi yo'llari har bir Tinglovchida o'ziga xos bo'ladi.

Tafakkur - inson ongining bilish ob'yektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish jarayoni. Afsuski, maktabda o'xshatish - obrazli tafakkurni, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar asosan masalalar yechilishining mantiqiy usullariga e'tibor berishadi, ayrim hollarda me'yoriy hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tiklash an'analari ta'sirida bo'ladilar. O'qitishning kutilayotgan natijalarini ishlab chiqishda zamonaviy psixologik yondashuvlar qadim davrlardayoq yaratilgan bo'lib, Aristotel ta'lim maqsadlarining uchta asosiy kategoriyasini, ya'ni tafakkur, sezish qobiliyati va qo'l amallarini bir-biridan farqlagan. Pestalotssi esa bu amallarga muvofiq inson tanasining uch organini keltiradi: bosh, yurak va qo'l.

Xulosa. Bugungi kunga kelib, uchta soha bo'yicha o'quv maqsadini (kutilayotgan natijalar, vazifalar)ni rejalashtirish qabul qilingan. Dars jarayonini o'quv maqsadlarini belgilashda quyidagi amallarni bajarish lozim:

1. Ma'lum mavzu bo'yicha o'quvchilar uchun topshiriqlar sonini aniqlash.
2. Shu mavzu bo'yicha o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan amallarni aks ettiruvchi va o'qitishning kutilayotgan natijalarini ifodalashda qo'llanishi mumkin bo'lgan aniq fe'llar ro'yxatini tuzish.
3. Har bir topshiriqni (kutilayotgan natijani) o'quvchining (o'qituvchi faoliyati atamalarida emas) ishi atamalarida shunday qo'yish kerakki, u mashg'ulot davomida o'qituvchi o'tishi lozim bo'lgan bosqichlarga emas, balki «o'quvchining yakuniy amallari»ga qaratilgan bo'lsin.
4. Har bir topshiriqda o'quvchi faoliyati aks etishi lozim. Masalan: sanab o'tadi, tavsiflaydi, ajratadi, namoyish qiladi, tanlaydi, tahlil qiladi, hisoblaydi va h.k.
5. O'quvchilardan kutilayotgan, kuzatiladigan, kuzatilmaydigan «hulqni» («ko'nikmalarni shakllantirish», «anglashiga erishish» va h.k.larni) aniq ifodalash.
6. Har bir topshiriqni (kutilayotgan natijani) shunday qo'yish kerakki, u ikkita-uchta o'qitish natijasini emas, faqat bitta natijani o'z ichiga olsin.
7. Topshiriqlarni amalga oshganligini o'lchash mumkin bo'lsin va maqsadga erishilganligini tasdiqlash imkoniyati bo'lishiga ahamiyat berish lozim.
9. Agar o'quvchi ma'lum davr ichida o'z ishini namoyish etishi kerak bo'lsa, vaqt chegaralarini belgilash.
10. O'quv topshiriqlarini (kutilayotgan natijalarni) uchta soha bo'yicha ifodalash: kognitiv (bilishga oid, tafakkur sohasida) - o'zlashtirilgan bilimlar va egallangan ko'nikmalar; psixomotor (amallar sohasida) - tana harakatlarini muvofiqlashtirish, ularning asab-mushaklar koordinatsiyasi. Masalan, yozuv, sport anjomlarida mashqni bajarish; affektiv (emosional-qadriyatlar, hissiyot sohasida) - hissiy qadriyatlar (quvonch, hayajon, qoidalarga rioya qilish va h.k.).
11. O'quv topshiriqlarini (kutilayotgan natijalarni) ishlab chiqqandan so'ng, kutilayotgan natijalarga erishganlik darajasini baholash bo'yicha nazorat topshiriqlarini tuzish.
12. Dars mazmunini aks ettirish uchun usul va vositalarni tanlash. Ular ham an'anaviy, ham interfaol usullar bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Носиров О.Н. Танкидий фикрлаш технологиясининг шаклланишида кластер методининг роли / Педагогик таълим кластери: муаммо ва ечимлар. Халқаро конференция. Чирчиқ. 2021. -Б. 175.
2. Ходжиева Ф. О. Уқувчиларни танкидий фикрлашга ўргатиш ва унинг муҳим жиҳатлари // Современное образование (Узбекистан). 2017. № 6. –Б. 43-47.
3. Халперн Д. Психология критического мышления. 4-е международное издание. Санкт-Петербург. Москва-Харьков-Минск. 2000. -С. 512.
4. Арабова М., Бердиева Ф. Танкидий фикрлашни ривожлантиришнинг назарий асослари // Современное образование (Узбекистан). 2014. №7. – Б. 49-54.
5. Рогачева Е.Ю. Влияние педагогики Джона Дьюи на теорию и практику образования в XX веке / дисс. автореф. доктор пед. наук. М, 2006. 358 с.
6. Исмоилова З.Қ., Раупова Ш.А. Муаммоли таълим технологияларининг таълим жараёнидаги ўрни // Journal «irrigatsiya va melioratsiya» № 3 (13). 2018.-Б. 93-94.
7. Иванова О.Э., Гнатышина Е.А. Сократический диалог как метод управления проблемами // Философская мысль. 2018. №4. –Б. 59-65.
8. Тоштемирова С.А. Кластерли ёндашув асосида умумий ўрта таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш // педагогика фанлари бўйича фалс. докт.дисс. Тошкент. 2021. – 198 б.

FIZIKANI TABIIY FANLARARO ALOQADORLIKDA O'QITISHDA TALABALARNING ILMIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Tugalov Farxod Qarshiboyevich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizikani fanlararo aloqadorlikda o'qitish usullari, fanlararo aloqadorlikning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Fizikani fanlararo aloqadorlikda o'qitishda fizika qonunlarining amaliy qo'llanilishi muhim ahamiyatga egaligi tahlil qilingan. Fizikani fanlararo aloqadorlikda o'qitish talabalar ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun muhim omil ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: materiya, fanlararo aloqa, tabiiy fanlar, umumiy qonuniyatlar, tanqidiy fikrlash, ilmiy kompetentlik, elektromagnit to'lqin, ultrabinafsha nurlanish, radioaktiv nurlanish, muammoli ta'lim.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАУЧНОЙ КОМПЕТЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ КОММУНИКАЦИЯХ ФИЗИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Аннотация. В данной статье освещены методы обучения физике в условиях межпредметной коммуникации, специфические особенности межпредметной коммуникации. Проанализировано значение практического применения законов физики в междисциплинарном обучении физике. Раскрыто, что преподавание физики в междисциплинарной форме является важным фактором развития научной компетентности студентов.

Ключевые слова: материя, междисциплинарная связь, естественные науки, общие закономерности, критическое мышление, научная компетентность, электромагнитная волна, ультрафиолетовое излучение, радиоактивное излучение, проблемное обучение.

METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC COMPETENCE OF STUDENTS IN TEACHING PHYSICS IN THE RELATIONSHIP OF NATURAL SCIENCES

Annotation. In this article, the methods of teaching physics in interdisciplinary communication, the specific features of interdisciplinary communication are highlighted. The importance of the practical application of the laws of physics in the interdisciplinary teaching of physics has been analyzed. It was revealed that teaching physics in an interdisciplinary manner is an important factor for the development of students' scientific competence.

Key words: matter, interdisciplinary communication, natural sciences, general laws, critical thinking, scientific competence, electromagnetic wave, ultraviolet radiation, radioactive radiation, problem-based education.

Respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, jumladan Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son Prezident qarorida «...oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitishning integrativ prinsiplarini joriy etish, yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning fizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bu borada zamonaviy didaktik-metodik talablar asosida fizika fanining amaliyot bilan aloqasini ta'minlash va bu aloqani yanada

mukammal o'rganishni jadallashtirish, fizikani chuqurlashtirgan holda o'rganishda o'qitish vositalari imkoniyatlarini kengaytirish masalalari zaruriyatga aylanmoqda.

Ushbu belgilangan vazifalarni amalga oshirishda fizika o'qitishda fanlararo aloqadorlikni o'rnatish muhim hisoblanadi.

Materiya tuzilishi va tashkil bo'lishi, rivojlanishning bir darajasidan ikkinchisiga va fizik yoki kimyoviy hodisalardan biologik hodisalarga o'tishdagi sifat o'zgarishlarining yaxlit ko'rinishini ta'minlash uchun fizika o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish kerak.

Fanlararo aloqalar turli maqsadlarga ega bo'lishi va turli vazifalarni bajarishi mumkin. Kimyo, biologiya, geografiya, astronomiya bilan fanlararo aloqalar fizikani chuqurroq va yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Barcha tabiiy fanlarning tadqiqot ob'ekti tabiat hisoblanadi. Tabiatshunoslik fanlarining barcha predmetlari - fizika, kimyo, biologiya, geografiya, astronomiya tabiatning turli qirralarini o'rganadi, bu esa oxir-oqibatda o'quvchilarni anorganik va organik olamlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ulardagi umumiy qonuniyatlarining o'rinli ekanligini tushunishga olib keladi, masalan, energiyaning saqlanish qonuni. O'quvchilar bu fanlarni o'rganar ekan, chuqur, mustahkam bilim insonga tabiat olami bilan uyg'unlikda yashash, bu olamni boshqarish va atrof-muhitni asrashni o'rganish uchun katta imkoniyatlar berishiga ishonch hosil qiladi [2].

Tabiatda fizikaviy, kimyoviy va biologik hodisalar o'zaro uzviy bog'liqdir. Ilm-fan va ishlab chiqarishda inson ularni qo'yilgan maqsadga qarab ongli ravishda birlashtiradi.

Fizika o'qitishda dars jarayonida tarix, san'at, musiqa fanlari bilan fanlararo aloqadorlikdan hissiy muhit yaratish va xayoliy fikrlashni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Fizika va tabiiy fanlar o'rtasidagi fanlararo aloqalarni amalga oshirish talabalar o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga, hodisalarni turli tomondan va turli jihatlardan o'rganishga hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Hodisalarning umumiy aloqadorligi talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantiradi.

Pedagogika oily ta'lim muassasalarida 5110200-fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'qitiladigan fizika o'qitish metodikasi darslarida fanlararo aloqalardan foydalanish orqali talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirishni aniq misollar bilan ko'rib chiqamiz.

Elektromagnit to'lqinlar bobini o'qitishda barcha diapazonlarning xususiyatlari, ularning biologik ta'siri, himoya qilish usullari batafsil ko'rib chiqiladi, masalan: infraqizil nurlanishdan foydalangan holda elektr uzatish liniyalaridagi nosozliklar koordinatalarini aniqlash, mikrosxemalardagi buzilishlarni aniqlash, har bir organning issiqlik nurlanishini o'lchash orqali inson organizmini diagnostika qilish, baliq, go'sht, sabzavot va mevalarni infraqizil pechlarda quritishga asoslangan.

Ultrabinafsha nurlanishning foydali va xavfli xususiyatlari (D vitamini sintezi va kaltsiyning so'rilishi bolalarning suyak tizimining rivojlanishiga, markaziy asab tizimining rivojlanishiga, teri kasalliklariga, yozda sochlarning rangi o'zgarishiga, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi va boshqalar). Turli uzunlikdagi elektromagnit to'lqinlarning biologik ta'sirini solishtirish miqdoriy o'zgarishlarning sifatga o'tishini tasvirlash imkonini beradi, bu mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Quyosh Yerdagi qisqa elektromagnit to'lqinlarning manbai bo'lib, ularning aksariyati barcha tirik mavjudotlar uchun xavflidir va faqat Yer atmosferasi sayyoradagi biologik hayotni himoya qiladi. Insoniyatning burchi atmosferani himoya qilish va saqlashdir.

Yorug'lik tabiati mavzusini o'qitishda fanlararo aloqalarni qo'llash uchun muhim jihatlar ko'p bo'lib va shu bilan birga idrok etish uchun qiyin mavzudir. Yorug'lik materiya mavjudligining o'ziga xos shakli bo'lib, u ikki tomonlama tabiatga ega -

korpuskulyar-to'liqin dualizmi. Yorug'lik tabiatini o'rganish ketma-ket davom etadi:

a) Yorug'likning to'liqin xususiyatlari.

«Yorug'lik tezligini o'lchash usullari». Ushbu darsda fizika va astronomiya o'rtasidagi bog'liqlik amalga oshiriladi, chunki. Aynan astronom Ryomer 1676 yilda birinchi marta Yupiterning yo'ldoshi Io ning harakatini kuzatish orqali yorug'lik tezligini o'lchagan.

b) Yorug'likning kvant xossalari.

Yorug'likning kvant xususiyatlarini ko'rib chiqishda yorug'likning kimyoviy ta'siriga katta e'tibor berish kerak:

- yorug'lik oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga ham ta'sir qiladi: agar shaffof paketdagi kungaboqar yog'i yorug'likda tursa, u holda yorug'lik A, E hayotiy vitaminlarini yo'q qiladi. Bunday mahsulotni tanlashda siz qisqaroq saqlash muddati bo'lgan paketni tanlashingiz kerak. Kofe, shokolad, choyni yorug'likda saqlash mumkin emas. Barcha dori-darmonlar yorug'lik tushmaydigan joyda saqlanishi kerak. Darsda yorug'lik ta'siridan himoya qiladigan quyuv shishadan tayyorlangan flakonlarni ko'rsatish mumkin.

Yorug'lik va ultrabinafsha nurlarining xususiyatlarini o'qitish jarayonida, quyoshdan saqlaydigan ko'zoynaklar haqida gapirish kerak. Ular bizning ko'rishimizni zararli tashqi ta'sirlardan himoya qiladigan to'siqdir. Ko'zoynaklar ultrabinafsha nurlarini o'tkazmaydigan yuqori sifatli bo'lishi kerak.

Quyosh ta'sirida ultrabinafsha nurlarining odamga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun himoya kremlari qo'llaniladi: quyoshdan himoya qiluvchi kremni qayta-qayta qo'llash bilan uning himoya ko'rsatkichlari o'z kuchini o'zgartirmasligini hisobga olish kerak.

«Atom va atom yadrosi» bo'limini o'qitishda fizika va kimyo o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ta'kidlash kerak. Bu yerda yana atom va atom yadrosining tuzilishi, izotoplarning tabiati, sun'iy va tabiiy radioaktivlik masalalari takrorlanadi. Bu savollarning barchasi D.I. Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy jadvalidan foydalangan holda ko'rib chiqiladi. Bu mavzuda radioaktivlik tushunchasi shakllangan. Bu yerda ushbu hodisa kashf etilishining tarixi yani M.Kyuri, A.Bekkerel, E.Rezerfordlar faoliyati ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir [3].

γ -nurlarining xususiyatlarini o'qitishda, ularning amaliy qo'llanilishini ta'kidlash kerak: hosildorlikni oshirish, unib chiqish, meva va rezavorlarni uzoq muddatli saqlash uchun biologik jarayonlarni sekinlashtirish uchun o'simlik urug'larini nurlantirish (masalan, qulupnay o'z ko'rinishini bir necha hafta saqlab qoladi). Radioaktiv nurlanishning biologik ta'sirini hisobga olgan holda, zararlangan hududda odamlarning xatti-harakatlari qoidalarini aytish kerak, masalan faqat qaynatilgan, filtrlangan suvni ichish mumkin, sabzavot va mevalar tozalangan bo'lishi kerak. Suv havzalarida suzish paytida qirg'oq qumi va loydan ehtiyot bo'lish kerak, chunki ularda uzoq muddatli yashovchi radionuklidlar mavjud.

«Yadro va zarralar fizikasi» bo'limini muammoli ta'lim metodlari asosida o'qitishda kelajak energiyasi haqida talabalarga ma'lum bir tushunchalarni berish orqali ilmiy kompetentligini rivojlantirish mumkin:

1. Kelajak energiyasi quyidagi reaksiyaga bog'liq bo'lish mumkin: . Energiyaga aylanuvchi massaning % ini toping. Ajralib chiqayotgan energiya miqdori bo'yicha necha tonna ko'mirni bir gramm deyeriy, tritiy aralashmasiga almashtirish mumkin?

Masalaning qo'yilishidagi motivatsiya – energetika rivoji, demak, talabalar kelgusi kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan butun sivilizatsiyaning istiqbollarni ochish hisoblanadi. Muhokama jarayonida atom yadrosi bir butun sistema sifatida uni tashkil etuvchi element (proton va neytron)lar uchun tavsifli bo'lmagan tuzilishlarga (massa defekti, yadro reaksiyalariga kirishishi) ega ekanligini ta'kidlash zarur.

2. Elementlar sintezi. Fizika darslarida termodinamik jarayonlarni o'rganib, o'quvchilar yer bag'ridagi elementlar sintezi bilan batafsil tanishadilar: “...

yulduzlar ilk rivojlanish davrida u asosan, vodoroddan tashkil topgan. Yulduzlar ichkarisida temperatura shunchalik yuqoriki, bunda protonlarning qo'shilish reaksiyasi geliy hosil bo'lishi bilan kechadi. Keyin geliylarning qo'shilishidan yanada og'irroq elementlar hosil bo'ladi...". Ushbu o'quv material astronomiya kursiga ham taalluqli. Bu dastur "yulduz plazmasining kimyoviy tarkibi" va "yulduzlar energiyasi manbalari" masalalariga mos keladi.

Fanlararo aloqalarni amalga oshirish fizika darsida yangi bilimlarni yetkazish jarayonida amalga oshiriladi (og'zaki javoblar, muammo yoki vaziyatlarni tahlil qilish, uy vazifalari, ma'ruzalar, nutqlar va boshqalar); bilimlarni mustahkamlash jarayonida (qiyosiy tavsiflarni tuzish, maxsus fanlardan misollar yoki amaliy mashg'ulotlar va boshqalar); mavzu bo'yicha fizik masalalarni turli fanlar materiallaridan foydalanib yechish uchun fanlararo darslarni o'tkazish zarur, bunda bitta hodisa turli nuqtai nazarda o'rganiladi.

Fizika o'qitish metodikasi fanini o'qitish jarayonida fanlararo aloqalarni fizika fanida sinfdan tashqari ishlarda ham amalga oshirish mumkinligini tushuntirish lozim:

1. fanlararo to'garaklar yoki fakultativ kurslar tashkil etish;
2. kechalar yoki konferensiyalarni o'tkazish;
3. ro'znomalar chiqarish;
4. krossvordlar tanlovini o'tkazish.

Fizikani fanlararo aloqadorlikda o'qitish talabalarning fizikani chuqur o'rganishlarida, fizika qonunlarining amaliy ahamiyatini tushunishida, fizik masalalarni turli fanlar materiallaridan foydalanib yechishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son Prezident qarori.

2. Mirzaxmedov B., G'ofurov N. va boshqalar. Fizika o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2010 yil.

3. Turdiyev N.Sh., Tursunmetov K.A., G'aniyev A.G., Suyarov K.T., Usarov J.E., Avliyoqulov A.K. Fizika 11-sinf o'quvchilar uchun darslik. Toshkent, "Niso Poligraf", 2018.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SO'Z BOYLIGINI
OSHIRISHNING AHAMIYATI**

Tuzikenova Juldizay Amantaevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**ВАЖНОСТЬ ПОПОЛНЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

Тузикенова Жулдызай Амантаевна
Докторант Нукусского государственного педагогического института
имени Ажинияза

**THE IMPORTANCE OF INCREASING THE VOCABULARY OF
PRIMARY CLASS STUDENTS**

Tuzikenova Juldizay Amantaevna
Doctoral student of Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish orqali bilimlarni puxta egallash imkoniyatining kengayishi, nutqning ifodali bo'lishiga va mustaqil fikrini yetkazib berishda qiyinchiliklarga duch kelmasligini ko'zda tutadi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darolarida bolani nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga qay darajada ahamiyat berish kerakligi so'z etilgan. O'qituvchilarining kerakli o'quv vositalarini foydalana bilishi, ayniqsa dars jarayonida lug'at bilan ishlash metodikasini yo'lga qo'yish orqali o'quvchi notanish va terminologik so'zlarning ma'nosini ochib, so'zlarni faol so'z manba'sida foydalanish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat masalalarni ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Nutqiy kompetensiya, lug'at, faol va nafaol lug'at, sinonim, antonim, mashq, so'z boyligini, lingvistika, nazariy bilim, integratsiya, lug'at bilan ishlash metodikasi.

Аннотация. В данной статье предусмотрено, что за счет увеличения словарного запаса учащихся начальных классов расширятся возможности получения знаний, речь станет выразительной и у них не возникнет затруднений в высказывании своего самостоятельного мнения. На занятиях «Родной язык и грамотность чтения» отмечалось, какое большое значение следует придавать формированию речевой компетенции ребенка. Умение учителей использовать необходимые средства обучения, особенно путем установления методики работы со словарем на уроке, ученик будет открывать значение незнакомых и терминологических слов, использовать слова как активный словесный источник.

Ключевые слова: речевая компетентность, лексика, активная и неактивная лексика, синоним, антоним, упражнение, словарный запас, Лингвистика, теоретические знания, интеграция, методика работы со словарем.

Abstract. This article discusses that by increasing the vocabulary of primary school students, the ability of acquiring knowledge will be expanded, speech will be expressive and they will not have difficulties in delivering their independent opinion. It also discusses how much importance should be given to the formation of the child's speech competence in the classes "Mother language and reading literacy" classes. The issues of forming the ability of teachers to use the necessary educational tools, especially by establishing the methodology of working with the dictionary during the lesson, the student's discovery of the meaning of unfamiliar and terminological words, and using the words as an active word source will be considered.

Keywords: speech competence, vocabulary, active and inactive vocabulary, synonym, antonym, exercise, vocabulary, linguistics, theoretical knowledge,

integration, a methodology for working with a dictionary.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish metodikasi shakllantirish, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish orqali bilimlarni puxta egallash imkoniyatining kengayishi, nutqning ifodali bo'lishiga va mustaqil fikrini yetkazib berishda qiyinchiliklarga duch kelmasligini ko'zda tutadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi, o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi [2; 308].

Boy lug'at o'qishni tushunishga erishish uchun asosdir. Lug'at (leksika) - bu inson o'z nutqida tushunadigan va qo'llaydigan so'zlar to'plami. Matndagi har bir so'zning ma'nosini tushunish jumla, paragraf, butun matnning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Shuningdek lug'at bizga samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Professor N.Mahmudov: "Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, "yuqumli" tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lmish so'z boyligiga bog'liq. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'z ma'nolari, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.)dan qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo'lishi kerak" [3; 587]. Demak fikr ifodasi va nutqning emotsional ta'sirchanligi uchun, birinchi navbatda, o'quvchilar nutqini leksik birliklar bilan boyitish zarur. Nutq o'stirish gap qurilishi va uning tarkibini tashkil etgan so'z ustida ishlash bilan o'zaro bog'liq.

Hozirgi kunda Respublikamizda boshlang'ich maktablarda "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanini o'qitish jarayonida tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu usullar orqali bolaning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsad qilib olingan. Nutqni rivojlantirish uchun esa uning asosiy bazasi so'z, lug'at tarkibi (leksika) ni o'rganish za'ruriyati kelib chiqadi.

Lug'atning ikki turi mavjud: faol lug'at - og'zaki nutqda va yozishda faol ishlatiladigan so'zlarni o'z ichiga oladi.

Nofaol (passiv) lug'at - bu odam o'qish yoki eshitish orqali o'rganadigan, lekin ularni og'zaki nutqda va yozishda o'zi ishlatmaydigan so'zlardir. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol va nofaol so'z boyligini boyitish uchun maxsus harakatlar talab etiladi. Bu so'zning ma'nosini tushuntirish, og'zaki nutqda va yozishda yangi so'zlardan foydalanish jarayonida sodir bo'ladi.

Shunga ko'ra maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi quyidagilarga bo'lib o'rganiladi:

1. So'z ma'nosini tushuntirish
2. Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) ustida ishlash
3. Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash
4. Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlar ustida ishlash

Misol tariqasida darslik asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, yuqorida so'z bilan ishlashning to'rt usuli asosida tushuntiramiz. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligining birinchi qismida "Kun tartibi" deb nomlangan bob berilgan bo'lib bu mavzu doirasida bolalarga rasmlarga asoslanib gap tuzish, gap tuzish orqali bolaning lug'at zahirasi bor bo'lgan so'zlarni foydalana olish nazarda tutilgan. Shuningdek

mavzuga doir kun qismlarining nomlanishi kabi topshiriqlar ham kiritilib, mashqda tong, tush, kunbotar, tun kabi so'zlarni foydalanish ko'rsatilgan. Qarab tursak bu so'zlarning barchasi 1-sinf o'quvchisi uchun tanish va kundalik hayotda foydalanilayotgan so'zlar, faqat "kunbotar" so'zidan tashqari. Bu so'z nafaqat bolalar tilida balki katta yoshdagi insonlar ham deyarli faol lug'atimizda qo'llanilmaydi. Ya'ni nafaqat lug'at turiga kiritsak bo'ladi. Uning o'rniga "kechki payt", "kechqurun" so'zlar ko'proq ishlatiladi. Shu o'rinda o'qituvchi tarafidan qilinadigan vazifalardan biri notanish yo'ki qo'llanilishi oz bo'lgan so'zlarga to'qtab o'tish va shu so'zlarni foydalanishga doir amaliy topshiriqlar berish, o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish kabi usullar orqali so'zning qo'llanilish doirasini kengaytirishdan iborat.

1. Kunbotar – kun botadigan vaqt.

2. So'zning sinonimlarini keltirish orqali kunbotar (vaqt ma'nosida kelgan paytda) – kechqurun, kechki payt kabi keng qo'llaniladigan ma'nodoshlari orqali tushuntirish mumkin.

3. So'zning antonimi (zid ma'nosi) ni keltirish orqali ham o'quvchilarning esida saqlab qolish mumkin: kunbotar – kunduz (Quyosh chiqqandan botguncha bo'lgan davr)

4. So'zining boshqa ma'nolarini keltirish orqali ham so'zni faollashtirish mumkin ekan. Kunbotar – g'arb. Tashqariga chiqqanimda kunbotardagi adirlar betidan – archazorlarni aralab qo'ylarimiz tushib kelmoqda edi. [4; 429]. Demak biz kunbotar so'zini faqat vaqt ma'nosida emas balki, g'arb - olamning bir tarafini bildiruvchi so'z sifatida ham ishlatishimiz mumkin ekan. G'arb deb nomlanishining sababi esa tabiiyat hodisasi bilan bog'liqligi ya'ni quyoshning g'arb tomonga botishini bildirishini o'quvchilarga kengiroq tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Bu kabi hozirgi Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Asosiysi o'quvchilar uchun notanish bo'lgan so'zlarning ma'nosini keng ochib berish va bu so'zlarni faol nutqda qo'llash ko'nikmasini hosil qilish lozimdir.

Darslikda yana quyidagicha topshiriqlarni ham uchratish mumkin. Misol tariqasida "Shaxmat o'ynaylik" nomli dialogni keltirsak:

- Rustam, ertalab biznikiga chiq, shaxmat o'ynaymiz.
- Doniyor, chiqolmayman saharda bobom bilan dehqon bozoriga bormoqchimiz
- Unda tushdan keyin chiq. Shomgacha mashq qilamiz.
- Tushlikdan keyin daraxtlarni payvandlamoqchi edik-da.
- Eh, musobaqaga tayyorlana olmas ekanmiz-da?
- Dadam ruxsat bersa, kechqurun chiqaman.

Ushbu kichik dialogda ham yo'qorida keltirgan vaqt ma'nosidagi so'zlarning ma'nodoshlarini uchratamiz. Dialog mazmuni esa o'quvchilarga har bir kunimizni foydali ishlar bilan jalb qiladigandek taqsimlashni o'rgatuvchi tarbiyaviy mazmun berilgan.

Matn ichida qora yirik harflar bilan yozilgan so'zlarni ko'chirib yozish, aytilishi va yozilishiga e'tibor berish topshirig'i yuklangan. Bu topshiriqdan bolaning yangi so'zlarni o'rganishi, uni to'g'ri yoza olishi va talaffuz qila olishi va shu bilan birga ma'nosini tushinib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Mashq so'zini o'quvchilar dars davomida bajaradigan topshiriqlar ma'nosida ko'p ishlatadilar, lekin ma'nosi keng bo'lgan so'zlardan biri bo'lib bolalar boshqa vaziyatlarda ham foydalana olishlari uchun so'zning ko'p ma'nosini tushuntirib o'tish ham so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Payvandlash so'zining ma'nosini tushuntirishda esa o'qituvchining ta'limning boshqa da o'quv vositalaridan ya'ni izohli lug'attan foydalanishi ham qo'l keladi, ya'ni ma'nosi 1 O'simlik yoki daraxt kurtagini, novdasini ikkinchisiga ulamoq Mis: Yovvoyi olma daraxtiga yaxshi navli olmani payvandlamoq; 2 Metall bo'laklarini eritib bir-biriga yopishtirmoq [5; 172] degan ma'noni berishini bolaga kengiroq tushuntirish orqali ham so'zning og'zaki yoki yozma nutqda foydalanish doirasini

kengaytirishimiz mumkin.

Demak har qanday yangi so'zni o'rganish va so'zni keng qo'llash uchun o'rganilayotgan so'zga doir misollar keltirish, ma'nodosh yoki qarama-qarshi ma'nodagi so'zlarni topish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish mumkin ekan. Va hozirda Ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchilarga tilning lingvistikaga oid nazariy bilim berishni emas boshqa fanlarga doir bilimlarni o'z ichiga olgan bo'lib ya'ni integratsiyalashgan fan sifatida bolaning mustaqil fikrlashini, kreativ yondoshuvni, ta'limni turmush bilan bog'lash malakasini, har sohaga oid bo'lgan yangi bilimlarni va tushunchalarni, terminlarni o'rganishga va shu orqali fikrlash qobiliyatini kengayib so'z boyligini, lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi. Bu o'rinda esa o'qituvchidan yuksak mahorat va samarali o'qitish uslubi va o'quv vositalaridan keng foydalanish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, berilayotgan bilim bola uchun qancha tushunarli bo'lsa qiziqish ham shunchalik ortadi. Zero kelajak yosh avlod salohiyatiga bog'liq ekan har bir olayotgan bilimni tushunarli, mazmunli va qiziqish bilan o'rgana olishi bolaning kelajakda o'z mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadr bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi "Ona tili (1-11 sinf). 2020.
2. K. Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent. 2009 y.
3. M. Safo, B.Hilola, G.Xolida, Y.Sharofat, X.Gulnora "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi". Chirchiq. 2020 y.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси). А.Мадвалиева таҳрири остида. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат нашриёти. Тошкент.
5. А.Ҳоҗийев, А.Нурмонов, С.Зайнобиддинов, К.Кокрен, М.Сайдхонов, А.Собиров, Д.Қуронов "Ҳозирги о'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati". Toshkent. 2001 y.
6. С.С Тажбенова Разработка современных методов и приемов начального обучения. EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY, 54-56.

**O'QUVCHILARDA CHET TILINI O'RGATISHNING IJTIMOIIY
PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Urazbaeva Dilnoza Ruzimbaevna
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA. Maqolada yuqori sinf o'quvchilari psixologik xususiyatlarining qisqacha tavsifi berilgan, yuqori sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarining chet tili fanini o'rganishga ta'siri ko'rsatilgan. Chet tilini o'rganish uchun motivatsiyani oshirish bo'yicha ma'lum yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: katta maktab yoshi, (yuqori sinf o'quvchilari) motivatsiya, ilk o'spirin davri, psixologiyasi, yuqori sinf o'quvchisi, kasbiy faoliyat, chet tili, usullar, chet tili zaruriyati.

**СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ
ЯЗЫКУ**

Уразбаева Дильноза Рузимбаевна
Докторант Самаркандского государственного института иностранных языков

АННОТАЦИЯ. В статье дана краткая характеристика психологических особенностей старшеклассников, показано влияние психологических особенностей старшеклассников на изучение иностранного языка. Даны рекомендации по повышению мотивации к изучению иностранного языка с учетом определенных данного возраста психологических особенностей.

Ключевые слова: старший школьный возраст, мотивация, ранняя подростковая психология, старшеклассник, профессиональная деятельность и иностранный язык.

**SOCIO-PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF
STUDENTS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE**

Urazbaeva Dilnoza Ruzimbaevna
Doctoral student of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

ABSTRACT. The article gives a brief description of the psychological characteristics of high school students, the impact of psychological characteristics of high school students on learning a foreign language. Recommendations for increasing motivation to learn a foreign language are given, including certain psychological characteristics the period of early adolescence.

Key words: high school age, motivation, early adolescent psychology, high school student, professional activity and foreign language.

Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo'lib, jamoa bo'lib shakllanadi. Ayni o'sha paytda ularni o'zlarini o'rgangan muhitdan ajratib qo'yimaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining usluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH. Bugungi kunda chet tillari professional faoliyat uchun zarur bo'lgan maktab darslari ro'yxatida o'z o'rnini mustahkam egalladi va o'z faoliyat sohasi bo'yicha chet tilini yetarli darajada bilmaydigan zamonaviy muvaffaqiyatli mutaxassisni tasavvur qila olmaymiz va chet tili nafaqat turli madaniyatlar o'rtasidagi mulohot vositasi, balki atrofimizdagi dunyoni xilma-xilligi bilan tushunish vositasidir. Hozirda chet tilini o'rganish har qanday shaxsning keyingi kasbiy faoliyatida asosiy rol o'ynashi mumkin bo'lgan bosqichdir. Biroq, fanning muhimligiga qaramay, afsuski, umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari orasida chet tilini o'rganish uchun motivatsiya darajasining pasayishi o'qituvchi oldida savol tug'diradi: O'quvchilarning

chet tilini o'zlashtirishda muvaffaqiyatga erishishiga nima to'sqinlik qiladi, nega uni o'rganishga bo'lgan motivatsiya pasayadi? Ko'pchilik til o'rganishning boshlang'ich va oraliq bosqichlarida ancha yaxshi yutuqlarni ko'rsatadi. Buning sababi ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan yoshning murakkabligini va ushbu yoshdagi guruhlarda chet tilini o'qitish usullari, texnologiyalari va yondashuvlarini tanlashda asosiy bo'lgan psixologik xususiyatlarni hisobga olinmaganligini taxmin qilishimiz mumkin.

ASOSIY QISM. Ilk o'spirinlik davri, 15 dan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi va uning katta qismi umumta'lim maktabning yuqori sinflariga to'g'ri keladi va shaxsni shakllantirish jarayonida juda muhim o'rin tutadi. Bu yoshda insonning jismoniy kamoloti tugallanadi, uning dunyoqarashining asosiy xususiyatlari shakllanadi, birinchi mustaqil, kattalarning o'zini o'zi belgilashi- kasb tanlashga tayyorlanadi va amalga oshiriladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining bilish jarayonlari har xil nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bunga o'z munosabatlarini bildirishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofidagi turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularni tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlar mulohaza yurguzib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlarini tahlil eta oladilar. Ular endi bema'lol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslash olib, o'z munosabatlarini bildiradilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yechishda foydalana oladilar. Bolalarda anglash va o'z-o'zini anglash sezilarli darajada o'sadi. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarining rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol kechadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. [1.78-79b.]

MUHOKAMALAR. L. I. Bojovich yuqori sinflar yosh davrini yoshlik kabi shaxsning motivatsion jabhalarini rivojlantirishga qaratadi: yuqori sinf o'quvchisi e'tiborini hayotda o'z o'rnini va ichki pozitsiyasini egallash, dunyoqarashini shakllantirish va uni anglash jarayoniga ta'siri, o'z o'zini idrok etish va axloqiy ongiga qaratadi deb ta'kidlaydi. [2.6-7b.]

Bu davrda yetakchi ta'lim faoliyati mehnat va o'qishdir, va o'quvchilar fanning amaliy yo'nalishiga alohida e'tibor berishadi. O'quvchilarda fanlarga nisbatan kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq manfaatlardan kelib chiqib tanlov yuzaga keladi.

Ushbu davrdagi o'quvchilar ko'pincha o'zlariga savol berishadi: «Chet tilidan qanday va qayerda foydalanishim mumkin, nega mening kasbimga kerak?» Ko'pgina o'qituvchilar tilning ahamiyati haqida juda mavhum gapira boshlaydilar, garchi aynan shu savol chet tilini o'rganishga motivatsiyani yanada rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi, o'ziga xos trampolin hisoblanadi.

Binobarin, o'qituvchilar bu yoshdagi sinflarda dastlabki darslarda o'quvchilar olgan bilimlarini qayerda va qanday qo'llash mumkinligini tinimsiz tushuntirishi lozim va fanni qiziqarli va chuqur o'rgatish ham muhim, bu orqali o'qituvchi fanning g'oyaviy, kognitiv va amaliy ahamiyatini qayta-qayta ko'rsatishi kerak. Chet tilini amaliy qo'llash turli xil so'rovnomalor, shakllarni to'ldirish kabi topshiriqlar orqali; boshqa davlatdagi tengdoshi bilan yozishmalar, kundalik mavzularda juflik ko'rinishida suhbatlar tuzish orqali ko'rsatilishi mumkin. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» kitobida shunday yozgan edi: «Qaysi faoliyatni boshlasangiz ham, birinchi navbatda o'quvchilarda unga nisbatan jiddiy

mehr uyg'otish, fanning foydasi, go'zalligini isbotlash kerak. [3.P16.18b.]

O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilar tashkilotchilar, tashabbuskorlar va hatto o'zlariga nisbatan sustroq o'qiyotgan o'quvchilarning yordamchilari kabi turli ijtimoiy rollarni o'ynashni boshlaydilar. Bu yoshdagi o'g'il va qizlar otasonasi, maktab, o'zi a'zo bo'lgan tashkilotlar tomonidan ortib borayotgan talablarga duch keladi. Uning psixologik rivojlanish darajasi va undan talab qilinayotgan sifatlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Bu qarama-qarshiliklar, garchi ko'plari qiyinchiliklarga duch kelsa ham shaxsning axloqiy va ma'naviy rivojlanishi orqali hal qilinadi. Aynan 15-17 yoshda u yoki bu sohada iqtidorni yaqqol namoyon qila oladi. Shularni hisobga olgan holda o'qituvchilar shuni yodda tutishi kerakki, aynan shu yoshda yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini aniqlashga va ularni rivojlantirishga hissa qo'shishlari kerak. Chet tillarni o'rganishga bo'lgan moyilligi ko'ra bilish va e'tiborsiz qoldirmaslik, aksincha, uni qo'llab-quvvatlab qiziqishlarini orttirishiga sharoit yaratishi, ularni chet tillari bo'yicha musobaqa va olimpiadalarga jalb qilish muhimdir.

K. B. Esipovich ta'kidlaydiki, darsning muvaffaqiyati butunlay o'qituvchining o'z intizomiga qiziqish uyg'ota olish qobiliyatiga bog'liq. Talabalarning bilimga bo'lgan qiziqishi qanchalik chuqur bo'lsa, ularning o'z-o'zini tarbiyalashga intilishi shunchalik ko'p qirrali bo'ladi. O'qituvchi, shu bilan birga, o'z faniga qiziqish uyg'otishi, nafaqat o'z tajribasini uzatishi va har qanday ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirishga yordam berishi, balki shu bilan birga uning qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashi kerak. O'qituvchi sust o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochib berishi, kuchli o'quvchilarning rivojlanishida to'xtab qolishiga yo'l qo'ymasligi, murakkab vazifalarni bajarishda o'quvchilarning iroda va qat'iyatlilikini tarbiyalashi kerak.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga to'xtalib o'tamiz. Qiziqishlarning rivojlanishi, o'rganishga ongli munosabatning o'sishi kognitiv jarayonlarning o'zboshimchaliklarini, ularni boshqarish qobiliyatini yanada rivojlantirishni rag'batlantiradi. Katta maktab yoshining oxirida o'quvchilar idrok, xotira, tasavvur, fikrlash kabilarni to'liq o'zlashtiradilar, shuningdek diqqatni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo'ysundiradilar. Kuzatish yanada ko'proq yo'naltirilgan bo'ladi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsa-da, ixtiyorsiz yodlash o'rta maktab o'quvchilari amaliyotidan hech qanday tarzda yo'qolmaydi. U faqat katta yoshdagi o'quvchilarning qiziqishlari, xususan, ularning bilim va kasbiy qiziqishlari bilan aniqroq bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Takrorlashga asoslangan so'zma-so'z yodlash bu yoshda keng tarqalgan bo'lmaydi.

Bu yoshdagi o'quvchilar diqqatni taqsimlash qobiliyatiga ega bo'ladilar, ya'ni bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirishlarini tinglashlari, yozib olishlari va mazmun va shakliga amal qilisha olishadi. Bunday guruhlardagi darsda ma'ruza, amaliy ishlarni mustaqil bajarish, insho yozish kabi darslar alohida ahamiyatga ega.

Shuni unutmaslik lozimki, yuqori sinf o'quvchilari o'quv materialining amaliy ahamiyatiga katta e'tibor berishadi, shuning uchun muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish ularda hissiy qoniqish uyg'otadi va muvaffaqiyatga erishishga qulay vaziyat yaratadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarni tanqid qilishda ehtiyotkorlik talab qilinadi. O'qituvchining keskin tanqidiy fikr bildirmasligi, aksincha, maqtov va o'quvchining eng kichik muvaffaqiyatlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, unda motivatsiya va chet tilini o'rganishga qiziqishni ta'minlaydi. Chunonchi, grammatik noaniqliklar va xatolarni unutishimiz kerak degani emas, ular haqida kamroq tanqidiy gapirish, maxsus pedagogik taktga rioya qilish kerak. Chet tilini o'rganish motivatsiyasini shakllantirishning muhim mezonini o'qituvchining shaxsiyati va obro'si, uning materialni qiziqarli tarzda taqdim etish qobiliyatidir. Chet tili o'qituvchisi, tili o'rganilayotgan mamlakatning hayoti, madaniyati haqida qiziqarli hikoyalar, ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak, bu ular darsdagi ba'zan zerikarli muhitni jonlantirishga yordam beradi. Bu yoshdagi guruhlarda dars o'tishda birinchi darsda har bir o'quvchining qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi hissiy aloqa aynan shu dars asosida qurilganligi sababli, aynan kichik narsalarga o'z vaqtida e'tibor berish keyingi motivatsiyada muhim rol o'ynashi mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari o'z qiziqishlariga

nisbatan samimiy va jiddiy bo'lishni qadrlashadi, shuning uchun ularning qiziqishlari haqida o'rganilayotgan chet tilida savollar berilsa o'quvchining javobida jonli munosabatini ko'rishingiz mumkin. O'quvchi ba'zan boy lug'atga ega bo'lmasa ham, o'zi bilgan til birliklaridan foydalangan holda, berilgan savolga javob berish imkoniyatini qidiradi. Va barchasi uning shaxsiyati, shaxsiy manfaatlariga qiziqish bildirilganligi uchun ro'y beradi.

NATIJA. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilinganda, yuqori sinf o'quvchilarning o'quv jarayonini tashkil etishga ta'sir qiladigan bir qancha xususiyatlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jabhalarida mustaqil bo'lishga intiladi;
- o'quvchilar ijodiy tomondan o'zini namoyon etishga, topshiriqlarning nostandart yechimlarini izlay oladi va qat'iyatli;
- ular kelajakdagi ta'lim va faoliyat uchun ma'lum bilim va ko'nikmalar zarurligini anglaydilar, ular uchun o'rganish hayotiy ma'noga ega.

TAVSIYALAR. Ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlarini tahlil qilib, chet tilini o'rganish motivatsiyasini oshirish bo'yicha bir qator tavsiyalar berilishi mumkin:

- O'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan chet tili zaruriyati sabablari o'quvchi savollariga keng tushuntirilishlar olib borilishi;
- dars davomida mavzuni doimiy ravishda uchun faollikni kamroq faollikdan ko'proq faollikka o'tkazish;
- olimpiada va musobaqalarda ishtirok etish; (o'quvchilarning salohiyatini ochib berishga, fikrlash jarayonini rivojlantiradi, holatga analitik baho bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi)
- keskin tanqidni minimallashtirish; (chunki bu yoshdagi o'quvchining ruhiyatiga og'riqli ta'sir qiladi. Ular uchun guruhning fikri, o'zini o'zi tasdiqlash va tengdoshlar bilan munosabatlar ayniqsa muhimdir)
- kelajakdagi faoliyat uchun chet tilining ahamiyatini aks ettirish bo'yicha tizimli ish olib borish;
- o'quvchiga shaxsiy qiziqishlariga tayanib javob berishni talab qiladigan savollar berib borish;
- musiqadan foydalanishga harakat qilish, mashhur kuylarni tinglash va tarjima qilish, chet tilidagi filmlarni tomosha qilish, so'ngra muhokama qilish.

XULOSA. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, o'quvchilarni chet tilini o'rganishga ishtiyoqini oshirish, rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy omil, ichki va tashqi vositalar yordamida o'qituvchining fanni o'qitishga shunday yondashuvni topa olish qobiliyatini shakllantirish, o'quvchining ijtimoiy, pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, jarayonda ikkala tomonning ishtiroki, muvaffaqiyatning asosiy omillaridandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Давлетшин, М.Г., Ш.Дўстмухамедова, Ш., Мавлонов, М., Тўйчиева С. (2004) Ёш даврлари ва педагогик психология. Тошкент. 68-69б.
2. Кон, И.С. (1980) Психология старшекласника. Москва.
3. Коменский, Я.А. (1939) Великая дидактика. Государственное Учебно-педагогическое издательство.
4. Зимняя, И. А. (2003) Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня.
5. Зимняя, И.А. (1991) Психология обучения иностранным языкам. Москва, "Посвящение".

ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАР ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

Умаров Бахшилло Жўраевич
БухДУ п.ф.н. дотценти,

Аннотация: Талабаларга бошқарув тизимини ислоҳ қилиш масалаларини, мамлакатимиз сиёсий ҳаётининг барча соҳаларини, давлат ва жамият, қурилишини эркинлаштириши ҳақидаги жараёнларни тушунтириши, талабаларнинг сиёсий, иқтисодий фаоллигини кучайтириши ва уларнинг ўз қобилиятини тўла рўёбга чиқариши учун тегишли шарт-шароитлар яратиши; талабаларнинг сиёсий онги, сиёсий фаоллигини юксалтириши; талабаларнинг ўзини-ўзи бошқариши жараёнини ташкил қилаётганлиги очиб берилган.

Кириш. Янги Ўзбекистон, ривожланган жамият қуриш йўлига кирди. Захматқаш халқимиз ўзининг фидойи меҳнати ва тинч ҳаёти билан дунёдаги тараққий топган мамлакатлар қаторидан мустақкам ўрин эгаллаш мақсадида барча соҳаларда чуқур ислохотларни амалга ошира бошлади. Келажаги буюк давлат барпо этиш борасида амалга оширилаётган барча тарихий ўзгариш ва янгиланишлар юртдошларимиз қалби, онги ва шурурига улкан таъсир кўрсатмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори бўлган баркамол авлодни маънавий жиҳатдан вояга етказиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. “Янги Ўзбекистонда эл азиз инсон азиз” каби давлатимиз томонидан амалга оширилаётган дастурлар фикримизнинг исботидир.

Албатта, бу ишларни амалга оширишда узлуксиз таълим турлари, айниқса, олий таълим ўқув муассасаларининг аҳамияти бекиёсдир. Чунки ушбу масканда таълим олаётган ҳар бир йигит-қиз, фақатгина у ёки бу соҳа мутахассислигига эга бўлибгина қолмай, жисмоний ва маънавий жиҳатдан камол топади. Жамиятимиз ҳаётида фаол иштирок этади. Ўзининг маънавияти, маданияти билан Ўзбекистон тараққиётининг бош йўли бўлган озод ва обод Ватан учун меҳнат қилади. Албатта бу улкан вазифаларни амалга оширишда олий таълим тизимида ўқитиладиган ижтимоий фанларнинг аҳамияти каттадир. Чунки, ижтимоий фанлар талаба шахсида миллий тафаккурини шакллантиришда, миллий истиқлол ғоясига садоқат руҳида тарбиялашда, маънавиятини ривожлантиришда муҳим ўрин тутди. Шу жиҳатдан олий таълим ўқув муассасаларида ижтимоий фанларни ўқитиш жараёнида талабаларда миллий тафаккурини шакллантириш долзарб муаммолардан ҳисобланади. Чунки, талабаларда миллий тафаккурини шакллантириш ижтимоий буюртма сифатида давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан биридир. Шунинг учун ҳам жамиятнинг турли-туман эҳтиёжлари ичида миллий тафаккурини шакллантиришга бўлган эҳтиёж кундан кунга ортиб бормоқда. Дарҳақиқат, биринчи навбатда соғлом инсоннинг билим олиши, иккинчидан, инсоннинг руҳий камолоти, учинчидан, иймон, эътиқоди таълим жараёнида эгаллаган билимига, тафаккурига боғлиқ. Чунки, ижтимоий фанларни ўқитиш жараёнида талабаларда тафаккур хусусиятлари ривожланади. Шундай экан, ижтимоий фанларни ўқитишда миллий тафаккурини шакллантириш ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратига боғлиқ. Бунда ўқитувчи миллий тушунчасининг моҳияти ва унинг давлат ҳамда жамиятдаги ўрни, айниқса, ҳар бир ёшнинг фуқаролик ва психологик етукликка эриша боришига ҳам боғлиқ.

Талабалик даврида ҳар бир ёшнинг ижтимоий ва руҳий етуклиги ривожлана бориши асосида унинг ўз-ўзини англаши шаклланади. Шунга кўра бу даврда ёшларга ижтимоий психологик таъсир, қонун ва бурчларини билиши муҳим аҳамият касб этади. Чунки, ижтимоий ва психологик етуклик ёшларда масъулият ва бурч ҳиссини англаб олишда, эътиқодининг мустақамлигида ўзига хос хусусиятга эга. Бу борада психологлар Э.Ғозиев, Р.С.Немов, В.А.Токарева ва бошқалар муҳим фикрлар билдирганлар. Уларнинг фикрича талабаларда тафаккур қилиш қобилияти, ҳис-туйғулари, ахлокий ҳислатлари аста-секин

ривожланиб, ўз-ўзини баҳолаши асосида эътиқоди ҳам мустаҳкамлана боради. Булар эса пировард натижада миллий тафаккурининг шаклланишига олиб келади (85, 104, 137).

Олий таълим ўқув муассасаларида ижтимоий фанларни ўқитиш технологиясини назарий ва амалий жиҳатдан ишлаб чиқиш, талабалар билимини рейтингли баҳолаш, янги билим олиш жараёнини интенсивлаштириш, модулли ўқитиш технологиясининг ўзаро бир-бири билан узвийлиги асосида «Маънавийат асослари» ва «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» фани машғулотларининг самарадорлигини ошириш ва бунинг натижасида талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш кабилар самарали натижалар беради.

Бунинг учун:

- ўқув-тарбия жараёнини талабаларнинг миллий тафаккурини шакллантиришга йўллаш;
- ҳар бир дарс жараёнида ўтиладиган мавзуларда миллий, истиқлол, Ватан равнақи каби тушунчаларнинг англаб етишга эътибор бериш ва улардан тарбия жараёнида фойдаланиш;
- таълим жараёнида умуминсоний қадриятларга садоқатлилик, маънавий меросимизни ўрганиш ва ривожлантириш масалаларига аҳамият бериш;
- ўтиладиган мавзулар асосида талабаларнинг миллий ҳақидаги билимини текшириш ва баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш;
- дарс жараёнида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил қилиш;
- талабаларнинг миллий тафаккурини шакллантиришда халқ оғзаки ижоди, Урта Осиё мутафаккирлари асарларидан фойдаланиш, фанлараро алоқани амалга ошириш;
- миллий тушунчаси, моҳияти, тузилиши, функциялари ҳақида маълумотга эга бўлиш ва талабаларнинг тафаккур фаолияти, онгли интизомини ташкил қилиш методикасини ишлаб чиқиш;
- миллий тафаккурини шакллантириш муаммоларига доир вазиятларни ҳал этиш;
- талабаларнинг тафаккурини шакллантиришда гуруҳ раҳбарининг тарбиявий ишлар режасига эга бўлиш;
- талабалардаги салбий ҳатти-ҳаракатларнинг олдини олиш йўллари аниқлаш ва тарбияси қийин талабалар билан ишлаш;
- ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги мулоқот маданиятини яхши йўлга қўйиш, ёшлар билан ишлаш кабиларни амалга ошириш лозим. Шунингдек дарсдан ташқари ишларда мустақил Ўзбекистон фуқароларини тарбиялашда халқ педагогикасининг асосий йўналишлари бўлган ўзбек халқ ўйинлари, диний таълимотлар (ҳадис ва тасаввуф), халқ амалий санъати ва ҳунармандчилиги, миллий мусиқа ва қўшиқчилик санъати, тасвирий санъат, тарихий ёдгорликлар ва миллий меъморчилик, халқ рақс санъати, Урта Осиё мутафаккирлари асарларини ўрганиш;
- ўқув-тарбия жараёнини такомиллаштириш, профессор-ўқитувчилар жамоасини мустаҳкамлаш, унда соғлом маънавий руҳий муҳит, ҳақиқий ижодий вазият ва жавобгарлик шароитини яратиш, талабалар кенгаши ишига жиддий ёндашиш асосида раҳбарлик қилиш;
- талабаларда билим эгаллаш маданиятига ва онгли интизомга риоя қилиш маъсулиятни кучайтириш, уларда халқимизнинг адолат, тенглик, аҳиллик ва инсонпарварликнинг нозик куртакларини ўстириш, ўқитувчилар ва талабалар жамоаларининг биргаликдаги фаолиятини ривожлантириш ва ижтимоий фаоллигини ошириш, ўз-ўзини бошқариш;
- олий ўқув юртида «Маънавийат ва маърифат» марказини тузиш ва унинг фаоллари ёрдамида тадбирлар ўтказиш, олий ўқув юрти жамоасининг юксак маданиятли бўлишини таъминлаш ҳамда бу соҳада ёш авлодда миллий тафаккурини шакллантириш учун унинг маъсулиятини ошириш;
- ўз-ўзини англаш, миллий урф одатлар, анъаналарни ҳурмат қилиш ва Ўзбекистон байроғи, герби, мадҳияси, ўзбек халқининг миллий ғурури, маънавий меросини талабалар онгида мужассамлаштириш;

- ўқитувчиларнинг миллий ҳақидаги билимларини ошириш ва бу ҳақда кўргазмаларни қуроллар тайёрлаш, энг яхши тажрибаларни ўрганиш, умумлаштириш, тарғиб қилиш, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган «устоз ва шогирд» анъаналарини давом эттириш ва методик тавсиялар ишлаб чиқиш;

- тарбия жараёнида талабаларнинг миллий тафаккурини шакллантиришни такомиллаштириш, уларда онглилик, иймон эътиқодни ривожлантириш. Бу ишга Ўзбекистон истиқлоли учун курашганлар, иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари, ишлаб чиқариш илғорлари, ёзувчи ва шоирлар, олимлар, санъаткорлар, мулк эгалари, фермер раҳбарларини жалб этиш;

- миллий байрамлар ва анъанавий тадбирлар тайёрлаш ишларига раҳбарлик қилиш, миллий меъморчилик ва хунармандчилик, тарихий ёдгорлик жойлари бўйлаб саёҳатларни ташкил қилиш.

ingliz tilidagi materiallarni etkazib berishda ma'lum usullarni qo'llashni aniqlash

5) keyingi o'qitishni rejalashtirish va amalga oshirish uchun nima qilish ekanligini aniqlash.

Ushbu besh bosqich bir-biri bilan bog'liq va bir-biriga ta'sir qiladi va ba'zida ular bir-biriga o'xshab ketadi. Albatta har bir metodni qo'llash uchun ham aynan bir qadamlarni bosib o'tish va bazi bir bosqichlarga e'tabor berish lozim.

Yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish, ehtimol, kattalarga qaraganda ancha murakkabroqdir. Tilni o'rganishda, shu jumladan chet tilini, ingliz tilini o'rganishda ular kattalar ularga nima deyishini tushunishga harakat qiladilar va kontekstga asoslangan ma'nolarni qurish orqali ulardan qilishni so'rashadi. Shuning uchun ingliz tili o'qituvchilari ingliz tilini o'rganishni osonlashtirishda - post-metodni qo'llashda o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy, lingvistik va madaniy kelib chiqishiga ega bo'lgan talabalariga mos keladigan mazmunli kirish matnlari, vazifalari, kontekstlari va mos uslublari bilan ta'minlashi kerak. Buning uchun ingliz tili o'qituvchilariga kamida besh bosqichni quyidagi tarzda bajarish tavsiya etiladi.

1. Talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy, lingvistik va madaniy asoslarini aniqlash

Ingliz tilini o'qitish va o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borish uchun ingliz tili o'qituvchilari qilishlari kerak bo'lgan birinchi qadam bu ularning talabalarini kimligini tekshirishdir. Talabalarning kimligini bilish ingliz tilini o'qitishda muhim ahamiyatga ega, chunki u nimani o'rgatish kerakligi bilan bog'liq talabalarning ehtiyojlari va kelib chiqishiga mos keladigan materiallar va qanday o'rgatish kerak - materiallarni yetkazish usullari va talabalarga munosabatda bo'lish usullari aniqlaydi. McNeil va Wiles (1990: 79) o'qituvchilar uchun yaxshi boshlanish ularning o'quvchilari haqida ba'zi umumiy ma'lumotlarni (masalan, etnik va oilaviy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, ota-onalarning maktabda ta'lim darajasi, diniy yo'nalishlari, va hokazo) bilib olish deb takidlaydilar. Ayers va Grey (2000: 2), shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarning qobiliyatlari, erishganliklari, shuningdek, muvaffaqiyatsizliklari, motivatsiya darajasi, jinsi, etnik kelib chiqishi va maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'yicha o'quvchilarning farqlarini hisobga olishlari kerakligini taklif qiladi. Ingliz tili o'qituvchilari alohida ta'limga muhtoj talabalarga ko'proq e'tibor berishlari kerak. Ular o'zlarining lingvistik qobiliyatlari va ko'nikmalarini optimal tarzda rivojlantirishlari uchun ularga yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Bundan tashqari, Stivenson va Stigler (1992: 52) oilalar, maktablar va kengroq madaniy e'tiqodlar bolalarning muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklarida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda o'quv jarayonidagi ijtimoiy-affektiv komponentlarni tan oladigan o'quvchilarning tajribali til o'rganish jihatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan (Nunan in Eyring, 2001: 334).

2. Talabalarning xususiyatlarini aniqlash

Talabalarning xususiyatlarini aniqlash oldingi qismda muhokama qilingan, talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy, lingvistik va madaniy kelib chiqishini aniqlash bilan deyarli bir xil. Biroq, bu qadam o'rganish uslublari va o'rganish strategiyalari bilan chambarchas bog'liq. Talabalarning xususiyatlarini bilish ingliz tili o'qituvchilarini o'z talabalariga to'g'ri munosabatda bo'lishlari uchun yaxshi ishlab chiqadi, chunki talabalarning har biri o'z til o'rganish uslubi va strategiyasiga ega. Bundan tashqari, har xil o'quvchilarning kuchli tomonlari har xil, chunki ular o'ziga xos intellektga ega, shuning uchun o'qituvchilar ularga o'zlarining to'liq potentsiallarini ro'yobga chiqarishga yordam berishlari kerak (ko'p intellekt: mantiqiy / matematik, vizual / fazoviy, tana / kinestetik, musiqiy / ritmik, shaxslararo, intrapersonal va og'zaki). / lingvistik (Gardner Larsen-Frimanda, 2000: 169-170).

3. Muvofiq ingliz tili o'quv materiallarini qabul qilish, moslashtirish, tanlash, ishlab chiqish yoki yaratish

Ingliz tili o'qituvchilari o'z talabalarini mos o'quv materiallari bilan ta'minlash orqali o'rganishlarini osonlashtirishlari kerak. Muvofiqlik mezonlari o'quv

materiallarining o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy lingvistik madaniy kelib chiqishi, ehtiyojlari va xususiyatlari asosida qabul qilinishi, moslashtirilishi, ishlab chiqilishi yoki hatto yaratilganligidir. Tegishli o'quv materiallari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni o'rganish va o'rganayotgan narsalarini amaliyotda davom ettirishga majbur qiladi. Agar o'quv materiallarini yaratish yoki ishlab chiqish juda qiyin bo'lsa, ular xususiy nashriyotlar tomonidan taqdim etilgan talabalarning ehtiyojlari va xususiyatlariga mos keladigan ko'plab materiallarni tanlashlari mumkin (yoki agar materiallar haqiqatan ham kontekstga mos keladigan bo'lsa, moslashtirishi yoki hatto qabul qilishi mumkin. talabalar uchun). Bu Nunan va Lamb (2000: 116) ning fikriga ko'ra, o'qituvchilar o'quv materiallarining mazmuni o'quvchilarga mos keladimi yoki yo'qligini aniqlashlari kerak. Bu juda muhim, chunki bunday o'quv materiallari sinflarda yangi madaniyat bilan o'zaro munosabatlarning muayyan modellarini aniqlash bilan bog'liq.

4. Talabalarning kelib chiqishi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ba'zi ingliz tilidagi materiallarni etkazib berishda ma'lum usullarni qo'llash

Metoddan keyingi davrda ingliz tili o'qituvchilari darsga qatnashayotgan talabalarning ma'lum bir guruhiga ma'lum bir o'quv materialini etkazishda muayyan usullardan foydalanish erkinligiga ega.

Hatto ingliz tili o'qituvchilariga sinfda eng yaxshi ishlaydigan va talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy lingvistik madaniy kelib chiqishi, ehtiyojlari va xususiyatlariga mos keladigan o'z tartib-qoidalarini qo'llashga ruxsat beriladi. Talabalar uchun mos o'quv materiallarini yetkazib berishda ular endi qat'iy tartib-qoidalar bilan cheklanmaydi. Agar bunday tartiblar, xususan, o'qituvchilar, talabalar va o'quv muhiti uchun mos bo'lsa, o'qitish va o'qitish jarayonida qo'llash amaliy bo'lsa va qo'llash mumkin bo'lsa, protseduralar oldindan belgilangan o'quv va ta'lim maqsadlariga erishish uchun o'quv muhitini yaratadi. Ular ma'lum bir holat va shart uchun qabul qilinadi va qabul qilinadi.

Xulosa. Yuqoridagi munozaralarga kelsak, ba'zi xulosalar chiqariladi. Talabalarning ingliz tilini o'rganishini optimallashtirish uchun ingliz tili o'qituvchilari o'z o'quvchilarining kimligini - kelib chiqishi, ehtiyojlari va xususiyatlarini bilishlari kerak. Talabalar kimligini bilib, ingliz tili o'qituvchilari talabalarni mos o'quv materiallari bilan ta'minlashi kerak. Demak, ingliz tili o'qituvchilari o'z o'quvchilariga ularning o'zlari, o'quvchilari kimligi, qanday ta'lim sharoitida ekanligiga qarab mos usullarni tanlab, ularga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak.

Adabiyotlar

1. Ayers, H. and Gray, F. (2000). *Classroom Management: A Practical Approach for Primary and Secondary Teachers*. London: David Fulton Publishers.
2. Brown, H. D. (2002). English Language Teaching in the "Post-Method" Era: Toward Better Diagnosis, Treatment, and Assessment. In Richards, J. C. & Renandya, W. A. (Eds.). *Methodology in language teaching: An anthology of current practice* (pp. 80-91). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. (5th Ed.). New York: Pearson Education, Inc.
4. Crawford, J. (2002). The role of materials in the language classroom: Finding the balance. In Richards, J. C. & Renandya, W. A. (Eds.). *Methodology in language teaching: An anthology of current practice* (pp. 80-91). Cambridge: Cambridge University Press.
5. Brewster, J., Ellis, G., and Girard, D. (2004). *The Primary English Teacher's Guide* (New Edition). Edinburgh Gate, Harlow, Essex: Penguin English.
6. Eyring, J. L. (2001). Experiential and Negotiated Language Learning. In Celce-Muria, M. (Ed.). *Teaching English as a second or foreign language* (pp. 333-356) (3th Ed.). South Melbourne: Heinle&Heinle Thomson Learning.
7. Goodwyn, A. and Branson, J. (2005). *Teaching English: A Handbook for Primary and Secondary School Teachers*. New York: RoutledgeFalmer.
8. Harmer, J. (2001). *The practice of English language teaching* (3rd Ed.). Harlow: Longman.
9. Hedge, T. (2008). *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford: Oxford University Press.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

OTA-ONA VA FARZAND O‘RTASIDAGI DESTRUKTIV MUNOSABAT BOLALARDA AGRESSIV XULQ SHAKLLANISHI OMILI SIFATIDA

*Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda namoyon bo‘ladigan agressiv xulq va uning kelib chiqishi sabablari, bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi omillar, ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi destruktiv munosabatlar xususiyatlari, shaxsda agressiv xulqning shakllanishida oila muhitining o‘rni masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, ota-ona, farzand, agressiya, xulq-atvor, jismoniy jazo, destruktiv munosabat.

ДЕСТРУКТИВНЫЕ ОТНОШЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ И ДЕТЕЙ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ

*Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна,
доцент кафедры «Психология» Ташкентского государственного педагогического университета, доктор философии в области психологических наук (PhD)*

Аннотация: В данной статье описаны агрессивное поведение детей и его причины, факторы, определяющие агрессивное поведение ребенка, роль семейного окружения в формировании агрессивного поведения у человека, особенности деструктивных отношений между родителями и детьми.

Ключевые слова: семья, родитель, ребенок, агрессия, поведение, физическое наказание, деструктивное отношение

DESTRUCTIVE RELATIONSHIPS OF PARENTS AND CHILDREN AS A FACTOR IN THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN

*Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna,
associate professor of the Department "Psychology", Tashkent State Pedagogical University, PhD in Psychology*

Abstract: This article describes the aggressive behavior of children and its causes, the factors that determine the aggressive behavior of the child, the role of the family environment in the formation of aggressive behavior in humans, the features of destructive relationships between parents and children.

Key words: family, parent, child, aggression, behavior, physical punishment, destructive attitude.

Kirish. Oila va oilaviy munosabatlar, ayniqsa, ota-ona va farzand o‘zaro munosabatlari masalasi jamiyat jamiyati taraqqiyotining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Shaxsni har jihatdan barkamol qilib shakllantirish oilaviy munosabatlarga, oilada ona - bola munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga, oilaviy tarbiya asoslariga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Farzand tarbiyasi inson hayotidagi eng mas‘uliyatli, eng qiyin va eng nozik masala. Chunki, ota yoki onaning har bir so‘zi yoki ularning o‘zlari uchun ahamiyatsizdek tuyulgan har bir hatti-xarakati bola uchun uning xarakterida qaysidir ijobiy fazilat yoki nuqsonni shakllantirishi mumkin.

Hozirda yoshlar orasida ko‘p uchrayotgan jinoyatchilik, zo‘ravonlik, o‘z joniga qasd qilish kabi holatlarning tub negizida agressiya yotadi. Shu nuqtai-nazardan shaxsda namoyon bo‘ladigan agressiv xulq va uning kelib chiqishi sabablarini o‘rganish mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo‘ldi. Bolalarda agressiv xatti-harakatlarni vujudga kelishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon

bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxsda agressiv xulqning shakllanishida oila muhitining o'rnini kattadir. Ota-onaning farzandi xatosiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog'at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar, nizolar bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi.

Bir necha tadqiqotlar "ota-ona va bola" juftligidagi negativ munosabatlar va bolaning agressiv reaksiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Agar bola ota, ona yoki ularning ikkisi bilan ham yomon munosabatda bo'lsa, ota-ona uni nima uchun layoqatsiz deb hisoblashini tushunmasa, ota-onaning qo'llab-quvvatlashini his qilmasa, bunday holda uning jinoyat yo'liga kirib ketishi ehtimoli yuqori bo'ladi, o'zini boshqa bolalarga qarshi qo'yadi, u o'zini ota-onasiga nisbatan agressiv tutadi. Dj.Shtaynmetsning fikriga ko'ra, siyosiy doirada buyurtma asosida qotillik sodir etadiganlar yoki o'z joniga qasd qiluvchilarning aksariyati farzand taqdiri bilan qiziqmaydigan yoki ajrashib ketib, bolaning taqdiriga befarq qaragan oilalardan chiqqanligi tasdiqlangan. Onalari bolaligida e'tiborsiz qoldirgan va o'z ota-onasidan zarur mehri olmaydigan qizlar o'zlari ona bo'lganlarida bolalarini jazolab tarbiyalashga va o'z agressiyasini aksariyat hollarda ularga sochishga moyil bo'lar ekan.

Mashhur psixolog Freda Getting "Oiladagi agressiv bolalarni o'rganish" bo'yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko'ra, noto'liq oilalarda o'ta qahrli, qo'pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha to'liq oilalarda ham, noto'liq oilalarda ham sog'lom yoki nosog'lom oilaviy muhit mavjud bo'ladi. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog'lom muhitni vujudga keltiruvchi bosh omillardir. Nosog'lom oila muhitida asosiy e'tibor o'zaro ziddiyatlarga qaratilganligi sababli bunday oilada bola tarbiyasi ko'pincha tahdid va jismoniy jazolashdan iborat bo'ladi. Nosog'lom oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar oiladagi doimiy ziddiyatlardan bezib, ko'pincha ko'chaga chiqib ketadilar. Ko'chada bevaqt yurgan bolalarning aksariyati esa sodir etilgan jinoyatlarning ishtirokchilari bo'lib qolmoqda. Bunday holat ularning ruhiyatidagi buzilishlar ta'sirida yuz beradi.

Metod. Ota-ona mas'uliyati bilan bolalar agressivligi o'rtasidagi bog'liqlikning o'ziga xosligini Bridjit Djons va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tajribalar ham yaqqol ko'rsatib bergan. Tadqiqotchilar laboratoriya sharoitida 15, 21 va 39 oylik bolalarning onalari va boshqa bolalar bilan bo'lgan munosabatlarini kuzatadilar. Boshqa ko'plab parametrlar qatorida bola yig'laganidan yoki ko'tarishni so'rganidan so'ng ona uni qancha vaqtda qo'lga olishi ham hisobga olinadi. Onasi qo'lga olishga shoshilmagan bolalar, onasi yig'laganda va chorlaganda tezda javob bergan bolalarga nisbatan o'zini agressivroq tutishgan.

Oilaviy boshqaruv xarakteri, ota-onalarning farzandini "to'g'ri yo'lga solishi" yoki uning xulq-atvorni o'zgartirishiga qaratilgan harakatlari ijtimoiy psixologlarning qiziqishiga sabab bo'ladigan muammolardandir. Bu borada mutaxassislar uch xil tipdagi ota-onalarni ajratib ko'rsatishgan:

Ba'zi ota-onalar bola tarbiyasiga kamdan-kam aralashadilar: ular tarbiyalashda ongli ravishda aralashmaslik siyosatini qo'llaydilar, ya'ni bolaga o'zi istaganidek ish tutishga yo'l qo'yib beradilar yoki shunchaki unga hech qanday e'tibor qaratmaydilar, bolaning fe'l-atvori to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida ham o'ylamaydilar.

Ayrim ota-onalar esa bola tarbiyasiga tez-tez aralashadilar: ular bolani goh rag'batlantiradilar (ijtimoiy normalarga xos xulq-atvor uchun), goh jazolaydilar (qabul qilib bo'lmas agressiv xulq-atvori uchun).

Ba'zi bir ota-onalar farzandini ongsiz ravishda agressiv harakatlar uchun rag'batlantirib, aksincha jamiyatda qabul qilingan fe'l-atvor uchun jazolab qo'yadilar. Bilib-bilmay amalga oshirilgan bunday mustahkamlash agressiv xulq-atvorning shakllanishini belgilab beradi.

Oilaviy boshqaruv amaliyoti va bolalarning agressiv xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda tadqiqotchilar asosiy diqqatni ota-onalarning bolalar xulqini nazorat qilishi, qattiqqo'lligi va jazoning xarakteriga qaratadilar. Umumiy natijalar ota-onaning qattiqqo'llik bilan bolani jazolashi va bolaning yuqori darajadagi agressivligi o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatgan.

Edvard Erons va uning hamkasblari agressivning bir qator parametrlari va shakllanishi

o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash yo'lida longityud tadqiqotlar o'tkazadilar. E.Erons va hamkasblarining aniqlashicha, ota-onalar tomonidan qattiq jazo oladigan bolalar tengdoshlari tomonidan agressivroq deb xarakterlanganlar. Jazolarning ta'siri uzoq muddatli hisoblanadi. Bolalar bilan o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, 8 yoshligida bolaga nisbatan qattiqqo'llik bilan qo'llanilgan jazolar ularning 18 va 30 yoshligidagi agressiv xulq-atvori bilan korrelyatsiya bergan. E.Eronsning xulosasiga ko'ra 8 yoshda qattiq jazolanarlarning ko'pchiligi 30 yoshda o'z bolalariga nisbatan agressivligini baholash bilan ijobiy korrelyatsiya qilingan.

Dj.Patterson va Stauthamer-Leber oilaviy boshqaruv xarakteri va bolalardagi assotsiallik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Tadqiqotchilar 4, 7 va 10-sinfda o'qiydigan 200dan ortiq o'g'il bolalarning oiladagi munosabatlarini tahlil qilgan. Odatda o'g'lining xulq-atvorini kuzatib bormagan va jazolashda nomuntazamlikka yo'l qo'ygan ota-onalarning farzandlari o'zlarini assotsial ravishda tutishgan. Dj.Patterson va Stauthamer-Leber o'z ishlari natijasini quyidagicha tushuntiradilar: "Assotsial bolalarning ota-onalari ularning vaqtini qanday o'tkazishlariga va do'stlarining kimligiga befarq munosabatda bo'ladilar. Mabodo bunga e'tibor berib qolsalar ham ko'p hollarda aql o'rgatish, urishish va po'pisa qilish bilan cheklanadilar bu esa samarali natijaga olib kelmaydi".

Jismoniy jazo - mohiyatan olib qaraganda, jismoniy agressiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda bolani urganda paydo bo'ladigan og'riq va shu og'riqdan qo'rqish tuyg'usi bilan, shuningdek bola shaxsini yerga urish, kamsitish bilan bog'liq bo'lgan psixologik shikast yetkazishdan iborat bo'lgan holat kuzatiladi. Jismoniy jazo qaysi shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, u bola hayoti va sog'lig'iga xavf soladi. Bolaga nisbatan jismoniy jazo qo'llash bola tomonidan ijtimoiy xulq-atvor meyorlarining o'zlashtirilishini sekinlashtiradi, unda tashabbuskorlikning rivojlanmasligiga, mutelik, itoatkorlik, yolg'onchilik, tajovuzkorlik, xavotirlanish kabi illatlarning ortishiga olib keladi. Bola boshqalar bilan munosabatda qo'pollik va zo'ravonlikka moyillik sezadi.

Jazoko'phollardasalbiysamarabersa-da, ba'zida xulq-atvorni modifikatsiyalashtirishdagi foydali vosita bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Tajribalarning natijalari shuni ko'rsatadiki, jazolar aniq prinsiplar asosida qo'llanilsa, ular albatta xulq-atvorning barqaror o'zgarishini ta'minlashi mumkin. Jazo bevosita bolaning xulqidan kelib chiqishi va har gal bolaning nojo'ya qiligidan so'ng muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur. Nojo'ya harakat va jazo o'rtasidagi vaqt oralig'i qisqa bo'lishi kerak, chunki xatodan keyin darhol berilgan jazo ma'lum bir xulq-atvor modeli ta'qiqlanishi muhimligini anglatadi, kechiktirilgan jazo esa buning aksidir.

Eng ijobiy holat sifatida mutaxassislar bolaning jazolashga loyiq bo'lgan salbiy xulq-atvoriga alternativ xulq-atvor taklif qilishni tavsiya etadilar. Masalan, bola kattalarning gapini tez-tez bo'lib turadi. Agar ota-ona unga tushuntirmay jazo bersa, bola unga gapirish man etilyapti deb o'ylashi va unda norozilik yuzaga kelishi mumkin. Ota-ona bolaga kattalarning gapini bo'lish yaxshi emasligini tushuntirib, bola ularning e'tiborini talab qilgan paytda unga javob berib borsalar, u bunday vaziyatlarda adekvat ijtimoiy ko'nikmalarni namoyon qilishni o'rganishi mumkin.

Xulosa. Umuman, har qanday jazo tushuntirib berilishini taqazo etadi. Agressiv xulq-atvor shakllanishida oiladagi xulqiy modellarning roli kattaligini inobatga olgan holda ota-onalar o'zlarining xulqini nazorat qilishlari lozim. Ijtimoiylashuv jarayonida bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida jismoniy jazolarni qo'llashning o'ziga xos "xavfi" mavjud. Birinchidan, bolaga jazo beruvchi ota-ona ular uchun agressivlik namunasi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, meyoridan ko'p jazolanadigan bolalar ota-onadan nari yurishga yoki ularga qarshilik qo'rsatishga intiladilar. Ustiga-ustak, agressiv munosabat oxir-oqibat bolani "haqiqatdan ham jazolanishi zarur bo'lgan favqulotda xulq-atvorni namoyish qiluvchi va ma'qullovchi odamlar" kompaniyasiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, agar jazo bolalarni qattiq hayajonlantirsa yoki xafa qilsa, ular jazolanishlarining sababini unutib qo'yishlari mumkin. Bu esa jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishiga halaqit beradi.

Shunday ekan bu boradagi olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va shu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash jamiyatimizning har bir a'zosining asosiy va muhim vazifasi bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati

- Абдуллаева Д. У. Оилада тарбия шакллариининг бола шахси шаклланишига таъсири. Барқарорлик ва уетакчи tadqiqotlar. Onlayn ilmiy jurnal. № 12. В. 492-495
- Бандура А., Уольтерс Р. Подростковая агрессия. // Перевод с англ. - М.: «Апрель – Пресс», 2000.
- Берковиц Л. Агрессия. Прицины, последствия и контроль. М.: «Прайм ЕВРОЗНАК», 2007.
- Берон Р, Ричардсон Д. Агрессия. // Перевод. с англ. - Санкт-Петербург: «Питер», 2001.
- Конард Л.З. «Агрессия» - Москва. 2009.
- Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. -168 b.
- Абдуллаева Д. У. Оилада тарбия шакллариининг бола шахси шаклланишига таъсири. Барқарорлик ва уетакчи tadqiqotlar. Onlayn ilmiy jurnal. № 12. В. 492-495

MOTIVATSIYANI O'RGANISHDA MOTIVATSION KONSEPSIYALARINING AHAMIYATI

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
JizzaxDPU professori, psixologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada motivatsiyani o'rganishda motivatsion konsepsiyalar va yosh bokschilarning yutuqqa erishishida motivatsiyaning ahamiyati borasida olib borilgan tadqiqot natijalari haqida fikr yuritilgan bo'lib, boks texnikasini mahorat bilan egallash, jangning taktik tizimini yuqori saviyada amalga oshirish uchun bokschidan mashg'ulotlar va mashqlar jarayonida qat'iyatli bo'lishni, irodaviy sifatlarini ko'rsatishda motivatsiyaning or'ni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'z: Sportchi, motivatsiya, konsepsiya, motiv, muvaffaqiyat.

ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИОННЫХ ПОНЯТИЙ В ИЗУЧЕНИИ МОТИВАЦИИ

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
профессор Джизакского ДПУ, доктор психологических наук

Аннотация. Mazkur maqolada motivatsiyani o'rganishda motivatsion konsepsiyalar va yosh bokschilarning yutuqqa erishishida motivatsiyaning ahamiyati borasida olib borilgan tadqiqot natijalari haqida fikr yuritilgan bo'lib, boks texnikasini mahorat bilan egallash, jangning taktik tizimini yuqori saviyada amalga oshirish uchun bokschidan mashg'ulotlar va mashqlar jarayonida qat'iyatli bo'lishni, irodaviy sifatlarini ko'rsatishda motivatsiyaning or'ni va ahamiyati ochib berilgan.

Ключевые слова: Спортсмен, мотивация, концепция, мотив, успех.

THE SIGNIFICANCE OF MOTIVATION CONCEPTS IN THE STUDY OF MOTIVATION

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
JizzakhDPU professor, doctor of psychology

Annotation. This article discusses motivational concepts in the study of motivation and the results of research on the importance of motivation in the achievement of young boxers. The role and importance of motivation in showing the qualities of being obedient and willful has been revealed.


Key words: Athlete, motivation, concept, motive, success.

KIRISH

Motivatsiyani o'rganish jarayonida bir qancha psixologik savollarga duch kelamiz, bu savollarga javob berishni qiyinligi shundaki, zamonaviy umumiy psixologiyada ham, sport psixologiyasida ham inson harakatlarining motivatsiyasi muammosiga hamon aniq bir yechim topilmagan.

Motivatsiyani o'rganishda eng samarali yondashuv Madsenning motivatsion sintez konsepsiyasi bo'lib, unda yigirmata eng ahamiyatli zamonaviy motivatsiya nazariyasini taqqoslab o'rganishga qaratilgan va ularni tahlil qilishga harakat qilingan.

Bunda o'zida barchasini tashkil qiluvchi "aniqlovchi multiob'ektiv model" sifatidagi deduktiv tizim haqida gap ketadi, ya'ni mustaqil hisob qurilmasi yordamida tahlil qilishga imkon beradi. Mazkur yaratilgan deduktiv nazariya psixologiyaning ko'plab sohalarida foydalanib kelinmoqda (1-rasm).



1-rasm. Madsenning motivatsion tizimi chizmasi.

Ushbu konsepsiyaga muvofiq motivatsiya bilim (kognitiv) va dinamik jarayonlarning o'zaro harakatlari asosida inson ongida yuzaga keladi, insonning ichki va tashqi muhitida hamda tug'ma va orttirilgan sifatlarning umumiylikida aniqlanadi. Fikrimizcha, Madsen nazariyasi inson motivatsiyasini rivojlanish jihatini yetarlicha ta'kidlab bermagan, orttirilgan sifatlarning tushunchasi esa, aksincha keng yoritilgan.


Bundan kelib chiqib, faraz qilish mumkinki, bilish va dinamik jarayonlar individning ko'rsatmasi (ustanovka) bilan kuchli bog'liq bo'lib, bu termin sobiq sovet psixologiyasida D.N.Uznadze maktabi va sport psixologiyasi namoyondasi V.G.Norakidze ishlarida ko'zga tashlanadi. Ko'rsatma psixologiyasi ikkinchi muhim konsepsiya bo'lib, unda sport faoliyati motivatsiyasiga ta'rif berishda muhim hisoblanadi.

Uchinchi konsepsiya Atkinsning natijaviylik motivatsiya nazariyasi bo'lib, inson motivatsiyasida muvaffaqiyatning rolini aniqlash uchun maxsus savollar qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Sport faoliyatida motivatsiyaning roli qanday ifodalangani. Sportda natija bu mashg'ulot muayyan tanlovga va iste'dodning ma'lum qismiga shartlanganligiga asoslanadi, ya'ni biz buni morfologik, fiziologik va psixologik xarakterning tug'ma orttirilgan sifatlarning umumiylik sifatida tushunamiz. Mashg'ulotning maqsadi natijaga erishishning muayyan qobiliyati hisoblanib, potensial xarakterga ega va faqat natijaga erishish imkoniyatini ifodalaydi.

Natijaning o'ziga xos ishga tushirish mexanizmi natijaviylik motivatsiyasi hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, motivatsiyaning tarkibiy qismi natijaga erishishga yo'l ochadi. Ma'lum darajada va ba'zi sharoitlar, ya'ni energiya zaxirasini, vaziyatga qayishqoqligini, o'zini tutish shaklini kiritish orqali individning natijaga erishish qobiliyatini o'stirish mumkin. Bunda asosan motivatsiya savollariga javob topish muhim hisoblanadi, chunki motivatsiya sport faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi (2-rasm).




2-rasm. Sport natijasining asosiy determenanti chizmasi.

NATIJALAR.

Bolalar va o'smirlar sport maktablari yosh bokschilarining yutuqqa erishishida motivatsiyaning roli va ahamiyatini o'rganishda biz T.Ellersning shaxsning muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyasi metodikasidan foydalandik. Tadqiqot ishlarida Jizzax shahri, Sh.Rashidov va Paxtakor BO'SM yosh bokschilari ishtirok etdilar. Quyida o'tkazilgan

tadqiqotning umumiy natijalari keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Yosh bokschilarning muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyasi natijalari

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, aytish joizki, BO'SM yosh bokschilarida muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiya turlicha ifodalandi, buni biz tadqiqot natijalaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Olingan natijalarni izohlashda T.Ellersning shaxsning muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyasi metodikasining mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilarning o'quvchilarni mashg'ulotga munosabati motiviga ahamiyat qaratdik:

1-jadval

Yosh bokschilarning muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiyasi bo'yicha tadqiqot natijalari

№	Motivatsiya omili	Jizzax n=22			Sh.Rashidov n=23			Paxtakor n=28		
		O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori	O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori	O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori
		16%	52%	32%	8.3%	33.3%	58.4%	13.3%	46.7%	40%
2	O'quvchilarning mashg'ulotga munosabati	4,0	13,0	6,0	2,1	7,0	14,0	4,1	11,7	10,0

O'quvchilarning mashg'ulotga munosabati omili bo'yicha olingan natijalar asosida quyidagi fikr mulohazalarni bildirish mumkin. Yosh bokschilarni muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasida ushbu omil Jizzax shahar BO'SM o'quvchilarida o'rtacha daraja – 4,0 ball, yuqori daraja – 13,0 ball, juda yuqori daraja esa – 6,0 ball natijani ko'rsatdi.

Bu natijalar asosida aytish joizki, o'quvchilarning futbol mashg'ulotlariga bo'lgan munosabati umumiy daraja bo'yicha yuqori darajani ko'rsatib turibdi. Bu esa o'quvchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish-larining yuqoriligi va mashg'ulotga ma'suliyat bilan yondoshishlaridan dalolat beradi, chunki ularning individual mahoratini oshishi mashg'ulotlarga bo'lgan ijobiy munosabatlarga bog'liq.

Mazkur omil Sh.Rashidov tumani BO'SM o'quvchilarida 2,1ball o'rtacha daraja, yuqori daraja 7,0 ball, juda yuqori daraja esa 14,0 ballni tashkil qildi. Olingan natijalarga asoslanib, Sh.Rashidov tumani BO'SM o'quvchilarining mashg'ulotga bo'lgan munosabatini juda yuqori ekanligini ta'kidlash joiz. Bu esa o'z navbatida Sh.Rashidov tumani BO'SM boks mashg'ulotlari yuqori saviyada tashkil etilishi va murabbiylarning tajribali ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Sh.Rashidov tumani BO'SM o'quvchilarining tadqiqot jarayonida ko'rsatgan natijalari bejiz emas, chunki bu BO'SM o'quvchilarining Respublikada munosib ishtirok etib kelayotgan jamoalardan hisoblanadi.

O'quvchilarning mashg'ulotga munosabati omili Paxtakor tumani BO'SM o'quvchilarida ham o'rganildi. Tadqiqot natijalari Paxtakor tumani BO'SM o'quvchilarida quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi: mazkur omilning o'rtacha darajasi 4,1 ballni, yuqori darajasi 11,7 ball, juda yuqori darajasi 10,0 ballni tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar asosida aytish mumkinki, Paxtakor tumani BO'SM o'quvchilarining mashg'ulotga bo'lgan munosabatlari ijobiy jihatdan namoyon bo'ldi, bu esa o'quvchilarning boks mashg'ulotlari

jarayonini tashkil etilishidan qoniqishlarini, individual mahoratlarini oshirishida muhim ekanligidan dalolatdir. (1-jadvalga qarang).

XULOSA

Aytish joizki, millionlab muxlislarni o'ziga jalb eta olgan boksning o'ziga xos jihatlari bo'lib, unda ko'proq boksning texnik-taktik jihatlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq, boks texnikasini mahorat bilan egallash, jangning taktik tizimini yuqori saviyada amalga oshirish uchun bokschi dan mashg'ulotlar va mashqlar jarayonida qat'iyatli bo'lishni, irodaviy sifatlarini ko'rsatishni talab qiladi. Shu jihatdan ham yosh bokschilarda muvaffaqiyatga erishishida qat'iyatlilik omili muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Abdurasulov R.A. Interests and motivations of students in oriental wrestling and boxing. Progressive Academic Publishing EJPR. Vol.4 No.2, 2017. European Journal of Psychological Research (EJPR): Accepted Papers. -B.11-18.
- 2.Abdurasulov R., Baxromov O. Yosh sportchilarning sport mashg'ulot-lariga bo'lgan qiziqish motivlari.// Psixologiya, Buxoro.№ 4, 2019. 58-60 bet.
- 3.Abdurasulov R., Baxromov O. Yosh futbolchilarning yutuqqa erishish-da motivatsiyaning ahamiyati.// Psixologiya, Buxoro. № 4, Ilmiy jurnal 2020. 70-74 bet.
- 4.Leontev A.N. Potrebnost, motivi, emotsii.-M.:MGU.1971.
- 5.Norakidze V.G. Eksperimentalnie dannie issledovaniya nekotorig osobennostey lichnosti sportsmena.// V kn. P.A.Rudika i dr. "Psixologiya i sovremenniy sport".-M.:FiS.1973.-S.239-244.
- 6.Piloyan R.A. Motivatsiya sportivnoy deyatelnosti.-M.:FIS. 1984.104s.
- 7.Fayzullayeva.A. Motivatsionnaya samoregulyatsiya lichnosti.- T.:Fan.1987.136s.

SHAXS KAMOLOTIDA INTELLEKTUAL FAOLIYATINING INDIVIDUAL-TIPOLOGIK FARQLARI

Avlayev Orif Umirovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari doktori (P.hD)

<https://orcid.org/0009-0003-8342-1774>

Annotasiya. Mazkur maqolada shaxs kamolotida intellektual faoliyatining individual-tipologik farqlarini nazariy-amaliy jihatdan asoslab berilgan. Bunda shaxs kamolotida intellektual faoliyatining individual-tipologik farqlarini maxsus metodikalar orqali tashxis etilgan va tuplangan empirik natijalari tahlil etilgan. Ya'ni, shaxs sosial intellektual faoliyatidagi individual-tipologik farqlar ikkita asosiy muammo atrofida guruhlanadi: turli yoshdan iborat talabalar muhitida intellektual faoliyatida dominant komponentini aniqlash va o'rganilayotgan fenomenning unumli rivojlanishini ta'minlaydigan sharoitlarni aniqlandi. Shaxs kamolotida intellektual faoliyatining individual-tipologik farqlari yaratildi. To'plangan natijalar asosida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, kamolot, sosial-operasional, sosial-aksiologik, sosial-ekstravert, sosial-emosional, sosial-uyg'un, sosial-konkret, sosial-mavhum.

Shaxs kamolotga erishishini ta'minlash muammosi insoniyatning azaliy ezgu niyati bo'lib, ijtimoiy - tarixiy taraqqiyot davrining barcha bosqichlarida o'zining birlamchiligi, o'ta dolzarbligi bilan alohida ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahamiyat kasb etib kelgan. Xuddi shu boisdan inson shaxsi, uning kamoloti, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, faoliyat, tajriba, bilim, ko'nikma, malakalar, ijtimoiy munosabatlarning roli masalalarini hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy talablar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda ilmiy asosda o'rganish shaxs kamolotini ta'minlash mexanizmlarini aniqlash va samarali shakl, usul, vositalarni ishlab chiqish uchun zarur hisoblanadi. Hozirgi kunda shaxs va uning kamolotini ta'minlovchi omillarni o'rganish sohasida bir tomondan differensiasiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan esa, inson taraqqiyotining sintetik (umumlashtirish) tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda. Inson bir qator fanlarning tadqiqot ob'ekti ekanligini jamlangan holda, ixcham, yaxlit tarzda tasavvur etish uchun uni sosial va sosiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq. Shaxsning turli yosh davrlaridagi ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi, mehnat faoliyatining turli davrlaridagi rivojlanishi darajasi bilan sosial intellekt determinanti orasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjud:

- shaxsning kamoloti va uning sosial intellektual faoliyatini amalga oshirishi darajasi;
- insonning sosial intellektual faoliyati fenomeni tuzilishining murakkablashishi va uning namoyon bo'lishidagi psixologik to'siqlar;
- zamonaviy hayotdagi shaxs kamolotining yangi turlarini shakllantirish va shaxsning sosial intellektual faoliyatining namoyon bo'lishi va rivojlanishini o'rganish bo'yicha ilmiy asoslangan psixologik yondashuv yo'qligi;
- shaxsning sosial intellektual faolligini erta aniqlash uchun konsepsiya ishlab chiqish zarurligi, uning nazariy va metodologik asoslarini belgilash, shaxsning yuqori darajada rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash uchun eksperimental dasturlar yaratish;
- shaxsning sosial intellektual faolligi uning tipologiyasini, yoshini va jinsini hisobga olgan holda rivojlanishini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash amaliyotiga ilmiy va uslubiy yordam yetishmasligi.

Shaxsning kamolotga erishishini harakatlantiruvchi kuch sifatidagi sosial intellektning ob'ektiv va sub'ektiv determinantlarining o'rganish yo'nalishlarida ham ilmiy — amaliy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarblilik kasb etadi. Bunda shaxs kamolotga erishishining bosqichlari, manbalari, asoslari, omillari korrelyatsiyasini ilmiy tahlil qilish asosida ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yimoqda, bunda shaxs ijtimoiy intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shaxsda kamolotida sosial intellektning dinamikasi va tarkib topishi hamda shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar E. Torndayk, F. Moss, T. Xant, G. Ollport, L. Terstoun, D. Veksler, Dj. Gilford, G. Ayzenk, P. Selov va Dj. Meyer, V. Keller, K. Dunker, M. Vertgeymer,

Dj.Kempion, U.Charl'zvort, J.Piaje, Dj.Brunner, L.Levi-Bryul', R. Sternberglar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, R.Nemov, A.Luriya, L.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, V.Shadrikov, L.Venger, V.Aseev, K.Abul'xanova-Slavskaya, D.Lyusin, Ye.Xlistova, Ye.II'in, B.Anan'ev, Ye.Stepanova, B.Velichkovskiylar kabi rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda intellekt – inson aqliy faoliyatining muayyan shakli sifatida o'rganilib, uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

METOD. Tadqiqotni amalga oshirish uchun suhbat, kuzatish, bahs-munozara, test metodlaridan, shu jumladan, intellekt test metodikalarining subtestlaridan foydalanildi. Natijalarni qayta ishlashda matematik statistika metodlarining qo'llanildi, sifat tahlili va ma'lumotlarning komp'yuterda qayta ishlandi, empirik ma'lumotlarning ko'p bosqichli qayta ishlanishi va interpretatsiyasi, ularning statistik ahamiyatligi va boshqa tadqiqotlar ma'lumotlari bilan taqqoslandi. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash SPSS 22.0 dasturlari yordamida amalga oshirildi.

TADQIQOT NATIJALARI. Shaxs sosial intellektual faoliyatidagi individual-tipologik farqlar ikkita asosiy muammo atrofida guruhlanadi: turli yosh vakillaridan iborat talabalar muhitida intellektual faoliyatni strukturaviy tashkillashtirishning dominant komponentini aniqlash va o'rganilayotgan fenomenning unumli rivojlanishini ta'minlaydigan sharoitlarni aniqlash.

Tadqiqotlar olib borishda biz tomonimizdan shaxs intellektual faoliyatining nazariy modeli ishlab chiqildi va u shaxs intellektual faoliyatini strukturaviy tashkillashtirishning individual-tipologik farqlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Strukturaviy tashkillashtirishni tahlil qilishda biz quyidagi qoidalarga amal qildik:

- shaxs intellektual faoliyatining paydo bo'lishi, shakllanishi va qulashi jarayonlari mavjud;

- shaxs intellektual faoliyati o'quv, mehnat, jamoat va boshqa faoliyat turlari bilan bog'liq;

- shaxs intellektual faoliyatining strukturaviy komponentlari biri ikkinchisiga aylanib turib (ehtiyotlar motivlarda konkretlashadi, harakat operatsiyaga aylanishi mumkin va aksincha), har doim funksiyalarini alishtirib turadi;

- shaxs intellektual faoliyati tipi dastlab o'zining tashqi formasida insonlar o'rtasidagi tajriba almashish jarayoni sifatida vujudga keladi va shakllanadi, so'ngra esa uning asosida alohida shaxsning intellektual faoliyatini strukturaviy tashkillashtirishdagi tipologik, obraz va tushunchalarga tayanadigan farqlar shakllanadi.

- shaxs intellektual faoliyatining strukturasi kelib chiqqan holda, uning komponentlarining o'zaro aloqalari va rivojlanish darajasi (past, o'rta va yuqori) strukturaviy tashkillashtirishning tipologik farqlarini beruvchi asosiy ko'rsatkichlarini aniqlaymiz. Strukturaviy komponentlar ko'rsatkichlar o'rtasidagi yaqin korrelyasion aloqalar psixologik fenomen sifatida shaxs intellektual faoliyatining barqaror ichki tashkillashtirilishini aks ettiradi.

Matematik tahlil yuqori omillik yuklamasiga ($p \geq 0,05$) ega bo'lgan va shaxsning intellektual faoliyatida ko'rinadigan teran omillarni yuzaga chiqardi. Omillik yuklamasi omil va omillashtirilayotgan o'zgaruvchan o'rtasidagi korrelyasiya koeffisientidir. Omillik yuklamasi yuqori bo'lganida o'zgaruvchan mazkur omil bilan bog'liq va muvofiq guruhga kiradi (u orqali shaxs intellektual faoliyati ko'rinishlarining o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlash mumkin). Biz aniqlangan omillarning taqdim etgan modelimiz bilan mosligini tahlil qildik. Omillik yuklamasi matrisasidan ko'rinib turibdiki, shaxs intellektual faoliyatiga hammasidan ko'ra ko'proq kognitiv komponent ta'sir qiladi.

Omil tahlili shaxs intellektual faoliyatining yuqori omillik yuklamasiga ($p \geq 0,05$) ega bo'lgan va shaxs intellektual faoliyatini tashkillashtirishning aniq ifodalangan komponentlariga ega bo'lgan to'qqizta turiga mos to'qqizta omilini aniqladi.

Shaxsning sosial intellektining kognitiv komponentini aks ettiruvchi birinchi omil operatsional deb nomlandi. U ijtimoiy jarayonlarga sosial intellekt operatsiyalarini amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi, shaxsning sosial intellektual ish ko'nikmalari va bilimlar zahirasini qay darajada egallaganligini ko'rsatadi. Uning ko'rsatkichlari ajratib ko'rsatilgan o'zgaruvchanlarning yuqori omillik yuklamasiga ega va kognitiv ko'nikmalarni belgilovchi barcha ko'rsatkichlar bilan yuqori darajada ($p \geq 0,05$) korrelyasiyalanadi: gaplarni to'ldirish (0,756); so'zni o'chirib tashlash (0,804); o'xshashliklar (0,822); arifmetik masalalar (0,651); sonli qatorlar (0,712); hududiy tasavvur (0,758); hududiy umumlashtirish (0,709); umumiy

intellekt darajasi (0,890); qobiliyatlarning amaliy rejasi (0,905); qobiliyatlarning nazariy rejasi (0,745).

Ikkinchi omil — ijtimoiy jarayonlarning aksiologik omili, motivasion komponentni ifodalaydi — ajratilgan o'zgaruvchanlarning yuqori omillik yuklamasiga ega va shaxs intellektual faoliyatini anglab yetilganligini belgilovchi barcha ko'rsatkichlar bilan yuqori darajada ($p \geq 0,05$) korrelyatsiyalanadi: maqsadlar (0,860); hayot jarayoni yoki qiziqish va hayotning emosional boyligi (0,765); hayotning najaviyiligi yoki o'z hayotidan qoniqish (0,845); o'zini kuchli shaxs degan tasavvuriga mos keladigan Men lokus nazoratining (0,801); o'zini nazorat qilish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish va ularni hayotga tadbir qilish qobiliyatini ko'rsatadigan Hayot lokus nazorati (0,665); hayotning anglanganligi, yo'naltiriganligi va vaqt istiqboli (0,787).

Uchinchi omil — ijtimoiylashuv jarayonlarida ekstravertlangan, motivasion komponentni ifodalovchi — introvertlangan omil — ikkichi qutbi, chunki o'zgaruvchanlar bu omilga turli belgilar bilan kirishadi: muloqotlar qadriyatlar (0,941), ish qadriyatlar (-0,865), individualistik qadriyatlar (-0,832), al'truistik qadriyatlar (0,836), o'z o'rnini belgilash qadriyatlar (-0,845), boshqalarni qabul qilish qadriyatlar (0,907).

To'rtinchi omil — ijtimoiylashuv jarayonining emosional komponentni ko'rsatuvchi emosional omil, — shaxsning ijtimoiy intellektual faoliyatining qanchalik emosional boy ekanligini ko'rsatadi. U quyidagi yuqori ahamiyatli o'zgaruvchanlarni o'z ichiga oladi: emosional xabardorlik (0,854), o'z his-tuyg'ularini boshqarish (0,868), o'zini motivatsiyalash (0,867), empatiya (0,846), boshqalarning his-tuyg'ularini tanib olish (0,724), emosional komponentning integrativ darajasi (0,948).

Beshinchi omil — uyg'un omil — quyidagi yuqori ahamiyatli o'zgaruvchanlarni o'z ichiga oladi: nazoratning ichki lokusi (0,754), hayotiy vazifalarni anglashning pastligi (0,535), hayotiy vazifalarning bir tomonga yo'naltirilganligining qat'iyligi (0,664), hayotiy vazifalarni amalga oshirishga bo'lgan ishonch, ularning faollikka yetaklovchi amaliyligi (0,628), shaxsga oid xarakteristikalarining uyg'unligi (0,908).

Oltinchi omil — konkret omil — shaxs intellektual faoliyatining amaliy tipini xarakterlaydi, konkret masalalarni yechishga yo'nalganlikni aks ettiradi (-0,903).

Yettinchi omil — mavhum omil — mavhum masalalarni yechishga bo'lgan qobiliyatning borligini izohlaydi (-0,937). Omil bo'yicha ancha yuqori baho shaxs intellektual faoliyatining mavhum komponentining ko'rsatkichini belgilaydi.

Sakkizinchi omil — intellektual-chidamli omil — stressga qarshi turish, qarshilik ko'rsatish qobiliyatini xarakterlaydi: ijtimoiy istalganlik (0,414), emosional barqarorlik (0,674), ekspressivlik (0,780), intellektual qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi jasorat (0,614). U shaxs intellektual faoliyatining yengilligini belgilaydi.

To'qqizinchi omil — generatsiyalovchi omil (0,675) — shaxs intellektual faoliyatining mahsuldorligini aks ettiradi.

1-Jadval

Shaxs intellektual faoliyati turlarining izohlanadigan dispersiyasi

Tip	Qaromning bunlishidan keyingi ma'lumot	
	Dispersiya	Dispersiya (%)
Sosial-operasional	6,205	13,789
Sosial-aksiologik	4,819	10,709
Sosial-ekstravert	4,703	10,450
Sosial-emosional	4,527	10,059
Sosial-uyg'un	2,650	5,890
Sosial-konkret	2,021	4,492
Sosial-mavhum		
Sosial-intellektual-chidamli	1,888	4,196
Sosial-natijaviy	1,107	2,461

Shaxs intellektual faoliyati ko'rsatkichlarini saqlovchi ajratilgan omillar har xilda shakllantirilishi mumkin. Shaxs intellektual faoliyati strukturasi alohida komponentlarining ifodalanganligi masalalarni osonroq hal qilish imkonini beradi. Shaxs intellektual faoliyati jarayonida inson yaxshi ishlovchi komponentlarga tayanadi, chunki unda doimo o'zining

kuchli tomonlaridan foydalanishga intiladi.

Ajratilgan omillarning o'xshashligi bo'yicha biz shaxs intellektual faoliyatini strukturaviy tashkillashtirishning to'qqizta turini xarakterladik (2-Jadval).

2-Jadval

Shaxs intellektual faoliyatini individual-tipologik farqlari

Tur	Namoyon bo'lish xususiyatlari
Ijtimoiy operatsional	Yaxshi ijtimoiy operatsional tayyorgarlikka ega, fikrlash operatsiyalarining yuqori tezligi. Ijtimoiy masalalar aniq qo'yilganida tezda mustaqil yechim keladi
Ijtimoiy aksiologik	Texnik jihozlanishi kuchsiz, biroq intellektual faoliyatning anglashilganligi, "zaryadlanishi" yuqori, va tunning hisobiga shaxs hammami g'oyalari va fikrlari bilan zaryadlaydi va ularni amalga oshirish murakkab vazifalarni bajarish imkonini beradi
Ijtimoiy ekstravertirlangan	Shaxs vazifalarni ijtimoiy faoliyatini amalga oshirish maqsadida hal qiladi
Ijtimoiy-emotsional	Shaxs faoliyati turli xil emosional kechimmalar bilan birga kechadi, bu – yoki uni tez harakat qilishga undaydi, yo bo'lmasa konkret vazifani hal qilishdan chalg'itadi, "fikrlashning xaotikligi" ifodalangan
Ijtimoiy-uyg'un	Lokus-nazoratning qulay ifodalanishi, hayotdagi bilan belgilangan vazifalarni bajarishga qat'iy yo'nalganlik, ularni amalga oshirishga bo'lgan ishonch berilgan vazifalarni hal qilish imkonini beradi
Ijtimoiy konkret	Shaxs o'zining intellektual harakatlarini konkret dolzarb vazifalarni hal qilishga qaratadi
Ijtimoiy mavhum	Shaxs murakkab intellektual "manipulyasiyalar"ni bajarar, qonuniyatlarini izlar ekan, o'zining intellektual harakatlarini mavhum, nazariy vazifalarni hal qilishga qaratadi
Ijtimoiy intellektual-chidamli	Shaxs, intellektual faoliyatidagi omadsizliklarni "foydali kechimmalar"ga aylantirar ekan, stressga qarshi turadi, muvaffaqiyatga turtki bo'ladigan shahd paydo bo'ladi
Generatsiyalovchi	Omil bo'yicha yuqori baho olgan shaxs intellektual faoliyatining ifodalangan mahsuldorligiga ega bo'ladi

Xulosalar. Shunday qilib, shaxs kamolotida intellektual faoliyatining aniqlangan turlariga xarakteristikasiga quyidagi xulosalarni beramiz.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oila, mehnat jamoalari, ta'lim maskanlarida sog'lom o'zaro munosabatlarni o'rnatish, psixologik muhitni barqarorlashtirish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, mustahkam oila munosabatlariga salbiy ta'sir etadigan oilada taz'yiq, zo'ravonlikning ijtimoiy-psixologik omillari psixodiagnostikasi va reabilitatsiyasini amalga oshirish, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishga doir ilmiy xulosalar ishlab chiqish, yosh oilalar barqarorligiga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar hamda shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan turli darajadagi muammoli vaziyatlardan xalos bo'lishning psixologik ta'sir usullarini ilmiy tadqiq etish, ijtimoiy muhitning shaxsga fasilitativ va ingibitsion ta'siri bo'yicha psixologik muammolarni aniqlash asosida psixolog-mutaxassis faoliyatini takomillashtirish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Respublikamizda so'nggi yillarda oila institutini qo'llab-quvvatlash, psixologik xizmat ko'rsatishni normativ-xuquqiy jihatdan mustahkamlash, inson qadriini yuksaltirish hamda ulug'lashga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur asoslari yaratilmoqda: «Xalq bilan muloqot, odamlarning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash ...eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi...» .

Oilaviy psixologik xizmatning tamoyillarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta'lim tashkilotlari va ilmiy markazlarida, jumladan: «Oilaviy Tadqiqotlar Markazi», (Buyuk Britaniya); Britaniya Psixologik Jamiyati (Buyuk Britaniya); Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (Amerika Qo'shma Shtatlari); «Oila muammolarini o'rganish davlat instituti» (Germaniya); Sarbonna universiteti (Fransiya); Milliy ta'lim universiteti (Koreya); «Bola, oila va tarbiya» ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi); M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi)larida olib borilmoqda.

Maqolada oiladagi nizoli vaziyatlarning asosiy psixologik sabablari; nizolarda ijtimoiy persepsiyani qo'llash; ota-ona va farzand munosabatlarining sub'ektiv baholanishi; farzand hayotini to'g'ri yo'lga qo'yishda ota-onalar bilan ish olib borish kabi oilaning dolzarb masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, oilalarga psixologik xizmatni tashkil etish va o'tkazishda asos vazifasini yaratuvchi ijtimoiy-psixologik metodlarni qo'llash natijalari keltirilgan. Farzandning o'zaro munosabatlarda shaxs xususiyatlarini xarakterlovchi jihatlardan: uning qiziquvchanligi, tengdoshlari orasidagi muloqotmandligi, liderlikka intilishi, janjalkashligi, tajovuzkorligi, frustratsiyaga reaksiyasi, ayniqsa, yolg'iz qolishga intilishi, o'zini chetga olishi kabi xislatlarini kattalar inobatga olishni istamasliklari kabi an'anaviy tarbiyadagi yondashuvlar va natijada bola xulqining ijtimoiy adekvatlik darajasidagi nomunosibliklar tadqiqotda qo'llanilgan.

Rene-Jile metodikasi natijalarida isbotlangan, 1-jadvalga qarang. Rene-Jile metodikasi qo'llanilishida bolaning boshqalar bilan o'zaro munosabati hamda shaxs xususiyatlari aniqlangan. Olingan natijalarda metodika shartiga ko'ra 1-7-shkalalarda oiladagi bolaning boshqalar bilan o'zaro munosabatini, 8-13-shkalalarda esa bolaning o'zigagina xos shaxs xususiyatlarini ko'rish mumkin. Oilaga psixologik xizmatni dastlab ota-onalarga ko'rsatish zarurati ko'rinadi, bu borada farzand psixologiyasi va tarbiyasi masalasida psixologik savodxonligini oshirish uchun fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lgan mahallalar qoshida targ'ibot ishlarini tashkil etish, o'rta maktab o'quv dasturlariga esa o'quvchilar uchun psixologik xizmatga doir fakultativ mashg'ulotlarni kiritish maqsadli bo'lishi tasdiqlangan. Buning uchun oilada shaxslararo munosabatlarning namoyon bo'lishini aniqlab olish zarur: oilada onasiga, otasiga, aka-uka va opa-singillariga munosabati, bobo-buvisi va boshqa yaqin qarindoshlariga bo'lgan munosabat; do'st-o'rtoqlari, o'qituvchisiga bo'lgan munosabat metodikadagi 7 ta shkala bo'yicha olingan natijalardan ko'rinadi. Qolgan 8,9,10,11,12,13-shkalalarda esa oiladagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan qiziquvchanlik, muloqotmandlik, guruhida yetakchilik qilishga intilish,

janjalkashlik, tajovuzkorlik, frustratsiya holatlari, yolg'iz qolishga intilish, o'zini chetga olish kabi shaxs sifatlarini aniqlash imkoniyati bo'ladi.

1-jadval.

Ota-ona va farzand munosabatlarining namoyon bo'lishi ko'rsatkichlari, Rene-Jile metodikasi bo'yicha farzandlar fikri, n=200

№	Shkalalar	o'g'il farzandlar Mx1±m1	qiz farzandlar Mx2±m2	t
1	Onasiga munosabati	4.41±0.22	5.3±0.21***	-2.25
2	Otasiga munosabati	3.36±0.81	3.29±0.22	0.07
3	Otasiga munosabati Bola tomonidan ota-onasini birgalikda ota-ona sifatida idrok etib munosabatda bo'lishlik	5.01±0.26	5.39±0.23	-1.16
4	Aka-ukalari va opasingillariga munosabati	4.51±0.19*	3.8±0.16	2.58
5	Bobo-buvisi va oilaning boshqa yaqin a'zolariga munosabati	2.39±0.15	2.4±0.14	0.52
6	Do'st-o'rtloqlariga munosabati	2.47±0.14	2.3±0.15	2.29
7	O'qituvchiga munosabati	2.68±0.16	3.4±0.16*	-2.49
8	Qiziquvchanligi	7.93±0.4	7.73±0.27	0.54
9	Bolalar guruhida muloqotmandligi	5.82±0.24	5.69±0.22	0.57
10	Guruhda ustunlik, yetakchilik qilishga intilishi	4.81±0.4***	3.6±0.30	3.12
11	Janjalkashlik, tajovuzkorlik	4.56±0.26***	3.7±0.24	3.12
12	Frustrativ holatlarga munosabati	2.04±0.24	2,26±0,18 -0.97	-0.97
13	Yolg'iz qolishga intilish, o'zini chetga olishi	3.88±0.23*	3.34±0.18	2.13

Olingan natijalardan ko'rinadiki, oiladagi farzand o'z tengdoshlari, aka-uka, opasingillari, bobo-buvisi bilan unosabatlari keskin tafovutlanmaydi.

Tadqiqotda shuningdek, ota-onalarning farzandiga nisbatan munosabatlarini Yefim Sheferning RARU metodikasi yordamida o'rganildi, 2-jadvalga qarang.

2-jadval.

Ota-onalarning farzandiga nisbatan munosabatlari ko'rsatkichlari, Ye.Sheferning RARU metodikasi bo'yicha, n=200

№	Shkalalar	ota	ona	t
1	Bolaga fikrini gapirib olish imkoniyatini berish	17.87	18.58	4.31**
2	Bolani qiyinchiliklardan saqlash	17.89	18.84	2.43*
3	Uy bekasi rolidagi ona	16.32	16.32	16.32
4	Bolaning xohish-istagini bosish	17.34	17.54	3.64**
5	Ota-onalar o'zini qurbon qilishi	17.32	18.68	3.88**
6	Bolaga ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqish	17.81	18.8	3.41**
7	Er-xotinlik nizolari	17.7	18.5	2.75**
8	Ota-onalarning qattiqqo'lligi	17.98	17.92	0.61
9	Ota-onalarning serjahlligi	16.21	17.8	4.18**
10	Bolalarni ona boshqarishligi	17.96	18.9	4.27**
11	Bolaota-onaga tobeligini rag'batlantirish	18.43	18.94	0.86
12	Boladagi tajovuzkorlikni bosish	16.7	17.28	1.44
13	Ota-onaning "jabrlanuvchanligi"	15.89	16.96	1.77
14	Ota-onalar va bolalarning tengligi	18.57	17.94	5.25**
15	Bola faolligini rag'barlantirish	18.24	19.2	3.9**
16	Bola bilan mulqotdan qochish	17.11	17.24	0.52
17	Erning xotiga e'tiborsizligi	16.68	18.94	2.96**
18	Boladagi shahvoniylikni bosish	17.23	18.54	4.44**
19	Onaning hukmronligi	17.06	18.28	4.2**
20	Ota-onaning bola hayotiga aralashishi	17.43	18.44	3.48**
21	Ota-ona va bolao'rtasidagi do'stona munosabat	17.64	19.12	5.92**
22	Bola rivojlanishini tezlashtirish	17.47	16.68	0.45
23	Bolani tarbiyalashda boshqalar yordamining zarurligi	17.91	19.26	5.62**
	Umumiy o'rtacha ko'rsatkich	17.38	17.83	2.25*

Izoh: * - $R < 0.05$ ** - $P < 0.01$ *** - $R < 0.001$

Natijalar taqqoslanganda, bolalardagi tajovuzkorlikni bosish haqida ma'lumot beruvchi 12-shkala bo'yicha ko'rsatkichlar (ota-onalar o'rtasidagi farq ishonchliligi $t=1.44$ $R < 0.05$ ga teng) bo'lishi ota-onalarning bolaning yosh davriga oid xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari, farzand tarbiyasida nizolarni yuzaga kelishiga ota-onalarning o'zlari sababchi bo'lib qolishlari mumkin bo'lishi ko'rinadi.

2-jadvalda keltirilgan metodika bo'yicha olingan natijalar va ularning tahlili ota-onalarning ota-onalik roliga ustanovkalari va munosabatlarida: ota-onalarning farzandlarga nisbatan o'ta g'amxo'rliqi, ularga ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqish, ularga tobeligini ag'batlantirish, tajovuzkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchliligi namoyon bo'ladi; farzandlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish bilan birga bola bilan bo'ladigan mulqotdan qochish holati ham mavjud ekanligi: tarbiyadagi diktat, bola irodasini, xohishistagini bosish, ularga nisbatan qattiqqo'l, talabchan bo'lish kabi xususiyatlar, bola tarbiyasi borasida ko'proq qayg'urish onalarda otalarga nisbatan kuchliroq ifodalanganligini ko'rsatadi. Bunday natijalar kelusida oiladagi o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir etishi, nizolarni yuzaga kelishiga zamin yaratishi nuqtai nazaridan ota-onalarni farzand tarbiyasi va psixologiyasiga doir bilimlarini kengaytirishga ahamiyat berish kerakligini ko'rsatadi.

Metodika natijalaridan ko'rinadiki, oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishda ota-onalarning farzand tarbiyasiga doir psixologik bilimlarini kengaytirish, xatto maxsus o'quv kurslarini olib borish sharoitini yaratish zarur bo'ladi.

Ota-onalarda farzandiga nisbatan egalik hissining bo'lishi ularning 3- jadvalda keltirilgan javoblaridan ko'rinadi.

3-jadval.

Ota-onalarning farzandlariga nisbatan ustanovkalarining korrelyasiya

ko'rsatgichlari

№	Ustanovkalar	1	2	3	4	5	6	7	8
1	O'qishni bitirish	1	0,47	0,59	0,33	0,64*	0,39**	0,51**	0,27**
2	Yaxshi ish topish		1	0,37	0,38	0,36*	0,29**	0,38**	0,49**
3	Qiziqqan kasbini egallash			1	0,39*	0,42	0,39**	0,32**	0,29**
4	Ота-она маслаҳати				1	-0,11	-0,46	-0,22	-0,48
5	Moddiy ta'minlanish					1	0,43**	0,49**	0,42**
6	Hunarli bo'lish						1	0,45**	0,61**
7	Ilmli bo'lish							1	0,54**
8	Bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor								1

Izoh: *P<0.05, **P<0.0

Ota-onalarning farzandlariga nisbatan ustanovkalarining korrelyatsiyasi natijalaridan ko'rinadiki, ota-onalarni farzand tarbiyasiga doir munosabatlari talabchanlik, o'zlarida amalga oshmay qolgan xoxishlariga erishish niyatini ifodalaydi. Shuning uchun ota-onalarga psixologik maslahat, psixologik targ'ibot ishlarini tashkil etish muhim ekanligi ko'rinadi.

Jadval ko'rsatkichlarida birinchi o'rinda bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish zarurati, ikkinchi va uchinchi o'rinlarda esa «moddiy ta'minlangan bo'lish», «hunarli odam bo'lish», «ilmli bo'lish», «qiziqqan kasbiga ega bo'lish» kabi qadriyatlarni tanlangan bo'lib, baxs va mushohadaga olib boruvchi jihat esa farzandlarga nisbatan mustaqillik darajasining past qo'yilishi, ya'ni ota-onalari tomonidan qabul qilingan qarorlarni so'zsiz qabul qilish kabi qadriyatlar ahamiyatining pasayib borayotganligi kuzatildi.

Oilaviy psixologik xizmatni olib borishda oila institutining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik xususiyatlariga oid bilimlarga asoslanish hamda «Ijtimoiy tasavvurlar», «Munosabatlar tizimi», «Men» konsepsiyalariga tayanish zarur va maqsadlidir. Oilaviy psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashda psixologik ta'sir usullari, mulqot psixologiyasining asosiy qonunlari, oilaning hayot tarzi, yoshi, tarkibi, ijtimoiy bandligi kabi muhim komponentlarini psixologik maslahatgacha o'zlashtirish zarur ekanligi empirik tasdiqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shoumarov G.B., Shoumarov Sh. B. Muhabbat va oila.— Toshkent, Ibn Sino», 1994. — 120 b.
2. Akramova F.A. Ф.Ф.О'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. Avtoreferat (DSc).Toshkent.2022.
3. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. O ilaviy hayotni o 'rga- ' hga oid psixologik testlar. T.: «Shams ASA», 2002. — 58 b. 12.
4. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. T.: «Shams ASA», 2002. — 63 b.
5. Akramova F. A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2005. — 68 b.
6. F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.

TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHINING NAZARIY-METODOLOGIK TALQINI

*Jabborova Malohat Azimovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Psixologiya fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Ushbu maqolada talabalar akademik o'zlashtirishining nazariy-metodologik talqini qisqacha bayon qilingan. Shuningdek, talabalar o'zlashtirishini yuqori sifat darajasiga olib chiqish milliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa ekanligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: talaba, akademik o'zlashtirish, akademik muvaffaqiyat, ta'lim, ilg'or texnologiyalar, ehtiyoj, moddiy-texnik baza, islohotlar, psixologik mexanizm.

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ

*Жабборова Малохат Азимовна,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
учитель психологии.*

Аннотация: Современная стремительно развивающаяся эпоха требует вооружить учащихся обоснованной информацией в короткие сроки, создать необходимые условия для их основательного овладения различными основами науки. В современных условиях требуется, чтобы образовательный процесс был направлен на развитие личности, социализацию и воспитание способностей самостоятельного, критического, творческого мышления. В данной статье кратко описывается теоретико-методологическая интерпретация академического мастерства студентов. Также было подчеркнуто, что доведение обучения студентов до качественного уровня является важной задачей, стоящей перед отечественной системой образования.

Ключевые слова: студент, академическое освоение, академические успехи, образование, передовые технологии, потребность, материально-техническая база, реформы, психологический механизм.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL INTERPRETATION OF STUDENTS' ACADEMIC DEVELOPMENT

*Jabborova Malohat Azimovna,
Shahrisabz State Pedagogical Institute Teacher of psychology*

Abstract: Today's fast-paced era demands to arm students with reasonable information in a short period of time, to create the necessary conditions for their thorough mastery of various science bases. In modern conditions, it is demanded that the educational process should be directed to the development of the individual, socialization and education of independent, critical, creative thinking abilities. This article briefly describes the theoretical and methodological interpretation of students' academic mastery. It was also highlighted that bringing students' learning to a high quality level is an important task facing the national education system.

Key words: student, academic mastering, academic success, education, advanced technologies, need, material and technical base, reforms, psychological mechanism.

Kirish (Introduction). Globallashuv sharoitida shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda ta'lim muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan mualliflarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ta'lim to'g'risidagi ma'ruzalari, yangi taraqqiyot bosqichida milliy ta'lim tizimidagi oliy ta'limni isloh qilish, sifatli bilim berish tuzilmasini yaratish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni samarador jarayonga aylantirish, talabalar o'zlashtirishini yuqori sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida qabul qilinayotgan normalar, shuningdek, B.G. Ananiev, E.A. Klimov, V.A. Ivannikov kabi olimlarning) nazariy-falsafiy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo'lib belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida umumilmiy usullardan tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, taqqoslashdan foydalanildi. Shuningdek, talabalar akademik o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi omillar – jahon hamda yurtimiz olimlarining ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Rivojlangan mamlakatlarning tarixiy rivojlanish yo'lini tahlil qilganimizda, ularda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga va ilm-fanga, yangi texnologiyalar rivojlanishiga beriladigan e'tibor nihoyatda ulkan bo'lganini ko'ramiz. Shu sababdan, mamlakatimiz davlat siyosatida ilm-fan rivoji, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va yetuk bilimlari, malakali kadrlar yetishtirishga ustuvorlik berish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

“Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim”[1].

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida milliy ta'lim tizimidagi oliy ta'limni isloh qilish, sifatli bilim berish tuzilmasini yaratish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni samarador jarayonga aylantirish, talabalar o'zlashtirishini yuqori sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni, O'zbekiston Respublikasida 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son hamda “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim

muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 31 dekbrdagi 824-son qarorlarini sanab o'tish mumkin.

Ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim sifatini oshirish va baholash, ta'lim natijalari hozirgi vaqtda pedagogika va pedagogik psixologiya fanlarining diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo'lib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar qatoriga quyidagilar kiradi: ta'lim samaradorligini oshirish, "natijaga ega bo'lish" tushunchasining ta'limning barcha bo'g'inlaridagi nisbatan mazmunini aniqlash; ta'lim maqsadlariga mos keladigan zamonaviy baholash vositalarini asoslash, tanlash, ishlab chiqish va joriy etish usullarini izlash, ya'ni ijobiy ijtimoiylashuv va zarur kompetensiyalar majmuasini rivojlantirish; talabaning akademik o'zlashtirish darajasini, shuningdek, butun ta'lim davomida samaradorlik darajasining barqarorligini bashorat qilish mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kabi masalalar.

Avvalo, tadqiqot ishimizga doir asosiy tushunchalarni asoslashga harakat qilib va nima uchun "talabalar akademik o'zlashtirishining psixologik determinantlarini tadqiq etish jarayoni" tadqiqot predmeti sifatida tanlanganligi haqidagi savolga javob beraylik. Shu munosabat bilan tadqiqotimiz maqsadlari uchun muhim bo'lgan tadqiqotning asosiy tushunchalari va toifalari: "o'zlashtirish", "akademik", "determinantlar" va boshqalarni ko'rib chiqish, ularning tuzilishi va mazmunini ochib berishni lozim deb topdik.

Talabalar akademik o'zlashtirishi – ular egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning to'raligi, chuqurligi, ongilligi hamda mustahkamligi darajasini anglatuvchi pedagogik mezondir. O'zbekistonda talabalar o'zlashtirishini yuqori sifat darajasiga olib chiqish milliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardandir. Chunki talabalarining intellektual rivojlanishi hamda kasbiy tayyorgarligi ularning akademik o'zlashtirish darajalariga bevosita bog'liq.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi bilan "ta'lim natijasi" tushunchasining mazmuni ham o'zgaradi. Ta'lim natijalari - bu talabalar o'quv jarayonini tugatgandan so'ng bilim, ko'nikma va munosabatlar nuqtai nazaridan ma'lum ko'rsatkichlarni namoyon qilishidir.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv natijalari joriy, oraliq va yakuniy ko'rinishida bo'lishi mumkin, ammo baribir "natija" atamasining o'zi ma'lum bir ko'rsatkichlarni anglatadi. Shuning uchun, biz tadqiqotimizda protsessual ma'noga ega bo'lgan, ya'ni "akademik o'zlashtirish" ga ega bo'lgan o'rganish samaradorligini, ta'limdagi muvaffaqiyatlarini, shuningdek, talabaning ta'limdagi muvaffaqiyatini tavsiflovchi va o'rganish predmeti bo'lgan bir nechta atamalarni: "o'quv yutug'i", "ta'lim muvaffaqiyati", "ta'lim samaradorligi", "akademik muvaffaqiyat", "o'rganish samaradorligi" kabilarni ham tahlil qildik. Har qanday talabaning o'zlashtirishidagi muvaffaqiyati va uning o'quv jarayonida erishgan yutuqlari ta'lim natijalarining belgilovchi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Akademik – bu o'rganishga tegishli bo'lgan narsa (asosan universitetda), lo'g'aviy ma'nosi – o'quvga oid, nazariy degan ma'nolarni bildiradi. "Akademik" atamasining kelib chiqishi miloddan avvalgi VI-V asrda paydo bo'lgan qadimgi yunon ta'lim va tarbiya madaniyati bilan bog'liq. Platonning pedagogik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, "asosiy maqsad - bu nafaqat fan yoki kasbiy ta'lim, balki shaxsni tarbiyalashdir", - deya tavsiflanadi.

Zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quv samaradorligi nafaqat ta'lim natijalari bilan cheklanib qolmaydi, balki u faoliyat-amaliy, motivatsion, qimmatli va hissiy tomonlarga ega.

Ta'lim natijasiga erishishning eng muhim shartlaridan biri bu talabaning butun o'qish davrida barqaror ilm bilan mashg'ul bo'lishidir. Akademik o'zlashtirish orqali talaba ilmiy faoliyatining dinamikasi barqarorligini yoki beqarorligini ko'rsatishi

mumkin. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ko'plab pedagog va psixologlar tomonidan o'quv faoliyatining miqdoriy ko'rsatkichlar (ballar) bilan ifodalangan o'zlashtirish darajasi o'rganilganda – ta'limning sifati talabalar akademik o'zlashtirishida ko'proq aks etishi ta'kidlandi [4].

“Akademik o'zlashtirish” ilmiy atama sifatida ilmiy muomalaga nisbatan yaqinda kiritilgan. Mashhur rus psixologi B.G. Ananiev nafaqat o'quv faoliyatini ob'ektiv baholash, balki samaradorlikning sub'ektiv tomoni haqida ham gapirgan birinchi tadqiqotchilardan biridir.

Akademik o'zlashtirish - bu ta'lim yutuqlarini sub'ektiv-shaxsiy ma'noda aks ettiruvchi va ob'ektiv holat (rasmiylashtirilgan, shu jumladan o'quv natijalarining tuzilishi “bilish”, “o'rganish”, “egallash”) bilan bog'liq bo'lmagan murakkab xususiyatdir.

Akademik o'zlashtirish:

ta'lim olish jarayonining rang-barangligini o'zida aks ettiradi;

ta'lim olishga tayyorgarlik jarayonida erishilgan yutuqlarni, shuningdek unga erishish jarayonini ham aks ettiradi;

dinamikada talabalar tomonidan ko'rsatilgan natijalarning barqarorligi yoki beqarorligini o'z ichiga oladi;

natijalarga erishish shartlarini o'z ichiga oladi;

talabaning o'zi uchun ta'lim natijasi nimani anglatishi va u bunga qanchalik erishganligi haqidagi fikrini aks ettiradi [2].

Jamiyat va ta'lim taraqqiyotining prognozlariga oid tadqiqotlar va ekspert xulosalarida talaba shaxsining uzviy rivojlanishi bilan bir qatorda ular uchun qulay bo'lgan ta'lim sharoitlarini yaratish, ta'limning chiziqli bo'lmagan traektoriyalari haqida so'z borib, bu jihatlar fuqaro, faol va mustaqil shaxs, kasb egasi sifatida shakllanishiga olib kelishi ta'kidlanadi.

Talabalarning oliy ta'lim muassasalaridagi o'zlashtirishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi: moliyaviy ahvol, sog'lig'i, yoshi, oilaviy ahvoli, universitetga qadar tayyorgarlik darajasi, o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalari, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish (birinchi navbatda, ta'lim), tanlash motivlari. universitet, universitet ta'limining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi dastlabki g'oyalarning yetarliligi; ta'lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy ta'lim va boshqalar), to'lov-kontraktning mavjudligi va ularning miqdori, universitetda o'quv jarayonining tashkil etilishi, universitetning moddiy-texnik bazasi, ta'lim darajasi. o'qituvchilar va xodimlarning malakasi, universitetning obro'si va nihoyat, talabalarning individual psixologik xususiyatlari.

Har qanday faoliyatning, shu jumladan ta'limda qo'lga kiritiladigan muvaffaqiyat, birinchi navbatda, intellektual rivojlanish darajasiga bog'liq. Intellektual qobiliyatlar va faoliyat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro dialektik bog'lanishga ega: har qanday faoliyatga samarali jalb qilish ushbu faoliyat uchun ma'lum darajadagi qobiliyatlarni talab qiladi, bu esa, o'z navbatida, qobiliyatlarning rivojlanishi va shakllanishi jarayoniga mos ravishda ta'sir qiladi.

Talabalarning muvaffaqiyati nafaqat umumiy aqliy rivojlanish va maxsus qobiliyatlarga bog'liq, bu hatto aql-idrok nuqtai nazaridan ham tushunarli, balki qiziqish va motivlar, xarakter xususiyatlari, temperament, shaxsiyat yo'nalishi, o'zini o'zi anglash va boshqalarga ham bog'liq.

Shaxsning potensialini optimallashtirishning muhim sharti uning faoliyati, muayyan faoliyat turiga e'tibor qaratishdir. Aynan shu narsa inson uchun nihoyatda muhim bo'lib, uning faoliyatining motivlari va maqsadlari bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarning asosiy ehtiyojlaridan biri bu muloqotdir. Muloqotda ular nafaqat boshqalarni, balki o'zlarini ham o'rganadilar, ijtimoiy hayot tajribasini o'zlashtiradilar. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj turli xil aloqalarni o'rnatishga, sheriklik, do'stlikni rivojlantirishga yordam beradi, bilim va tajriba, fikr, kayfiyat va tajriba almashishni

rag‘batlantiradi.

Shaxsning yana bir muhim ehtiyoji - bu muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj. Talabalarning hayoti bir qator ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o‘ziga xosdir. Ularning ma‘naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishda ma‘lum cheklovlar mavjud. Tadqiqot ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, talaba faoliyati samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, ularning ma‘naviy ehtiyojlarini oliy o‘quv yurtida o‘qish va kelajak kasbi talablariga muvofiq rivojlantirish bilan bog‘liq.

Nima uchun ba‘zi talabalar bilim va kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun qattiq va iroda bilan ishlaydilar va yuzaga keladigan qiyinchiliklar o‘z maqsadlariga erishish uchun kuch va ishtiyoqni qo‘shadi, boshqalari esa hamma narsani bosim ostida bajaradi va har qanday muhim to‘siqlarning paydo bo‘lishi ularning faolligini keskin kamaytiradi. Bunday farqlar ta‘lim faoliyatining bir xil tashqi sharoitlarida (ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, o‘quv jarayonini tashkil etish va uslubiy ta‘minlash, o‘qituvchining malakasi va boshqalar) kuzatilishi mumkin.

Ushbu hodisani tushuntirishda psixologlar va o‘qituvchilar ko‘pincha talabalarning aql-zakovat darajasi (bilim, ko‘nikma, ko‘nikmalarni egallash va ularni muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyati), ijodkorlik (yangi bilimlarni rivojlantirish qobiliyati) kabi individual psixologik xususiyatlarga murojaat qilishadi. o‘z-o‘zidan); o‘quv motivatsiyasi, o‘quv maqsadlariga erishishda kuchli ijobiy tajribani ta‘minlash, yuqori darajadagi o‘z-o‘zini hurmat qilish, yuqori darajadagi da‘volarni shakllantirishga olib keladigan va hokazo. Ammo bu fazilatlarining hech biri alohida olingan yoki hatto ularning kombinatsiyasi ham har qanday kompleksda muqarrar bo‘lgan tez-tez yoki uzoq davom etadigan muvaffaqiyatsizliklar sharoitida kasbiy va ijtimoiy kompetensiyani o‘zlashtirishda talabaning kundalik, mashaqqatli va mashaqqatli mehnatga munosabatini shakllantirish uchun yetarli emas.

So‘nggi paytlarda psixologiyada ijtimoiy intellekt nisbatan mustaqil tur sifatida ajratilgan bo‘lib, u kommunikativ kompetensiya (muloqot bo‘yicha kompetensiya) asosida yotadigan qobiliyatlar majmui sifatida tushuniladi, bu shaxsni shaxs tomonidan adekvat idrok etish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishni ta‘minlaydi va boshqa odamlar bilan aloqada bo‘lish, ularga ta‘sir qilish, birgalikdagi faoliyatni ta‘minlash, jamoa va jamiyatdagi munosib mavqeini (ijtimoiy mavqe) belgilaydi. E.A. Klimov tasnifiga ko‘ra, “odamdan odamga” tipidagi kasblarni egallash uchun yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt ba‘zan sub‘ekt (umumiy) aql va ijodkorlikning past darajasi uchun kompensatsiya sifatida rivojlanayotganligi haqida dalillar mavjud. Ijtimoiy intellektning yuqori darajasi ko‘pincha o‘quv muvaffaqiyatining past darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi foydasiga, talabalar shaxsining ba‘zi tipologiyalari ham belgilanadi, ular quyida muhokama qilinadi. Biroq, bunday talabalarning rasmiy ko‘rsatkichlari istalgan yuqori bahoni olish uchun o‘qituvchilarga mohirona ta‘sir ko‘rsatishi tufayli ortiqcha baholanishi mumkin.

Ko‘plab rus psixologlari tomonidan o‘z-o‘zini hurmat qilish, u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga ishonch va yuqori darajadagi intilishlarni talabalarning o‘zlashtirishi uchun muhim ijobiy omillar deb hisoblanadi. O‘z qobiliyatiga ishonmagan, imkoniyatlarini yetarlicha baholamagan talaba ko‘pincha qiyin vazifalarni o‘z zimmasiga olmaydi va o‘z mag‘lubiyatini oldindan tan oladi.

Talabalarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga oid keng ko‘lamli tadqiqotlarda ta‘kidlanganidek, ta‘lim oluvchining akademik o‘zlashtirishini belgilovchi asosiy omil – bu shaxsning individual aqliy xususiyatlarining jiddiyliги emas, balki ularning tuzilishi bo‘lib, unda irodaviy fazilatlar yetakchi rol o‘ynaydi [3]. V.A. Ivannikovning fikriga ko‘ra, inson o‘zining irodaviy fazilatlarini dastlab yetarli darajada turki bo‘lmagan harakatni amalga oshirganda namoyon qiladi, ya‘ni. “xulq-atvor natijasi” uchun kurashda boshqa harakatlarga bo‘ysunadi. Ixtiyoriy harakat mexanizmini ushbu harakat motivini ataylab kuchaytirish va raqobatdosh harakatlar motivlarini zaiflashtirish orqali amalga oshirish motivatsiyasining yetishmasligini

to'ldirish deb atash mumkin. Bu, xususan, harakatga yangi ma'no berish orqali bo'lishi mumkin. Katta muammo o'quv jarayonini shunday qurishdadirki, talaba o'zini imkon qadar kamdan-kam hollarda yengishi, uni o'quv faoliyatiga qo'shilishga majbur qilishi kerak. Ko'rinib turibdiki, talabani irodaviy fazilatlariga murojaat qilish zaruriyatini butunlay istisno qilib bo'lmaydi, lekin o'quv jarayonini tashkil etishdagi barcha muammo va kamchiliklarni o'quvchilarning dangasaligi, irodasining kamligida ayblash ham mumkin emas. O'rganish motivi o'quv faoliyatining o'zida yoki uning jarayoniga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. Bunga shu yo'l bilan erishish mumkin: o'quv jarayonini talaba uchun imkon qadar qiziqarli qilish, unga qoniqish va hatto zavq keltirish; o'quvchiga ta'lim faoliyatidagi ichki va tashqi to'siqlarni yengib o'tishdan qoniqishni his qilish imkonini beradigan shunday motivlar va munosabatlarni shakllantirishga yordam berish.

Talim jarayonida o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillardan yana biri – o'quv yuklamalaridir. O'qituvchi nazorat va baholash davrlarida bu yuklamalar ayniqsa yuqori bo'lishini hisobga olishi kerak. Ammo bu yerda eng qo'pol pedagogik xatolardan biri tez-tez sodir bo'ladi: o'qituvchi o'quv dasturini o'zlashtirish natijalarini salbiy baholashni umuman talabani shaxsiyatini baholashga o'tkazadi, bu esa talabaga yuz ifodalari yordamida, imo-ishoralar va hatto og'zaki shaklda u ahmoq, dangasa, mas'uliyatsiz va hokozolar ko'rinishida e'tirof etiladi. Bu bilan talabani salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishga majburlash, o'qituvchi talabani jismoniy holati va sog'lig'iga bevosita ta'sir qiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, o'z yosh davridagi fiziologik funksiyalarning eng yomon ko'rsatkichlari bilan ajralib turadiganlar talabalardir. Ular gipertoniya, taxikardiya, diabet, nevropsixiatrik kasalliklar bilan og'rikan bemorlar soni bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Buning sabablari, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, universitetda o'qish jarayonida talabalar ko'pincha sog'lig'iga putur yetkazadigan kuchli psixologik stressni boshdan kechiradilar.

Talabalik davrida ularning rivojlanishida nafaqat jismoniy, balki psixologik xususiyatlar va yuqori aqliy funksiyalar maksimal darajaga yetadi: idrok, diqqat, xotira, fikrlash, nutq va his-tuyg'ular. B.G. Ananyning ta'kidlashicha [2], bu hayot davri ta'lim va tarbiya uchun eng qulaydir. Bu davrda individual faoliyatning faol shakllanishi sodir bo'ladi. Kognitiv faoliyatda mavhum tafakkur ustunlik qila boshlaydi, dunyoning umumlashtirilgan xaritasi shakllanadi va o'rganilayotgan voqelikning turli sohalari o'rtasida chuqur aloqalar o'rnatiladi, aqlning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus so'rovlar natijalari shuni ko'rsatadiki, taqqoslash, tasniflash, aniqlash, sistemaga solish kabi intellektual operatsiyalarning rivojlanish darajasi ko'pchilik talabalar uchun unchalik yuqori emas. O'qituvchi ko'pincha talabalarda o'quvchilik davrida shakllangan his-tuyg'ularini, o'qishga bo'lgan munosabatini yengib o'tish uchun katta kuch sarflashi kerak: faqat intellektual faoliyat natijasiga e'tibor qaratish va fikrlash harakati jarayoniga aslo befarq bo'lmasligi kerak. Faqat talabalarning yarmidan bir oz ko'prog'i o'zlarining intellektual rivojlanish ko'rsatkichlarini oshiradilar. Birinchi kursdan to'rtinchi kursgacha, qoida tariqasida, bu zaif va o'rtacha talabalarda kuzatiladi va eng yaxshi talabalar ko'pincha universitetni o'zlarida avvaldan bo'lgan intellektual qobiliyat darajasi bilan tark etishadi.

Ijodiy tafakkur asosida bilimlarni mustaqil egallash qobiliyati yanada muhimroqdir. Ayniqsa, universitetda ta'lim olish davrida maxsus qobiliyatlar jadal rivojlanmoqda. Talaba birinchi marta kelajakdagi kasbining tarkibiy qismlari bo'lgan ko'plab faoliyat bilan duch keladi. "Shaxsiy bilimlarni" uzatish, qoida tariqasida, faqat "o'qituvchi-shogird" juftligida mumkin. Talabalik davridagi hissiy soha o'smirlilik davrida tez rivojlanishi va fermentatsiyasidan keyin "tinchlanadigan" ma'lum bir muvozanatli holatga keladi. Ammo o'tmishdagi "bo'ronlar" ning muayyan aks-sadolari ba'zan o'zlarini his qiladi, ayniqsa, shaxsiy rivojlanishda kechikishlar bo'lgan talabalar orasida, ya'ni. infantilizm bilan og'rikanlarda yaqqol ifodalanadi. Ko'pincha

hayotdan, o'zidan va boshqa odamlardan bo'rttirilgan va ma'lum darajada mavhum norozilik bo'lishi mumkin. Pedagogik ta'sir yetarli bo'lmaganda bunday holatlar xulq-atvorda buzg'unchi tendensiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. O'smirlik davrining eng muhim xususiyati – shaxsning o'z individualligini, o'ziga xosligini anglashi, o'z-o'zini anglashining shakllanishi va “men” obrazining shakllanishi hisoblanadi. “Men” obrazi, I.Konning fikriga ko'ra [6], ijtimoiy munosabat, shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati bo'lib, u uchta o'zaro bog'liq komponentni o'z ichiga oladi: kognitiv, hissiy va xulq-atvor. So'nggi o'n yilliklarda o'z-o'zini anglashni shakllantirish cho'qqisida 17-19 yoshdan 23-25 yoshgacha siljish kuzatildi. O'z-o'zini anglashni shakllantirish o'smirlikning eng muhim va tez-tez qarama-qarshi bo'lgan ehtiyojlarini - muloqotda, yolg'izlikda, yutuqlarda va hokazolarda namoyon bo'ladi. Muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj, agar u talaba uchun asosiy ta'lim faoliyatida o'zini qoniqtirmasa, tabiiy ravishda hayotning boshqa sohalariga – sportda, tadbirkorlikda, ijtimoiy faoliyatda, sevimli mashg'ulotlarda yoki yaqin munosabatlar sohasiga o'tadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, psixologiya fanlarida “muvaffaqiyatli ta'lim olish” hodisasi bevosita shaxsning o'zini o'zi anglash, o'zini-o'zi baholash va uning o'zini o'zi qadrlashi bilan bog'liq. Talabani o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishish hissi (ham umumiy, ham akademik) uning o'zini o'zi qadrlashi, u qo'ygan maqsadlar darajasi, tashkilotchiligi, yaqin ijtimoiy jamoatchilikning fikri va boshqa xususiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Bunday talaba o'zidan va o'z ishidan mamnun bo'ladi. U o'rganish jarayonida o'zining qiyinchiliklarini va tartibsizliklarini yengib o'tadi. Agar talaba, hatto yuqori rasmiy natijalarga ega bo'lsa ham, asosan stressni, yaqin atrofdagi bosimni boshdan kechirsa, o'zidan norozi bo'lsa va o'rganishda o'z maqsadlarini shakllantira olmasa, uning akademik o'zlashtirishi muvaffaqiyatli bo'lmaydi, chunki uning o'qishi unga quvonch, qoniqish olib kelmaydi.

“Akademik o'zlashtirish” tushunchasi o'quv motivatsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tushunchadir. O'tgan yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabalarining o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatsizligi yoki muvaffaqiyatining asosiy sababi motivatsiyadir. Motivatsiya talabalarining munosabati, o'rganish odatlari va akademik tayyorgarligiga ta'sir qiladi [10]. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'lim dasturlarini o'zlashtirish muvaffaqiyati uchun talabalarining o'qishga bo'lgan motivatsiyasi muhimligiga e'tibor qaratdilar [8]. O'z ta'lim maqsadlarini yaxshi tushunadigan talabalar ko'proq motivatsiyaga ega bo'ladilar, o'rganishga ijobiy munosabatda bo'lishadi va shuning uchun muvaffaqiyatga erishish imkoniyati ko'proq bo'ladi [7, 9]. Oliy ta'lim darajasida o'qish uchun motivatsiya tuzilishini tahlil qilish ayniqsa muhimdir, chunki bu holda ta'lim va kasbiy faoliyatning kombinatsiyasi mavjud [11]. Shu bilan birga, talabalarda shakllangan kasbiy intilishning mavjudligi o'quv jarayoniga, ularning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradigan maxsus pedagogik texnika va usullarni ishlab chiqish uchun ta'lim motivatsiyasini o'rganish muhimligini ta'kidlaydilar [5].

Universitet talabalari ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshirish, kelajakdagi mutaxassislikni olish va kasb-hunar egallashda muhim bo'lgan barcha zarur ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yordamning kompleks dasturiga muhtoj. Motivatsiyani oshirishga qaratilgan ushbu qo'llab-quvvatlashning bir qismi sifatida talabalarining his-tuyg'ularini hisobga olish lozim, o'qituvchi va talaba o'rtasida yanada nozik, ya'ni, samimiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, o'quvchilarning past qobiliyatlarini oshiradigan moslashuvchan yondashuvdan foydalanish kerak. O'z-o'zini hurmat qilish, “talabalarining ijodiy qobiliyatlarini (o'yin va kognitiv faoliyatda) rivojlantirishga” yordam berish, shuningdek, ularning “etuk bo'lmagan muloqot qobiliyatlarini” yaxshilash choralarini ko'rish tadbirlarini kiritish o'rinni.

Talabalar zarur bilim va ko'nikmalarni nafaqat majburiy o'quv dasturini

o'zlashtirganda, balki fakultativ, ixtiyoriy fanlar shaklida o'qitiladigan qo'shimcha bilimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish hamda faol va qo'shimcha o'qitishning boshqa usullari orqali ham olishlari mumkin. Yuqori darajadagi motivatsiya bo'lmasa, bunday hajmni yengish va yaxshi akademik o'zlashtirishga erishish qiyin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqotimiz tahlili natijasida shuni ta'kidlash kerakki, akademik o'zlashtirish ta'lim samaradorligini aks ettiruvchi va nafaqat ta'lim sifatini baholashga qaratilgan, balki ta'limning tashqi va ichki xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan murakkab xususiyatdir, chunki u ta'lim natijalarining xilma-xilligi, ta'lim sharoitlarining, o'quvchining hissasi, shu jumladan o'quv natijalarining tuzilishini o'zida namoyon etadi. O'quv muvaffaqiyatining tavsifi mavzu – faoliyat, aks ettiruvchi-faoliyat va kasbiy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Pedagogik-psixologik kategoriya sifatida “akademik o'zlashtirish” ta'lim natijalarini tushunishga juda mos keladi degan pozitsiya asoslanadi, chunki u ta'lim muvaffaqiyatiga yaxlit yondashuvni, o'quv maqsadlarini baholashni, psixologik, aqliy-aksiologik, axloqiy va dinamik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 29-dekabr. Xalq so'zi, 2020, №276 (7778)

Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания / Б. Г. Ананьев. — 2 изд. — Санкт-Петербург: Питер, 2001. — 272 с.

Иванников В.А. Иродавий тартибга солишинг психологик механизмлари. - М., 1991. - 178 б.

Рубин, Ю. Б. Современное образование: качество, стандарты, инструменты / Ю. Б. Рубин. — 2-е изд. — Москва: Market DS, 2009. — 330 с.

Магазова Е.А. Взаимосвязь мотивации учебной деятельности со смысло-жизненными ориентациями студентов медицинского вуза / Е. А. Магазова, М. К. Чуватаева. Современные исследования социальных проблем. — 2013. — № 3 (23). — DOI:10.12731/2218-7405-2013-3-17.

Леонтьев А.Н. Психологические основы развития ребенка и обучение / А. Н. Леонтьев. — 2-е изд., стереотипное. — Москва: Смысл, 2019. — 432 с.

Bailey T.H. The influence of motivation and adaptation on students' subjective well-being, meaning in life and academic performance / T. H. Bailey, L. J. Phillips // Higher education research & development. — 2016. — Vol. 35. — № 2. — P. 201-216.

Baxter L. Assessing health care students' intentions and motivations for learning: The Healthcare Learning and Studying Inventory (HLSI) / L. Baxter, K. Mattick, W. Kuyken // Advances in Health Sciences Education. — 2013. — № 18 (3). — P. 451-462. — DOI: 10.1007/s10459-012-9383-y.

Cherif A. Why do students fail? / A. Cherif, F. M. G. Adams, J. Dunning // A collection of papers on self-study and institutional improvement. — Chicago: The Higher Learning Commission. — 2013. — P. 35-51.

Kusurkar, R.A. How motivation affects academic performance: a structural equation modelling analysis / R. A. Kusurkar, T. J. Ten Cate, C. M. P. Vos, P. Westers, G. Croiset // Advances in Health Sciences Education. — 2013. — Vol. 18. — № 1. — P. 57-69.

Ryan, R.M. Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions / R. M. Ryan, E. L. Deci // Contemporary Educational Psychology. — 2000. — Vol. 25. — № 1. — P. 54-67.



OILA VA KASB MUVOZANATINING PROFESSOR-O'QITUVCHILAR ISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jalilov Hafiz Naimovich

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi

Annotasiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi oila va kasb muvozanati, va professor-o'qituvchilarning ish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdir, shunga ko'ra, O'zbekistonning uchta davlat oliy ta'lim muassasasi bo'yicha 107 nafar professor-o'qituvchilarning "quantitative" tadqiqot usulidan olingan ma'lumotlardan foydalanildi. IBM SPSS 27.0 dasturi orqali tadqiqot gipotezalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: oila va kasb muvozanati, oliy ta'lim muassasasi, professor-o'qituvchilar, ish samaradorligi

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВЛИЯНИЯ БАЛАНСА МЕЖДУ РАБОТОЙ И ЛИЧНОЙ ЖИЗНЬЮ НА РАБОТОСПОСОБНОСТЬ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА

Жалилов Хафиз Наимович

Главный специалист Министерства высшего образования, науки и инноваций

Аннотация: Целью данного исследования является изучение взаимосвязи между балансом между работой и личной жизнью и производительностью труда профессоров и преподавателей, работающих в системе высшего образования Узбекистана. В исследовании использованы данные, полученные методом «количественного» исследования 107 профессоров и преподавателей трех государственных высших учебных заведений Узбекистана. Гипотезы исследования изучались с использованием программного обеспечения IBM SPSS 27.0.

Ключевые слова: баланс семьи и карьеры, высшее учебное заведение, профессорско-преподавательский состав, эффективность труда.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE INFLUENCE OF WORK-LIFE BALANCE ON THE JOB PERFORMANCE OF PROFESSORS AND TEACHERS

Jalilov Hafiz Naimovich

Head specialist of the Ministry of higher Education, science and innovations

Abstract: The purpose of this research is to study the relationship between work-life balance and job performance of professors and teachers working in the higher education system of Uzbekistan. The study used the data obtained from the "quantitative" research method of 107 professors and teachers of three state higher education institutions of Uzbekistan. Research hypotheses were studied using IBM SPSS 27.0 software.

Key words: Work-life balance, University, professors and teachers, job performance

KIRISH. Oila va kasb muvozanati mavzusi bugungi kunda olimlar va amaliyotchilar orasida eng qizg'in mavzulardan biriga aylandi. Ushbu qiziqishni uyg'otgan bir qancha omillar aniqlangan va ular orasida mehnat bozoridagi demografik tarkibning o'zgarishi, ish hajmi va sur'ati, ish soatlarning ko'payishi muhim omillar sifatida qaraladi. Oila va kasb muvozanati mavjud bo'lganda, inson baxtli, sog'lom va muvaffaqiyatli hayot kechirishi mumkin (Helmle et al., 2014). So'nggi o'n yilliklardan

beri «Oila va kasb muvozanati» kontseptsiyasi ham tashkilotlar, ham odamlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u xodimlarning ish samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishi aniqlandi, bu esa o'z navbatida tashkilotlarning faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi (Gutri, 2012). Tashkilot tomonidan qabul qilingan oila va kasb muvozanatining samarali siyosati xodimlarga jamiyat bilan muloqot qilish imkonini beradi, shu bilan birga xarajatlar va aylanma nazorat ostida bo'lishini va unumdorlikni oshirishni ta'minlaydi (Helmle et al., 2014). Garchi bu mavzu chet ellik olimlarning e'tiborini kuchaytirayotgan bo'lsada, O'zbekistonda oila va kasb muvozanati hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun, ushbu tadqiqot oila va kasb muvozanati O'zbekiston Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning ish samaradorligiga ta'sirini o'rganishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Oila va kasb muvozanati

60-yillarning o'rtalariga kelib, oila va kasb muvozanati mavzusi olimlarning qiziqish mavzusiga aylandi. Masalan, Kahn et al., (1964) xodimlar uchun ish va oiladagi nizolar jiddiy stress manbai hisoblanadi, degan xulosaga keldi. Hozirgi vaqtda tashkiliy tuzilmalarni xodimlarning ehtiyojlariga moslashtirish yoki gender tengligi, integratsiya va oilalarni himoya qilish bo'yicha hukumat qoidalariga javob berish uchun ko'plab tashkilotlar o'z resurslarini mehnat tashabbuslariga bag'ishlamoqda (Susana va Ramon 2013). Bir qator olimlar ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda tashkilotdan oila va kasb muvozanati tashabbuslarini talab qiladigan xodimlar ko'paygan (Lavoie, 2004). Oila va kasb bo'yicha tadqiqotlarda asosiy nuqta xodimlarga ularning ishi va shaxsiy hayoti o'rtasidagi ziddiyatlarda yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan tashkiliy xizmatlar va siyosatlarining ta'siri bo'ldi. Shunga ko'ra, mavjud adabiyotlar xodimlarning ish talablari va oiladagi roli tufayli yuzaga keladigan nizolarni kamaytirishga yordam berish uchun tashkilotlarning rolini o'rganishga harakat qildi (Hon va Chan, 2013). Topilmalar shuni ko'rsatadiki, moslashuvchan ish jadvallari, bola parvarishi, ota-ona ta'tillari va rahbar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan xodimlarning oila va kasbi o'rtasida kamroq ziddiyat, ish samaradorligi va ishdan qoniqish darajasi yuqori, stress kamroq bo'ladi, va ular o'z ish joylarini o'zgartirishga kamroq moyil bo'lishadi (Helmle et al., 2014).

Shunga ko'ra, oila va kasb muvozanati tushunchasi oila va ish talablari o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun xodimga bo'lgan vaqt miqdorini belgilaydi. Oila va kasb balansi xodimning ish va oila o'rtasidagi vaqtni taqsimlash nisbatini o'z ichiga oladi. Ish va oila o'rtasida nomutanosiblik mavjud bo'lganda, ishda yoki oilaviy masalalarda haddan tashqari ko'p stress va salbiy munosabatlari paydo bo'lishi mumkin va bu oxir oqibatda ishdan charchashga olib kelishi mumkin (Lawson et al., 2013). Shu bilan birga, Greenhaus va Allen (2010) tadqiqotlarida, oila va kasb muvozanati insonning ish va oilaviy rollari bo'yicha boshdan kechirgan qoniqish darajasi ma'lum bir vaqtda o'zida uning hayotdagi rol ustuvorliklariga moslashish darajasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Xodimlarning ish samaradorligi

Xodimning ish samaradorligini xodim tomonidan o'rganilgan narsalarni yoki xodim olgan ta'lim turini aks ettiruvchi xatti-harakatlar ko'rinishidagi javoblar sifatida tavsiflash mumkin; u aqliy va psixologik imkoniyatlarning natijasini o'z ichiga oladi (Faiza va Nazir, 2015). Xodimlarning ish samaradorligi olimlar orasida tobora ommalashib borayotgan tushunchadir, chunki xodimlarning ish samaradorligi ham xodim, ham tashkilot uchun juda muhimdir.

Xodimlarning ish samaradorligi tashkilot jarayonlarini, xususan, samaradorlik va mahsuldorlik nuqtai nazaridan umumiy yaxshilashga yordam beradi (Abualoush et al., 2018). Xodimlarning ish samaradorligi ularning samarali tarzda bajaradigan faoliyati va vazifalari bilan bog'liq bo'lib, shuningdek, ularning tashkilot rivojlanishiga qanchalik darajada hissa qo'shishini va ularning doimiy ravishda

ishga qatnashishi belgilaydi (Abualoush et al., 2018). Bundan tashqari, tashkilot faoliyati va muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xodimning moliyaviy yoki moliyaviy bo'lmagan natijalari ham xodimlarning faoliyatida aks etadi (Anitha, 2014). Samaradorlik - bu xodim tominidan qo'llab-quvvatlash va say-harakat bilan erishiladigan xodim qobiliyatining mahsuli. Demak, bitta omilning kamayishi yoki yo'qligi ish samaradorligining pasayishiga olib keladi (Anitha, 2014). Shuning uchun ko'plab nufuzli korxonalar, oliy ta'lim muassasalari o'z xodimlarining ish samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berishadi va ularning ish samaradorligini oshirish uchun ko'plab dasturlar ishlab chiqishgan.

Oila va kasb muvozanati va xodimlarning ish samaradorligi

Oila va kasb muvozanati xodimlarning munosabatlari, xatti-harakatlari va farovonligini, shuningdek, tashkilotning ish samaradorligini o'z ichiga oladi (Au va Ahmad, 2014). Shunday qilib, davlat va nodavlat korxonalar ijtimoiy va nazoratni ta'minlaydigan yangi boshqaruv amaliyotlarini integratsiyalashlari shart. Tashkilotlar va xodimlar kontekstida oila va kasb muvozanati so'nggi o'n yilliklardan beri o'z ahamiyatini ko'rsatdi. Oila va kasb muvozanati haqiqatan ham xodimlarning ish samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligi aniqlandi va bu tashkilotlarning umumiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Semlali va Hassi, 2016). Davlat va nodavlat korxonalari samarali oila va kasb muvozanati siyosatini amalga oshirishi kerak, ya'ni bu siyosat xodimlarga jamiyat bilan ijtimoiy aloqada bo'lishga, ularning ish tashlash ko'rsatkichlarini kamaytirishga va ish samaradorligini oshirishga imkon beradigan siyosat bo'lishi kerak (Helmle et al., 2014).

So'nggi bir necha yil ichida oila va kasb muvozanati masalasi, ayniqsa, haq to'lanadigan ishning moslashuvchanligini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash nuqtai nazaridan jiddiy ko'rib chiqildi. Xorijiy adabiyotlarida ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar ish yukining oshishi, belgilangan vaqtdan ko'ra ko'p ish soatlari mavjudligi ularda jismoniy va emotsional stresslarning paydo bo'lishiga va oila va kasb muvozanatining buzilishiga olib kelishi, va natijada bu omillar ularning ish samaradorligi pasayishiga sabab bo'lishi borasida bir nechta tadqiqotlar olib borilgan (Lawson et al., 2013). Masalan, Bloom va Van Reenen (2006) ma'lumotlariga ko'ra, oila va kasb muvozanati xodimlarni ushlab turish va mahsuldorlik kabi bir qator tashkiliy natijalarning kuchli prognozchisi ekanligi ko'rsatilgan. Mehmon (2002) ta'kidlashicha, oila va kasb muvozanati nafaqat hayotdan qoniqish va farovonlikka, balki ish va oilaning samaradorligiga ham hissa qo'shadi. Xuddi shunday, Anitha (2014) oila va kasb muvozanati va ishchilarning ish samaradorligi o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot gipotezasi

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ushbu maqolada oila va kasb muvozanatining O'zbekiston Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning ish samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi va shuning uchun quyidagi gipoteza ushbu tadqiqotda sinovdan o'tkaziladi:

Gipoteza: Oila va kasb muvozanatining O'zbekiston oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning ish samaradorligiga sezilarli ta'siri bor.

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqotda O'zbekistodagi uchta davlat oliy ta'lim muassasalaridan jami 107 nafar professor-o'qituvchilar qatnashdi, bulardan ayollar $n = 61$, 57%; erkaklar $n = 46$, 43%, va 78,5% oilali va 21,5% oilasiz tashkil qildi. O'rtacha yosh tahlil qilinganda 26,2% 21-30, 37,4% 31-40, 28% 41-50 va 8,4% 51-60 yoshda ekanligi aniqlandi. Kasbiy daraja tahlil qilinganda 10,3% Prof.Dr.; 12,1% dots. Dr.; 21,5 foizi PhD (Dotsent, PhD), 29 foizi katta o'qituvchi, 27,1 foizi o'qituvchi ekanligi aniqlandi. Demografik tahlil natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

	N=107	Foizi
Yosh		
21-30	28	26.2
31-40	40	37.4
41-50	30	28
51-60	9	8.4
Jins		
Erkak	46	43
Ayol	61	57
Ilmiy daraja		
Professor, Doktor	11	10.3
Dotsent, Doktor	13	12.1
PhD (Dotsent, PhD)	23	21.5
Katta o'qituvchi	31	29
O'qituvchi	29	27.1
Oilaviy ahvoli		
Oilasiz	23	21.5
Oilali	84	78.5

Tadqiqot metodlari

Biz oila va kasb muvozanatini Brough et al., (2014) ning 4 ta so'rovnomadan iborat metodi yordamida o'lchadik. Ish samaradorligini o'lchash uchun Williams va Andersonning (1991) 6 ta so'rovnomadan iborat so'rovnomasi va Lynch et al., (1999) ning 4 so'rovnomadan iborat so'rovnomasidan foydalandik.

O'zbekistondagi uchta davlat universitetlari tadqiqot obyekti sifatida tanlandi. Qualtrics da onlayn so'rov yaratildi. So'rovnomaning anonim havolasi uchta davlat universitetlarining telegram kanaliga yuborildi. So'rovnomaning boshida qisqacha rozilik sahifasi mavjud edi. So'rovnoma ishtirokchilar tomonidan anonim tarzda to'ldirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Dastlabki ma'lumotlar Qualtrics dan SPSS ga o'tkazildi. Barcha statistik tahlillar uchun IBM SPSS 27.0 dasturidan foydalanildi. Umumiy shkala ballari oila va kasb muvozanati uchun ham, ish samaradorligi uchun ham o'rtacha ball yaratish orqali yaratilgan.

Descriptive statistika va korrelyatsiyalar

2-jadvalda o'rtacha(M), standart og'ish(SD), Kronbaj alfasi(Cronbach's alpha), va oila va kasb muvozanati va ish samaradorligi o'rtasidagi korrelyatsiyalar ko'rsatilgan. Oila va kasb muvozanati (M= 3.21, SD= .64) va ish samaradorligi (M= 3.24, SD= .67) ko'rsatdi. Ko'rinib turibdiki, ikkala o'zgaruvchida ham alfa .70 dan yuqori bo'lgan holda qoniqarli ishonchlikni ko'rsatdi. Oila va kasb muvozanati uchun o'rtacha ball 3,21, bu oila va kasb muvozanati katta darajada qo'llanilishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, oila va kasb muvozanati muhim ahamiyatga ega va olingan yuqori qiymat respondentlarning oila va kasb muvozanatiga ijobiy munosabatini ko'rsatadi. Shuningdek, oila va kasb muvozanati professor-o'qituvchilarning ish samaradorligi bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega (.89).

2-Jadval

	Mean	SD	Cronbach's alpha	1	2
Oila va kasb muvozanati	3.21	.64	.94	1	
Ish samaradorligi	3.24	.67	.86	.89**	1

Asosiy tahlil. Gipotezani tekshirish uchun ko'p regressiya tahlili qo'llanildi. R .69 qiymatini ko'rsatdi, bu oila va kasb muvozanati va ish samaradorligi o'rtasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiya borligini ko'rsatadi (3-jadvalga qarang). Model ish samaradorlikdagi farqning 71% ni tushuntiradi (Adjusted R2 = .71).

3-Jadval

R	R Square	Adjusted R Square	Std. Error of the Estimate
.69 ^a	.72	.71	.22

4-jadvalda ko'p regressiya tahlili natijalari ko'rsatilgan. Bu oila va kasb muvozanati ish samaradorligi bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatadi ($B = .73, p < .001; s.e. = .76$). Bu natija shuni ko'rsatadiki, yaxshi oila va kasb muvozanatiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarda ish samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Gipoteza nuqtai nazaridan, oila va kasb muvozanati ish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi degan xulosaga kelish mumkin. Tadqiqot gipotezasi qo'llab-quvvatlandi.

4-Jadval

	Unstandardized Coefficients		Standardized Coefficient Beta	t	Sig.
	B	Std. Error			
Oila va kasb muvozanati	.73	.06	.76	12.13	.000

TADQIQOT MUHOKAMASI. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda joylashgan 3 ta davlat universitetlari o'rtasida oila va kasb muvozanatining professor-o'qituvchilar ish samaradorligiga ta'sirini o'rganib chiqdi. Tadqiqot gipotezasi oila va kasb muvozanati va ish samaradorligi o'rtasidagi ijobiy munosabatni bashorat qildi. Ushbu gipoteza oila va kasb muvozanati ish samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan to'liq qo'llab-quvvatlandi va tadqiqot natijasi Anitha (2014), Kim (2014), Smith et al. (2016), Helmle et al. (2014), Soomro et al. (2018) va boshqalarning oldingi empirik topilmalarini tasdiqladi. Bundan tashqari, bu tadqiqot, professor-o'qituvchilar o'z tashkiloti ularning oila va kasb muvozanati haqida qayg'urishi va ularga bu muvozanatni saqlashga shart-sharoitlar yaratib berishi haqida o'ylasa, bu ularning ish samaradorligining oshishiga olib kelishi dalillar bilan tasdiqladi. Shu sababli, oily ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanatini yaxshilash uchun yetarli darajada tashkiliy yordam ko'rsatishga ko'proq e'tibor berishlari kerak, bu esa o'z navbatida professor-o'qituvchilarning va umumiy tashkiliy ish faoliyatini yaxshilashga olib keladi.

Tadqiqot ishining kamchiliklari va keyingi tadqiqotchilarga tavsiyalar

Tadqiqot ishimiz bir nechta kamchiliklardan iborat. Birinchidan, ushbu tadqiqot juda cheklangan vaqt oralig'ida o'tkazildi, bu esa tarqatilgan so'rovnomalar soniga cheklov qo'ydi. Shu sababli, agar kelajakdagi tadqiqot uzoqroq vaqt ichida amalga oshirilsa, ko'proq so'rovnomalar tarqatilishi mumkin, ya'ni tanlov hajmi kattaroq bo'ladi va shuning uchun tadqiqot natijalarini aholi uchun umumlashtirilishi mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, bu tadqiqot ishi faqat O'zbekistondagi davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarni o'rgandi, kejakdagi tadqiqotlar davlat va xususiy oliy ta'lim professor-o'qituvchilarni o'rganishi kerak. Ushbu tadqiqotning uchinchi kamchiligi - bu ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning asosiy usuli sifatida bitta (quantitative) texnikadan foydalanish va bu aniqlik nuqtai nazaridan natijalarni cheklashi mumkin. Shuning uchun, kelajakdagi tadqiqotlar natijalarning aniqligini oshirish uchun taxmin qilingan munosabatlarga nisbatan amaliy tadqiqotlar kabi boshqa usullardan foydalanishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar

Ushbu tadqiqot oila va kasb muvozanati professor-o'qituvchilarning ish samaradorligiga hal qiluvchi rol o'ynashini aniqladi. Shunday ekan, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari o'z professor-o'qituvchilarining oila va kasb muvozanatini to'g'ri olib borishi uchun har doim yetarli darajada qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi kerak. Oliy ta'lim muassasalari ilmiy xodimlarni turli yo'llar bilan qo'llab-quvvatlashlarini namoyish etishlari mumkin, jumladan, ularning aniq ish vaqtlarini belgilash, ish soatlarining cho'zilib ketishiga va ish yuklamalarining ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik, professor-o'qituvchilarning fikrlari va farovonligi haqida qayg'urish va kerak bo'lganda ularga yordam berish. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, professor-o'qituvchilarning ish samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari ularning oila va kasb sharoitlariga ko'proq e'tibor qaratishi kerak, natijada u hukumat oliy ta'lim sifatini yaxshilashga hissa qo'shishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot oila va kasb muvozanatining O'zbekistondagi uchta davlat oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan professor-o'qituvchilar ish samaradorligiga ta'siri va ular o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oila va kasb muvozanati va professor-o'qituvchilarning ish samaradorligi kuchli ijobiy munosabatlarga ega. Shuningdek, ushbu tadqiqot tomonidan taqdim etilgan tadqiqot ma'lumotlari kelajakda oila va kasb muvozanati va xodimlarning ish samaradorligini o'rganmoqchi bo'lgan O'zbekiston tadqiqotchilari uchun juda foydali bo'lishi mumkinligiga umid qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Abualoush, S. H., Obeidat, A. M., Ali, A., Masa'deh, R., & Al-Badi, A. (2018). «The role of employees' empowerment as an intermediary variable between knowledge management and information systems on employees' performance». *VINE Journal of Information and Knowledge Management Systems*, 48(2), 217-237. <https://doi.org/10.1108/VJIKMS-08-2017-0050>
2. Anitha, J. (2014). Determinants of employee engagement and their impact on employee performance. *International Journal of Productivity and Performance Management*, 63(3), 308-323. <https://doi.org/10.1108/IJPPM-01-2013-0008>
3. Au, W. C., & Ahmed, P. K. (2014). «Sustainable people management through work-life balance: a study of the Malaysian Chinese context». *Asia-Pacific Journal of Business Administration*, 6(3), 262-280. <https://doi.org/10.1108/APJBA-02-2014-0024>
4. Bloom, N., & Van Reenen, J. (2006). «Management practices, work-life balance, and productivity: a review of some recent evidence», *Oxford Review of Economic Policy*, 22(4), 457-482.
5. Brough, P., Timms, C., O'Driscoll, M.P., Kalliath, T., Siu, O., Sit, C., & Lo, D. (2014). «Work-life balance: a longitudinal evaluation of a new measure across Australia and New Zealand workers», *International Journal of Human Resource Management*, 25(19), 2724-2744.
6. Faiza, T. A., & Nazir, F. S. (2015). Capacity building boost employees performance. *Industrial and Commercial Training*, 47(2), 61-66. <https://doi.org/10.1108/ICT-05-2014-0036>
7. Guthrie, V. M. J. (2012). «Management control of work-life balance. A narrative study of an Australian financial institution». *Journal of Human Resource Costing & Accounting*, 16(4), 258-280. <https://doi.org/10.1108/14013381211317248>
8. Greenhaus, G. H., & Allen, T. D. (2010). «Work-family balance: a review and extension of the literature», in Tetrick, L. and Quick, J.C. (Eds), *Handbook of Occupational Health Psychology*, 2nd ed., American Psychological Association, Washington, DC, pp. 165-183



9. Helmle, J. R., Botero, I. C., & Seibold, D. R. (2014). «Factors that influence perceptions of work-life balance in owners of copreneurial firms». *Journal of Family Business Management*, 4(2), 110-132. <https://doi.org/10.1108/JFBM-06-2014-0013>
10. Lavoie, M. (2004). “Post Keynesian consumer theory: potential synergies with consumer research and economic psychology”. *Journal of Economic Psychology*, 25(5), 639-649. <https://doi.org/10.1016/j.joep.2003.02.001>
11. Lynch, P.D., Eisenberger, R., & Armeli, S. (1999). “Perceived organisational support: inferior-versussuperior performance by wary employees”, *Journal of Applied Psychology*, 84(4), 467-483.
12. Semlali, S., & Hassi, A. (2016). «Work–life balance: how can we help women IT professionals in Morocco?». *Journal of Global Responsibility*, 7(2), 210-225. <https://doi.org/10.1108/JGR-07-2016-0017>
13. Soomro, A. A., Breitenecker, R. J., & Shah, S. A. M. (2018). «Relation of work-life balance, work-family conflict, and family-work conflict with the employee performance-moderating role of job satisfaction». *South Asian Journal of Business Studies*, 7(1), 129-146. <https://doi.org/10.1108/SAJBS-02-2017-0018>
14. Susana, P., & Ramón, V. C. (2013). «Work-life balance under challenging financial and economic conditions». *International Journal of Manpower*, 34(8), 961-974. <https://doi.org/10.1108/IJM-07-2013-0172>
15. Williams, L.J., & Anderson, S.E. (1991). “Job satisfaction and organisational commitment as predictors of organisational citizenship and in-role behaviors”, *Journal of Management*, 17(3), 601-617.

YOSHLARDA MUSIQIY QOBILIYATLAR NAMOYON ETILISHINING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Madrimova Feruza Bahram qizi
Psixologiya va xorijiy tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Yoshlarda musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish avvalam bor bolalar bog'chalaridan boshlanadi. Bog'chadagi musiqa o'qituvchisi bolalarning turli xil musiqiy o'yinlar orqali ularga musiqani his qilish va unga qiziqish mahoratini oshiradi. Bunday amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil etish bog'chadagi musiqa o'qituvchisining mahoratiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi bolaning ovozi mashq qildirishi, raqs harakatlarini tushuntirishi lozim. Musiqiy mazmun ohanglar obrazlari bilan ifodalanadi va uni anglash, kechinmalar tarzida idrok etish orqali ushbu musiqa haqida ma'lum tasavvurlar shakllanadi.

Yoshlarda musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishi bolaning xalq musiqasi haqidagi umumiy tushunchalari, mumtoz musiqa, xalq musiqasining ommaviy janrlari (musiqa folklori), milliy cholg'u sozlari, xalq cholg'u kuyi, qo'shiqlarining rivojlanish qonuniyatlari va asarlarining shakl tuzilishi, milliy musiqiy bezaklar va milliy zarb usullar haqidagi tasavvurlardan tashkil topadi.

Tayanch so'zlar: folklor, zarb, musiqiy qobiliyat, raqs, mumtoz musiqa, imkoniyat, tarbiyachi, mahorat, o'yin faoliyati, mashg'ulot, idrok, tasavvur.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У МОЛОДЕЖИ

Мадримова Феруза Бахрамовна
Преподаватель института психологии и иностранных языков

Аннотация: Формирование музыкальных способностей у молодежи начинается в первую очередь в детских садах. Учитель музыки в детском саду совершенствует у детей способность чувствовать и интересоваться музыкой через различные музыкальные игры. Как организовать такие практические занятия, зависит от мастерства воспитателя детского сада. Для этого воспитатель должен тренировать голос ребенка и объяснять танцевальные движения. Музыкальное содержание выражается образами тонов, и путем его понимания, восприятия в виде переживаний формируются определенные представления об этой музыке.

Проявление музыкальных способностей зависит от общего понимания ребенком народной музыки, классической музыки, популярных жанров народной музыки (музыкального фольклора), национальных музыкальных инструментов, народных музыкальных наигрышей, закономерностей развития песен и формообразования произведений, национальных музыкальных стилей и национальных приемах использования ударных инструментов.

Ключевые слова: фольклор, музыкальные способности, танец, классическая музыка, возможность, воспитатель, мастерство, игровая деятельность, обучение, восприятие, воображение.

PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE MANIFESTATION OF MUSICAL ABILITIES IN YOUTH

Madrimova Feruza Bahram daughter
Teacher in the institute of psychology and foreign languages

Abstract: The formation of musical abilities in young people begins first of all in kindergartens. Kindergarten music teacher improves children's ability to feel and interest in music through various musical games. How to organize such practical

training depends on the skill of the kindergarten music teacher. For this, the teacher should train the child's voice and explain the dance movements. The musical content is expressed by the images of tones, and certain ideas about this music are formed by understanding it and perceiving it in the form of experiences.

Demonstration of musical abilities in young people consists of the child's general understanding of folk music, classical music, public genres of folk music (musical folklore), national musical instruments, folk musical tunes, patterns of development of songs and the form structure of works, national musical decorations and national percussion methods.

Key words: folklore, musical abilities, dance, classical music, opportunity, educator, skill, game activity, learning, perception, imagination.

Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur.

Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak. Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning aql mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga xarakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyektiv bo'lmish individdir.

Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (obyektni), so'ngra shu ta'sirlarning subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Oddiy qilib aytganda, inson bolalik yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, xuquq, ahloq olamidir. Bu muhit – kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, taqiqlanadi.

Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib – qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat-ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Yoshlarda musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalaridan biridir.

“Tasavvur voqelik predmetlari va hodisalarni hissiy - yaqqol, umumlashgan obrazi bo'lib, bu predmet va hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta'sirisiz ham ongda saqlanib qoladi va takror hosil bo'ladi.

Chunki, u tushunchalarning ma'no va mazmunini doimo narsalarning obrazi bilan bog'laydi va ayni vaqtda ongga predmetlarning hissiy obrazlari bilan erkin ravishda ish ko'rish imkoniyatini beradi” - deyiladi.

Musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishi hajmi shaxsning musiqaga nisbatan munosabatini belgilaydi, ya'ni, tasavvurlar mavjud tushunchalar xarakterida

namoyon bo'ladi. Xalq musiqasidagi o'ziga xos milliy va tarbiyaviy xususiyatlarning emotsional-psixologik kechinma sifatida individ, guruh yoki yaxlit holda olingan millat ongida aks etadigan ko'rgazmali obrazlari majmuasini musiqiy tasavvurlar sifatida ta'riflash mumkin.

Xalq musiqa asarlarining o'ziga xos xususiyatlari: milliy usul - ritmlar, milliy musiqiy bezaklar, milliy cholg'u sozlarining tovush hosil qilish va tembr xususiyatlari orqali milliy xarakter xislatlarini ifodalashi, ijroviy imkoniyatlari, asarlar shaklining tuzilishi, milliy kuy rivojlanishi qonuniyatlarining shaxs ongidagi in'ikosi, qo'shiqlar matni orqali milliy, etnik turmush tarzi va milliy qadriyatlarining yorqin tasvirlanishida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bizningcha, musiqiy qobiliyatlarni shakllanishi ayrim ijtimoiy-psixologik omillarga, jumladan:

1) kichik maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning musiqaga nisbatan shakllangan munosabati me'yoriga;

2) xalq musiqasiga nisbatan qiziqishlar mavjudligi;

3) xalq musiqasi targ'ibotiga;

4) ijtimoiy muhitda xalq musiqasiga nisbatan mavjud munosabat xususiyatlariga;

5) ma'naviy tarbiya mazmuni va saviyasiga;

b) oilaning ijtimoiy nufuzi va xalq musiqasiga nisbatan munosabati me'yoriga bog'liqligidir.

Shubhasiz, yuqoridagi omillar yaxlit suratda turli yosh, individual va hududiy xususiyatlarga mansub o'quvchilarning musiqiy idroki sifatiga ta'sir etib, aytish joizki, ularda musiqiy qobiliyatlar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Demak, musiqiy qobiliyatlar shakllanishi o'quvchilarda, avvalo, milliy qadriyatlarimiz namunasi sifatidagi xalq musiqasining badiiy, tarbiyaviy imkoniyatlarini anglash va milliy cholg'u sozlarimizga nisbatan ijobiy munosabat yaratilishi jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy rivojlanish natijasi o'laroq, milliy musiqa madaniyatida yangi zamonaviy yo'nalishlar (teatrlashtirilgan qo'shiq, videokliplar, fonogramma bilan kuylash), janrlar (bir necha yuz kishi ijro etadigan ommaviy bayram kompozitsiyalari, raqslar, milliy balet) va uslublar (milliy estradada umumjahon amaliyotidagi hamda milliy cholg'u sozlarini omixta holda kuylash, dostonxonlik, shuningdek, Xorazmcha, Buxoro va Surxondaryo ijro uslublarining milliy estradadagi o'ziga xos talqini yaratilishi va boshqalar)ning shakllanishi kuzatilmoqda.

Bu esa shaxsda xalq musiqa asarlaridagi ijtimoiy-badiiy mazmuni hamda zamonaviy (elektron) cholg'ularniig tovush imkoniyatlari borasida shakllanadigan qobiliyatlar yangi, o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini namoyon etmoqda:

1. O'quvchi muomalada bo'ladigan (tinglaydigan va kuylaydigan) musiqa asarlarining janr, uslub va yo'nalishlari o'zgarishi bilan uning musiqiy tasavvurlarida ham o'zgarishlar ro'y berishi mumkin.

2. Yangicha uslub talqinida, ya'ni umumjahon amaliyotidagi cholg'u sozlari va milliy cholg'ularni omixta holda qo'llash orqali shakllanayotgan musiqiy qobiliyatlar, asarlar ijrosidagi tovushlar majmuasi va tembrining tinglovchilar turli guruhlari va har bir shaxsda o'ziga xos ruhiy-hissiy ta'sir ko'lami orqali namoyon bo'ladi.

3. Ijtimoiy hayotdagi voqea va hodisalarning yangi musiqiy yo'nalish, janr va uslublarda ifodalanishi orqali shakllanadigan musiqiy qobiliyatlar o'zining ijrochilari soni, tovushlar diapazoni, o'ziga xos ijro maromi bilan ifodalanadigan, sof milliy cholg'ular jo'rligida ijro etiladigan asarlar orqali shakllanadigan tasavvurlardan farq qiladi.

4. Musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishi shaxs musiqiy tajribasi va xalq musiqasiga nisbatan munosabatlari mahsulidir.

5. Ular xalq musiqasiga nisbatan jamiyatda mavjud turli ijtimoiy qarashlar, fikrlar, baholarning shaxs ongida aks ettirilishini ta'minlaydi.

b. Har bir shaxs, ijtimoiy guruh va millat ongida musiqiy qobiliyatlar shakllanishi - ularda milliy g'urur, milliy ong va milliy o'zlikni anglash xususiyatlarini qaror toptirishga ko'maklashishi mumkin.

Musiqiy qobiliyatlarni namoyon etish funksiyalari haqida so'z yuritganda, avvalo ularning bilish funksiyasini ta'kidlash lozim. Chunki individ ongida turli darajada shakllanadigan har qanday musiqiy tasavvur asar mazmunini bilishga qaratilgandir.

Ikkinchi funksiyasi - tahlil etish bo'lib, idrok etilgan xalq musiqasi namunalari hayotiy tajriba (appersepsiya) orqali ongda ma'lum asarlar bilan taqqoslanadi va unda ifodalangan badiiy voqelikka ijtimoiy baho beriladi. Baholash subyektiv qarashlar asosida amalga oshirilsa-da, unda ijtimoiy munosabat me'yori aks etadi.

Uchinchi funksiyasi esa yo'naltirish bo'lib, asarda shaxsiy mazmunni anglashga ko'maklashadi hamda ijtimoiy faoliyatda ma'lum rol o'ynaydi. Musiqiy qobiliyatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi, rivojlanishi va milliy musiqiy tasavvurlar sifatida qayta shakllanishida takrorlash usuli ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, qayta-qayta idrok qilinayotgan musiqa asarlari tinglovchi yoki tinglovchilar guruhi uchun ham emotsional, ham intellektual ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Masalan, bugungi kunda musiqiy qobiliyatlar shakllanishi motivlari sifatida o'zbek milliy estrada musiqasi turli ijtimoiy qatlamlardagi tinglovchilarda ko'pgina hollarda faqatgina hissiy ahamiyatga ega. Ushbu asarlar haqida keng va to'laqonli emotsional tasavvurlar mavjudligini esa takrorlash natijasi sifatida baholash mumkin, chunki milliy estrada namunalari radio va televideniye orqali keng targ'ib etiladi.

Xalq musiqasining o'quvchi-yoshlarda tinglash faoliyati motivlari sifatida namoyon bo'lishi va ularda musiqiy qobiliyatlar shakllanishi uchun ushbu takrorlash, qaytarish usulidan foydalanish ijobiy ahamiyatga ega. Shuningdek, musiqiy qobiliyatlar shakllanishida yosh, individual va xududiy xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh xususiyatlari o'quvchilarning musiqiy bilim va tajribasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun turli yosh guruhlarida musiqiy qobiliyatlar shakllanishi me'yori farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsionallik asosida, ya'ni asarning hissiy ta'siriga berilish, hissiy idrok etish orqali unga baho berish tarzida amalga oshiriladi.

O'smirlilik yoshida esa musiqiy qobiliyatlar shakllanishi asarning ichki tuzilishi, uning mazmun-mohiyatiga kirib borish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishi bosqichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Musiqa asarini emotsional idrok etish va asar xarakteri (kayfiyati) asosida individ uchun muhimlarining tanlanishi.

2. Asarning ichki strukturasi, badiiy va ijtimoiy mohiyati borasida ma'lumotlar to'planishi.

3. Asarning shaxs ongida ideal sifatida qabul qilingan asarlar bilan taqqoslanishi va ahamiyatsiz deb topilganlarining xotiradan chiqarilishi hamda asar obraziga adekvat tarzda kechinmalar paydo bo'lishi.

4. Ijtimoiy baxo, subyektiv munosabat va appersepsiya asosida musiqiy qobiliyatlarning yaxlit holda ongda shakllanishi.

Musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishida birinchidan, xalq musiqasi namunalarning ijro xarakteri anglanadi. Chunki, asar xarakterini anglash orqali uning dastlabki tasviriy va ifodaviy xususiyatlari shaxs ongida paydo bo'ladi va keyingi bosqichga axborotlar to'plash uchun qulay psixologik vaziyat yaratiladi, xarakter emotsionallik bilan bog'liq bo'lgani sababli turli emotsional-psixologik holatlarni ifodalovchi kayfiyatlar (quvnoq, g'amgin, tantanali, yengil, mungli, sho'x va hokazo.) asarni badiiy va ijtimoiy xarakterini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Masalan, o'quvchilar tinglanayotgan asarlariga dastlabki soniyalardayoq munosabat bildirishlari (musiqa yoqdi yoki yoqmadi) ham tasavvurlar asosidagi asar xarakteri bilan bog'liq baho hisoblanadi.

Ikkinchidan, asarning ichki tuzilishi, shakli, musiqiy obraz rivojlanishi jarayoni, badiiy-musiqiy va ma'naviy-ijtimoiy mazmuni haqida ma'lumotlar yig'iladi.

Uchinchidan, asar ongdagi musiqiy asarlar bilan taqqoslanib, saralanib, asar obraziga xos kechinmalar paydo bo'lishi mumkin. Nihoyat oxirgi bosqichda ushbu asar borasidagi ijtimoiy baho, musiqiy tajriba (appersepsiya) va subyektiv munosabat asosida yaxlit tasavvurlar shakllanadi.

Musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishi idrok jarayoni fenomeni sifatida quyidagi ijtimoiy psixologik xususiyatlar bilan ifodalanishi mumkin. Yakka holda olingan musiqiy tasavvurlar bizningcha, ushbu musiqaning alohida janrlariga nisbatan shaxsda tinglash ehtiyoji sezilishi, tinglash faoliyati motivlari sifatida boshqa janrlardan afzal ko'rilishida namoyon bo'ladi. Umumiy tasavvurlar esa xalq musiqasining turli janrlarini qiziqib tinglash va faol ijobiy munosabat bildira olishda ko'rinadi. Musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishi idrok singari aniqlikka ega bo'lmasada, ular umumlashtirilgan musiqiy obrazlar sifatida shaxsning musiqani tushunishi va unga nisbatan baholash mezonlariga egaligi bilan muhimdir. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yoshlarda musiqiy qobiliyatlarni namoyon etilishining psixologik imkoniyatlarini shakllantirishda musiqa o'qituvchisining vazifasi dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Ozod va obod demokratik mamlakat O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston. 2016 yil.

2. Mirziyoyev Sh.M. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston. 2017 yil.

3. Sh.R. Barotov, E.M.Muxtorov O'smirlarda o'zini-o'zi psixologik himoya qilish haqidagi g'oyalarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari. Toshkent "Fan" nashriyoti, 2008 yil.

4. Madrimov B. (2021). Professional Training Is An Incentive For Moral And Aesthetic Education. The American Journal of Social Science and Educational Innovations. Vol. 03, Issue 02, Pp. 109-113.

5. Khudoynazarovich M.B. (2021). Aesthetic education of schoolchildren of Uzbek music and folk songs. Web of Scientist: An International Journal of Scientific Research. Vol. 1, no. 1, pp. 62-65.

6. Madrimov B. (2021). The performance of the Uzbek national singing art and the genre of the stage and the soznaniye of the modern youth. Science, technology and education. No. 2-1 (77), S. 55-58.

7. Madrimov B. (2021). Classic national «makom» and its place in the educational process of the direction «musical education». International Journal on Integrated Education. Vol. 4, Issue 2, pp. 121-124.

8. Khudoynazarovich M.B. (2021). Historical stages in the development of Uzbek folk art. World Bulletin of Social Sciences. Vol. 1, no. 1, pp. 32-33.



KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Ostanov Shuxrat Sharifovich,
Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologlar tomonidan hanuzgacha katta e‘tibor qaratilgan va kreativlik muammosi yoritilgan. Shaxs psixologiyasi manfaatlarini doirasiga salohiyat muammosining kiritilishi ma‘lum oqibatlariga olib keladi. Ijodiy salohiyat tushunchasi haqidagi tadqiqotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tendensiya, art-terapiya, kreativlik, shaxs xususiyati, ijodiy salohiyat, psixologik xususiyat.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ

*Ostanov Shuxrat Sharifovich,
Buxarский государственный университет, доцент кафедры психологии и социологии, Доктор философии в области психологии (PhD)*

Аннотация: В статье рассматривается проблема творчества, которая до сих пор находится в центре внимания психологов. Включение проблемы потенциала в интересы индивидуальной психологии имеет определенные последствия. Представлено исследование концепции творческого потенциала.

Ключевые слова: направление, арт-терапия, творчество, личность, творческий потенциал, психологические особенности.

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY

*Ostanov Shukhrat Sharifovich,
Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Psychology and Sociology,
Doctor of Philosophy in Psychology (PhD)*

Resume: The article deals with the problem of creativity, which is still in the center of attention of psychologists. The inclusion of the problem of potential in the interests of individual psychology has certain consequences. The study of the concept of creativity is presented in the article.

Key words: direction, art therapy, creativity, personality, creative potential, psychological characteristics.

Mavzuning dolzarbligi: Salohiyat tushunchasi murakkab toifaviy birlikdir. Ijodiy salohiyat tushunchasi mazmunining psixologik talqinini ko‘rib chiqishdan oldin «salohiyat» tushunchasi ta‘rifiga e‘tibor qaratamiz.

Xorijiy so‘zlar lug‘atida (1989 yil nashr) salohiyat denotati quyidagicha izohlangan. Potensial (lotincha potentia - kuch, quvvat) umumilmiy universal ilmiy kategoriya bo‘lib, mavjud vositalar, resurslar, imkoniyatlar majmuini anglatadi.

Xorijiy so‘zlar lug‘ati (2000 yil nashri) salohiyat tushunchasini har qanday jihatdan qudrat darajasi, har qanday sohadagi mavjud vositalar, imkoniyatlar yig‘indisi sifatida izohlaydi.

N. Yu. Shvedova tahriridagi rus tilining izohli lug‘ati salohiyatning quyidagi ta‘rifini beradi. Salohiyat - bu ichki imkoniyatdir.

A. M. Proxorov tahririda nashr etilgan Sovet ensiklopedik lug‘at (1989 yil nashri) quyidagi ma‘lumotni beradi: «Salohiyat - har qanday vazifani hal qilish, alohida shaxs, jamiyat yoki davlatning ma‘lum bir maqsadiga erishish foydalanish mumkin bo‘lgan manbalar, imkoniyatlar, mablag‘lar, zaxiralar.

Shunday qilib, «salohiyat» tushunchasining semantikasi har qanday sohada

muayyan maqsad uchun foydalanish mumkin bo'lgan mavjud manbalar, imkoniyatlar, vositalar, resurslar majmuining mavjudligi bilan belgilanadi.

Tabiiyki, salohiyat muammosi insonni, uning xulq-atvori, faoliyati, ayniqsa, shaxsiy va kasbiy yutuqlarini o'rganuvchi fanlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Uning mazmuni bo'yicha tadqiqot natijalarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Psixologlar uzoq vaqt davomida inson salohiyatini dolzarblashtirish muammosiga qiziqish bildirib kelishmoqda. Maslou o'zining shaxs nazariyasiga inson tabiatining salohiyatlilik nuqtai nazarini asos qilib olgan. Merfi va Rodjers ham o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga e'tibor berishgan. Ollport o'z-o'zini rivojlantirish uchun insonda tabiiy qobiliyatlar borligi haqida yozgan.

Biroq, zamonaviy psixologiya Maslou, Merfi, Rodjers va Ollport davriga qaraganda ancha keng qamrovli xulq-atvor, kognitiv va ijtimoiy fanlar bo'yicha to'plangan bilimlardan foydalanishi mumkin. Bu muhim afzalligi hisoblanadi. Inson salohiyatini yuksaltirishning eng samarali yo'li - shaxs faoliyatining determinantlari va mexanizmlarini tushunishdir. Ularni tushunish orqali o'zgarishi mumkin bo'lgan ruhiy jarayonlarni va inson farovonligi uchun ularni o'zgartirishi mumkin bo'lgan psixologik omillarni aniqlash mumkin bo'ladi. Psixik mexanizmlar va va ularga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy o'rganish insonparvarlik maqsadlariga to'liq mos keladi.

Psixologik tadqiqotlarda shaxsiy salohiyat yoki «salohiyat» muammosi asosan «qobiliyat» ga nisbatan ko'rib chiqiladi. Salohiyat sohasi shaxs rivojlanishida eng muhim belgilovchi vazifalarni bajaradi. Salohiyat shaxsiy rivojlanishning eng muhim «boshlang'ich» shartlarini anglatadi, ma'no shakllanishi va vaqtinchalik istiqbolning manbai bo'lib xizmat qiladi.

N.F. Vishnyakova, A.Golraski, P.F. Kravchuk, V.M. Pozdnyakov, Y.A.Ponomarev, E.Yakovleva lar tomonidan olib borilgan psixologik tadqiqotlarga ko'ra, salohiyat sohasiga quyidagilar kiradi:

- shaxsning tabiiy xususiyatlari (tug'ma yoki tabiiy mayllar, anatomik va fiziologik shart-sharoitlar, shaxsning rivojlanishini belgilovchi periferik va markaziy asab tizimining irsiy xususiyatlari);
- qobiliyatlar (teng kuch va vaqt sarflaydigan, boshqalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan insonning potensial imkoniyatlari);
- shaxsning yo'nalganligi (shaxs faoliyatini yo'naltiradigan va yuzaga kelayotgan vaziyatlardan nisbatan mustaqil bo'lgan barqaror motivlar majmui);
- shaxsiy kuch (potensial imkoniyatlarni, qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf yetish qobiliyatini, kuchli irodali sifatlarni ifodalovchi ko'rsatkich).

Dolzarblik sohasiga bu mualliflar sifat jihatidan yangi, transformatsiyalangan salohiyatli, ya'ni ayni paytda haqiqiy faoliyat, muloqot, munosabatlar va o'zaro ta'sirda faoliyat ko'rsatadigan imkoniyatlarni kitishadi.

N.F. Vishnyakova, L.Ya.Dorfman, P.F. Kravchuk, A.Dj. Kropli, Y.A. Ponomarev, Y.L.Yakovlevaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsning salohiyatli va dolzarb sohalari o'rtasida dialektik aloqalar mavjud. Rivojlanish jarayoni salohiyatlidan dolzarbga va dolzarbdan salohiyatliga qarab borishi orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy rivojlanish har ikki sohada, o'zaro aloqadorlikda amalga oshirilsa, progressiv bo'lishi ta'kidlanadi. Salohiyatlisi muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, ulardan eng muhimi shaxsning faolligi bo'lsa dolzarblashishi va real holga aylanishi mumkindir.

Amaliy psixologik tadqiqotlarda shaxs salohiyatini o'rganish R.Berns, L.Nikiforov, V. Kalveyt, F. Klike, G. Noyner, B.A. Frolov va boshqalarning mehnat faoliyati bilan bog'liq.

Bunday holda, salohiyat tavsifiga eng muhim xususiyatlari ish qobiliyati, samaradorlik, murakkab maxsus qobiliyat, yuqori motivatsiya, faoliyat yo'nalishi va tajriba kiradi.

N.F. Vishnyakova, P.F. Kravchuk, Artur Dj. Kropli, V.A. Petrovskiy, M.Pozdnyakov, S.Y. Stepanov, E.JI. Yakovlevalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha,

shaxsiy salohiyat o'ziga xos tizimi bo'lib, bir nechta tarkibiy qismlar (salohiyat turlari)dan iborat:

- biologik salohiyat;
- psixologik salohiyat;
- xarakterologik salohiyat;
- shaxsiy tajriba salohiyati;
- shaxsning yo'nalganlik salohiyati;
- ijodiy salohiyat.

Jismoniy va aqliy faoliyat, ishlash va barqarorlikka katta ta'sir ko'rsatadigan insonning biologik salohiyati asosiy hisoblanadi. Bu salohiyatning resursligi shaxs faolligi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu salohiyat resurs «tabiat tomonidan berilgan» bo'lsada, maqsadli o'z-o'zini rivojlantirish orqali oshirilishi mumkin.

Psixologik salohiyat ruhiy jarayonlarning resurs xususiyatini aks ettiradi: xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur va hissiy va irodaviy sohaning hajmi va xususiyatlari. Bu salohiyat shaxsning maxsus qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ochib berilishi tegishli qobiliyatlarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Xarakterologik salohiyat faollik, maqsadga intilish, qat'iylik va irodalilik kabi xususiyatlarning rivojlanish darajasida namoyon bo'ladi. Bu salohiyat tabiiy xossalarga ham bog'liq bo'lib, muhim to'ldiriladigan resurs sig'imiga ega, chunki muayyan xarakter xislatlari o'zidan-o'zi shakllanishi, ya'ni tarbiyalanishi mumkin.

Shaxsiy tajriba salohiyati deyarli cheklanmagan resursni to'ldirish xususiyatiga ega. Tajriba, yangi bilim va ko'nikmalar hayot davomida egallanadi va bu jarayon jadal sur'atlar bilan rivojlanishi mumkin.

Shaxsning yo'nalganlik salohiyati shaxsiy standartlar va etalonlar, maqsadlar va shaxsiy ma'nolar bilan bog'liq bo'lib, akmeologik mazmunga ega. Hozirgi vaqtda psixologiyada shaxsning yo'nalganligi deganda shaxs faoliyatini yo'naltirib turuvchi va yuzaga kelayotgan vaziyatlarga nisbatan mustaqil bo'lgan barqaror motivlar majmui tushuniladi. Shaxsni yo'naltirishda ongli motivlar asosiy rol o'ynadi. Yo'nalganlik quyidagi ierarxik jihatdan bog'langan shakllarda namoyon bo'ladi: intilish, istak, qiziqish, moyillik, ideal, dunyoqarash, e'tiqod.

Ma'lumki, istiqbolli faoliyat murakkab muammolarning nostandart yechish zaruriyati bilan bog'liq bo'lsa, unda shaxsning ijodiy salohiyati haqida gapirish mumkin. Tadqiqotchilar (N. F. Vishnyakova, P. F. Kravchuk, V. A. Petrovskiy, V. M. Pozdnyakov, A. A. Stepanov, Ye. L. Yakovleva, va boshqalar)ning ta'kidlashicha, yirik ko'lamdagi faoliyat, yangi texnologiyalar va algoritmlar yuksak ijodiy salohiyatga ega kishilar tomonida tezroq va samarali o'zlashtiriladi.

Shaxsni tavsiflashning tizimli yondashuvi tarkibiy va sabab-oqibat aloqalarini o'z ichiga oladi, bu esa uning mohiyatiga zid kelmaydi va uni integral yaxlitlik sifatida tavsiflaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ijodkorlik bo'yicha juda katta hajmdagi ilmiy ishlar borligiga qaramasdan, faqat ayrim psixologlar va pedagoglar shaxsning ijodiy salohiyat tushunchasini tizimni shakllantiruvchi omil sifatida ajratib ko'rsatishgan.

Rivojlanish haqida faqat miqdoriy emas, balki xususiyatlarning sifat o'zgarishlarini ham o'z ichiga oluvchi hodisa sifatida gapirar ekanmiz, shaxsning ijodiy salohiyati rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash zarur deb hisoblaymiz.

Nazariy tahlilni amalga oshirishda biz ijodning turli xil ta'riflari bir narsada umumlashganiga guvoh bo'ldik: ijodiy salohiyatni amalga oshirish va rivojlantirish yangi (moddiy yoki ma'naviy sohada) narsalarni dunyoga keltirishga bog'liq ekan. Inson individualligi betakror va noyobdir. Shaxsning individualligini ro'yobga chiqarish - bu ijodiy harakat, insonning ijodiy imkoniyatlarini, ijodiy resurslarini ochib berishdir.

«Kreativ akmeologiya» va «Kreativ psixopedagogika» asarlari muallifi N. F. Vishnyakova shaxsning ijodiy salohiyati kreativ komponentlarning orientatsiya, qadriyatlar va shaxs manfaatlari bilan bog'liqligi tabiati bilan belgilanganligini qayd

etadi. U nazariy qoidalarga asoslangan shaxsning ijodiy salohiyati dinamikasini aniqlashga mo'ljallangan testni ishlab chiqqan bo'lib, unga ko'ra shaxsning ijodiy salohiyati murakkab psixologik tuzilma hisoblanib, "men"- Ideal bilan bog'liqlikka egadir. Muallifning fikricha, inson ijodiy salohiyatining rivojlanishi kreativ komponentlarning o'zgarishi bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahliliga asoslanib, shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ko'rsatkichlaridan biri sifatida kreativ va motivasion ko'rsatkichlarning o'sishiga yordam beradigan «Men»-idealning o'zgarishini aniqlashimiz kerak. Shaxs ijodiy salohiyatining rivojlanish mezonlarini aniqlash muammosiga oid adabiyotlarni tahlil qilishda davom etib, V.V.Davidov tadqiqotlariga e'tibor qaratish mumkin. U o'z navbatida, kreativ komponentning shaxs ijodiy salohiyati tuzilishidagi rolini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yuksak ijodiy salohiyatga ega insonlar rivojlangan tasavvur, kuchli sezgi, o'z-o'zini ifodalashga intilish, nostandart va unumli fikrlash, yangilik va o'z resurslarini faoliyat jarayonida safarbar eta olish qobiliyati bilan ajralib turadi.

N.F. Vishnyakova insonning ijodiy salohiyatining sakkizta asosiy tarkibiy qismini ko'rsatib o'tgan: originallik, tasavvur, sezgi, ijodiy fikrlash, hazil, empatiya, qiziqish va faoliyatga ijodiy yondashuv.

V. A. Molyako shaxs ijodiy salohiyatining quyidagi tarkibiy qismlarini sanab o'tgan:

- taraqqiyotga va ma'naviy yuksalishga intilish;
- yangi, yoki g'ayrioddiy narsaga duch kelganda hayron qolish qobiliyati yoki sarosimaga tushish;
- yangi bilimlarni tez egallay olish qobiliyati;
- muammoni to'liq anglay olish, uning holatini nazorat qilish;
- spontanlik, oddiylik;
- spontan egiluvchanlik;
- originallik;
- divergent fikrlash;

Yangi tajribaga nisbatan ochiqlik, qabul qiluvchanlik.

Dj.Gilford va Ye.P. Torrens ijodiy fikrlash (yoki divergent fikrlash; yo'naltirilmagan fikrlash) insonning ijodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida kelishi mumkin, deb hisoblashadi. Bu esa konvergent fikrlashdan farqli o'laroq, yuzaga kelgan muammoni hal qilishning bir necha yo'llarini, variantlarini va usullarini topishga imkon beradi. «Turli yo'nalishlarda fikrlash qobiliyati», «kenglikda fikrlash» deb belgilangan divergent fikrlash muammolar, vazifalarni hal qilish va nostandart vaziyatlardan chiqish uchun kengroq «maydonga» chiqish hodisasiga muvofiq keladi.

Ijodiy fikrlash mezonlari sifatida mualliflar ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik (og'zaki va tasviriy ijodiy fikrlash uchun) va ishlab chiqilganlik (tasviriy yoki majoziy ijodiy fikrlash uchun ijodiy jarayonni majoziy, tasviriy material, majoziy belgilar bilan amalga oshirishga imkon beradi) ko'rsatib o'tilgan. Bo'lajak o'qituvchi shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni eksperimental o'rganishga bag'ishlangan ikkinchi bobda shaxsning ijodiy salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan ijodiy fikrlash mazmuni va ko'rsatkichlarini o'lchash masalasi tahlil qilingan.

Adabiyotlar:

Арт-терапия /сост. и общая редакция А.И. Копитина. - СПб.: Питер, 2001

Брушлинский А.Б. Психология мышления и проблемное обучение. - М.: Знание, 1983 -96 с.

Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. М.: 1965. -С 433-456.

Гатанов Ю.Б. Курс развития творческого мышления (по методике Дж. Гилфорда и Дж. Рензулли): Первый год обучения (для детей 6-10 лет). — СПб: ГП «Иматон», 1996. - 84 с.

АКТУАЛЬНОСТЬ ИССЛЕДОВАНИЙ ЗРИТЕЛЬНЫХ ИЛЛЮЗИЙ

Пронин Роман Олегович

Старший преподаватель, филиал МГУ им.М.В.Ломоносова в г.Ташкенте

Аннотация: В данной статье рассмотрена актуальность исследования восприятия зрительных иллюзий, приводятся аргументы в пользу иллюзорности самого восприятия, обозначены факторы, в силу которых восприятие зрительных иллюзий может быть неоднозначным, приведены основные направления проводимых исследований.

Ключевые слова: зрительные иллюзии, информационные технологии, восприятие, иллюзорный эффект, когнитивные процессы.

RELEVANCE OF RESEARCHES OF VISUAL ILLUSIONS

Pronin Roman Olegovich

Senior Lecturer, Moscow State University, Tashkent branch

Annotation: This article discusses the relevance of the study of the perception of visual illusions, provides arguments in favor of the illusory nature of perception itself, identifies the factors due to which the perception of visual illusions can be ambiguous, and shows the main directions of ongoing research.

Key words: visual illusions, information technologies, perception, illusory effect, cognitive processes.

VIZUAL ILLYUZIYALARNI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI

Pronin Roman Olegovich

Moskva Davlat Universitetining Toshkent filiali, katta o'qituvchisi

Izoh: Ushbu maqolada vizual illyuziyalarni idrok etishni o'rganishning dolzarbligi ko'rib chiqiladi, idrokning o'zining xayoliy tabiati foydasiga dalillar keltiriladi, vizual illyuziyalarni idrok etish noaniq bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlaydi va davom etayotgan tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ko'rish illyuziyalari, axborot texnologiyalari, idrok etish, illyuziya effekti, kognitiv jarayonlar.

В последние десятилетия интерес к исследованиям зрительных иллюзий неуклонно растёт (Шиффман, 2003; Меньшикова, 2013 и т.д.). Это связано с тем, что в современном мире роль зрительного восприятия все более возрастает. От эффективности работы зрительной системы зачастую зависит безопасность жизнедеятельности самого человека, который находится не только в мире других людей, но в мире и сложных технических систем, а также безопасность других людей. Это и управление различными видами транспорта, автоматическими информационными системами, видеонаблюдением и т.п. Бурное развитие информационных технологий, автоматизация многих функций, ранее выполняемых вручную или с помощью несложных инструментов, появление роботов предъявляют новые требования к скорости оценок ситуации на основе восприятия и по показаниям приборов: от человека требуется как можно более точное восприятие параметров окружающей среды. В связи с этим остро стоит задача понимания причин формирования зрительных иллюзий, выявления условий их возникновения и факторов, влияющих на их выраженность.

Вместе с тем, в литературе неоднократно высказывались гипотезы о том, что наше восприятие изначально иллюзорно (Осгуд, 1999; Меньшикова, 2013). Это подтверждается многими феноменами зрительного восприятия, для примера приведем некоторые из них:

- восприятие цвета (физические объекты отражают световые волны различной длины, а не окрашены в те или иные цвета);
- восприятие целого объекта при предъявлении его фрагмента, что говорит о тесной связи процессов восприятия с другими когнитивными процессами - памятью, мышлением, воображением и т.д.);
- восприятие непрерывности движения при просмотре фильмов, которые, по сути, представляют собой последовательную смену статичных картинок частотой 24 кадра

в секунду;

- восприятие 3D-фильмов (что достигается за счёт одновременной съёмки с двух взаимосвязанных видеокамер и просмотра фильма в специальных очках);

- восприятие трехмерными двумерных рисунков;

- восприятие приближения объекта в ситуации, когда он предьявляется на экране и только увеличивается в размере;

- восприятие автостереограмм (плоские изображения, которые при просмотре на определенном расстоянии и при расфокусировке глаз, создают впечатление об объёмности предмета);

- неконтролируемость процессов восприятия (мы не осознаем возбуждение рецепторов сетчатки, передачу нейронных импульсов по проводящим путям в головной мозг и сложные процессы их обработки, а осознанно переживаем лишь конечный продукт этого процесса в виде сформированного образа);

Указанные феномены показывают, что иллюзорные эффекты основаны на фундаментальных механизмах работы зрительной системы (Меньшикова, 2013). Их действие настолько непреодолимо, что художники, дизайнеры, фотографы используют зрительные иллюзии для создания впечатляющих произведений искусства (работы С.Дали, Б.Рили, Р.Магритт).

Актуальность изучения зрительных иллюзий диктуется запросами со стороны нейронаук, в частности, есть работы, где показана тесная связь функционирования мозговых процессов и феноменов зрительного восприятия (Gregory, 1967, Меньшикова, 2013). К тому же знания о закономерностях зрительного восприятия (в том числе восприятия зрительных иллюзий) востребованы в робототехнике, где одним из перспективных направлений является научить робота «видеть» зрительные иллюзии, что позволит сделать искусственный интеллект более похожим на человеческий.

Важной составляющей процесса восприятия зрительных иллюзий является их высокая вариативность. Было обнаружено, что зрительные иллюзии по-разному воспринимают люди различного возраста, обладающие различными культурными навыками, а также различными когнитивными стратегиями переработки зрительной информации.

Вариативность образов восприятия может зависеть от множества факторов:

- условия наблюдения за окружающими объектами;

- оптическое несовершенство глаза (роговица, хрусталик, стекловидное тело могут создавать преломление попадающих лучей света на сетчатку);

- разные свойства зрительного анализатора (сетчатки, проводящих путей, коры головного мозга);

- дефекты зрительного аппарата (близорукость, дальнозоркость, астигматизм, дальтонизм, косоглазие и т.д.);

- заболевания глаз (катаракта, глаукома);

- состояние сознания (нормальное состояние сознания либо изменённые состояния сознания);

- уровень развития когнитивных процессов (внимания, мышления, памяти, воображения и т.д.);

- закономерности зрительных ощущений (абсолютный и разностный пороги, адаптация, послеобразы и т.д.);

- процессы психической регуляции, например, мотивации, потребностей, эмоций;

- физиологическое и психическое состояние;

- индивидуальные особенности (темперамент, характер, способности человека);

- разный возраст;

- пол человека;

- прошлый опыт и др.

Иллюзорный эффект может зависеть и от степени осознанности и критичности воспринимающего субъекта. Один человек может поверить тому, что видит, другой может усомниться и постарается проверить, действительно есть ли несоответствия между элементами изображения, с помощью измерительных приборов. Тем не менее, существуют зрительные иллюзии, эффект которых настолько силён, что даже результаты замеров не убеждают наблюдателя в ошибочности его восприятия [9].

В качестве решения этого противоречия можно выдвинуть такое предположение.

В процессе онтогенетического развития человеку нужно научиться воспринимать свойства окружающих объектов, что необходимо для более эффективного решения профессиональных задач. В пользу этого предположения можно привести примеры многочисленных кросс-культурных исследований, где невозможность видеть зрительные иллюзии свидетельствовало о недостаточном уровне развития не только перцептивных, но и других познавательных процессов (Лурия, 1999, Коул, 1997, Сегалл, 1966 и др.).

Знание о закономерностях возникновения иллюзий необходимо и для того, чтобы делать определённые поправки при восприятии объектов через технические средства. Так, Толанский С. рассматривает 2 иллюзии, которые возникают при таком восприятии – иллюзию телеобъектива и иллюзию микроскопа, суть их заключается в искажении оценок скорости перемещения объектов, за которыми наблюдатель смотрит через объектив этих устройств. Наблюдателю кажется, что скорость объектов меняется, так как время постоянно, а расстояние иллюзорно – в случае с телеобъективом оно кажется уменьшенным (и создаётся впечатление, что объекты двигаются медленно), а в случае с микроскопом оно кажется увеличенным (соответственно, объекты воспринимаются движущимися с большой скоростью) (Толанский, 1967).

Таким образом, осознание того факта, что мы можем в любой момент быть подверженными зрительным иллюзиям, может способствовать более объективной оценке воспринимаемого объекта, но этот навык формируется, как правило, в учебной и профессиональной деятельности.

В качестве итога можно подчеркнуть, что интерес к исследованиям особенностей восприятия зрительных иллюзий связан с практическими и прикладными задачами из сфер, где превалирует именно восприятие (архитектура, изобразительное искусство, дизайн, 3D-фильмы, 3D-технологии).

Список литературы:

1. Коул М. Культурно-историческая психология: наука будущего. М.: 1997.
2. Лурия А.Р. Культурные различия и интеллектуальная деятельность // Хрестоматия по курсу «Введение в психологию» / Ред.-сост. Е.Е.Соколова. М.: Российское психологическое общество, 1999.
3. Меньшикова Г.Я. Психологические механизмы восприятия зрительных иллюзий. М.: МАКС Пресс, 2013.
4. Осгуд Ч. Точка зрения гештальтпсихологии // Хрестоматия по психологии. Психология ощущений и восприятия / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.В. Любимова, М.Б. Михалевской. М.: 1999.
5. Толанский С. Оптические иллюзии. М.: Мир, 1967.
6. Шиффман Х.Р. Ощущение и восприятие. СПб.: Питер, 2003.
7. Gregory R.L. Perceptual illusions and brain models // Proceedings of the Royal Society. London. 1968. Vol. 171.
8. Segall M. H., Campbell D. T., Herskovits M. J. The influence of culture on visual perception. Indianapolis, 1966.
9. <http://www.psy.msu.ru/illusion> - Сайт «Зрительные иллюзии».

UMUMTA'LIM MAKTABLARI PEDAGOGLARIDA KASBIY STRESS VA REFLEKSIVLIK ORASIDAGI ALOQADORLIK

*Qarshiyeva Dilafruz Suyunovna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti Amaliy psixologiya kafedrası professori
v.b., psixologiya fanlari doktori DSc*

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada pedagogik faoliyatda kasbiy stress uning xususiyatlari hamda refleksivlikning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy asoslari hamda unga ta'sir qiluvchi omillarning o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Dunyoda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayni paytda pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda pedagog xodimlarni professional kompetentligining psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish va rivojlantirish modelini yaratish hamda takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada pedagoglarni psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, pedagog xodimlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati pedagog xodimlari sotsial-psixologik kompetentlik omillarini tadqiq qilish modelini ishlab chiqilganligi, o'rganilayotgan muammoni ilmiy jihatdan ochib berish pedagoglarni kasbiy stressga bardoshlilikini hamda sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha dasturlar yaratishda, pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida qo'llash mumkin bo'lishining nazariy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek pedagoglarda kasbiy stress reprezentatsiyasining ish stajiga bog'liq jihatlari bayon etilish bilan bir qatorda uning ta'sir darajasini kamaytirishga qaratilgan psixoterapevtik usullarning metodologik tamoyillari ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: stress, kasbiy stress, kompetensiya, refleksivlik, retrospektivlik, muloqot, faoliyat

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА И РЕФЛЕКСИВНОСТИ У ПЕДАГОГОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Каршиева Дилафруз Суюновна,
и.о., профессор кафедры «Практическая психология» Ташкентского
государственного педагогического университета, доктор психологических
наук (Dsc)*

Аннотация: В данной статье раскрываются научно-теоретические основы характеристики профессионального стресса и психологических особенностей рефлексивности в педагогической деятельности, а также значение ее скрытых факторов. В мире возрастает стремление готовить высококвалифицированных, конкурентоспособных, независимо мыслящих профессионалов. На данный момент разработка и совершенствование психологических механизмов формирования профессиональной компетентности педагогов является одной из актуальных проблем современности. В настоящее время одной из актуальных

проблем остаётся разработка и совершенствование психологических механизмов формирования профессиональной компетентности педагогов. В связи с этим в процессе реформ, проводимых специфичным образом во всём мире, одними из актуальных проблем остаются требования к деятельности медицинских работников, вопросы психологического совершенствования их профессионального, личностного и интеллектуального потенциала.

В проводимых в мире научных исследованиях уделяется особое внимание исследованиям по изучению психологических основ профессиональной компетентности педагогов, формированию и развитию механизмов профессиональной компетентности, систематизации их психологических критериев, исследованию показателей социально-психологической компетентности, исследованию и развитию модели показателей социально-психологической компетентности и разработке комплекса психодиагностических методик, состоящих из специальных смоделированных заданий, направленных на создание и совершенствование модели развития. В связи с этим наблюдается необходимость уделения внимания исследовательским работам, направленным на повышение уровня психологической подготовки педагогов; выявление социально-психологических факторов и механизмов, формирующих их социально-психологическую компетентность; повышение роли профессиональной подготовки педагогов и выявление влияния на эффективность их деятельности. Научная значимость исследования выражается в разработке модели исследования факторов социально-психологической компетентности педагогов, научном раскрытии изучаемой проблемы и разработке государственных образовательных стандартов высшего образования при подготовке кадров по образовательным направлениям бакалавриата и магистратуры, создании теоретической основы, которую можно применить в процессе создания программ по развитию социально-психологической компетентности педагогов. В дополнение к описанию связанных с работой аспектов репрезентации профессионального стресса у педагогов, также представлены методологические принципы психотерапевтических методов, направленных на снижение его воздействия.

Ключевые слова: Стресс, профессиональный стресс, социальная компетенция, рефлексия, ретроспектив, коммуникация, активность

THE RELATIONSHIP OF PROFESSIONAL STRESS AND REFLEXIVITY AMONG TEACHERS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Karshieva Dilafruz Suyunovna – associate professor of the Department of «Applied Psychology» of Tashkent State Pedagogical University, (Dsc) in psychology

Abstract: This scientific thesis analyzes scientific and theoretical foundations of the Characteristics of professional stress, psychological characteristics and reflexivity in pedagogical activity, as well as the significance of its hidden factors

This article highlights the scientific and theoretical foundations of the social perception of pedagogics. as well as the role and importance of the factors influencing it. There is an increasing need in the world for the training of qualified, competitive, independent-minded specialists. Currently, one of the urgent problems is the development and improvement of psychological mechanisms for the formation of professional competence of medical personnel

In the scientific research conducted in the world, special attention is paid to research on the study of the psychological foundations of the professional competence of pedagogics, the formation and development of mechanisms of professional competence,

the systematization of their psychological criteria, the study of indicators of socio-psychological competence, the study and development of a model of indicators socio-psychological competence, research and development of a model of indicators of socio-psychological competence and the development of a set of psychodiagnostic methods, consisting of special simulated tasks aimed at creating and improving a development model. In this regard, there is a need to pay attention to research aimed at improving the level of psychological training of pedagogics; identification of socio-psychological factors and mechanisms that form their socio-psychological competence; increasing the role of professional training of pedagogics and identifying the impact on the effectiveness of their activities. The scientific significance of the study is expressed in the development of a model for studying the factors of socio-psychological competence of pedagogics, the scientific disclosure of the problem under study and the development state educational standards of higher education in the training of personnel in the educational areas of workers. Also, from the scientific considerations presented in the article, the possibility of using an effective training program prepared for the development of socio-psychological competence that affects the effectiveness of the professional activities of pedagogics, and the possibility of using it in the process of preparing practical classes, is explained bachelor's and master's programs, the creation of a theoretical framework that can be applied in the process of creating programs for the development of social and psychological competence of pedagogics, advanced training and retraining of pedagogics. Also, from the scientific considerations presented in the article, the possibility of using an effective training program prepared for the development of socio-psychological competence that affects the effectiveness of medical professional activity is explained.

In addition to describing the work-related aspects of occupational stress representation in educators, methodological principles of psychotherapeutic methods aimed at reducing its impact are also presented.

Key words: professional stress, pedagogue, stressor, psychocorrection, pedagogical team.

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda fuqarolik jamiyatining jadal shakllanishi va maqsadli rivojlanishi, mamlakat hayotida turli sohalar faoliyatining sifat jihatidan yangi darajasiga erishishida zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash masalalarining zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish» muhim vazifalar sifatida belgilanishi, pedagogning kasbiy kompetentli bo'lishi bilan birga voqealarni ob'ektiv baholash asosida pozitiv fikrlay olishni ilmiy tadqiq etish imkoniyatlari yaratilganligini ko'rsatadi. Natijada pedagoglarda kasbiy stress namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni oldini olish, ta'lim sifatini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida» Farmonlar, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlar to'g'risida» Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan keng ko'lamli

strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda kumak beradi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, pedagoglardagi stress va uning psixologik jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy stress – kasbiy faoliyat bilan bog‘liq emotsional-salbiy va ekstremal omillarning uzoq vaqt davomida intensiv ravishda ta’sir etishi natijasida hodimda kelib chiqadigan zo‘riqish holatidir. Kasbiy stress ish samaradorligining pasayishi, ichki diskomfortning ortishi, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq ijtimoiy motivlarning so‘nishi, o‘zidan va faoliyatidan qoniqmaslik, psixosomatik kasalliklar va depressiv holatlarida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda pedagoglarning faoliyati psixogen, intellektual, emotsional zo‘riqishlar bilan to‘ladir. Chunki, kunlik hisobotlar, murabbiylik faoliyati bilan bog‘liq masalalar, pedagoglar jamoasidagi rahbar-xodim munosabatlari bilan bog‘liq muammolar pedagoglarning pedagogik ijod bilan shug‘ullanishi uchun vaqtni qoldirmayotganligi ularda ham psixik, ham jismoniy charchoq va zo‘riqishlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lyapti.

Pedagogik faoliyatda namoyon bo‘ladigan kasbiy stress omillarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: mehnat faoliyati bilan bog‘liq omillar: ish yuklamasining haddan ziyod ko‘pligi, yomon ish sharoiti, vaqtni yetishmasligi; pedagogik jamoadagi pedagogning roli bilan bog‘liq stress omillar: kasbiy majburiyatlarini to‘la bilmaslik, jamoada tan olinmaslik, hamma uning majburiyatni bo‘yniga olish, ish yuklamasining adolatsiz taqsimlanishi natijasida kelib chiqadigan noaniqlik, jamoa oldidagi javobgarlikning o‘ta pastligi, jamoa hayotida kam ishtirok etish; pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq omillar hamda pedagoglardagi kasbiy stressning namoyon bo‘lishida shaxs refleksiv jihatlarining ijtimoiy-persepsiv xususiyatlarda differensial namoyon bo‘lishiga ko‘ra, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir.

Metod. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar bugungi kunda kasbiy stressga ta’sir etuvchi asosiy mezonlardan biri pedagogning kasbiy stressning refleksivlik, muloqotdagi kommunikativlik bilan bog‘liqlik jihatlari ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqot ishimizda shaxs nuqtai nazaridan yondashish tamoyilining qoidalari va tashqi xulq-atvorda muayyan tarzda ifodalanishidagi psixologik tafovutlar odam individual-psixologik sifatlari, xususan, sub’ektiv lokal nazorat, empatiya, emotsional intellekt hamda shaxs xususiyatlari bilan bog‘liq xususiyatlar tomonidan bog‘lanishi nuqtai nazaridan o‘rganish orqali ro‘yobga chiqarilishi ko‘zda tutiladi. Bunda pedagogning individual-psixologik xususiyatlari emotsiogen, psixologik omillarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi faktor ekanligini taxmin qilish va ularning o‘rtasidagi oraliq omillar sifatidagi o‘rni nimada ekanini aniqlashga intilish aniq maqsad etib belgilanadi.

Tadqiqot ishimizning metodologik asoslaridan biri bo‘lgan Yu.Kulning nazariyasiga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish negizida harakatlarni nazorat qiluvchi subtizimlar o‘rtasida mutlaqo boshqa aloqalar yotadi. «O‘zini o‘zi boshqarish» tizimining ishi demokratik tamoyil asosida amalga oshadi, samarali boshqaruv tizimining barcha tarkibiy qismlari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq va doimo shaxs «Men»ining nazorat qiluvchi ta’siriga ehtiyoj sezadi. Yu. Kul tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida maqsadga erishishni ta’minlaydigan bir qancha mexanizmlar aniqlandi. Bu mexanizmlar ko‘pincha anglanmagan darajada amalga oshishi, strategiya shaklida qo‘llanilishi mumkinligi korsatib beriladi.

Shularni hisobga olgan holda, biz pedagoglarda kasbiy stressning namoyon bo‘lishini aniqlashni o‘z oldimizga maqsad qilib belgilab oldik va empirik tadqiqotimizni olib borish uchun V.V.Ponamapyova va A.V. Kappovning «pefleksivlik darajasini aniqlash» metodikasini o‘tkazilib, olingan ma’lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi va quyidagi 1-jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

Umumta'lim maktablari pedagoglarida kasbiy stress va reflektivlik orasidagi aloqadorlik

Shkalalar	Ish staji	Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi	Real faoliyat refleksiyasi	Faoliyatni rejalashtirish	Muloqotdagi refleksiya va boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir
Kasbiy stressning namoyon bo'lishi	10 yilgacha	0,10**	-0,34	-0,90*	-0,44
	15 yilgacha	-0,48	-0,45*	0,05	-0,69*
	15 yildan yuqori	0,18	-0,41	-0,69	-0,27**

Izoh: * $p \leq 0.05$; ** $p \leq 0.01$

Conclusion. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 10 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan umumta'lim maktabi pedagoglarida kasbiy stress faoliyatning retrospektiv refleksiyasi ($r=0,10$; $s \leq 0,01$) bilan ahamiyatli musbat bog'liqlik qayd etilgan bo'lsa, faoliyatni rejalashtirish ($r=-0,90$; $p \leq 0,05$) bilan manfiy korrelyatsion aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan shuni anglash mumkinki, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan zo'riqish holatlari o'tmish xotiralariga bog'lanib qolish, sodir bo'lgan voqea-hodisalarda ko'proq o'zini aybdor sifatida talqin qilishga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, bunday salbiy hissiyotlar kelgusi faoliyatni yo'lga qo'yish, maqsadga erishish usullarini amalda qo'llash kabi xususiyatlarning esa susayishiga sabab bo'ladi.

15 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan pedagoglarda kasbiy stress real faoliyat refleksiyasi ($r=-0,45$; $p \leq 0,05$), muloqotdagi refleksiya va boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir ($r=-0,69$; $p \leq 0,05$) bilan salbiy aloqadorlikni tashkil etishi kuzatildi. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, mehnat jarayonida paydo bo'ladigan kasbiy stresslar pedagoglarda qanchalik yuqori bo'lsa, «Shu yerda va hozir» tamoyilida yashash, ayni paytda sodir bo'ladigan voqealikka diqqatni qaratish, muloqot jarayonida o'zga shaxslar bilan munosabatlarni tahlil qilish, boshqa insonlarning emosional holatini tushunish kabi muhim sifatning rivojlanish ehtimoli shunshalik kamayib boradi.

15 yildan yuqori ish stajiga ega bo'lgan pedagoglarda kasbiy stress muloqotdagi refleksiya va boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir ($r=-0,27$; $p \leq 0,01$) bilan manfiy korrelyatsion bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijalardan shuni qayd etish joizki, pedagoglarda uzoq muddat davomida maktabda faoliyat yuritish natijasida kasbiy stressning ortishi nizoli vaziyatlar kelib chiqqanda, o'zga shaxslarni aybdor sifatida ko'rish, atrofdagi insonlarning istaklarini to'g'ri idrok qilolmaslik, turli kelishmovshiliklarga sababchi bo'lish, muloqotni to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslik kabi holatlarning ham ortib borishiga olib keladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarini tahlil qilganda, pedagoglarda kasbiy stresslarning namoyon bo'lishi reflektivlik darajalari bilan bevosita bog'liqlikni tashkil etadi. Xususan, bunda faoliyatning retrospektiv refleksiyasi, real faoliyat refleksiyasi, faoliyatni rejalashtirish, muloqotdagi refleksiya va boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir darajalari alohida ahamiyatga egadir.

“Men”ning konstruktiv holatini saqlashga intilish, o'z emotsiyalarini reflektiv tarzda namoyon qilishni, sog'lom turmush tarzi kechirish uchun kun tartibiga rioya qilish masalasiga adekvat munosabatni shakllanishiga yordam beradi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги



№ 472-сонли “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори / <http://lex.uz>.

Черепанова Е. М. Психологический стресс. М.: «Академия», 1997.

Турсунов С.Т., Даниёров Б.Х. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнлари тизимли ёндашув // Халқ таълими. - 2011. - № 5.

Spielberger C.D. Theory and research on anxiety. [In: C.D.Spielberger (Ed.), *Anxiety and Behavior*. New York: Academic Press, 2001].

Wells J.A. The role of social support groups in stress coping in organizational settings // *Handbook of Organizational Stress. Coping strategies*. Cambridge, MA: Ballinger, 1994.

Щербатых Ю.В. Психология стресса и методы коррекции. – СПб.: Питер. 2006.

Юров Ю.В. Психологические основы адаптации и реабилитации. Воронеж: ВГПУ. 2007

TALABALARDA EKONOMETRIKA FANINI O'QITISHDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna
"Biznes va innovatsion menejment" kafedrasida assistenti
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
<https://orcid.org/0000-0001-5987-0172>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadqiqotchi tomonidan talabalarga ekonometrika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati, dolzarbligi, zaruriyati va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar hamda metodlar to'g'risida tushunchalar mavjud. Ushbu maqola orqali oliy ta'limda muassasalarida ekonometrika fani mashg'ulotlarini laboratoriya mashg'uloti sifatida o'tishning afzallik tomonlari haqida mulohazalar mavjud. Ekonometrika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning bilim darajasini oshirishiga, iqtisodiy tahlil qilishiga va prognozlash imkoniyatiga ega bo'lishlari haqida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: ekonometrika, pedagogik texnologiyalar, metodlar, metodika, texnologiya, zamonaviy texnologiyalar, axborot texnologiyalari, ta'lim, korrelyatsiya, regressiya.

ЗНАЧЕНИЕ ЛАБОРАТОРНОЙ ПОДГОТОВКИ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМЕТРИКЕ

Равшанова Мухайё Махманазаровна
Каршинский инженерно-экономический институт
Ассистент кафедры "Бизнес и инновационный менеджмент"

Аннотация. В данной статье содержится понимание исследователем важности, актуальности и необходимости проведения лабораторных занятий при обучении студентов эконометрике, а также педагогических технологий и методов обучения лабораторным занятиям. В этой статье высказываются соображения о преимуществах проведения занятий по эконометрике в качестве лабораторных занятий в высших учебных заведениях. Общеизвестно, что лабораторные занятия по эконометрике могут улучшить знания студентов, экономический анализ и прогнозирование.

Ключевые слова: эконометрика, педагогические технологии, методы, методология, технология, современные технологии, информационные технологии, образование, корреляция, регрессия.

THE VALUE OF LABORATORY TRAINING IN TEACHING ECONOMETRICS TO STUDENTS

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna
Karshi engineering-economics institute
Assistant of the Department "Business and innovative management"

Annotation. This article contains the researcher's understanding of the importance, relevance and necessity of conducting laboratory classes in teaching econometrics to students, as well as pedagogical technologies and methods of teaching laboratory classes. This article discusses the benefits of teaching econometrics as a lab in higher education. It is generally recognized that econometrics labs can improve students' knowledge, economic analysis, and forecasting.

Keywords: econometrics, pedagogic technologies, metody, methodology, technology, modern technologies, information technologies, education, correlation, regression.

Kirish. Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli

mutaxassislarni tayyorlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrda farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy o'quv yurtining, ayniqsa, iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtining talabalari esa iqtisodiy fikrlashnigina emas, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijaga olib kelishi mumkinligini his qila bilishi, ko'z o'ngiga keltira bilishni o'rganishi zarur. Buning uchun esa iqtisodiy fanlarni chuqur bilish talab qilinadi. Murakkab xo'jalik dunyosini aks ettiruvchi bu fanlarni o'rganish uchun to'g'ri metod tanlash muhim ahamiyatga ega. Aynan shu fanlardan biri sifatida ekonometrika fanini misol qilib olishimiz mumkin. Dars o'tishda to'g'ri metod tanlanmasa, nazariy jihatdan o'qituvchining bilimi yuqori bo'lishidan qat'iy nazar, kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchining bilimi pedagogik mahorat bilan qo'shilgandagina o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Buning uchun o'quv jarayonini tashkil etishning turli metodlari va ularni qo'llashni bilish kerak. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi (uslubiyati) aynan ana shu maqsadga qaratilgan. U iqtisodiy fanlarni o'rganish metodlari va uni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rgatadi. Shu sababdan ekonometrika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarini turli metodlardan foydalangan holda o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda axborot rivojlanishining hozirgi bosqichida zamonaviy mutaxassisning kompetensiyasi bevosita uning axborot jamiyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi darajasiga bog'liq. Yuqorida aytilganlar zamonaviy pedagoglarni yuqori malakali tayyorlashning dolzarbligini belgilaydi. Eng samarali, mos keladigan «pedagogik texnologiyalarni, pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan o'qituvchi harakatlarining ketma-ket o'zaro bog'liq tizimlari sifatida yoki oldindan ishlab chiqilgan pedagogik jarayon amaliyotida rejali va izchil amalga oshirish sifatida» tanlash kerak. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda nafaqat idrok, xotira, diqqat jarayonlariga, balki yuqoridagi jarayonlarga tayanadigan faoliyat yoki faol ta'lim texnologiyalari (FTT) orqali o'qitishning faol shakllari va usullari alohida o'rin tutadi. Ta'limni kuchaytirishning strategik yo'nalishi bu uzatilayotgan axborot hajmini ko'paytirish emas, balki nazorat faoliyati sonining ko'payishi va ko'payishi emas, balki o'qitishning mazmunli bo'lishi uchun didaktik va psixologik sharoitlarni yaratish, unga talabani qo'shishdir.

Tahlil va natijalar. Modellashtirish o'rganilayotgan ob'ektni yaxlit o'rganishga imkon beradi, chunki tadqiqotchi tomonidan mavjud yoki ishlab chiqilgan tizimlar va jarayonlarning analogini namoyish etish va ko'paytirish mumkin bo'ladi, nafaqat tuzilishini, elementlarini, xususiyatlarini, balki elementlar o'rtasidagi munosabatlar va munosabatlarni ham ochib beradi. Kompyuter imitatsion modeli o'quvchilar e'tiborini ba'zi bir muhim o'rganilgan tushuncha, toifaga, ob'ektga yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladi, ijodiy muhitda ma'lum ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash imkoniyatini beradi. Turli mavzulardagi modellardan foydalanish fanlarni fanlararo integratsiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Fanlararo aloqalarni hisobga olish muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur shartdir. Talabalarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirish ushbu bog'lanish qanday amalga oshirilishiga bog'liq. Ta'lim jarayonini sub'ektlararo aloqalar asosida tashkil etish talabalarni bilimlarni faol egallash, ulardan ijodiy foydalanish, kognitiv faoliyat va mustaqillikni rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni o'z ichiga olgan mavzu-amaliy faoliyatga jalb etishga yordam beradi.

Ekonometrik fani uchta fanning jamlanmasidan paydo bo'lgandir. Ular matematika, iqtisodiyot nazariyasi va statistika fanlaridir. Bu har bir fanning asosida ekonometrik

bilimlar yuzaga keladi. R. Frish “Ekonometrika-bu o’sha iqtisodiy statistika emas. Ko’p qismi miqdoriy xususiyatga ega bo’lgan iqtisodiy nazariyaning ham o’zi emas. Ekonometrika matematikani iqtisodga qo’llash ham emas. Tajriba shuni ko’rsatadiki har uchchala statistika, iqtisodiyot nazariyasi va matematika fanlarining komponentalari zamonaviy iqtisodiy xayotni miqdoriy tomonlarini anglash uchun zaruriy, lekin etarli bo’lmagan shartlaridir. Bu-uchta fanning birligidir. Bu birlik ekonometrikani tashkil etadi” degan nazariyani ilgari so’rgan.

“Ekonometrika” fanning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari kabi murakkab iqtisodiy tizimlarning modellashtirish asoslarini, aniq iqtisodiy ob’yektlar misolida modellashtirishning qo’yilishi, ularning iqtisodiy mazmuni, masalalarni kompyuter dasturlarida yechish va olingan natijalarni iqtisodiy talqin qilish kabi bosqichlarni o’rgatishdan iboratdir. Ekonometrik usullar oddiy an’anaviy usullari inkor etmasdan, balki ularni yanada rivojlantirishga va ob’yektlar o’zgaruvchan natija ko’rsatkichlarini boshqa ko’rsatkichlar orqali muayyan tahlil qilishga yordam beradi. Jamiyatdagi va iqtisodiyotdagi ob’yektlarni matematik modellar yordamida kuzatish mumkin. Bu tushuncha modellashtirish deyiladi. Ekonometrik modellarni tuzish bir qancha bosqichlardan tashkil topadi.

XXI asrga kelib fan texnika rivojlanishi natijasida bu fanlarga qo’shimcha sifatida hisoblash texnikalari ya’ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni qo’shish mumkin. Bunda dars jarayonida guruhlar ikkiga bo’lingan holatda laboratoriya darslari zamonaviy texnologiyalari asosida yangi pedagogik texnologiyalardan va zamonaviy metodlardan foydalanib o’tiladi. Talabalarga vazifalar taqdim etiladi va ular berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda Excel va Eweivs dasturlarida bajarishlari talab etiladi. Ularning maqsadi chiqqan natijalarni korrelyatsiya va regressiya koeffitsientlari asosida tahlil etishlari talab etiladi. Chiqqan natijalarni tahlil etadilar va mezonlar asosida baholaydilar. Bunda ular tahlil etibgina qolmay balki prognozlash imkonitiga kam ega bo’ladilar. Talabalardan berilgan topshiriqlarni tezkorlik bilan mustaqil bararishlari talab etiladi.

Laboratoriya mashg’ulotlarini o’qitishda talabalarning bilimini oshirish, bilim va ko’nikmalarini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va metodlar talab etiladi. Darsni yangi pedagogik texnologiyalar:

- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko’rgazmali qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo’llash orqali;

Axborot texnologiyalarning imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o’quv jarayonlarida foydalanish o’zining samarasini beradi. Kompyuter modellarini o’quv jarayonlarida qo’llash tamoyillari quyidagilar:

- kompyuter dasturi tajribani o’tkazish mumkin bo’lmagan yoki tajriba kuzatib bo’lmas darajada harakatlangan paytda qo’llanilishi lozim;
- ish natijasida o’quvchilar model yordamida hodisalarni xarakterlovchi kattaliklarning ham sifatii, ham miqdoriy bog’lanishlarini bilishlari kerak;
- dastur bilan ishlash paytida tinglovchilarning vazifasi turli qiyinlikdagi topshiriqlar ustida ishlashdan iborat, chunki bu o’z ustida mustaqil ishlashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari institutning “Axborot texnologiyalari markazi” dagi maxsus jihozlangan kompyuter sinflarida o’tkaziladi. Bu yerda zamonaviy kompyuterlari, printerlar, kompyuter proektorlari mavjud bo’lib, ular yordamida talabalar laboratoriya ishlarini bajaradilar. Fan mavzulari bo’yicha laboratoriya ishlarini bajarishda maxsus Excel, Eweivs, SPSS, Mathlab, Statistica kabi dasturiy vositalaradan foydalanishni o’rganish bilan birga ushbu dasturlar orqali iqtisodiy jarayonlarni tahlil etish, xulosalar chiqarish va to’g’ri qarorlar qabul qilish bilan istiqbolini ko’rish imkoniga ega bo’ladilar. Chunki, ushbu uslubiy qo’llanma milliy iqtisodiyotning hozirgi tizimiga asoslangan va bu tizimga taalluqli bo’lgan modellar uni to’liq ifodalaydi, degan tushunchadan kelib chiqib amalga oshirilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi paytda iqtisodiy fan va amaliyot murakkab iqtisodiy, xo’jalik va nazariy masalalarni hal qilishda amaliy matematika yutuqlaridan keng foydalanmoqda. Bu esa o’z navbatida qarorlar qabul qilish tizimi iqtisodiy tizimning ayrim bo’g’inlaridagi ishlab chiqarish resurslari bilan mahsulot ishlab chiqarish, uni saqlash va iste’mol

qilishning eng maqbul variantlarini topish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari laboratoriya ishlarida talabalardan ma'ruza va amaliy darslarda o'rgangan ekonometrik modellar orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish, chiziqli va chiziqsiz ekonometrik modellarni tuzish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bo'yicha vaqtli qatorlarning trend modellarini tuzish, iqtisodiy hodisalar hamda jarayonlar o'rtasida bog'lanishlarning ko'p omilli miqdoriy echimlarini korrelyasiya koeffitsientlari orqali aniqlash, iqtisodiy rivojlanishning juft va ko'p omilli ekonometrik (regression) modellarini tuzish, firmalar va korxonalarining taqchil resurslardan samarali foydalanishda ishlab chiqarish funksiyalarini qo'llash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni bashoratlash bo'yicha amaliy ko'nikma va malaka hosil qilish nazarda tutiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Laboratoriya mashg'ulotlari yaratilgan ekonometrik modellar asosida asosida bajariladi. Muammoning qo'yilishi, ma'lumotlar yig'ish, ularni sifatini tahlil qilish va model xususiyatini aniqlash yordamida ekonometrik modellar quriladi va zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida laboratoriya mashg'ulotlari bajariladi. Ekonometrika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarining amaliy mashg'ulotlardan afzallik tomoni shundaki bunda guruhlarining bo'linganligi sababli talabalar bilan individual ishlash, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida talabalarga tushuncha va ko'nikmalarni singdirish va bajarilgan topshiriqlarni qabul qilib olishda yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassalari talabalari laboratoriya darslari davomida ekonometrika fanini o'zlashtirish darajasi baholash mezonlari orqali baholanadi. Bunda mustaqil ravishda bajargan va o'zlashtirgan talabalarga a'lo baxolar bilan baxolanadilar. Bunda ular yangi iqtisodiy statistik ma'lumotlar asosida ma'lumotlarni tahlil qilish va prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Ishnazarov, Sh.Nurillayeva, M.Muminova, N.Ro'zmetova "Ekonometrika asoslari" o'quv qo'llanma. T-2019, 15-b
2. G. Mardonova, O. O'rinova, D.Kamolova "Elektr va magnetizm bo'limaga doir laboratoriya darslarini electron dasturlardan foydalanib o'qitish metodikasi" Science and innovation.
3. D.Tojiboyeva "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. Fan tex. T-2007 y.
4. The Role of Intermediate Experiments and Forming Experiments in Pedagogical Work in Teaching the Science of Econometrics. RM Maxmanazarovna. Eurasian Journal of History, Geography and Economics 8, 31-33
5. Rakhimov A.N., Khoshimkhanovich L. M. Theoretical basis of increasing the efficiency of management of industrial enterprises //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 06. – C. 100-105.
6. B.I.Ashurov "EKONOMETRIKA ASOSLARI FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI BAJARISH BO'YICHA" O'QUV -USLUBIY QO'LLANMA. SAMARQAND 2021 5-b.
7. X.S.Muxitdinov, O.Q. Xatamov, A.N.Raximov EKONOMETRIKA ASOSLARI QARSHI «INTELLEKT» NASHRIYOTI 2021
8. Suyumov J. Y. KOMPYUTER IMITATSION MODELLARI ASOSIDA FAOL OQITISH TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 459-466.

ШАХСДА КАСБИЙ АНГЛАШНИ ШАКЛЛАНИШИ

Раджабова Зухра Мирзотиллоевна

Чирчиқ давлат педагогика университети, ўқитувчи

Annotasiya. Касбий ўзини ўзи аниқлаш кўп босқичли жараён бўлиб, унга турли хил нуқтаи назардан ёндашиш мумкин. Касбий ўзини ўзи аниқлаш қарор қабул қилиш жараёни сифатида намоён бўлади. Бунда шахс ўз мойил ва хоҳишларини мавжуд ижтимоий тузум эҳтиёжлари асосида шакллантиради ҳамда оптималлаштиради

Калит сўзлар: Шахс, концепция, профессионал, нерв тизими, қобилият, қадрият, тарбия, мойиллик

Шахс касбий шаклланишининг сермахсуллиги ва англай олишини муҳим омили унинг касбий меҳнатда маъно топишидир, ўз касбий ҳаётини лойihalаштириш, масъулият билан касб мутахассислик ва иш-жойини танлаш борасида қарор қабул қилишдир. Албатта, бу муҳим касбий муаммолар шахс олдида бутун ҳаёти давомида пайдо бўлаверади. Шахс ролини касбий меҳнатга жамоага ва ўзига булган муносабатини англай олиши инсон ҳаётининг муҳим компонентлари бўлиб қолади. Гоҳида киши касбдан узоклашиб, ундан оғирлик сеза бошлайди унда ўз касбий ҳолатидан қоникмаслик хисси пайдо бўлади. Шунингдек, инсонларда мажбурий ҳолатда касб (мутахассислик)ни ва иш жойини алмаштириш ҳоллари гоҳида учраб туради. Таъкидлаш мумкинки, шахс олдида доимо ундан касбга булган муносабатни аниқлаш, гоҳида ўз касбий ютуқларини таҳлил этиш, касб танлови ёки уни алмаштириш қарорини қабул қилиш, карьерани аниқлаш ва коррекциялаш бошқа касбга хос булган масалаларни ҳал этишни талаб этади. Касбшуносликда барча бу муаммолар комплекси касбий аниқланиш деб тушунилади. Табиийки, бундай мураккаб психологик ҳодиса психология фанида ягона туғри таърифга эга булиши мумкин эмас. Шахсда касбий шаклланиш концепциясини тадқиқотчи психологлар томонидан турлича тушунтириб берилган.

А. Маслоу концепцияси бўйича, инсон такомиллашиб боришига, ўзини намоён этишига булган интилиши акс этади. Унинг концепциясида “Аниқланиш” тушунчаси “Ўзини намоён этиш” тушунчаси яқин атама сифатида эътироф этилади.

Е.А.Климов касбий англашни батафсил таҳлил этиб, уни “психик ривожланишининг, нимадир фойдали ишни қилувчилар” профессионаллар ҳамжамиятининг тулақонли иштирокчиси сифатида ўзини шакллантиришининг муҳим кўринишидир. Касбий англаш бўйича Е.А.Климовнинг фикри қадри ҳисобланади. Унинг фикрича, осон ва қисқа муддатли ҳисобланган касб танлови аслида “лаҳза қушув бутун келгуси ҳаёт” формуласи асосида амалга оширилади.

Шахсда ривожланиш йулларидан аввал турли меҳнат соҳаларига маълум муносабат, кўп касблар ҳақида тасаввур ва ўз имкониятларини баҳолаш, ижтимоий-иктисодий вазиятда туғри йўл тутиши касб танловининг “захира вариантлари” ва навбатдаги касбий англаш ички тайёргарликка хос бўлган бошқа кўп нарсалар ҳақида тасаввур шаклланган бўлади.

Е.А.Климовнинг фикрини мантикий жихатдан умумлаштириб қўйидагича таъкидлаш мумкин. Касбий англаш касбий танловининг бир лаҳзали акти бўлиб қолмайди ва танланган мутахассислик бўйича касбий тайёргарлик якуни билан тугатилмайди, балки у бутун касбий аёти мобайнида давом этади.

Психологик педагогик адабиётларда касбий ўзини ўзи белгилаш жараёнига таъсир этадиган омилларнинг 4 гуруҳи ажратилади. Биринчидан, ижтимоий-иктисодий бўлиб у таракқиётнинг турли бос- қичларида жамият ҳаётига кириб

келаётган ёшларга ўзларидаги мавжуд куч ва имкониятларини сарфлашга турли соҳаларни таклиф этади. Биринчи навбатда бу касфблар спектри уларнинг ўзгариши ва ривожланиш истикболлари жамиятнинг у ёки бу мутахассисларга эҳтиёжга дахлдордир.

Ижтимоий-психологик омиллар иккинчи гуруҳни ташкил этади. Аввало инсон мактаб таълимигача ва кейин ўсиб тарбия олган муҳит, оила, дўстлар давраси, мактаб жамоаси ва шу кабилар.

Ижтимоий муҳит таъсирида шахснинг қадриятли йўналганлиги касбларнинг турли гуруҳдариға муносабати ўзига хос ижтимоий кутишлар установа ва стеротиплар шаклланади.

Учинчи гуруҳ асл психологик омиллардан иборат бўлиб, бу шахсий қизиқиш ва мойилликлар умумий ва специфик қобилиятлар аклий ва шахсий ривожланиш даражаси хотира хусусиятлари, диққат моторикасининг ўзига хослиги ва шу кабилар.

Нихоят тўртинчи гуруҳ индивидуал психофизиологик хусусиятларни ўз ичига олиб, улардан кўп ўрганилгани нерв тизимининг асосий хоссаларини фаолият турларига муносабатини таъсири масаласидир. Улар психик жараёнлар кечишининг динамик тавсифномаларини белгилайди турли темпераментлар кўринишида ифодаланади ва маълум фаолият турини бажаришга кўмаклашиши, ё аксинча уни қийинлаштириши мумкин.

Адекват касб танлашни қийинлаштирувчи сабаблардан яна бири ўқувчиларда психологик билимлар маданиятининг пастлиги ўз қобилиятлари индивидуал психологик хусусиятлари мойилликлари ҳақида маълумот етарли эмаслигидир.

Касбий ўзини ўзи англашдаги қийинчиликлар касбий яроклилик нима экани унинг қандай шаклланишини билмаслик билан ҳам боғлиқ. Исталган меҳнатта маълум мўлжалланганликни борлиги ҳақидаги нотўғри фикр кенг тарқалган.

Ўзини билиб олмаслик касбий ўзини ўзи белгилашда асосий қийинчиликларни келтириб чиқаради. Айрим ўқувчилар ифодаланган қизиқиш қобилият ва мойилликка эга эмаслигига ишонса бошқалари нақадар кўп қизиқиш ва қобилиятга эгаки танлайдиган касблар доирасини чеклашга қийналади. Учинчилари маълум касбий мақсадларга эга бироқ зарур касбий ифодаланган сифатларга эга эмас. Ўқувчиларнинг аксарият кўпчилиги ҳатто ота-оналар ҳам кўпинча касб танлашда меҳнат фаолиятга асосий эътибор бермасдан балки таълим муассасасини ёки ўқув фаолиятини ҳисобга олиб танлашни мўлжаллайдилар. Бу танлов у ёки бу фанга қизиқишга асосланади. Аслида эса ўқув ва меҳнат фаолияти орасида тегишли фан доирасида катта тафовут мавжуд.

Касбий ўзини ўзи англаш жараёнидан олдин катта ўсмир ва ўспиринлик даври касбни бирламчи танлаш кичик мактаб ёшида амалга ошади, унинг учун касблар ҳақида кам дифференциаллашган тасаввурлар хос. Бу босқичда камдан кам ўқувчи у ёки бу касбни эгаллай олиш имкониятлари ҳақида ўйлайди, касблар ҳақида эса ташқи атрибутлар кийим бош ўзини тутиш ва шу кабиларга қараб фикр юритади. Бу ёшдаги болалар шахси психик хоссалари ривожланишида экани сабабли уларда кўпинча барқарор қизиқиш ва мойилликлар бўлмайди. Айнан шу даврда (6-7) ўқувчиларни касблар дунёси билан таништириш турли фаолият турларида ўзини синашга имконият бериш лозим, кўпинча шу ёш даврида юзага келган қизиқишлар келгуси касбий танлов учун асос бўлади.

Касбга йўналтириш ишининг марказий бугини ўқувчининг меҳнат фаолияти турларига қизиқиш ва мойилликларини аниқлаш саналади. Ифодаланган қизиқиш ва мойиллиги бўлган ўқувчилар бўлгуси касбини танлашда деярли қийналмайди. Улар учун ўз танлови психолог томонидан тасдикланиши долзарб холос. Бироқ кўплаб ўқувчилар аниқ қизиқиш ва мойилликларга эга эмас, ёки уларни бўлгуси касбий фаолияти билан боғланмайди. Мойилликларнинг асосий кўрсаткичи ўқувчилар томонидан фаолиятнинг маълум тури ва мактаб

фанларидан ташқари мажбурлашсиз балки ички ундов ва эҳтиёжга кўра шуғулланишга интилишдир.

Юқоридаги фикрлардан кўринадикки, касбий ўзликни англаш жараёнида шахснинг ўзини ўзи англаш баҳолаш шахс хусусиятлари муҳим аспект сифатида кўрсатиб ўтилади.

LITERATURE

1. Раджабова З.М. Ўқитувчи ва ўспирин ҳамкорлигининг психологик омиллари
CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)

2. Асомова Р.З. Касб танлаш мотивацияси ва унинг динамикаси. Псих.ф.н дис.-Т., 2002. -137 б.

3. Жумаев У.С. Ўсмирларда касб танлашга муносабат тизими шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психол. ф.н..... дис.-Т.: 2004,- 185 б.

4. Раджабова З.М. Мамлакатимиз психологиясида ўспирин ва ўқитувчи муносабатлари масаласининг ўрганилиши. INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION JOURNAL 2023,-143 bet:

TALABALIK YOSHIDA POZITIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

*Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

Maqolada talabalik davrida samarali ta'lim olish, ulardagi ijobiy psixologiya va pozitiv kayfiyatni rivojlantirish munosabatlarini ijtimoiy-psixologik muammolari xususida so'z boradi. Talabalarda pozitiv tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari: kundalik hayoti, kelajakka pozitiv munosabat, insonlar kayfiyati, mustaqilligi, baxt tushunchasi, o'z-o'zini anglash, ta'limda treningni ijobiy kayfiyat uchun samaradorligi, ma'naviy-ruhiy kabi xolatlarga to'xtalib, ayrim psixologik muammolar taxlil qilinadi.

Kalit so'zlar: talabalar, pozitiv kayfiyat, adaptasiya, ijobiy psixologiya, qulay sharoit, ta'limda trening samaradorligi, baxtli bo'lish, qadriyatlar, "Men" konsepsiyasi, o'zaro moslik, psixologik muammolar.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЗИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В СТУДЕНЧЕСКОМ ВОЗРАСТЕ

*Саттарова Шахнозахан Кочкаровна
Преподаватель кафедры «Практическая психология» Ташкентского
государственного педагогического университета имени Низами*

В статье обсуждается о социально-психологических проблемах эффективного обучения в студенческий период, позитивной психологии и развитии у них позитивного настроения. Анализируются специфические характеристики позитивного мышления у студентов: повседневная жизнь, позитивное отношение к будущему, настроение людей, самостоятельность, представление о счастье, самосознание, эффективность обучения позитивному настроению в обучении, духовные ситуации и некоторые психологические проблемы.

Ключевые слова: студенты, позитивное настроение, адаптация, позитивная психология, благоприятные условия, эффективность обучения в воспитании, счастье, ценности, концепция «Я», совместимость и психологические проблемы.

FEATURES OF DEVELOPMENT OF POSITIVE THINKING IN STUDENT AGE

*Sattarova Shakhnozakhon Kochkarovna
Lecturer Department of «Practical psychology»
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

The article talks about socio-psychological problems of effective education during the student period, positive psychology and development of positive mood. Specific characteristics of positive thinking in students: everyday life, positive attitude to the future, people's mood, independence, concept of happiness, self-awareness, effectiveness of training for positive mood in education, spiritual situations and some psychological issues are analyzed.

Key words: students, positive mood, adaptation, positive psychology, favorable conditions, effectiveness of training in education, being happy, values, «I» concept, compatibility and psychological issues.

Kirish. Har bir yosh davri sifat jihatidan o'ziga xos psixik rivojlanish bosqichiga kiradi, bu turli o'zgarishlarning kombinatsiyasi, shaxsning o'ziga xosligi, xususan, pozitiv tafakkurning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu

hodisa har bir yosh bosqichida o'ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega. Masalan, ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, pozitiv tafakkur va umuman shaxsning barkamol rivojlanishiga sezilarli ta'sir ota-onaning farzand tarbiyalashdagi pozitiv fikrlashi yuqori darajaga ega. Bu o'zaro ta'sir tajribasiga asoslanib, inson, eng avvalo, o'ziga nisbatan ijobiy (o'z-o'ziga ishonch, o'z qadr-qimmatini, o'ziga va boshqalarga ishonch) yoki salbiy (ishonchsizlik, qo'rquv, foydasizlik hissi) munosabatni shakllantiradi va rivojlantiradi. Ulg'ayib borish davomida yuqorida ta'kidlangan jarayonga bola muloqotda bo'ladigan, o'zaro ta'sirga kirishadigan jamiyat ham qo'shiladi. Muloqot, o'zaro ta'sir doirasi kengayib borgani sari bu jarayon murakkablashadi, yangilari paydo bo'ladi va ularning o'zaro ta'siri dastlabki shakllanmalar prizmasi orqali amalga oshadi. Shu tariqa, pozitiv tafakkur birinchi ijtimoiy institut sifatida aynan oilada yuzaga keladi, uning bazaviy shakllanishida esa atrofdagi odamlar, avvalo, ota-onalari katta rol o'ynaydi.

Keyinchalik ulg'ayishi mobaynida umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'limi bosqichida o'quv faoliyati asosiy o'ringa chiqadi, u doim o'yin faoliyatini o'zgartiradi, biroq uni istisno qilmaydi. Yangi tuzilmalar inson psixik rivojlanishining intellektual, shaxsiy va ijtimoiy doiralarida paydo bo'ladi. Ushbu yosh bosqichida, inson o'z qobiliyatlari va imkoniyatlariga bo'lgan bilimlari va ishonchining quvonchini his qilishi muhimdir. Ushbu yoshda ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilim faoliyati, kommunikativ ko'nikmalarni, balki ijtimoiy o'zaro munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o'z imkoniyatlarini ishonchli baholash va ijtimoiy jihatdan quvnoq tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga, o'quvchining vakolatiga ega bo'lgan ota-onalar, ommaviy axborot vositalari va kattalar ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, muvaffaqiyatga erishishga turtki beradi. Inson o'z fikrlari, baholari va e'tiqodlarini oilada, ijtimoiy guruhda, ta'lim muassasasida aloqalar orqali oladi [1,306;2,256;3,576]. Shunday qilib, ushbu aloqalardan hosil bo'lgan ustanovkalar o'z tajribalari va atrofdagi jamiyat bilan o'zaro ta'sirining natijasidir.

Asosiy qism. O'rta ta'lim maktabida so'nggi yillardagi ta'lim (o'rta va yuqori sinflar) o'quvchining ijtimoiy faolligi doirasining sezilarli kengayishi, shu bilan birga, bu davr o'z Menining individuallashishi, ochilishi va tasdiqlanishi bilan xarakterlanadi. Bu yoshdagi yetakchi faoliyat, odatda, o'zaro hurmat, ishonch, empatiyaga asoslangan samimiy va shaxsiy muloqotdir. Ko'pgina hollarda, tengdoshlar guruhi o'smirlar ijtimoiylashtirish jarayonida yetakchi rol o'ynaydi va uning qarama-qarshi jinsdagi vakillari bilan munosabatlar, ijtimoiy, kasbiy hayotda amalga oshiriladigan kattalar munosabatlarining prototipini yaratadi. Guruhga mansublik o'sib kelayotgan shaxsning tegishli ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, do'stlari bilan umumiy qiziqish va sevimli mashg'ulotlarini bo'lishish imkoniyati katta ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik, kayfiyat ularning his-tuyg'ulari, fikrlari, g'oyalari haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradigan va turli to'siqlarni bartaraf etishda tengdoshlariga yordam beradigan bunday aloqani izlashga o'tadi. Bu yoshda o'z-o'zini hurmat qilish, insonning o'z qadr-qimmatini tan olish, emosional daxldorlik hissi, guruh bilan birlashish o'sib borayotgan ehtiyoj motivlari hisoblanadi. Shu bilan birga, o'smirlar guruhining odatiy xususiyatlaridan biri yuqori muvofiqlikdir. O'smirlar kattalardan mustaqil bo'lishni juda istaydi, lekin o'z guruhi va uning liderlari mulohazalariga tanqidiy munosabatda bo'lmaydi. Bu deviant xulq-atvor rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bu yosh davrida Men-obrazi, axloqiy o'zini anglash, refleksivlik, norasmiy, samimiy muloqotga bo'lgan ehtiyoj va kattalik hissi asosiy yangi tuzilmalar orasida o'zi haqidagi ichki muvofiq tasavvurlar tizimi sifatida Men-konsepsiyasining shakllanishi ajratiladi.

Odatda insonning oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish davriga to'g'ri keladigan o'spirinlik davrining psixik rivojlanishi turli tadqiqotchilar tomonidan o'z faoliyatining turli shakllaridagi madaniy va tarixiy tajribani o'zlashtirish sifatida qaralib, ular

asosida psixologik yangi tuzilmalar rivojlanadi. Bu yosh davri bolalikdan mustaqil va mas'uliyatli kattalik davriga o'tish bosqichi sifatida ham belgilanadi, bir tomondan, jismoniy, xususan, jinsiy yetilish tugaydi, boshqa tomondan – muayyan darajadagi ijtimoiy yetuklikka erishiladi. Yoshlarning yangi ijtimoiy maqomi, odatda, ta'lim faoliyati, tanlangan kasbni o'zlashtirishni kuchaytiradi. Kattalar hayotiga psixologik tayyorlikni faol rivojlantirish – boshqalar bilan o'zaro muloqotga kirishish ehtiyoji, ijodiy ishlash qobiliyati, turli voqea-hodisalarda to'g'ri yo'l tuta olish, nazariy dunyoqarash va rivojlangan refleksiyaga ega bo'lish bu yosh davrining muhim xususiyati hisoblanadi. Bu o'spirinlik yoshi, shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi anglashda yangi tuzilma mazmunini tashkil etadi. Inson oldida ijtimoiy va shaxsiy o'zini o'zi aniqlash vazifasi turadi, bu kattalardan mustaqillikni anglatmaydi, balki kattalar dunyosida, jamiyatda o'z o'rnini aniq belgilab olishdir. Bu o'z-o'zini anglashning integrativ mexanizmlarini rivojlantirish, dunyoqarash va hayotiy rejalar, shuningdek, muvofiq psixoseksual oriyentasiyalarni ishlab chiqish uchun zaruriy sharti hisoblanadi.

M.S. Zamishlyayevning fikriga ko'ra, bu yosh davrida kasbiy o'z-o'zini anglash orqali ijtimoiy to'laqonli, mustaqil, kattalar hayotiga qo'shilishga insonni ijtimoiy-psixologik tayyorlaydi, bu o'quv fanlarini faol o'zlashtirish va ziyoli kishilar bilan muloqot qilish ehtiyojini kuchaytiradi. Ota-onalar va atrofdagi jamiyatdan tajriba orttirishga bo'lgan qiziqish hayotiy va kasbiy istiqbollarni muhokama qilishga ko'maklashadi. Biroq, inson ota-onasidan ma'lum bir masofani saqlab qoladi, bu esa shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan muammolarini mustaqil hal qilish huquqini himoya qilish imkoniyatini beradi. Ushbu yoshdagi ta'lim oluvchilarda ijtimoiy rivojlanish holatining o'ziga xos xususiyatlari o'z-o'zini bilish va kelajakka yo'nalganlik ehtiyojini qondirishdir. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati ikki asosiy kechinmadan iborat: tashqi olamga bo'lgan munosabat o'z kelajagiga yo'nalganlik va undan xavotirda bo'lish tarzida, shuningdek, ichki olamga o'z-o'zini tasdiqlash bilish va baho sifatida boshdan kechiriladi. Muvozanatlashgan pozitiv tafakkurni rivojlantirishda o'z qobiliyatlari va o'z xatti-harakatlari munosabatlarining qarama-qarshi variantlari yuzaga keladi. Agar ongda muvaffaqiyat faqat qobiliyatlar bilan belgilanadi, xatti-harakatlar ahamiyatga ega emas tarzida qayd etilsa, bu insonning pozitiv tafakkuri rivojlantirishdan amaliy ravishda voz kechishni anglatadi. Agar talabani ko'p yillar davomida barcha narsa qobiliyatga bog'liq (ular esa past darajada) deb ishonitirib kelingan bo'lsa, u o'zidan omadsiz odam rolini yasab oladi va natijada nochorlik psixologik kompleksi paydo bo'ladi. Aksincha, agar talaba o'z qobiliyatlariga ishonib, o'quv faoliyatiga katta e'tibor qaratmagan bo'lsa, hamma narsa o'z-o'zidan bo'ladi degan ustanovka kuchayadi va bu ham rivojlanishga to'sqinlik qiladi [4,183-190].

V.F. Kaloshinning fikriga ko'ra, talaba yoshida motivasiyaning tashqi tomondan ichki tomonga o'tishi xarakterlidir. Motivlarning shakllanish jarayonini anglash o'z harakatlari sabablari va boshqa odamlarning harakatlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Xatti-harakatlarni baholash oqibatlarini baholashdan shaxsni harakatga keltiruvchi sabablarni baholashga o'tadi. Ichki motivasiya talabaga o'z ehtiyojlari va intilishlarini ongli ravishda boshqarish, ichki dunyosini anglash, hayotiy rejalar va istiqbollarni shakllantirish imkonini beradi. Asosan talaba hozirgi holatga kelajak nuqtai nazaridan qaraydi. Vaqtinchalik istiqbolning kengayishi yuz beradi. Kelajak hozirgi va istiqbolli rivojlanish holatini kesib o'tishning asosiy markaziga aylanadi. Insonning asosiy yo'nalishi (ayni paytda shaxsiy sohaning yangi tuzilmasi) o'zgaradi, bu kelajakka yo'naltirilgan, keyingi hayot yo'lini aniqlash, faol tanlov sifatida belgilanishi mumkin. Kelajakka umidni shakllantirish insonning ijtimoiy muhitiga ta'sir qiladi. Umid qilish qobiliyati tug'ma xususiyat emas, balki shaxsiy rivojlanish jarayonida erishiladi. Inson hayotda ishonch va umidni kuchaytiradigan, kelajak konsepsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muhitda tug'iladi. Vaqtinchalik istiqbol kengayib, o'tmish va kelajakni qamrab oladi, shaxsiy va ijtimoiy nuqtai nazarni o'z ichiga oladi. Bu pozitiv tafakkurni rivojlantirish va hayotning turli sohalarida pozitiv shaxsni kutish qobiliyatiga hissa qo'shadigan

kombinasiyadir [5,111-120].

Muxokama va natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pul bizni baxtli qilmaydi. Agar biz qodir bo'lsak shoxona yashash, so'ngi modadagi uy buyumlarini olishimiz, so'ngi rusumdagi avtoulodan foydalanishimiz va dabdabali hayotdan qoniqishimiz bundan oshmaydi; aslida, ma'lum bir darajadan yuqori daromad qancha ko'p bo'lsa, shunchalik baxt kam bo'ladi, agarsiz bor narsangizga minnatdor bo'lib, sog' va omon bo'lsangiz, boriga shukrona keltira olsangiz, yaqinlaringiz mehrini seza olsangiz va ular doimo yonigizda ekanligidan mamnunligingizni xis qilib tursangiz va xatto aniq bir muxtojlik uchun pul xayriya qilsangiz, bu sizga xaqiqatdan ham baxt, omad va xotirjamlik keltirishi mumkin!

I. Atvater, V. F. Kaloshin, D. A. Leontyev va boshqalar fikriga ko'ra, talaba yoshining o'ziga xos xususiyati kelajak uchun rejalarni shakllantirish, ijobiy kutilmalarni boshdan kechirishdir. Ushbu yosh davrining boshida kelajak tasavvuri yuqori darajadagi da'vo va o'zini taniqli shaxs sifatida ko'rish zarurati bilan tavsiflanadi, bu maksimalizmning anglanmagan optimizmi sifatida namoyon bo'lishi, deb aytish mumkin. Biroq qisqa vaqt ichida talabalarning natijaga yo'naltirilganligi, odatda, maqsadga erishish uchun mazmunli jarayonga o'zgaradi, shuning uchun orzu va ideallar asta-sekin konstruktiv harakat rejasida aniq shakllar va yo'nalishlarni egallaydi. Hayotiy rejalarni shaxsning erta o'spirinlik bosqichida fikr-mulohazalari predmeti nafaqat natija, balki unga erishish yo'llari, shuningdek, shaxs tanlashga tayyor bo'lgan ob'yektiv va sub'yektiv zaxiralar bo'lgandagina paydo bo'ladi. Hayot rejasini amalga oshirish yo'li ham optimistik, ham pessimistik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, erta o'spirinlikda shaxsiy dunyoqarash o'z hayot falsafasining qarashlari, bilimi, e'tiqodining butun tizimi sifatida oldingi tajribaga tayanadi. O'z-o'zini bilishning salbiy shakllarining ustunligi muvaffaqiyatsizlik, salbiy fikrlash holatini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik moslashmaganlikdan dalolat beradi. Deylik, yoshlar uchun bu pessimistik munosabatni shakllantirish va hayotning barcha sohalarida uning namoyon bo'lishini anglatadi. Misol uchun, o'z Meniga bo'lgan ortiqcha yuklash (o'z-o'zini bilishning salbiy shakli) boshqalardan uzoqlashishga olib keladi, muloqot yetishmasligi konstruktiv ko'nikmalarning rivojlanishi, hayotiy vazifalarni hal qilish va kerakli natijalarni olishga to'sqinlik qiladi. Noan'anaviy odatlar muvaffaqiyatga erishish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon bermaydi. Salbiy tajriba insonda o'rnashib qoladi va unda ijtimoiy munosabatlar, motivasion sohani shakllantiradi, bu pessimizmni: atrof-olam, boshqalar va o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni oldindan belgilab beradi [6,511;7,252;8,36-58].

T.A. Gordeyevning nuqtai nazariga ko'ra oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida o'z-o'zini anglashning yangi darajasi chegaralarida, odatda, muvofiq o'z-o'zini tasdiqlash rivoji yuz beradi. Baholash mezonlari o'zgaradi, boshqalarning baholash mezonlariga qaraganda tashqidan ichkiga o'tadi va sifatli yangi shakllarga ega bo'ladi. Alohida baholardan umumiyga o'tish ro'y beradi, ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini hurmat qilish va o'z kuchiga ishonch sezilarli darajada oshadi. O'z-o'ziga bergan bahosi yanada barqaror, yuqori, adekvat va nisbatan munoazarasiz bo'la boshlaydi. Bunda o'spirinlik yoshidagi shaxs rivojining ikki turi mavjud bo'ladi – pragmatik va ijodiy. Pragmatik tur o'g'il va qiz bolalarni bezovtalik manbalaridan ketishi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, pragmatik tur yoshlarda pessimistik ijtimoiy ustanovkani shakllantiradi. O'spirinlik o'zida, avvalo, boshqa yosh guruhlari, ayniqsa, ota-onasidan farq qiluvchi individuallikni tarbiyalaydi. Bu harakatlarning barchasi shaxsiy noan'anaviylik va erkinlikni qidirishga qaratilgan. Mazkur yosh davri hayotdagi yagona davr hisoblanib, inson o'z individualligidan ortda qolishiga yo'nalgan bo'ladi. O'zini qidirish, individuallashtirish ma'lum vaqt davomida yetakchi faoliyatga aylanadi. Ijodkor shaxs umumiy osoyishtalikni buzuvchi bo'lib qolmaydi, yetuklik esa shaklga emas, mazmunga tobora ko'proq e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Individuallik namoyon bo'lishining turli shakllari jamiyatning g'azablanishiga

va mantiqsiz optimizm xavfiga olib keladi, chunki u boshqa odamlarning an'anaviy g'oyalari va umidlari bilan mos kelmaydi [9,42-50].

T.L. Kryukovning nuqtai nazariga ko'ra hozirgi talabalar kelajakka optimizmsiz qarashadi, oldigi o'n yillikka qaraganda pessimizm nisbatan ko'p tarqalgan. Biroq, tadqiqotchining fikricha, o'spirin yigit va qizlar o'z shaxsiga nisbatan ko'proq optimistdirlar. Yoshlar yomonlik faqat ular bilan sodir bo'lmashligiga ishonadilar. Bunday tasavvur mazkur yosh davri uchun muhim xususiyat sanaladi: o'z kelajagiga optimistik yondashadi, qolgan barchasiga esa pessimistik nuqtai nazardan munosabatda bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'spirinlik maksimalizmi aynan o'z shaxsiga nisbatan optimizmga amalga oshadi. Yoshlarda nisbatan barqaror dunyoqarash ustanovkalari, insonlar orasida o'z o'rni, o'z kasbiy faoliyati, hayot tarzini ko'rish, yolg'izlikka bo'lgan ehtiyoj, o'z ichki olamini atrofdagilar va yaqin kishilar bosimidan chegaralashga intilish kuchayadi, o'z individualligini saqlab qolish uchun refleksiya orqali shaxsiyat hissini mustahkamlaydi. Yosh inqirozi davrida yoshlarning kasb-hunar va shaxsiy sohalarda o'z-o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoji ortadi. Bu affektiv kechinmalarni yuzaga keltiradi, ular esa shaxsning yangi yetuklik darajasi va o'ziga hamda boshqalarga nisbatan optimistik munosabatga erishishi uchun harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning rag'batlantiruvchi turi samarador hisoblanadi. Agar ota-onalar faqat ma'qullash bilan cheklanishsa, bu infantillik (yaxshi yetilmaganlik) rivoji uchun sharoit yaratib beradi. Zarar yetkazuvchi ogohlantirishlarni bartaraf etish usulini izlash bilan ijtimoiylashuvning rag'batlantiruvchi turi ishonch, yashovchanlik, hayotiylikni oshiradi. Bunday o'sib borayotgan shaxs boshqalardan optimizmi va o'ziga nisbatan pozitiv munosabati bilan farq qiladi [10,236-242].

E. A. Perova talabalik yoshida optimistik (pozitiv) fikrlarning hayot faoliyatiga ta'siri muhimligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, muallifning fikriga ko'ra, anglanmagan fikrlar haqiqatdan yiroq, shuning uchun ular destruktivdir. Mavjud bo'lmagan narsalarni tasavvur qilish e'tiqodlarga aylanishi mumkin va insonning harakatlari noreal fikrlarga muvofiq yo'naltiriladi. Real va tasavvur o'rtasidagi qarama-qarshilik o'zi va boshqalar bilan shaxslararo ziddiyatni yuzaga keltiradi. Insonning ijtimoiy aloqalarida va ichki uyg'un dunyoni o'rnatishiga to'sqinlik qiluvchi nokonstruktiv fikrlarni aniqlash muhimdir. Shu bilan birga, salbiy fantaziyalar destruktiv xarakterga ega, chunki ularni kutish holatida odam muhim qarorlar qabul qiladi. Natijada, oqibatlar halokatli va ularni tuzatish mumkin emas. Olim, oliy o'quv yurtida o'qish davrida pozitiv tafakkurni maqsadli rivojlantirishning qulay va samarali usuli sifatida psixologik treningni taklif qiladi (syujetli o'yinlar, munozaralar, refleksiya asosidagi mashqlar va b.), uning yordamida inson o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlarini nazorat qilishni o'rganishi mumkin [11,51-57].

A.A. Mizernaya oliy ta'lim muassasalarida treningni qo'llashning shaxsiy tajribasiga tayanib, trening guruhlarida talabalar o'zi, o'z psixologik xususiyatlari, kechinmalarini tushunish, shuningdek, ijtimoiy muhitning talabalar tomonidan anglanishining to'liqligi va aniqligi oshishini ta'kidlaydi. Trening mashg'ulotlari davomida refleksiya qobiliyati, boshqalar bilan o'zaro munosabatda o'z xulqi xususiyatlarini aks ettirish va qayd etish ko'nikmalari, emosional kayfiyat, fikrlarning yo'nalganligi shakllanadi va rivojlanadi, bu xulq-atvorda shaxsning o'zini o'zi boshqarishi tasdig'i sanalib, ishlab chiqiladigan trening dasturida Men-obrazi va unga munosabat bilan bog'lanadi. Bunday o'z-o'zini boshqarish bo'lajak mutaxassis uchun o'z-o'zini yanada takomillashtirish va rivojlantirishning zarur shartidir. Bu jarayon, shuningdek, jamiyatning ajralmas qismi sifatida boshqalar, o'zi haqida bilim g'amxo'rlik va bir vaqtning o'zida noyob qiymati, trening guruhi asosiy tamoyillarini to'g'ri va izchil amalga oshirish orqali ta'minlanadi, hayotdan quvonch hissini rivojlantirish imkonini beradi [12,54-57].

V. Levsha, V.G. Romek, O.P. Gorbushinalarning nuqtai nazariga ko'ra, guruh ishining ijtimoiy-psixologik trening shakli o'zini o'zi namoyon etish, o'zini o'zi tahlil

qilish va shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi, istalgan natijaga konstruktiv yo'l orqali erishishga yo'nalgan pozitiv fikrlashni shakllantirish uchun vaqtdan foydalanishning yuqori samaradorligi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik trening ishning guruh shakli sifatida qator imtiyozli jihatlarga ega:

trening ishtirokchilari tomonidan olingan guruh tajribasi begonalashishga qarshi turadi, bu hayot muammosiga duch kelganda psixologik himoya shakli bo'lishi mumkin;

trening guruhining tarkibida tegishli mashqlarda ishtirok etish ishtirokchiga boshqalarning ijobiy tajribasini jalb qilish, shu kabi muammoga duch kelgan odamlardan yordam olishga ko'maklashadi;

guruh a'zolari trening davomida o'zlarini boshqa ishtirokchilar bilan identifikasiyalashlari, atrofdagilar va eng avvalo, o'zlarini, muammolarini, imkoniyatlarini va cheklovlarini yaxshiroq tushunishlari uchun boshqa turli rollarni o'ynashlari mumkin;

trening guruhidagi ishtirokchilarning o'zaro ta'siri, odatda, individual ishda paydo bo'lmaydigan zo'riqishni yaratadi. Bu trening guruhidagi har bir ishtirokchining mavjud mammolarini obyektiv tan olishga yordam beradi;

trening guruhi o'z-o'zini kashf etish, o'zini o'zi tadqiq etish, o'zini o'zi anglash jarayonlarini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik treningning muhim afzalligi ham uning ko'p funktsionalligidir. Shu jihatdan quyidagi muhim vazifalarni ta'kidlash maqsadga muvofiqdir:

- diagnostik;
- ta'limiy;
- rivojlanuvchi;
- psixokorreksion;
- o'z-o'zini boshqaruvchi;
- profilaktik va b.

Ijtimoiy-psixologik trening xulq-atvorni nazorat qiluvchi yangi funktsional tuzilmalarni (yoki mavjudlarini rivojlantirishni) yaratish va rivojlantirishning eng samarali vositasi yoki tegishli qobiliyat, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish usullari guruhi sifatida yuzaga chiqadi [13,176;14,112;15,175].

Xulosa. Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslanib, talabalik yoshi boshqa hayot davrlari qatorida oliy o'quv yurtida o'qish davomida shaxs muayyan bilim, ko'nikma va malakalar bilan boyitilgan faol psixologik rivojlanishning tegishli bosqichiga kiradi, tanlangan kasbda ijtimoiy tajriba oladi, o'ziga xos shaxsiy identifikasiyaga ega bo'ladi, xususan, bo'lajak mutaxassisning pozitiv tafakkur dinamikasini belgilaydi, deb xulosa qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Talabalik yoshi intensiv rivojlanish, to'laqonli mustaqil kasbiy hayotga tayyorlanish davri sifatida shaxsiy motiv va ehtiyojlarni anglash, o'z shaxsiyatining barcha tomonlarini qabul qilish, o'zini hayot faoliyatining barcha jabhalarida qo'llab-quvvatlashni talab etadi va pozitiv tafakkurning tarkibiy komponentlari rivojlanishi uchun sensitiv davr hisoblanadi. Sensitiv davr talaba shaxsining yosh xususiyatlari hamda o'rganilayotgan hodisaning komponent tarkibini samarali rivojlantirish, to'g'rilashga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligi bilan ta'minlanadi. Ushbu jarayon uchun yosh xususiyatlari va ta'lim muhiti sharoitlarini hisobga olib, ko'plab yondashuvlar orasida aksariyat olimlar psixologik ma'rifatparvarlik va kompetentlikni oshirish hamda pozitiv tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik treningni ajaratadi. Trening davomida maqsadga yo'naltirilgan guruh ishi ma'rifatchilik bilan birlikda dialogik vaziyatni yaratadi, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini rivojlantirishning faol shakllarini qo'llab-quvvatlash va tashabbus tufayli ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik salohiyatini amalga oshirish yuz beradi va aniqlash, kengaytirish, muayyan hayotiy vaziyatda muammolarni hal qilish texnikasi majmuini amalga oshirish orqali

talabalarning shaxsiy salohiyati kuchaytiriladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Батюта М.Б. *Возрастная психология: Учебное пособие.* – М.: Логос, 2013. – 306 с.
2. Дубровина И.В. *Возрастная и педагогическая психология. Хрестоматия.* – М.: Academia, 2018. – 256 с.
3. Шаповаленко И.В. *Психология развития и возрастная психология: Учебник и практикум для академического бакалавриата.* – Люберцы: Юрайт, 2016. – 576 с.
4. Замышляева М.С. *Оптимизм и пессимизм в совладающем поведении в юношеском возрасте. // Воспитание в контексте междисциплинарного подхода. – 2005. – № 5. – С. 183-190.*
5. Калошин В.Ф. *Позитивное мышление, как важный фактор обеспечения жизнестворчества личности студента. // Педагогика и психология высшего образования. – 2007. – №6. – С. 111-120.*
6. Атватер И. *Психология для жизни: Упорядочение образа мыслей. Развитие и поведение человека наших дней: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений.* – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2003. – 511 с.
7. Калошин В.Ф. *Основы позитивного мышления в образовательной деятельности. Учебное пособие.* – М.: 2005. – 252 с.
8. Леонтьев Д.А. *Позитивная психология - повестка дня нового столетия // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – 2012. – Т. 9, № 4. – С. 36-58.*
9. Гордеева Т.А. *Оптимистическое мышление студента как составляющая личностного потенциала. // Психологическая диагностика. – 2006. – №2. – С. 42-50.*
10. Крюкова Т.Л. *Оптимизм и пессимизм в совладающем поведении объекта учебной деятельности. // Психологическое исследование: теория, методология, практика: Сборник материалов II Сибирского психологического форума. – Томск: Томский государственный университет, 2007. – С. 236-242*
11. Перова Е.А. *Оптимизм как одна из составляющих субъективного благополучия студента. // Вопросы психологии. – 2006. – № 4. – С. 51-57.*
12. Мизерная А.А. *Коррекционно-тренинговая программа самосовершенствования для студентов вузов. // Практическая психология и социальная работа. – 2004. – № 5. – С. 54-57.*
13. Горбушина О.П. *Психологический тренинг. Секреты проведения.* – СПб.: Питер, 2007. – 176 с.
14. Левша В. *Коррекция поступков подростков в тренинге.* – К.: Шк. мир, 2007. – 112 с.
15. Ромек В.Г. *Тренинг уверенности в межличностных отношениях.* – СПб.: Речь, 2008 – 175 с.

MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVI MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI

Turaqulov Laziz Tirkashevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuviga oid ma'lumotlar berilgan, jumladan sotsiolog, psixolog va pedagog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy – nazariy ma'lumotlar yoritilgan. Mehribonlik uyiga tushib qolishning ba'zi ijtimoiy – psixologik, tibbiy va pedagogik sabablari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Mehribonlik uyi, ota-ona, ijtimoiy psixologiya, yopiq muassasalar, jamiyat, qarovsizlik, yetimlik va ijtimoiy yetimlik, o'smirlilik va o'spirinlik, davlat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ВОСПИТАННИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА

Turaqulov Laziz Tirkashevich

*Старший преподаватель Джизакского
Государственного Педагогического Университета*

Аннотация: В данном реферате представлена информация о социализации воспитанников детского дома, в том числе научно-теоретическая информация, проведенная социологами, психологами и педагогами. Приведены некоторые социально-психологические, медицинские и педагогические причины попадания в детский дом.

Ключевые слова: Дом милосердия, родители, социальная психология, закрытые учреждения, общество, безнадзорность, сиротство и социальное сиротство, детство и юность, государство.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF SOCIALIZATION OF FOSTER CHILDREN OF THE ORPHANAGE

Turaqulov Laziz Tirkashevich

Senior Lecturer in Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: This essay provides information on the socialization of children from the orphanage, including scientific and theoretical information conducted by sociologists, psychologists and teachers. Some socio-psychological, medical and pedagogical reasons for getting into an orphanage are given.

Key words: House of Mercy, parents, social psychology, closed institutions, society, neglect, orphanhood and social orphanhood, childhood and youth, state.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo miqyosida ota-ona mehridan mahrum bo'layotgan bolalar soni kundan kunga ortib bormoqda, dunyo bo'yicha statistik ma'lumotlarga ko'ra bunday bolalar soni 1 milliondan ortib ketgan. Tarixiy ma'lumotlarga nazar tashlagan holda mushohada qilinsa, ushbu holatlarni ko'rish mumkin. Dunyoda sodir bo'lgan urushlar davrida qarovsiz qolgan bolalar muammosi, yetim bo'lib qolgan bolalar tarbiyasi asosiy muammo sifatida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holat sifatida e'tirof etilgan.

Shu nuqtai nazardan, dunyo olimlari, jumladan psixolog va pedagog olimlar mazkur muammoga alohida e'tibor qaratib, bu borada bir qancha tadqiqot ishlari olib borishgan. Ta'kidlash joizki, bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar psixologiyasini o'rganish muammosi bo'yicha A.A.Vinogradovning "Bolalar uyining tarbiya jarayoniga pedagogik rahbarlik", M.A.Zemlyanuxinaning "Kichik yoshdagi yopiq muassasa tarbiyalanuvchilarining mulqot xususiyatlari", A.A.Lyubanovning "Bolalar uyi

tarbiyalanuvchilar va tarbiyachi o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni shakllantirish", Y.V.Nekrasovaning "Mehnat tuzatish koloniyasi tarbiyalanuvchilarinig o'zini anglash xususiyatlari", A.M.Prioxanning "Yopiq bolalar muassasi tarbiyalanuvchi kichik o'quvchilarning psixik rivojlanishini tadqiq qilish", A.S.Spivakovskayaning "Davlat muassasidan tarbiyasiga bola olgan oilalarga psixologik yordam" kabi olib borilgan tadqiqot ishlarini ko'rsatib o'tish lozim.

Jamiyatda yetim va qarovsiz qolayotgan bolalar sonining ko'payishiga ko'plab ob'ektiv va sub'ektiv sabablar yetarlicha topiladi, bunday holat milliy qadriyatlarining, jamiyada axloqiy me'yorlarning buzilishi, ichkilikbozlik, giyohvandlik, ishsizlik kabi illatlar natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan 60-80 foiz bolalarning ota-onasi bor, lekin yuqorida keltirilgan sabablar tufayli ular bolalarini mehribonlik uyiga topshirishga mahkum qilingan.

Mazkur muammo borasida dunyo bo'yicha pedagog va psixolog olimlar tomonidan keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilsada, ijobiy ilmiy natijalarga erisha olmayaptilar, buni sababi esa tadqiqot natijalari asosida to'plangan ma'lumotlarda tafovut mavjud, ilmiy tadqiqotlarni olib borishda turli nazariyalarga tayangan, tadqiqot ishlarida qo'llanilgan metodikalarning xilma-xilligi esa olingan natijalarni o'zaro taqqoslash imkonini pasaytirishi bo'lsa, olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilishda millat, urf-odatlar, tarbiya va etnik xususiyatlar kabi omillar inobatga olinmagan. Shu bilan birgalikda, olib borilgan tadqiqotlarning pedagogik nazariya yo'nalishida ekanligini ham ta'kidlash joiz.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, yetim va qarovsiz bolalar bilan oilada tarbiyalanayotgan bolalar orasida katta tafovut mavjud bo'lib, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning xarakterida tajovuzkorlik (agressiya) xislatini ko'rishimiz mumkin, bu xislatni keltirib chiqaruvchi sabab esa, bizni nazarimizda bolalarga yetishmaydigan ota-ona mehri va ular tarbiyasi hisoblanadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ota-ona mehri masalasini ilmiy tahlil qilgan ingliz psixologi R.Bergis quyidagi fikrlarni bildiradi: "Salbiy "Men" kontseptsiyasining shakllanishi va tajovuzkorlik bolaning ota-onalarga va ota-ona rolini bajaruvchi shaxslarga nisbatan qo'polligi natijasi hisoblanadi. Bolada hech kimga qo'shilmaslik, odamovilik, tundlik, yolg'izlik hissi namoyon bo'la boshlaydi. Mazkur hislar esa bolada salbiy "Men" kontseptsiyasini keltirib chiqaradi".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Bolalarda tajovuzkorlikni keltirib chiqaradigan sabablardan biri sifatida kelisha olmaslik, qaror qabul qila olmaslik, fikrini jamlay olmaslik, qarama- qarshilik kabi xislatlar o'z navbatida bolalarda doimiy salbiy hissiyotlarni shakllanishiga olib keladi. Ushbu muammo ustida tadqiqot olib borgan psixolog olimlar V.S.Rotenberg va S.M.Bondarenkolar qiziq bir g'oyani ilgari surdilar, ya'ni ular qidirish faolligi deb nomlangan kontseptsiyani ishlab chiqdilar. Ularning fikriga ko'ra, agar qidirish faolligini yo'nalishi o'zgartirilsa, bolalardagi tajovuzkorlikni yo'qotish mumkin bo'ladi. Bunday kontseptsiya ish berishi mumkin, qachonki bolalarning yosh davri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular bilan samimiy munosabat o'rnata olinsa va ularga ishonch bildirilganda samara berishi mumkin. Bunga buyuk rus pedagogi Makarenkoning faoliyatini misol keltirish o'rinli bo'ladi.

Aytish joizki, V.S.Rotenberg va S.M.B.Bondarenkolar ushbu g'oyalari bilan nemis psixoterapevti T.Ammon kontseptsiyasiga yaqindan yondashadi. T.Ammonning fikricha, har bir odamda tajovuzkorlik xususiyati mavjud, ular tajovuzkorlik xususiyati bilan tug'iladilar. Lekin normal rivojlanish natijasida ularda tajovuzkorlik o'rniga yaratuvchanlik yuzaga chiqadi va u asta-sekinlik bilan ijodiy – garmonik rivojlanishga o'zgaradi [1].

Mehribonlik uyi o'smir va o'spirinlik yoshidagi bolalar uchun oxirgi boshpana hisoblanadi, chunki keyin ular uchun mustaqil hayot boshlanadi, ular ijtimoiy hayotga, jamiyatga qo'shiladilar, mustaqil hayot haqida tasavvurga ega bo'lmagan bolalarning

ijtimoiylashuvi og'ir kechishi, ular hayotda qiynalishi, adashishlari, xato qilishlari mumkin, bu esa ularning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Psixolog N.N.Tolstix tomonidan olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida aytish mumkinki, bolalarda kelajakka ishonch, hayotiy rejalar, o'zaro munosabatni shakllanishi, imkoniyatlarni yaratish kabi holatlarning barchasi ijtimoiy vaziyat ta'siri bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki o'smirning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy vaziyatlar, bolalar psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasining asosiy muammosi bo'lib, o'z vaqtida bu g'oya rus psixologi L.S.Vqgotskiy tomonidan bildirilgan edi va keyinchalik L.I.Bojovich tomonidan rivojlantirilgan. L.I.Bojovichning ta'kidlashicha, har bir yosh bosqichida rivojlanishning ichki jarayoni yig'indisi va tashqi sharoitlar psixik rivojlanish dinamikasini yaratadi va ijobiy psixikani talqin etadi.[5]

N.N.Tolstix va A.M.Prixojan o'zlarini ilmiy izlanishlari natijasiga asoslanib quyidagi fikrni bildiradilar: "Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari uchun yetakchi istak bu – kundalik hayot, axloqiy me'yorlar, o'qish tartibiga rioya qilish xarakterli hisoblanadi. Oilada tarbiyalanayotgan bolalar uchun esa kundalik hayot tashvishlari bilan birga boshqa muammolar ham qiziqarlidir. Ular o'qish, oilaviy ishlardan tashqari bo'sh vaqtlarini qanday tashkil qilish va boshqa ishlarni o'zlari hal qiladilar" [10].

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining tor ma'nodagi faoliyat motivi nafaqat hayotiy tajribaning yetishmasligi, balki shaxslararo munosabatning yetarli emasligi, ayniqsa katta yoshdagi odamlar bilan munosabatni chegaralanganligi bilan ham bog'liq bo'ladi. Yaxshi bilamizki, maktabgacha yoshda va kichik maktab yoshidagi bolalar psixikasini rivojlanishida katta yoshdagi odamlarning (ota–ona, tarbiyachi va o'qituvchilar) o'rni va roli katta ahamiyat kasb etadi. Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarda katta yoshdagi bolalar bilan muloqot qilish ehtiyoji esa qondirilmaydi, bu holat esa boladagi ehtiyojni kuchli namoyon bo'lishiga olib keladi, bu esa bolalarning tengdoshlari, tarbiyachilar bilan munosabatida o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladi. Bu holat bahsli munozaralarda, qiziqishlar to'qnashuvida, kattalarning tanbehida, ta'qiqlashda, tengdoshlari bilan tortishuvlarda, ayblashlarida yaqqol yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatlarda bolaning boshqalarni ayblash, o'z aybini tan olmaslik, muammoli vaziyatlardan chiqa olmaslik kabi holatlarda uning tajvuzkorlik xususiyati ko'zga tashlanadi.

NATIJALAR.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi ular shaxsning shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berishi uchun ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarni samarali tashkil etish, shaxslararo munosabat jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining katta yoshdagi odamlar bilan munosabatga kirishishga bo'lgan intilishi ularda katta yoshdagilarga bo'lgan salbiy fikrlarga asosan tajvuzkor munosabatni keltirib chiqarishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu borada psixolog V.S.Rotenberg quyidagi mulohazani bildiradi: "Bolalarning munosabatga bo'lgan ehtiyojni katta yoshdagi odamlardan ta'minlovchi sifatida talab qilishi, o'zining muomalasidagi muammoni yechimini boshqalardan kutishi, o'zi mustaqil muammoni hal qilishni va ma'suliyatni zimmasiga olmaslik kabi xususiyatlarni shakllanishiga olib keladi". Bu holat esa o'z navbatida bolalarda ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda odamlarga nisbatan ishonchsizlik hissini paydo qiladi.[9]

Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda qayd qilinishicha, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyachilar va katta yoshdagi odamlarga yoqish uchun tartib-intizomga rioya qilishga, odobli bo'lib ko'rinishga harakat qiladilar. Chunki, oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'zlarining xarakteri qanday bo'lishidan qat'iy nazar, sevimli ekanligini inobatga olganda, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar katta yoshdagi odamlarning ijobiy munosabat bildirishlari uchun o'zlarini odobli, axloqli, tartibli qilib ko'rsatishga harakat qiladilar, buni sababi esa ular

kattalardan o'zlarini farzand qilib olishidan umid qilishdir. Bu holat esa ularning psixik rivojlanishi jarayonining o'ziga xos xususiyatidan dalolat beradi, bu ularni psixologik rivojlanishida aks etadi va bolalar xarakteridagi ichki tushuncha, tasavvur, fikrlash, idrok va axloqiy javobgarlik kabi xususiyatlarning tashqi vaziyatlar bilan bog'liqligi bilan izohlanadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan taxminlar asosida aytish mumkinki, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs xususiyatlari, xarakteri, ularning axloqiy sifatleri va bilimlari, aqliy imkoniyatlari, o'z-o'zini anglash va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini yetarli deb bo'lmaydi. Olib borilgan tadqiqot ishlari kengroq qamrab olinmaganligi, bolalarning axloqiy va ijobiy munosabatlari esa bir tomonlama tadqiq etilganligi bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аммон .Г. «Мозг обучения. Здоровье». М. 1989. 84 б.
2. Abdurasulov.R. A. "Sportchi talabalarning individual va shaxsiy fazilatleri" // "Maktab va hayot" jurnali. 2003. 2-son, 17-18-betlar.
3. Abdurasulov R.A. "Talabalarning sharqiy yakkakurash va boks faoliyatiga qiziqishlari". Yubiley xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Materiallar to'plami. Samara 2008 yil.
4. Abdurasulov R.A. "Sharq yakkakurashi va shaxs kamoloti". Monografiya. Toshkent.: Fan, 2008. b. 116.
5. Божович Л.И. Личность и ее формирование детским возрасте. – СПб.: Питер, 2008, - 400 с.
6. Бондаревская Е.В. Формирования нравственного сознания старших школьников. Ростов на Дону 1976 г. 192 стр.
7. Прихожан А.М. Психология сиротства. – СПб.: Изд-во Питер, 2007.- 416 с.
8. Толстых А.В. После детства /новое в жизни науке и технике. №5. М. 1982. с.96.
9. Ротенберг В.С. Бондаренко С.М. Мозг обучение: здоровье М. 1989. с 12.
10. Толстых А.В. После детства /новое в жизни науке и технике. № 5. М. 1982. с.96.
11. L.T.To'raqulov. Yetim va ijtimoiy yetim bolalarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari. Gulistin davlat universiteti axborotnomasi. 2022-yil 4-son.

OROLBUYI MINTAQASI AHOLISINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK AHVOLI

*Shamshetova Anjim Karamaddinovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dosenti*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Orolbo'yi mintaqasidagi mavjud ekologik muammolar o'rganilgan. Orolbo'yining mintaqasidagi ekologik muammolar natijasida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va gumanitar muammolar borgan sari murakkablashib borishi hamda shaxs psixologik xususiyatlariga ta'siri masalalari yoritildi. Ekologik muammolarga psixologik jihatdan yondashib o'rganishi kerakligi va aholiga psixologik xizmat turlarini tashkil etish masalalari, ilmiy izlanishlardagi olimlarning fikrlari va xulosalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi mintaqasi aholisi, ekologik muammolar, psixologik xizmat, ekologik ong, ekologik motivatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ ПРИАРАЛЬЯ

*Шамшетова Анджим Карамаддиновна,
доцент Узбекского государственного университета мировых языков*

Annotatsiya. В данной научной статье изучены существующие экологические проблемы Приаралья. Были освещены вопросы возрастающего усложнения социальных, экономических, медицинских и гуманитарных проблем, возникших в результате экологических проблем в регионе Приаралья, а также их влияния на психологические особенности личности. Изложены вопросы организации видов психологической помощи населению, мнения и выводы ученых в научных исследованиях о необходимости психологического подхода к проблемам экологии.

Ключевые слова: население Приаралья, экологические проблемы, психологическая служба, экологическое сознание, экологическая мотивация

SOCIO-PSYCHOLOGICAL STATE OF THE POPULATION OF THE ARAL SEA REGION

*Shamshetova Anjim Karamaddinovna,
Associate Professor of the Uzbek State University of World Languages.*

Annotation. This scientific article examines the current environmental problems in the Aral Sea region. The issues of increasing complexity of social, economic, medical and humanitarian problems as a result of environmental problems in the Aral Sea region, as well as their impact on the psychological characteristics of the individual were covered. The need to study psychologically approach to environmental problems and the issues of the organization of types of psychological services to the population, the opinions and conclusions of scientists in scientific research are described.

Keywords: population of the Aral Sea region, environmental problems, psychological service, environmental consciousness, environmental motivation.

Antropogen omil yetakchi omilga aylanmoqda va uni hisobga olmasdan

bizning umumiy uyimiz bilan yana nima bo'lishini tushunish va baholash qiyin albatta. Atrof-muhitni kim va nima ifloslantiradi – degan savol qo'yishingiz mumkin. Inson o'zini tabiatni zabt yetuvchi deb tasavvur qilgani natijasida barcha antropogen omillar atrof-muhitni ifloslantira boshladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Odamlar tomonidan atrof-muhitga ta'siri natijalari, ya'ni o'rmonlarni yoqishi, sanoat korxonalaridan chiqadigan chiqindilar, transport tomonidan tabiatga zarar yetkazishi, ba'zi odamlar axlatni daryolarga tashlab ketishi yoki ko'chalarda axlatxonalarini tashkil qilinishi, suvlarni isrof qilishi daryolarni quritadi, ekotizimlardagi muvozanatni o'zgartiradi, o'zi yashaydigan hududning landshaftini o'zgartiradi. Odamlar ming yillar oldin atrof-muhit holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishni boshladilar. Yer yuzida odamlar sonining ko'payishi bilan ham bu ta'sir yanada kuchayib bordi. Natijada tabiiy resurslarning kamayishi, o'z navbatida, odamlarning salomatligi va farovonligiga ta'sir qila boshladi. Ekologik muammolarni biri ya'ni bir zamonlar maydoni bo'yicha dunyodagi to'rtinchi ko'l hisoblangan Orol dengizi fojiasi global ekologik muammolarning biridir. Orol dengizining ekologik halokati tabiiy resurslardan savodsiz foydalanish namunasi hamda noto'g'ri o'ylangan inson faoliyatining yaqqol namunasi. Dengizning yo'q bo'lib ketishi daryolar oqimini boshqa yoqqa burish bo'yicha loyihalar amalga oshirilishi bilan bog'liq. Tarixan Orol dengizi o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va turkmanlar kabi xalqlarning taraqqiyot markazi hisoblangan. Qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlanishi bilan bu yerda paxtachilik amal qilgan, shaftoli, o'rik, uzum, shuningdek, meva va poliz ekinlarining boshqa turlari yetishtirilgan. Orolbo'yi hududi turli flora va faunaga ega hudud hisoblanib, unda baliqlarning 38 turi va sayg'oqlar 1 million soni, gullarni 638 ta o'simliklar kompozitsiyasi mavjud edi [2].

Orol dengizining qurib borishi Orolbo'yi mintaqasida global xarakterdagi ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar majmuiga sabab bo'ldi va salbiy oqibatlariga olib keldi. Natijada Orol dengizining ekologik halokati masalasi paydo bo'ldi. 1930-yillarda o'rta Osiyoda irrigatsiya kanallarini keng miqyosda qurish boshlandi, bu ayniqsa 1960-yillarning boshlarida kuchaydi. 1960-yillardan boshlab dengiz sayoz bo'lib qoldi, chunki unga oqib tushadigan daryolarning suvi tobora ko'payib borayotgan hajmda sug'orishga yo'naltirildi. 1961 yildan boshlab dengiz sathi yiliga 20 dan 80-90 sm gacha pasayishni boshladi. Dengiz suv yuzasining maydoni 8 marta, suv massasining hajmi 13 martadan ko'proq qisqardi[3].

Bugungi kunda Orol dengizi yangi Orolqum cho'liga o'tib, dengizning qurib qolgan qismida bepoyon tuz konlari hosil bo'lgan. Har yili Orol dengizidan 75 million tonnadan ortiq chang va zaharli tuzlar ko'tariladi. Orol dengizi tubidan ko'tarilgan changli yo'llar uzunligi 400 km va kengligi 40 km ga yetadi. Orol dengizi tubidagi tuzlar katta masofaga tarqab, hatto Himolay tog'lariga va Mongoliyaga ham yetib borgan [2].

So'nggi qirq yil mobaynida Orol dengizi deyarli ikki baravar qurigan. Natijada dengiz atrofidagi hududlarning 60 foizi yaroqsiz holga kelgan va yiliga 75 million tona tuz Markaziy Osiyoning boshqa hududlariga tarqalmoqda. Buning natijasida yuzaga kelgan tuproq eroziyasi va havoning ifloslanishi odamlar salomatligiga, turmush sharoitiga va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Orolbo'yi mintaqasidagi global xarakterdagi ekologik muammolarga bog'liq bir qator muammolarni ko'rsatib o'tish mumkin. Aholiga ichimlik suvining yetishmasligi, dehqonchilik uchun ham sug'orma suvni tanqisligi, suv zahiralarning kamayishi va sho'rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo'ladigan o'simliklar turi va sifati kamayib, o'tloqlar maydoni

deyarlik uch martaga qisqarishi, iqlimning o'zgarishi qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsizligi katta muammolardan hisoblansa, ikkinchi tomonidan aholi salomatligi o'rtasida yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o'pka sili, astma, bronxit) ko'payishi, hududda kam-qonlik kasalligi 60 yillarga nisbatan deyarlik 20 marta oshganligi kuzatilganligi achinarli holat. Ekologik ofat millionlab odamlarning hayoti va sog'lig'iga salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. SHifokorlar hiqildoq va qizilo'ngach saratoni, onkologik, ko'z va insonning boshqa a'zolari kasalliklari ko'payib borayotganini qayd etmoqda [1].

Orol fojiasi mintaqa iqlim sharoitini og'irlashtirib, yoz davrida qurg'oqchilik hamda jaziramani kuchaytirish, qishda esa qaqshatqich sovuq kunlarni uzaytirib yuborishdan tashqari, qator iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. SHu jumladan, transport, baliqchilik, chorvachilik va mo'ynachilik hamda boshqa an'anaviy faoliyat turlari butkul inqirozga uchradi va yuz minglab odamlar ishsiz qoldi. Natijada ekologik migratsiya jarayonlari avj oldi.

Ekologik tanglik mavjud bo'lgan xududlarda albatta, iqtisodiy muammolarni ham bo'lishi tabiiy. Aholini ish bilan ta'minlash ham kundalang masalalarning biri hisoblanadi.

Orolbo'yining mintaqasidagi ekologik muammolar natijasida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va gumanitar muammolar borgan sari murakkablashib bormoqda.

Aholining turmush faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tibbiy, iqtisodiy rivojlanish, ekologik vaziyat, ijtimoiy himoya va boshqa shu kabi sohalar bilan bog'liq bo'lgan Orolbo'yining zaruriy muammolarini hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta'minlash zarur. Bugungi kunda ta'lim sohalaridagi ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash, qiyin sharoitlardagi aholini qo'llab-quvvatlash samarali yagona boshqaruv tizimini yaratish rivojlantirish vaqti keldi.

Keyingi yillar Orol dengizi mintaqa iqtisodiyotini ko'tarish, unda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish juda ahamiyatlidir. Amudaryoning unumdor yerlari va Sirdaryo daryolari deltasi, shuningdek yuqori mahsuldor yaylovlar, o'n minglab odamlarga chorvachilik, parrandachilik va ekinlarni yetishtirish sohaları bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan: Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi doirasida qator dasturlari amalga oshirilishi hamda 2021 yilning 18 may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev taklifiga binoan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya qabul qilinishi aytib o'tishimiz joiz [1].

Markaziy Osiyoda iqlimning o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga va Orol muammasini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarda yagona kompleks tarzidagi ilmiy yondashuvlar zarur. Orol dengizi endi hech qachon ilgarigi holiga qaytmaydi, lekin mahalliy aholi himoya va yordamga muhtoj.

Aholining ekologik tarbiyasi, ekologik bilimdonligi hamda odamlardagi ekologik ongning rivojlanganligi butun insoniyat taraqqiyoti tarixida asosiy rol o'ynaydi. Yuqorida o'rganilib chiqilgan global ekologik muammolarni kelib chiqishiga inson omillari deb ta'kidlab o'tsak, endi ona tabiatni asrab qolish ham inson omillari ta'sirida bo'ladi. Albatta, buning uchun insonda yuqori darajadagi rivojlangan ekologik ong orqali mavjud ekologik muammolarni avj olib ketmaslikni oldini olish va kelgusi iqlim o'zgarishlariga tayyorgarlik

ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida bugungi kuni inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni psixologik muammo sifatida o'rganilishini taqozo etmoqda. SHu bilan birga barcha yuz bergan ekologik muammolar negizini o'rganishga psixolog mutaxassislarni jalb qilishni ham talab qiladi. Ekologik muammolar inson psixologiyasiga, psixofiziologiyasiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Orolbo'yi mintaqasidagi mavjud ekologik muammolarga oid psixologik tadqiqotlarni o'tkazish, aholining psixologik salomatligini tashxislash va ularga turli turdagi psixologik xizmat ko'rsatish lozim. Aholi psixologik salomatligini o'rganish, psixoprofilaktika, psixodiagnostika va psixokorreksiya xizmat turlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ekologik o'zgarishlarga odamlarni psixologik tayyorlash, ekologik ong, ekologik madaniyat saviyasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ekologik ta'lim-tarbiya masalalarida psixologik bilimlardan foydalanish samaradorligini oshirib borishimiz lozim. Bundan tashqari barcha ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat ko'rsatishni to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Psixolog mutaxassislar maxsus atrof-muhit bilan bo'ladigan munosabatlarni to'g'ri tahlil qilishda o'z malaka bilimlarini oshirib borishi joiz. Ekologik muammolarning inson psixologiyasiga salbiy ruhiy ta'sirini o'rganib boruvchi tezkor psixodiagnostik metodikalardan foydalanishni yo'lga quyish va rivojlantiruvchi psixorreksion amaliy yordamlarni qullay olishga oid malakalarini oshirib borishimiz kerak. Ekologik qiyin vaziyatda yashovchi insonlarga psixologik tashxis qo'yish, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarining uzluksizligini ta'minlash zarurdir.

Adabiyotlar

1. BMT yangiliklari sayti (<https://news.un.org>)
2. Нукусская декларация государств Центральной Азии и международных организаций по проблемам устойчивого развития бассейна Аральского моря (г. Нукус, 5 сентября 1995 г.)
3. Программа конкретных действий по улучшению экологической обстановки в Приаралье. 23-24 июня 1994.
4. Международный Фонд спасения Арала «Программа конкретных действий по улучшению экологической и социально-экономической обстановки в бассейне Аральского моря на период 2003-2010 гг.– Душанбе – 2003
5. Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzuciga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya. 06.12.2018y

ZO'RAVONLIK QURBONI BO'LGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH

Rasulova Feruza Fayzullayevna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrası
dotsenti, psixologiya bo'yicha (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologning zo'ravonlik qurbonlari bilan konsultativ ishlarni tashkil qilish, psixologik jarohat oqibatlarini kamaytirish va bartaraf etish usullari yoritilgan.

Bunday bolalarga konsultasiya berish jarayonida psixologning bola bilan aloqa o'rnatishi juda muhimdir va asosiy e'tibor bolaga doimo g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilishi kerak.

Kalit so'zlar: konsultasiya, zo'ravonlik, jabrlanuvchi, travma, usul, suhbat, psixoterapiya.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ, СТАВШИХ ЖЕРТВАМИ НАСИЛИЯ

Расулова Феруза Файзуллаевна
Доцент кафедры «Психология религии и педагогики»
Международная исламская академия Узбекистана

Резюме. В данной статье рассматривается основная цель работы психолога с жертвами насилия заключается в уменьшении и ликвидации последствий травматических переживаний. В процессе консультирования таких детей чрезвычайно важно для психолога установить контакт с ребенком, причем акцент следует сделать на постоянной демонстрации заботы о ребенке.

Ключевые слова: Консультация, насилия, жертва, травма, метод, беседа, психотерапия.

ORGANIZATION OF A PSYCHOLOGICAL SERVICE FOR CHILDREN VICTIMS OF VIOLENCE

Rasulova Feruza Fayzullayevna
Psychology religion and Pedagogy
International Islamic Academy of Uzbekistan
Associate Professor, Psychology (PhD)

Abstract. This article discusses the main goal of the work of a psychologist with victims of violence is to reduce and eliminate the consequences of traumatic experiences. In the process of counseling such children, it is extremely important for the psychologist to establish contact with the child, and the emphasis should be on the constant demonstration of concern for the child.

Key words: Consultation, violence, victim, trauma, method, conversation, psychotherapy.

Psixologning zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlashning asosiy maqsadi psixologik jarohat oqibatlarini kamaytirish va bartaraf etishdir.

Bunday bolalarga maslahat berish jarayonida psixologning bola bilan aloqa o'rnatishi juda muhimdir va asosiy e'tibor bolaga doimo g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilishi kerak.

Bunday vaziyatda psixologlar oldida turgan muammolar quyidagilar:

- bolaning uyat, aybdorlik, kuchsizlik hislarini kamaytirishga yordam berish;
- o'zini-o'zi qadrlash tuyg'usini kuchaytirishga yordam berish;
- yangi xulq-atvor modellarini shakllantirish;
- boshqa odamlar bilan tabaqalashtirilgan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish.

Jinsiy yoki jismoniy zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan ishlashda mutaxassislar inqirozda umume'tirof etilgan formula yo'qligi sabab har bolaga individual yondashadilar. Inqirozda qisqa muddatli psixologik maslahatlar ko'rinishidagi aralashuvlar bitta voqea sodir bo'lgan taqdirda samarali bo'ladi, uzoq davom etgan zo'ravonlikda esa, nafaqat bola bilan, balki butun oila bilan uzoq muddatli ishlashni talab qiladi.

Umuman olganda, mutaxassislar bunday bolalar bilan ishlashda eklektik yondashuvga rioya qiladilar. Eng samarali usullardan: vizualizatsiya, kognitiv xulq-atvor terapiyasi, gestalt terapiyasi, psixodrama, art terapiya, musiqa terapiyasi, raqs terapiyasi hisoblanadi. Zo'ravonlikni boshdan kechirgan bolalar bilan ishlash uchun eng mos variant - bu uchta asosiy psixoterapevtik yo'nalishni birlashtirgan eklektik, multimodal maslahat modeli ya'ni fikrlar, his-tuyg'ular, xatti-harakatlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Amaliy ishda muayyan usulni tanlash quyidagilarga bog'liq :

- bolaning yoshi;
- maslahat bosqichi, ya'ni hozirda qanday muammo ustida ish olib borilmoqda: fikrlar, his-tuyg'ular yoki xatti-harakatlar;
- bolaning kognitiv rivojlanish darajasi.

Maslahat eng yaxshi ofis yoki sinf xonasida emas, balki o'yin xonasida yoki norasmiy tarzda jihozlangan xonada amalga oshiriladi. Bu keskinlikni bartaraf etishga yordam beradi, xavfsizlik hissi va vaziyatni nazorat qiladi. Agar kattalar o'zlari va bola orasidagi masofani nazorat qila olsalar, maslahat jarayoni yanada muvaffaqiyatli bo'ladi, chunki bola kattalar bilan suhbatni boshlashda juda tajovuzkor bo'lishi mumkin. Psixolog bolaga seansga kechikmaslik va iloji bo'lsa, uchrashuvlarni boshqa vaqtga o'tkazmaslik majburiyatining namunasi bo'lishi kerak, chunki bu qiziqishning etishmasligi sifatida talqin qilinishi yoki tashvish, g'azablanishni keltirib chiqarishi mumkin. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan bola notanish kattalar bilan uchrashganda, begona joyga borganida alohida qo'rquvni boshdan kechirishi tabiiy. Ba'zan ota-onasi yoki o'qituvchilari uni qayerga va nima uchun olib ketayotganini ham bilmaydi. Bu psixologga dastlabki ishonchsizlik va salbiy taxminlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Odatda bolaning psixolog bilan uchrashish uchun motivatsiyasi yo'q. Shikastlangan bo'lsa ham, bola ijobiy fikrlar va his-tuyg'ularni boshdan kechirishga intiladi va salbiy narsalardan qochadi, shuning uchun mutaxassisga tashrif buyurish uning uchun yoqimli bo'lishi dargumon. Agar bola maktab psixologi bilan allaqachon tanish, masalan, guruh mashg'ulotlarida qatnashgan, ular bilan allaqachon ishonchli munosabatlar shakllangan bo'lsa bundan istisno.

Jinsiy zo'ravonlikka uchragan bolalar jismoniy yoki hissiy zo'ravonlikka uchragan bolalarga qaraganda ancha qiyin mijozlar bo'ladilar. Biroq, ularning barchasi o'zlarining sevganlari tomonidan kuchli og'riqni boshdan kechirganlari uchun atrofda qilargalarga ishonmaslikni o'rganadilar. Bu shuni anglatadiki, mutaxassis va bola o'rtasidagi dastlabki aloqani o'rnatish va ishonchli munosabatlarni yanada shakllantirish oson bo'lmaydi.

Zo'ravonlik qurbonlarining psixologik maslahatiga yondashuvni tanlash bolalarning kognitiv, affektiv va xatti-harakatlarida qanday muammolarga

duch kelishiga bog'liq. Zo'ravonlik qurbonlari yuqoridagi barcha sohalarda og'ishlarni boshdan kechirishlari mumkin, xususan [3.30]:

kognitiv daraja: o'zini past baholash; mantiqsiz, buzg'unchi fikrlar; qaror qabul qilish bilan bog'liq muammolar; qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topish bilan bog'liq muammolar;

affektiv daraja: g'azab, g'azab; tashvish; aybdorlik; rad etishdan qo'rqish; fobiyalar; depressiya;

xulq-atvor darajasi: janjallar; ko'z yoshlari; qo'rqinchli tushlar; boshqalardan izolyatsiya bo'lish; boshqalar bilan ziddiyatlar.

Bolalar xuddi kattalar kabi quyidagicha qarshilik qiladilar: ular gapirishdan bosh tortadilar; zo'ravonlik muammosi mavjudligini inkor etish; og'riqli mavzu haqida gapirishdan bosh tortish; ahamiyatsiz narsa haqida gapirish; ko'z bilan aloqa qilishdan saqlanish; kechikish yoki uchrashuvlarni o'tkazib yuborish; psixolog bilan aloqa qilmaydi (masalan, mebel orqasida yashirinish) va hokazo.

Zo'ravonlikka uchragan bolalarga maslahat berishda quyidagi umumiy tavsiyalar mavjud (Zinovieva, Mixaylova, 2003).

1. Faol tinglash orqali muammoni aniqlash. Bola bilan aloqa o'rnatish uchun psixolog qanday tinglashi muhimdir. Tananing erkin, bo'shashgan holatda bo'lishiga ahamiyatga ega, bu bolaga gapirishni boshlashga yordam beradi. Bola muammoni muhokama qilishga tayyor ekanligi ayon bo'lganda uchta savolga javob berishi kerak: hal qilinmagan muammo nima; bola bu muammoni qanday his qiladi; bola mutaxassisdan nimani kutadi?

2. Bolaning kutuvlarini aniqlashtirish. Psixolog bolaga uning qanday kutuvlarini qondira olishi mumkinligini aytishi kerak. Masalan, psixolog zo'rlaganni o'zi jazolay olmaydi. Biroq, bolaga va uning ota-onasiga yoki vasiylariga psixolog nima qilishi mumkinligi haqida xabardor qilinishi kerak va ularga mutaxassis bilan ishlashni davom ettirishga tayyormi yoki yo'qligini o'zlari hal qilish imkoniyati berilishi kerak. Agar oila yordam berishdan bosh tortsa, psixolog ularni bola xohlagan yordamni olishning boshqa variantlarini muhokama qilishga taklif qilishi mumkin.

3. Muammoni hal qilish bosqichlarini aniqlashtirish. Shuni esda tutish kerakki, ko'proq ma'lumotni yopiq emas, balki ochiq savollar berish orqali olish mumkin. Bola bilan birgalikda uning muammosini hal qilish uchun qilgan harakatlarining qog'ozga yozish tavsiya etiladi. Mutaxassis bunday usulni bolaga foydasiz yoki buzg'unchi harakatlardan voz kechishga yordam berish uchun qo'llaydi.

4. Muammoni hal qilishning yangi usullarini izlash. Keyingi bosqich sessiyada psixolog aqliy hujum usulidan foydalanib, bolani o'z muammosini hal qilishning yanada ko'proq yangi usullarini topishni taklif qiladi.

5. Seansni tugatish. Mashg'ulotni yakunida – psixolog boladan maslahatni unimlashgan xolda qanday fikrga kelganliklari, kelajak uchun qanday reja va maqsadlar tuzganliklarini muhokama qiladilar. Qoida tariqasida umumlashtirish 2-4 daqiqa davom etadi. Bundan tashqari, har bir keyingi konsultasiyaning boshida boladan oldingisida nima bo'lganini eslab qolishini so'rash tavsiya etiladi. Bu birinchi navbatda, bolani konsultasiya jarayoniga e'tibor berishga o'rgatish; ikkinchidan, psixolog o'z ishining samaradorligini tekshirish imkonini beradi.

Konsultasiya berish jarayonida mutaxassis uchun bolaning gapirgani emas, balki ayni paytda o'zini qanday his qilgani juda muhim. Agar psixolog savol berish o'rniga faol tinglash texnikasidan foydalansa bolani qanday muhim fikrlar va muammolar o'ylantirayotganini taxmin qilish orqali sodir bo'lgan voqeaning butun tarixini aniqlash mumkin.

Ba‘zan bolaga yordam berish istagida psixologlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri direktiv savollarni beriladi, bu esa mijozni yopilib olish va aloqadan qochish istagini uyg‘otadi. Albatta, psixoterapiyada aniqlik kiritish yoki tushuntirish uchun direktiv savollarni berish kerak bo‘lgan paytlar mavjud. Bunday holda ochiq savollar ko‘proq mos keladi. Bu savollar bolaga o‘zi uchun nima muhimligini anglashga va o‘z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi. Masalan, “Siz ota-onangiz bilan birga yashayapsizmi?” degan savoldan ko‘ra “Oilangiz haqida gapirib bering”, “Oilangiz a‘zolariga kimlarni kiritasiz?”, “Oila a‘zolaringiz bilan qanday munosabatdasiz?” kabi ochiq savollardan to‘laqonli javobni olish mumkin.

“Nima uchun?” degan savolga ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak, chunki u ko‘pincha “Nega buni qildingiz?” ayblovi bilan bog‘lanishi mumkin. Bola bunday savolni “Nega bunday ahmoqona ish qildingiz (yoki xato qildingiz)?” kabi tushunishi mumkin. Bunday holda, bola o‘zini himoya qila boshlaydi, go‘yo u o‘z qilmishiga mantiqiy tushuntirish berishni talab qiladi, garchi aslida javob ongsiz darajada bo‘lsa va psixologning vazifasi bolaga o‘z motivlarini tushunishga yordam berishdir. Odatda bunday savollarga javob faqat bitta narsani tushunishga imkon beradi: bolaning ratsionalizatsiya shaklida himoya mexanizmidan qanday foydalanishi (Ratsionalizatsiya – stressli holatlarda yuzaga keladigan psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda yaqinlashib kelayotgan salbiy hodisa har tomonlama tahlil qilinadi, uning noaniqliq darajasi pasaytiriladi, unga oldindan moslashib boriladi, kutilmaganlik effekti bartaraf etiladi.), o‘z harakatlarining sabablarini ongli ravishda tushunishga harakat qilish.

Garbarino va Stott (1989) berilayotgan savollar bolaning rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydilar va maktabgacha yoshdagi savollarni berish uchun quyidagi ko‘rsatmalarni taklif qiladilar [1.37]:

- so‘zlar soni 5 tadan ko‘p bo‘lmagan jumladan foydalanish;
- olmoshlarga qaraganda ismlarni tez-tez ishlatish;
- bolaning terminologiyasidan foydalanish;
- “Nima haqida so‘rayotganimni tushundingizmi?” deyish o‘rniga, boladan psixologning so‘zlarini takrorlashni so‘rash;
- bola tushunmagan savollarni takrorlamaslik;
- bir vaqtning o‘zida bir nechta savol bermaslik;
- olingan javobdan so‘ng, keyingi savolni berishdan ko‘ra, bolaning aytganlarini umumlashtirish yaxshiroqdir - bu bilan psixolog bolani muhokamani davom ettirishga, uning javobini kengaytirishga undaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, savol berishdan oldin mutaxassis ushbu savollarning qanchalik dolzarbligini aniqlashi kerak:

- qo‘yilgan savol bolani va uning muammosini tushunishga qanchalik imkon beradi;
- qo‘yilgan savol mijozni o‘rganishga va o‘z kechinmalarini namoyon qilishiga qanchalik hissa qo‘shadi.

Aksariyat mutaxassislar bolalik davridagi zo‘ravonlik haqidagi xotiralarning mavjud ekanligini bilishsada, bolalarning hamdardlik va e‘tiborni qozonish uchun bo‘rttirishga moyilligi doimo inobatga olinishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, ota-onalar ajrim to‘g‘risidagi ishda bir-birlariga bolalarni vasiylik qilish uchun zo‘ravonlik haqidagi ayblovni qo‘llashlari mumkin.

Psixolog va mijoz birgalikda qo‘ygan maqsadga erishilganda psixoterapevtik jarayon yakunlanishi kerak. Oxirgi sessiyada quyidagilar muhokama qilinishi kerak [2.175]:

- konsultasiya jarayonida bolada qanday o‘zgarishlar bo‘lganligi;

- qo'yilgan maqsadga erishildimi;
- bola qanday o'zgarishlarni his qilayapti, uning hayotida nima o'zgardi (o'ziga munosabat va boshqalar bilan munosabatlar);
- bola yana shunday vaziyatga duch kelsa qanday yo'l tutadi;
- bolaning yaqin kelajak uchun qanday rejalari bor, u nima qilmoqchi, maqsadlari qanday.

Bolaga tushuncha berish kerakki, psixologning unga bo'lgan g'amxo'rligi konsultatsiyaning tugashi bilan tugamasligi, shuning uchun mutaxassis uning hayoti haqida bilish uchun mijoz bilan keyingi uchrashuvlar vaqti muhokama qiladi. Boladan qo'ng'iroq qilishi, yozishi yoki qisqa muddatli tashrif buyurishini so'rash mumkin. Odatda maslahat natijalarining bunday monitoringi olti oydan kechiktirmasdan 1 oydan keyin olinishi kerak. Bundan tashqari xayrlashayotganda, psixolog har doim biron bir muammo yuzaga kelsa, eshik doimo ochiq ekanligini, bola va uning ota-onasi har doim yordam so'rashlari mumkinligini aytadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Малкина-Пых И. Г. Психологическая помощь в кризисных ситуациях – М.: Изд-во Эксмо, 2005. – 960 с. – (Справочник практического психолога).

2. Rasulova F. F. CHARACTERISTICS OF PRINCIPAL WAYS AND METHODS OF CORRECTION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR AMONG TEENAGERS //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 9. – С. 173-176.

3. Расулова Ф. Ф. Агрессивное поведение и агрессивность личности //Путь науки. – 2016. – №. 7. – С. 29.

4. Расулова Ф. Ф. Психологическая помощь практического психолога в работе с агрессивным ребенком //Молодой ученый. – 2020. – №. 16. – С. 43-45.

5. Расулова Ф. Ф. ОСОБЕННОСТИ ДИАГНОСТИКИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ //Science Time. – 2021. – №. 11 (95). – С. 19-22.



**ODAM SAVDOSI JABRDIYDALARIDA XAVOTIRLANISHNI
QAROR QABUL QILISH XUSUSIYATLARIGA TA'SIRINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Maxmudova Dilarom Axmadovna
Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti
Psixologiya kafedrasida dotsenti*

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ
ТРЕВОГИ НА ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ У ЖЕРТВ ТОРГОВЛИ
ЛЮДЬМИ**

*Махмудова Диларом Ахмадовна
ТДПУ имени Низами Факультет педагогики и психологии
доцент кафедры психологии*

**PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE IMPACT OF ANXIETY
ON DECISION-MAKING IN VICTIMS OF TRAFFICKING**

*Makhmudova Dilarom Akhmadovna
TDPU named after Nizami Faculty of Pedagogy and Psychology
Associate Professor of the Department of Psychology*

Annotatsiya: Hozirgi kunda jamiyatning barcha jabhalarida – iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ta'lim-tarbiya sohalarida faol o'zgarishlar ro'y berayotgan, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari shaklanayotgan davrda jamoalarning faoliyatini ijtimoiy psixologik jihatdan psixologiya fanining va amaliyotining ma'lumotlari asosida ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotining bosh yo'nalishini jamiyatning ma'naviy yangilanishi, ta'lim, kadrlarni tayyorlash, jamiyatda millatlararo va fuqarolik yakdillik tashkil etadi. Hozirgi kunda jamiyat o'quv, mehnat jamoalari, oilada ma'naviy -ahloqiy, sog'lom muhitni yaratish respublikamiz barcha fuqarolari, ayniqsa, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi psixologlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitlarda jamoada sog'lom muhit yaratish san'atini egallagan odamlarga kuchli ehtiyoj seziladi. Bunday jamoa hamjihatligiga bo'lgan malaka va ko'nikmalar aynan shaxslararo munosabatlar jarayonida shakllantiriladi. Xavotirlanishni shaxs xususiyati va holati sifatida farqlash uni jarayon tariqasida tushunishni talab qiladi. Ushbu yondashuvda xavotirlanish chet el psixologlari tomonidan kognitiv affektiv va hulq-atvor reaksiyalarining izchilligi bo'lib, ular stressning turli shakllarining insonga ta'siri natijasida faollashadi deb qaraladi. Xavfni kognitiv baholash xavotirlanish holatining vujudga kelishiga olib keladi yoki bu holat intensivligi darajasini oshirib yuboradi. Xavotirlanish xolatining yuzaga kelishidan xavfni kognitiv baholash birlamchi bo'lg'in hisoblasa, xavfni kognitiv tarzda ortiqcha baholash bunday holatlarning intensivligi hamda vaqt jihatidan barqarorligini baholaydi. Maqolada odam savdosi jabrdiydalarida namoyon bo'ladigan xavotirlikning iroda va tafakkur xususiyatlari bilan bog'liqligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: operativ fikrlash, vizual reaksiya, ratsionallik, intellektual faoliyat, xavotirlik, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, refleksiya, odam savdosi jabrdiydasi, psixodiagnostika, psixokorreksiya .

Аннотация: В настоящее время, в период, когда происходят

активные изменения во всех сферах жизни общества - экономике, производстве, образовании и обучении, формируется рынок труда и образовательных услуг, необходимо изучать деятельность сообществ с социально-психологической точки зрения, основанной на данных науки и практики психологии, положение имеет актуальное значение.

Основным направлением социального развития Республики Узбекистан является духовное обновление общества, образование, подготовка кадров, межнациональное и гражданское единство в обществе. В настоящее время создание духовно-нравственной, здоровой среды в обществе, трудовом коллективе, семье является одной из важных задач всех граждан нашей республики, особенно психологов, работающих в образовательных учреждениях.

В современных условиях, когда во всех сферах жизни общества осуществляются кардинальные изменения, остро ощущается потребность в людях, владеющих искусством создания здоровой среды в обществе. Навыки и способности к такой сплоченности коллектива формируются в процессе межличностных отношений. Различие между тревогой как чертой личности и состоянием требует понимания ее как процесса. При таком подходе тревожность рассматривается зарубежными психологами как совокупность когнитивно-аффективных и поведенческих реакций, активизирующихся в результате воздействия на человека различных форм стресса. Когнитивная оценка риска приводит к возникновению состояния тревоги или повышает уровень выраженности этого состояния. Если когнитивная оценка риска возникновения тревожных состояний является первичным звеном, то когнитивная переоценка риска оценивает интенсивность и устойчивость таких состояний во времени. В статье описывается связь между волевыми и мыслительными характеристиками тревожности, проявляющейся у жертв торговли людьми.

Ключевые слова: оперативное мышление, зрительная реакция, рациональность, интеллектуальная деятельность, тревожность, наблюдательность, логическое мышление, рефлексия, жертва торговли людьми, психодиагностика, психокоррекция.

Abstract: At present, at a time when active changes are taking place in all spheres of society - the economy, production, education and training, the labor market and educational services are being formed, it is necessary to study the activities of communities from a socio-psychological point of view. point of view, based on the data of science and practice of psychology, the position is relevant.

In modern conditions, when fundamental changes are being made in all spheres of society, there is an acute need for people who know the art of creating a healthy environment in society. Skills and abilities for such team cohesion are formed in the process of interpersonal relationships. The distinction between anxiety as a personality trait and a state requires understanding it as a process. With this approach, anxiety is considered by foreign psychologists as a set of cognitive-affective and behavioral reactions that are activated as a result of exposure to various forms of stress on a person. Cognitive risk assessment leads to the emergence of a state of anxiety or increases the severity of this state. If the cognitive assessment of the risk of anxiety states is the primary link, then the cognitive risk reassessment assesses the intensity and stability of such states over time. The article

describes the relationship between the volitional and mental characteristics of anxiety, manifested in victims of human trafficking.

Key words: operational thinking, visual reaction, rationality, intellectual activity, anxiety, observation, logical thinking, reflection, victim of human trafficking, psychodiagnostics, psychocorrection.

Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishi uchun barcha kasb egalari muloqot va shaxslararo munosabat sohasida yuqori malaka va tajribani egallashlari zarur. Har qanday malaka va tajriba, ayniqsa, mustaqil fikrlash tajribasi dastavval bilish jarayonlarinig rivojlanishi, bilimlarni o'zlashtirilishi bilan belgilanadi. Shaxs uchun turli narsalar haqida tashvishlanish qobiliyati xosdir, bu esa uning hayotga nisbatan befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba'zida noadekvat shaklda bo'ladi, ya'ni shaxs asoslamagan holda bu holatni boshdan kechiradi. Psixik holat sifatida xavotirlanish tushunchasining ko'pqirraligi shundan kelib chiqadiki, turli xil tadqiqotchilar "Xavotirlanish" tushunchasini turli ma'noda talqin qiladilar.


Xavotirlanish – bu odamning doimo o'zini tashvishli his etish, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishga moyilligidir. Xavotirlanishning boshdan kechirishi ham individual xususiyat bo'lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo'ladi. Xavotirlanish ruy berishi mumkin bo'lgan yoki ehtimol tushilgan noxushliklar, odat va vaziyatdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo'lishi odatda faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq – atvori bilan birga kechadi. Odatda xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi vaziyat bilan bog'liq ikki turi farqlanadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va uzoq davom etadigan noxush muloqot bilan bog'liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog'liq bo'lgan va undan tashqarida namoyon bo'lmaydigan tashvishli holatdir. Demak, shaxsda xavotirlik xususiyatlarinig shakllanish bosqichlarini, tarkibini va o'ziga xos tomonlarini o'rganish va zarur vaqtda kerakli psixologik-pedagogik choralarni ko'rish muhim. Bundan tashqari shaxsning jamoadagi o'yin, o'qish va mehnat faoliyatining samaradorligi shu uning xavotirlik va tafakkuri o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qandayligiga bog'liq. O'spirin yoshidagi odam savdosi jabrdiydalari muloqotda, yangi munosabatlar o'rnatishda atrof muhitni xavotirlik hissi asosida idrok etishi, olamga bo'lgan munosabatlarini namoyon etishi ularning qayg'uli kechinmalari bilish jarayonlarini rivojlanishi va boshqa ko'pgina omillar ta'sir etadi.

Biz xavotirlikni namoyon etish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarimiz asosida olingan natijalar taxlili o'spirin yoshidagi odam savdosi jabrdiydalarida muloqotda xavotirlik hissi namoyon bo'lishi jarayonidagi holatga doir quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi.

1-jadval

O'spirin yoshidagi odam savdosi jabrdiydalarida xavotirlik hissi diagnostikasi natijalari

havotirlik	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
Shaxsiy xavotirlik	5,39	1,45
Vaziyatli xavotirlik	5,85	2,03



O'spirin yoshidagi odam savdosi jabrdiydalarida qaror qabul qilishini xavotirlik hissi bilan bog'liqligini tahlil qilish psixologik jihatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Bu mamlakatimizda psixologiya fanining mazkur yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar uchun yangi jabxalarni ochish uchun xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Birinci test natijalariga ko'ra odam savdosi jabrdiydalarida xavotirlik hissini aniqlashdagi ko'rsatkichlari o'rtacha darajada ekan (5.85 ± 1.45). Bundan ko'rinadiki, ular vaqtga belgilangan topshiriqlarni bajarishda o'z tushunchalariga ega bo'lsalar-da, ayrim topshiriqlarni bajarishda qunt qilish, diqqatni jamlashda shoshma-shosharlikka yul quyganliklari, fikrlarini bir joyga to'plashdan ko'ra, ularning tarqalib ketishga yo'l qo'yganliklari namoyon bo'ldi.

Bunda test topshirigini bajarish uchun berilgan 3 daqiqali vaqtning sinaluvchilarda vaziyatli xavotirlik hissining yuqoriligi vaqtning qisqadek tuyulganligi va operativ fikrlashga imkon topa olmaganliklari sabab bo'lishi mumkin.

Odam savdosi jabrdiydalarida xavotirlik hissini shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan Spilberger-Xanin metodikasini ikkinchi topshirig'ini bajarishga qaratilgan ko'rsatkichlari (5.36 ± 2.03) o'rtachadan biroz yuqori bo'lib, ularda mavhum, hatti harakatlardan ko'ra yaqqol- vaziyatli uslubda fikrlash ustunlik qilayotganligidan dalolat bermoqda.

Odam savdosi jabrdiydalarining axborotlarni ko'rish orqali (vizual) qayta ishlashlari va mantiqiy xulosalashlarida vizual reaksiyaning o'rni muhimdir. Odam savdosi jabrdiydalaridagi vizual reaksiyaning o'rganish natijalari ham o'rtachaga yaqin darajada ekanligini ko'rsatdi (28.42 ± 2.03). Shaxsning aqliy rivojlanishida fazoviy voqe'lik, illyustratsiya, grafik va chizmalar, modellarni ko'rgazmali taqdim etish ularda vizual intellektning namoyon bo'lishiga ijobiy sabab bo'lishi mumkindir. Shu tufayli zamonaviy shaxs korreksion ta'sirlarda taqdim etilayotgan axborotlarni ko'rgazmali tarzda taqdim etishning muhimligiga alohida e'tibor berish muhimdir. Bu borada amaliy psixologiyada korreksion mashqlarni qo'llashda ko'rgazmali vositalardan foydalanish masalalarini tashkil etishga e'tibor berish lozim.

Qaror qabul qilishda xato imkoniyatlarni istisno qilish metodikadagi

mantiqiy fikrlash orqali qaror qabul qilishni baholash mezonini bo'yicha topshiriqlarning to'g'ri bajarilganligi xamda ularni bajarishga ketgan vaqt sarfi hisobga olinadi. Birinchi va ikkinchi topshiriqlarni bajarishda odam savdosi jabrdiydalarining fikrlash jarayonidagi qaror qabul qilish operatsiyalari bilan bir qatorda kuzatuvchanlik, operativlik va vizual mulohozalashga ham zarurat tug'iladi. Shu jixati bilan odam savdosi jabrdiydalarining topshiriqlarni bajarishda ortiqcha vaqt sarflashlari ma'lum bo'ldi.


2.-jadval

